



G'ABIT MUSREPOV
 ABISH KEKILBOYEV



TURKIY ADABIYOT
 DURDONALARI

G'ABIT MUSREPOV
 ABISH KEKILBOYEV





G'ABIT MUSREPOV ABISH KEKILBOYEV



"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

Tabrir hay'ati:

Xayriddin Sul-ton - hay'at raisi,

Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sul-ton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Yergash Abduvalitov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiya davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tili davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromning ramzidir.

SO'ZBOSHI

Qozog' xalqining peshqadam adibi **G'abit Musrepov** Shimoliy Qozog'iston viloyati Jambil tumani Janajol ovulida tug'ilgan. U dastlab ovul mullasidan arab harflarini o'rgangan. Yoshligida ikki yillik rus maktabini, so'ngra to'rt yillik rus o'rta maktabini tamomlagan. Bo'lajak adibning adabiyotga alohida e'tibor qarata-tishiga adabiyot o'qituvchisi Beket Utetileuovning ta'siri kuchli bo'lgan. 1923-1926-yillarda Orenburgdagi ishchilar fakulte-tida Sobit Muqanov bilan tahsil olgan. Uzoq yillar mobaynida Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi raisi lavozimida ishlagan.

Qozog' adabiyotining rivojlanishida G'abit Musrepovning o'rni beqiyosdir. Uning "Qozog' soldati", "Uyg'ongan o'lka" "Avto-biografik hikoya" si, "Etnografik hikoya" si, "Umr yurishi", "Oy-gul cho'ponning bir kuni", "Oyjon kechalari", "Qo'shchalqar", "Qiron qush qo'shig'i" roman va hikoyalari qozog' xalqi hayotining turli davrlarini aks ettirib, ularda murakkab inson hayotining turfa to-monlari, eng insoniy fazilat-lari tasvir etilgan.

Atoqli yozuvchi, davlat va jamoat arbobi **Abish Kekilboyev** 1939-yil 6-dekabrda Mang'istov viloyatiga qarashli Ondi ovu-lida tug'ilgan. Forobiy nomidagi Qozog' davlat universitetida tahsil olgan, so'ng "Qozog' adabiyoti" gazetasida bo'lim mudiri lavozimida ishlagan. Qozog'iston mustaqilligining ilk yillaridan Prezident devonining madaniyat va millatlararo munosabatlar, milliy siyosat va madaniyat boshqarmasi boshlig'i hamda Davlat maslahatchisi lavozimida ko'p yillar mehnat qilgan.

Abish Kekilboyev mohir yozuvchi sifatida qozog' adabiyoti-da tarixiy romanlar bilan bir qatorda, kichik-kichik janrlarni ham rivojlantirdi. Uning "Urker", "Yelen-alan" "Afonaning oxiri", "Bobo", "Kuy", "Avtomobil", "Qush qanoti", "Toshbaqa o'ti", "Kerakli odam", "So'nggi bekat", "Mana ajoyib" kabi asarlarida qozog' xalqining tarixiy hayotining haqiqiy manzaralari tasvir-

OZ. M. K. O. N. I. N. I. N. I.
-3- M. P. O.
№ 5721 (da)


langan. Uning asarlarini dunyoning ko'plab xalqlari o'z tillarida o'qidi, ayniqsa, nemis xalqi yozuvchining asarlariga katta qiziqish bildiradi. Masalan, "Dasht balladalari", "Afsonaning oxiri" kitalablari nemis tilida ikki marta nashr etilgan. Ushbu asarlarga Leonard Koshut, Gerbert Krempien, Klaus Bor Shnayder, Zigfrid Kleinmixel, Hyelmut Zemke kabi tanqidchilar yuqori baho berishgan.

Abish Kekilboyev tarjima qilgan V. Shekspir, L. Tolstoy, A. Chexov, Ch. Aytmatov, T. Ibsen, K. Gotsi, M. Frish, G. Mopassan asarlarining qahramonlari qozoq kitobxonlarining sevimli qahramonlariga aylangan.

U 1991-yilda "Qozog'iston xalq yozuvchisi" faxriy unvoni va Davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

Yergash Abduvalitov
pedagogika fanlari doktori, professor

G'ABIT MUSREPOV



— Qayoqqa ketar ekan-a? Bizning ovulchadan olinadigan bir yillik soliqning o'zi bir uy jonni o'n yil boqishga yetadi-ku? Podsho deganing sira to'ymaydigan balomi deb qo'ydim! — deydi Rahmat degan mo'min kishi.

— Qiziqmisan, olim-soliq to'laydigan faqat sening ovulingmi? Ehhe, biznikiga o'xshagan ming-ming ovul, ming-ming bo'lis bor dunyoda, — deydi uning ukasi Qo'joq.

— Qo'y-e, ming-ming ovul yo'qdir... Ming-ming deganing juda ko'p-ku. Har yili shuncha soliq olaversa, bu podsho deganing yorilib o'lar! — deydi umri bino bo'lib ostonadan hatlab chiqmagan, o'ngacha sanashni ham bilmaydigan Do'san degan kishi.

— Yorilib o'lar dedingmi? Ehhe, otam zamonidan beri shu soliqni to'lab kelyapmiz. O'lsa shu vaqtgacha yorilib o'lardi, — deydi Qo'joq. U Qo'rg'on shahrida hammolchilik qilardi. Bu yerda onda-sonda bir kelib ketadi. Shuning uchun ham bu yerdagilar ishonishadi.

Shu haqdagi bahslar, ko'pincha, tugallanmay chala qolardi. Ba'zan yana shu haqda gaplashishar, biroq buning qanchalik muhim gap ekanligiga odamlarning aqli yetmasdi. Ular bir xil gap-so'zlar faqat biy-bo'lis ovulidagina bo'lishi kerak, deb o'ylashardi. Bunday bahslarga kambag'allar aralashishi, ularning fikricha, to'g'ri kelmaydigan, g'ayritabiyy hol.

Ayniqsa, bunday "katta" bahslardan "To'rt uy turkman" deb ataladigan bizning ovul chetda qoladi. Shuning uchun ham bolalik chog'imda esimda qolarli birorta voqea bo'lmagan, shekilli. O'sha paytda, bu qanday qashshoq zamon deb o'z turmushidan noligan birorta odam esimda yo'q. Yo aslida shundaymikan?

O'sha davrdan esimda biror tuzukroq gap qolmagan. Faqat quyidagilarni zo'rg'a eslayman: otamiz ba'zida kambag'al, ba'zida o'rtahol yashardi. U endi kambag'allikdan o'rtaholga qo'yib kelayotgan mahalda to'satdan kambag'al bo'lib qolar edi. Albatta, otam boy bo'lishni juda xohlar edi. Bu uning eng ezgu niyati bo'lsa kerak. Har yili qishda keladigan yut bilan yildan yilga oshib turadigan soliqlar ba'zida otamning qo'lini kalta qilib ketisa, ba'zida bisotidagi borini shilib ketar edi.

AVTOBIOGRAFIK HIKOYA

Men eskicha yil boshi hisoblangan Navro'z kuni o'tovda tug'ilibman. Qozoq dalasining eng sovuq yerlarida istiqomat qiladigan bizning ellarning ayrimlari yigirmanchi asrning boshlarida ham qishni o'tovda o'tkazar ekan.

U paytlarda yer ham qimirlamagan, quyosh u yoqda tursin, oy ham tutilmagan, bo'ron ham bo'lmagan, hatto itlar ham suyak talashmagan. Mensiz ham uvali-chuvali oilamizda bolalar ko'p bo'lgan, shularning eng kenjasi — menga ham o'shalarga mos qilib ot qo'yilgan.

Albatta, u kunlardan xotiramda hech narsa qolgan emas. Bo'lisim kim, podshohim kim, payg'ambarim kim, sinfim qanaqa — bular haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan bo'lsam kerak. Bunday gaplarni yoqtirmasdim. U kezlarda ancha o'jar bo'lganga o'xshayman.

— Qaysar eding-ku, biroq yig'lamasding, — deydi sho'rlik oyim o'sha kunlarni eslab.

Asli o'sha paytlarda bo'lib o'tgan ko'p voqealar bizning ovulimizga ta'sir etmaganga o'xshaydi. "Osov to'y, tentak yig'in", botirlik, mardlik haqidagi gaplarni ovul qariyalari ertak qilib aytib o'tirar edi. Naq yonginamizda, to'rt chaqirimgina keladigan joyda To'rsan ovuli bor. O'sha ovulning ikkita yigiti bo'lis, bir yigiti to'ra. Qo'sh qo'ng'iroqli izvosh bu ovulga har kuni hech bo'lmasa bir marta kelib ketadi. Bu qo'ng'iroqlarning el tinchligi, quvonchi uchun jiringlamaydiganini ovul kishilar yaxshi bilard edi. Ular:

— Yana qanday soliq kerak ekan? — deyishib to'ng'illashib ham qo'yishadi. Biroq boy ovuli atrofidagi kambag'al ovullar doim chetda — yaxshi xabarlardan olisda bo'ladi. Zamon ularga o'z zulmini o'tkazadi-yu, ammo dunyoda bo'layotgan gaplarga aralashitirmaydi.

Chamasi, to'rt yoshlarda bo'lsam kerak. Otamiz Hamid, Sobit deydi ikkita akam bilan meni sunnat to'yi qilishmoqchi bo'libdi. Bostirib kiyib olgan qalpog'i bilan shu qalpoq rangidagi buvruq soqolidan basharasining qanaqa ekanligi bilimmaydigan bir domla qo'lidagi pichog'ini yalt-yult qilib qayrab o'tirardi. O'tgan kuni kechasi u xuddi shu pichog'i bilan go'sht kesib yeb o'tirgandi. U onda-sonda pichog'ini tepadan tomib turgan chak-kaga tutar, shu bilan qayroqning qop-qora zangini yuvaradi. Pichoq go'yo bizlarga o'qtalganday yilt-yilt etib qo'yardi. Ota-onalarimiz bizlarni aldab-suldab rosa maqtashib, ko'ndirmoqchi bo'lishardi. Aytishlaricha, har qaysimizning bittadan "sunnat otimiz" bo'lar ekan, "sunnat to'yi" bo'lganda ana shu sunnat otimizga minib chiqar ekanmiz, kelgusi yili o'qishga borar ekanmiz, aqlli bo'lar emishmiz...

Ana, o'tovning bir chetiga ko'rpa to'shala boshlandi. Domla namozga o'tirdi. Ular hozirlik ko'rman deganlaricha, bizlar uchovimiz bir-birimizga imlashib tashqariga chiqib ketdik. Ovulimiz daraxtzor orasida edi. Yugurub-yelib ovuldan ancha uzoqlashib ketdik. Uyimizda bitta qari buvruq ot bo'lar edi. Uchalamizning esimizga ham o'sha ot tushibdi: go'yo sunnat to'yda bittadan otlik bo'lamiz-u, ot yetmasa, "sunnat"dan omon qoladiganday edik. Biroq biz o'ylagancha bo'lib chiqmadi. Ichimizda kattamiz Hamid bu masalani bizlarga qaraganda chuqurroq o'ylabdi.

— Sunnat qilinmagan bolaga xotin olib bermaydi! — dedi u. Bizlar unga:

— Olib bermasa bermas! Xotinni nima qilamiz? Maza qilib o'ynab yuraveramiz-da! — degan edik, u o'zining gapini ma'qullab, bizni urmoqchi ham bo'ldi. Sobit ikkalamiz uning do'qiga parvo qilmay, endi daraxtlar orasiga yashirinmoqchi bo'lib turganimizda orqamizdan kimlardir mahkam ushlab, uyga ke-lishdi.

Mana uchalamiz to'shakda qator yotibmiz. Hammamiz ham buvruq otni olgimiz keladi. Domla: "sening oting qanaqa?" deb so'raganda "buvruq ot" desang bas! Ot seniki bo'la-di-da...

Hamid ikkalamiz chetda, Sobit o'rtada yotibdi. Domla ishni mendan boshlasa, buvruq ot, nazarimda, menga tegadiganday. O'rtada yotgan Sobit Hamidga aytishga botinolmay, menga, kel, joyimizni almashiramiz degan edi, men ko'nmadim. U meni chimchilab, tepib, shivirlab so'kdi...

Domla ishga tushdi. U, avvalo, narigi chetda yotgan Hamiddan so'radi:

— Sunnat to'yingga minib chiqadigan "Sunnat oting qanaqa?"

Hamid xavfsirab yotgan ekan, tez javob berdi:

— Buvruq ot!

Domlaning maqsadi bolaning ko'nglini boshqa narsaga chalg'itish ekan. Qattiq og'ridi, shekilli, Hamid "voy, voy, voy!" deb baqirib yubordi.

Buvruq otni Hamidga atashganda Sobit endi bir umr otsiz qoladigandek yig'lab yubordi. Navbati kelib, domla undan "Sunnat otini" so'ragan edi: "Ot-im y-o'-o-q" deb bir narsaga qattiq xo'rliqi kelganday o'tovni boshiga ko'tarib ho'ngrab yig'ladi. Sobit "otim yo'q" deganda, negadir mening ham xo'rligim kelib ketdi. Navbatim kelganda men ham: "mening ham otim yo'q" deb javob berdim, qizarib-bo'zarib.

Onam sho'rlik tepamizda har qaysimizga bir termilib yig'lab o'tirardi. Bo'tboy degan amakimiz bor edi, u xo'rliqi kelib, chidayolmay domlaga qarab baqirdi:

— Nima bu, oti bor-yo'qligini hadeb so'rayverasiz?.. Bittadan ot mingizmoqchimidigiz? — keyin u bizlarni yupata boshladi. — Yig'lamalaring, o'zim ot olib beraman. Mana bu otalaring ot olib berarmidi senlarga! — Bizlar quvonib ketdik. "Sunnat to'yi" bo'lmaganiga juda xursand bo'ldik. Chunki bizga hech kim ot olib bergani yo'q-da...

Ota-onamizdan har kuni eshitadigan ko'pgina orzularimizga yetolmadik. "O'qishga borasanlar" degan so'zi rost chiqdi. Oradan ikki yil o'tdi. Yoz kunlari ko'l yoqasida, qish kunlari esa o'z hayotlarini qalin daraxtzor ichida o'tkazadigan besh-olti ovul bolalarini savodli qilish uchun domla yolladi. Domlaning bir yillik mehnati haqida bitta buzoqli sigir, olti ovulning fitr bilan sad-aqasini berishmoqchi bo'libdi. Janozada tushgan narsalar ham

shuniki emish, payshanba kunlari bolalar domlasiga "payshanba-lik" olib borib turishi kerak: u ikki tiyindan kam, besh tiyindan ortiq bo'lmaymish. Ovul kattalari shu haqda maslahatlashib, qir boshida ko'proq turib qolishdi.

Ularning gapiga qaraganda, domla bolalarini har uyda bir hafta o'qitadi. O'qishga o'z bolalarini bergan odam domlaning bir haftalik ovqatini ham ko'tarishi kerak, bolalar ham o'sha uyda o'qishi kerak. Bir haftadan keyin domla navbatdagi uyga o'tadi.

Dastlab o'qishga borgan kunlarimiz domla arabcha yigirma to'qqiz harf yozilgan qog'ozni hamma bolalarga bittadan ulashtirib chiqdi. Malla mo'ylovi endigina sabza otib kelayotgan yosh domlaning yonida xipchin turar, uning ilon dumiday ingichka uchi go'yo bolalarga qarab qimirlab-qimirlab qo'yayotganday bo'lardi. Buni ko'rgan bolalarning o'qimasdan iloji yo'q edi. O'qimay desa bo'lmasdi. Biroq qo'rqitish, po'pisa bilan bir narsani o'rgatib bo'ladimi...

Bolalar uy to'ridan ostonagacha yoshiga qarab o'tqazildi. Yigirma bolaning ichida eng kichigi men edim, menga joy bo'sag'adan tegdi. Ba'zi uylarda qo'zi-uloqlar bilan yonma-yon o'tiraman, ba'zi uylarda esa iti yonimda yotadi. Domla oramizdagi eng katta bolani oldiga chaqirib olib, tirnog'ini yaxshilab olgan barmog'i bilan boyagi bergan bir varaq qog'ozni ko'rsatdi.

— Alif, be, te... — dedi u. Keyin haligi bolaga shu so'zlarni uch marta takrorlatdi. So'ngra: — Bor, o'rningga borib o'tir, o'qi, — dedi-da, boshqa bolani oldiga chaqirdi.

Domla shu yo'sin bolalarning yarmini oldiga chaqirguncha, boshqamiz: "Alif, be, te" degan uch og'iz so'zni yodlab ham ol-dik. Ammo bu so'zlarning ma'nosiga tushunmasdik. Domla biz-larni ikki yil o'qitib, buzoqli ikki sigir, o'ntacha odamning janoza haqini, olti ovul fitr-sadaqasini olib eliga qaytayotganida ham biz-lar hech narsani tushunolmay qolavergan edik.

Eskicha o'qishda "a" harfi sakkiz-to'qqiz turli bo'lib o'zgaradi. Masalan, "o" harfini olaylik. Bu, eng avvalo, "o" emas, "a", bu harfning "alif" degan nomi ham bor, tayyoqqa o'xshagan shakli ham bor. Bola dastlab harfning otini yodlaydi: alif...

Kelasi safar bu harfning osti-ustiga qo'yiladigan nuqtalarini o'rganadi.

— Alifda yo'q, be ostida bir nuqta, te ustida ikki nuqta...

Biroq, bu harfning qanday tovushligini bola hali bilmaydi.

Bu harf qatorasiga uchta tovush bo'lib o'qiladi:

— Alifsin— a, albasin— i, olibbutur— u, a-i-u...

Shu "a-i-u" degan uchta tovushni arabchadan hozirgi yangi alifbomizga ko'chirsak, quyidagicha o'qilgan bo'lar edi: a, ai, au...

Ulug', undirish, un, er degan so'zlar — aug'lug', aundurish, aun, air, deb yozilar edi.

Bir harf yana uch turli o'zgariladi:

— Alifki-kusin-an, alifki-kasin-en, alifki-kutrun-an, en-un...

Bu harf ba'zan "o" bo'lib ham ketadi. Bu harfni ba'zi bir balog'atga yetgan, ovozi yo'g'on bolalar ham talaffuz qilolmaydi, hatto domlaning o'zi ham durustroq tushuntirolmas edi.

Shunday qilib, bir harfning sakkiz-to'qqiz xil o'qilishini hisob-ga olsak, arab alifbesidagi yigirma to'qqizta tovush 232-261 harf bo'lib chiqadi. Ana shunday qiyinchiliklarga uchragan bola bir yil o'qisa ham, xat tanimay qolaveradi. Tovush nima, harf nima, imlo nima — buni bolalar ajratolmasdi. Eng yaxshi o'qiydi degan bola ham faqat yod oladi. Men ham o'sha yod oladiganlardan biri bo'lgan bo'lsam kerak.

Qo'bizchi, do'mbirachi, qo'shiqchiga ixlosmand, uchqur ot bilan qushga xumor Bo'tboy amakimiz qiy-chuv ko'tarishib o'qishayotgan bolalar oldiga tez-tez kelib turadi. Kattalardan bitta-yarimtasi kelsa bolalar juda qiroat bilan o'qishar edi (eski o'qish usulida tovush chiqarmay o'qishning o'zi yo'q-ku).

— Alifki-kusin-an, alifki-kosin-en, alifki-kutir o'n-an-en-o'n!... Bo'tboy amakim bolalarning bir maqomda o'qishiga biroz qu-loq solib o'tiradi-da, keyin domladan:

— Shu sening "alifki-kusin-an" deganing nima o'zi? Shular ham Xudoning so'zimi? — deb so'raydi ensasi qotib. U jiddiy, sa-lobatli kishi edi, domla qo'rqa-pisa javob beradi:

— Nima bo'lardi, o'qish-da, Bo'taka... Nima ekanini bir Ol-loning o'zi bilmasa, biz qayoqdan bilaylik... — deydi u. Shunda

domlaning ko'k ko'zlari mo'ltirab, mo'ylovi uchib-uchib ketadi. Bizga o'zini jiddiy, qattiqqo'l qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan domlaning ham qo'rqadigan kishisi borligini ko'rib, ich-ichimizdan quvonar edik.

— O'rgatmoqchi bo'lganing "an, en, o'n" bo'lsa, shularning o'zini o'rgatib qo'ya qolmaysanmi? Nima qilasan bu bechoralarni qiynab! "Alifki-kasin" degan so'zning nima keragi bor? Bir haftadan keyin yana kelaman, shunda ham bolam mana shu so'zlardan chiqmasa, o'qishingdan chiqarib olaman! — deb do'q qilgan bo'ldi Bo'tboy amakim domlaga.

Bir haftadan keyin ham bolalar shu so'zlardan nariga o'tisholmadi, albatta. Bo'tboy amakim ham bolasini o'qishdan chiqarib olib ketolmasdi.

Bo'tboy amakining erga uzatilgan Fotima degan qizi bor. U vaqti-vaqti bilan kelib turadi. Fotima istarasi issiq, odamshavanda, dilkash qiz edi. Ko'nglidagisini yuzidan bilib olsa bo'ladi. Bunday qizlar ovulda sanog'liq. O'sha qizning yorqin xotirasi hali-hali esimdan chiqmaydi.

Fotima qo'bizga ham, do'mbiraga ham juda usta. U eski xalq kuy va ashularini ijro etganda kishini eritib yuboradi. Do'mbira uning qo'lida go'yo bulbul bo'lib sayraydi, kishida nozik his-tuyg'ular uyg'otib, uning yurak-yuragiga borib tegadi. Fotimaning ovozi ham qo'ng'iroqday edi.

Ko'pchilik ichida bema'lol ashula aytgan qozoq qizini men shunda ko'rganman. U ashula aytib, do'mbira chertganda otasidan boshqa qo'shiqchi, do'mbirachilarning hammasi boshlarini quyisolib o'tirar edi.

Kechqurulari, oydin kechada, ko'l bo'yida otasi qo'biz chaling, qizi do'mbirada jo'r bo'lganda, boshqa hech kim do'mbira bilan qo'bizni jo'r qilolmas edi.

Fotima kelganda Bo'tboyning uyi odamlarga liq to'ladi. Yaqin-yiroqdagi ellarning qo'shiqchi, do'mbirachilari yig'ilishib, qadim zamonlardan beri xalq orasida mashhur bo'lib kelgan "Oqon", "Birjon" dostonlaridan qo'shiqlar aytishadi. Bu paytlarda Abay o'lanlari hali mashhur emasdi, Qurmong'ozni kuyllari faqat Oktabr revolyutsiyasidan keyingina el ichida aytila boshlandi.

Har qalay, o'sha paytda Bo'tboy ovulining yon-atrofidagi odamlar do'mbira, qo'biz chalishni o'rgana boshladilar. Bu hol yoshlarga zo'r ta'sir qildi.

Xuddi ana shu davrda Qozon, Toshkent, Buxoro shaharlari orqali turli qissalar tarqaladi. Qorong'i ovul uchun "Sol-sol" ham qissa, "Qiz Jibek" ham qissa. Biroq Bo'tboy faqat "Qiz Jibek", "Qo'zi-ko'rpesht", "Go'ro'g'li" dostonlarinigina yoddan biladi. U odamlar oldida "Qo'zi-ko'rpesht"ni aytib o'tirarkan, Qo'darni rosa so'kardi-da, "Qiz Jibek"ni aytib o'tirib:

— Padaringga la'nat, bir mulla bilan bir xo'ja mana bu joyini buzib qo'yibdi. Ilgari bunday aytilar edi, — deb ora-sirada tuzatib o'qir edi. O'sha kezlarda quloqqa singib qolgan o'lanlarni men ilgariylari matbuotda e'lon qilgandim. U "Qiz Jibek"ning amengereklikka qarshiligini ko'rsatadigan misralar edi.

Og'ang ochgan ko'rpani sen ochguday,

Ne bo'ldi yosh boshingdan, sho'rli bola?!

Bo'tboy bu so'zlarni dona-dona qilib, alohida urg'u bilan aytadi. Bordi-yu, davrada kelini yo yangasiga uylangan odamlar o'tirsa, u o'lanini to'xtatib:

— Senlarni aytyapti! — derdi. Ular uyalib yerga qarashardi.

Bizlar uch yoz va ikki qish domlaning qo'lida o'qib ancha narisani yod bilib qolganimizda, to'ng'iz yilining yutiga duch kelib hammasi bilan bir yo'la xayr-ma'zur qilishdik. Domla bo'shab ketdi, albatta.

Shundan keyin men na eskicha, na yangicha, na qozoqcha o'qigan emasman. Otam o'sha mahallarda o'zini ancha o'nglab olib, o'rtaxol dehqonlar qatoriga qo'shila boshlagan ekan-u, yut kelib yana qashshoq bo'lib qolibdi. Eski ovul odamlari chorvachilik ishida, umuman, tirikchilikda naqadar beg'am, naqadar yalqov ekanligini men keyinchalik tushundim. Men ham o'sha kezlardagi yomon fazilatarni to'ng'iz yilining kasr-u kasofatidan, deb o'ylovchilarga qo'shilar edim.

Bizning kambag'al ovullar juda xarob bo'lishdi. Yaylovdayoq atrofidagi o'tlarni o'rdirib boy og'aynilaridan uzoqroqqa ketol-

may, shu atrofda yurgan odamlar kuzda birdan yutga duch keldi. Chunki bu atrofning o'tlari yozdayoq o'rib tashlangan edi.

O'sha paytlarda oilamizda o'n olti jon bo'lib, shulardan to'rttasigina ishga yarardi, qolganlari ovqatga jaf o'ralgan yalangoyoq bolalar bilan qari-qartanglar edi. Haligi ishga yaraydiganlardan uch tasi birovlarining eshigida yollanib yurardi.

Bor bir-ikkita yilqini ham "jinni bo'ron"¹ ko'p ko'rdi. Biroq qo'yilarimiz ochdan, bir-ikkita sigirlarimiz tishdan qolib o'ldi. Ochlilik balosi yerto'lamizning to'rt burchagiga mahkam o'mashib oldi. Quruq suyak, ilik yog'i, o'limg'itko'g'sht bilan bir amallab kun kechirib turdik.

Uyning yarmisini egallab turgan katta pech ustidagi qora qozon qaynab turadi. Uning ichida faqat suyak qaynaydi. Ilik suyak pishirilgan kun sho'rva betiga yog' ko'proq chiqadi-yu, qozonning bir chekkasiga yig'ilib qoladi. Biz payt poylab, hech kim yo'qligida sho'rvaning betida qalqib yurgan yog'ni qoshiq bilan o'g'irlab ketamiz. Yerto'laning ichini bug' bosib, qorong'i tushganda yana shunday qilamiz. Mabodo qo'lga tushib qolg'udek bo'lsak, bir qoshiq sho'rva yog'i uchun uzzukun kaltak yeyishga ham rozi edik...

Choyga qovurmoch qo'yishadi. Qovurmochni buvimiz bo'lib beradi: kattalarga ikki qoshiq, bolalarga salkam bir qoshiq tegadi. Bu payt hammaning ko'zi kampirning qo'lidagi qoshiqda bo'ladi, hamma ham ko'proq olishning payida:

— Qoshig'ingni silkitsang-chi!

— Botiribroq ol! — deb luqma tashlab turishadi.

— Menga kelganda qoshig'ing nuqul yuzadan qalqiydi! — deydi kimdir.

Kampirning oriq qo'llarining qimirlashida ham ko'p gap bor: yarim angishvona yo bo'lmasa o'n dona qovurmoch qo'shilsa yoki olib qolinsa, buni termilib turgan o'ttiz ikki ko'z har qaysi o'zicha yo'riydi. Nazarimizda, kampir go'yo bir o'lchovga o'xshardi.

Biz — bolalar, iloji boricha, kampirga yaqinroq o'tirishga, hatto kechasi orqasini qashib qo'yishga, ishqilib, kampirning ko'nglini olishga harakat qilardik. Kampirga yaqin borolmaganimiz cholg'a, og'aga yo bo'lmasa oilada obro'l'iroq biron-tasining yoniga

¹ Qattiq dovulni qozoqlar shunday atashadi.

borib o'tiramiz. Chunki ularga mo'ltirab qarasang, yo piyolasini uzatib yuborsang, yoki o'rni kelganda "qovurmochingiz sochilib ketyapti" deya olsang, xullas, ularning ko'ngliga yoqadigan birov ish qilsang, besh-o'n dona qovurmochga saxiylik ham qiladi. Ammo ba'zi paytlarda tuppa-tuzuk odamlar ham dasturxon ustida topganini tomog'iga urib, ro'yxush bermay qo'yadigan mahallari ham bo'ladi.

Ba'zan piyolasini uzatayotib, kattaroq odam oldidagi qovurmochni o'zimiz tomonga sochib yuboramiz. U buni darrov payqab: "qayoqqa olib ketayapsan?" deb bitta donasini ham qoldirmay oldiga tortadi-da, bizlarga o'qrayib qaraydi. Bizlar undan uyalmaymiz ham, ulushimizga teggan bir qoshiq qovurmochga yetti-sakkiz piyola qaynagan suv ichamiz. Suvni istagancha ichishning mumkin, hech kim hech narsa demaydi...

Jo'jabirday jonga ovqat yetkazish ham ancha qiyin. To'ng'iz yilining qishi ham, yozi ham ocharchilik girdobida o'tdi. Mana shunday qiyinchilikda otam aka-ukalarim bilan chiqisha olmayenchisini oldi: bizga bir ola qo'y, bir qisir sigir, bir toy tegdi. Otam ikki katta o'g'lini boshqa bir kishiga yolladi, meni hali kichkina bo'lganim uchun qo'lida olib qoldi.

O'n oltinchi yili mardikorchilikka ketgan tog'am kelib, meni, mollaringa qarab tursin, deb otamdan so'rab olib ketdi. Uning o'ziga yarasha mol-mulki, ikki yosh bolasi bor edi. Tog'amlar turadigan O'bag'an soyi bo'yidagi ovul odamlari qishin-yozin baliq ovlarkan, ekin ekarkan. Ular ba'zida ko'chib-qo'nib yurishsa ham, asosan, o'troqlashib qolgan ekan. Yoz bo'lsa, ular faqat to'rt-besh chaqirim joy atrofida ko'chib-qo'nib yurarkan. O'bag'an soyi yoqalab tushgan ovullarda to'q'stonayga yetguncha o'troq qozoqlar uchrar ekan.

Men bu yerlarni shu vaqtgacha kelib ko'rmagan edim, chunki uzoq edi. Yaqinda kelsam, ular ekinlarini o'rib yig'ayotgan ekan. Avval ularga qarashdim. Keyin baliq tuta boshladim.

O'bag'an soyida muz ikki enlik qotsa ham, baliqchilar baliq ovlashar ekan. Muz ming joyidan teshilgan: to'rt, qarmoq solingan... Hammasini ko'rib ulgurolmaysan kishi! Hatto to'rt solib ham o'l'gudek charchaysan. Tog'-tog' bo'lib uyulib yotgan tirik baliqlar

quyosh nurida xuddi Kavkaz xanjaridek yaltirab, muzni chapatilab yotadi. Cho'rtan, sazan, qora baliq, laqqa baliq... Kumushday yaltillagan oq chavaqlar...

— Jiyan, baliqni yig'aver, — deydi tog'am.

Baliq ovlash mavsumi qish o'rtalariga kelib tugay deb qoldi. Qo'shni ovulda ikkinchi sinfgacha ruscha o'qitadigan maktab bor ekan. O'qituvchi olti so'm pora bilan meni yanvar oyida birinchi sinfga qabul qildi. Ismini haligacha bilmayman. O'zini "Oqto'be yigiti" der edi. Biroq uning olti so'm pora olgani hali-hali esimda: chunki o'sha mahalda olti so'mga to'rt baliq berar edi.

Ko'p o'tmay, u ishdan bo'shatilib, o'rniga Beket O'tetilevov degan atoqli o'qituvchi keldi. Bunday yaxshi o'qituvchini men keyinchalik juda kam uchratdim. U chinakam o'qituvchi edi, bolalarni jon-dilidan sevardi. U ba'zan darsdan keyin bolalarni olib qolib qiziq-qiziq hikoyalarni aytib berar, ko'pincha, o'zi tarjima qilgan Krilov masallaridan o'qib berar edi. O'qtin-o'qtin Abay, Ibroy asarlaridan ham o'qib berib tushungan-tushunmaganligimizni so'rardi. Lekin bolalar uning gapirib berganlarini tez eslaridan chiqarib yuborardi.

Biroq uning:

— Qanday ishga kirishsang ham, toza qo'l bilan kirish! — degan nasihatini bolalar bir umr eslab qolishgandi. Shu-shu bizlar doskaga chiqib hisob chiqarganimizdan keyin yoki yozishdan oldin qo'limizni yuvishga odatlandik. O'qituvchimiz bunday maslahat berganida boshqa narsalarni ham nazarda tutganini men keyinchalik tushundim. Darhaqiqat, qo'ling toza bo'lishi kerak degan gap juda ko'p ma'noni anglatmaydimi?

Beket mening qiziq-qiziq hikoya, qissalarni o'qishni, tinglashni yaxshi ko'rishimni bilib, adabiyotga qiziqтира boshladi. Avvalo, u menga o'zining "Yig'im-terim" degan she'rini o'qib berdi. She'r menga juda yoqdi. Biroq u mendan: "Xo'sh, bu she'rning senga nimasi yoqdi?" — deb so'raganida, javob berolmadim... Shundan keyin u menga bir hafta muddat bilan "Shohimoron" qissasini berdi-da, o'qib chiqqaningdan keyin gapirib berasan deb tayinladi. Bu yengil qissa yodimda qolgan ekan, qiynalmasdan gapirib berdim. Eshitganlar meni maqtashdi. Albatta, hunarsiz, bilimsiz ovul

odamlarining tasavvurida ertakchi ham, biror narsani o'qib bergan odam ham boshqalardan ancha ustun turardi.

Ilgari domlani qo'lida bir yil o'qiganim uchun birinchi sinfga hecham qiynalganim yo'q. Sal kekkayib ketgan bo'lsam kerak, bir oy o'tar-o'tmas, o'qituvchimga:

— Men birinchi sinfni bitirdim... Hozir ikkinchi sinf kitoblarini o'qib yuribman, — debman.

— Iye, qanday qilib bitirding? — deb so'radi o'qituvchim hayron bo'lib.

— Mana, ishonmasangiz o'qitib ko'ring... Alifbe ham tugadi, hisob ham tugadi, — dedim.

O'qituvchimning husnixatiga qarab chiroyli yozishni ham o'rganib olgandim. Alifbeni-ku, xuddi qiziqarli qissaday bir necha marta o'qib chiqqanman... Shularni maqtanib gapirdim...

— Qanday o'qiyotganingni sen emas, men bilishim kerak-ku?.. — dedi o'qituvchim kulimsirab. Men sal qizardim. U gapida davom etdi: — Yaxshi o'qiyotganing rost, biroq sal maqtanchoqsan. Mana shu ikkalasidan bittasini mahkam ushlagin-da, bittasini tashla, — dedi.

Uning bu gaplari menga qattiq ta'sir qildi, nima deyishimni bilmay dovdirab qoldim. Biroz sukutdan so'ng o'qituvchim gapida davom etdi:

— Ha, aytmoqchi, indinga inspektor keladi. U, qani, yaxshi bolalaringni ko'rsat, deydi. Hisobdan tayyorlan, seni ham doskaga chiqaraman.

Men bir cho'chib tushdim-da, lekin darrov o'zimni o'nglab oldim. Inspektor kelganda bizlar tayyor turgan edik... Boshang kiyinganidan, yurish-turishidan maorif xodimi ekanligi shunday ko'rinishda turgan, mo'ylovi chiroyli, cho'qqi soqol inspektor bolalar bilan iliqqina ko'rishdi. Sinfimizda podsho bilan malikaning hal bilan chizilgan surati osig'liq turardi. O'sha davrdagi odatga ko'ra inspektor bizlardan, avvalo, o'sha suratdagilarning kim ekanligini so'radi. Hammamiz qo'l ko'tardik. Inspektor bolalarga bir-bir qarab chiqdi-da:

— Qani, sen ayt-chi, — deb oldingi partada men bilan yonmayon o'tirgan Musaqoy degan boladan so'radi. U bilag'onligini

ko'rsatmoqchi bo'lib, qo'lini baland ko'targandi. Biroq yodlab olingan uzun suralar bunday paytda, odatda, esga tushmay qoladi. Musaqoy o'rnidan shartda turdi-yu, biroq nima deyishini bilmay, ko'zlarini milt-milt qilgancha turib qoldi:

— Niznuyi...

Inspektor ko'z qiri bilan o'qituvchimizga qaragan edi, u qizarib ketdi.

— Qani, sen ayt-chi... — deb inspektor eng orqada o'tiradigan, yigirmalarga chiqib qolgan Jaqib degan novcha boladan so'radi.

U partani sharaq-shuruq qilib o'rnidan turdi-da:

— Yago... — deb boshlagan edi:

— Yago emas, yego... — deb uning so'zini tuzatdi inspektor.

Jaqib ham so'zidan adashib qoldi.

Endi o'qituvchimizning nazari o'zi ishonadigan o'quvchilarga og'di. Shular qatorida men ham qo'limni baland ko'tardim.

— Xo'p, sen ayt-chi... — deb inspektor menga ishora qildi.

Birinchii sinfda o'qiyotganligim, yoshim o'n to'rtida bo'lgani bilan ba'zi so'zlarni to'g'ri talaffuz etolmasdim. Ayniqsa, malikaning nomidan oldin aytiladigan "Yeyo vilichestvo" degandagi "Yeyo" degan so'zga hech tilim kelmay, ba'zan "Iya", ba'zan esa "Ia" deb yuborardim.

O'sha so'zni bir amallab chala-chulpa qilib aytdim-da, naryo-g'iga tutilmay bidirlab ketdim. Inspektor javobimdan qanoat hosil qildi, shekilli, meni doskaga chaqirdi. Ko'paytirish amali-dan bitta savol berdi-yu, ikkita hisob ishlattirdi. Bu xil hisoblarni ilgari ko'p ishlaganimdan unchalik qiynalmadim. Agar inspektorning salobati bosmasa, boshqa bolalar ham bu hisobni bemalol ishlay olardi.

Shundan keyin o'qituvchimiz ham o'zini ancha o'nglab olib, mendan rus tilini so'rashni iltimos qildi. Agar unutmagan bo'lsam, mendan so'ralgan "Sa'va bilan kaptar" (Chij i golub) yoki "Maymun bilan ko'zoynak" ("Martishka i ochki") masali edi:

*Chija — zaxlopnula zlodeyka — zapadnya,
Bednyajka v ney rvalsya i metalsya.*

A golub molodoy nad nim je izdevalsya.

Bu misralarni shu kungacha unutmaganimga qaraganda, mendan xuddi shu masalni so'ragan bo'lsa kerak.

Ichimizda beshta qiz bor edi, shundan uchtasi inspektordan qo'rqib uylariga ketib qolishgandi. Qolgan ikki qizning bittasi ham shu masalni yoddan o'qib berdi. Keyin inspektor menga M. Lermontov jildini, qizga esa A. Pushkin jildini sovg'a qildi. "Xanjar", "Terak", "Duo" degan she'rlarni men o'sha qishdayoq yodlab oldim. Biroq ularning ma'nosiga o'sha paytlarda yaxshi tushunmas edim.

Bir kuni qiziq bo'ldi, inspektor ketgach, uch-to'rt kundan so'ng podsho taxtdan tushdi, degan xabar tarqaldi.

Bu gaplardan xabar topgan odamlarning sevinchi ichlariga sig'masdi. Ba'zi birovlar:

— Ozodlik, ozodlik! — deb odamlardan suyunchi ham oldi.

Ertalab maktabga kelsak, o'qituvchimiz podsho bilan malikaning suratlarini devordan olib, stol yoniga suyab qo'ygan ekan. Biz endi suratlarini juda yaxshilab ko'rdik.

— Bugun o'qish yo'q, ozodsizlar. Mana bu ikki suratni ovulma-ovul sudrab, dabdala qilib tashlanglar... Podsho quladi, deb jar solinglar! — dedi o'qituvchimiz.

Bizlar ikkala suratni chilvirga boylab olib kechgacha sudradik. Ovul odamlari rosa tomosha qilishdi, maza qilib kulishdi. Ba'zilar bolalarini qo'yarda-qo'yamay uylariga olib kirib mehmon ham qilishdi. Podshoni o'z ko'zlarini bilan ko'rmagan qozoq ayollari dabalasi chiqib ketgan suratni tomosha qilib:

— Voy, bu alvasti shunaqa badbasharamidi! Nima balo, bir ko'zi ko'rmi deymen! — deyishardi. Uning bir ko'zini biz o'yib olgandik.

Shunday qilib, bundan uch-to'rt kun ilgari inspektor oldida dir-dir titrab, nomini zo'rg'a aytganimiz podshoning suratini kechgacha sudrab, keyin O'bag'an soyiga otib yubordik.

Kelgusi yozda o'qituvchimiz Beket Utetilevov o'z nomidan xat yozib, meni Presnegorkov stansiyasidagi boshlang'ich maktabning yuqorigi sinfiga kiritib qo'ydi. Kirish imtihonida: ruschadan ikki, hisobdan besh oldim, meni qabul qilishdi.

Shu yil kuzda, bir to'yda Sobit Muqonovni uchratib qoldim. Ilgari biz bir-birimizni orqadan tanirdik. Egnimda soldat shinelini buzib tikilgan sur palto, boshimda qora telpak, oyog'imda yangi etik. Sobit men bilan ochilib gaplashdi. U O'zbekistonda o'qituvchilar kursiga ketayotgan ekan. Suhbatimiz oxirida u mendan "udostovereniye" (guvohnoma) yozish nusxasini so'rab oldi.

O'tgan yili yozda, bir kuni bozorda ellik-oltmish otni sotish haqida odamlarga guvohnoma yozib berib, uch so'mcha pul ishlagan edim. Buning ustiga, tez va chiroyli qilib yozganim uchun savodsiz odamlar menga "pesir" (mirzo) deb nom berishgandi. Bu gap Sobitning ham qulog'iga yetgan ekan. Men unga guvohnomadan bir nusxa yozib berdim-da, biroq hamma yilqining bir xil rangda bo'lmasligini eslatib — qora, to'riq, jiyron, kulranglarining ruschada qanday aytilishini ham yozdim. Keyin uning yoniga sotiladigan molning tamg'asi ham bo'lishini qo'shib qo'ydim.

Sobitning bu hujjatdan qanday foydalanganligi kuzda, Presnegor'kov bozorida ma'lum bo'lib qoldi. Men uni ko'ngilsiz xafa bir ahvolda uchratdim. Keyin bilsam, Sobit bir otning tusini yozganda qora, to'riq, jiyron deb, uch-to'rt tusdagi otlarning hammasini qo'shib yozibdi... Ikkinchi bir otga esa o'ng qulog'i teshilgan, tilingan, kesilgan deb bir necha belgini qator yozib ko'rsatib, soppa-sog' quloqni yo'qqa chiqarib qo'yibdi. Tamagir strajniklarot sotuvchilarni rosa sarson qilishib, oxiri pora olib bo'shatib yuborishibdi. Sobit bu haqida o'zining "Hayot maktabi" asarida batafsilroq yozgan.

Ruslarning uyiga ijaraga qo'yishga otamning kuchi yetmay, meni badavlat qozoqlarning molini boqadigan bir Sog'indiq degan podachining uyiga joylashtirdi. U oqko'ngil, yaxshi odam edi. Sog'indiqning Siddiq degan ukasi yoshligida rus maktabida o'qigan. "Qiz Jibek"ni ruschalab ko'chirib olibdi. Ular bu shaharga ilgari kelib qolishgan bo'lib, tirikchiliklarining mazasi yo'q ekan: ayoli to'n, o'zi esa etik tikar ekan, birovlarining o'tinlarini, xashaklarini tashib berar ekan. Qizig'i shundaki, kichina-kichkina bolalarigacha ruscha so'zlashadi-yu, men ancha vaqtgacha ular bilan ruscha gaplashishga uyalib yurdim. Ayniq-

na, Salima, Shayzot degan 13-14 yashar qizlari bilan ruscha gaplashishga tortinardim.

Bir kuni maktabdan kelayotсам, bir ayol bozorda "yablochki, yablochki" deb qichqirib turgan ekan. Men yablochkning olma ekanini lug'atdan bilib olgan edim-u, biroq olmaning qanday bo'lishini shu vaqtgacha ko'rmagandim.

Men Sog'indiq akaning qizlariga sovg'a qilmoqchi bo'lib, bozorda burildim-u, haligi ayoldan olmaning narxini so'radim. Ayol qiz-qizil yegulikni qo'lga olib turib:

— Ikki tiyindan, — dedi.

Men yigirma tiyinga o'ntasini olib, hamma cho'ntaklarimga soldim. Shaharning kun botish tomonida, daraxtlar orasidagi uyga yetguncha cho'ntaklarimning tagi ho'l bo'lib qoldi.

Hamma qiziq uyga kelgandan keyin bo'ldi. Uy to'la odam choy ichib o'tirishgan ekan. Ikki qiz samovarning ikki tomonida choy quyib o'tirardi. Qayoqdandir mehmonlar kelishibdi. Uy egasi meni qo'yarda-qo'y may choyga taklif qildi, chordana qurib o'tirdim. Shimimning cho'ntagidagi qizil yeguliklar ham tars-tars yorila boshladi. Qisilishib o'tirgan odamlar sirt cho'ntagimdagilarni ham ezib yuborishdi. Cho'ntaklarimning sirti ham ho'l bo'la boshladi. Qimirlashning iloji yo'q. Dala odamlari shahar noniga o'ch bo'lishadi, anchagacha miriqib choy ichishdi. Tagimga ham suv o'ta boshladi.

Choy ichib bo'lingach, ikki qiz o'tin terib kelgani dalaga ketishdi. Men ularga qo'limgan kelgancha yordam berib turardim. Hozir ham ular bilan birga o'tin tergani ketdim. Uydan sal uzoqlashgach, qizlarga tortinib, iymanib olib kelgan sovg'amni ko'rsatdim: — Olma... Senlarga olib keldim, — dedim yorilib, ezilib ketgan qizil yeguliklarni ularga uzatib. Qizlarning kattasi yegulikni qo'lga olib, qiqir-qiqir kula boshladi. Kichkinasi o'jar, sal erkarroq edi. U men bergan yegulikni turtib yerga tushirib yubordi-da, keyin engashib olib uyiga qarab yugurdi.

— Oyi, oyi. G'abitning bizga olib kelgan bozorligini qara! Pomidor, pomidor! — deb qichqirib, qotib-qotib kulardi.

Shunday qilib, qizlarga yaxshi ko'rinaman deb rosa xijolat bo'lganman, bu hali-hali esimda. Keyinchalik bilsam, Qo'r-

g'on tomonda ba'zi odamlar pomidorni yablochka deb atashar ekan.

Men Presnegorkov boshlang'ich maktabining yuqorigi sinfini yigirma birinchi yili tugatdim. O'sha maktabda o'qiganimda qiziq-qiziq gaplar bo'lgandi, mana endi hammasi birin-ketin esga tushyapti. O'shanda, Sovet hokimiyati o'rnatilgunga qadar maktabda biz ham har kuni ertalab dars boshlanishi oldidan "duo" o'qirdik. Hamma bolalar maktabning ikkinchi qavatidagi katta zalga to'planib, saf-saf bo'lib turardi. Ro'paramizda din darsini o'qitadigan Malinovskiy degan pop, maktab direktori Mixaylov, dyakon, o'qituvchilar turishardi...

Eng avvalo...

— "Otche nash, yeje yesi, na nebesi... da budet volya tvoya..." — degan duoni xor bo'lib aytamiz. Tovushimiz jaranglab chiqadi. Keyin podsho allaqachonlar taxtdan tushib, otilib ketgan bo'lsa ham, bizlar "boje, sarya xrani" degan duoni o'n to'qqizinchi yilgacha o'qidik. Popning yo'g'on tovushi zalda aks sado berib yangraydi. Deraza oynalari zirillab ketadi. Biroq xorga jon beradigan dyakon edi. U ham yosh, ham chiroyli yigit bo'lib ovozi yoqimli, mayin edi. Xorga jo'r bo'layotgan qizlar ba'zan to'xtab, uni tinglashardi. U faqat qizlargagina musiqadan dars berar edi.

Shunday qilib, olti yillik o'qish davomida men podsho bilan uch marta uchrashdim. Dastlab inspektor oldida malikani ko'klarga ko'tarib maqtadim, uch kundan keyin esa uni ovulma-ovul sudradim; mana endi bo'lsa: "E, Xudo podshomizni o'z panohingda saqla!" degan duoni to'rt yildan buyon takrorlayman: Bu narsa ham ovulimizning chetdaligi, kazak stansiyasining o'ziga xosligidan kelib chiqardi. Men hozir ham Presnegorkovdagi bu maktabni zo'r mamnuniyat bilan tilga olaman. Chunki rus tilini, rus adabiyotini o'rganishimda uning katta hisssasi bor. Ikki yilgacha suffiks, fleksiyaga tilim kelmasa ham, bu murakkab tilni menga o'rgatishda jonini ayamagan o'qituvchilarimning nomini ham shu kunga qadar minnatdorhilik va hurmat bilan tilga olaman. O'rganolmagan bo'lsam, o'zim aybdorman. Bu maktab etik tikishni ham, eshik, rom yasashni ham, g'ishtdan uy solishni ham o'rgatgan edi. Maktabda din darsi o'tilsa, eski urf-odatlar saqlansa

ham, biroq u yangilikka ham qarshi emas edi. Yigirma birinchi yili oq gvardiyachilar g'alayon qilganda, o'sha maktabning yigirma nafar talabasi — bizlar Oqmo'la oblastining partizanlar o'tradiga qo'shilib ketdik.

Oqlar ustidan g'alaba qilganimizdan keyin qozoqlar orasidagi ba'zi bir narsalarning mutlaqo qonunga mos emasligini tushuna boshladik. Bo'lis va ovul sovetlari boylarning, amaldorlarning qo'lida ekan. Bizlar juda ozchilikni tashkil qilar edik, shunday bo'lsa ham, ana shu noto'g'ri ishlarni tuzatishga kirishdik. Endi o'ylab qarasaq, o'shanda o'zimiz ham qonunga sig'maydigan ishlar qilgan ekanmiz. Esim Do'skalov degan o'qituvchi, men va yana uch yigit ovul markaziga kelib:

— Ey, boy o'g'illari, senlarning bo'lis bo'lishga haqlaring yo'q. Qani, odamlarni yig'inglar, majlis qilib biz ularga tushuntirib qo'yamiz... — dedik.

Majlis janjalga aylanib ketmasin, deb qo'rqqan bo'lis uzog'i bilan yarim soat ichida qo'l ostidagilari bilan maslahatlashdi-da: — Mana, chiroqlarim, senlarga bo'lislik kerak bo'lsa ola qolinglar, o'z qo'limiz bilan beraylik, — dedi.

Yarim soat ichida ilgari bo'lis, voyenkom, maorif bo'limi yersuv ta'minoti kabi idoralarni boshqarib o'tirganlarning hammasini o'rmdan tushirdik-da, o'z qo'limizga oldik. Keyin markazni boshqa joyga ko'chirdik...

Miltiq, qilich singari narsalarga ilgari xumor edim, shuning uchun voyenkomlik lavozimini o'zim so'rab oldim... Qizig'i shundaki, bizning bu beboshligimizga oblastdagilar lom-lim deyshmadi, balki ma'qullashdi. Afsuski, to'qqiz oydan keyin voyenkomlik lavozimi yo'qotildi-da, men undan mahrum bo'ldim, bo'lmasa shu kungacha soldat atalib yurmay, ehtimol, ofitser bo'lib ketarmidim?

Oddiy xalqning o'sha kezdagi tushunchasini, saviyasini O'mar degan bir kishining salom-aligidan bilib olsa bo'lardi. U odam bilan necha marta uchrashma, doimo bir xilda so'rashardi.

— E, chirog'im, kimsan? — deydi u, o'n marta ko'rsa ham tanimasdan. Albatta, sen unga o'zingni tanishtirasan.

— E, senmisan... O'rinbosarmisan?

— Ha.

- Militsiyalaring kim?
- O'sha ilgari yigit.
- Kaparatiblar-chi?
- U ham o'sha yigitning o'zi...
- E, hammasi ham o'z o'rnida ekan-da...

O'mar aka shu ikki og'iz so'roqdan hecham nariga o'tolmaydi. Sovet hokimiyatining ahvolini ham, kundalik ishlarini ham u shu ikkita savol bilan bilib olganday bo'lardi. Men rayonda to'rt yarim oy militsiya boshlig'ining o'rinbosari bo'lib ishladim. Biroq bu ish menga yoqmadi, tezda bo'shab ketdim.

Yigirma uchinchi yilning kuzida Sobit meni Orenburgga olib keldi. Bu vaqtga kelib otam ancha oyoqqa turib olgan bo'lsa ham, o'qishga borishimga hadeganda rozilik bermadi. Biroq Sobit ko'p harakat qildi. O'n yettinchi yildan buyon Sobit katta-katta shaharlarda, men esa ovul atrofida yurganligimdan, u mendan "o'zib" ketgan edi.

U, hatto Sovet hokimiyatining kelajagi haqida ham gapira olardi. Qozog'istonga oid masalalarni besh qo'lday bilardi. Narkomlar bilan yonma-yon o'tirib gaplashardi. O'zi bosh narkomning uyida turar ekan. Meni ham shu yerga olib keldi.

Ikkalamiz derazalari berk qorong'i bir uyda to'rt-besh oycha birga turdik. Uymiz qorong'i bo'lgandan keyin, u yoq-bu yog'ini yig'ishtirishga ham ko'nglimiz bo'lmasdi. Xonamiz supurilmaydi ham, yuvilmaydi ham. Menga o'xshab bu ishlarga Sobitning ham uquvi yo'q ekan. Maxorkani yo'g'on qilib o'rab chekamiz-da, qoldig'ini to'g'ri kelgan joyga tashlaymiz. Ba'zan maxorkamiz tugab qolganida, o'sha qoldiqlarni terib chekamiz.

Sobit ikkalamiz bir kishilik temir karavotda yotardik. Tagimizga solingan choy qutisining yupqa taxtalari bizni ko'tara olmay kechalari qasir-qusur qilib sinardi. Ba'zida yarim kechada polga gurs etib yiqilib tushardik. Uyqu aralash taxtalarni joy-joyiga qo'yib, yana yotib uxlaymiz. Sobit boshi yostiqa tegdi deguncha, uyquga ketadi. U taxtalarning qasir-qusur qilishiga ham parvo qilmay uxlayveradi. Hali-hali esimda, bizlar o'sha singan taxta parchalari bilan qishdan chiqdik, yangilaganimiz ham yo'q. Bu ham shalohligimizning oqibati edi.

Sobit, ko'pincha, she'r yozardi, men dars tayyorlardim. U qofiya topilganiga xursand bo'lsa, men esa darsni chuqurroq tushunganimga quvonaman. Uning gazeta va jurnal sahifalari tez-tez bosilib turgan she'rlariga olgan qalam haqi ikkalamizning tirikchiligimizga bema'lol yetardi. Biroq negadir hech barakasi bo'lmasdi. Ko'pincha, to'yib ovqat yemasdik.

Mana shu shaloqligimiz bir kun kelib boshimizga yetdi. Sobit rabfakka o'tgan yili kelib kirgan, bu yil u ikkinchi kursda o'qirdi. Biroq uning ancha qarzi bor edi, ya'ni bir-ikkita imtihonini hali topshirmagan ekan. She'r yozish bilan bo'lib, o'qishdan ancha ko'ngli sovugan Sobitni, bu yil qaytadan birinchi kursga tushirib qo'yishdi. Men kuzda tayyorlov kursiga kelib kirgan edim, qish o'rtalarida birinchi kursga o'tdim. Shunday qilib, darslarni endi Sobit ikkalamiz birga tayyorlaydigan bo'ldik.

Sobit bunga xafa ham bo'lgani yo'q. Qaytanga "Erkak kishi noliшни bilmaydi" dedi-yu, yana she'r yozishga tushdi. Yozga kelib, imtihon boshlanar oldida, u ovulga ketib qoldi.

Sobit she'rini birpasda yozib tashlar edi. U joy, shart-sharoit ham tanlab o'tirmasdi. Ikkalamiz bir stol ustida ishlardik; men hisob chiqarardim, u bo'lsa she'r yozardi. Ba'zida uning she'rga berilib, bu xonadan chet dunyoda, turli-tuman voqealar, ajoyib manzaralar o'rtasida turganini ko'rib havasim kelardi. Hozir Sobitning xayoli faqat she'riy tasvirlar, jonli obrazlar bilan band bo'lardi.

Ba'zi vaqtlar odamning

Ko'ngli g'uborsiz bo'lsa,

Tangri bergan hunari

Rivojlanib, barq ursa,

Go'yo buloq suvidek

O'z g'uborin yuvolmay

Turolarmi yurak tek? —

deganday, shoimning eng qaynagan paytida, she'r yozayotganida Sobitni, ko'pincha, shu kayfiyatda ko'rib, unga havasim kelardi.

Mendagi bu qiziqish, havasni sezgan Sobit menga: "Sen yozgin" deb ko'p aytardi. O'sha mahalda ba'zi gazetalardan ma-

qolalar, qarorlar olib kelib tarjima qildirardi. Bu bizlar uchun pul topishning oson yo'li edi. O'sha kezda xato tarjima qilingan, buning ustiga, hech tushunib bo'lmaydigan maqola va qarorlarning qozoqcha matnida mening ham anchagina hissam bor. Men u paytlarda hali badiiy mahorat, tasvir degan narsalardan ancha uzoqda edim.

Men o'sha vaqtdagi Orenburg rabfagini ba'zi bir oliy maktablar bilan tenglasha olsa kerak, deb o'ylayman. Rabfakda, ayniqsa, adabiyot, tarix fanlari boshqa ko'p o'quv yurtlaridagiga qaraganda kengroq o'tilar edi. Men o'n to'qqizinchi asr klassiklarining asarlarini shu maktabda o'rganganman. Ayniqsa, Gogol, Chexov, Gorkiy uslublari menga juda yoqar edi.

Chet el klassiklari asarlarini men keyinroq o'qiy boshladim. Rabfakni tugatish oldida yozish ishiga havasim uyg'ona boshladi. Birinchi marta devoriy gazetaga katta bir hikoya yozib berdim (keyinchalik bu hikoyam "Osov to'liqida" degan nom bilan povest bo'lib bosilib chiqdi. Bu mening ilk asarim edi).

Bu hikoya voqea edi. Meni o'sha voqeaning o'zi boshlab ketdi. Avvaliga voqeaning o'zini erkin tasvir qilib bordim-u, sal nariga borib, o'zimdand qo'shish kerak bo'lganda ancha qiynalib qoldim. Buni ham mayli-ya, oxiri cho'ltoq chiqdi. Buni o'sha paytlarda hech kim sezmagani edi.

Biroq rabfakni tugatganimdan keyin ham faqat adabiyot bilan shug'ullanib qolishga yuragim dov bermay, Ombadagi qishloq xo'jalik institutiga o'qishga kirdim. U kezlarda bu institutni Akademiya deb atashardi. Adabiyotga bo'lgan ixlosim o'sha paytlarda boshlangandi. Hisob ishlab o'tirganimda ham, tajriba stansiyasida ko'chat o'tqazayotgan vaqtda ham xayolimni ming xil o'y-fikrlar chulg'ab olardi. Boshqalar qishloq xo'jalik to'garaklariga kirganda, men adabiyot to'garagiga yozildim. Bizlar — yettita student o'zini Belinskiyning shogirdiman, deb yurgan bir qari pedagogga pul to'lab, qishi bilan uning qo'lida ta'lim oldik.

U, darsni har bir yozuvchi hayotni o'zicha idrok eta bilishi kerak, degan so'zdan boshladi. Agar hamma yozuvchi hayotga bir xil ko'z bilan qarasa, ularning tasvirlamoqchi bo'lgan narsalari ham bir-biriga o'xshab qolishi mumkin. Yozuvchi hayotga yosh

boladek yuzaki qarashi kerak emas. Yozuvchining ko'zi o'tkir, didi yaxshi bo'lishi kerak. U murakkab hayotdan eng muhim narsalarni ko'ra olishi zarur. G'oyaviylik yozuvchiga qanchalik zarur bo'lsa, hayotni o'zicha idrok eta bilish shunchalik zarur. Xo'sh, shunga kelishamizmi? — dedi u. Biz, o'qituvchimizning gapiga to'la qo'shildik. Shundan keyin u shakl va mazmun uyg'unligini Belinskiyning fikrlari bilan dalillab, ikki marta leksiya o'qidi. Duniyoqarash degan gap borliqni, hayotni yozuvchining o'zicha idrok eta bilishi ekan.

Butun qish adabiy oqimlar bilan tanishib chiqdik, darsimizning oxiri Marksning "Shu vaqtgacha faylasuflar dunyoni tushuntirib kelishgan, lekin hamma gap uni o'zgartirishda" degan qoidasi bilan tugadi. Bizlar bu so'zni adabiyotning asosiy qonuni, asosiy talabi, deb uqdik.

1956-yil

MUSHTIPAR ONA

Usti-boshi juldur bo'lib ketgan bir ayol eshikdan kirib kelarkan:

— Tunab ketay degandim, — dedi.

U juda ozg'in, yuzini ajin bosgan edi. Bu ajinlarning har bittasi bitta umid izi ekanini mezbonlar sezmedi. Ayol kirgan ko'yi jim turib uy egasidan javob kutardi.

Juldur yengidagi chiqib turgan qo'li to tirsagiga qadar qopqora, xuddi kosovga o'xshar, bigizday qora barmog'idagi kumush uzugi yarqirab turardi.

— Qayerlik bo'lasiz? — dedi uy egasi. U mehmon ayolning jur'at etib: "Tunab ketay degandim" deganini yoqtirmadi. Biroq uning qattiq charchaganligini, usti yupunligini ko'rib ikkilandi.

— Sendaqa uy bekalari qaynisidan boshqa odamni tanimas edi. Qayerlik ekanimni aytganim bilan baribir tanimaysan. Aytсам keyinroq aytarman, avval menga yo ha, yo yo'q degan javobingni ber! — dedi, mehmon ayol qat'iy qilib.

Mezbon bu so'zlardan keyin ancha shashtidan tushdi, shekilli, zo'rg'a javob qildi:

— Tunayman desangiz, mayli...

Yo'lovchi ayol julduri chiqib ketgan kamzulini yechib bo'saladi: g'aga ilib qo'ydi-da, kosovday qo'llarini olovga tutib isina boshladi:

— Sovuq yedim. Olisdan kelyapman, peshanam qursin! — dedi. Avvalgi gapidanoq yurak oldirib qo'rgan mezbon, mehmon bilan so'zlashishga mayli bo'lsa ham, negadir botinolmadi. Qator tizilishib o'tirgan bolalar ham qo'rqib orqaga tisarildilar. Uy egasi-ning xotini mehmon bilan yonma-yon o'tirib, bir kosa unni xamir qilar ekan, tortinib gapning uchini chiqarib dedi:

— Mehmon, uzoqdan kelayotgan ko'rinasiz. Gapirib o'tiring, tanishaylik.

— Xo'p, qarog'im, gapiraman. Mana bu xo'jayining meni ko'rib: "Bu shum kampir qayoqdan kelib qoldi", — deb qo'rqib o'tiribdi, shekilli! — Mehmon oldiga tushgan qora sochini orqasiga silkib tashladi-da, gapira ketdi: — Shahardan kelyapman, chirog'im!.. Yo'lga chiqqanimga o'n kun bo'ldi. Arg'in elidan, Badan ovulidan bo'laman. Ko'pdan beri bevaman. To'ng'iz deb atalgan ocharchilik yillari erimdan ajralgan bo'lsam ham, yolg'iz o'g'limni orqalab yurib, salomat olib qolgandim. Ana, o'sha bolamni deb o'n yetti yil turma azobini ham ko'rib kelyapman... — deb ayol bir xo'rsinib qo'ydi.

Mezbon ayol xamir yuqi qo'llari bilan sochlarini orqasiga tashlaganicha ag'rayib qoldi.

— Farzand, ona yuragining bir parchasi emasmi? Uning muhabbati seni o'tga ham, suvga ham solar ekan. Yurakporang uzilib tushsa nega qayg'urmas ekansan? O'shanda soldatga odam olayotgan mahalda peshanamdagi yolg'iz o'g'lim o'n besh yoshda edi. Oltibosh boyning podasini boqishga yarab qolganiga endi ikki oy bo'lgandi. Ikki yildan so'ng:

— Qarog'im, ikki yillik haqingni olib kel, — deb yuborsam:

— Sog'ib ichishga bergan sigirimning sutini zo'rg'a oqlab yuribsan! — deb haligi benomus Oltibosh boy bolamni quppa-quuruq qaytaribdi.

O'sha boyning yigirma bir yashar o'g'li bo'lis edi. Ko'zlari quturgan itnikiday chaqchaygan, mahmadona yigit edi. Boy bolasi — bo'ri bolasi bilan teng bo'ladi, deganlari rost ekan. O'g'lim sho'rlik:

— Haqimni bermasang, ketaman, — degan ekan, o'larday kaltaklabdi. Shundan so'ng bechora o'g'lim qochib uyga keldi.

— E, bu ularning azaliy odati-ku, haqini ololmagan yolg'iz mening bolam deysizmi! — dedi mehmon. Keyin biroz sukut qilib, so'zida davom etdi. — Shu ko'yda yurganimizda, birdan soldatikka olarmish, degan sovuq xabar chiqib qolmasmi!.. Otlarning qamchisi, yayovning tayog'i qachon bo'lsa ham bizga o'xshagan kambag'allarning boshiga tegadi... Nima bo'ldi-yu, bir mahal: "Qapiz xolaning o'g'li ham xatga tushibdi", — deyishdi

odamlar. Men: "Yo'g'e, mening o'g'lim hali yosh-ku?" dedim. Yomon so'z yolg'on bo'ladi, deysanmi? Shu-shu bolam sho'riik ro'yxatga ilindi-ketdi... Avvalo, yurtga kelgan to'y deb churq etmay o'tiraverdim. Bolamga achinsam ham, hammaning bolasi bo'radi degandan keyin, yolg'iz o'zi ovulda qolib nima qiladi, odamlarning bolalaridan ortiq emas-ku, mayli borsa bora qolsin, dedim. Kunlar, oylar o'tdi. Bir mahal el ichi ikkiga bo'linib, odamlar hayron bo'lib qolishdi. Yig'laganda yer titratgan ayollarning ba'zilar churq etishmay qolishdi. Haligina biz bilan barobar yig'lashib, bizga qo'shilib podshoni qarg'ashganlar ham tinchib qolibdi. Hasratlashay deb yoniga borsam:

— Nima qilasanlar yig'lab, Xudo denglar, — deb teskari qarashadi.

Keyin surishtirsa, bizga o'xshagan beva-bechoralarning bolalari qolibdi-yu, boylar bolalarini qutqarib olgan ekan. Bolasini qutqarib olganlarning ko'ngli taskin topib, bizga o'xshaganlardan ovloqroq yuradigan bo'lib qolibdi. Gap so'rasang, o'zini olib qochadi. Ba'zilarining oldiga borib:

— Og'aynilar, menga ham yordam beringlar. Yoshi yetmagan o'g'ilginam bekordan bekorga ro'yxatga ilinib ketdi... — desam:

— Xudo boshingga solgandan keyin chidaysan-da, na cho'ra... — deyishadi. Shunday qilib, soldatga bizga o'xshagan beva-bechora, g'arib-g'urabolarning farzandlari boradigan bo'ldi.

Tezda bo'lisning oldiga bordim. Ko'z yoshimni ko'l qilib bo'lisning otasiga yalindim:

— O'la-o'lgunimcha eshingizda xizmat qilay. O'g'ilginamni soldatlikdan olib qoling, baraka topkur. Suyagi qotmagan bechora o'g'lim bekorga nobud bo'lmasin, — dedim.

Bo'lisning otasi esa:

— E, juda ko'plarini olib qoldim, endi hech iloji yo'q, — dedi.

Ovul boshlig'i bilan biylarining oldiga ham bordim. Kotibga ham yalindim. Yig'lay-yig'lay ko'zda yoshim qolmadi, yordam berish tugul, so'zimga quloq soladigan kishi ham bo'lmadi.

— E, borsin, qaytangga cho'chqa go'shtini yeb yaxshi bo'lib keladi, — deb kotibi kalaka qildi.

— O'zing hali yosh ekansan. Bolangdan uyalib er qilmay yur-gandirsan... Bolang ketsa erga tegib olasan, — dedi doim bo'lis bilan birga yuradigan qora soqolli kishi.

— Yaxshilar, mirzalar, hali bolam yosh-ku, axir. Rahm-shafqat qilinglar, yordam beringlar. Bekordan bekorga ketyapti. Bitta otim, bitta sigirim bor, shuni olib bolamni bo'shatinglar, — desam ham hech kim quloq solmadi.

Shunday qilib, bo'lis atrofida bir haftacha girdikapalak bo'lib yurdim. Shu ikki o'rtadagi ovullardan ayron ichaman, birovlarni-kida tunayman, ba'zan arava tagida uxlayman.

Bir kuni Oltibosh boyning tezak tashiydigan aravasi tagida yotgan edim, orqamdan bittasi kelib mahkam quchoqlab olsa bo'ladimi? Hech gap-so'z yo'q, bu odammi, sigirmi u bilan ishi yo'q, shekilli, qora qushday bosdi. O'rimdan uchib tursam, u bo'lisning yonida yuradigan qora soqolli kishi ekan. Oyog'im og'ziga tegib ketdi, shekilli...

— Yetim qizdan beva afzal deb kelgan edim. Faqir boshing-ni oltin kosaga solay desam... — deb nariroqqa borib telmurib o'tirdi.

— Ey, qora soqol! Qani tegib ko'r-chi! — deb nariroqda yotgan boltani qo'limga olgan edim. Uyaldi, shekilli:

— Voy, shallaqi-yey! — deb jo'nab qoldi.

G'arib, o'jiz odamlarmiz-da, qanchalik jahlim chiqsa ham, bol-tani ishlata olmadim...

Meni rosa kalaka qilishdi, ammo o'g'limni bo'shatishmadi. Nimasini yashiray, bir mahallar men "Oyna ko'z" deb nom olgan suluv edim. Ba'zan go'zallik ham boshingga balo bo'ladi!

Endi nima qilay? O'z qonimga tashna bo'lib ketdim. Biroq-qo'limdan hech narsa kelmadi. To'riq baytalga minib bolam keldi.

— Oyi, nima qilaysiz bu yaramaslarga kalaka bo'lib?! Sizni bu-larga mazax qildirib qo'yguncha, soldatiga boraman. O'zingizni xor qilmang, qayting uyga! — dedi o'g'lim.

Meni kalaka qilishganiga o'g'limning nomusi kelgani yana jahlimni chiqarib yubordi...

O'g'limni ergashtirib bo'lsining oldiga yana bir marta bordim. Bu safar o'g'limning yoshligini o'z ko'zlarini bilan ko'rsin, yuradigini aytay, shunda ham quloq solishmasa, keyin peshanamdan ko'rdim, deb keldim.

Uy to'rida — oldida qimiz, yonboshida oq bolish — bo'lis o'tiribdi. Qimizini endi ichmoqchi bo'lib turgan qora soqolli kishi menga tikilib qaradi.

— Bij aka, yana keldi boyoqish, ko'nglini oling... Bolasi bo'lsa keyin bir gap bo'lar, — deb yoshgina bo'lis menga qaradi. Bunday nomussizlikni birinchi bor eshitib turibman. O'g'lim chiday olmasdan jo'nab qoldi.

— Biz ko'rmay qo'ya qolaylik. O'zini oyga bir ko'rsatib ko'rch, — dedi bo'lis, men hali tashqariga chiqishga ulgurmay.

Tashqariga chiqsam, o'g'lim otini choptirib ketayotgan ekan. Onasini haqorat qilganiga chiday olmagan-da, sho'rlik... Ko'z oldim qorong'lashib, turgan joyimda qotib qoldim. Xudo ishimni o'ngladi: oldimga pochtaovoy bir tovoqda ikki qulog'ini dirillatib kalla-pocha olib kelayotgan ekan. Tovoq chetidagi sariq sopli pichoqqa ko'zim tushib qoldi. Bu yog'i nima bo'lganini o'zim ham aniq bilmayman...

O'zim qonimga tashna bo'lib yurgan odamman. Tavakkal qilib, sariq sopli pichoqni chaqqon yulib oldim-da, yonboshlab yotgan bo'lsining ko'ksiga bir-ikki marta urdim. Qora soqolning ko'zi kosasidan chiqib qotib qolgan edi.

Pichoqni o'qtalغانimda:

— Voy! Voy dod... — deb ikki qo'lini tipirchilatdi. Pochtaovoyning qo'lidan tovog'i tushib, tishlari oqarib turgan boshning yumalab ketganini ko'rdim. Ko'zimga qon to'lib, hech narsani aniq ko'ra olmadim. Qayeriga ekanligini bilmayman, qora soqolning ham bir-ikki joyiga pichoq urdim, chamamda. Biroq pichoqning suyangiga taqalib uncha botmadi. Shundan keyin hushimdan ketib yiqilibman.

... Bir mahal cho'chib ko'zimni ochsam, ko'zimga pashshalar qo'ndi. Ko'z ochtirmaydi. Boshqa joylarim xuddi qo'rg'oshunday og'ir, turay desam a'zolarim o'zimga tobe emasday, qimirlata olmayman. Go'yo tanamdagi boshqa odamning qo'l-oyog'i.

Qo'limni ko'tarib u yoq bu-yog'imni ushlab ko'ray desam, majolim yo'q. Oyog'imni ham qimirlata olmadim... O'zimmiki emasday. Yarim kechada hushimga keldim. Ikki oyog'imni ikki qoziqqa, ikki qo'limni ikki qoziqqa tortib bog'labdi. Sochimni esa beshunchi qoziqqa tortib bog'labdi. Sho'rlik o'g'lim ko'tarmi bu yotishimni, yo o'zi ham bir joyda hushidan ketib yotibdimi? Xullas, meni shu ko'nga solishdi. Keyin yana nimalar qilishdi, unisini bilmayman...

Jonimning hali chiqmaganiga ko'zim yetgach, zo'rg'a:

— Chiroqqinam, qaydasan... — deb ingradim.

— Mana bu la'nati yana tirdi! — dedi kimdir. So'ng qamchi yog'ilib ketdi...

Qurib ketsin bu hayot, ne-ne kunlarni ko'rmas bu boshim.

— Hammasini aytсам, kayflaring uchib ketar. Mana bu sho'rlik ering uyingni tashlab qochib qolmasin, yana. Ko'zlari ukkinikiday olayib ketdi-ku, juda. Qisqartib qo'ya qolay... — dedi mehmon ayol. — Shundan so'ng bir oy, yetti kun deganda go'rday qorong'i, muzday sovuq turmaga olib borib qamashdi.

Mana, bo'shaganimga o'n kun bo'ldi. Qishda podsho taxtdan tushibdi. Undan keyin bir podsho taxtga o'tiribdi. Hozir shaharni boshqarib turgan qizil degan hukumatmish deb eshitdim, turmadan chiqqandan so'ng. O'zlarini ko'rganimcha yo'q. Aytishlariga qaraganda, bizlarni bo'shatgan ham o'shalarimish.

— Endi turmaga ilgari turma egalari tushadi, — deyishibdi ular.

— Turmadan chiqdim-u, chiroqqinam, bolaginam qaydasan, deb yuragimni qo'litiqlab kelyapman! — dedi ona. U oldiga qo'yilgan issiq choy bilan saryog'ga hali qo'l urganicha yo'q edi.

“Endi turmaga turma egalaring o'zlari qamaladi!” deganda, “Sen turma degani nima bilasanmi?” deganday qilib ayol uy egasiga tikilgan edi, u yerga qaradi.

Ona “yuragimni qo'litiqlab kelyapman” deganida ko'zlari o'tdek chaqna ketdi. Boya qo'rqib orqasiga tisarilgan bolalar, endi surkana-surkana ayolning yoniga kelishdi, hatto tizzasiga osilib, uning og'ziga tikilib qolishdi. Go'yo boyadan beri mehmon ayol “bolam” degan so'zni shu bolalarga aytib o'tirganday.

— Senlar uchun! — deb ona, bolalarning boshlarini mehr bilan silaganda, go'yo bundan avval ulami hech bir ona erkalamagan-day, uning qo'llari bolalarga ipak bo'lib tegdi. Uy egasi ham xuddi hozirgina dovul tinganday tumog'ining bir qulog'ini ko'tarib qo'ydi.

Mushtipar ona kechasi bilan o'zining mudhish hayotidan hikoya qildi. Hayot uni shafqatsiz qiynagan edi. Ona hozir bo'ronday kuchli, endi o'z hayotini yaratishga qodir edi.

1934-yil

ETNOGRAFIK HIKOYA

(Eski daftardan)

— O'sha ovulga borib kelishni galga solding-da, — deb Raykom sekretari menga ikki marta eslatgan edi.

Men Buroboy o'rmon texnikumida dars berganligimdan qo'lim bo'shamay yurgan edim.

Raykom sekretarining meni qistashida ham jon bor.

Rayonning chetqoq bir joyida olti-yetti ovul bosh qo'shib, kol-xoz qura boshlaganlariga uch-to'rt oy bo'ldi. Biroq shu ovullarning naq o'rtasiga, eng xushmanzara yerga joylashgan Jangbirshi ovulini kolxozga qo'shgilari kelmas ekan. U ovuldagilarning kol-xozga kirishga hafsalalari ham yo'qroq ekan.

O'zлари o'rta kambag'al-ku, xulq-atvorlariga tushunib bo'lmaydi. Raykomning mas'ul instruktori ikki marta borib, "Xudoning xohlagani bo'lar", degan so'zdan bo'lak hech narsa undirib kelolmadi. Sen tezroq borib shu ovulning sirini bilib kel-chi, deb, bu safar raykom sekretari menga tayinladi.

Uning ko'ngli notinchga o'xshaydi.

Qo'tirroq ekaniga ham qaramay, faqat o'roqbosh, qora baxmalday tusiga qiziqib olgan otim bor edi: salt minsang o'zgacha bir yurishi bor, aravaga qo'shganingda esa juvozdand chiqqanday aylana berar edi. Shuni aravaga qo'shdim-da, bir jihatdan o'rgatib qaytsammi, degan niyat bilan jo'nab ketdim. Texnikumning ikki o'quvchisini o'zimga hamroh qilib oldim. Uchta yosh yigit qora do'nanni o'z erkiga qo'yмай o'rgatib, kechga yaqin Jangbirshi ovuliga yetib bordik.

Bu ovul juda xushmanzara yerda joylashgan ekan: qalin qora qatlamli, ot yolidan keladigan o'siq chavil bosgan yer o'z boyligini ko'z-ko'z qilib yastanib yotibdi. Uzoqdagi qayinzor o'rmon bu yerni oftob va shamoldan to'sadigan qo'rg'on siyoqli. Qumloq kumush yo'llar to'shini kerib, to'liqinlanib, xuddi ertak aytayotganday tuyuladi. Yozgi quyoshli kunda dunyoning barcha

suluvligi qanday bosh qo'shib, qanday egasiz yotganiga ajablanasan kishi.

Jangbirshi ovuli balandda bo'lgani bilan qalin daraxtzor ichidagi qishlovidan yaqinda ko'chib kelib, uzun bir soy bo'yiga qo'ngan ekan. O'ntacha qora o'tov kun chiqishdan kun botishga qarab cho'zilib joylashibdi.

Ovuldan tashqarida u yer—bu yerda bir yilqi, ikki-uch sigir, besh-oltita bo'lak-bo'lak yurgan qo'y-echkilar ko'zga chalinadi. Go'yo atrofdagi eng oriq mollarni shu ovul yig'ib olganga o'xshaydi, shuningdek, yaqin atrofdagi ovullar ichida moli kam ovul ham shu bo'lsa kerak. Naqadar semiz, ko'rkam yerning egasi bo'lgan jangbirshining bunchalik qashshoqligiga hayron qolasan kishi. O'tgan qish juda yumshoq kelib, ko'p ellar qishdan betalofat chiqqan edi—ku.

Chuvalib ketgan ovulning o'rtarog'ida yetti-sakkiz kishi tizilishib o'tirgan ekan. Har bir uyning tashqarisida oftobdan ko'zlarini qisib, oyoqlarini chalishtirib turgan qizlar ko'rinadi. O'g'il bolalar, chamasi, yo'qqa o'xshaydi.

Biz odamlarning yoniga kelib, to'xtab salom berdik. Kun is-siq bo'lsa-da, tumoqlarini tashlamagan boshlar biroz ko'tarildi—ku, ammo ulardan sado chiqmadi. Yirtiq tepalaridan juni chiqib tursa-da, tumoqlarida o'zgacha bir takabburlik bor edi. Gaplashadigan kishilarimiz shular bo'lsa kerak, deb atavadan shoshib tushdim—da, o'tirganlar bilan bir chekkadan qo'l berib ko'risha boshladim.

— Avval anavi kishidan boshla, chirog'im, — dedi eng chetki kishi o'rtada o'tirgan siyrak, qo'ng'ir soqolli, kampiridahan, malla chol tomonga iyak qoqib. U qovushtirgan qo'llarini yengining ichidan chiqargani ham yo'q.

Men noiloj, malla cholga yaqinlashganimda u boshini orqasiga tashlab:

— Vaalaykum ashshalom... — dedi.

Boshini manmanlik bilan tik ko'tarib, chuchuk tilda "Vaalaykum ashshalom" deyishi o'rtasida hech bog'lanish yo'qligini o'zi anglamasa kerak. Kampiridahan malla chol labini qimtib, og'zini yopdi—yu, shu bo'yi damini chiqarmadi.

Choldan keyin uning chap yonidagi yoshroq kishiga qo'l berib edim, u qo'l uzatmasdan serrayib o'tira berdi. Uning o'rniga haligi eng chetki kishi:

— Endi Otakamning o'ng yonidagi odamga qo'l ber, — dedi.

Otakasi haligi kampiridahan chol ekanini tushundim—da, uning o'ng tomonidagi soqolli, ammo mo'ylovsiz bir kishiga qo'l cho'zdim.

— Vaalaykum assalom, — dedi u mullalarday qiroat bilan...

Salomni endi uning qatori bilan berib ketavermoqchi edim, yetti otadan kelayotgan dasturni buzib bo'lmas ekan, haligi chetki kishi:

— Endi so'l tomondagi kishiga qo'l ber, — dedi.

Shunday qilib, Otakaning o'ng-so'lida o'tirgan odamlarning ulkan-kichigini topib, tartibi bilan ayqash-uyqash qo'l berib chiqqancha, ular navbati bilan alik olib bo'lguncha, bir ovulni ko'chirib qo'ndiradigan vaqt ketdi.

Shundan keyingina o'rtadagi kampiridahan chol:

— Qo'rash, sen nariroq suril. Yosh mehmonga shu o'rin lo-yiq, — dedi.

Chol Qo'rash deb atagan kishi yoqirmaygina surilib joy berdi, keng dalada osmoni azim ostida har kim o'z mavqeyiga yarasha joyini bilib o'tirgan bu odamlarga hayron qolasan kishi! Boshqa ellar, boshqa ovullardan bunday urf-odatni ilgari ham, keyinchalik ham hech ko'rmaganman. Bu odamlar menga ham qiziq, ham ayanchli ko'rindi.

— Chirog'im, yo'l bo'lsin, — dedi o'rtada o'tirgan chol.

— Alay bo'lsin... Sizning ovulingizga ish bilan kelib edik, — dedim men.

— Alay bo'lsin, deding, shu yetarli. Uyog'ini kezi kelganda gapirasan, — deb chol mening og'zimga urdi.

Tushda ko'rilganday o'tmish vahshatining tartib-qoidasiga endi tushuna boshladim—da, xatoyimni tezda tuzatib:

— Ha—ya... Alay bo'lsin... — dedim.

— Qaysi elning bolasi bo'lasan?

— Elim Kerey. Qiziljar atrofidagi Kerey...

— Ellaring omonmi?

- Biz otlanganda omon edi.
- Bugun qayerdan chiqding?
- Buroboydan chiqdim.
- Boradigan joying qayer?
- Shu sizning ovulingiz...
- Unda, Esangeldi, bu bolalarni ulkan uyga olib borib tushir... — deb chol maslahat solganday ikki yoniga bir-bir qaradi.
- Otakam to'g'ri aytadi: izlab kelganlari shu ovul bo'lgandan keyin, bu bolalarning joyi ulkan uy bo'ladi, — dedi, cholning o'ng tomonida o'tirgan soqoli qovg'a o'tday, mo'ylovsiz kishi.
- Otakam to'g'ri aytadi: izlab kelganlari shu ovul bo'lgandan keyin bolalarning joyi ulkan uy bo'ladi, — deb cholning chap yonidagi kishi ham so'zma-so'z takrorladi.
- Bu kishi so'rraygan ko'sa-qora ekan. Uning qisq ko'zlari ikki chakkasiga qarab cho'zilib ketibdi. Chamasi, boshqalarning aytgan fikrini u oxirlatadiganga o'xshaydi. Bu kishi so'zlab bo'ldiyu, negadir toshday qotdi-qoldi.
- Shundan keyingina haligi eng chetda o'tirgan Esangeldi degan kishi o'midan turib:
 - Qo'noq bolalar, ulkan uyga yuringlar, — dedi.
- Biz o'mimizdan turdik...
- Yonimdagi o'quvchilar kulgilarini bazo'r bosib kelishayotibdi. Agar men og'iz ochsam, ular kulgilarini tiya olmasliklari ko'rinib turibdi. Oldi bilan shularning xayolini bo'lib, kulgilarini unutdirish uchunok:
 - Esaka, kun hali erta... Biz ish bilan kelganmiz, avval ishdan bir gaplashib olsak, qanday bo'larkin? — dedim.
 - Chirog'im, bu ovulga kelgan odamning qanday ishi borini Otakamning o'zi so'raydi. O'zi so'rasa aytasan, — dedi Esangeldi.
 - U kishiga aytangiz nima qiladi, tezroq gaplashsak degan edik:
 - Chirog'im, bu ovulga kelgan odamning nima ishi borini Otakam o'zi so'raydi. O'zi so'raganda aytasan, — dedi Esangeldi haligi gapini aynan takrorlab. Bu safar kulgini tiyib qolishga, haqiqatan ham, ustalik kerak edi...

Endi tushundim, bu ovul ota-bobo zamonidan ham ilgari odat tusiga kirgan dasturni buzmay kelayotgan ekan, ulug'roq birovi aytdi bir so'zning, ulug'roq birovi tatbiq etgan bir dasturni — hech qaysisini buzmaydi, o'zgartirmaydi ham...

Boyagi takrordan keyin Esangeldining yuz qiyofasi bez bo'lib, qozoqlarda uchramaydigan takabburlik qo'ndi-qoldi. Alla-qachon tusi o'zgarib ketgan tumog'ining tepasidagi yirtig'idan chiqib turgan juni ham takabburlanib cho'chchayayotganga o'xshardi.

Esangeldi uvadasi chiqqan ulkan qora uydan ko'zini uzmay, ushlaganida shiqir-shiqir etib, qiyshayib ketavergan shalaq eshikni ochdi-da:

— Marhamat! — dedi bizga.

Biz uyga kirdik.

Notanish chet urug'larning vakillariga ko'rsatiladigan yuzaki sipohiylik, iltifoti shu tarzda bo'lsa kerak. Biz ichimizda kulib qo'ya qoldik.

Ulkan qora uyning ichi ham o'tgan kunlarning boyligi, hozirgi kunning qashshoqligini ravshan ko'rsatib turar edi. Avvalambor, bu men ko'rgan kigiz uylarning ichida yirtiq-teshigi eng ko'pi. Bunday ko'p yirtiqni, bu qadar katta teshiklarni qo'ychining qo'nishida ham ko'rmaganman. Cho'ponning xotini mana bu qora qurimni ham yamab qo'rgan bo'lar edi. Qora uyning besh-olti uvug'i allaqanday yalpoq, qachonlardir sirlangan, zarlanganligi seziladi. Boshqa uvuqlari har xil — biri ingichka, biri ensiz, changroqqa tik terilibdi. Yana besh-olti uvuqda bo'yoqning izi ham yo'q, is bosib yotibdi. Lang ochiq keraga orasidan bitta to'rtko'z ola it kirib kelayotibdi.

Eshikdan kiraverishda o'ng tomonda pastgina so'rining ustida sim bilan o'rab tashlangan arvoqday bir eski sandiq, betida ikki-uch joyida suyak sadafning o'mi qolgan eski quti... ko'rpa, yosti degandan asar ham yo'q. Ikki boshi qayiqday egilgan yog'och karavotining ustida sirilgan ko'rpa, quroq ko'rpachaga o'xshagan bir nimalar uvadasi chiqib yotibdi. Uyning to'riga toy, toychoq, echki, uloq po'staklari iylamay solingan. Bir vaqtlar ko'kka bo'yalgan, kumush naqshlatilgan o'rdakbosh egar shu uyning to'riga bundan

ming yil burun ilingan bo'lsa kerak, u shu ko'yi qolib ketganday qovjirab turibdi. Shayinlari qirqilib, kumushlatgan uzangilari uzilib tushay deb turibdi.

Biz Esangeldi ko'rsatgan joyga o'tirdik. "Ulkan uyi shu bo'lsa, boshqa uylari qanday ekan", degan xayol keldi ko'nglimga. Esangeldi baqraygan ko'zlari bilan bizga bir tikildi-yu, chiqib ketdi. Shundan keyingina biz kulgimizga erk berib, o'zimizni arang bosib oldik.

— Bu uyning egalari qayoqda, — dedi o'quvchilardan biri.
— Bu uyning egasi manavi ola it bo'lmasin... Uygga teshikdan kirib, teshikdan chiqib yuribdi, turi yomon ekan, — dedi ikkinchi o'quvchi.

— Indamanglar, bu ovulning sirini to'liq bilaylik, — dedim.

Yigitlar otni aravadan chiqarib, o'zimizning ko'rpa-to'shaklarimizni uygga olib kirib, tagimizga texnikumning qora adyolini soldik.

— Adyol shu yerda qolsayam bo'larkan, — dedi o'quvchilardan bittasi.

— Harom bo'ladi! — dedi ikkinchisi.

Yaqin joydan Esangeldining ovozi eshitildi:

— Qorasoch, ulkan uygga qo'noq keldi. Otakam sizga qo'noqlarning xizmatida bo'lsin deb buyurdi... — dedi.

— Qayerdagi qo'noq, qanday qo'noq? — degan ayol kishining tovushi eshitildi.

Biz qanday mezbonga duch kelarkinmiz, deb o'ylanib turganimizda, uygga Esangeldi qaytib kirib:

— Bu ovul qo'noqqa otni aravadan chiqartirmaydi, o'zi kutadi, — dedi.

Bu ishimiz mezbongalarga og'ir botganini anglab yetmay men:

— Hechqisi yo'q, o'tog'asi, uchalamiz ham yosh yigitlarmiz-ku, otga o'zimiz qaray qolamiz... rahmat — dedim, shu ovulning urf-odatlariga ko'ra so'zlashgim kelib.

Biroq Esangeldi yumshamadi, haqoratomuz ohangda:

— Bu ovul qo'noqqa otni aravadan chiqartirmaydi, o'zi kutadi! — dedi-da, chiqib ketdi.

Biz o'z erkimizcha yana kuldik.

Shu payt gavdali, bo'yniga marjon taqqan, qorachadan kelgan bir ayol eshikdan enkayib kirib keldi. Biz "Esonmisiz?" deb so'ragan edik, u ajabtovur qozoq ayoliday javob qaytardi:

— Shukur, chiroqlarim... Aylanib ketaylar, qayoqdagi bir vayronaga qanday duch kelib yuribsizlar? — dedi ayol bizni o'ziga juda yaqin olib. Shu ayoldan ovulning baland-pastini so'rab bilsa bo'ladiganday edi. Nima vazifa bilan kelganimizning uchini chiqargan edik, u yog'ini ayol o'zi tushunib, ko'nglimizdagini topib javob qaytardi:

— Bu burundan palakat arimagan miriquruq to'ralarning ovuli, hamma narsadan ayrilgan quruqlashgan ovul. Baxt uchadi, rizq-nasiba ko'tariladi, deb bizdan ilgari ham qo'zg'alagan ekan, biz ham qimir etmay o'tiribmiz. Uchadigan ham, ko'tariladigan ham hech narsa yo'q. O'ttiz uylik to'langit urug'i bor edi, ular allaqachon bizni tashlab ketdi. O'zlari ajabtovur shiringina bir ovul bo'lib, alohida o'tirishibdi. Kolxoz ham bo'lishdi. Kecha ko'rib keldim, biyday dalani egallashib ekin ekishayotibdi. Bu ovul kolxoz bo'lish u yoqda tursin, anchayin ovul bo'lib o'tirishga ham joyi yo'q. Bu ovulning o'ntacha erkagi orasida o'z otini o'zi egarlab mina oladigan bir odam topilarmikan? Bir arava o'tin olib kela oladigan odam bormikan? Unday ishlarni to'langit urug'ining qizi — men bajaraman. Elligi yig'ilib echki so'yishga qurbi yetmaydigan, o'limg'liklar-ku, bu qaqqayganlar! Hammasi, biridan biri o'tgan landavur!.. O'zlarining ham ko'rarsizlar, chiroqlarim... Endi men choy qo'yay, — deb ayol chiqib ketdi.

Ayol uygga kirib-chiqib yurib, ovulning pasti-balandi bilan bizi tanishtirdi: bir vaqlar to'ra urug'idan bo'lgan birovi bu yerga qo'nib nonushta qilgan, bittasi shu yerda tug'ilgan, bittasi o'lgan, osh bergan, ot choptirgan ekan. Shu voqealarning bari shu yerda bo'lib o'tgan ekan. Biroq o'shandan qoqilgan yolg'iz qoziq ham qolmagan. Bular inson mehnati turlaridan birontasini ham bilmagan, hali serhosil hozirgacha mehnatni bo'yinlariga olgilari ham kelmaydi. Serhosil yerning o'zi ham asrab kelgan: yer molni asragan, mol esa ularni asragan. Otni egarlab, qo'ltig'ini ko'tarib, otga mindirish — to'langitlarning burchi bo'lgan. Endi ular ham tashlab ketgandan keyin to'ra ovuli birato'la qiltillab, ko'taram

bo'lib qoldi. Shunga qaramay, qadimgi takabburlik saqlanib qolgan.

Ayol qaynagan samovarni uyga olib kirdi-da:

— Chiroqlarim, bu ovulda bir qaynatim choy yo'q, qaynagan suv ichasizlar, — dedi. Bizda choy borligini eshitgach, u boshqa uylarga choynak qidirib ketdi.

Qalaylab no'xtalangan choynakka ergashib, har xil uydan to'plangani ko'rinib turgan o'ntacha siniq piyola ham keldi. Ko'p marta yamalgan, ko'p kir singgan qotirma dasturxon yoyildi. Biz dasturxon ustiga o'zimizning to'molimizni yoyib, shahardan olib chiqqan non, qand, mayimizni to'kdik. Shu chog' ovul chetida qolgan kishilar uyga tizilishib kirib kelishdi.

Otaka degan kampirdahan cholning o'rniga men o'tirib qolgan ekanman. Chol boshini baland ko'tarib, qaqqayganicha ke- lib menga tiraldi-da, turdi. Men pastroqqa siljib joy bo'shatdim. Boshqasiga ham joy bo'shatay deb siljimoqchi edim, Otaka soqo- lini silkitib:

— Endigi navbat qo'noqniki, qo'zg'alma, — dedi.

Biroq sheriklarim surila-surila uzoqlashib ketdi. Ozgina oziq- ovqatimiz ovul odamlarining oldida qoldi. Ularning o'rtasida faqat birgina o'zim...

Kampirdahan chol non bilan sariyog'ni bosh ko'tarmay yeb yotibdi... Tishi yo'qligidan qiynaladimi desam, chaynamasdan oq yutayotganga o'xshaydi. Biz bir piyoladan choy ichganimizcha dasturxonni ship-shiydon qilishdi. Ikki hamrohining nonga qo'llari ham teggani yo'q. Bu odamlarning orasida ovqat yeyish to'g'ri emasga o'xshaydi. Hammalari tinmay og'izlarini qimirla- tishib, ho'kizday yamlashib, dasturxonida hech narsa qoldirish- madi. Bittasi ham og'iz ochib gapirmadi. Avvalgi takabburlikdan asar ham qolmadi: non bilan sariyog'ga qo'llarini biridan biri os- hirib cho'zadi. Toza yeb bo'lganidan keyin, Otaka nafsi orom oldi, shekilli:

— Yesa bo'ladigan yangi yog' ekan, — dedi.

— Otakam to'g'ri aytadi, yesa bo'ladigan yangi yog' ekan, — deb qo'shildi uning o'ng tomonida o'tirgan kishi.

— Otakam to'g'ri aytadi, yesa bo'ladigan yog' ekan, — deb takrorladi Otakaning so'l tomonida o'tirgan hamma kishi.

— Mana, bir chaqmoq qandni o'g'ilchamga olib boray, — deb Otaka dasturxon ustida barakasi uchib qolgan ozgina qandning ikki chaqmog'ini tortib ketdi.

— Otakam to'g'ri aytadi, men ham qizalog'imga olib borib berayin-chi, — deb soqoli bor, ammo bemo'ylov kishi ham ikki chaqmoq qandni ochko'zlik bilan o'ziga qarab tortdi.

Boshqalari ham ularning aytganini aytib, qilganini qilib das- turxonni qoqlashdi. Endi ular piyolani panjalarining uchiga qo'n- dirib, quruq choyning o'zingina shildir-shildir ichishmoqda edi. Yana chehralarida takabburlik, manmanlik, ko'zlari bu dunyoning narigi yog'idagi bir nimaga qadalgan. Yolg'iz ayolgina bizning och qolganimizdan qattiq xijolatda.

Qo'noqning otiga bu ovulning o'zi qaraydi, degan Esangeldi qorong'i tushguncha otning yaqiniga ham borgani yo'q. O'zi so'raydi, degan Otakasi bizdan bir og'iz so'z so'ragani yo'q. Lipil- lagan pilta shamning xira yorug'ida ovul egalari bir-biriga suyanib qolgan o'liklar kabi qimir etmaydi. Hayron bo'lib, biz o'tiribmiz. O'lik ovul jimjit...

Otaka bir vaqt tomog'ini qirib, biroz gavdasini ko'tardi-da:

— Ulkan uyga tushgan qo'noqlar qo'y so'yish kerak, — dedi.

— Otakam to'g'ri aytadi: ulkan uyga tushgan qo'noqlarga qo'y so'yish kerak, — deb takrorladi uning o'ng tomonida o'tirgan kishi.

— Otakam to'g'ri aytadi: ulkan uyga tushgan qo'noqlarga qo'y so'yish kerak, — deb takrorladi so'l tomonida o'tirgan kishi.

Shu gapni aytishdi-da, biroz vaqt yana qotib qolishdi. Mening qo'y so'yishga e'tiroz bildirib qilgan adabsizligimga hech qanday javob qaytmadi. Uyalganimdan indamay qo'ya qolishga to'g'ri keldi. Faqat "bizning xizmatimizdagi" ayolning juda jahli chiqib o'tirgani sezilib turar edi. Ayol har qaysisiga bir qarab, biroz chi- dab turdi-da, oxiri sabri tugab:

— So'yadigan bo'lsanglar, nega tezroq olib kelmaysizlar? Og'izlaring so'zlab, orqalaring ko'tarilmaydigan bu yaramas qi- liqlaringni qachon tashlaysizlar? Jonlaring bormi yo yo'qmi? —

dedi-da, eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdi. Chamasi, eshikning bir qanoti uchib ketdi, uyda alanglab yurgan to'rtko'z eshik qolib teshikdan ura qochdi. Biroq erkaklar miq etishgani yo'q. Yana biroz vaqt o'tgandan keyingina Otaka o'z hukmini aytdi:

— Qorasoch to'g'ri aytadi. So'yadigan bo'lsanglar so'yish kerak, — dedi.

Yonidagilar uning gapini so'zma-so'z takrorladilar-ku, ammo o'rinlaridan qo'zg'alganlari yo'q.

Endi ayol o'zini bemalol tutib, ishni tezlatishga kirishib ketdi.

Bir marta o'tin ko'tarib, ikkinchi safar qozon bilan uchayoq temir o'choqni olib kelganida:

— Qaysi uyning qo'yini oldirmoqchisizlar? Oldirsang-chi... — deb uydan chiqib ketadi-da, tashqaridan gapini haqoratli so'zlar bilan tugallaydi.

— Esangeldi, malla buvingning bir bo'z qo'yi bo'lsa kerak, shuni so'yilsa yomon bo'lmas, olib kel-chi, — dedi Otaka.

Allaqachon o'lgan jangbirshi to'raning avlodi aslida bir-biriga enchilashday ko'rinib ketdi.

“Otakam to'g'ri aytdi. Malla buvining bir bo'z qo'yi bo'lsa kerak, shu so'yilsa yomon bo'lmas...” degan gap yana ikki qayta takrorlandi.

Esangeldi shundan keyingina o'rnidan turib, eshikka qarab yurdi. U shoshilmasdan sipolik bilan qadam tashlardi.

Bir mahal Esangeldi kelib:

— Malla buvining qo'yi bugun-erta qo'zilay deb turgan ekan... Oysha keliningiz uvol bo'ladi deyapti, — dedi.

— Oysha kelin to'g'ri aytibdi. Bo'z qo'yning bugun-erta qo'zilay deb turgani rost, — dedi Otaka.

— Otaka to'g'ri aytadi. Bo'z qo'yning bugun-erta qo'zilay deb turgani rost, — dedi cho'ziq yuzli qora kishi bilan soqolli, ammo mo'ylovsiz kishi. Bu safar ular jo'r bo'lib takrorlashdi.

Aslida, bir go'sht yeyishni ko'ngillari qo'rsab o'tirgan kishilar endi bu gaplardan keyin betoqatroq bo'lib qolishdi. Otaka ham uzoq dam saqlash odatini buzib:

— Unda, Qansha opangning qo'zisini olib kel. U erta tug'ilgan qo'zi. So'yishga yarab qolgandir, — dedi.

Bu gap ham ikki qayta takrorlangandan keyin Esangeldi yana yo'l oldi. Ilgarigiday emas, endi tez yurib chiqib ketdi. Biroq uning bu safari ham o'ngidan kelmadi.

Esangeldi eshikdan kiriboq:

— “Juma kuni Qansha opaning yili to'lar ekan,” yil oshiga saqlab o'tiribman”, dedi Oyjon kelinlaring, — dedi.

— Ha, ha... Oyjon kelin to'g'ri aytadi. Juma kuni Qansha opaning qazo bo'lganiga bir yil to'ladi.. Shunga asragani rost, — dedi Otaka. Qonunlashgan odat bo'yicha yonida o'tirgan kishilar ham uning gapini yana takrorlashdi.

Otaka endi birato'la dog'da qolganiga o'xshar edi. Och qolgan qorin yana bir tomoqdan o'tadigan molni esiga solgan ekan: — Endi so'zni qo'ygin-da, Qori akangning ko'k serkasini olib kelib so'y! — deb buyurdi. Boshqalari ham buyruqni takrorladi.

Shunday qilib, ko'k serka kelganda soat ikkidan o'tgan edi. U serka emas, taka ekan, uning qo'lansa hidi hamma yoqni tutib ketdi. To'ra urug'ining bu hiddan qanday jirkanmaganiga hayron qolasan kishi. Yo'q, ular jirkanish u yoqda tursin, ko'zlariga qarasang, ko'k takani tiriklay yutib yuboradiganday. Har biri bittadan taka yutqisi kelib o'tiribdi...

Pichoq qidiruv paytida yana bir katta to'siq chiqib qoldi: Ota-ka qaysi uyda qanday pichoq borligini ham bilars ekan. U aytdi, boshqalar takrorlashdi, ammo Esangeldi bitta ham pichoq topa olmay qaytib keldi. Takasi qurg'urning sassiq hidi ko'ngilni aynitib yuboryapti.

Nihoyatda sabri tugagan yo'ldoshlarimdan bittasi sakrab turib: — Ruxsat etsanglar... men... — deb kichkina pakkisini ko'rsatdi. Uning so'zlari odob chegarasidan chiqmagani bilan, toqati toq bo'lgani ko'rinib turibdi.

Tongga yaqin ko'k taka bir tog'ora go'sht bo'lib oldimizga keldi. Biridan keyin biri salom berib, o'ntacha xotin-xalaj kirib keldi. Hammalari bittadan bolasini ergashtirib kelibdi. Uyqusini buzib olib kelishgan shilpiq qiz bolalar yoshligidanoq tushib ketgan tishlarni yashira olmay esnashar edi. Bari yupin, bari kalsalmand, bari chalajon bolalar... To'ra to'qimi azaldan birining

qizini biri olib toza buzilgan, bolalarda hayot nishonasi arang seziladi.

Shuncha erkag-u ayol bitta ko'k takaga yopirilishganlarida tun uyqularini buzganlari evaziga arzisa ham mayli edi, degan o'y keldi ko'nglimga.

Erkaklari hissalarini yuborganlari yo'q... Otakang bir qulog'ini kesib mening oldimga tashladi-da, kallani o'zining oldiga qo'ydi. Soqoli bor, mo'ylovi yo'q kishi ham bir parcha go'shtni uzib oldimga tashladi-da, biqinni o'zining oldiga tortdi. Boshqalari ham har qaysisi o'zlariga tegishli ulushlarini ola boshladi. Qolgan go'sht to'g'ralib, yalpoq tovoqqa tushgancha ba'zilarining tomog'idan o'tib ham ketdi...

Go'sht yeyish oxirlab, sho'rvani ichib bo'lishlari bilanoq, to'ra urug'lari bir-bir suyakni bolalarga tutqazishib, tezda tarqalib ketishdi. Bizga tinch uyqu, xayrli safar tilab tarqashdi, albatta...

Ovul tinchib qolgandan keyin Qorasoch degan ayol bilan biroz kengashdik-da, "Otakaning o'zi so'rashi"ni kutib turmay, biz ham jo'nab qoldik. Qabristonga aylangan ovuldan qochib ketdik. Qachongi manmanligini tashlay olmagan mechkaylardan qochdik.

— Tavba, bu ovulning bir og'iz so'z aytishiga qancha vaqt kerak?! — deb ajablandi yo'ldoshlarimdan bittasi.

— Shuncha takabburona so'zlarning amalga oshuvi uchun qancha vaqt kerak? — deb ikkinchisi ajablandi.

Bular qancha zamon el ustidan hukmronlik qilgan bo'lsalar, shu davr ichida el umri bekorga o'tgan-ku, degan xayol keladi ko'nglimga. Shularni o'ylab, fig'on bo'lasan kishi.

Ertasiga raykom sekretariga kelib bergan axborotim shu bo'ldi: — Jangbirshi ovulida o'nta kolxozga yetadigan yer bor. Juda serunum yer bo'sh yotibdi. Bu ovulda kolxozga olsa bo'ladigan bittagina odam bor, ismi Qorasoch, — dedim.

— O'zgalarini nima qilamiz? — dedi raykom sekretari.

— O'zgalarining joyi o'zga yerda, — dedim men.

Raykom sekretari uzoq o'ylanib qoldi.

HALQA TUMSHUQ

Agar sariq tuya gapirolsa, u: sahroyi biyobonlarning imillab o'tayotgan kunlari, yillari, asrlari bilan kelayotsam ham, shu vaqt-gacha o'zimdand boshqa hayvonlardan orqada qolganim yo'q-ku, degan bo'lardi. O'z ovulidagi eng go'zal qizga "Bo'tako'z", eng uchqur otiga "Bo'tatirsak" deb nom beta olgan bu jonivor har qancha maqtansa arziydi.

Xalq o'rtasida "Bo'z ingan" deb nom olgan ajoyib kuy keng yaylovni oralab allaqayoqlarga, ko'z ilg'amaydigan adirlardan oshib tinglovchilariga borib yetganda, ular:

— Yoruqlik juda eslik mol, — deyishmasmidi uni.

U bechora Qarag'andaning ko'mirini ham tashishdi. Turkisib yo'lini ham qurishdi. Ovulga birinchi traktorni ham sudrashib olib kelishdi. Sahroyi biyobonda tashnalikka chidadi u.

Afsus, sariq tuya gapirolmaydi-da. U hozir Tangri bergan takabbur boshini g'oz ko'tarib, sekin immillab ovulga yaqinlashib kelyapti. U, qadimiy odati bo'yicha, bu gal ham birtalay yuk olib kelyapti. Keng shotili arava mayishib-qayishib kelyapti.

Sariq tuya tortib kelayotgan arava ustidagi semiz cho'chqalar qimirlamay kelyapti. Bag'ridagi yettita cho'chqacha ham onasining yelinini turkilashdan boshqani bilmasdi. Ko'zlari yiltillagan, kipriklari oq bu jonivorlarning yalpoq tumshuqlari bilan onasini emishdan boshqa dardi yo'q. Ba'zi-ba'zida yalpoq tumshuqlarini ko'tarib "xur-xur" qilib o'ziga azaldan dushman bo'lgan ovulga yaqinlashib kelardi...

Ilgarilari ruslar bilan qozoqlar urishib qolishsa:

— He, baqiroq tuya...

— Cho'chqasan!.. — deyishib bir-birini yomon ko'radigan hayvonga teng qilishardilar.

Bilmadik, cho'chqalar ham tuyalar kabi tarixiy o'rmini topadimi-yo'qmi, har holda, "Yangiyo'l" kolxoziga ikkita cho'chqa olib

kelindi. Ularni aravadan tushirmoqchi bo'lganda kolxozchilar jirkanib, o'zlarini olib qochdilar. To'planganlar aravaga yaqin kelmay nariroqda to'planishib turishdi.

Cho'chqalarni olib kelgan kolxoz raisi Saden:

— Qani yigitlar, bularni aravadan tushirib yuboringlar... Nega jirkanasizlar, bu ham mol-ku... — dedi jilmayib. Uning bu gapiga unchalik e'tibor berishgani yo'q.

— Ehtimol, moldir...

— O'rislar mol deb boqishadi-ku, har qalay...

— Tumshug' i yalpoq ekan?!

— Og'zi qanaqa o'zi, sal molnikiga o'xshaydimi deyman?..

— Yo'g'-e, tuyog' i ayri, ko'proq qo'yga o'xshaydi.

— Tur-e, qo'yga tenglashtirmoqchimisam shu kofimi... Qorni to'la yelin... Qayeri qo'yga o'xshaydi uning?..

— Saden, shuni ham mol deb olib keldingmi?..

— Mol bo'lmay nima senga?..

— Ehtimol, moldir... bunaqasini boqib ko'rmaganmiz....

Unisi u deb, bunisi bu deb, xullas, kolxozchilar cho'chqalarni aravadan tushirishda Sadenga yordam berishmadi.

— E-e-e, olib kelaman deganing shularmidi! Barakalla senga! — deyishib orqalariga qaytishdi.

Bunday bo'lishni Saden avvaldan bilardi. Shuning uchun ham u, bu ikki cho'chqani kolxozga ajratilganiga ikki oy bo'lganiga qaramay, shu vaqtgacha olib kelmay yurgandi.

Ferma mudiri unga:

— Saden, cho'chqalaringni olib ketsang-chi, — deb bir necha marta aytgan bo'lsa ham, u:

— Shoshmay tur... kelasi safar olib ketarman, — deb galga so'lardi.

Mana, ko'ngli ayniy-ayniy bugun zo'rg'a olib keldi. Cho'chqaning tez ko'payishiga biroz qiziqsa ham, og'zi kir-chir, qorni to'la yelin... Tumshug' i-chi... Qulog' i ham... Biroq tuyog' i ayri...

— Hoy, harom bo'lsang kerak-a, — derdi u ijirg'anib. Lekin u hozir o'zining bu fikridan qaytdi. — Hm, harom degani nima o'zi? Molning kir-chiri! O'ris xalqi ot go'shtini yemaydi. Qozoqlar-chi,

cho'chqa go'shtini... Bularning hammasi dinning, mullalarning ishi. Mana, hukumat kerak bo'lsa cho'chqachilik sovxozini ham tashkil etyapti. Bizning fikrimiz hukumatning fikri, hukumat nima desa shu bo'ladi! Biz faqat hukumatimizga ishonamiz. Xo'sh, madaniyatli ellarning cho'chqalari mo'rchaga tushadi, cho'chqalarini oq matoga o'rab olishadi deyishadi...

Saden shundan boshqa dalil topolmadi, bundan boshqasini izlagisi kelmadi. Shu fikrimni o'z so'zim bilan to'nda-lo'nda qilib aytib bera olsam, kolxozimni ishonтира olaman, bundan boshqa gap ortiqcha, deb o'ylab, tavakkal qilib, cho'chqalarni olib keldi.

To'planganlar yana ham nariroq ketishdi. Ba'zilar Sadenni masxara qilmoqchi ham. Biroq Saden biron ishini qilsa, orqa-ol-dini o'ylab qiladi. Kolxoz raisligi o'z yo'li bilan-u, lekin o'zi ham yomon odam emas. U biroq bilan urishmaydi, baqirmaydi, hovliqmaydi. Ammo aytganini qildirmay qo'ymaydi. Doimo ishini o'zi boshlab beradi, keyin boshqalar davom ettiradi. Ish bitgach, u odamlarga:

— Qani bitmagani? Ko'pchilikdan qochib qutuladigan ish bormi? — deydi kulimsirab. Buni ko'rgan kolxozchilar yana ruhanib ketadilar.

Saden hozir ham shu odatini qilmoqchi... Cho'chqalarning atrofida indamay aylanib yuribdimi, demak, shunday qiladi. U cho'chqani mol deb olib keldimi, bas, uni boqishiga shubha qilmasangiz ham bo'ladi. U aytganini qiladi. Chunki o'ziga ishonadi.

Saden cho'chqalarning oyoqlarini yecha boshladi. Ana, yum-yumaloq, sep-semiz oq cho'chqalarni u quchoqlab ko'tarib saroyga tashiy boshladi ham. U go'yo odamlarga, cho'chqani mana shunday tashiydi, bilib qo'yinglar deganday cho'chqalarni birlab tashiyapti: bittasini ko'tarib oladi-da, orqasini silaydi, tumshug'ini ushlab ko'radi, keyin saroyga olib ketadi.

Onasidan ajralgan bitta cho'chqacha chiyillagan edi, kolxozchilar qahqahlashib kulishdi. Bunday tovushga quloqlari o'rganmagan ovul itlari ham vovullashib arava atrofiga to'planisha boshladi. Saden ularga e'tibor ham bermadi:

— Odamlar bekorga yomonlashishadi... juda ozoda mol ekan jonivor... — dedi u ishonch bilan.

- Mol bo'lsa moldir-u, biroq toza emasdir...
- Kim biladi, boqib ko'rmagandan keyin...
- Mariya kelin bor-ku, boqar...

Odamlar o'zlarini kulgidan zo'rg'a tiyib turishardi. So'zlari negadir ilmoqli. Saden ularga e'tibor ham bermadi. Cho'chqachalarni bir-birlab saroyga tashib bo'ldi. Cho'chqachalari chinqirsa aravadagi ikkita katta cho'chqa "xur-xur" qilib o'dag'aylaydi.

— Hozircha xurillamay tura tursang ham bo'lardi, — dedi Saden ichida. Biroq bunday mahalda cho'chqalar gapga tushunadi deysizmi?

— Ovozindan o'rg'ilib ketay! — deb biroq piq etib kulib yuborgan edi, xuddi shuni kutib turganday odamlar ham xaxolab kulib yuborishdi.

- Tovushining xunukligi — bo'yning qisqaligidan...
- Kekirdagi ham joyida emas... Tovushi kekirdagidan chiqadi...

— Bu o'zi yuqoriga qaramasmish-ku...

— Nima, yuqoriga qarasa, yulduz sanatarmiding?

Saden bo'lsa ona cho'chqani silab turib:

— Kulinglar-a, kulinglar. Kuzda har qaysisi besh puddan yog' beradigan o'ttizta mol bo'lganda, gaplashaman sizlar bilan! — dedi.

— Qancha yog' desang ham berar-ku... Baribir, halolmas-da...

— Mol bo'lmasa cho'chqa bo'lar...

— Xo'sh, moldan nima farqi bor?

— Yo'q, o'zim shundoq... sigimi sigir degandek, buning oti cho'chqa demoqchiman-da...

— Buni toza bo'ladi deganingga ishonmayman...

— Toza boqsang toza bo'ladi? Nima, sigir o'zining tagini o'zi tozalab qo'yadimi?

Saden, cho'chqa asl mol, cho'chqaning yog'i ko'p, toza mol, tez ko'payadi, deb qayta-qayta ta'kidladi. Aftidan, uning bu fikriga boshqalar e'tiroz bildirmaydigan, shekilli-yu, biroq cho'chqa molmas degan eski tushuncha xalaqit berayotgandek ko'rindi. Boshqalar u yoqda tursin, Sadenning tug'ishgan ukasi Apan ham

qaytalanmay turibdi. Apan Yefimning qizi Mariyaga uylanganda yor u jo'ralari:

— Endi sening uyingda oq quloqning go'shtini yeydigan bo'lib qolmish-da?..

— Mariyaxon uni yemasa tura olmas... — deb mazax qilishgan edi, shundan buyon ikki yil o'tdi.

— Aytganlari keldi-da, axir... — deb xijolat bo'ldi Apan.

Qo'lida "Qozoq tili" darsligi, Mariya kechki darsdan qaytib keldi. U shu kelishida:

— Min bordiyim... sin bordiyim... u diydi... biz diymiz... siz deyingiz... alar toje diy... — deb kitob o'qib keldi.

Mariya endi qozoq alifbosini tugatib, kitobni o'zicha hijjalab o'qiy boshlagan edi. U birmuncha tuzuk gaplashsa ham, kitob o'qilganda tutilib-tutilib qolardi, ayniqsa, kelishiklarda qiynalardi.

Mariya qaynag'osining yoniga kelib:

— Dyadya Saden, cho'chqa olib keldingizmi? Mana bular qo'rqib turishibdi-ku juda... — deb chinqirayotgan cho'chqalarga yugurib ketdi.

U darrov bittasini ko'tarib chiqib:

— Qo'zidan qayeri kam?... Apan, nima balo, sen ham qo'rqib turibsanmi? — dedi eriga.

Apan indamadi. Kolxozga cho'chqa olib kelishganidan negadir u xijolatda. Atrofidagilar Mariyaga:

— Albatta, sen uchun uning hech qanday zarari yo'q. Apan ham tortinmasa bo'lardi... unga cho'chqa halol... — deb yana bir kulishdi.

Saden arava ustiga chiqib:

— Qani, kel Mariya, tushiraylik, — degan edi, Mariya to'satdan qo'lidagi cho'chqani Apanga tutqazdi-yu, chaqqonlik bilan arava ustiga chiqdi. Apan xuddi bir narsadan ko'ngli aynigan yoki yig'lamoqchi bo'lib turgan odamday basharasini bujmaytirib, cho'chqani gavdasidan nariroq ushlab turardi. Ammo yerga qo'ygani yo'q. Cho'chqalar go'yo o'zlari ustidan kulishayotganlarini tushunib xafa bo'lishayotganday "xur-xur" qilib qo'yishadi. Shu "xur-xur"ini qilmay tursa-ku, ehtimol, odamlar Sadendan kul-

masmidi? Shunday bo'lsa ham, odamlarni shu yerda ko'ndirmasa, bu gaplar yana cho'zilib ketishini bilib:

— Qani yigitlar, ko'taringlar! — dedi Saden salmoq bilan. Bu uning odatdagi muomalasi.

Yigitlar birin-ketin ustki kiyimlarini yechib, bilaklarini shimarib, qo'l uchidagina yordam berishmoqchi bo'lib aravaga yaqinlashishdi. Bittasi qulog'ining uchidan, bittasi oyog'idan, bittasi orqasidan avaylab ko'tarishgan edi, cho'chqa turgan joyidan qo'zg'almadi ham. U yoq-bu yog'ini silab yurgan Saden "xaup!" degan edi, yigitlar noiloj quchoqlab ko'tarishib yerga tushirishdi. Ikkinchisini tushirish sal oson bo'ldi.

— Voy harom qotg'ur-ey!.. — deb yigitlar yana bir kulishib olishdi.

Jiqqa yog'idan boshqa aybi yo'q, tepsa tebranmas hayvonlar bir xurillab qo'yishdi. Ular aravadan tushgan zahoti, avvalo, o'zlariga notanish yermi bir-ikki hidlashdi-yu, keyin saroyga kirib ketishdi. Bu yerning osmoni qanaqa bo'lar ekan, deb yuqoriga qarashmadi ham. To'planishgan odamlar shalpaygan quloqlari bilan yelinini ko'rib jirkanishadi-yu, biroq semizligini ko'rib "besh barmoq"ni eslashadi...

Mayli, nima bo'lsa bo'lsin, shu yil ikkinchi may kuni "Yan-giyo'l" kolxoziga bir juft cho'chqa olib kelishdi.

Bir-ikki kundan so'ng cho'chqalarni qanday parvarish qilish, qanday boqish masalasi to'g'risida majlis bo'lib o'tdi. Qozoq akang azaldan so'zga usta xalq emasmi, majlisda cho'chqani rosa askiya qilishdi. Hech kim qarshi chiqmasa ham, mayda-chuyda qochirim, ilmoqli gaplar bo'ldi.

— Toza mol de'yishyapti-ku... Eng toza uyimizni bo'shatib beramiz-da.

— Boqib ko'rmagan molimiz... tilimi biladiganlar boqsin...

— Chillaki qilib tez-tez tug'ar ekan...

— Nima, echki tez-tez tug'masmidi?

— Bu undan ham chaqqon ko'rinadi...

— Buni nima deb chaqiramiz?.. Jigi-jigi deb chaqiramizmi?

— Qo'y-e, qozoqchani tushunadi deysanmi, bizni endi ko'rib turibdi-ku, jonivor... "No!" deb chaqiradiganmizdir-da...

Mariyaxondan boshqa odam boqa olmasa kerak deyishdi kuydilar, Mariya o'rnidan turib:

— Men o'zim boqa qolay, biroq dalada ikki kishining ishini qilib yurgandim-da... — dedi.

Hech kim cho'chqa boqqisi kelmaydi. Mariyani ekin-tikin ishidan bo'shatish qiyin. U qo'l urgan ish hech qachon chala qolmaydi. Zavq-shavq bilan ishlab, boshqalarni ham ruhlantirib yuboradi. Boshqa ayollar Mariyadan qolishmay, ba'zan oshirib ishlasalar ham, negadir unumsiz, ishonchsiz ishlashadi. Shuning uchun majlisda o'tirganlar cho'chqa boqishni Eson boboga topshirishdi va uni zo'rg'a ko'ndirishdi.

Eson bobo yettita cho'chqachasini ergashtirib, ikki katta cho'chqani ko'l yoqasiga haydab olib keladi-yu, o'z holicha qo'yib yuboradi. O'zi esa go'yo boshqa ish bilan yurgan odamlardek chetlab, uzoqdan kuzatib yuradi yoki boshqa bir ish bilan mashg'ul bo'ladi. U cho'chqa boqqani uchun or qiladi. Shuning uchun ham u har kuni cho'chqalarini ertalab odamlar uyqudaligida haydab chiqib ketadi-yu, kechqurun odamlar uyquga ketganda haydab keladi, uncha ko'zga tushmaydi. Kechqurun uyiga kelganda, tayog'i bilan chakmonini tashqarida qoldirib, ichkariga yuvib kiradi. Cho'chqa haqida Saden bilan gaplashadi. Boshqa molchilarga ham yaqinlashmaydi. Bordi-yu, yoshlar cho'chqa haqida gap ochib qolsa, Eson bobo u yerdan ketib qoladi. Shuning uchun u bor joyda cho'chqa haqida gap bo'lmaydi.

Bir-ikki oy o'tgach, cho'chqa haqidagi hazil-huzul, ilmoqli gaplar tugab qoldi. Kolxozchilar ancha ko'nikib, kulmay gapiradigan bo'lishdi. Bir majlisda yaylovdagi yem-xashakdan cho'chqalarga ham bo'lib berishga qaror qilindi. Eson bobo kechqurun cho'chqalarini haydab kelar ekan:

— Eson aka, cho'chqalaringiz juda semirib ketibdik-ku...

— Jonivor, o'zi ko'payadigan mol ekan...

— Anovi cho'chqangizning nega mazasi yo'q? — de'yishadigan bo'lishdi...

Bir kuni Eson bobo cho'chqalarini haydab kelayotgan edi, orqasidan birov:

— Cho'chqang ko'paysin, boboy! — dedi.

Aytganing kelsin! — dedi Eson bobo. Qadimgi molchilarday “aytganing kelsin!” deb orqasiga qarasa, Hasan mullaning o'g'li Aban tirjayib, mazax qilib kulib turgan ekan.

— E boboy, endi kelib-kelib cho'chqa boqdingizmi!... — dedi Aban joni achigan bo'lib. Eson bobo uning rostdan ham mazza qilayotganini ko'rib:

— Chirog'im, bizning hamma ishimiz senlarga erish tuyuladi. Nariroq yursang bo'lardi! — dedi jiddiy va tayog'ining uchini yerga urib qo'ydi.

Eson boboning vajahatini ko'rib, Aban otini yo'rttirib jo'nab qoldi. Uzoqdan uning ashulasi elas-elas eshitildi:

“Xurillatib cho'chqa boqqan, o'rgilaman-ey...”

Xuddi o'sha kuni Eson bobo ham devoriy gazeta muxbirlariga kelib, Abanga qarshi qo'shiq yozdirib oldi. Qo'shiqning har ikki satrida “cho'chqa” so'zi takrorlansa ham, Eson bobo bu qo'shiqni og'zidan qo'ymaydigan bo'ldi. Birov yoniga yaqinlashsa bas, darrov boshlab yuborardi.

Tuya haqida talay-talay qo'shiqlar aytilgan-u, biroq cho'chqa haqida shu vaqtgacha bitta ham ashula yo'q. Chunki u hali kol-xozda mol qatoriga kirgani yo'q. Shunday bo'lsa ham, cho'chqa haqidagi birinchi qo'shiq “Yangiyo'l” kolxozidan chiqdi:

Bizning besh xil molimiz bor: cho'chqa biri,

Haydaymiz to'p-to'p qilib yaylov tomon.

Ey yaramas, odamga hech el bo'lmaysan,

Nega axir, fe'l-atvoring buncha yomon?..

Ayb, qo'yib cho'chqamizga tasodifan,

Harom deb jar solibdi yuzsiz Aban,

Hasan mulla otangni ham bilamiz biz,

To o'lguncha quruq qolmas hech o'ljadan.

Bizning cho'chqa ham semiz-u, ham ozoda,

Qovurg'ada qarich-qarich yog'lari bor.

Sen shumlarning shu qo'lansa gaplaringga

Cho'chqamning harom tuki ham tengmas zinhor.

Bordi-yu, bizlar so'yib bir bolasin,

(Abanga bermoq bo'lsak bir parchasin)

Lo'q qilib o'tirarding sen ko'zingni,

Totmoqqa zor bo'lib moy-u go'sht mazasini!..

Bir yil ichida “Yangiyo'l” kolxozining cho'chqalari yigirma makkiz bo'ldi. Qarib qolgan ota cho'chqasini kelasi yili bozorga olib chiqib sotgan edi, buzoqli ikki sigirning puliga olishdi. Boshqa cho'chqalar ham semiz, xuddi qimiz quyadigan meshday bilq-bilq qiladi.

Cho'chqalar ko'chmanchi xalqning sevimli moli bo'lolmasa ham, chorvachilikda o'ziga xos o'rin egallashini sezib turganday “xur-xur” qilishadi.

Nariroqda yotgan sariq tuya ham cho'chqalarga qarab:

“Do'stlarim, senlarni men olib kelganman... Mol chorvachiligi tarixida mening ham o'zimga yarasha o'mim bor!..” deganday hurzur qilib kavshanar edi...

1933-yil

QO'SHCHALQAR

Mana, biz ikki ko'lning orasida turibmiz. Olovdan o'tilganday qo'ng'ir, serjinalak. Adir — qirsiz keng vodi. O'mrovli keng dala. Qovjiragan qalin o't.

Kulning kun botish tomonida ot yoliday qalin butazor ko'k qirg'oqni ko'mib, keng yopilgan keraga singari egilib kelib, ko'lga taqalib to'xtagan. Qo'shchalqar — qo'sh ostonaga o'rnatilgan kumush zinapoya kabi ikki ko'l. Kechki jimjitlikda yarqirab turgan cheksiz suv qirg'oqqa asta urilib dirillaydi. Jazavasi tutib pishqirmaydi, to'qinlanmaydi...

Asta esgan shamol chalqar — ko'lning oqimtir betini quchib o'pganday bo'ladi. O'pgan joyida esa jimjimador iz qoladi. Chalqar seskanib, chimirilganga o'xshab ko'rinadi.

Suzib kelayotgan ko'k bulut ko'lankasini ko'lga tushirib, go'yo oynaga qarab silanadi. Kechki oftob ikki ko'lga navbat bilan cho'milib yaraq-yaraq etadi. Biz toza havoni to'ygancha shimirib, kolxoz ekinzorining o'rtasida turibmiz... Bu Qosimning Qo'shchalqari. Qoraqosh bekaga xudoyi qilib, osh berilganda poygada yutgan qoraqashqa otning sovriniga Kanikay degan yetimcha berilgan. Shuning uchun "Kanikay chalqari" deb ham ataladi.

"Telpaklar", "Itoyoqlar"ning ter to'kib ekan ekinlariga Qosimning behisob yilqisi yoyilib yotsa-da, "Itoyoqlar" Qo'shchalqarda, hatto otini ham sug'ora olmas edi.

Biz o'zimiz bilgan Tapel tajang qo'riqlaydigan "Qosimning Qo'shchalqari-ku..."

Men Qo'shchalqarni umrim bo'yi uch marta ko'rdim. Birinchi safar o'ntacha bola maymunjon terгани keldik. G'ira-shirada belimizgacha ko'milib, to'qayga kirdik. Bekinib yurgan bo'lsak-da, salgina sharpaga ham jaranglab aks sado beradigan, inson qadami yetmagan to'qayda ko'nglimiz tog'day ko'tarilib, qich-

qirishmasdan chidab tura olarmidik. Keraksiz paytda ham qah-qah urib kulib, bir-birimizga yaqin turgan bo'lsak ham, baqirishib bo'zlashdik. Maymunjon bizni sudray berdi. Yovvoyi meva qidirib uzoq-ashganimiz sayin baqirib-chaqirishimiz kuchayib, Tapeli qurg'ir eshitib qo'yibdi-ku. Shunday yonimizga sezdirmay kelib qolganida ko'pimizning savatchalarimiz o'zidan o'zi g'oyib bo'lib qoldi. O'zi novcharoq, beg'amroq Abzi degan bir o'rtog'imiz qo'cha olmay keyinda qolib ketgan edi, orqada qamchi ship-ship etib qoldi. Qamchiga chap bermoqchi bo'lganida Abzining oriq qovurg'alari o'ynardi... U qamchi tushgan orqasini uqalab, jon-jahdi bilan "Og'ajon" deb baqirar edi. U, baribir, qo'cha olmadi. Boshqalarimiz uchib ketdik.

Bir-bir chelakdan maymunjon terib olib, Qo'shchalqarning birida cho'milib qaytmoqchi edik. Niyatimizga yetmadik. "Ovulgacha quvib bormasmikan," degan xavf bilan ketimizga qarab qarab qochardik.

Birinchi bor Qo'shchalqarni shunday ko'rganman...

Qo'shchalqarni ikkinchi marta ko'rganimda havo issiq, chilla payti edi. Oldidan sanaganga o'n yettinchi, orqadan sanaganda yigirma ikkinchi ho'kiz aravada edim. Bechora qora ho'kiz ziga chivni uymalab, og'zidan so'lakayi oqib, qilt-qilt oyoq bosib boradi. Ikki g'ildirakli qozoq arava ham odatdagiday, oh-voh qiladi. Uzun qutining ichida men bilan to'rt kishimiz. Mendan boshqalar pichan o'rishga kelayotgan o'roqchilar. Men ho'kizni olib qaytishim kerak.

Boshqa aravadagilar ham shunday. Barcha aravalarning orqasida yalt-yalt etgan o'roqlar. Tumshuqlarini osiltirib, ko'k maysaga tishlarini qayrab kelayotganga o'xshaydi.

"Qo'shchalqarga jo'nanglar", degan xabar kelgandan keyin, yaqinda chiqishgan yaylov qizig'ini tashlab, yigitlar pichan o'roqqa qaytishgan edi. Bular Qosim boydan uch so'm pul, ikki chana xashak, biya suti, ot moyi deganday har safar oladigan qarzarini uzish uchun kelishmoqda. Hammalari ichi og'riyotgan odamlarday qovoqlari soliq, ko'ngillari xira. Yuzlaridanoq yuraklarida umidsiz o'kinich borligi ko'rinib turibdi. Yangi ko'chib borgan yaylovning gashtini surolmay qolgani yigitlarga alam qiladi. Og'zilariga

tolqon solganday jim. Nosvoy so'rashganda bo'lmasa, chehralari yorishmadi ham.

Qarzdorlarni boshlab kelayotgan Jantiq tarantas aravada, hu ana, oldimizda ketayotibdi. Payti kelgan joyda Qosimni gapiradi. Qosimga orqa qilib so'zlaydi. "Qo'shchalqar"dan ikki ming bog' pichan o'rdirsam, "Qizketgan"dan ming bog' o'rdirsam, deb boshlaydi. "Ko'rlik qilib, yomg'irda qolgan xashakni ho'llayin yig'manglar! Shunday qilguday bo'lsanglar, mendan o'pkalamanglar!" deydi. O'z hukmini o'tkazib, o'roqchilarni qiynaydi.

— Shu it boshimizga yetadiganga o'xshaydi, — deb yigitlar o'zaro to'ng'illashadi. Qosimga qo'shib Jantiqni ham so'kishdi. Shunday qilib, "yarim podsho" Jantiqning hukmronligida kun bo'yi yurib kelmoqdami.

Ertasiga tush paytida "Qo'shchalqar"ga yetib keldik. Issiqdan qiynalgan ho'kizlar tillarini osiltirib, harsillab turibdi. Jantiq yigitlarni to'plab, ovul-ovulga bo'ldi. Atrofi bir ot chopim keladigan o'tloqning o'rtasiga hech kimni kiritmay, atrofiga tushirdi. Odamlarni, hatto Qo'shchalqar bo'yiga yaqinlashtirmadi ham. "Ichishga sizot suv ham bo'laveradi", deb hech kimning aytgan so'ziga kirmadi. Yigitlar noiloj yon yoqqa tarqab ketdi. Qo'nishlarning o'rtasidagi masofa ot bilan qatnaydigan darajada uzoq. Yaqin bo'lsa qo'nishdagilar o'rtasida bordi-keldi ko'payadi, deb atayin shunday qildi.

Biz qo'nishda sakkiz kishimiz. Balchiqli sizotdan sassiq sariq suv olib kelib, choy qaynatdik. Qo'lansa sassiq choyni ichib olib, o'roqchilar qatorlashib o't o'rishga kirishdilar, sariq bosh aralashgan qalin pichanzorda o'roqchilar hosil qilgan yo'llar jimirlar edi. Rahmat solgan chalg'i o'roq shig'illaydi, kun nurini qaytarib yalt-yult etadi. Kuchli bilaklar, peshanadan tomgan marjon-marjon achchiq ter, o't oralagan chalg'i o'roqlar Qosimning riziqini ko'paytirib, jadal harakat qilar, qalin pichanni shart-shurt yiqitardi.

Biz ho'kiz haydovchilar kechki salqinda qaytdik. O'roqchilar alamzada bo'lib qolaverishdi. Go'yo bizning qaytayotganimizga ularning hasadi kelganday har xil gap qilishib, arava atrofida biroz to'planishib turishdi. Qiynalganda olgan qarz pulini deb shunday

yo'ylovni tashlab kelib, jazirama chillada o't o'rishlari, Jantiqning tepalarida turib buyurishlari, bizning qaytib ketayotganimiz — huri qo'shilib, yigitlarning jonini chiqarayotgani ularning kayflaridan bilinib turibdi.

Rahmat qiziq odam edi: "Tezroq ket, bularning ko'nglini buz-may... Bizning xotiga ayt qo'lqopimni, bir-ikki qatim ip ham berib yuborsin. Qilgan ovqatidan ham qoldirmay ola kel!.." dedi.

Qozoq arava g'ichir-g'ichir qilib yurib ketdi. Keng o'tloqqa aylana atrofdan tushgan qarzdor o'roqchilarga qarab-qarab, biz ham ketaverdik. Kechki sukunatda shig'-shig' etgan o'roqlar tovushidan uzoqlasha bordik. Qosim bilan Jantiqning nega bunchalik itlik qilganiga tushuna olmadik. Qo'tir badanga tiniq ko'l suvi buyurmaydi.

Qo'shchalqarni ikkinchi marta ko'rganim shu.

Bugun Qo'shchalqarni uchinchi bor ko'rishim. Ostimda ot, yonimda Husan bilan Bo'ljiq bor. Bu yerga ertalab kelib, ko'p joyni oraladik. To'qayda ko'nglimiz tortgancha yurdik. Qosimning merosi bo'lgan Qo'shchalqarning burchak-burchagigacha qoldirmay oraladik. Kichik chalqarda rosa cho'mildik. Ilgarigi o'zimiz bilgan Tapel ham yo'q. Jantiq ham yo'q. Esimga tushgani bo'lmasa, birortasini ham uchratmadim. Quvlasa-ya, savalasa-chi, deb o'ylaganim ham yo'q...

Kuz... yer betini bosgan o't-o'lanlar yetilgan payt. Kun hali erta. Qo'ra bag'riga endi oftob tusha boshladi. Ko'lankada o'sgan qalin o'tlarning shudringi bug'ga aylanib, izini bildirmay yo'qolmoqda. Sarg'aya boshlagan baland g'aramlar issiq kunga o'zlarini solib, tungi salqinda hovur chiqaradi. Endigina bilak qizib, ter munchoqday oqib, ish una boshladi. Ishlagan sayin ishlaging kelib, urgan qulochingga o'zing ham quvonasan.

Husan qo'lini yozib, atrofni ko'rsatib:

— Anavi qalin to'qaydan, manavi qizil jarga dovur, bu tomonimiz. Qalinning orqa etagidagi qora yo'ldan Qizketgancha bizning yer, Qo'shchalqar ham shu hisobga kiradi... — dedi.

Husan ochiq chehra bilan kuladi. Husan ikkilanib so'zlaydi. Qo'shchalqarni tilga olganida ko'ziga yosh keladi:

— Endi o'lsam armonim yo'q, — deydi u.

Quvonchini aytishga so'z topolmaydi. Zang bosgan qari yuragida yoshlik qoni oqa boshlaganga o'xshaydi. U Qo'shchalqarga aloqador voqealardan ko'pini bilarkan. Haligi qarzdor o'roqchilar orasida o'zi ham bo'lganini gapirdi. Jantiq bilan Qosimning ko'p qiliqlarini gapirib berdi. Biroq afsonaga aylangan son-sanoqsiz voqealarni aytishga tili kelsa-da, Qo'shchalqar kolxoznikni bo'lgandan keyingi quvonchini aytib tugata olmaydi.

— Qo'shchalqarning bizga tegganiga ishonolmayman, hech ishingim kelmaydi... — deydi.

Hangomalashib kelyapmiz.

— Qancha uysizlar?

— O'n bir uymiz. Qo'shilamiz deganlar ko'p. Qanday bo'larkin, deb olmayapmiz. O'zimiz bu yilgina jamoalashganimiz uchun ham, kirganlar yana chiqib ketishmasmikin, deb cho'chibroq turibmiz...

— Qancha ovuldan to'plangansizlar?

— Qancha ovuldan ekanini aytish qiyin, to'lib yotibdi. Ichimizda bitta no'g'ay, bitta "balobay" mashari ham bor. Mashinadan xabardor Mekayla degan o'ris ham bor. Bizni xalq jamoa ovuli deydi. Oldiniga erish ko'rindi. Endi hamma ham "Jamoa ovul"ga quvonamiz. Yozgi ovul u yoqda tursin, qishki qishlovni ham birga qurdik. Jamoa bo'lganimizga bir yilga yaqinlashdi. Haligacha biror marta ham oramizda janjal chiqmadi. O'tgan yilgi jamoalar janjallashaverib, oxirida tarqalib ketgan edi. (Undan yolg'iz O'ir-daboygina boyib chiqdi.) Biz xuddi tug'ishganday turamiz. Hammamiz kambag'alimiz-ku. Ichimizda ishbuziqi bir yalqov bor edi. Tuzalib qolar, deb kutdik, bo'lmagandan keyin chiqarib yubordik.

— Jamoa bo'lish vaqtida Qosimning bolalari talay ovora qildiku: shuning uchun ham ko'pgina kambag'allar kira olmay qoldi. Qizil bo'lib ketasizlar, bisotingdagi bor narsangni tortib olishadi deb qayerdagi yo'q gaplarni gapirdi.

— Hozir xo'jaliklarning qanday? Mashina-asboblarning bormi?

— Ey, qarog'im, qanday xo'jalikni so'raysan: hammamiz ham kambag'al edik-ku! Barimiznikini to'plaganda, yetti buzoqli sigir, olti yilqi, o'n uchtagina qo'y bor edi. Hozir boyib ketdik: hukumat

o'n ho'kiz, olti ot, besh arava, ikki tishli uch so'qa berdi. "Benka", "Senka", "Reska" degan mashinalarimiz yana to'lib yotibdi. Hammasini keyinchalik to'larsizlar deb, tekinga berishyapti. Ovul boshlig'i bilan bo'lis xabar beradi. Biz borib olib kelamiz. Boshqa yana nima kerak?! Bahorda yuz sakson pud urug'lik berdi-ku. O'ttiz yerda ekinimiz bor. Har bir qartadan yuz puddan hosil tushadigan ko'rinadi!.. Haligi yalqov Bayken degan yigit Qosimning bolasiga ikki qartaning urug'ligini berib yuborgan edi, orqasidan quvib yurib, qaytarib oldik. O'ziningam rasvosini chiqardik.

Ilgari kim ekin ekib ko'ribdi, deysan. Bu yil uy boshiga ikki uch yuz puddan hosil ko'taray deb turibmiz. Uy boshiga o'n puddan jamoa omboriga to'kamiz, deb kelishib ham qo'ydik. Qip-yalang'och edik. Kooperativga bug'doy beramiz, deb va'dalashib, yaqinda kiyinib ham oldik.

— Qancha xashak yig'dinglar?

— So'rama, chirog'im. Manavi o'tloqdan Qosimga ikki ming bog' xashak o'rib berar edik. Shu o'tloq bizga teggandan keyin xashaksiz qolarmidik. Hukumatdan olgan ikki mashinamizni ishlatgan edik — bir oyda uch yilga yetadigan xashak tayyorladik. Allaqachon g'aram qilib to'plab ham ulgurdik. Endi hosilni yig'ib terib olishga kirishdik. Hozir ko'rasan.

— Gazet, jurnal o'qiysanlarmi?

— O'qiganda qanday!! Biroq qayerdadir gazetamiz yo'qolib ketadi. Shu narsani yo'lga sola olmadilaring-da. Kitob ola olmaymiz. Ovul raisiga aytgan edik, nega olib bermayotganiga hayronmiz. Kechqurun ishdan qaytganimizdan keyin, Mekayla barini bilarkan, yaxshilab o'mashtirdi. Endi kir deganingiz yaqin yo'larmidi bizga. Qani endi bizning isqirt qozoq deb ko'rishinchi! Har jumada tushib turamiz.

Hammomdan o'tib, qishlov chetidagi xirmonga keldik. Chorsi, keng xirmon. Chir aylantira uyub tashlangan bug'doy g'arami xuddi oltinday tovlanadi. Eng baland g'aramning tepasida bayroq. Shabadagayoq hilpirab: "Bu yoqqa kel!" deb chorlayotganday bo'ladi. Oltin g'aramlar atrofida odamlar yurishibdi. Sag'risidan yog'i chiqib turgan ho'kizlar, qo'shishga taxt otlar. O't-olov yigitlar. Ko'ylaklarini lipasiga qistirgan ayollar. Birida ayri, biri-

da siring'ich, birining og'zi qulog'ida. Uy-uyida og'zini chapil-latib o'tiradigan ayollar, mana endi bug'doy yanchishyapti!..

Kun yallig'lanib ko'tarila boshladi. Molaga otlar qo'shildi, uzun qamchi ishga tushdi. Orqaroqdagi yumaloq beton mola yu-malay ketdi. U buvimning urchig'iday emas, ko'z ilashtirmaydi. Bosilib yotgan chang osmonga ko'tarildi. Mashina gur-gur etadi. Tog'dan tushayotgan suvday shovqin soladi. Oltin bog'larni qir-qir yutib, qizil marjonga qoplarni to'latadi. Mehnat kuyi, mehnat zavqi yetti qirga dovur yetdi. Qora yer so'lqillab tebranadi. Osmon qo'shila gurullaydi...

Bir tomondan tashilyapti, bir tomondan yanchilyapti! Xirmon boshi katta to'y!.. Gur-gur-gur!.. Gurullagan sayin peshanadan chiqqan achchiq ter marjon bo'lib qopga quyiladi. Hidi burqiragan mehnat kuyi osmonga o'rlaydi. yer bilan osmon qo'shilib tebrana-di. Osmondagi Olloning osti so'lqillaydi... Farishtalarning bari — zim-ziyo, boshini qayoqqa tiqishini bilmay halak...

Tushga yaqin mehnat ahli dam oldi. Shov-shuv ko'tarib ovulga — bizning uyga to'planamiz, Sembek o'qib beradi, biz tin-glaymiz. Ko'pchiligimiz xat tanimaymiz-da. Qishda o'qiyimiz, deb Bo'ljiqqa solingan uyning bir xonasini kattaroq qilib qurdik. Yozda ovul sovetining raisi, komsomollar kelganda dalaga to'planamiz, qishda haligi xonaga to'planamiz.

Gap bilan bo'lib, Kichik chalqardagi yozda qurilgan qishlovga kelganimizni ham sezmay qolibmiz. Husan akamning gapini miri-qib tingladik.

Bo'ljiq ham goho gapga aralashib qo'yadi.

Bu qishlov boshqa qishlovlardan ancha o'zgacha: o'rtasi ko'cha, ko'chaning ikki betida qator qurilgan o'n bitta g'ishtli imorat. Eshik-derazasi o'rnatilib, ichi-sirti sirlangan, yaltirab turibdi. Qozoq kambag'allarning qishlovlarida qo'sh deraza. Taxta polli uyni umrimda birinchi ko'rishim. G'adir-budir joyni qidirib ham topolmaysan. Somon suvoqdan bir tekis chiqqan. Ko'cha ham, uy atrofi ham top-toza. Har bir uyning yonida bosib uyilgan xashak g'arami. Bo'ljiqning uyiga kirganda:

— Manavi taxta polga tupura beraylikmi? — dedi Husan akang.

Uylardan o'tib, hammomga bordik. Shahar hammomining xuddi o'zi. Husan hammomni biroz ta'riflab oldi:

— Bu hammom bizga machitingdan ortiqroq. Bir tanachaning puliga kerak yarog'ini oldik-da, binosini o'zimiz qurdik. Ovulga keldik. To'qqiz qora uy. Chetida ikki kurkasi bor. Atrofda qizil-yashil mashinalar turibdi. Ovulning butun ko'rki ham, salobati ham shular. Boshqa ovullarning ko'rki tushovlangan qulunlar, uy-ur-uyur yilqi, tizilib turgan qozoq aravalari bo'lsa, bu ovulning esa o'zgacha ko'rki, o'zgacha salobati bor. Ota meros qozoq aravalari buzilib-sochilib ketgan, har yerda birovi ag'anab yotibdi. Uning o'rniga "o'n beshtang yarmimga ham to'g'ri kelmaysan, deganday katta ko'k aravalari turibdi".

Shoshib-pishib tushliklarini yeyishdi. Samovari yo'qlar borla-riga yugurib borishdi. Hazillashib o'tirib dam olishdi.

Yana xirmonga jo'nashdi. Yana gur-gur. Mashina kuyga chala boshladi. Unga kollektiv a'zolari qo'shilishdi, qo'sh ostonadagi Qo'shchalqar qo'shildi. Qoramtir tortgan qora yer to'liqlanib tit-radi.

Uyda o'tirib, bu kuyni eshitayotgan Qosimning o'g'li: "Qo'sh-chalqar!" "Qo'shchalqar!" bo'ldi... bachchag'ar, buning oqibati nima bo'larkin?! — deydi.

U bu so'rog'iga javob topish u qadar og'ir emasligini sezmedi.

1928-yil

— Hangomalari endi boshlandi, — dedi Janadil o'zicha pi-chirlab.

Narigi ungurdan bir necha temir vagonchalar ulab olib, sharilaganicha kelayotgan elektrovonning qattiq hayqirig'i eshitilgan zamon ikki sham devorga yopishib turib qoldi.

— Hap, hazil-mutyobalarini hali boshlaganlari yo'q edi-ya, — deb Janadil o'rnidan turdi. Bir jihatdan vaqt o'tib borayotibdi, shunday bo'lsa ham, shaxtada hurmati zo'r bu ikki cholning hazilliga xalaqit berish Janadilning odatida yo'q edi. Hatto majlislarda ham bu ikkovi hazillashib, kulishib o'tirishaverishar edi.

Bu shaxtada Bekeng bilan zamondosh kishi faqat shu Nikifor Kutsirixgina. Bekeng Qarag'anda ko'mir koniga o'n ikki yoshida kelgan. Shundan beri mana rappa-raso oltmish yil o'tdi. Ko'pgina zamondoshlaridan ayrilgan keksa shaxtyor yolg'iz qari arxarayday so'ppayib qolamanmi deb vahimadan shu Nikifor Kutsirix kelib qoldi. Kutsirix degan familiyani aytishga tili kelmagan Bekeng:

— Dadasining otiga tilim kelmagani bilan o'zining oti oson: Mekepar, — der edi.

Bekengning familiyasi — Jetpisboyev, Kutsirix ham uning familiyasini buzib aytar edi: goh "Jepistoyev" der, goh "Jeppisboyev" der. Biroq Jetpisboy deyishga, bir marta ham tili kelgan emas. Shu sababli ikkovining ham familiyalarini aytmay qo'ygalariga ko'p zamonlar bo'ldi. Ikki do'st bir-birining familiyalarini eslaridan chiqarib qo'rgan bo'lsalar ham ajab emas. Bekeng Mekepar desa, Nikifor uni Bokan, deydi. Shunday qilib, biri-biriga hech haqqini ketkazmaydi...

— Voy, Xudo urgur, shu vaqtgacha o'sha kampingning yonidan tura olmay yotdingmi? Ha, izdirasti, — dedi Bekeng ming marta takrorlangan qozoqi hazilini qaytalab.

— Sen, nima, yosh xotiningning oldiga shoshilib ketyapsanmi? — deb "Mekepar" ming-u ikkinchi marta takrorlangan hazili bilan javob beradi.

Yoshlikdagi quchoqlashuv, bosh tirashib so'zlashuv kabi yigiriklik odatlarini eslariga tushirishni istasalar-da, keksayib qolgan bu ishchilar yelkalariga qoqishib qo'l berishdi.

TARLONLAR

Yer ostining qora barqutday yumshoq, quyuuq qorong'iligini yoritib kelayotgan shaxtyor shami keksa kishining qo'lida ekani bir qarashda ma'lum edi. Shamning qizg'ish yorug'i azaldan bu ishda suyagi qotgan ishchining oyog'ini tez bosishiga qarab chayqalib, shu bilan birga, keksaligidan darak berib, kiprik qoqar edi.

Tor temiryo'lining qo'sh iziga sham yorug'i tushganda goh yashin yarq etganday bo'ladi. Hu narigi qorong'i uzoq burchakda kichkina-kichkina temir vagonlarga ko'mir yuklab, uzluksiz aylanib turgan temir novlarning g'iyt-g'iyt etishi bir chaqirim naridagi toshqin suvning sharillashiday eshitiladi.

Shaxtadan yuqoriga ko'tariladigan joyga yaqinroq yerda kutib turgan Janadil ketayotgan Varovga qarab:

— Ana, chol kelyapti, to'xtab tur, — dedi.

— Iya, uning o'zi ekan. Lekin... endi kutaver o'zing... — dedi-da, Varov keta boshladi.

Varovning o'z so'zini "lekin" bilan tugatganining ma'nosiga Janadil ham keyin tushundi.

... Tez chayqalib, kiprik qoqib kelayotgan shanga bir yonbo-shiga tashlab oqsoqlanib kelayotgan kishining shami yaqinlasha boshladi. Oldingi sham Bekeng choliniki, oqsoqlanib kelayotgan davangidek kishi Kutsirixdir. U hali yaqinda shu burchakdan ketgan edi. Uning nega cho'loq bo'lganini hech kim so'ramasa ham: — Qari xotinning ishi shu-da, turgan-bitgani chatoq... Bugun mana oqsoq qilib qo'ydi, — deb hazillashdi Kutsirix.

Bu ikki chol bir-birining yelkasiga urib-urib qo'ymay sira ham ajralishmaydi.

Bekengni obkomga olib kelinglar, deb belgilangan vaqt ham yaqinlashib qoldi. Shamning navbat bilan chayqalishidan ikki keksa shaxtyor biri birining yelkasiga urib hazillasha boshlaganini payqash mumkin.

— Voy, Mekepar, Mekepar, Mekepar—ey...
— Oy, Bokan, Bokan, Bokan...

Har kunda eson-omon ko'rishganlariga quvonadigan chollarning shu "Ey, Mekepar—ey", "Oy, Bokan" deganlarining o'zida bir-biriga aytmoqchi bo'lgan to'qson to'qqiz xil yaxshi so'zlarning ma'nosi bor. Do'stlik hissi so'z bilan emas, un bilan ifodalanardi. Endi, mana barcha aytadiganlarini aytib bo'lishib, ko'ngil taskin topganday ikkovi ham xursand, ayrila olmay turishibdi. Peshanayu ko'z atroflarini bosgan qalin ajinlari ko'zga chalinadi, sham yorug'iga to'qnashgan kekso ko'zlar kiprik qoqadi. Bularning tezroq ayrilishlari uchun bitovning esiga birorta ishi tushib qolishi kerak.

Bekeng to'satdan tusini o'zgartirib:

— Mekepar, meni obkomga glavniy sekretar chaqirtiribdi. Nega ekan, bildingmi? — dedi. Uning yuzidagi ajinlar eshilib, "Mekepar"ga tomon to'liq otganday bo'ldi.

— Obkomga?.. Xotining ariza bergandir, — deb Kutsirix yana hazilga oldi. Shunda uning ham barcha ajinlari eshilib, peshanasiga to'plandi: — Sening oylik normang o'tgan kuni to'imganmidi?

Oylik tugul to'qsoni ham to'lgan.

— Unday bo'lsa, — Kutsirix ko'zini qisdi-da, "unda Bokanim, indama" deganday yelkasiga urib-urib qo'ydi.

Ikki cholning "Unday bo'lsa, indama" deb gaplashganlariga qaraganda, obkomning bu safargi chaqiruvida o'zgacha bir g'am-xurlik borligi sezilib turardi. Ularga bu ayon edi. Shunga "Ey Mekepar" bilan "Oy, Bokan"ni yana bir karra aytishib, birini biri niqtab, yelkalariga urib ajralishdi.

Bekeng Janadilning yoniga kelganda, u tizilishib kelgan temir vagonlarning ko'miri ag'darilgan temir zovur-bunkeri qoshida turgan edi. Shaxtaning mana shu ko'rinishi kichkina vokzalga o'xshaydi. Ko'mir to'latilgan vagonchalarni sudrab olib kelib, bo'shaganlarini olib ketib elektrovoz yuribdi. Temir vagonchalar bunkerga kelib yonboshlaydi-da, ag'anaydi: ko'mirini to'kib bo'lib, ilgari sirg'anib ketadi. Bunkerning tagidagi uzluksiz aylanib turgan lenta ko'mirni tashqariga olib chiqiyapti. Atrof

kunduzgiday yop-yorug'. Anavi ungur, burchaklardagi ish kuni bilan ish tularining hisobi shu yerda olinmoqda. Yer yuzidagi eng hamaza telefon shu yerda — soat sayin o'n joydan telefon qoqib, hisob so'raydi.

— Bajarilishi?
— Ortig'i bilan!
— Ortiqchasi?
— Oltmish.
— Soatlik norma?
— Bajarildi.
— Kundalik?
— Yaqinlashdi.

To'qson metrlik yer tagidan tikka ko'tarib tashqariga olib chiqadigan temir quti ham shu yerda.

— Beka, biroz kechikdik, — dedi Janadil soatiga qarab, biroq ko'rinishidan ranjimayotganday edi.

— Qarog'im, Mekepar ant urgan bilan uchrashib qolganingdan keyin bilasan-ku, hazillashib turib qolasan, kishi...

Ikkovi yuqoriga zipillagancha ko'tarilgan temir quti — liftga minib olib, yer yuzasiga chiqishdi. Zax yer va zulmatdan chiqqan kishi doimo yorug' dunyoni sog'inib chiqadi. Shaxtadan chiqaverishda chiqindilar tog'-tog' bo'lib uyulib yotar, uning baland qirralaridan jimirlab kumush hovur ko'tarilardi. Bekeng shuni qo'msar edi. Qarag'anda deyarli tog'lar orasidagi shaharga o'xshaydi. Shaharni qavat-qavat bo'lib o'rab, tutun bosib yotgan chiqindi tepalari jimirlagan hovur bilan ko'kka bo'y cho'zgandan erta tongda ko'kimtir tumanga chulg'angan tog' tizmalariga o'xshaydi. Uzoqdagi chiqindi tepalarning etagida yuzlab chalqar ko'llar borday ko'rinadi, qir orqasida minglab arxarlar o'ynoqlab yurganday, uzoq-uzoqlar tinimsiz jimirlaydi.

— Haligi "Oq shaxta", "Qizil shaxta"larning qatorida shu "Itjun"ning usti tog' tizmalariga o'xshab ketadi. Shu deyman, tog'o'rtasida qolib ketganga o'xshaymiz-a, o'zi, — dedi Bekeng Janadilga qarab.

— Bu Qarag'andadagi oltmish yillik mehnatingiz bekorga ketmaganing nishonasi, Beke... — dedi Janadil.

Bekeng indamay ilgari yurib ketdi. Qarag'andada o'tgan oltmish yillik umrini eslatgunday bo'lsang, Bekengning ko'z oldiga yiroqda qolib ketgan og'ir kunlari keladimi, yoki kongsa sarf bo'lgan behisob mehnatini esiga tushira berishlarini yoqirmaydimi, negadir, jim bo'lib qolish odati bor. Agar oltmish yilni shu bugun tilga olgani bo'lmasa, Janadil ham bu haqida bejizga gapira bermaydi.

Darvoza oldida usti yopiq mashinani ko'ndalang qilib Varov turgan ekan. Uchovlari obkomga jo'nab ketishdi.

* * *

Kabinetning eshigi ochilishi bilan obkomning birinchi sekretari to'ladan kelgan, ochiq yuzli yosh yigit o'midan turib, Bekengga peshvoz chiqdi:

— Salomatmisiz, — dedi u kekasa oqin Do'skey bilan Bekeng uchungina aytadigan salomini berib.

— Alikсалom, bolam... — dedi Bekeng arab salomini qozoqcha buzib.

Ikkovi qo'l berishganida obkom sekretari: "Manavi toshday kaft qancha million marta qayla' urib, necha million kurak ko'mir soldiykin, deb o'yladi. Sekretar ham bolaligidan ko'mir qozonida qaynab ulg'aygan yigit. U ishchi xalqining qanday guruhiga qanday muomala qilishni yaxshi bilardi. Ayniqsa, kekasa ishchilarning nomusi qayerda bo'lishini yaxshi bilardi. Shu sababli oldiniga Bekengning uy ichidagilarning ahvolini so'rab, gapni uzoqdan boshlaydi. Bekengning nozik joyi — kampirining hol-ahvolidir. Buni bilgan obkom sekretari xuddi joniga oro kirganday Bekengni balqitib turib:

— Sizni dam olishga qo'yishmaydi, kurortga yuborishmaydi, deb kampiringiz o'pkalagan emish, — deb kuldi.

— Unisi nimasi, shayton xotin! Bu gapni kimga aytibdi tag'in? Bultur borib kelgan edim-ku, — deb Bekeng sapchib tushdi. Labini qoplab turgan qo'ng'ir mo'ylovi ham tikka-tikka bo'lib ketdi.

— Yo'q, Beke, kampiringizni ayblamang. Butun Yer yuzida ko'mir qazish ishiga o'ttiz yildan ortiq bardosh bergan kishi kam

¹ Shaxtyorlarning quroli.

topiladi. Siz bo'lsangiz, yer ostida ishlaganingizni qo'shganda, shu shaxtada oltmish yil ishlabisizmi, qaysi kurortda yotib dam olaman, desangiz ham haqqingiz bor. Varov bilan Janadil o'zlari yosh bo'lmaganlari uchun ba'zan buni unutib qo'yishsa kerak...

— Oltmish bo'lsa bo'lgandir. Kishining haqqi kimda ketmayapti deysiz. Oltmishning raso qirqini Ushakov bilan inglizlardan talab qilardim. Esiz adrestrarini bilmayman, — deb Bekeng xomush tortdi. Keyin yana chehrasi ochildi. — Ular ham haqimizni to'lashdi-ku, axir, Qarag'andaning xo'jayinlari o'zimiz bo'lib qolmadikmi? Lekin yigirma yilcha ishlagan ishchilar to'lib yotibdi.

Gapning yarim-yortisi ochilib qolgandan keyin, endi uni oxirlatish zarur bo'lib, sekretar o'midan turib, Bekengning ro'parasiga o'tirdi.

— Aytmoqchi bo'lgan gapim — sizning shaxtangizda ko'pdan beri tilga olinib kelinadi: sizga uzoq muddatli hordiq berib, yer ostidagi ishingizdan birato'la ozod qilmoqchimiz. Shaxtani idora etishga qo'lingizdan kelgancha aralashib yursangiz ham yetarli, — dedi obkom sekretari.

Bekeng indamadi. Oltmish yillik odat, oltmish yil ichida suyak-suyagiga singib qolgan sevimli ishidan mahrum qilishmoqchi. Nima ayb qildi? Qanday kamchilikka yo'l qo'ydi? Yetmish ikkiga kirganida yangi ishga qanday ko'niksin? Uyida o'tirganida kampiriga: "Palon, shtrek, mariqshodir", deb gapirib qo'yadigan gaplari bo'lar edi. Endi shunday gaplarini idorada o'tirib aytadimi?

Esiga idora tushib qolganda Bekeng bir narsaga qattiq achchiqlanardi. Shu narsa yana ko'z oldiga keldi. Bu — stol ustida tizilib turadigan qalam-ruchka, siyohdonlar edi. Bekeng obkom sekretarining stoliga qaradi: yashnab turibdi. Mana shunday stol orqasida o'tirib, oldidagi qalam-ruchkaga qo'l uzatishga Bekengning tobi bor ekanmi! Yozish u yoqda tursin, qalam ushlab o'tirganini Mekepar ko'rsa nima deydi? Shularni o'ylaganida Bekeng birato'la qarib qolganday bo'ldi. Har bir ajimidan norozilik yog'ilyotganday qovog'i osilib ketdi. O'tirganlar ham qisilib, bir-biriga qarashdi, gap-so'z ham to'xtadi.

Obkom sekretari gapni boshqa yoqqa burib:

— Buvimiz bugun mehmondorchilikka chaqiribdi, deyishgan dan keyin sizning oltmish yillik mehnatingizga hurmat-ehtrom ko'rsatib icharmikanmiz, deb qilgan tortig'imiz edi bu gaplar. Lekin ko'nglingizni topa olmaganga o'xshaymiz.

Kampirning ikki-uch kundan beri nimagadir hozirlik ko'rib yurganidan Bekeng xabardor edi.

— Hey, sen nega urinib, hovriqib yuribsan? — deb so'raganida, uyda hukmronlikni allaqachon o'z qo'lga olgan Jangil buvi:

— Nima ishing bor, ishingni qilib yura ber, — degan edi. O'sha sir bu yerda ochildi. Biroq tashqarida jamoa o'rtasidagi ish-larga Bekengning xotini Jangil buvi epchil. U ba'zi ishga endi qo'l urganida Bekeng rozi bo'lmasa-da, bitirib bo'lganida: "Bizning kampir bunday ishlarni qotiradi", deb doim maqtab yuradi. Bu sa-far ham ziyofat to'g'risida gap ochilganida biroz o'ylanib qolgan bo'lsa ham, kampiri mehmon chaqirib qo'yganda o'zining qosh-qovog'ini osiltirganidan xijolat bo'lib:

— Sekretar qarog'im, u gap esimdan chiqibdi, kampir aytgan edi-ya... bizning uydagi xo'jayin u-ku. Kelinglar, yuringlar, — dedi. Yana sal bo'shabinqirab: — Mayli, hordiq olsam ola qolay. Biroq haligunday... stol yoniga yo'lata ko'rmanglar meni. Unda men harom o'laman, — dedi birozdan keyin.

Uning shaxtadan keta olmayman, demoqchi bo'lganini o'tirganlarning bari angladi. Otpuskaga rozi, undan boshqasiga ko'nadigan emas. Biroz narsa desang, ko'ngli qoladigan. Shu sab-abli Bekengning keyingi so'zini ma'qullashdi-ku, lekin qolganini keyin ko'ramiz, deydishi.

Shu kuni kechga yaqin Bekengning uyi odamga liq to'ldi. Stol to'rida ikki tarlon — Bekeng bilan "Mekepar" o'tiribdi. Ularning oldida oblast, shahar, shaxta rahbarlari, kekxa ishchilar.

Rasmiy so'z bir martagina aytildi. Hal bilan yozilgan qizil muqovalik yorliqni Bekengga topshirandagina obkom sekretari Bekengning xalq oldidagi oltmish yillik xizmatini qistirib o'tib, minnatdorlik bildirdi va qo'lini qisdi. Keyinchalik ba'zi notiq-lar og'zidan rasmiy so'zlar chiqqa boshlagan zahoti gapni aylantirib, o'tirishni qizitib yuborishdi.

Nikifor Kutsirix qizil muqovalik yorliqni ochib qarab, eng ol-din "ehhal" deb qo'ydi-da:

— Cholim, sen taltayar ekansan-ku, — dedi. — Juda ar-dog'li shaxtyor debdi, bunisi yaxshi. Uch oyga kurortga borar ekansan — bu ham yaxshi. Unda aljigan kamping nima qiladi, shuni o'yladingmi? — dedi Bekengning biqiniga asta turtib.

— Sen borsan-ku?

— Menmi? O'z jodugarimni nima qilaman? Haligi yolg'iz ozliq tishiga ko'zing tushganmi, Xudoy biladi, qilichdan o'tkir-dirov.

Keksalar ko'pdan o'zlariga odat bo'lgan qozoqi hazil-huzulla-rini boshlab yuborishdi-da, odamlar tarqaguncha toza olishdi.

Hamma tarqagandan keyin Bekeng obkom sekretari bilan Ja-nadilni deraza oldiga olib borib:

— Men Mekepardan uyaliib o'lib bo'ldim... U ham yoshi, ishi bilan meni quvib kelib qoldi. Ikkovimizni birga yuboringlar, uch oylik kurort ikkovimizga ham yetadi — teng bo'laylik, — dedi.

— Yaqin o'rtada u cholga ham navbat keladi, shoshmangiz, va'da shu, — dedi Janadil.

— Xo'p, — Bekeng obkom sekretariga xayrlashish uchun qo'l uzatdi.

Aynganday, Kutsirix ziyofatdan kech qaytdi: u Bekengnikida mehmon kutish bilan band bo'lgan ikki kampirni ikki yoniga o't-qazib:

— Qani, aytinlar-chi, sizlar bizdan hech qachon rozi bo'l-ganmisizlar? Mana ko'ringlar, — dedi-da, yorliqni ochdi. — Mana, manavi bilet bilan Bokan Olmaotaga uchadi. Osmonni yelkasi bilan tiraguday bo'lib, shamolday uchib borib qo'nadi. Shundan keyin Bokan, qani benavbat bilet ber, deydi-da, kurortga jo'naydi. Yum-shoq, oynavon vagon... Kavkaz... uch oy! Manavi boshidagi oppoq sochi bilan qayrilma mo'ylovi tulab, qayta o'sib chiqadi. Hey, Bo-kan, shunda seni shayton yo'ldan ozdirmasmikan?..

Ikki kampir quvonganlaridan ko'zlariga yosh oldi. Uzoq um-rlari davomida chollariga aytgan beo'rin gaplaridan endi pushay-mon bo'lganday o'tirishibdi.

— Endi navbatchilikka boradigan vaqtim bo'lib qoldi. Navbatchilikdan qaytganimda sen jo'nab ketgan bo'lasan, — deb Kut-sirix Bekeng bilan xayrlashdi.

Bekeng bilan Jangil buvi o'zlari yolg'iz qolishgach, keksa odamlarning azalgi odatlari bo'yicha bir-biriga eng qimmatli fikrlarini ayta boshlagan ham ediki, xayrlashib ketgan Kutsirix navbatchilikka ketayotib yana kirdi.

— Shunday bo'lgandan keyin, Boka, senga bir nima berib yuboruvim kerak ekan. Buni, haligi Xudo yarlaqag'ur, xotin esga soldi. Buni oborib cho'ntagiga sol, dedi. — Nikifor Bekengning qo'yniga bir nimani tiqdi-da, teskari o'girilib, tez chiqib ketdi. Jonajon do'stining qilgan bu ishiga Bekengning ko'ngli buzilib, arang o'zini to'xtatib qoldi.

“Mekepar” bilan gaplashiladigan ko'p gaplar bor ekan. Ulardan birortasini ham gaplashmabdi... Uni topshirish kerak, buni topshirish kerak. Bekeng yugurgancha tashqariga chiqdi. Kutsirix uzoqlashib ketibdi, shekilli, ko'rinnadi.

Endigina otayotgan tong yuzida qonli qizil sepkil borgan o'xshaydi. Kunduzi qirralarida sarob jimirlagan baland chiqindi tepalarning tusi o'zgarib, qovog'i solinganday. Terskaydagi ko'kimtir fazoning rangi o'chib ketganday. U biqindan turgan salqin shamol doim burqsab yotadigan tepalarning tutunini shahar ko'chalariga, uylarning burchaklariga tiqibdi. Negadir Bekengning yuragi uzilib qoldi.

— Men tushdan keyin jo'nayman, Mekepar navbatchilikdan qaytgandan keyin... Gaplashadigan gapim bor, — dedi kampiriga.

Kunning yarmi u-bu, ko'ngilsiz g'ivir-sivir bilan o'tdi. Eshik oldida samolyotga olib boradigan mashinaning signali eshitildi.

— Hozir boraman. Samolyotga o'zim olib chiqib kuzataman. Varov bu tomondan boradi. Buvim ham borsin, — deb Janadil telefon qoqdi.

Kampir-chol shoshib-pishib, qora chamadonni to'ldirishayotgan edi, radio bevaqt g'ing'illay boshladi. Uyqudan bigiz suqib uyg'otganday, uyg'oq bo'lsang qulog'ingni zo'rlik bilan burash-ganday radio kundagidan o'zgacha enkilib g'ing'illaydi.

Bekeng haligi yorliqni chamadonning betugagina solmoqchi bo'lib olib kelayotganida radio gapirib qoldi. Bekeng chamadonga yaqinlab, Jangil buvi esa bir qo'li bilan chamadonning qopqog'ini ochib, bir qo'lini Bekengga cho'zgan ko'yi ikkovi ham qotib qoldi.

— Kampir, manavini chamadonning tagiga tashla, — dedi-da, Bekeng chiqib ketdi. Jangil buvi cholining nima deganini uqqani ham yo'q. Sal vaqt o'tmay, Janadil yugurganicha kirib kelganida yorliq hamon kampirning tizzasida yotgan edi.

Bekeng eshik oldida turgan shofyorga: “Keta ber”, deb qo'l siltadi-da, shaxtaga qarab jo'nadi. Yer ostida ham, ustida ham uchrashgan odamlarning bir-biriga beradigan salomi: “Eshiting-mi?” “Eshitdim”, bo'lib qolgan edi.

— Urush! Urush! Kishini hayratga soladigan qonli yo'li! Yurt og'zida shu gap.

Ilgari har bir ishchining o'z yurishiga mos chayqaladigan shaxtyor shamlari bugun shaxdam-shaxdam qadam tashlab kelayotgan barcha ishchi-xizmatchilarning g'azabini o'ziga yig'ganday: u hammalari tashqariga oqib chiqqan sovet kishilarining saf tortib yurishiga mos bir tekis chayqaladi. Barcha odamlarning oyoq'olishi ham, nafas olishi ham bir xil, go'yo yangi zarbga ko'chgan kabi.

Uzlüksiz yurib turadigan temir novlar shu kunga qadar “g'iyq-g'iyq” deganday eshitilar, endi bo'lsa ustma-ust “oltmish-oltmish” “oltmish-oltmish”, deyayotganday tuyuladi. Bekeng shaxtadan chiqmasdan tashqari salqin ekanini his etdi. Bekeng brigadasi almashiradigan smenadagi bir qator yoshlar kelmabdi. Ular harbiy xizmatga chaqirilgan, ba'zilar ixtiyoriy ravishda urushga ketmoqchi, yana ba'zilarining harbiy hujjatlari tartibga solinmabdi. Bekengning brigadasi ham tashqariga chiqqan zahoti bir dasta qog'ozga duch keldi.

Direktorning kabinetida Varov bilan Janadil shaxta ishlarida maslahatlashib o'tirishgan ekan. Bekeng kirib kelganida, ular uning nega jo'nab ketmaganiga ajablanishmadi. Biroq ilgirigi odatlarga qaraganda o'rnlardan tezroq turib, Bekengning qo'lini qat-tiqroq qisishganday bo'ldi.

- Beke, sizda ko'pchilik yoshlar-ku.
- Deyarli hammasi.
- Himm...

Varov bilan Janadilning tizzalarini tizzalariga tegizguday o'tirishlaridan ikkovlari ham bir kishiday bo'lib, bir fikr ustida bosh qotirayotganlari sezilib turibdi. Ularning boqishlari Bekengga: "Xo'sh, siz nima deysiz?" deyishayotganday tuyuldi. Unga qachong'i keksha ishchining bir nima o'ylab topishi farz kabi ko'rindi. Ko'nglida: "Qarag'andaning xo'jayini men bo'lmay kim bo'lsin?" degan g'urur uyg'ondi. Shunday bo'lgach, o'ylashi kerak-da...

Bekeng shaxta boshliqlari bilan ikki og'iz so'zlashdi-da, chiqib ketdi. U o'z o'y-xayoli bilan bo'lib, uyiga yaqinlashib qolganida Kutsirix quvib yetdi. Ilgarigi hazillarini butunlay o'rinsiz bilishib, bugun og'iz ochishmadi ham.

— Bokan, senga qiyin bo'ladigan ko'rinadi, — dedi Nikifor Kutsirix go'yo o'z ahvoli yengilday.

— Og'irroq bo'lib turibdi, Mekepar.

— Endi nima qilmoqchisan?

— Bilmayman. Kampirlar bilan kelinlar nima deyisharkin.

— Mana buni aql deydilar! Yasha, o'rtoq! Bizning kampirlar semirishib uyda o'tirishibdi... Qo'llaridan kelgancha yordam berishsin, — deb Kutsirix qizishib ketdi.

Halitdan beri: "Bu qanday bo'larkin", deb o'y surib kelayotgan Bekeng ham o'z fikrida qat'iy turib, bir qarorga keldi.

Qarag'andaning faqat ko'mir qozoni bo'lish darajasidan allaqachon o'sib ulg'ayganiga shaxtyorlar soniga qaraganda boshqa har xil kasbdagilarning soni to'qqiz baravar ko'p ekani yaqqol dalildir.

— Shunday ekan, yigitlar jangga otlanganlarida ularning o'rini bosadiganlar o'zimizdan topilmamikan? To'g'ri, ko'pchiligi ayollar bo'lar, — deb Bekeng o'zicha mo'ljal qildi.

Ayollar to'g'risidagi bu fikrini Kutsirixning ham qo'llab-quvvatlashi Bekengga katta madad bo'ldi.

Biroq Bekeng o'ylagan bu o'yni ko'pchilik ham o'ylagan ekan. Yuqoridan pastga, pastdan yuqorigacha hamma boshpana qidirgan kabi hayotda o'z o'rmini qidirardi. Bekeng ikki kampirni

boshlab, direktor kabinetiga qaytib kelganida, eshik oldi xotin-xalajga to'lib ketibdi. Etlari jangga boradiganlar ham, bormaydiganlar ham uyiga sig'may, to'p-to'p bo'lishib, shaxtaga kelishibdi.

— Hay barakalla, ko'pchilikdan quyon qochib qutulmas deb shuni aytadilar-da, — dedi Bekeng ko'ziga yosh olib.

Erikakcha kiyinib, oyoqlarini shaxdam bosgan ikki kampirni shu ayollarga qo'shib qo'ydi.

Bekeng kabinetga kirishi bilan Varov:

— Kampirlaringizni olib kiring, — dedi.

Ilgari odamlarning chehrasida shodlik barq urib turar edi. Endi bo'lsa yurak o'rni tushib, yuz-ko'z o'z qolipiga kelib qolibdi. Ilgari ota tongdanoq kim bo'lmasin, ko'mir koni planini to'ldira oladimi-yo'qmi degan tashvishda yashar edi, endi bo'lsa kun og'may, smena almashinmay turib kelib qolganda xalq kuch-qudrat qayoqda ekanini o'zi ayon ko'rsatib turibdi. Varov ham, o'tirgan odamlar ham shu haqida o'ylaydi.

Bekengning kelishiga yurt atayin to'planganday kabinet to'la odam ekan. Bekeng bilan Nikiforning haligi ikki og'iz gapini har bir quloq o'zicha eshitib, har bir og'iz o'zicha aytib, simsiz telefon bilan hamma yoqqa tarqab ketibdi. Buning uchun, qisman Kutsirix aybdor edi. U uyiga kelib xotiniga:

— Seni Bokan safarbar etdi. Urush tugaguncha biror yengilroq ishda ishlab turasan, faqat semirib, uyda o'tira berishdan nima manfaat chiqardi, — debdi.

Xotini kiyinib, shaxtaga ketayotganida Kutsirix eshikka chiqib, atrofdagilarga eshittirib:

— Bokan to'g'ri aytadi. Yoshlar urushga ketadigan bo'lgandan keyin qarilarni ishlataylik, degani juda to'g'ri. Qani, endi yosh ayollar uylarida o'tirib ko'rishin-chi, — deb bir necha bor takror-takror gapirib, uyiga kirib ketibdi. Bundan u yog'ini Bekeng ham, Kutsirix ham bilmabdi. Bekeng bir aylanib kelganicha Kutsirixga aytgan gapni odamlar ko'nglida tomir otib, yaproq chiqarib, gullab ketibdi.

Bekeng ayollarni boshlab shaxtaga tusharmish, degan gapni eshitib, bu shaxtaga qaraydigan joylardagi barcha ayollar shaxtaga tushgani kelishibdi...

Bu xabar qo'shni shaxtalarga ham tarqalib, bu harakat butun Qarag'andaga yoyilibdi. Bu gapni haddan tashqari ko'pirtirib yuborganiga uyalib, Bekeng o'z uzrini aytmoqchi edi, odamlar unga quloq soladiganga o'xshamaydi. Negaki bu gapning Bekengdan chiqqani rost, hozir butun Qarag'anda harakatga tushib ketgani ham rost. Endi bu ish ma'qullanmasa, odamlarning ko'ngli o'rniga tushmaydiganga o'xshaydi. Bekeng tajribasining birinchi kunlarda bergan samarasini aytib. Joy qoldirdik, — deb gazetadan telefon qilishdi.

— Bu sizning shaxtangizda boshlangan harakat-ku. Bekeng bizga kelib, bir-ikki og'iz gapirib bersa bo'lardi, — deb barcha shaxtalar bir soatdan beri telefon qilishadi.

— Bularning esi joyidami o'zi. Gazetaga yozib, majlisda so'zlaydigan chechanmidimki men? — deb Bekeng Nikiforni turtkilaydi.

— Yozasan ham, so'zlaysan ham, — deb Nikifor jig'iga tegadi.

— Uchqunsiz o't bo'lmaydi, Beka, shu uchqunni siz tashladingiz. Xalq harakati doim mana shunday boshlanadi. Minglarcha odamlarning o'y-xayolidagini bir kishi aytadi, unga millionlar qo'shilishadi-da, keyincha butun xalq odatiga aylanadi. Hurmat qilsa nima bo'libdi? Yurt o'z ishini qoyillatib ayta bilgan kishini sevadi. Uning nomi hurmat... Urushning birinchi kuni Qarag'anda tuprog'iga tushgan eng katta samarali chaqiriq shu bo'ldi, — deb Varov Bekengning ishiga yuksak baho berdi.

Shaxta atrofiga to'plangan xalq birdaniga bo'lmasa ham, o'nta bo'lib, yer ostiga tushib ketayotibdi. Kun issiqmi-sovuqmi, ochiqmi-bulutmi — buni hech kim surishtirib ham o'tirmaydi. Is-siq bilan sovuq xalqning o'z yuragida: ochiq yoki bulutli bo'lishi ham o'z kayfiga bog'liq.

Bekeng brigadasidagi ayollar ham liftga o'tirib, shaxtaga tushishmoqda. Unga erkak ishchilardan atiga o'ntachasi sig'ar edi. Ayollardan yigirmatadan ortiq odam sig'gan ko'rinadi.

Tashqi qiyofasidanoq kuch-qudrat ko'rinib turadigan baquvvat erkak gavdalari o'rniga ingichka, qotma, nozik ayollar gavdasining kuchi qayerda ekanini Bekeng bilib oladigan emas: kelin-chaklarga ishonchi zo'r bo'lgan Bekengning endi ulardan ixlosi

qaytay deb qoldi. Bular bilan qanday tilda so'zlashishi kerak. Keling desinmi, o'rtoq desinmi? Yoki yaxshisi o'rtoq kelin, desinmi? O'rta yoshdagi ishchilarga "Bo'kir", "Shalpaygan" deb, yoshroqlarni esa "Tosh", "Bo'ta", "Ko'k qirg'i", deb o'rganib ketgan Bekeng ayollarning ismiga tili kelmayotganday qo'rqibroq turibdi. Qurmagurlar bir qarasang chuvullashib qolishadi, yana bir qarabang qarg'aday yopirilib to'planadi-qoladi.

Bekeng ayollarni yer ostiga tushirib yubordi-da, o'zi tashqarida Kutsirixni kutib qoldi. Kutsirix Bekengning yengidan tortib:

— Qalay, cholim? Ayollar bo'limini boshqara olyapsanmi? — dedi kulib.

— Mekepar, kulma, o'zim shoshib turibman. Hali birontasiga bir og'iz gap aytganimcha yo'q, — deb Bekeng to'g'risini aytdi.

Ular yer ostiga tushganlarida Bekeng brigadasidagi ayollar hammalari bir joyga to'planib kutib turishgan ekan.

Ikki chol ayollarni ko'mir qaziladigan o'ngirga boshlab ketdi. Yer ostida o'ntacha erkak kelayotgan bo'lsa, oyoq olishlari gurs-gurs eshittilib turar edi. Ayollarning oyoqlari pitir-pitir bosilganidan Bekengning qulog'i bu tovushga ko'nika olmadi... Indamay ketayotganiga qaraganda, Nikifor ham shu fikrda bo'lsa kerak.

— Urush tugaguncha sen ishchilardan qisilmaysan, — dedi Kutsirix kekasa do'stini yupatib. — Ayol degan kamimaydigan qush, ikki haftada o'rganib olishadi.

Kutsirix boshqa lavada ko'mir qaziydigan mashinaning boshlig'i edi. U o'z ishiga ketdi. Bekeng ayollarni boshlab, ko'mir olinadigan o'ngirga keldi. Kutsirixning "men o'z joyimga keldim," degan xabarini bermoqchi bo'lganday temir novlar shovqinini kuchaytirib, "oltmish, oltmish," deb guvullaydi.

— Ilgari, "qirq-qirq" der eding, bugun "oltmish-oltmish" deb aylanayapsanmi? Buni sen emas, Mekepar aytaypti. Hali ko'p aytadi, — deydi Bekeng o'ziga o'zi.

Mehnatda ham sinov kunlari boshlanganda zarbga zarb, g'ayratga g'ayrat qo'shilishini Bekeng hech kimdan so'ramayoq taxminan biladi. Ilgarigi ishlarimizni qirq deb hisoblasak, endigi ishimiz unga nisbatan oltmish bo'lar, deb Qarag'andaning kelajak-

dagi yukini ham mo'ljallaydi. Shuni o'ylaydi-da, shoshib-pishib ko'mir solayotgan ayollarga qaraydi.

Bekeng kuni bo'yi faqat ikki-uch og'iz so'zlaydi. Kuragini qo'lga olayotib: "Ol, chiroqlarim", dedi-da, uzoq vaqtgacha indamadi. Shaxtaga bugungina tushgan ayollar avvaliga tez-tez ishlab, keyin birpasda bo'shashib qolmaganlarida Bekeng shundan boshqa so'z aytmagan bo'lardi.

Noiloj, goho ayollarning oldiga borib: "Kurakni bunday ushla, o'zing bunday tur, bunday sol", — deyishga to'g'ri keldi.

Ish kuni tugashiga yaqin Bekeng bu burchakdan ko'mir olib ketgan vagonlar sonini bir mo'ljallab ko'rdi. Oldingi soatlarda bugungidan ko'proq, keyingi soatlarda esa ikki hissa kamayib ketibdi. "O'zimdanda bo'ldi, — deb o'yladi Bekeng, — aytish kerak edi, til kerak, til..."

Bekengning shu o'yiga javob qaytarib, shu to'siqni ochib yuborgisi kelganday, ko'zi-yu tishlaridan boshqa hamma yog'ini qora qurum bosgan yumaloq bir kelinchak:

— Ota, bugun sizni uyatga qoldirmadikmi? — dedi qaytib kelayotganida. U avvalgiday tortinib turmasdan yonma-yon yurib so'zlashdi. Shu bilan til topishdi. Bu "butun kuch urushga" degan xalq tili edi. Bekengning yosh o'rtoqlari — yangidan qo'shilgan odamlari ham faqat shu tilda so'zlashar edilar. Kundan kunga soatlik unum salmog'i orta bordi.

Ikki chol kurortga besh yildan keyin borishdi...

* * *

U kunlar juda uzoqda qolib ketganday. Shijoatli kishilar o'z yuklarini og'irsingan ham emas, birovgina minnat ham qilmagan. Ular qiyalikka yana bir chiqqaniga, yuksaklikka yana bir ko'tarilganiga, kurashga yana bir tushganiga ko'ngli o'sib, qayta yoshargan. Ikki oygina dam olgan ikki chol urush mashaqqatlarini tortmaganday yashnab ketishdi. Kun endigina chiqib, Kavkaz tog'lariga o'z nurlarini sochmoqda. Bekeng bilan Kutsirix ko'z qisishib, Kavkazning o'rmonli o'rkachlariga tikilib o'tirishibdi, Tun yaqinlasha boshlaganida qovog'ini solib, mudrab qoladigan Kavkazning hozir chehrasi ochila boshladi.

— O'zgacha bir xislati bor-a?

— Kechagi kishi, tunda Kavkazning qovog'i solimmaydi, tunda qovog'i solinadi, kunduz yashnamaydi, kunga yashnaydi, dedi-ku, Balki, uning gapi rostdir... Biroq Qarag'andaday joy qayoqda deysan.

Ikki chol o'tirib-o'tirib Qarag'andaga xayollari qochganini o'z-lari ham bilmay qolishdi. Urush tugagach, ikkovi ham shaxtada ishlashdan ozod qilingan. O'rinarida qolgan kishilar ham ishonchli.

— Men bunday odamni qozoqlarning ichida ko'rmaganman, — deb maqtaydi Bekeng o'rni qolgan qozoq ayolini. — Mashina-ya, mashina...

— Birato'lasi samolyot, deb qo'ya qolsang-chi...

Ikki chol Kavkazni tomosha qilib turishadi-da, Qarag'anda eslariga tushib ketadi. Biri biridan yashirib, Qarag'andani sog'inib, xo'rsinib qo'yishadi.

— To'g'risini aytganda, ikkovimizni behishtning to'riga o'tqazib qo'yishsa ham, Qarag'andaning o'rmini bosmaydi. Bir kuni qaytib kelamiz, — deydi Bekeng.

— Mashinang gurullab yurib turmagandan keyin, ko'miring burqirab chiqib turmagandan keyin, bu qanday dam olish bo'ldi? Kurortga kelib uch oy yotib olishimiz o'zi uyat, — deb Kutsirix Bekengni quvvatlaydi.

— Dam olib qaytish — burchlaring, dedi-ku. Burchimizni bajarib qaytamiz-da...

Shu masalada ikkovi ham o'ylanib qoldi. Yaxshi gap qilmaganlarini ham ikkovi biladi. Biroq nima ham bo'lib, gap ko'mirga borib taqaladi-da, chollar umrlik kasb-korlarini sog'inishadi. Bir-biriga qarab qo'l siltab deydi:

— Qarag'andada ayni kun isigan payt.

— Nimasini aytasan!.. Unday kunlar bu tomonda bo'lmas ekan... Qarag'andaning qishi qanday, yozi qanday. Qishda shiddatli bo'ronning ikki shahar o'rtasida daryodan to'qinlanib yotishini aytmaysanmi... Yuzlari sovuqdan olmayday qizarib, yumalanib kelayotgan bolani aytmaysanmi?!

— Qisqasi, yurt ishlasa-yu, bizning sayr qilishimiz yarashmaydi, shunday emasmi?

Bu xildagi hangomalar bilan ikki chol har kuni uchmoqchi bo'lib qo'yishadi. "Lekin qaytsak qanday bo'larkin?" deyishga ikkovi ham botina olmaydi. Negaki, bu ikkovini kurortga otlantirganlarida katta hurmat ko'rsatishib, barcha Qarag'anda mehnatkashlari nomidan, yaxshilab dam olib qaytinglar, deb tayinlashgan. Bunday topshiriqni to'ppa-to'g'ri tushunishga odatlangan sofdil kishilar buni buzishni ham gunoh deb bilishar edi.

- Mekepar!
- Nima, Bokan?
- Eshitdingmi?
- Ha, eshitdim.
- Men ham eshitib yugurgancha kelayotgan edim.
- Uchinchi o'rin-a?
- Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas-da.
- Unda qaytib ketamiz!
- Bo'lmamas-chi!
- Oy, Bokan, Bokan!
- Ey, Mekepar, Mekepar!

Ishxona haqida bir-biriga tik gapirishni unchalik yoqtirishmas edi. Endilikda ikkovi ham uni unutib qo'yishibdi. Yangi besh yillikda Qozog'istonning uchinchi o'ringa chiqqanini eshitib, tarlonlar sevinganlaridan o'zlarini qo'yarga joy topisholmaydi.

- Uchinchimi, a? — deb yana takror so'rashdi.
- Ha, uchinchimiz!..
- Telegramma ham bermaymiz, to'g'ri kirib boramiz.
- Topshiriqni bajarmapsizlar, deb g'idi-bidi qilishsa-ya. Men yetmish beshga, sen yetmishga kirganda bitta topshiriqni yaxshi bajarmasak Xudo kechirmaydi deysanmi, kechirar.
- Masalan, kampingdan ajral deyishga kimning haqqi bor? Ko'mir bilan ham oltmish besh yil birga yashadik, axir.
- Ikki chol kurortdan tez qaytganlariga ishonari sabab topgan day bo'lishdi.

Ular ertasiga Qarag'andaga jo'nab ketishdi.

1945-yil

MARDONA

Shahar yonbag'rini zanjirday o'rab olib, unga ajoyib bir manzara kashf etgan ko'm-ko'k qalin o'rmon ostin-ustun. Sochini yoyib yuborgan oq qayinlar, gunohsiz qiyragan qarag'ay jigarporasi-ni yo'qlab, zor-zor yig'lab turganday. Qalin o'rmonning o't olgan joylari tushgan tishning o'rmiday kertik, qop-qora bo'lib o'pirilib turardi.

Qalin o'rmonning shahar tomoni — qishki oq ko'rpasini yopib olgan dala bugun yuziga qorachechak toshganday olachipor. Har yer, har yerda yuztuban yotgan murdalar, ular tepasida quzg'unlar, ola-bula hakkalar gala-gala bo'lib uchib yurishardi.

Shahar chekkasidagi kumushday yارقirab turadigan chiroyli ko'l yoqasidagi bog' ham butunlay vayron bo'libdi. Oq teraklar-ning kumush yaproqlari yer bilan bir bo'lib sochilib yotardi. Op-poq qo'rga burkangan bir tup eman daraxti qovog'ini o'yib, jahl ustida yonboshlab yotardi.

Dushman yo'lida uchragan narsasini yer bilan yakson qilib, shaharga balo-qazoday bostirib kirdi, odamlar qalbida g'azab o'ti alanga oldi.

Bir ayol daraxt butalarini panalab shahar tomon kirib kelardi. Bu — yomg'irday yog'ilib turgan o'qlarni ham pisand qilmay, o'lim xavfidan tap tortmay kelayotgan ona edi. Hayot-mamot kurashida ona yuragi qo'rqish nimaligini bilganmi! Kelayotgan bu ayol dovyurak ona Natalya edi.

Har joy-har joyda to'planib turgan quzg'unlar: "Qachon o'rta-mizga tushasan, janozangni qachon o'qiyimiz" degandek Natalya onaga qo'rqa-pisa qarashardi.

"Tushadi, tushadi, tushadi", — deb quyruq'ini likilatib ola hakka qag'illardi.

Shaharda qolganlarning so'nggilari, o'tgan kechasi o'rmonga jo'naganda bechora kampir betob nevarasi — Lidani olib keta ol-

magan edi. U kechasi bilan nevarasining boshida turib, shaharda yolg'iz o'zlari qolganliklarini sezdirmedi. Mana, endi bo'lsa, o'rmondagilarning joyini aniqlab olib, Lidaning yoniga qaytib kelmoqda.

Lidaning o'z onasi o'qituvchi, u yozdan beri partizanlar bilan birga. Lidaning onasini ko'rmaganiga olti oydan oshdi, shundan beri buvisining qo'lida. Natalya o'sha kuni, terlama kasali bilan nemislarni o'zicha bir-biriga qiyos qilarkan:

— Biri og'ir kasal, sovuqqa oldirsang bo'ldi, bemorning oyoqqa turishi qiyin, ikkinchisi, har holda, nemis bo'lsa ham odam bolasi-ku, — deb o'ylab, Lidani olib ketmagandi.

— Lekin bugun ona boshqa bir fikrga keldi. Kasallikdan o'lsa o'lsin-u, biroq insonning hayvon qiyofasiga kirishini ko'rmasin deb, kasal yotgan nevarasini o'rmonga olib ketgani kelmoqda.

— Quturgan yirtqichlar, kasal nima, bola nimaligini bilish-masa... — deb o'ylardi ona, shahar tomonga qarasa, yuragi orziqib ketadi. Shahar yonmoqda. Shahar olov ichida qayg'uli, dahshatli bir kuni boshdan kechirmoqda. Kuniga necha bor ko'rishib, necha bor sirlashadigan tanish-bilishlarining yonib turgan uylarini ko'rganda ona qalbi go'yo qo'rg'oshin quyilgandek bo'lardi.

Betob Lida maktab binosida. Maktab hozircha butun qolibdi. Natalya asta-sekin maktab hovlisiga kirganda, snaryad hosil qilgan chuqurga ikki kishining nimadir yashirayotganini ko'rib qoldi. Ularning partizanlar ekanligini ham, nima qilishayotganliklarini ham darrov fahmladi. Shahardagi katta binolarning, lozim topilsa, kulini ko'kka sovurishga hozirlab qo'yishlarini Natalya bir necha bor ko'rgan ham, eshitgan ham edi. Maktab ostiga mina qo'yib, tok keladigan simning uchini chuqurga ko'mayotgan edilar.

— Hoy, to'xtanglar... Maktabda qizginam qolgan... — deb Natalya shosha-pisha maktab eshigini ochdi.

— Sekinroq, ona! — dedi birovi, Natalyaning kimligini tanigach. — Bekordan bekorga vayron qilmasligimizni yaxshi bilasiz-ku. Qo'rqmang, nemislar kichik shaharni nazariga ilmay o'tib ketishi mumkin. Uyingizga kiravering... Biroq, mana bu joyga yaqin kelmay, sal nariroqdan yuring. Ayniqsa, olovdan ehtiyot bo'ling!

— E, men shunchalik anqovmidim! O'n sakkizinchi yili bir qancha ko'priknı portlatganman. Bu hunarni biz ham qilganmiz, — dedi kampir. Keyin u maktab binosiga kirdi-da, nevarasi yotgan sonning eshigini qiya ochib, Lidaning alahsirayotganini eshitdi:

— Oyjion, shu turishingizda ko'zingiz bilan burningizdan boshqa yeringiz hammasi birovniki, a birovniki-ya, Buvim u yoqda tursin, men zo'rg'a tanidim... Oyi, siz qorong'i kechalarda o'rmonda qanday qo'rqmasdan yurasiz-a? Kechalari yig'ilishga meni olib borganingiz esingizdami, oyi? Ana, buvimni hech narindan qo'rqmaydi desa bo'ladi... U kechasi qorong'ida hammomga ham yolg'iz kirib chiqa oladi, — dedi Lida va ma'sum qilib, go'yo onasi oldida turgandek, qo'lini cho'zdi. Lekin uning holsiz, nozik qo'li shilq etib pastga tushdi. Onasi uzoq o'rmonlarda yursa, buvisi ostonada yig'lab turardi.

— Ha, qo'zichog'im, onangni sog'indingmi, — dedi Natalya va nevarasining olovdek peshanasiga qo'lini qo'ydi-yu, qizchani holiga achinib ketdi.

Lida arang ko'zini ochdi-yu, mehribon onaizori yonida turgandek bo'ldi. U buvisini onasi deb bildi, shekilli:

— Voy oyi, siz juda qarib qolibsiz-ku...dedi-yu, buvisi tomon uyaifansimon surilib qo'ydi. Sovuq uyda, shunday mudhish kunlarda buvisi, uning issiq, yumshoq quchog'i qizchani joniga oro kirdi. Lida buvisining serajin, yumshoq qo'lini sezadi, uning xiralashgan yoqimli ko'zlariga boqadi-yu, yana uyquga ketadi.

Zambarak tovushi yaqindan eshitila boshladi. Natalya Lidani o'rab-chirmab, endi ko'targan ham edi, shu orada portlagan snaryadidan maktab larzaga keldi. Lida qo'lidan tushib ketdi. Kam-pirning o'zi ham gurs etib yiqildi.

Kampir yugurib ko'chaga chiqqanda, dushman snaryadi shaharning muqqadas bir yodgorligini osmonga uloqtirgan edi. Maktab yonidagi maydonda dafn qilingan o'n to'qqiz nafar qizilga o'rnatilgan marmar yodgorlikni kul-parchin qilibdi. Natalyaning eri Stepan shu yerga dafn qilingan edi. Ular ham o'n sakkizinchi yilda o'sha nemislar o'qidan halok bo'lgan edilar. Yurakdagi o'sha judolik dard-alami kamlik qilganday, mana bugun o'sha qadri yodgorlik ham yo'q qilindi.

Qalbiga xanjar urilganday, Natalya hang-mang bo'lib o'tirib qoldi. Necha jang-u jadallarni ko'rgan, dushman bilan sherday olishgan elning qizi burchalik vahshiylikni eshitgan emasdi. Ke-chadan beri bo'sh, huvullab qolgan shaharni nega buncha topta-shadi, — ona shuni tushunmay garang edi.

Yodgorlik o'rnatilgan maydondan maktab tomiga kelib tush-gan yog'och va toshlarning qasira-qusuri go'yo Stepanning: "Bu xo'rlikni unutm, Natasha!" degan so'zlarini takrorlaganday bo'lar, ona qalbini pichoq tilganday tilib o'tardi. O'n sakkizinchi yil dahshatlari onaning ko'z oldidan yana birma-bir o'tib, tomiri-dagi issiq qon yana ham kuchliroq jo'sh urganday bo'ldi. Qani endi, "Natasha, shoshma! Natasha, ana endi o'qni yog'dir!" deb komanda berilgan kunlar yana bir kelsa-chi...

Bu so'niq ko'zlar uzoq o'tmishni ko'rayotganday, qayer-largadir tikilib turganda, nemis tanklari shaharga kirib kelayot-gan edi. Bir zumda shahar ko'chalari tank bilan mashinaga, sur-shinel kiygan askarlarga to'lib ketdi. Shaharda uch chaqirimga cho'zilgan birgina uzun ko'cha bor edi. Dushman askarlari shu ko'chani to'ldirib kelardi.

Maktab hovlisiga ham tanklar kira boshladi. Temir bilan qop-langan, ajal tamg'asini peshanasiga yopishtirib olgan mashina ichidan chiqqan ikki kishi Natalyani ko'rib:

— Qo'lingni ko'tar! — dedi.

Natalya qimir etmadi, og'ziga kelgan so'zlar bilan so'kishdi, keyin:

— Mana bu maktab minalangan bo'lsa kerak. Avval kampir-ning o'zi kirsin, — deyishdi va Natalyani oldilariga solib, maktab eshigini ochirdilar.

Natalya eshikni shartta ochib, maktab xonalarini birma-bir ko'rsatib chiqdi. Eng oxirida o'z xonasiga kirdi-yu, kasal yotgan nevarasini to'sib:

— Ko'rib bo'ldinglar... Endi kiraveringlar! — dedi. Nemislar-ning joni sal o'rniga tushganday bo'ldi. Kampirning nega yolg'iz o'zi qolgani ham ma'lum bo'ldi. Bemor qiz olovdek yonib yotardi. Lekin, baribir, nemislar Lidaning ko'rparasini ochib ko'rishmaguncha ishonishmadi.

Bu yerda o'zlarini turishsa, qo'rqmasa ham bo'larkan degan sayolga borishdi, shekilli, maktab binosi odamga liq to'ldi. Bu elning maktabni qanchalik qadrlashini yaxshi tushungan nemislar, shahardagi eng xavf-xatarsiz joy shu bo'lsa kerak, degan xulosaga ko'lishdi.

Maktab koridorida taqali otlar yo'rtib yurganday bo'lardi. Lida bir mahal ko'zini ochib:

— Bu nima, yoki bugun o'qish boshlandimi? — deb so'radi huvusidan.

— Ha, chiroqqinam... boshlansa kerak...

Eshiklarga soqchilar qo'yilib, bir-biriga chest berishlariga qaraganda, bu uyga ofitserlar joylashishi aniq edi.

Fashistlar nima haqidadir chug'urlashib Natalyaning xonasiga kirishadi-yu, lekin darrov chiqib ketishadi. Yotgan kasaldan hazar qilishadimi yoki bolasini qo'riqlab o'tirgan onadan hayiqishadimi, xullas, ko'p turishmaydi. Boshqa xonalarda ayg'irlar kishnagan-day, buqalar bo'kirganday bo'ladi.

— Mana bu yevreyni yo'qot! — deb buyruq qilingandi, bittasi Pushkin haykalchasini derazadan otib yubordi. Donishmandlar-ning devordagi surat va portretlari ham birin-ketin yuliniib tash-landi.

Oq kipriklarini suziq, so'nib, sovuq ko'zlarini baqraytirib bir nemis ofitseri Natalyaning xonasiga kirib keldi:

— Madam, kasal bolangizni olib, xonani bo'shatib qo'ying! Bu yerda turishingiz sira mumkin emas! — dedi go'rdan chiqqan-dek yoqimsiz tovush bilan.

— Shu zimistonda qayerga ham boraman? Hamma uylarni odamlaringiz egallab oldi-ku! Bolaning holini ko'rib turibsiz-ku? — dedi kampir ko'zleri g'azabdan chaqnab.

— Qayerga borishingni o'zing bilasan. Biz bu yerga senlarga uy topib bergani kelganimiz yo'q. Gap tamom!

— Ko'chaga chiqsam, soqching otib tashlaydi-ku?

— Ehtimol, otar. Soqchiga men javobgar emasman. Biroq meni ofitser otar ekan deb umid qilma... Otsa ham soldat otadi.

Bulardan rahm-shafqat kutish mumkin emasligini yaxshi bil-gan ona, Lidani o'rab-chirmab, ko'tarib oldi-yu, maktabdan chiqdi.

Shahar qip-qizil olov ichida. Maktab hovlisi ham, ko'chalar ham dushman askari bilan liq to'la. To'da-to'da bo'lib turgan tank motorlarining gurullagan ovozi bir zum o'chmaydi. Qaysi bir to'monga qaramang, o'lim sharpasi keladi, har bir ovoz o'limdan darak beradi.

Nemis soldatlari maktab saroylarini buzib, o't yoqib, ovqat isitmoqdalar. Nevarasini quchoqlagan ona sekingina yurib, ularning yoniga keldi.

— Men hammalaringga ham onaman-ku, bolalar. Mana, bolamning joni qil ustida turibdi. Tong otguncha olovlaringda isinib o'tirsam degandim... — dedi.

Soldatlar "soldat" so'zini aytishib, unga "yuqumli kasal" degan so'zni qo'shdilar. Maktab hovlisidagi o'nga yaqin joyga o't yoqayotgan soldatlarning birona guruhi ham uni yaqiniga yo'latmadi, ona qalbidan mehr o'chdi.

— Xap, senlarnimi!..

Lidani hali o'zi ko'rgan chuqur yoqasiga yotqizdi-da, kampir sudralib borib saroy tomondan bir-ikkita taxta olib keldi. Taxtani soldatlarning gulxanidan yondirib olib, chuqur chetida yoqa boshladi. Quruq taxtalar chitir-chitir etib, lovullab yonib ketdi.

Qorong'i tushib, gulxan atrofida o'tirgan soldatlar ko'ziga hech narsa ko'rinmay qoldi. Shu paytda:

— Hali, o't tushmasin, ehtiyot bo'ling, degan joy shu ediku... — deb, kampir olovini o'sha tomonga surib qo'ydi.

Maktab binosi xonalaridan yorug'lik tushib, mast kishilarning ovozi eshitila boshladi. Natalya olovini yana bir surib qo'yib, qolgan taxtani o'tga tashlab yubordi-yu, Lidani ko'targancha maktab bog'iga kirib ketdi.

Yo olov yetmadimi, yo haligilar hazillashib aytdilarmi — Natalya bog'ga yetguncha hech qanday falokat yuz bermadi.

— Attang, yanglishibman-da. To'g'rilab qo'yay, — deb Natalya maktab tomonga burilgan ham ediki, maktab tomi gumburlab osmonga ko'tarildi. Yog'och to'sinlar, qora dud aralash qip-qizil alanga maktab atrofini tutib ketdi. Nevarasini bag'riga mahkam bosgan dovyurak ona ham zulmat tun qo'yniga sho'ng'ib, g'oyib bo'ldi.

AQLIMA

"Onajonim!" — deb boshlabdi jangchi xatini. Undagi "Onajonim, oyijonim!" degan so'zlar go'yo olamga alanga sochib, jar solayotganday tuyuladi.

"Oyijon, sizni juda sog'indim..." degan so'zdan keyingi ko'p nuqtalar xuddi ko'zdan otilib chiqqan munchoq yoshlarga o'xshaydi.

Ehtimol, chindan ham shoshilinchda xat yozganda jangchining bog'inch va mehr-muhabbatni so'zlar emas, ko'p nuqtalar ifodalagandir. Ehtimol, bu onasini qattiq sog'ingan o'g'ilning yuzta xat o'rnini bosadigan yurak mehridir.

Aqlima xola ham o'g'lini juda-juda sog'inib yurgan edi. Urush maydoniga otlanganiga besh yil bo'lgan Qosimdan ikki yil xabar bo'lmagandi. Shuning uchun ham bechora onaning qalbi xuddi tarang tortilgan do'mbiraning toriday sal narsaga cho'chir, izitirob chekardi.

Qo'ly ko'zlari javdiragan novcha bo'yli Nurila xatni o'qiyotib "juda sog'indim" degan so'zdan keyingi ko'p nuqtalarga birpas to'xtaganda onaizor ko'nglini pora qilgan qaynoq yosh tomchilari stol ustiga tomidi. Nurilaning ham endigina g'uncha yanglig' ochila boshlagan lablari dirillab peshanasi qizarib ketdi.

Aqlima xola uzila boshlagan umidini yana tiklash uchun o'g'lining xatini qo'lga olganda: "O'g'lingizdan" degan so'zdan boshqasini o'qimagan edi. O'g'li Qosimning o'lgani haqida kelgan qora xat sandiq tagida yotsa ham, ona "o'g'lim tirik, topiladi..." deb sira noumid bo'lmasdi. Jiqqa yosh ko'zlarini qo'shni uy ayvonidan yugurib chiqqan Nurilaga tikib, uni oldiga chaqirdi:

— Nurilaxon, bu yoqqa kel-chi, — dedi Aqlima xola xatni ko'rsatib.

Urush mahalida maqsad va orzu-niyatlari bir odamlar bir kecha birga tunab chiqishsa, bir-birlarining sevinch-qayg'usiga sherik bo'lishar, darrov do'stlashib ketishardi. Shu uyda ikki oydan beri

qo'shni bo'lib turishgan Aqlima xola bilan Nurila ham bir-birlarining joniga oro kirishdi.

Baland poshnali oq tufli kiygan Nurila chiroyli oyoqlarini ayvonchaniq panjarasiga qo'yib, dik etib sakrab tushdi. U bir narsani sezganday oq-sariq yuziga qizillik yugurdi, kulimsirab kelib Aqlima xolaning qo'lidan xatni oldi.

— Agar xursand bo'lish o'rniga yig'laydigan bo'lsangiz, o'qimayman, — deb pisanda qildi u avvaliga, lekin xatning *“juda sog'indim”* degan joyiga kelganda o'zining ham tovushi qalтираb bir zum to'xtab qoldi. Oppoq bo'ynidagi tomirlarining ham urayotgani bilimib turardi. Teshib yuborguday bo'lib boqadigan qora ko'zlari jiqqa yosh, ikki ko'ngilning sirli dard-alami qo'shilib ketganday. Xuddi, shu paytda ikki ayolning yuragi ham bir do'mbiraning qo'sh toriday, garchi u ikki xil sozlangan bo'lsa-da, bir kuyni kuylab, bir kuyga jo'r bo'layotganday edi.

Xatning muqaddimasi xuddi baland jardan shovullab oqqan tog' suviday, yurakdagini aygan sog'inch kuyi ekan. Bu yo shoir, yo mohir bastakorgina ayta oladigan sof yurak so'zi. Bu kuyni — bu so'zni, hatto Nurilaning o'zi ham tovush chiqarib o'qiyolmay, ko'z yugurtiribgina o'tdi. Xatning davomi go'yo sokin, tinch oqar suvday ravon ketgandi. Nurila shu joyidan o'qidi:

“Oyijon, sizni Qaraq'andadan topganimga ham quvondim, ham achindim, — debdi jangchi xatida, — shu xatni yozishimning o'zi men uchun katta bir imtihon bo'ldi. Men sizni “Oq adir”dan topamanmi deb, avvalgi xatni o'sha yoqqa yozgan edim. Qaraq'andadan qo'zg'almagan ekansiz”.

Aqlima xola hayron bo'lib:

— *“Oq adir”i nimasi? — deb so'ragan edi, Nurila bunga e'tibor bermay xatni o'qishda davom etdi.*

“Oyijon, “Oq adir”i nimasi deb hayron bo'larsiz, unga keyinroq to'xtalib o'tarman. Avvalo, o'z ishlarimdan hisob beray”.

Garchi butun fikri-zikri xatda bo'lsa ham, Nurilaning yuzidagi har bir o'zgarishni kuzatib turgan Aqlima xolaning ikki qora ko'zi: *“nima uchun?”* deganday savol nazari bilan boqardi. Shubhali bir o'y ko'zlarini to'sganday, ular katta-katta ochilib, oppoq yuzlari bo'zarib ketdi.

“Men bu urushda qirq ikki ming to'qqiz yuz qirq to'qqiz kilometr yo'l bosdim, oyijon. Keyinroq to'xtalib o'tarman deganimning boisi ham o'sha qirq to'qqizinchi kilometrda edi... Oyijon, agar unutmamasam, xuddi o'sha kuni sizning qirq to'qqiz yoshga to'lgan kuningiz edi. Shu muborak kuningizni qulab yozgan xatim ko'krak cho'ntagimda yurgan edi. Biroq bu xatni siz ham ololmadingiz, o'zimda ham yo'q...”

— *Boyaqish bolam, bu yil qirq to'rtga kirishimni unutibdi, shukilli... — dedi Aqlima xola og'ir xo'rsinib. Nurila uning bu gapni tasmollab aytganini ham yoki yoshini ortiq aytganini yoqtirmaganini ham anglayolmadi. Uning qulog'iga olistirlardan bir tanish un chalinayotganday, o'zga narsa haqida o'ylayolmaydigandek tuyulardi.*

“Bu yo'l aytarli uzoq emas, oyijon. O'zimizning oblastni o'n marta aylanib chiqqanday gap, — deb yozibdi jangchi. — Ikkinchidan, shuncha yo'l yursam ham hali Berlinga yetolganim yo'q. Uchinchidan, bunga poyezdda yurganim, osmonda uchganim, tankda yurganim, xullas, ilgari yurganim ham, keyingi yurganim ham — hammasi qo'shiladi. Armonim — shu so'nggi qirq to'qqizinchi kilometr dan nariga o'tish edi. Lekin niyatimga yetolmadim.

Shu so'zlardan keyin jangchining ayanchli xo'rsingani eshitilganday bo'ldi”.

Nurila ham xo'rsinib qo'ydi. Bu xo'rsinish Aqlima xolaning o'yiga kelgan ba'zi shubhalarni yuvib yubordi.

“Oyijon, quvonchga ham, qayg'uga ham birday chidaydigan, to'zimli edingiz. Endi men sizga o'sha qirq to'qqizinchi kilometr haqida gapirib beray. Modomiki menga ona ekansiz, har bir so'zimni sabr-chidam bilan tinglang, bo'sh kelmang”.

Jangchining bu taskin beruvchi ajoyib so'zlarini eshitish bilan Aqlima xola butun shubhasini unutib:

— *Qulunim, bolaginam, Qosimjonim! — deb yubordi.*

“Zimiston tun edi, oyijon. Uchinchi tun edi. Kunduzi otishmadan ko'tarilgan ko'kimtir tuman hali ham tarqalgani yo'q edi. Bu tun men yorug'dunyoni so'nggi bor ko'rganim uchun ko'p narsalar hozir ham ko'z oldimdan ketmaydi. Bu bulutli, osuda tunda, osmonning faqat sharq tomonidagina yulduzlar yariqirab turardi. Ufqdan

ko'tarilgan qo'rg'oshin kabi og'ir qora bulut osmonda suzib, soyning nemislar joylashgan tomonini qorong'ilik qo'riga botirgan edi. Shu qorong'ilik nemislar ustidan ko'tarildimi-yo'qmi — men uni bilmayman. Men ko'rgan so'nggi manzara mana shu edi.

Ba'zan qora tunning qorni yoritib ketganday, "qars-qurs" etgan tovushlar yangrab, qizil-yashil o'qlar ko'rinardi.

Uchinchi tun edi, deyishimning boisi, oyijon, soydan o'tish uchun uch kun-u ikki tun jang qilib narigi qirg'oqqa o'tolmay turgan edik. Narigi qirg'oqda o't tizzadan oshadi. O'q yomg'irday yog'ilgani uchun qadam bosib bo'lmaydi. O'q bo'roni suv betini tinmay savalardi. Nemislarni shu joydan bir uloqtirib tashlasak, u yog'ida hech qanday xavf-xatar, qiynchilik yo'qday ko'rinardi. Eng yaqindagi xavf-xatarni bartaraf qilsang, u yog'iga ishing yurishib ketadi, urushda jangchi uchun bu bir temir qonun.

Hali esimda, keng yag'rinli, ulkan gavdali, qorong'i kechada kunduzgidan ham yo'g'on bo'lib ko'ringan diviziya komandiri polkovnik Remizov tankistlar oldiga keldi. U simday tortilib, qoziqday qotib qolgan tankistlar bilan salomlashib, asta o'ta boshladi. Polkovnik atrofida o'ralashib yurgan ofitserlarning xattiharakatlaridan yangi buyruq borligi shunday sezilib turardi. Polkovnik orqasiga shaxdam qadam tashlab qaytdi-da, ro'paramizda to'xtadi:

— Bir gapim bor, bu ixtiyoriy narsa, majburiy emas, shunchaki o'rtoqlik maslahati, — dedi u. — Buni bajargan odamga qahramonlik unvoni, shon-shuhrat, baxt va'da qila olmayman. Bu narsalar o'zlaringda yetarli. Xo'sh, sizlar nima deysizlar? Narigi qirg'oqqa o'tib olishning fursati yetdimi, yo'qmi? — deb yuzimizga tikilganda, men, u yuragimning eng chuqur joyiga nazar solyapti, shekilli, deb o'yladim. Shundan so'ng biz aytmoqchi bo'lgan javobni o'zi aytdi.

— Bilaman, o'tib ketdi, allaqachon o'tib ketdi, kechikdik, deysizlar. U, bu so'zlarni bo'rttiray, sodda qilib aytdi.

Ba'zan soldatlar har kuni eshitadigan qat'iy buyruqdan ko'ra mana shunday o'rtoqlik, samimiy, oddiy so'zlarni qo'msaydi. Ota-onasini, do'st-birdorlarini sog'inib yurgan yigitlar bunday oddiy, do'stona iliq so'zni eshitganda mehribon ota-onalari,

do'st-yorlari bilan gaplashganday bo'ladi. Mayli, gapni shu yerda muxtasar qilay. Ayta bersam tamom bo'lmaydigan. Xullas, besh tankist tankda soydan suzib o'tib, narigi qirg'oqda bekinishga yo'l da qildik.

Hali esimda, besh tankning komandiri indamay o'z tanklarimiz tomon kelayotibmiz. Tanklarimizni mahkam bekitib olib, suv osti bilan narigi qirg'oqqa o'tmoqchimiz. Suv ostida to'r ham bor, chuqur ham bor. Temir tuzoq va minalar bilan o'rab olingan shular ham bor. Suv ostini tekshirib chiqqan razvedkachilar bu narsalarni bizdan yashirishmadi ham. Biroq shu xavf-xatarlarga chap berib, bir amallab o'tish mumkin edi. Soyga tik tushib, o'n metrcha yo'l yurganimizdan keyin, so'l tomonga burilib, yana, o'n besh metr yo'l bosib, qiyalab qirg'oqqa chiqishimiz kerak. Hammamizning mo'ljalimiz shu. Suv ostidagi qat-qat to'rlarni ko'rmasak ham, ko'ngil ko'zi bilan yo'l topib kelyapmiz. Bu yerda ko'r-ko'rona mardlik emas, ongli mardlik kerak. Shuni o'ylab kelyapmiz. Tutilmasdan o'tib ketsak, tankimiz ichidagi zapas havomiz bema'lol yetadi, tank ichiga suv ham kirmaydi. Bordi-yu, to'xtalib qolib, na olg'a, na orqaga qayta olmay qolsak, to'rga tushgan baliqday tipirchilab qolamiz. Xayolimizda faqat shu fikr.

Bir-birimizning qo'limizni qattiq siqarkanmiz, soy tomonga yana bir nazar tashladim, dushman suv betini hamon o'qqa tutardi. Askarlarimizning kechasi soydan o'tishidan xavfsiragan nemislar tinmay o'q yog'dirardi. Biz tovush chiqarmay tanklarga kirdik. Shunda men:

— Oyijon, ko'risholmasak, xayr endi, rozi bo'! — dedim ichimda. Yo'q oyijonim, yo'q! Ismingizni tilimga olganim rost. Ammo xayrlashganim yo'q. Xayrlashish kerak degan o'y xayrolimga bir necha bor keldi-yu, ammo xayrlashganim yo'q. Xuddi shu ko'z ochib-yumguncha o'tgan daqiqada yorug' dunyoda juda ko'p narsalar bilan xayrlashishim kerakligini sezdim. Biroq birortasi bilan ham xayrlasha olmadim, ko'zim qiymadi. Hatto Qarag'andadagi uzluksiz ko'mir tashuvchi poyezdlarning tutuni bilan ham xayrlasha olmadim, ko'zim qiymadi.

Yuqorida gapirib o'tgan xatni ham narigi qirg'oqdan yuborgim kelmadi, o'zim bilan ola ketdim. Ertaga xat oxiriga "sog'—

salomatman, omonman" deb yozib qo'ygim keldi. Bilasizmi, bugungi kun bilan ertangi kun orasida qanchalik uzoq, qanday ajoyib hayot yotadi, oyjon..."

Xat poyma-poy yozilgan bo'lsa ham. Ikki ayol uzun bir kuy eshitayotganday ranglari bo'zarib, ko'zlariga yosh olib bir-biriga qarasha olmasdi. Nurilaning yo'g'on qilib o'rilib, yelkasiga tashlab qo'yilgan sariq sochi bo'ynidan bosib turganday.

— Sening ham ko'ngling bo'sh ekan-ku, — deb Aqlima xola Nurilani yupatgan bo'ladi.

— Shunday o'g'li bor ona ham yig'laydimi, — deb hazillashgan bo'ladi Nurila. Biroq ular bir-biriga tik boqolmas edilar. Nurila ovozining titraganini zo'rg'a bosib, yana xatni o'qishga tushdi:

"Yer betida hamma yoqni larzaga keltirib, quloqni kar qiladigan og'ir tank suv ostida pishillab keladi. Goho orqa, goho old tomoni baland ko'tarilib, soy botqog'iga tegib-tegib ketadi. Atrofda boshqa hech qanday sharpa sezilmaydi..."

— Burilma! To'g'riga yur! Endi chapga buril! Bo'ldi, bo'ldi! Endi olg'a! Endi o'ngga buril! — deb ko'ngilda buyruq berib boramiz.

Yonimdagi uchta o'rtog'imning ko'zlari ham xuddi shu ko'ngil buyrug'iga — umidga qadalgan. Har bir metrni did bilan, ko'ngilda hisoblab kelamiz! Xavf-xatar yonidan sirpalib o'tib, o'lim panjasiga ilinmay omon qolishimiz kerak. Ikki minut... ikki yarim... Ikki-yu qirq... ikki-yu qirq bir... ikki-yu qirq ikki... qirq uch... Minut bilan minutlarning orasi naqadar uzoq ekanligini men shunda ko'rdim. Tankning ichi ko'kimtir rangga kirib, nafasimdan bir xil hid kela boshladi. Tank ichiga kirgan suv ham tizzamga kelib qoldi. Go'yo bularning hammasi o'ngingda emas, tushingda bo'layotganday, oyoq-qo'ling uvushib, qimir etolmay qolganga o'xshaysan.

Bir mahal suv butun gavdamizni yuvib o'tdi-da, ostingi eshikdan vashillab quyila boshladi.

Oldimda bitta, orqamda uchta tank bor edi. Ularning qanchasi qirg'oqqa chiqib, qanchasi chiqa olmaganini hanuzgacha bilmayman, o'z tankimning gusenitsasi yerga tegishi bilan olg'a haydab ketdim. O'qtin-o'qtin atroflim yaraq etib ketadi. Majaqlangan sim

g'ovlar, temir to'siqlar. Hurpayishgan nemis soldatlari ko'rinib qoladi. Tepamizda do'l yog'ganday qasir-qusur etgan tovushlar eshittiladi. O't ichiga kirib ketibmiz...

To'pchi Pyotr Chernov boyadan beri o't ochib kelayotir. Yuzko'zini bilagi bilan dam-badam artib, tez-tez otmoqda. Burchakda Nikolay Sorokin tinmay ratsiyada gapirmoqda. Bir daydi snaryad tankimizning peshanasiga kelib tegdi, shekilli, og'ir tank bir silkinib tushdi. Tank haydovchi Rahimjon Sarbasov, yopirilib kelayotgan nemis soldatlarini tovuqday toptab, tor transheyani majaqlab o'tgach, menga bir qarab qo'ydi. Qisiq qora ko'zlari yilt-yilt etadi.

— Piyoda askarlar o'tdimi? — deb so'radim Sorokindan. U yo'q deganday boshini chayqadi. O'tadigan vaqt hali bo'lgani yo'g'-u, nega so'rayotganimni faqatgina o'zim bilaman, xolos.

Soydan o'tib o'n kilometr yurdik, demak, qirq ikki ming to'q qiz yuz qirq to'qqizinchi kilometr, dedim ichimda. Sizning qirq to'qqizga kirganingizni yana bir eslab, ko'krak cho'ntagimdagi xatni bag'rimga bosdim.

Pyotr Chernov menga bir nima demoqchi bo'lib boshini burgan edi, yonboshidan kelib teggan o'q o'ng qo'lini yulib ketdi. Men ham yuzimni changallab qoldim, sovuq bir narsa tegib ketganday bo'ldi.

— Bir to'p piyoda askarlar soydan o'ta boshladi, ana, oldi qirg'oqqa chiqa boshladi, — dedi Sorokin. Keyin u menga qaradi: — Nima balo, burindan ayrilib qolganmisan... Men unga Chernovni ko'rsatdim. Uning qattiq iztirob tortayotgani yuzidan ko'rinib turardi.

Juda g'azabim toshib ketdi. Shundan so'ng tankdan o'q bo'ronini yog'dirganim ham esimda, tankimning ichi gur etib yongani ham yodimda. Eh, ko'krak cho'ntagimdagi xat yonib ketadigan bo'ldi-da, jo'natib yubormaganimni qara-ya, deb afsuslanganim ham esimda. Sochim, ush-boshim yana boshlagani ham esimda, o'rnimdan turmoqchi bo'lganimda, ikki oyog'im bukilib, yiqilib tushganim ham esimda. Keyin nima bo'lganini olti oydan so'ng bildim..."

Xatni tik turib o'qiyotgan Nurilaning tizzalari bukilib, devorga suyanganicha o'tirib qoldi. Aqlima xolaning suyanadigan joyi ham

yo'q edi. Qalbini o'tkir bir narsa tilib o'tganday halqumiga all
anima tiqilganday bo'ldi.

Sal nariroqda o'ynab yurgan ikki bola ularning yoniga kelish
di. Har ikkisi ham maktab ostonasiga bugun birinchi marta qadam
qo'yishgan, do'mboq qozoq bolalari edi. Bittasining boshida
askarlikdan kelgan akasining pilotkasi, ikkinchisi yalangbosh.

— Men endi nemislarni qanday savalashni bilaman. Akam ay-
tib berdi, — dedi sur pilotkali bola,

— Avval orqasiga o'tib olasan-da, yelkasidan bir urasan...

U yonidagi bolani urmoqchi bo'lib, qo'l siltagan edi, yalang-
bosh bola engashib qoldi-yu, o'zi yiqilib tushdi. Papkasidagi ki-
toblari sochilib ketdi. Yalangbosh bola pilotkali bolaning ustiga
chaqqon minib olib, og'zini bosib dedi:

— Shundan keyin nemisning og'zini mana bunday qilib bog'-
lab, sudrab olib ketasan! — dedi-da, o'rtog'ini sudray boshladi.

Bolalarning bu o'yini Nurilaning xayolini bo'lib, ko'nglini sal
ko'tardimi, yoki azob zahrini bir yo'la yuta qolay dedimi, harqalay
xatning oxirini jadallab o'qib ketdi:

“Og'zimga ovqat quyilishini, qo'limga qo'l tegishini ko'pdan
beri sezardim, — debdi jangchi, — biroq qulog'im eshitmaydi,
ko'zim ko'rmaydi, tilim so'zlamaydi, a'zoyi badanim behol, xayoy-
lim parishon.

Ikki qo'linning sog' qolganini bilgan kunim birinchi bor xur-
sand bo'ldim. Behol yotgan tanangdan biror a'zoyingning sog'
ekanligini bilsang, bu kishiga katta quvonch ekan. Barmoqlarim
sog' ekan! Ular go'yo shu bugun tanishayotganday, bir-birini ush-
lab ko'rib, siypalashayotgan mahalda o'zimga keldim. Barmoqlarim
bir-birlari bilan ko'rishib bo'lgach, asta-sekin taran-taram bo'lib
qolgan qovurg'alarimni silab o'tib, yuragim oldiga keldi. Endi ikki
qo'l bir-birini suyab, bosh tomon siljimoqda. Boshimda oq bintdan
bo'lak hech narsa topolmay, burnimni izlagan edi, u o'z o'rnida
yo'q ekan. Uning o'rniga issiq qo'rg'oshin quyib qo'yilganday...

Lablarim bilan tishlarimning butunligini bilib, ikkinchi bor
xursand bo'ldim. Ikki qo'limgo'yo lablarimning hisobiga yetol-
maganday, qayta-qayta ushlab ko'rar, hazillashgisi kelganday
sekin chimchilab ham qo'yardi.

Chap boldirim uyushganday bo'ldi, o'ng oyog'imning
barmog'i qichishadi. Endi qo'llarim arang qimirlab o'sha tomon
siltiydi. Avval qichishgan joyimni qashib qo'yay deb, o'ng qo'l
ustiga tushgan edi, qo'limga kesilgan yog'ochday cho'ltoq bir nim-
naga tegdi-yu, u yog'idan hech narsa topolmadi.

Bir mahal soydan o'tganimga qancha vaqt bo'lganini bilgim
kellib qoldi, bunday qararasam, qo'limga soatim yo'q. So'ngra
qayerdaligimni bilgim keldi. Nazarimda, hali ham o'sha dah-
shatli tun qo'ynida yotgandayman, tush ko'rib, qattiq uyqudan
uyg'ongandayman. Meni hayron qoldirgan narsa — jang maydoni-
da bo'lmaydigan yumshoq to'shak bilan, suv sepgandek jimlik edi.

Boshimni qayta bog'layotganlarida, es-hushimni yig'ib oldim,
kimningdir epchil, chaqqon qo'llari boshim ustida jadal qimir-
lar edi.

— Qay mahal bo'ldi? — deb so'radim, hech kim javob bermadi.

Qulog'imga g'ingillagan tovush kirdi, ammo savolimga hech
kim javob bermadi. Men yana so'radim. Ovozim chiqmayotgani
endi esimga tushib, qo'llarimni ko'tardim.

— Siz bemalol yotavering... Endi xavf-xatardan qutuldingiz...
Hozir Saratoy shahridasiz... Bir-ikki oyda otday bo'lib ketasiz! —
degan so'zlarni arang eshitdim. Shu ovoz ikki marta takrorlanadi.

Bu so'zga o'tganimizdan so'ng olti oy keyin bo'lgan voqea
ekan. Menga esa bularning hammasi xuddi kuni kecha bo'lib
o'tganday edi.

O'yjon! Mana shundan buyon bir yarim yilcha vaqt o'tdi.
Sal o'zimga kelganimga ham mana yarim yil bo'ldi. Endi hoz-
irgi ahvolni bayon qilay: ikki oyog'im yo'q, xuddi kesilgan
to'nkadayman. Ko'zlarim endigina ravshan tortib kelyapti. Yu-
zimni chandiq bosib, burishib, tirishib ketgan bo'lsa kerak, uni
qo'llarim bilan siypab ko'raman. Qovurg'amdan go'sht oldirib,
uni o'z terim bilan qoplatib burin qildirib oldim. U go'yo asl burn-
imday tuyuladi menga. Bu xatni yozsamimkin-yozmasamimkin deb
qattiq qiynaldim deganimga boisi, shu turish-turmushimni sizga
bayon qilishga yuragim bellamagani edi. Har holda, o'rtog'larim,
yor-u'jo'ralarim bor. Ba'zi birovlar cho'chib yurmasin deb isti-
hola qildim. Mana, nihoyat, yozishga qaror qildim.

Oyijon! Xatim uncha ko'ngilli chiqmadi, chamamda. Biroq butunlay o'jiz, chorasiz ekan, deb o'ylamang! Ikki ko'zim ravshan tortib kelyapti dedim-ku. Yorug' dunyoni ko'rishimga sira shubhalanmayman. Ikki qo'lim sog', nazarimda, butun vujudim aqliguto'laday. Qo'limga qog'oz-qalam tegar kun bo'lsa, sira nolimayman. Bu ham katta bir hayot, oyijon! Men Ulug' Vatan urushi yillarida faqat bir ashulani xirgoyi qilib yurardim. Biroq bu ashulaning so'zini, kuyini shu vaqtgacha yaxshi bilmasdim, hanuzgacha uni yod o'lolganim yo'q. Biroq nuqul shu bir kuyini xirgoyi qilganim-qilgan. Shu paytlarda men o'zimni go'yo bepoyon dengiz ustida suzib ketayotganday his etaman. Qo'rqish, qayg'urish, iztirob chekish, shubhalanish nimaligini bilmayman. Shu kuy butun vujudimga singib ketgan, o'zimni qanot chiqargan, hademay ko'kka parvoz qiladigan qushchadek his etaman.

Oyijon, hozir kurortdaman. Oyoq yasatish uchun kesilgan suyaklarimni chiniqtiray deb balchiq bilan davolanib yotibman. Javob xatingizni olishim bilan Qarag'andaga uchaman... Diydor ko'rishishni sabrsizlik bilan kutgan, mehribon o'g'lingiz... Safar".

— Safar?! Safar deyaptimi? Uh, yuragim endi o'rniiga tushdi-ya! — dedi Aqlima quvonchini yashirolmay. O'z o'g'li Qosimdan kelgan qora xat sandig'ida saqlanayotgan bo'lsa-da, shunchalik azob-uqubatlarni tortgan odamning boshqa bo'lib chiqqani, boyadan beri iztirob chekib o'tirgan mushtipar ona uchun umrida birinchi bor eshitgan quvonchday bo'lib tuyuldi.

Biroq Nurilaning yuzi bo'zdek oqarib ketdi, hozir uni o'z tug'gan onasi ham tanimasdi. Go'yo xatning hamma og'irligi uning zimmasiga tushganday, yosh tolday egilib-bukilib qoldi. Haligina gul-gul yashnab, ochilib turgan go'zal qomati bo'shshib, egnidagi tovlanib turgan guldor ipak ko'ylagi g'ijimlandi. Aqlimaga tikilgan qora ko'zlarida noz ham, hayronlik ham, achinish ham bor edi.

— O'zi onasi bilan sirlashib o'sgan, onasini jon-dilidan sevgan, uni hech kimga teng ko'rmaydigan yigit ekan, — dedi Aqlima xola o'ziga o'zi gapirganday. Uning bu gapida hamma onalarning azaliy va mangu armoni bor edi, shu bilan birga, hali o'rinsiz quvonganidan xijolat bo'lgani sezilib turardi.

Nurila Safar degan yigitni bir marta ko'rgan edi. Uch yil ilgari o'qishni bitirib, Olmaotadan Qarag'andaga kelganda, hozirgi Aqlima turadigan uyda — Ulbola deyidigan bir keksa kampir yasharkan, Nurila shu kampirga qo'shni edi.

Bir kuni Nurila majlisdan yarim kechada qaytib kelayotib ko'chada, faqat ich kiyimda yurgan yalang'och bir odamni ko'rib, cho'chib ketgan edi. Qarag'andaga kelib, tungi ayoqda yalang'och, ichki kiyimda yurgan odamni ko'rgani shu. Nurila yugura-yugura uyiga yetganda, Ulbola xolaning ayvonida kiyinayotgan haligi yigitga ko'zi tushadi. Ertasiga qalin qora sochini orqasiga taragan, kiyimlari quyuc yosh leytenant, zinadan pastga tushib borayotgan Nurilani ko'rib:

— Singlim, o'tgan kuni kechasi sizni cho'chitib yuborgan bo'lsam, uzr, — dedi.

Ular boshqa gapirishmadi. Yigit qiz ko'chaga burilib ketguncha orqasidan tikilib qoldi.

Yigitning ismi Safar ekanini, uning o'sha kuniyoq jo'nab ketganini Nurila Ulbola xoladan eshitdi. Mana, Ulbola xolaning vafot etganiga uch oy bo'ldi. Hozir uning uyida shaxtyor ayol — Aqlima xola turadi. Nurilaning bilganlari faqat shular edi.

Allaqa yoqdan, olisdan kelgan jangchi nidosi Aqlima xolaning yurak-yuragiga singib, uning butun vujudini qamrab oldi.

— Nurilaxon, — dedi Aqlima xola, — oying men bo'laman, desam, keyin o'z onasi topilib qolmasmikin-a? Endi o'g'il topib olsam, sira ham aytilgim kelmasligini bilasan-ku? Shunchaki bir umidda, bo'lmasa, Qosimjonning tirik emasligini bilmaydi deb o'ylaysanmi?

Nurila o'zi bilganlarini birma-bir aytib berdi. Aqlima shuncha qahramonlik ko'rsatgan odamning o'z mehribon onasini qanchalik sog'inganini butun qalbi bilan his etdi.

Shu zahoti Safarni chaqirib, telegramma jo'natdi.

Mana endi, Aqlima xola uchragan odamiga: o'g'lim kelayotibdi deb gapirar, ikki ko'zini eshikdan uzmas edi. Hozir u o'z o'g'lining ismi Qosim ekanini ham unutib, Safarjonim kelyapti, deydi sevinchi ichiga sig'may.

Aqlima xolaga Qarag'andaga uchib kelayotgan har bir samol-yotda Safar borday tuyuladi.

UCHRASHMAY KETGAN BIR SIYMO

(Nasriy doston)

I

Endigina yigirma to'rt yoshga qadam qo'ygan yosh shoir Erkabulan uch-to'rt oy ichida el-yurt nazarida naqadar yuksaklikka ko'tarilib ketganini o'zi ham sezmagani edi. Bu paytlarda siyosiy kurashlarga ko'z-quloq bo'lib turadigan xalq shahardan kelgan yangiliklarni ba'zan oshirib, ba'zan toshirib — har xil qilib so'zlard:

— Yigirma ikki yoshida podshoni birga ag'darishgan edi. Yigirma uchida Muvaqqat hukumatni yiqitishdi. Mana, endi esa Yelkamizda Kolchakning qilichi yalang'ochlanib turgan paytda qozoq dalasining qoq o'rtasiga qizil yalov qadashdi! Kiroyi shoir bo'lgandan keyin, botir bo'lgandan keyin shunday bo'lsin-da!

To'g'risini aytganda, yosh shoirning dong'ini chiqargan voqealar ham mana shular edi. Buyuk inqilobning goho tutuni, goho esa olovning ko'zi ilg'ab qoladigan oddiy dala xalqi sevimli shoiri ana shu o't-olov ichida ko'rardi. Uning she'rlaridagi badiiy o'xshatishlarni ular rostakam ma'nosida qabul qilishardi. Dovul... O't-yong'in... Olov o'rtasida yursa ham, qanotini yalin kuydirmaydigan qizil shunqorlar, yuksaklarga parvoz qilguvchi sohibchangal qiron qushlar... Go'yo bu ulug'vor dovul olashapron yillar aqqa shu qiron qushlarning qanot qoqishlaridan guvlayotgandek tuyulardi...

Shoirning el-ulus orasida keng tarqalgan ma'ruzalari ham hamмага ma'lum. Shaharda Sovdep tashkil etilgan kuni bino pesh-to'qiga bayroq ilmoqchi bo'lib turgan ikki kishining biri — Erkabulan, keng maydonni to'ldirib turgan xaloyiq o'rtasida shunday deb nutq so'zlagan:

— Xaloyiq, siz nigoron bo'lib kutganingiz ozodlik, mana, alovdek alvon bayrog'ini ko'tarib keldi. Sonda bor-u, sanoqda yo'q el edlik, endi bizni abadulabad aynimas, adashmas baxt yo'lga boshlaydigan faqatgina mana shu alvon bayroqdir. Tanangizda o'rnomustingiz bor ekan, shu ol bayroqni mahkamroq tuting! Och-yalang'och mehnatkash ahli, bir yoqadan bosh chiqarib, shu bayroq tagiga jipslashing! Ey qo'llari qadoq, tolmas bilak xalqim, bu bayroqni o'z qo'llaringizda sizlar tutasiz, sizlar ko'tarasizlar! Siz endi qorni to'q boylarning malomatlaridan qutulasizlar! Ozodlik, tenglik endillikda qorni katta boylar uchun emas, sizlar uchun...

O'shanda qora xalq shoir nutqining zamirida nimalar bo'lganini to'laligicha tushina olmasa ham, eshitganini shundayligicha yod olib ketishgan edi. Shunday qilib, shoir dong'i olis-olislariga taralib ketgandi.

Erkabulan ikki haftadan buyon el oralab har yer-har yerda majlislar o'tkazib, o'lkalik Sovdeplar tashkil qilib, shaharga qaytib kelayotgan kezi edi. G'ayratli, yosh shoir o'lka Sovdepi tashkil etilgandan beri dam olgan emasdi. Uning vaqti doim shunday munozaralar, tortishuvlar bilan o'tardi. Xalqqa hali ko'p narsani tushintirish kerak edi. Asrlar davomida tushunchasi qotib qolgan xalqni uyg'otish oson gap emasdi, albatta. Faqat Erkabulangagina emas, shahardagi boshqa bir guruh qizillar ham xuddi shunday kurashib, tortishib kelishardi.

Bugun Erkabulan "Qiz mozor" ko'li bo'yidagi o'ziga to'qroq bir ovulga kelib tushdi. Uni bu yerga o'lka markazidan olib kelgan ulovchi oq o'tov yoniga tushirdi-da, bitta otmi yetaklab qaytib keldi. Choqqina oq o'tov... Eskiroq, oftob nuri yalab, ohori to'kilib qolgan shoyi chimildiq — bu oilaning uncha kambag'al emasligidan dalolat bersa, qizil-ola gullik chit bilan tishlangan ko'rpa-yostiqlar ularning deyarli uncha boy ham emasligini bildirib turardi. Uy egalarida qandaydir notinchilik borligi sezilardi. Shu sababdan bo'lsa kerak, ochiq ko'ngillilik, mehmondo'stlik degan gaplardan asar ham yo'q edi.

Erkabulan kunduzi o'lka markazida janjalli bir majlis o'tkazgan edi. Majlis ancha cho'zildi. Kichkinagina bir do'nglik aylanasiga yig'ilishib o'tirgan odamlar, avvaliga tinch-totuvdek ko'

rinsa ham, keyinchalik borib, guppi tagida, tumoq, bo'rk ostida boshqa gaplar ham bor ekanligi ma'lum bo'lib qoladi.

— Mana buni gap desa bo'ladi!

— Quloq eshitgan gapni ko'z ko'rmay qolmaydi, shu aytganlaringning aqalli yarmini bajarilsa ham, armonimiz qolmas edi, deyishib, uning gaplarini ma'qullar edi.

Quyma gavdal, novchadan kelgan, qalin qora sochini orqasiga qayirib tarab olgan, chiroyli qora qiyiq ko'zlari yonib turgan yosh shoirni tinglovchilar unatishib qolgandi.

— Zap yigit ekan! Xotin, bola-chaqani Xudoga topshirib, ketidan ergashib ketaversammikin?

— Gapidan adashay demaydi-ya!

— Aldansa aldanar-u, biroq hech kimni aldamasa kerak! — deyishar edi odamlar.

— Kambag'allar to'pi goh Erkabulanning so'zini, goh o'zini maqtab, majlisning nishabini o'zlari tomon ag'darib borayotgan bir kezda, oldingi qatorda o'tirgan bir to'p kishilar betoqat bo'lib, qimiray boshlagan edilar. Ko'p uzamay, ularning tovushlari ham chiqib qoldi:

— Hoy, nimaga shuncha hovliqmasanglar? Gapni eshittirmadilaring-ku, axir!..

— Judayam o't boshida kul sochib, ko'piraverma, bola, bas qil endi!..

Kambag'allar shu gapdan keyin ag'rayib qolishdi.

Qo'rqanlaridan emas, balki shunday topib aytilgan gapga darhol munosib o'tkir javob topolmay qolganlaridan iztirob chekishdi. Erkabulanning ham so'zi bo'lindi. "O't boshida kul sochib, ko'piraverma!" degan gap unga ham yoqib tushgan edi. U, shu gapni topib gapirgan kim ekan, oqquvadan kelgan ham emas, tundlov, kiprigini qoqmay gapiradigan, ko'zi ko'proq ilonnikiga o'xshaydigan bir odam ekan. Erkabulanning ko'zi unga tushar ekan, u ham xuddi shuni kutib turgandek:

— Sizdan bir og'iz gap so'ramoqchi edim, — dedi Erkabulanga.

— Mayli so'rang.

— Bo'lmasa, aytinch-chi, sinfiy kurash degan gapni qanday tushunsak bo'ladi?.. Org'in-qipchoq, kerey-uvuq bo'lib ku-

lashamizmi? Yoki qong'irotnaymanlar¹ ham kurashga qo'shilishmadimi?..

— Erkabulan: "Hm, sen ovul orasidagi unsurlarning biri ekan-kan-ku!" degan ma'noda istehzo bilan kulib qo'ydi.

— Siz bu gapni rosti bilan bilmay so'rayotibsizmi yoki meni gapdan chalg'itmoqchi bo'lib so'rayotibsizmi? — dedi Erkabulan uunga.

— Yo'q, men bilib olmoqchi bo'lib so'rayotibman.

Orqaroqda o'tirganlar chuvullashib ketishdi:

— U bezbet hamma narsani biladi... Ataylabdan chalg'itmoqchi bo'lib so'rayotibdi!

— "Banda bilgan gaplarni men ham bilaman" deb gapirib yuradigan Berish-ku u.

— Berishga teskari gap kerak!

— Bu so'roqqa javob berib o'tirmang. Biz qarshimiz. Bu tovatning orqada hayt-haytlaydiganlari bor.

"Orqasida hayt-haytlaydiganlari bor!" degan gap ham Erkabulanga juda yoqib tushdi. Bu shunchaki aytilgan gap emas edi, o'zi panada boqib turib, o'zga bir orsizni o'rtaga soladigan otg'inarlarga tegadigan, ayni vaqtda kambag'allarning ham chiqib qolganini ko'rsatadigan gap edi.

Erkabulan o'ng qo'lida baland ko'tarib, xalqni tinchlantiridida, sinfiy kurash haqida talaygina gaplarni gapirib berdi. Gapirayotib, haligi Berish deb atalgan shaxsning orqasidagi hayt-haytlaydiganlarning kimlar ekanligiga ham razm soldi. Ziyrak yigit emasmi, darhol payqab oldi. Ularning hammasi to'ladan kelgan, qizil yuzli, qora baxmal chopon, qorako'l telpak kiygan odamlar ekan. Ko'zlari yiltillab, lip etib bir qo'yindan chiqib, lip etib ikkinchi qo'yniga kirib borayotgan sichqonni eslatardi. Tinch o'tirish o'rniga kimlarnidir kesatib, kimlargadir uchiriq qilib, mazax qilishib o'tirishardi. Jez qoplangan qamchilarining soplari bilan ol-dinroqda o'tirgan Berishning soniga, biqiniga nuqib, bo'sh kelma, degandek kishikishlab turishardi.

"Tap tortma, so'rayver!" deyishayotganlari aniq edi, zero, qozoqlar quvligini, shumligini yashira olmaydi, hammasi shun-

¹ Qozoq urug'larining nolari.

daygina ko'rinib turardi. Erkabulan endi ana shu to'dani bir achitib o'tishni ma'qul ko'rdi. Oldiniga bir gap bilan nashtar sanchib olmoqchi ham bo'lgan edi-yu, keyin yana o'ylanib qoldi, unday qilmadi. Xalqni o'ylantiradigan gap aytdi.

— Xaloyiq, yangi zamon kelyapti. Bu sizning ovul orasidagi mayda-chuyda gaplaringizga quloq ham osmaydi, surinmaydi ham. U sizga peshanasidan urib yiqitadigan Oqan serining oti ham emas. U — zamin-u zamoni silqillatib kelayotgan o't arava! U — qop qora tutunini osmonga o'rlatib, zim-ziyo tunni qoq yoritib, nur sochib kelayotgan parovoz! Siz esa ana shu kelayotgan o'z zamonangizni tezroq tanib, tezroq o'qib, epkiniga tezroq ilasha olarmikinsiz! Atrofingizga odamlardek ko'z tashlang... El-u yurt gavdasini tikib, endi oyoqqa turib kelayotgan hozirgidek bir damda, pochadan oladigan haromilar, birinchi zarba sizlarga qaratiladi, birinchi o'q sizlarga qaratib otiladi. Boy bilan kambag'al ikki tarafga ajratiladigan payt — ayri yo'lga yetganda, birinchi o'q sizlarning ko'ksingizga qadalladi. Birinchi qamchi sizlarning peshanangizga tushadi..

— Bu kezlardagi majlislarning birortasi ham qiy-chuvsiz, shovqin-suronsiz o'tmas edi. Erkabulanning gapini tinglagan xalq dalani yangratib yubordi.

— Xo'sh, yollangan haromi, endi nima der ekansan!

— Orqang qichib turgani yo'qmi?

Biroq Berish bu gaplarga miq etar emasdi. Uning rangi-to'yi ko'karib ketgandi. U tag'in qo'lini ko'tardi:

— Gaplaringga bir jihatdan tushunganday ham bo'lib turibman-u... biroq quloq qurmag'ur o'rganmagandan keyin qiyin ekan, botmayapti... Aniqlabroq ayt-chi, chirog'im. Xo'p, yerni kim mehnat qilsa, shunga berar ekansizlar. Ot-ulov, so'qashaymon ham shularga berilib, boz bularning ustiga hukumat ham shularning qo'lida bo'lar ekan. Shunda bugungi kambag'allar erta yo'q indin boy bo'lib chiqa kelsa, u sho'rliklarni ham yana boy-badavlatlikda ayblab bor-yo'g'ini tortib olib, o'zlarini mukkasidan qulatasizlarmi?..

Bu gal xalq bu yoqda tursin, Erkabulanning o'z ham to'xtalib qoldi. Bunchalik ham zil savol bo'ladimi? Go'yo tushunmagan,

bilimgan kishi bo'lib, anqovsirab nishonga olyapti. Erkabulan endi u bezbetni silab-siypab o'tirmay, to'g'ridan to'g'ri zarba bermoqchi bo'lib, unga nazarini ag'darganda, odamlar gur ko'tarilib, hatigi bezbetning ustiga yopirilishdi:

— Hoy, harom bez!

— Hoy, sotqin!

Majlis ahli gur ko'tarilib, misli to'lqinlanib, do'nglik tepasiga ko'tarilib kelardi. Erkabulan ba'zi odamlarning qo'li Berishga qarab cho'zilganini ilg'ab qoldi-yu, lekin bu yog'i nima bilan tog'ashini payqay olmadi. Odamlar chuvullashib, qiyqirishib do'nglikning ustiga ko'tarila boshladi. Olomon majlisning oldingi qatorida o'tirgan haligi fisqi-fasodchi bo'yni yo'g'onlarni bosa-yancha, tizzalari bilan urib-surib o'tib kelishardi. Ular ham: "Hoy, hoy, bu nima qilganlaring!" deb qochishdan boshqa chorasi qolmagan edi. Boyagi haybatlaridan ham, zaharxanda gaplari-yu hazil-mutoyibalaridan ham asar yo'q edi.

Erkabulanning oldiga bir to'p odamlar kelishdi. Eng oldida ikkita yigit yelkador, soqol-mo'ylovi mosh-guruch, kekxa bir cholni qo'tliqlab olishgandi.

Chol do'nglikning egri-bugri joylaridan o'tib olgach, o'zini quyab kelayotgan yigitlardan qo'llarini bo'shatib olib:

— Nima, meni shu do'nglikka ham ko'tarila olmaydi deb o'ylaganmidilaring! — dedi. Orqasida ergashib kelayotganlar to'xtalib qolishdi. Shu dam shoir ko'nglidan: "Mehribon xalqim, toshsang daryodeksan, hurksang qo'g'adek yengilsan-ov!" degan xayol lip etib o'tdi.

Haligi qora sur chol Erkabulanning oldiga yaqinlab kelib, birpas sinovchan nazar bilan qarab turdi-da:

— Chirog'im bolam, el-yurt iltimos qilgandan so'ng, azbaroyi chidayolmaganimdan oldingga kelib turibman, — deb murojaat qildi unga. — Shundaymi xaloyiq? Unchalik tushunmaydigan emas, ancha gapni tushunadigan chol edim. Tunov kuni qahraton ayoq kunlarida, bir gapingda: "Ilgari ko'rgan kuning kun emas, se-ning haqiqiy kuning endi tug'ilib kelyapti, xalqim!" degan eding. Shu so'zlaring yuragimizga o'tirishib qolgan ekanmi, nima gap

bo'lsa bizga aytar deb butun ovul bola-chaqamiz bilan kelgan edik bu yerga... Lekin haligilar gapning nishabini o'zlariga burib ketayozdi. Bu yog'i qandoq bo'ldi endi? Shundaymi xaloyiq!

— Shunday, shunday...

— Boyagi-boyagi — boyxo'janing tayog'i, deganlaridek, tag'in bizni bir chetda qoldirishmoqchi bular!..

Qora xalq ko'nglida bor gaplarini mana shunday qisqa-qisqa iboralar bilan aytdi-qo'ydi.

Erkabulan ularning oldida qattiq o'sal bo'ldi.

— Oqsoqol, men gapni haligidek betayin kimsalarga qarata aytgan bo'lsam ham, aslida sizlarning maqsadlaringizni nazarda tutgan edim. Tushintira olmabman, shekilli, buning uchun kechiring, — deb cholga qo'lini cho'zdi.

Nuroniy chol eski ultondek oriqli kaftlari bilan Erkabulaning qo'llarini qisib turib, boyagidan biroz yumshab, miyig'ida kulganicha dedi:

— Kamchiligingni mardlarcha bo'yningga olding — bo'ldi, shu bilan ginamiz ham tugadi. Ilohim, xalqingning peshanasiga bitgan mard o'g'li bo'! Senga aql o'rgata olmaymiz-u, ammo o'zgina tilagimiz bor. Bilaging qattiq bo'lgani bilan, kafting yumshoq ekan... Hali zamon kuchga to'lganidan so'ng kafting ham qotadi!.. — deb Erkabulaning qo'llarini bo'shatdi. Undan cholning ko'ngli to'lib, unga nisbatan inon-ishonchini qattiq qilib bo'shatdi. — Endi, chirog'im, senga xaloyiqning tilagini aytay... Bizlar bo'yini yo'g'onlardan yo'limizni bir yo'la bo'laklab olish uchun hov anovi do'nglik tepasiga to'planishamiz. Hozir jo'namiz. Sen ham shu yerga kel. Xaloyiqqa aytadigan gaplaringni o'sha yerga borib ayt, o'zimizga ayt! Bordi-yu, kelolmasang, unda na chora, uy-uyimizga ketaveramiz!

Majlisning bunday ochiqdan ochiq ikkiga bo'linganini Erkabulan umri bino bo'lib endi ko'rib turibdi. O'zining gapirgan gapni tufayli ikkiga bo'linganini shoir xayoliga ham keltirmadi. Ko'pdan beri mavjud bo'lib kelayotgan bitov yara yorilmay qolarmidi! O'zi yorildi.

Erkabulan haligi cholni o'zi qo'titqilab do'nglik ustidan sekin tusha boshladi. Odamlar chuvullashib, chol aytgan do'nglik tomon

yo'l olishdi. Yoshlar xursandligini yashira olmay, qamchining dastal bilan eski, yirtiq-yamoq qo'njilariga savalashar edi.

Haligi yerda majlisni boshqarib o'tirgan bo'lis — Mirzakeldi degan kishi bir boyga jivan bo'lsa, bir boyga tog'a bo'lgudek obro'li odam bo'lib, buni Erkabulan kelgan zahotiyoyq fahmlagan, huroq oldiga borib gaplasha olmagan edi. Odamlar ikkiga bo'linib, hular boshqa do'nglikka tomon otlanishgan mahalda, bo'lis Erka-bulanga qarab qichqirdi:

— O'rtoq polnomochin, boshqalar bu yoqda qolib, majlisni o'zing rasvo qilganing nimasi? Endi gap tegsa, o'zingdan ko'r! Shaharga bizning ham oyog'imiz yetadi!

Erkabulan orqasiga yalt etib qaradi-da:

— Ulovchi bilan ko'lik yubor mening oldimga! — deb indamay ketaverdi.

Orqadan odamlarning so'kislari eshitildi... Allakimlar kimlarningdir yirtiq tumog'ining tepasini, allakimlar kimlarningdir puchuoq burnini, allakimlar kimlarningdir yirtiq etigining boshidan mo'ralab turgan barmoqchalarini so'kishar edi...

Bularning hammasi tanish odat bo'lib, yenga olmagan uchun alam qilib so'kishar edi. Odamlar buni pisand ham qilishmadi, ay-rilib borib, o'zlarining majlislarini ochishdi.

Erkabulan majlis tugagandan so'ng yo'lga chiqib kun botar oldida shu oq o'tovga kelib tushdi.

II

O'tov egasi maymoq, g'ilayroq yigit ekan. Bir ko'zi senga qarab tursa, ikkinchi ko'zi boshqa bir chekkaga qarab turardi. Senga qaragan ko'zi jilmayib turgandek ko'rinsa, chekkaga qaragan ko'zi endigina milt-milt chiqib kelayotgan yulduzlarni sanayotgandek bo'lar edi.

— Ot-ulovlaringiz tayyormi? Bo'lislaringiz, shu ovulda ot tayyorlab qo'yaman, degan edi.

— Kechasi yurmasa kerak, deb otlarni yilqiga qo'shib yuborgan edik... Qo'nib keting... Shahargacha ellik chaqirimcha yo'l. Ertaga o'zimiz olib borib qo'yamiz.

- Siz ovulning muovini bo'lsangiz kerak, shundaymi?
- Shunday edi. Endi yig'ishtirsammikin, deb yuribman...
- Nega?
- Bundan ko'ra kaparatip tuzukroq bo'lsa kerak, deb o'y layman...
- O'tovdan sarvqomat, istarasi issiq, ko'zlari tiryak bir ayol chiqdi-da, kigiz eshikni ushlagancha, ibo bilan:
- Marhamat, uyga kiring... — dedi.
- Salomatmisiz!..
- Shukur...

Hozir Erkabulan ana shu oq o'tov to'rida bir o'zi o'tirar edi. Oz-moz do'mbira chalishdan ham xabari bor ekan. Judayam oshmay-shoshmay sekin-asta qo'lidagi do'mbirasini chertib o'tiribdi. Do'mbira kuyini ham, ovozini ham baland ko'tarmay, allaqanday nozik sirlarini, dildagi dardlarini xirgoyi qilib, to'lg'anib o'tirardi. Bu — kuy ham, ashula ham emas, go'yo tiniq buloqning shildirashi, oqshomgi shabadaning mayin, o'ynoqi nafasiga o'xshashroq bir nozik ohang bo'lib, kimnidir, nimanidir izlayotgandek bo'lar, ammo uni topolmayotgani bilinib turar edi. Hatto shoirning o'zi ham tushunmaydigan bir ritmlar, nafis ohanglar xuddi o'ng bilan tushning o'tasidagidek, mung bilan xursandchilikning omuxtasiga hamohangroq bir tasvir kashf etib eshiltirdi. Ammo bu kuyning so'zlari hali dildan tilga chiqqanicha yo'q edi. Shoir shuni izlardi. Milt-milt etib yonib turgan beshinchi chiroq atrofga xira nur taratardi. Haligi yosh juvonning mehmoniga ixlos bilan izzat-hurmat ko'rsatgisi borligi payqalib turardi. U kirib kelsa — uy ichi nurga to'lib ketgandek bo'lar, chiqib ketrsa — tim qorong'i ko'yicha qolaverar edi. Uy egasi negadir notinch ko'rinar, tez-tez uyga kirib-chiqib turardi. U bir mahal o'zidan o'zi: "Ko'chmoqchi bo'lavotuvdik" deb chiqib ketdi. Qayta kirganida "otam, bo'lis tarafda bir majlis bor edi, deb o'sha yoqqa ketgan edi" dedi. Go'yo tashqarida birov unga mehmonga hol-ahvolingni aytib ber, deyotgandek ko'rinar. Bu bechora esa nimadandir xavfsirab, ichida bor gapini tortinib ayta olmas edi.

Juvon o'tovning kigiz eshigini ochib turib, ichkariga bir quechoq o'tin ko'targan bolani kiritdi. Ketma-ket o't yoqilib,

uy ichi sal yorishgandek bo'ldi. O'tov sirlangan karavotning oyoq tarafida, keragada osilib turgan kumush qoplangan egarlabduq, jez qoplangan qamchi... o't shu'lasida yiltillab ko'rinish ketdi.

Oqshomgi choy ko'ngilli boshlandi. Ko'ngilda kiri yo'q yosh juvon choyga qaymoqli sut qo'shib quyar, ora-chora hazil-mutoyiba qilib, shoimi subbatga tortmoqchi bo'lar edi:

— Shoir qaynim, qo'shni ovullar yaylovga ko'chib ketib, er-xotin yosh-yalanglarsiz, yolg'iz qolganimizda kelganingizni qarang-a... Chamamda, bu oqshom hayotingizda o'tkazgan eng noxush oqshomlardan biri bo'lib qolsa kerak-da...

— Yo'g'e, nega unday deysiz? Men unafaq yo'lovchilardan emasman... Mana, shukur, hamma narsa bor. Ochiq ko'ngillilikdan ortiq mehmondorchilik bo'ladimi? — deb Erkabulan ayolga qaragan edi, haligi g'ilay kishining bir yoq ko'zi o'ziga qadalib qarab turganini ko'rdi. Uning ikkinchi yoq ko'zi esa ayolga qarab qadalib turgan ekan.

Erkabulan hayron bo'lib, nima qilarini bilmay qoldi. Oralari uzoq-uzoq o'tirgan ikki kishini birdek ko'rib turgan bu ko'zlarni ko'rgan odam, albatta, hayron qoladi-da!

O'rtada piyola uzatib o'tirgan bola mehmonning xijolat bo'lib qolganini sezib, jilmaydi. Uning nima uchun jilmayganini bilib turgan juvon:

— Ko'zingga qaragin, Qaysar... Choyini to'kayozding-ku... — dedi.

Aslida, ayolning og'zidan "ko'z" degan so'z chiqsa bas, shubha qiladigan g'ilay eri ko'zlarini yerga tikadi.

— Ovul atrofida birona ot topilmasmikan?... Qaysarni yuborib, Buzov ota ovulidagi yosh-yalanglarni chaqirtirib ketarlik, — deb xotini eriga qaragan edi, eri dag'allik bilan:

— Yo'q! — deb javob qildi.

— Men yayov borib aytib kela qolay!..

Qo'y junidan to'qilgan chakmonini yalang kiyib, beliga ola ipdan belbog' bog'lab olgan bola javob tegsa bas, uchay deb o'tirardi. Uning gap qaytarmaydigan bola ekani shundaygina ko'rinish turardi. Kichkinagina qiyiq ko'zlaridan ancha bama'ni

bola ekanini uqib olsa bo'lardi. Ha-da, ham shoir, ham suluv yigit bilan o'tadigan bunday kechani kim tamasha qilgisi kelmaydi, deysiz. Bu bayram-ku, axir. Umr bo'yi esida qoladi!

Uy egasi bu yo'li ham "yo'q!" deb javob qaytardi.

— Nima, odamlardan qo'rqadigan joyimiz bormi bizning?

Ayolning tovushi achchiqroq chiqdi, shekilli, eri indamadi. O'tov tashqarisidan ot dupuri eshitildi. Uydagilar quloqlarini ding qilishib, tashqariga tikilishdi. Uy egasi bir nimadan sezigi bordek, dik etib o'rmidan uchib turdi-da, qayta joyiga o'tirdi.

— Nima, birovni kutayotganmidingiz?

Ayolning tovushi boyagidan ham achchiqroq chiqdi.

O'tovga ketma-ket ikki nafar yigit kirib keldi. Ikkalasi ham ixcham kiyinishgan. Yo'lovchilarga o'xshamas, ko'proq kimnidir, nimanidir izlib yurgan odamlarga o'xshardi. Tag'in bitta-yarimtasi tashqarida qolgandek edi...

— Kechlaringiz baxayr bo'lsin...

— Kelinglar, to'rga chiqinglar...

— Omonmisan, Oqbola? Mol-joning omonmi, O'tarboy!

Shundan ma'lum bo'ldiki, uy egasining ismi — O'tarboy, xotining ismi — Oqbola ekan. Shoir shuncha oqko'ngil, shuncha mehribon bir go'zal ayolning oti nima bo'lib chiqar ekan, deb o'ylab o'tirgan edi. Ko'ngli o'miga tushdi. Shoir zoti nimalarni xayol qilmaydi deysiz? Hoynahoy, shunday barno ayolning oti Ultuvg'onmi, Dامتkenmi yoki shularga o'xshash bir ism bo'lib chiqsa — yaxshi emas edi-da!

Haligi ikki yigit bu xonadon bilan ilgaridan tanishlardek so'ra-shishdi. Erka bulanni esa ko'zlari bilan bir-bir suzib o'tishdi.

— Ha, yo'l bo'lsin...

— Birovni yo'qotib qo'yib... Shuni izlab kelyapmiz.

— Qani choyga qaranglar...

Tashqaridan "O'tarboy!" degan tovush eshitildi. O'tarboy cho'chib tushdi-yu, Oqbolaning rangi oqarib ketdi, shu dam birdan uning ingichka qoshlari sinib ketgudek bo'ldi-yu, so'ng yana asliga tushdi.

— Bu yoqqa chiqib ket!

O'tarboy shoshib-pishib o'rmidan turdi. Ayoli unga:

— Tag'in uyga boshlab kira ko'rmang! — deb tayinladi. Tashqarida Oqbolaning jini suymaydigan birov turgani ma'lum bo'ldi. Uydagi o'tirgan haligi ikki yigit Erka bulanga tag'in bir qur tikilib qarab qo'yishdi. Ayol hech kimga bildirmaygina ishora qilib, Qaynarni eshikka chiqarib yubordi. O'tov ichida qolgan Erka bulandan boshqa ikkala yigitning ham betoqat bo'layotganligi sezilib turardi...

Tashqaridan shivir-shivir tovush kelardi. Ahyon-ahyonda kimningdir tovushi qattiq chiqardi, kimnidir, nimagadir ko'ndirmoqchi bo'lardi. Kimdir yana it g'ingshigandek g'alati bir tovush bilan "jon aka!" deb yalinayotgani elas-elas quloqqa chalinib turardi. Choy quyib berib o'tirgan ayolning yuzidagi tashvishli ifodalarga qarab, xavf to'ngudek bo'lsa, ura qochishga shaylanib turgan ohuni ko'z o'ngiga keltirdi Erka bulan. Hozir u mabodo shunday go'zal ayolga xavf to'ngudek bo'lsa, oraga tushishga ham tayyor o'tirardi. Uyg'a O'tarboy bilan birga yana ikki kishi kirib keldi. Bittasi yiltir satin kamzul kiyib, belini mata bilan bog'lab olgan alp gavdali, qorachadan kelgan, tishlari so'yloq, labi quyvon labiga o'xshab yiriq bir kimsa bo'lib, yonidagisi esa uning soyasiga salom beradigan darajada qo'rroq, qisiq ko'z kishi edi.

Haligi labi yiriq kishi eshikdan kirib kelishi bilan oq uydagi larni bir-bir nazardan o'tkazdi-da:

— Hoy, xotin, omonmisan? — dedi. Yonidagi sherigi qiqirlab kildi.

Oqbola uning bu dag'al muomalasidan hayiqmadi. Aksincha:

— Sening og'zingdan bundan boshqa biron tuzukroq so'z chiqarmidi! — dedi.

— Ha, xotin deganimga nomusing keldimi? Xotin bo'lmay nima eding! Yut yili yarim qop bug'doy bilan bitta buzog'i bor sig'riga sotilganing yolg'onmi?

— Shunda ham sening og'zingga tushgan emasman, yirilib chiqib ketganman.

Ayol zoti qachon bo'lsa ham ayolligini qiladi-da... "Yiriq og'zingdan silitib chiqib ketganman" demoqchi bo'ldi-yu, odob saqlab aytmadi. Naryog'ida bor bo'lsa "yirilib..." degan bir og'iz so'zning o'zi ham yetib ortar ekan, shekilli, haligi yiriq kishi in-

day olmay qoldi. Boya osmonda turuvdi, shu gapdan so'ng anchu pastga tushdi.

Biroq shoshib qoldi:

— Hay-hay-hay! Gunohing go'rida o'kirgir otangga ursin! — dedi sal yumshab.

— Kimning otasi go'rida o'kirib yotganini bilging kelsa, avvalo, otang Po'chtaboyning qabrini topib ol!

Ayolning "Po'chtaboy otangning qabrini topib ol!" degan gapi yiriqni dovdiratib qo'ydi. Ayol chapaqay jahлга mingan, hech aya-maslikka bel bog'lagan edi.

Ikki o't orasida qolgan O'tarboy:

— Qani, to'rga o'ting, To'ke... Choyga marhamat... — deb qilpillay boshladi.

— Nima, men choy ichadigan qora o'tkallikmidim? Bor bo'lsa, qimizingni olib kel! To'ringga ham chiqmayman, quda tushgani kelganim yo'q...

Yiriq xuddi cho'kadigan nor tuyadek asta yurib borib, o'choq yoniga o'tirdi. Yo'g'onligi bilakdek keladigan sakkiz o'rimlik qamchisini oldiga ko'ndalang tashlab qo'ydi. Targ'il ko'zlari qon talashib ketibdi. Aqalli labining yirig'ini bekitadigan mo'ylovi ham yo'q, ko'sa. Go'yo yuziga, iyaklariga chiqadigan soqol-mo'ylovi adashib bilaklariga chiqqan kabi, barmoqlarigacha jun bosib ketgandi. Ichida nima gap, nima sir-astor borligini bilib bo'lmasdi.

Oqbola dasturxonni jadal yig'ishtirib, samovarni ko'tarib, tashqariga chiqib ketdi. Sal o'tmay, Qaysar eshikdan boshini suqib:

— Sizni opam chaqiryapti, — dedi O'tarboyga.

O'tarboy chiqib ketgach, yiriq qamchisini qo'lga olib:

— Haligi chirikning hurmatini qildim-da, bo'lmasa, xotining yelkasiga qamchi bilan tortib yuboray devdim! — dedi atrofda tilarga maqtanib.

— Voy, To'ke, bu buzoq tish qamching bilan bir ursang, uning nima joni bor, o'lib qoladi-ku! Odamlarning gapiga qaraganda, Birjonni sulaytirib tashlagan ham shu qamchi emish-a!

— Ha, shu qamchi! Shundan keyin Birjon o'ngalmadi! Oxiri qon qusib, jinni bo'lib o'libdi.

— Uchida qo'rg'oshini bo'lsa kerak-da. Shundaymi?

— Ha, bir suyam qo'rg'oshini bor! Bo'rini peshanasidan urang, boshi ikki bo'linib ketadi!

— Otangiz Birjonni nima uchun urgan?

— E, shoir xalqi sal haligidayroq bo'ladi emasmi, bir ola tana janjali bo'lgan ekan, shunga ora tushaman deb kaltak yebdi.

— Shunda mana shu qamchi bilan aylantirib solib qolgan bo'lsa kerak-da, a?

— Ha. Tuya jun chakmoni ikkiga ayirilib, tanasidan oqqan qon oq bo'z otining yolini qip-qizil qilib bo'yab yuboribdi.

— Nega shu zahoti o'lmadi ekan-a?

— Anchayin siltab qo'ya qolgan-da, bo'lmasa...

To'rt yigit biri olib, biri qo'yib, haligi yiriqning kim ekanini anglatib qo'ydi. Bu bilan ular kimnidir qo'rqitmoqchi bo'lishardi, shekilli. Erkabulan parvoyi falak, qo'ynidan yon daftarini olib, eshitgan gaplarini bir chekkadan yoza boshladi. Unga Birjonni o'ldirgan Po'chtaboyning o'g'li bilan uchrashgani qiziq tuyuldi. Bolasi mana shunday qop-qora, o'jar bo'lsa, otasi qanday o'tgan ekan? Zamonasiga yarasha bundan ham rasvoroq, bundan ham hayvonroq o'tgan bo'lsa ham ajab emas.

Yiriqqa ergashib kelgan jo'ralari ham g'alati odamlar edi. Ularning to'rtalasi ham ko'zlari o'g'rilmikidek jirpanglab turadigan basharalari ertalab ko'rsang kechqurungacha esingda qolmaydigan yigitlar edi. Erkabulan yiriqning ba'zi qo'pol gaplarini, odatlarini qog'ozga tushirib, ich-ichidan kulib o'tirgan mahalda, u shoirga burilib:

— Sen bir nimani yozib o'tiribsanmi, yigit? — deb so'rab qoldi.

— Ha, yozib o'tiribman.

— Nimani yozayapsan?

— Birjon haqidagi gaplarni...

— Iya, Birjon sening kiming bo'lardi?

— Akam desang ham bo'ladi, otam desang ham...

— Birjonning orqasiga tushgan qamchi mana bu ekanini eshitding-a?

— Eshitdim.

— Eshitgan bo'lsang, sen ham umidingni uzma!

Erkabulan boyadan beri xavf-xatar kimning ustiga to'nib turganini payqamay o'tirgan edi. Hatto hozir ham hech narsani ko'ngliga keltirmadi. Aksincha, uni dalada o'sgan kim bo'lsa, shu bilan aytisha ketadigan bir bezori bo'lsa kerak-da, deb o'ylab:

— Siz qamchidan ham qattiqroq tegadigan qurol borligini eshitmaganmidingiz? — dedi unga.

— Hoy bola, nima deding?..

Eshik ochilib, katta bir korsonda qimiz ko'tarib, O'tarboy bilan Qaysar kirib keldi. Ularning ortida kelayotgan Oqbolaning ko'zlaridan go'yo uchqun sachrardi. Rang-ro'yi xuddi boshidagi ro'moli kabi oppoq oqarib ketgandi. U ana shu o'tli ko'zlar bilan Erkabulanga tikildi. Shundagina shoir o'ziga xavf to'nganini payqadi.

— Beradigan bo'lsang tezroq bermaysanmi qimizingni! — deb yiriq uy egasiga qaradi.

— Hozir-da, To'ke, mana hozir, botir og'a...

Xuddi birov uni suvga solib iylagandek, O'tarboy jiqqa terga tushib ketibdi. Haligina ancha tetik ko'ringan bu kishi endi quldek itoatkor bo'lib, yomg'irda qolgan echkidek bo'shahib, o'zi ham boyagidan kichrayib qolganidek ko'rinar. Asli, xotini biroz burnini yerga ishqagan bo'lsa ham ajab emas.

Oqbola erini orqaga surib, qimiz quyadigan cho'michni o'z qo'lga oldi. Bir-biriga yaqin qo'yilgan idishlar ichidagi chiroyliroq bir piyolani kimga atab o'tirgani o'z-o'zidan ma'lum, albatta. Yiriq O'tarboy quyib bergan qimizini tez-tez ichib bo'lib, piyolani sungan edi, Oqbola unga ahamiyat bermay, biroz navbat kuttirib qo'ydi.

— Ma, Qaysar, mehmonga ber...

Haligi chiroyli piyola Erkabulanga cho'zildi.

Qaysar piyola bilan birga Erkabulanning qo'lga parcha qog'oz ham qistirildi. Bu mahal boshqalarning nazari ataylab yiriqqa navbat kuttirib qo'ygan ayolda edi. Ular, hozir yiriq bir balo qilsa kerak, deb o'ylagan edi. Erkabulan qog'ozni hali tizzasida turgan yon daftari orasiga soldi-da, keyinroq o'qidi.

Uy ichi jimjit. Qimiz shopirilib ichilayotgani bilan, ich-ichidan bir-birini ilondek avrashib o'tirgan odamlar negadir bir-biri bilan til qotishmasdi. Faqat ko'zlar bir-birini yeb qo'ygudek tikilishardi.

Yiriqning yuzlariga tushgan olov shu'lasi uning ko'zlarini xuddi ilon o'rdasi kabi g'imirlatib ko'rsatadi. Erkabulan boyagi qog'ozni o'qigandek bo'lsa ham, negadir xotirjam o'tirardi. Peshanasi yil-tilrab, qora qiyiq ko'zlaridan istehzoga o'xshash bir ifoda sezilib turardi. Ayol sabri chidamay, Erkabulanga ko'zlarini tikib, bir nima demoqchidek bo'lardi.

Tashqaridan qattiq yurib kelib to'xtagan tarantas tovushi eshitildi. Ayol Erkabulanga "kechikdingiz!" degan ma'noda ayanch bilan qaradi-yu, azoyi badani qo'rqqanidan muzlab qolganidek bo'ldi.

— Ukam, ikkalamiz bir dalaga chiqib kelaylik, — deb Erkabulan o'rniidan turdi. Novcha bo'yli, yelkador yigit ekan. Egnida qora kastum, tik yoqali qora ko'ylak, belida uchiga kumush qoplangan kavkazcha belbog', oyog'ida poshnasi balandroq qiyshiq tovon etik... hammasi o'ziga yarashib turardi. Qaysar o'rniidan uchib turib, kigiz eshikni ochar ekan:

— Yuring, — dedi.

Erkabulan asta qo'zg'aldi, u ko'zining qiridagina Oqbola bilan xayrlashib, eshikka tomon yura boshlaganda, yiriq o'rniidan uchib turdi:

— Qayoqqa borasan?

— Hali, dalaga chiqib kelaman, dedim-ku.

— Hech qayoqqa chiqmaysan! Joyingga borib o'tir!

— Nega chiqmas ekanman...

— He, Birjon akangning og'ziga!..

Yiriq buzoq tishli qamchisini ko'tarib, orqasiga qayqaya boshladi. Siltab yuborsa, qir orqaga kelib shart etadi. Uy ichi torlik qilib, qamchisi tepaga tegib qolmasa, ayaydigan emas.

Erkabulan qulochini yozmasdanoq yiriqning jag'iga bir musht tushirdi. Chaqqon ekan, ko'z ilg'amay qoldi. Yo'g'on tomirning jag' bilan birlashgan joyidan urdi. Yiriq qamchisini siltamoqchi bo'lib orqasiga qayqaygan ko'yi chalqanchasiga gup etib yiqilib tushdi va xuddi o'lib qolganidek sulayib yotib qoldi... Boks ha-dislaridan bexabar nodon o'zining qanday uchib tushganini ham sezmad. Boshi to'r tomonga, oyog'i yonib turgan olovga kosov bo'lib yiqildi. Har kuni qo'lining yog'ini surtadigan keng qo'njali bulg'ori etigi vijillab kuya boshladi.

Uyga qora o'tkallik no'g'oy savdogarning o'g'li kirib keldi. Boshida qora taqiya, ko'krak cho'ntaklari orqasiga osilgan kumush soat bor. Erkabulan uni kirgan zahotiy oq tanidi. Ko'zlari chiqiqroq, to'ladan kelgan, o'zicha olifto kiyinaman deb o'ylaydigan yigit edi u. Bu kezlarda shaharda Sovdep, Musulmonlar qavmi, Muvaqqat hukumat komissari kabi bir nechta hukumat mavjud edi. Haligi kirgan savdogar yigit otasi bilan birga yugurgilab yurib, majlislarda nuqul g'olib chiqqan tomonlarga og'ib ketishar, shuning uchun ham el-yurt ota-bolani "Qo'sh xurjun" deb atashar edi. Shubhasizki, odamzod paydo bo'lganidan beri kasblar ichidagi eng rasvosi, eng haromi, eng orsizi savdogarlik kasbi, albatta. Shu vajdan, Erkabulan ularga juda jirkanib qarar, iloji bo'lsa, ularni hech Sovdepning atrofiga yaqinlashtirmaslikka harakat qilar edi.

No'g'oy yigit uyga salom berib kirdi-yu, eshikka yaqinlashib qolgan Erkabulanga qo'lini cho'zdi. Erkabulan uni payqamagan bo'lib, indamay chiqib ketdi...

Kecha zim-zivo qorong'i edi.

Erkabulan qorong'iga ko'zi o'rganguncha biroz turib qoldi. Bu qanday gap? Hech kim bilan shaxsiy g'arazi yo'q edi-ku. Darrov xayoliga boyagi majlisdagi: "Orqasida hayt-haytlaydiganlari bor!" degan gaplar keldi. Ha, demak, boyagi majlisning oldingi qatorida o'tirganlar ham, mana bular ham ana shunday hayt-haytlaydiganlardan ekan-da.

Yonma-yon tikilgan o'tovning kigiz eshigi ochilib, egniga qora baxmal nimcha, qo'sh etakli sariq ko'ylak kiyib olgan yoshgina qiz kirib keldi. Eshik ochilganda, uy ichidan taralgan sham yorug'i qizning yuzini bir daqiqa yaraq etkazib ko'rsatdi-da, qa'riga yutib yubordi. Butun tashvishi esidan chiqib, shoir haligi qiz kirib ketgan eshikka tikilib qoldi. O'rmiyan jillar emas. Shu bir daqiqalik visol shoirning alvon his-tuyg'ularini qo'zg'ab yuborgandek bo'ldi. Uning nazarida, qizning shu bir daqiqalik ko'rinishida ham qo'rqinch, ham sevinch, ham mung kabi aralash-quralash his-tuyg'ular borligi sezilgandek bo'ldi. Har qalay, yigitlarning dardi ko'proq quralay ko'z, qiyg'och qoshli qizlarda bo'ladi-ku... Ammo shoir bundan ham ko'ra ko'proq boshqa bir narsani his etdi... Chunki bu nodir uchrashuv, bu nodir daqiqa ikki-uch xil qarama-

qarshi kayfiyatning tirik bir timsoli sifatida ko'ringan edi. Odatda, shohlar qo'fiya izlardi, go'zallik izlardi, zotan, u hozir xuddi ana shu narsalarni, xuddi ana shu sifatlarni uchratgan va o'z boshidan kechirayotgan edi. Qizning kim uchun qo'rqqani ham, nima uchun xomush tortgani ham esiga kelmasdi. Faqatgina qaytib hech qachon duch kelmaydigan bir suratni ko'rib turgandi, xolos!...

Qaysar Erkabulanni yetaklab-sudrab uy orqasida bog'log'liq turgan otlarning oldiga olib keldi.

— Qani, og'a, tezroq qimirlang, mana bular sizni o'ldirish uchun to'planishyapti! To'rtalasi ham qonxo'r-qaroqchi... siz mana bu to'riq qashqaga mining! Haligi yiriqning oti. Juda uchqur. Men mana bu ko'k otga minaman... bu ham uchqur... Qani, ketdik...

Oq o'tov ichidan qichqiriqlar eshitila boshladi:

— O'ldirib ketdimi deyman? Hoy To'ke, To'ke deyman!...

— Suv olib kel, suv!

Erkabulan hali es-hushini yig'ib olmagan ko'yi yer deysib turgan to'riq otga mindi. U, haligi suratni unutib qo'yarmikinman deb qo'rqardi. Attang, o'tira solib yozarmidi! Qaydam, zamon bunday olashovur bo'lib turgan bir kezda u bilan qaytib uchrasha olarmikinman?...

Ikki salt otliq otlarning oyog'ini yozish uchun salgina yeldirib, yo'rttirib borishdi-di, so'ng uchirib ketishdi. Orqa tomondan: "Ketdi, olib ketdi!" degan qichqiriqlar eshitildi...

— Otlar, orqasidan quv!...

III

Bu kun — yosh qizning hayotida esdan chiqmaydigan kun bo'lib qoldi. U, boyagi janjal-to'polon paytida onasining bag'riga kelib tiqilgan edi, tong otguncha ko'ziga uyqu kelmadi. Go'yo ichi-bag'ri kuyib borayotgandek edi. U yog'idan bu yog'iga ag'anab, yota olmas, o'qin-o'qin xo'rsinar edi. Ko'nglida allaqanday bir quvonchi bordek, o'zidan o'zi kulimsirab ham qo'yardi. Hali ko'nglidan qo'rqinch izlari o'chmagani uchun bo'lsa kerak, ahyon-ahyonda qovog'i solinib, azoyi badanini titroq bosar, yuragi gurs-gurs urar edi.

Kecha tushga yaqin Qaysar ikkalasi suyaklari sanalgudek oriq tuyani bochkali aravaga qo'shib, suv olib kelgani ko'lgaga borishgan edi. Ko'lining ovul tomonidagi qirg'og'i jarlik ekan, aravani qirg'oqqa qo'yib, suvni paqirda tashishga to'g'ri keldi. Qaysar suv tashib turdi. Aqlima uni arava ustida turib bochkaga quyib turdi. Ora-sira bir-biriga suv sepishib qolishardi. Shunday paytlarda Qaysar olib kelgan suvning yarmi bochkaga quyilsa, yarmi sirtga to'kilib tushardi. Cho'kib yotgan otan tuyaning tagi jiqqa suv bo'lib ketgan edi.

“Bolalar, hoy bolalar, ehtiyot bo'linglar... bunday hazilning tagi zil bo'lmay qolmaydi...” degisi kelgandek qari tuya ahyon-ah-yonda boshini chayqab-chayqab qo'yardi. Kavshanishdan to'xtab, norozi bo'kirib ham qo'yardi. Yag'ir yonboshiga suv teggach, yana ham qattiqroq bo'kirar edi. Bo'z lozimining pochalarini tiz-zasidan oshirib shimarib olgan Qaysar bu hazil-o'yindan char-chaydigan emasdi. Aqlimning ham kamarigacha jiqqa ho'l bo'ldi. Qizil gullik chit ko'ylagi chiroyli qomatli qizning badaniga chippa yopishib qolgandi. O'yin tobora jiddiylashib borardi...

Aqlima paqimning tagida qoldirilgan suvni Qaysarning boshiga ag'darib yubordi-da, aravadan tushdi:

— Endi o'zing tashib, o'zing quy! Men usti-boshimni quritib olaman.

Aqlima ancha nariga borib, jarlikdan ko'l bo'yiga tushib ketdi. Boyadan beri ikkovlashib quyishsa ham, bochkani to'ldira olmagan edi. To'kilgan suv o't-cho'plarning ora-orasi bilan ilonizi bo'lib oqib borib ko'lgaga quyilar edi. Qaysar yolg'iz o'zi bochkani to'ldirdi. Bundoq qarasa, Aqlima ko'lining o'rtasida quloqch otib suzib yuribdi. Yelkasiga quyosh shu'lasi tushib, yaraq-yurq qilardi. Qaysar qiz cho'milayotgan tomonga qarab chopib ketdi. Xayolida hech narsa yo'q, kulib, odatdagidek, u bilan hazil-huzul qilib o'ynashgisi kelardi...

Qaysar jar bo'yiga yetganda, Aqlima suvdan chiqqan edi. Yosh yigit umrida birinchi marta yalang'och qizni ko'rdi. Qizning suv tegib yoyilib ketgan qop-qora sochi chap tomonini yopib tushgandi. Qaysar jar bo'yidan sakrab Aqlimanning oldiga tushdi-

da, to'xtab qoldi... Yuragi gurs-gurs urib, entikib, badanlari qizib borar, ko'zlari yonib, zo'rg'a nafas olar edi...

Aqlima “voy!” deb cho'chib tushdi-yu, tezda yerda yoyilib yotgan ko'ylagini olib, badanini pana qildi. So'ng:

— Ket! — dedi u Qaysarga.

Qaysar bilan Aqlima birini biri yig'latib, birini biri ovutib, biriga kulushib, birga yig'lashib, birining o'g'il, birining qiz ekanini bir-birining yuziga solishmay birga o'sishgan bir ovulning bolalari edi. Faqat so'nggi to'rt-besh yil ichi Qaysar qaysidir bir boyning eshigida yollanib, ko'rinmay ketgandi. Mana, bugun O'tarboynning uyida qayta uchrashishdi. Bu gal ular ikkalasi ham biri er yetib, biri bo'y yetib, o'zlarining uyatiga tushunadigan bo'lib qolganliklarini payqashdi. Biri yigit, biri qiz bo'lib qolishgan ekan.

Shu bilan birga, bu gal Qaysar Aqlimanning ko'zlaridan hayiqay ham dedi. Avvallari bu ko'zlar g'oyat mehribon edi va doim ular dan nur yog'ilib turardi. Ayniqsa, sevingan paytalarida alohida bir chiroy kasb etib, juda ochilib ketardi. Bu gal esa uning qarashlari xuddi nayzadek sanchildi Qaysarga.

Boyagina ular ikkovi ovuldan o'lan aytishib chiqqan edi. Xuddi shu paytda ikkovi ham bola edi. Haligina qari tuya: “Bolalar, hoy bolalar, ehtiyot bo'lib hazil qilinglar!” degisi kelganda ham ular bola edi. Mana endi esa o'sha ajoyib bolalikning oltin iplari uzilib ketdi. Ikkovi ham tish yorib bir-biriga hech nima deyoim-asdi. Hatto qaytishga ham qozoq arava ustida bir-biriga teskari o'tirishib qaytishdi. Ularning bunday ahvolini ko'rgan Oqbola o'zicha:

— Endi Aqlimadan nariroq yur!.. — dedi Qaysarga.

O'zlari payqab, o'zlari sezishib kelayotgan jihatni Oqbola yana ta'kidlab aytdi. Ammo bu ta'kid qiz qalbiga qattiqroq tegib ketgandek bo'ldi.

“Nariroq yur!” degan gap kechgacha Aqlimanning xayolidan nari ketmadi. Boyagina suvga tushganda oyog'iga suv boldirlari o'ralgan edi... endi esa bu gap ham uning xayoliga xuddi o'sha boldirddek o'ralib, hech nari ketay demasdi. Ular bola kezidan biriga o'sishgandi, endi esa oralariga chimildiq tushdi. Kun bo'yi ular

bir-birini ko'rganlarida, negadir qizarishib, uzoqroq yurishdi. Ajab dunyo ekan-da..

Kunduzi bir salt otlig kelib, ikki otlig ulov hozirlatib ketgan edi. Kechga yaqin boshqa birov kelib, otlarni yilqiga qo'shtirib yubordi. Kechqurun Erkabulan keldi. Shundan boshlab O'tarboyning uyiga tashvish indi.

Bu tashvish O'tarboyning uyida o'zidan o'zi boshlandi. U o'tovida birpas o'tirdi-da, mehmonini yolg'iz qoldirib, o'zi ulkan uyga chiqdi. Qizaribroq, terlabroq chiqdi.

— Sho'rlig-ov, mehmoningizni yolg'iz qoldirib, nega o'zingizni qo'yarga joy topmay yuribsiz? — deb so'radi Oqbola.

— G'alati yigit ekan, kaparativda qancha a'zo bor, deb so'radi...

— Siz nima deb javob berdingiz?

— Hozircha yolg'iz o'zim... keyin pirkazchik olaman, dedim.

— U nima dedi?

— Indagani yo'q, kuldi.

— Faqat shumi?

— A'zolik badali degan bir balosi bor ekan, shuni so'radi.

— Xo'sh, siz nima dedingiz!

— Bizda bu gapni hech kim bilmaydi, degan edim, unday bo'lsa, kaparatipni qanday tebratasiz, xarajatni qayoqdan topasiz, deb tergadi. Bir-ikkita odam pul topib beramiz, degan edi, deb zo'rg'a qutuldim.

— Xo'sh, bu gapingizni durust dedimi?

— Nimaga sen meni Munkar-Nakirga o'xshab muncha tergap qolding?..

O'tarboy jahl qilib chiqib ketdi-da, sal o'tmay qaytib keldi:

— Mehmon, qo'y so'ymanglar, devyapti...

— Qo'yni mehmonning o'zidan so'rab so'yasizmi?

Boyadan beri eri bilan tuppa-tuzuk gaplashib turgan ayolning tovushi endi achchiroq chiqdi. U mehmon yigitning shoir ekanini bilib, juda quvongan edi. Ko'l bo'yidan ko'chib ketganida bunday mehmon duch kelarmidi, yo'qmidi? Payg'ambar, avliyo degan gaplarga uncha parvo qilmaydigan, to'ra degandan jirkanadigan qozoq xalqiga shoiridan ardoqli, shoiridan hurmatli kishi yo'q edi. Nega deganingizda, ko'ngil ochadigan, g'am-hasratni tarqatadi-

gan she'rlarni shoirlar yozadi-ku, axir! To'g'ri-da, ajoyib o'lanlar, qo'shiqlar, she'rlar asrlar osha xalq og'zida, dilida qolavergan, vaqti kelganda — xor bo'lgan, vaqti kelganda — odamlarni tublantirgan, uyg'otgan, hushyor qilgan. Shoir zotiga mana shu nuzar bilan qaraydigan Oqbolaning nazdida, mehmonning izzat-hurmatini o'rniqa qo'ya olmayotgandek edi. U shuning uchun ham iza tortardi. Butun borlig'idan kuy va qo'shiq yog'ilib turgan shoir oldida O'tarboyi hech narsani tushunmaydigan bir milqovga aylanib borayotgandek tuyulardi unga.

Kechadan beri O'tarboyni mutlaqo tushunib bo'lmasdi. Bunday qaragan kishi, uni go'yo o'z uyidan o'zi bir nimani o'g'irlamoqchi bo'lib yurgan odamga o'xshatardi. Tez-tez badani ni qashib, qo'lidagi choyini ham to'kib yuborardi. Avval kuni bo'lsa boshqa ovullar bilan yaylovga ko'chmoqchi bo'lib turgan yerida ko'chmay qolib ketdi.

— Bo'lisdan buyruq oldim, ertaga bir polnomochin o'tar ekan, shunga ot-ulov hozirlatib qo'yishim kerak ekan, — degan edi u xotiniga. Kuni kechagina esa o'sha polnomochin kelishi oldida hozirlatib qo'ygan otlarni yilqiga qo'shtirib yubordi.

— Siz nega muncha qaltanglab, qilar ishingizni bilmay qoldingiz?.. Mehmonning vakil emas, shoir ekanini bilmaganmidingiz?.. Yoki...

— Buning senga nima daxli bor? Xamiringni yaxshilab iylasang-chi!

— Xamir iylashni menga o'rgatmayoq qo'ya qoling. Ammo kelayotgan mehmonning shoir ekanini bilib turib aytmagan bo'lsangiz, men sizga xamir iylashning qanaqa bo'lishini ko'rsatib qo'yaman!

Aqlima er-xotinning janjalli gaplarini eshitishni xohlamay, dalaga chiqib ketdi. Yozning qo'ng'ir salqin kechi. Bo'rsillab, dami chiqib yotgan yer... Qiz qulog'iga go'yo borliq kuylayotgandek tuyulardi. Ko'ldan g'ozlarning qag'-qag'i eshilib turardi. Oq chag'alaylar go'yo to'y qilishayotgan kabi chuvullashib o'ynab uchishardi. Muhabbat sirini faqat shulargina tushunadigandek, ko'l baqalari ham tinim bilmasdi, ularning nazdida, o'z ashulalaridan nafisroq ashula yo'qdek ko'rinardi... Oq o'tovdan chiqayot-

gan do'mbira tovushi ham ularga jo'r bo'layotgandek edi... Shoh chertayotgan do'mbira ba'zan tashqaridagi hayot uniga jo'r bo'lib, ba'zan esa shoirning nimanidir izlayotganidan darak berardi.

Qaysar Aqlimaning yoniga keldi-da, uni qo'lidan ushlab, o'tov tomonga yetaklab ketdi.

— Yur! Senga yigitning podshosini ko'rsataman.

— Qo'y, uyat bo'ladi! — deb yosh qiz sal tortingan edi, Qaysar qizning noziga qaramadi.

Aqlima eshikdan ichkariga mo'ralagan paytda, shoir ilhom ustida xoli o'tirgandi. O'zi shu yerda bo'lgani bilan xayoli boshqa joyda edi uning. U bahs-munozaralarga boy bo'lgan tala-to'pir yillarning og'ir yo'lida ikki dunyo chegarasida bo'layotgan tortishuvlarni, kurashni qanday yozishni o'ylab o'tirardi. Shoirning ilhom ustida o'tirgan bu kezi uning anchayin o'tirgan kezidan ham ko'rkamroq ko'rinaridi. Qiz unga havas bilan tikilib qoldi.

Aqlima eshik tirqishidan boshini zo'rg'a tortib olib:

— Qaysarjon qanday yaxshi yigitsan-a? — dedi o'zining bugun bo'y yetib qolganini yashirolmay.

— Nima balo, havasing keldimi? — dedi u ham bugun o'zining yigit bo'lib qolganini yashirolmay. Ularning biri qiziqdi, biri qizg'andi...

Aqlimaning bundan keyin ko'rganlari aniq-aniiq, tutash yuz berdi. Dupur-dupur qilishib salt otliqlar kelishdi. Kimlardir o'tovga kirishdi. Kimdir o'tov sirtida turib, O'tarboygga: "Aljiray-verma deyapman senga! Men sen g'ildaydan ruxsat so'rab o'tirarmidim!" — deb qo'pol muomala qildi.

Bir mahal Oqbola Aqlimaning oldiga yugurib kelib:

— Tezroq bo'l, shoir og'angga ikki og'iz so'z yozib ber... Mana bular sizni o'ldirish uchun to'planishyapti, deb yoz... — dedi.

So'yish uchun olib kelingan to'rt oyog'i bog'log'liq qo'zining ko'zlari lovullab yonayotgan olov yorug'ida chag'ilishib yalt-yult qilar, cho'pon chol bo'lsa, tosh qayroqqa tupurib qo'yib, asta-sekin pichog'ini qayrab o'tirardi. Aqlima bechara qo'zining bo'g'izlanganini ko'rgisi kelmay, nariroqqa ketmoqchi bo'lib turganda, opasi undan ham battarroq xabar olib keldi.

— Oqbola opa, sizni o'ldirishmoqchi, deb qanday yozaman? Qo'rqaman, qo'lim bormaydi, — dedi Aqlima.

Opasi qo'yarda-qo'y may haligi gapni yozdirib oldi-da, uni Qaysarga berib: "Mana bu otlarning ichidan ikki uchqurini tanla. Ehti-shohir og'angni bir ilojini qilib, shaharga o'tkazib qo'lasan. Ehti-yot bo'li!" — dedi.

Shundan keyin Oqbolaning esiga: "Xatar oldida qon chiqar-mo!" degan eski irim tushib, cholga:

— Pichog'ingizni yaltillatavermay, yerga sancha tursangiz-chil! — dedi. Chol ham unga:

— Bolam, unutib qolgan ekansan bu irimni... Bunday paytda pichoqni yerga emas, kulga sanchadi, — dedi-da, pichog'ini kulga sanchdi.

Voqeaning bu yog'i Aqlimaning ko'z o'ngida emas, balki tushida bo'layotgandek elaslardi. O'tovdan chiqayotgan tovushlar goh qilich chopishgandek yaraq-yurq etib eshitilar, goh lop etib yonib, lip etib o'chib qolgan o'tdek tina qolardi.

Qiz bu dahshatdan a'zoyi badani titrab, o'tov yoniga suyanib turgan mahalda ichkaridan Erkabulan chiqib keldi. Yonida Qaysar parvona. Qiz o'zida yo'q xursand bo'lib, shundan keyingina kirib ketdi.

— Ey Xudo, o'zing panohingda asra!

— O'ldirdi! O'ldirib ketdi! — degan dahshatli tovushdan zah-rasi uchib, tashqariga yugurib chiqqan Aqlima, ancha uzoqlashib ketgan ot dupurini eshitib, xotirjam bo'ldi. Sevinib ketganidan, hatto yig'lab ham yubordi. Shoshilinch Oqbola yetib kelib, Aqlima mani yetaklab ulkan uyga olib kirib ketdi. "Choli tushmagur qayoqqa yo'qola qoldiykin!" — deb kulga sanchilgancha qolgan pichoqni sug'urib oldi-yu, boylog'liq yotgan qo'zining tomog'iga tortib yubordi.

— Sadaqa, Xudoyi-sadaqa!

— Sadaqa, sadaqa! — deb Aqlima ham o'pkasini bosolmas edi.

Ko'p uzamay, shov-shuvlar xotima topdi. Ikki qaroqchi Erka-bulanlarni quvlab ketdi. Ot-ulovsiz qolganlari esa sulayib qolgan yiriqni qozoq aravaga solib, feldsherga olib ketishdi. Ovul tinchi-

gach, Aqlima onasining bag'riga kirib yotib qolgan edi, kun chiqqan mahalida zo'rg'a ko'zi ilindi. Ilindi-yu, ko'p uzamay, gumbur-gumbur gapdan uyg'onib ketdi. Uyda kimlardir gaplashib o'tirishardi... Qarasa, o'choq boshida O'tarboy bilan onasi o'tiribdi. Demak, hali gi gaplashayotganlar shular ekan. Tashqaridan, ataylab qattiq-qattiq gapirib yurgan Oqbolaning tovushi eshitilardi:

— Endi bir balodan qutuldikmi, desak, tag'in asrab o'tirgan balongiz bormidi! Ko'ringan odamga poyi-patak bo'lib yurib, ko'rgan kuningiz qursin! — deb Oqbola uyga O'tarboyni urishib kirib keldi.

— Sen, xotin, hali yiriqning nima deb ketganini unutib qo'ydingmi, deymen? Kulingni ko'kka sovuraman, demadimi hali?

— U o'zligicha kelgani yo'q bu yerga. Hammangizning ham tilingiz bir. Siz ham anoyi emassiz, bekorga jim yurganingiz yo'q. Niyatlaringsiz buzuq!

— Ular men bilan aqlashib ish qilarmidi?

— Ko'p valdirayvermang, men hammasini bilib o'tiribman. Aqlimani pora o'rniida berib, evaziga kapatipni olmoqchisiz.

— Kapatatip degan narsa osongina keladimi bo'lmasa...

Nima qilarini bilmay yorilib ketay deb turgan Oqbola, qaysarligi tutib, azbaroyi jahl ustida yerni deysib-deysib yubordi. Onasi ham Oqbolaning yonini oldi.

— Chirog'im, oqpodsho bo'laman desang ham qarshiligidim yo'q, faqat savdo-sotiq ishlarimga bizlarni aralashdirma... Tur, aylanay qizim Aqlima, elimizga qaytmasak bo'lmas...

Boshiga xatar to'nganini sezgan Aqlima jadal turib kiyina boshladi...

IV

Ba'zan shoirning bolalarcha soddaligini ko'rib hayron qolasan, ba'zan donoligini... Shoir — qiron qush: qoyaga ham qo'nadi, shoir — odam: dalada ham kezadi. Shoir zoti o'zining uyini ham yashira olmaydi, bo'yini ham. Shoir qalbi osongina jarohatlanadi, osongina tuzaladi: davosi ham, emi ham ko'p. Shoir kek saqlamaydi. Chunki kek saqlagan qalbiga g'ubor qo'nadi. G'ubor qo'ngan qalb esa bamisoli zanglagan oltin. Ma'lumki, zanglagan

ottindan jarangli un chiqmaydi. Shoir degan gap — zamon degan gap: demak, u bir kunlik ham emas, ikki kunlik ham. Uning kechig'isi — bugungi, bugungisi esa — ertangisidir. Shoirga faqat odamiyligikina yarashadi. Bordi-yu, yo shoirlikka, yo esa uning odamiyligiga dog' tushsa, avvalo, uning shoirligi o'ladi...

Bu so'zlar — Erkabulanning so'zlari. Bu odat — Erkabulanning odati. U — sal kechikib salom bersang — o'pkalab qolardi. Ko'zlariga tikilib turib: "Erka og'a!" desang — daryodek to'lqinlanib, o'ziga sig'may ketardi. Aytayotgan so'zningda ozgina bo'lisa-da yolg'on aralashsa — go'yo hech narsaga tushunmagan kishidek indamay turaverardi. Ba'zan xayolga berilib, biror narsa haqida o'ylab o'tirgan yoki ketayotgan paytida duch kelsang, u seni ko'rmasligi ham, tanimasligi ham mumkin edi. Xoh o'pkalab ketgin, xoh o'ldirib ketgin — o'zi ham bilmay qolardi...

O'sha Erkabulan hozir ot ustida... Ot boshini erkiga qo'yib, xayol surib kelardi. Orqasidan quvlab kelayotgan kishilar ham, shaharga qarab yo'l olgan Erkabulan bilan Qaysar ham adashib ketishgandi. Tun zim-ziyo qorong'i bo'lib, buning ustiga, yer bag'irlab tuman tushgandi.

Bular ovuldan uzoqlashib borib, shahar yo'lga tushgach, razm solib, ketlaridan quvlab kelayotganlarning dupurini eshitishdi. Qo'sh ot dupuri to'g'ri yo'lga tushgach, aniq eshitila boshlagan edi.

— O'h, bu horsildoq qoraning chopishi! U yetmay qo'ymaydi. Itdan tug'ganning oti oldidan kelsam tishlab, ketidan borsam tepib, yo'latmagan edi, ikki qo'ltig'ida teshigi bor... Charchash nimeligini bilmaydi! — dedi Qaysar.

— Teshigi bor, deganing nimasi?

— Qadimgi dam oladigan teshik-da! Buni hamma biladi...

— Endi nima qilamiz?..

Erkabulan ichida piq etib kuldi. Lekin Qaysar buni sezmedi.

— Yo'l adashdiramiz. Manovi tepalikning narigi yog'ida Elamas qishlog'i bor. Undan narigi tomoni — Ulug' ko'l. Qiyshiq uy, Buvra tol, Tosh bekat... Naryog'iga ko'zlarimni bog'lab qo'ysangiz ham to'g'ri topib boraman. Ketdik!..

Qaysar yo'ldan cho'rt burilib, chap tomonga qarab yo'l soldi. Suvlug'ini qarch-qarch chaynab, to'riq qashqa ham yo'rtib ketdi.

Sahro sirini biladigan bolalardan emasmi, u Erkabulan bilan qatorlashib borarkan:

— Otni qashqir-lo'kkiga soling... Shunda tuyoq dupuri eshittilmaydi, — dedi.

Ular to'g'ri yo'ldan bir chaqirim ham uzoqlashguncha bo'lmay, quvlab kelayotganlar shahar tarafga o'tib ketishdi. Shundan keyin qochib kelayotganlar ham, quvlab kelayotganlar ham birlaridan adashib ketishdi.

Mana bu tepadan oshsak yetamiz, degan qishloqni Qaysar hall topolmay keldi. Ulug' ko'l ham, Qiyshiq uy ham ko'rinmasdi. Tun battar qorong'ilashib borardi. Qayoqqa ketib borishyapti, o'ldilarida nima bor — ikkovi ham bilishmasdi. Qaysar adashganiga ko'zi yetgan sari uyalib, uyalgan sari otini taqimini qisibroq haydab keldi.

Biyday dala, atrof jimjit. Yilt etgan o't yo'q.

— Og'a, men adashdim.

— Hechqisi yo'q. Tong otguncha birorta ovulga uchrab qolarmiz. Endi qashqir-lo'kkingni qo'yib, sekinroq haydasang ham bo'lar. Bo'Imasa dashtga chiqib ketishimiz ham mumkin... Mana bu to'riq nuqul chap tomonga qarab og'averadi, erkiga qo'ysak, biror ovulga olib bormasmikin?

— O'zingiz bilasiz... Mening boshim qotib qoldi.

Shundan keyin Erkabulan o'z xayollari bilan bo'lib ketdi. To'riq ot uni qayoqqa olib ketayotgani bilan ishi bo'lmadi. Avvalo, uning ko'z o'ngiga boyagi surat keldi. Bu suratning sehri ko'pdan uni o'ziga maftun etib keldi. U, Ombida o'qib yurgan kezlari Leonardo da Vinchi chizgan Mona Liza (Jakonda) surati yuzasidan ikki marta bahsda ishtirok etgandi. Ehtimol, buyuk rassom o'zi chizgan bu suratning maftuni bo'lib, qayerga borsa, uni yonidan qo'ymay, o'zi bilan birga olib yurgandir! Shoirning ko'z o'ngida kechalari xoli, o'zi chizgan rasmga havas bilan tikilib o'tirgan o'sha rassom keladi. Bahsda ishtirok etganlarning ko'pchiligi, yaxshilab chizilgan chiroyli ayol suratiga kim qiziqmaydi, degan fikrga borishardi. Axir, u ham odam-ku, u ham erkak-ku!...

Majlis bunday fikrga boruvchilarga e'tibor bermadi... Eridan ajralgan mushtipar ayol yuzida bir daqiqalik jilmayish paydo

bo'ldi... Zero, asrlar davomida odamlar ana shu bir daqiqalik jilmayish sababini qidirar ekan. Erkabulan ham mazkur suratga tikilar ekan, uni rassomlik, shoirlik — sof san'at nuqtayi nazari bilan tomosha qilardi. Insonning har kuni, har daqiqasi qolipga solinib qo'yilgan emas. Shuningdek, insoning fe'l-atvori ham, odati ham o'zgarib turadi. Odam obrazini yaratishning kaliti ham shunga bog'liq ekan, chamasi.

O'shanda rassomchilikdan, qo'shiq va musiqadan xabari bor shoir, ana shu tortishuvlar, ana shu munozaralardan o'zi uchun katta ibrat olgan va xuddi ana shunday o'lmas narsalar yaratishni ko'ngliga armon qilib qo'ygan edi. Hali qayg'udan arimagan mungli ayol yuzidagi bir daqiqalik jilmayish — rassom uchun ham, shoir uchun ham bir umrlik mavzu ekan. Mung bilan jilmayish kabi ikki xil his-tuyg'uning omixta paytidagi bir oniy suratni ko'z oldingizga keltiring. Mungli ayol doimo jilmayaverarmikan? Bu ko'z ochib-yumguncha o'tadigan bir oniy ko'rinish-ku! Buyuk rassom xuddi ana shu nozik ko'rinishni ilg'ab qolgan. Mungli ayol shu daqiqa bir lahzaga nima uchun jilmaydi ekan? Qalbi to'lag'am-hasratni serpib tashlab o'ta olgan nur qayoqdan keldiykin unga? Ma'lumki, og'ir musibatni o'kirib kelgan kuch ham, yargirab tushgan nur ham yorib o'tolmaydi-ku. Biroq uni haligidek oniy nozik kuch, oniy nozik shu'la yorib o'tishi mumkin. Kishi qalbiga ana shu nozik kuch, ana shu nozik shu'la allaqanday iz tashlab o'tadi. Qayg'u-hasratni yengib, odamni hayotga qaytaradi. Buyuk rassom ham qayg'uli ayol qalbiga iz tashlab o'tgan xuddi ana shu shu'laning ilg'ab olgan va uni qog'ozga tushirgan... Shoirning bu bahsdan olib ketgan ibrati ham va yuragida saqlab yurgan armoni shu edi.

Shu armonni hamon qalbida ehtiyoj tutib saqlab kelayotgan shoir haligina qizning bir oniylik jamolini ko'rganda, o'sha o'ziga tanish suratni tag'in esladi. Tag'in o'sha qiz jamoli uning ko'z oldiga keldi. Ajabo, tirik odamning yuzida ham ikki-uch turli sezgi izlari bo'larkan-da! Boyoqish, nimadan qo'rqib, nimadan quvondi ekan? O'zgina kulimsiragan yuziga qayerdan mung indi ekan? Shoir o'z ko'nglida: "Sen uchun qo'rqdi, sen uchun quvondi" degisi ham kelardi. Ammo Qaysar uning xayolini bo'lib yubordi.

— Og'a, haligi yiriq qorani so'yib yubordingizmi? — dedi so'rab qoldi u.
— A?..

Yosh yigitning bu so'rog'idan Erkabulan hayron bo'lib qoldi.
— Haligi yiriq qorani aytapman, so'yib yubordingizmi?
— Yo'q, kaftimning qiri bilan urdim.
— Shundan o'lib qoldimi?
— Yo'q, o'lib qolgani yo'q, esi og'ib quladi... Bir minutdan so'ng o'ziga keladi.

— Attang!..
— Nima uchun?
— O'lgani tuzuk edi. Chunki u talay odamni tunab o'ldirgan qonxo'r... Nayza bilan bir marta sanchar ekan. Endi oqsoq bo'lib qolsa kerak... Taqimiga o't ilashganini ham sezgani yo'q. Payl kuysa tamom-da!..

Qaysar shunday der ekan, shoir uning yuzida qanday ifoda borligini ko'rish uchun tikildi-yu, lekin qorong'ida hech narsani ko'rib bo'lmadi.

— Boyagi xatni sen yozdingmi?
— Yo'q, Oqbola opamning singlisi kelgan edi. Shu yozdi. "Yozmayman. Sizni o'ldirish uchun to'planishyapti, deb qanday yozaman? Qo'rqaman..." deb ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Opam ham aytganini qildirmay qo'yamaydiganlardan. Yozmay bo'pti, yozdirdi.

Qizning nima uchun qo'rqanini, yig'laganini bilgach, Erkabulan quvonib ketdi. Haqiqatan ham, axir, shunday bo'lishi kerak-da! "O'ldirish uchun..." degan so'zdan kim qo'rqmaydi! Qo'rqishining sababi shu bo'lsa, ana shu qo'rqinchni yengani uchun sevinisa sevinibdi-da!.. Vaqtiki kelib, inson farzandi mana shu ma'suma, qalbida g'ubori yo'q yosh qiz kabi fikrlaydigan yuksaklikka yetsa, haqiqiy erkin hayot shundagina barpo bo'ladi. Qiz ko'zidagi mung o'shandagina bir yo'la barham topadi.

Bir payt shoir Birjonning taqdiri haqida o'ylab ketdi. Aytishlaricha, Birjon ham, Oqan seri ham jinni bo'lib o'lgan ekan. Nima uchun? Nahotki, bu o'lkaning atoqli odamlari ana shunday jinni bo'lib o'lib ketaversa?!

Boya yiriq qora bir haqiqatning chet-yoqasini ochib qo'ydi: "Oxir, qon qusib, jinni bo'lib o'ldi!" dedi.

Orqaning Birjondek ardoqli kuychisi el-yurt ko'zi oldida bo'chtabayning kaltagi zarbidan xo'ransa, qon qusmay nima qilardi? Kaltaklangan yerda o'lib ketmabdi, buning o'limdan nimasi afzal? Agar ahvol shunday ketaversa, kuy, g'azal so'nmay qayoqqa borardi? Hassos shoir uchun qon qusish bilan jinnilik orasidagi masofa shunchalik uzoqmi? Birjon shoir ham, Abay ham, Oqan seri ham shu ahvolga tushmay o'ta olmagan.

Erkabulan Birjon hayotiga bag'ishlab doston yozishni o'yladi. Dramatik voqealari ham tayyor. Birjon Jonbo'ta bo'lisning ardoqli qo'shiqchisi bo'ladi:

*Birjon qo'shiq aytadi to'lib-toshib,
Chunki o'zingsan uni havolatgan...*

O'sha Birjonni Oznaboy bo'lisning odami Po'chtabay Jonbo'taning ko'zi oldida kaltaklab, qo'lidan do'mbirasini tortib olarkan, Jonbo'ta oraga tushmaydi:

*Quturgan Po'chtaboyga ko'z oldingda,
Yana o'zingsan uni kaltaklatgan!*

— Voy, og'a, o'lan aytmang, — dedi Qaysar. Erkabulan hayron bo'lib unga o'girildi. Qarasa, o'zi Birjonning o'lanini xirgoyi qilib kelayotgan ekan.

Birjonning "Jonbo'ta" deb ataladigan o'lani — hammaning dardiga aylanib ketgan edi. U: "O'lgan joyim shumidi? Ko'mgan joying shumidi?" deb zorlanib boshlanardi-da, oxiri alam bilan tugardi. Nasrda uni bayon qilib bo'lmaydi. Uning o'zi bir ulkan fojia. Xor-zor bo'lgan shoirming dard-alamini, yuragining qanday tirqirchilaganini ifodalay olish mumkin. Bunday paytlarda mazmun degan narsa qo'shiqqa, kuyga o'tib yaxshi to'qilgan o'lan — faqat so'zni bayonlovchi bo'lib qoladi. Erkabulan bunday o'ylab qarasa, burungi o'tgan iste'dodlarning barchasi ham shunday taqdir bilan to'qnash kelganlari sezilib turardi.

Mana shunday bir-biriga yaqin uylarning biridan ikkinchisiga o'tib kelayotganida, tong bo'zarib qoldi. To'marli ko'l bo'yiga

g'uj bo'lib qo'ngan ovul qorasi chalindi. Uylarning to'g'risidan sigirlar o'rib chiqardi. Ovul o'rtasida to'planib turgan qo'ylar, echkilar ko'rindi... To'riq ot sergaklanib, ildam qadam bosib ketarkan, kishnab yubordi. Erkabulan bilan Qaysar ovulga yaqinlashib kelib, har burchakdan chiqib, bularga tikilib qarab turgan kishilarni payqashdi. Odatda, bunaqa paytda qozoqlar hali to'shakdan turmagan bo'lardi.

— To'riq ot o'z ovuliga olib kelmagan bo'lsin-da, ishqilib! Shu ovulga qayrilmasak nima qiladi, og'a?

— Nima qilar deysan? Tag'in qochamizmi?..

— Yopiray, anavi o'zimizning to'riq qashqa-ku!.. Ustidagi boshqa odam, — degan tovush eshitildi.

Shaharcha kiyingan odamni ko'rib, haligi burchak-burchakdan mo'ralab turgan erkaklar uy-uyilariga kirib ketishib, ularning o'rniga endi ayollari paydo bo'la boshladi: kim ekan — bilib qolish kerak, nima bo'lar ekan — ko'rib qolish kerak. Bordi-yu, kelayotganlar bir nimani so'rab qolishsa, ovulda erkak zoti bo'lmagani ma'qul... Ovul o'rtasidagi qo'ng'ir uydan bir ayol chiqdi-da, yer depsinib shang'illay boshladi:

— O'y-boy!.. Oti bor-u, o'zi yo'q! Otib ketdinglarmi, o'ldirib ketdinglarmi! Nima qildinglar!..

— Iye, nega o'tar ekanmiz? Gunohi bormidi?

— Yo'g'-a, o'zi tirikmi?

— Tirik. Hali zamon kelib qoladi...

Shu uydan to'qqiz-o'n yoshlar chamasidagi bir bola chiqib, avval sonlarini qashib, yuzlarini bujmaytirib biroz qarab turdi-da, so'ng sekin to'riq o'tning yoniga kelib, tizginiga yopisha ketdi:

— Tush otdan! — derdi u tizginni qo'yib yubormay. Bu bizning otimiz!

Qaysar uni ot o'mrovi bilan surib yubordi. Erkabulan ikkinchi uy panasida bir yashirib, bir ko'rinish mo'ralab kuzatib turgan erkak kishini oldiga chaqirib oldi-da, shu yaqin atrofda qanday ovul borligini va yo'lni surishtirdi. Besh chaqirim narida bir rus qishlog'i bor ekan.

— Yanga, o'g'lingizni mana bu bolaning orqasiga mingashтира qoling: hozir otlaringizni olib qaytadi, — dedi Erkabulan.

Bolasi tushmagur haddan tashqari bezori ekan! Rus qishlog'iga yetib borguncha Qaysarning joniga tegib bo'ldi. Gohi uni mahkam quchoqlab olib orqasiga chalqaytiradi, goh oyog'ini ot bag'riga tirib jig'imga tegadi, ot hurkib, orqasini ko'tarib, to'ngiy boshladi. Nihoyat, Qaysar bezori jon qilgan bolani qil chilvir bilan ikki mar-ta tushirib qoldi. Bola avvaliga qiqirlab kula boshladi. Telbami, bezorimi, nima balo, bilib bo'lmazdi.

Kecha Erkabulan yiriq qoraning otasi qanaqa qonxo'r odam o'tgan ekan, deb o'ylab edi. Endi uning bolasini ko'rib, hayron bo'lib kelyapti. Qashqirdan qashqir tug'ilar ekan-da! Yetib kelganlaridan so'ng bola to'riq qashqaga minib oldi-da, sal nari borgan-dan so'ng:

— Ikkalangning ham otangning og'ziga... — deb so'kib ketdi...

Qishloqma-qishloq, ovulma-ovul oralab, goh ko'likda, goh yayov, Erkabulan bilan Qaysar Qora o'tkal shahriga kechlatib kirib kelishdi. Tungi tumanda to'riq qashqa ularni juda teskari to-monga olib ketib qolgan ekan.

Erkabulan endigina chiqa boshlagan "Tirikchilik" gazetasi tahririyatiga kelib tushdi. Shahar tinch, omon ekan. Ko'cha-ko'ya garmon ehalib yurgan mastlar uchrardi.

— Ertaga bayram-ku.

Ba'zisi urushdan dam olgani kelgan, ba'zisi evini topib, urushga bormay qolgan oq ofitserlar... Haligi mastlar to'pi orasidan shular ko'rinar va ularning yonboshi qizil hoshiyali shimlari ancha naridan ko'zga tashlanib turardi.

Tahririyatda yolg'iz kechki kotib o'tirardi. Oladigan maoshi bo'lmagandan so'ng, ikki yosh yigit, biri kunduzi, biri kechqurun kotiblik qilishar, bular bu yoqda tursin, hatto muharrirning o'ziga ham maosh berilmas edi.

— Karim, sen mana bu bolani ishga ol. Bir nuqsoni — yozish chizishni bilmaydi, ammo yigitning podshosi. Hozircha sening uyingda yota turar, — dedi Erkabulan qisqagina salom-alikdan so'ng.

— Yozish-chizishni bilmaydi, deyapsiz-ku?

— O'qitasan. Ziyrak bola.

— Mayli... Unday bo'lsa, ukam, seni o'zimga muovin qilib olib hisobi... mana bu qog'ozni bosmaxonaga olib borib kela qol... Bunday chiqsang, uchinchi uy. Eshikdan chiqqaningdan so'ng chap tomoningda... Uch...

Qaysar ham nomusi kuchlilik qilib, qaytalab so'rab o'tirmadi, chiqib ketdi.

— Ovuldan yuborgan ikkita she'ring ertaga bosilib chiqadi. Uchinchisi bo'shroq ekan, bermaydigan bo'ldik.

— Shuni chiqarib yubordinglarmi, deb qo'rqib kelgan edim. Qasam urgan ayron ko'z, umringda bir marta she'mi to'g'ri ko'ribsan!

— Bu gaping uchun tuyadek-tuyadek ikkita rahmat... Endi bizga xalaqit bermay, Sovdepingga jo'nab qolsang. She'r-per deb ishini to'xtatib qo'ya olmaymiz... Qani, tezroq jo'na. Komissarlar bugun ham qip-qizil go'sht bo'lib tortishishyapti...

Erkabulan ham tengdosh, ham hazilkash Karim bilan yana bir-ikki og'iz hazil-mutoyiba qilishdi-da, Sovdepga jo'nab ketdi. U yerda odatdagidek bahs-munozara ketayotgan ekan. Shahar o'tinsiz, nonsiz, lampa moyisiz qolgan. Shu munosabat bilan Sovdep shahar boylarining, savdogarlarining omborlarini, do'konlarini musodara qilishga qaror qilgan bo'lib, lekin bu qarorga qarshi norozilik bildirganlar ko'payib ketgan edi.

Sovdep shahar boylari gardaniga uch million so'm miqdorda soliq solgan. Million so'mi borlarning qariyb yarmisini davlat xazinasiga olgan. Shahardagi barcha hokimiyat ishlari ishchilar bilan soldatlarning qo'lga o'tgan. Mana shular sabab bo'lib, kun sayin norozilik kuchayib, hozir esa ular juda ko'payib ketishgan ekan.

— Kecha bittasi mana shunday majlis qilib o'tirganimizda deraza oynalarini sindirib ketdi. Mana bu mushtdek-mushtdek toshlarni ko'rdingmi? Deraza oynalarini teshib o'tib, ro'parada o'tirgan Yefremning ko'ziga kelib tegdi. U ko'zini bekorga boylab o'tirgani yo'q.

— Men senlardan ko'zimning xunini so'rab o'tirganim yo'q-ku! Avvalo, mana bu masalani hal qilib olaylik! Boylarning omborlarini kuch bilan ochdiramizmi, yo'qmi?

— Ochdiramiz, ochdiramiz!
— Qaysi kuching bilan ochdirasan? Soldatlaring bormi?
— Unday bo'lsa, avvalo, batalyonlar tashkil qilaylik!
— Unga qurol-yarog', oziq-ovqat qayoqdan olib berasan?
— Bo'imasa, shunday qo'l qovushtirib o'tiraveringlar.
— Nima bo'lsa ham, odamlarga non topib berish kerakmi yo'qmi?

— Kerak.

— Lampa moyi topib berish kerakmi?

— Kerak.

— Shularning hammasi omborlarda bekitig'lik yotibdi...

— Buni bilmay o'tiribdi, deb o'ylaysanmi bizlarni?

Shu kabi hal qilinishi qiyin bo'lgan bahs-munozara yarim kechagacha cho'zildi. Temiryo'l yo'q. Yo'ldan chetdagi bu shaharning Rossiya bilan aloqasi ham yo'q edi. Sovdep a'zolari bu gal ham hech qanday qarorga kelisha olmay tarqalishdi.

Erkabulan yarim kechasi kvartirasiga qaytib kelib, uy bekasidan bir stakan muzdek ayron so'rab ichdi-da, boyagi majlisda hal bo'lmay qolgan masalani qayta boshidan o'ylay boshladi. Milt-milt qilib yonib turgan beshinchi lampa keng dunyoni toraytirib, uning o'y-xayollarini kichkina xonaning bir burchidan beri chiqaradigan emasdi.

— Lampa moyi yo'q, komissar... Tezroq yot! — deb uy bekasi onda-sonda ogohlantirib qo'yardi.

Erkabulan lip-lip qilib yonib turgan chiroqqa engashib, "Non!" deb yozib qo'ydi. Omborlarida ming-ming pudlab g'allani chiritib bosib yotgan boylarni hajv qilgisi keldi. Chiroq nursizlanib o'cha boshlaganda, uning xayoliga yana "Chiroqning zori" degan she'r keldi. Shaharning ming-minglab xonalarida milt-milt qilib yonib turgan moysiz chiroqlarning zori, haqiqatan ham, yangi she'r uchun chinakam mavzu emasmi?..

Tashqaridan kimdir eshikni taqillatdi. Ichkaridan uy bekasi ovoz berdi:

— Komissar, o'zing chiqib och!.. O'z odamlaring bo'lsa kerak... Kechasi kelmanglar, deb tayinlab qo'ysang-chi. Men qo'rqaman.

Erkabulan eshikni ochdi-yu, haligi "Chiroqning zori" dan xayoli bo'lmay dedimi, kelgan kishilarning kimligiga ham ahamiyat bermay, o'z xonasiga qaytdi. Boshqarmadan kelishgan odamlar bo'lsa kerak, deb o'yladi u.

Lekin shu onning o'zidayoq:

— Qo'zg'alma! — degan ruscha so'zdan cho'chib, eshik tomonga qaradi, qarasa — eshikdan ikkita qurolli kishi kirib kelgan ekan. Ularning ketidan tag'in qurollangan kishilar kira boshladi.

— Qamoqqa olinding. Qo'lingni ko'tar!

— Xo'p, faqat shovqin solmanglar. Uy bekasi qo'rqqoq odam. Bilmay qo'ya qolsin... Qarshilik ko'rsatmayman.

— Tez kiyin! Kunlaring bitdi! Qizil komissarlar! Sovdeping sindi!

Erkabulan so'nib borayotgan chiroq nuriga engashib, uy bekasiga bir enlik xat yozib qoldirdi-da, xat orasiga ijara haqini qistirib, o'rnidan turdi.

— Men tayyorman.

Kecha kechqurun ovulda uchrashgan savdogar no'g'oy bo'lasi qurol taqib olibdi. U engashib, Erkabulan yozgan xatni o'qib chiqdi. So'ng stol ustida chala qolgan she'rning "Non!" degan sarlavhasini ko'rdi-da, Erkabulanga qarab:

— Mana senga non! — deb ikki barmog'i orasidan bosh barmog'ini chiqazib ko'rsatdi. — Ko'ryapsanmi?

U "Non"ni ham, "Chiroqning zori"ni ham ikki buklab cho'n-tagiga solib oldi.

Ko'cha tomondan u yoqdan bu yoqqa chopishgan otlarning dupuri, mastona baqiriqlar eshitila boshladi. Boylar hovliqishib qolgan ko'rinadi.

— Qani, yur!

Erkabulan qurolli odamlar qurshovida ko'chaga chiqdi.

Zinasidan pastga qarab tusha boshlaganda, kimdir Erkabulaning orqa tomonidan kelib zarb bilan qamchi tushirdi. Qamchi uchi uning peshanasiga tegib, chap ko'ziga iliq qon qo'yildi-yu, sal o'tmay, yuzini yuvib tusha boshladi. Shoirga teggan bu birinchi qamchi zarbi — savdogar bolasiniki edi.

V

Cherkovlarning qo'ng'iroqlari jangur-jungir qilardi. Shahar markazidagi machit mezanasidan qiroat bilan o'qilayotgan azon tovushi eshitilardi. Boshqa vaqtda birini biri ko'ra olmaydigan cherkov bilan machit tovushi, bugun negadir, hamohang chiqardi. Butun shahar ahli ko'chaga chiqqandek qiy-chuv. Podsho taxtdan ag'darilgan kuni ham xuddi shunday bo'lgan edi.

Kechasi qo'lga olingan odamlarni markazdagi maydonga olib chiqib, o'rab turishardi. Hammasi kaltaklangan, hammasining boshlarini qip-qizil qonga belanib ko'zlari qorayib ko'rinardi. Ust-boshlari dab-dala. Kechasi qo'lga tushmagan bitta-yarimta odamlarni hamon haydab kelardi. Sovdepmi haqoratlab aytilmagan so'zlar qolmagandi.

Maydonni savdogarlar, tegirmon egalari, olibsozlarlar, ofitserlar o'rab olishgan bo'lib, hayqirishar, qichqirishar, so'kishar va yopirilib kelib tutqunlarni mushlasa, qo'li yetmay qolganlari birlarini savalashardi. Qo'lga tushganlarning ahvoli shunday chatoq edi.

Tanish no'g'oy savdogar irillagan itdek og'zini irjaytirib kelib, Erkabulanning sochlariga yopishdi va jahl bilan yulqib uning bir tutam sochini yulib ham oldi. Quturib, ko'zlari xuddi suzag'on si-girnikidek olayib ketgan edi uning.

Erkabulan bundan yarim yil muqaddam mana shu savdogarning uyida ijaragir bo'lib turgan edi. Uy egasining ko'zlari chiqiq, o'tirsa siynasi halqumigacha kelib taqaladigan bir qisqa bo'yin, qariqizi bor edi. U o'n barmog'ining to'rttasiga o'n oltita tilla uzuk taqib yurardi. Savdogar oilasi ana shu sho'rpehana qizini hadeb Erkabulanga tiqishtiraverganidan, qiz ham buning oldiga kelib o'tirib olib, suykalaverganidan, Erkabulan ularning uyini tashlab chiqib ketib qolgan edi. Haligi savdogar, avvalo, shuning o'chini olayotgan edi. Savdogarning o'chi o'simi, ya'ni ustamasi bilan qaytmasa, kechirilmasligini Erkabulan yaxshi bilardi. Shuning uchun ham u bu no'g'oy bolasining qiynoqlariga miq etmay chidab turaverdi.

Savdogar bolasi har gal "la nat qizillarga!" deb qichqirardi-da, aylanib kelib, Erkabulanni haqoratlab, mushtlab qaytar, kiyimlarini yirtib, ko'ylagining tugmalarini uzib-uzib olardi.

Azobsiz baxt bo'lmagligini bilgan shoir bu qiynoqlarga baxtdosh berib turardi. Hattoki u shundan keyin yuz bergan qiynoqlar, xo'rluk va zo'ravonliklarga ham shunday tishini tishiga qo'yib, shir boymay chidam bilan turib berdi.

Odatda, hayot-mamot deb ataladigan — to'qqiz oyga cho'zilish ketgan kurashga Erkabulan turmada duch keldi. Bu yerda ko'rgan faqat qonunsizlik, vahshiylik, cheki-chegarasi yo'q adolatsizlik edi. Shoir bunga ham chidadi.

Monarxist ofitser Sebov qo'lidagi chiroyli qamchisini o'ynatib o'tirib, turmada Erkabulanni birinchi marta so'roq qildi.

— Qizilmisan?

— Qizilman.

— Komissar misan?

— Komissarman.

— Buning ustiga, gazetaning muharriri ham ekansan-a?

— Ha. Bu ham to'g'ri.

— Hukumatning tarafini olasan-a, shundaymi?

— Xuddi shunday.

— Uyezd Sovdepi syezdini o'tkazganlaringni ham bo'yingga olasanmi?

— Buni hech kimdan yashirgan emasmiz ham.

— Zemstvo syezdining chaqirilishiga qarshilik ko'rsatib, uni kuch bilan tarqatib yuborganlarning ham biri sensan-a?

— Ha, menman.

— Olosh o'rdanining uyezd bo'limini tashkil qildirmay, vakillari haydab yuborganlarning ham biri sen bo'lsang kerak-da?

— Ha, menman.

— Nima uchun endi o'zlaringning Oloshlaringga qarshi chiqasanlar?

— "O'zlaringniki" deb faqat tushunmagan odamgina aytishi mumkin. Olosh bizniki emas. U — xonlik zamonini qayta tiklash uchun harakat qilayotgan boylar, millatchilar tashkiloti. Ular qozoq xalqini Rossiyadan ajratib olib, xonlik davrini tiklamoqchi. Olosh o'shalarning manfaatini ko'zlaydigan partiya. Men bunga qarshiman.

Tergovchi ofitserning Erkabulanni uch soat qoqqaytirib qo'yib, chiroyli qamchisini o'ynatib, og'zidan papiros tutinini halqa-halqa qilib chiqarib, ba'zan uni mahbusning basharasiga puflab o'tirib olgan javoblari mana shulardan iborat edi. Mahbus qayishmadi ham, mayishmadi ham, sinmadi ham. Bundan oldingi javob bergan mahbuslar orasida ham mayishganlari ham, qayishganlari ham, singanlari ham bo'ldi. Bu mahbusni, endi butun ayblarini bo'yniga qo'yib, jahannamga otib yuborish kerak, shekilli...

O'sha kuni oqshom shoirning qo'liga kishan solindi.

— Qo'lingdagi kishaning mahkam bo'lsin, umringning oxirligacha olinmasin! — deb Serbov Erkabulanni tabrik qildi.

— Siz ham o'zingizning oyoq-qo'lingizga kishan solingan kuni, meni ham xuddi shu so'zlar bilan tabrikladi, deb esga olishingizni so'rayman.

Ertasiga mahbuslarning kiyimlarini yechintirib olib, yengil bilan orqasi sariq, o'zga joyi qop-qora — qamoqxonaning kanopidan tikilgan kiyimlarini berishdi. Shoirga qattiq botgan narsa ham — mana shu bo'ldi. To'rga tushgan qiron qush, zanjirband sher — shoirga xuddi qahramonlik poeziyasiga o'xshab tuyulgan edi. Mana bu qora-ola kiyimlar esa unga, go'yo xor-zorlik tim-soliddek bo'lib ko'rinib ketdi.

Tosh polda xo'rlangan zanjirband mahbuslar yotishardi. Qo'li yetmas balandlikda bittagina panjarali darcha bo'lib, qamoqxona ichi sassiq, iflos, sovuq edi. Hech kim tashqi dunyoni ko'rman deb umid ham qilmas, darchadan bo'y cho'zib qaramas ham edi. Biroq zanjirband sherlar hamisha sulayib yotavermaydi-ku, axir. Ahyon-ahyonda ular ehtiyot bo'lmagani, hushyorlik qilmagani, g'ofil qolishganlarini aytib, o'zaro munozara ham qilishardi.

Erkabulan sakrab o'rnidan turib, darchaning to'rt burchakli temir panjarasiga yopishdi, Muskuldor baquvvat bilaklari gavdasini yengil ko'tarib oldi. Darchadan yashil tabiatning kaftdekina parchasi ko'zga tashlandi. Qamoqxonada yotgan shoirga ana shu kaftdek yashil maydon dunyodagi eng go'zal yerdek bo'lib ko'rinib ketdi. U bundan hech ko'z uzolmay, qadalib qaraydi, sog'inib qaraydi. Anchayinda e'tibor qilmay o'tib ketadigan bu bir parcha

ko'kalamzor muncha ham go'zal bo'lmasa! Oh, qani endi shu paytda bir siqim ko'k maysa bo'lsa-yu, qo'lga olib hidlasa!..

Shunday qilib, kuniga bir necha marta darchaga sakrab, undan tashqarini tamasha qilish shoirga odat bo'lib qoldi.

Har kuni, ma'lum bir paytda, bir oppoq g'oz sariq-ola palaponlarini ergashtirib ko'kalamzorga o'tib ketadi. Yiqila-surina, alpang-talpang qilib borayotgan palaponlar onasiga erkalanib, chiyillashib, qag'-qag'lashib chopishadi...

Qamoqxonadan taxminan yuz ellik qadamcha narida soy yoqalab ketgan yo'l bo'lib, ana shu yo'ldan ustiga tezak ortilgan aravalari g'irchillatib, ho'kizlarini yetaklab, shaharliklar o'tib turishadi. Kechqurunlari shaharning istirohat bog'laridan surnay tovushlari eshitalardi. Ertalab qamoqxona darchasining bittagina ochiq ko'zidan shabada kirardi. Ba'zan tashqaridan bo'z to'rg'aylarning chirillagan tovushlari eshilib, go'yo ularga shoirning ham joni jo'r bo'lib chirillayotgandek tuyulardi. U zanjir va kishanlarini uzib tashlaydigan darajada yulqinib darcha oldiga borardi. Ha, ozodlikning nima ekanini qamoqxonada tushunar ekansan...

Anchadan beri turma darchalaridan ko'zlarini olmay, bir yosh qiz o'tadigan bo'ldi. Boshida — o'ng chakkasi tomon qiya qilib kiyib olgan ukparli qora taqiya, ustida — yengsiz qora baxmal nimcha, burmali qo'sh etak ko'ylak. Xuddi qaldirg'och misol... O'rta bo'yli, xipcha bel... Zulukdek tim qora ko'zlar mo'tirab tikiladi. Oppoq yuzlarida mung bor, dard bor, oq qog'oz kabi musaffolik bor, o'y bor, fikr bor edi.

Bechora qiz qamoqxona oldidan ikki kunda bir marta o'tardi. O'tganda ham qamoqxona darchalaridan ko'zini uzmay o'tardi. Ammo qamoqxona bilan qiz o'tadigan yo'l orasi yuz ellik qadamcha bo'lgani uchun shoir uni shu bugunga qadar aniqroq qilib ko'ra olmasdi. Mo'tillab turgan tim qora ko'zlar, ko'zlar ichidan yaqqol ko'rinib turgan mung bilan dardlar, ipakdek to'liqinlangan qop-qora sochlar — bularning hammasi shoirning to'qima tasavvuriga edi, xolos.

Ey Tangrim, bu qaysi qiz bo'ldi ekan va nima izlab yuribdi ekan bu joylarda?.. Oh, ana, tanidi, zo'rg'a tanidi!.. Bu — tunov kuni O'tarboyning uyida o'zini o'limgan qutqargan qiz-ku!..

"Og'a, mana bu bezorilar sizni o'ldirish uchun to'planishibdi!" deb yozgan edi u. Qiz bechora uyali, xatining oxiriga ismini ham yozmagandi. Qaysarning aytishiga qaraganda, "o'ldirish uchun" degan so'zni yozishdan qo'rqibdi. O'sha qiz, ha, o'sha qiz! Shoir notirasiga jahoniy obraz — o'chmas bir siymo bo'lib qattiq o'r-nashib qolgan o'sha qiz!..

Erkabulan zanjirlarini qattiq shaqirlatib, darcha panjalarini yulqilay boshladi. Ammo yo'g'on-yo'g'on qirrali temirlar uning yulqilaganini pisand ham qilmadi. Bo'lmadagi tutqunlar: "nima gap, nima bo'ldi?" deb, zanjirlarini shaldiratib, darcha tagiga to'planishdi. Shu o'rtada darcha to'parasidan yana haligi qiz o'tib ketdi.

Mahbuslarning kuni ham, tuni ham uzoq bo'ladi. Tashqi dunyoning oy-kuni esa bular uchun begona bo'lib, u o'z holicha o'tib ketaverardi. Bundan tashqari, qamoqxonadagi har bir kimning o'z kuni bilan tuni yana boshqa-boshqa bo'ladi. Ularning o'y-fikri ham, ermagi ham bir-biriga hech o'xshamaydi. Masalan, shoir xayoli javlon urs, bir soatda butun dunyoni charx urib aylanib keladi. Ba'zan esa o'zlarining qanday qilib g'ofil qolganliklarini o'ylaydi. Ko'pincha, qo'l tegdi degunchayoq yozib-tashlayman, deb ko'ngliga tugib yurgan qo'shiqlari esiga tushadi.

Ayniqsa, uning boshida:

*Ozod bo'lsam, ozodlikni,
Qanday sevib qo'riqlash
Yo'llarini o'rgatardim!..*

degan kabi misralar ko'proq charx urardi.

Chuqur mulohazali jo'shqin shoir ozodlik mavzuyini ming xil tasvirlab, ming xil obrazlar orqali berishni xayol qilardi. Shoir xayoli tag'in Mona Lizaga ko'chdi. O'ylagan sayin u obraz turli xil fe'l-atvor kasb etar, faqat bitta odamga o'xshab qolmas edi. Leonardo da Vinchi shu surati orqali shoirga talay narsa o'rgatib ketgan ekan. Qo'rqoqlik bilan mardlik, g'am-hasrat bilan sevinch juft-juft bo'lishib shu bittagina surat qiyofasiga sig'ib tursa, shoir uchun bundan ham ortiqroq baxt bo'ladimi?

Uning mahbuslik kunlari mana shunday o'ta bordi. Toshbaqa yurish qilib, zo'rg'a siljirdi. Qayta so'roqqa chaqirilib, kurashgan, bahslashgan kunlari tezroq o'tar edi. Erkabulan so'roqqa chaqirilganda, qaytib kelib, ular bilan qanday aytishganlarini, ularni qayerda yutib, qayerda yutqazganini o'zga mahbuslarga hazil mutoyiba qilib gapirib berardi.

Ular shoirning bu gaplaridan go'yo yashargandek bo'lardilar. O'zgalar so'roqdan horib-charchab qaytisa, Erkabulan bardam bo'lib qaytardi.

Tosh polda somon yostiqa yastanib yotgan Erkabulan uchib o'rindan turib, darcha yoniga bordi. Zero, yosh qizning o'tadigan kuni shu bugun bo'lib, o'tadigan soati ham shu soat edi. Shoir bir minut ham kechikmagandi. U darchaga bir sakrab qaragandayoq qizni ko'rdi. Nega ekanini kim biladi deysiz, qiz har kungisidan idamroq yurib kelardi. U yetib keldi-yu, qamoqxona tomonga qaragan bo'yi taqqa to'xtadi. Qizning orqasida boshiga kiymachak kiyib olgan bir yosh juvon yugurib-yelib kelardi. Mana, ular yonma-yon turishibdi. Haligi yosh juvon kuyib-pishib qizga nimalarnidir gapirar, ammo qiz unga javob qaytarmay, hamon serraygancha qotib turardi.

Bu o'rtada, yana ularning oldiga qora otga yaydoq mingan bir yosh yigit chopib kelib to'xtadi. So'ng u ham qo'llari bilan orqa tomonga ishora qilib, bir nimalarni tez-tez gapira boshladi. Qiz unga ham javob bermasdi. Oxiri, qiz ko'zlarini qamoqxonadan olib, orqasiga qaradi, so'ng yana qamoqxona tomonga nazar tashlab, keyin sekin orqasiga burilib ketdi.

Shoirning ichi muzlab, qo'llari temir panjaralardan chiqib ketdi-yu, tosh polga yiqilib tushdi.

— Nima bo'ldi? Nima gap o'zi! — deyishib mahbuslar uning atrofini o'rab olishdi. Erkabulan bu gal ham javob qotmadi. Sehrlı siymodan bir yo'la ajralganiga ko'zi yetdi.

Shundan keyin qiz qorasini ko'rsatmay ketdi. G'ozning sariq-momıq palaponlari kattarib, g'oz bo'lganida ham, yer betini qalin qor bosib, Sari orqaning qahraton ayozi kuchiga minganida ham qiz qorasini ko'rsatmadi. Bechora mahbus uchun — bu eng og'ir qayg'ulardan biri bo'lib qoldi. Shundan keyin shoir u qizni faqat

kuhadagina ko'radigan bo'ldi. Yotish oldidan bu uni qanday tasavvur etsan, u ham xuddi shunday qiyofada buning tushiga kirar edi... Xirragina bir xotira — shoir o'zi yaratib, o'zi to'ldirgan bu sehrlı obraz uning xayoliga shunday mahkam o'rnatilib oldi-da, butun umri bo'yi u bilan birga ketdi. Uchrashmay ketdi... Shoir u bilan yulduz qoyada emas, teran chotqolda, tor yo'lda yana bir bor uchrashar ekan, qalbiga, fikri-yodiga o'rnatilib qolgan bu sehrlı siymoning mutlaqo o'chmas dardiga abadulabad muhtalo bo'ldi...

VI

Qamoqxonada to'qqiz oy yotib, qochib chiqqaniga uch oy bo'ldi... Quyuc qora mo'ylovli, qora soqolli, taxminan qirqlardan oshgan bu qochqinni hech kim Erkabulan deb o'ylamas edi. O'ylash bu yoqda tursin, hatto o'xshatib ham bo'lmasdi unga. Agar oynaga solsa, ehtimol, Erkabulanning o'zi ham o'zini tanimagan bo'larmidi? Biroq u oyna betini ko'rmaganiga, oyna ham buning ko'ziga ko'rinmaganiga bir yildan oshib qolgan edi.

Oyog'ida ip va ko'k qayish bilan chandib bog'lab olgan bu zoqbosh etik, ustida qozoqi do'ppi, boshida quloqlari shalviragan quloqchin. Qochqin yayov yurib kelardi. Sibirda Kolchak armiyasi hukmron bo'lganligi tufayli, u Sovet hokimiyati qaror topgan joyga — janubga o'tib olish uchun shoshilardi. Shoir kurashishdan ham, shoirlik orzusidan ham aynimabdi. U ro'paradagi ovulni uch kundan beri nishonga olib kelar, bu ovul esa bulturgi O'tarboynıng ovuli edi...

Kun botib, qosh qoraygan payt. Shoir o'tgan yilgi tanish o'tovga salom berib kirib keldi. Ammo uning salomiga hech kim alik olmadi. Aksincha, O'tarboyn g'ilay ko'zlarining birini qochqinga tikib:

— Bo'sib yurgan odamlardan qutila olmadik, qutila olmadik-da! — dedi.

Ha, bu yil bo'sib yurgan odamlarning ko'paygani rost edi. Xalq och-yalang'och bo'lib, eldan boshini olib chiqib ketganlarining hisobiga yetib bo'lmasdi. Ammo O'tarboynıng uy ichisi o'tgan yilgıga nisbatan tuzuklanib qolibdi... U o'tgan yili, ovul-naylikni qo'yib, kaparativchi bo'lmoqchiman, degan edi. Ko'

rinishidan, shu orzusiga yetgan, shekilli, ko'rpato'shaklari ham yangilanib ketibdi... Ovoziga ham sal o'ktamlik nuqsi urgandek sezilardi.

Oqbolaning haliyam O'tarboyga bo'sh kelmasligi ko'rinib turardi. Qachonlardir bir narsadan qolgan ko'ngli, hamon qayta ilimgandek tuyulardi.

U qovog'ini solgancha O'tarboyga yeb qo'ygudek bo'lib qo'radi:

— O'zi xohlab bo'sib yurgandir, deb o'ylaysizmi? Qancha sayoqning boshini silagan edingiz shunchalik? Undan ko'ra, kesatib-muqotmay, choyga kel, desangiz bo'lmaydimi?

Baribir, O'tarboy qochqinni choyga taklif qilmadi. Xotini ham uning chaqirishini kutib o'tirmadi.

— Dasturxon ustida xuddi kechqurungi qo'y to'dasidek qurut-pishloq, qo'yg'a aralashgan bitta-yarimta qora molga o'xshab toba non bo'laklari yoyilib yotardi. O'tarboyning oldida bir chaqmoq qand bo'lib, to'rda o'tirgan keksaroq ayol bilan Oqbolaning oldida esa qand ko'rinmasdi...

Qochqin unchalik nafsi yomon odam emas ekan, shekilli, non bilan pishloqdan uncha ko'p tamaddi qilmadi. Olistroq yotganlariga qo'lini cho'zib ham o'tirmadi. Bir-ikki piyola choy ichdi-da, piyolasini to'ng'ay qoldi.

— Ha, hoynahoy, tog'alaringni qidirib ketayotgandirsan?

— Ha, tog'alaringni qidirib ketayotganim rost...

— Ularning juda mol-dunyosi oshib-toshib yotgandir!

— Oshib-toshib yotmasa ham, har qalay, u tomonlarda ochar-chilik emas deyishadi.

— Hammasining aytadigan gapi bir xil! Biri tog'asini, ikkinchisi jiyani izlab ketayotgan bo'ladi! — dedi O'tarboy kesatib. Keyin qirs etkazib qanddan tishladi.

— Tog'a-jiyanlaringiz och qolmagani uchun Xudoga shukur qiling, bo'lmasa, bo'sag'angizda termiltirib o'ldirar edingiz bechoralarni! — deb Oqbola uni uzib oldi.

— Mana, o'tiribdi-ku bittasi!

G'ilay bir yoq ko'zi bilan to'rda o'tirgan keksa ayolga teshib yuborgudek bo'lib qarab qo'ydi.

Oqbola unga shartta javob qaytardi:

— U senga, tavqi la'nat bo'lay, deb kelib o'tirgani yo'q. Qashqirlaringiz bormi, qora qushlaringiz bormi — hammalaringiz bir bo'lib qon qaqshatib yuborgan qizining oldiga ketyapti. Opamga tegma, bildingmi? Aqlima uni kaftiga solib e'zozlaydi...

Shoirning yuragi shuv etib ketdi. Mana bu keksa ayol Oqbolaning onasi bo'lsa, uning izlab borayotgan qizining oti Aqlima bo'lsa — demak, bechora shoirning butun orzu-umidlari puchga chiqibdi-da!.. Oqbolaning singlisining ismi Aqlima bo'lmay, kim bo'lardi?

Ular bir-birlariga navbatma-navbat kesatar, achchiq-achchiq gaplar qilib, uzib olishar, shoir ularni tinglab o'tirar edi. Oqbolaning yuragida aytadigan gaplari ko'p, shekilli. Agar uning begona kishidan sal iymonib o'tirgani bo'lmasa, har gapirganda erining burnini yerga ishqagudek bo'lardi. Er-xotinning ko'ksiga qo'nib qolgan sovuqlik kun sayin tobora tutab, alangaga aylanib borayotganga o'xshardi.

O'tarboy ayolidan past kelib, biroz boshini quyi solib o'tirdi-da, tag'in erkakligi esiga tushib ketib, so'radi:

— Xo'sh, sen o'zing kimsan? Beleting bormi? Bor bo'lsa, qani, ko'rsat!

— Beleti bo'lsa, o'qiy olarmiding?

— O'qiy olmasam, taniy olmaymanmi?

— Nima, ovulnaymidingki, belet tekshiradigan, yoki amaldor-miding bo'lmasa?

— Amaldor bo'lmasa, ham, kaparatipchiman! Amaldorning kaparatipchidan obro'yi baland emas.

— Sen kaparatipchi emas, Qoljon hoji bilan Mirzakeldi bo'lisingiz yugurdagisan, bildingmi? Baxmal bilan barqit, qand bilan choy ularniki. Senga faqat chit-piti bilan mampasigina tegadi. Shuni bir bilib qo'yginki, vaqti kelsa, ularning o'rningini seni sudlashadi!

O'tarboy qo'lidagi piyolasini xotiniga qarab uloqtirib yubordi. Ammo javob qaytara olmadi. Qattiq uloqtirsa — piyola samovarga borib tegib, chil-chil bo'lardi. Ammo O'tarboy unchalikka bora olmagandi...

— Chiroqlarim-ov, nega buncha bir-biring bilan tez-tez iril-lashadigan bo'lib qoldinglar?.. Yoki meni og'irsinib o'tiribsizlar-mi? — deb Oqbolaning onasi bir-ikki og'iz gap aytgan bo'ldi. — Men ertaga ketaman... Aqlimajon tag'in xabar yuboribdi... Ovul-larida qora chechak paydo bo'lgan, shekilli. Meni uyga olib ko-ting, debdi. Bolam bechoraning yig'isiz kuni bormi, yig'lab turib aytib yuboribdi...

Shu bilan Aqlima haqidagi gap-so'z aniq bo'lib qolgandek bo'ldi. Erkabulan er-xotinining shundan keyingi adi-badisiga quloq solmay, o'z xayollari bilan bo'lib ketdi. Demak, butun yil davo-mida uning xayolidan chiqmagan qizning ismi Aqlima ekan. Shun-day qilib, armon qilib yurgan qizi — boshqa birov bilan bo'lib ketibdi. Keng dalaning qashqirlari bilan qora qushlari yig'ilishib, bir qizga yopishsa, bundan bu yog'i tushunarli, albatta...

Faqat bir jihati sal qorong'i edi. O'sha qamoqxona darchasi oldidan ikki kunda bir marta o'tib turgan qiz — shu Aqlimamikin yo boshqamikin? Qora otga yaydoq mingan qandaydir bir odam uni orqasiga qaytarib olib ketgan edi-ya!.. Xo'sh, o'sha bo'ldi, ni-ma-yu, bo'lmadi nima?.. Baribir, olov o'chib, kul bo'lgan, gulzor xazon bo'lib, o'rniida faqat sarg'aygan yaproqlargina qolgan edi... Toptalgan yaproqlar...

Ba'zan bir ulkan, tabarruk mavzuni ezmalanib, mijg'ilab, ezg'ilab bayon qiladigan asarlar ham bo'ladi. Aqlima — shoir uchun faqatgina qiziqib, xushtor bo'lib yurgan qiz emas, balki mo'ljallab yurgan zo'r badiiy obrazi ham edi. Qashqirlar tishiga, qora qushlar changaliga ilingan Aqlima — buyuk san'atkorning begonalar qo'lga tushib ezg'ilangan suratiga o'xshab ketdi... Shoir unga qattiq achindi. U endi bu uyda ortiq o'tira olmas va o'z qayg'usiga o'zgani sherik ham qilolmasdi. Uning bu qayg'usi — kimsasiz cho'l-u biyobonga chiqib, tanho chekiladigan qayg'u edi.

— Rahmat, xayr... — dedi-da, Erkabulan o'rniidan jadal turib, eshikka qarab yurdi.

— Yopiray, bu qorong'i tunda qayoqqa borasiz? Bu atrofta qashqir ham ko'p, qashqirdan yomon tunovchilar ham ko'p. Tunab keting, — deb Oqbola ham o'rniidan turdi.

— Bee, tunovchi mening nimamni ham olardi?..

Shoir Oqbola bilan ko'z qiri bilangina xayrlashib, chiqib ketdi. U kultur ham xuddi mana shunday, shu uyda, o'rtada yonayotgan o'choqning qarshisida turib, xuddi mana shunday ko'z qiri bilan xayrlashib chiqib ketgan edi. Oqbolaning ko'z o'ngida birdan al-laqanday lavhalar paydo bo'lib, asta-sekin uning xotirasiga o'tgan yilgi voqealar kela boshladi... Ajabo, shu ko'zlar o'shanda ham men bilan xuddi shunday xayrlashmaganmidi... Qachon edi?.. O'tgan yilimidi?.. Yo'g'-e, u emasdir.. U yigirma to'rt yashar shoir edi-kul! Bu esa qirqlarga borib qolgan bir kimsa... Yo'q, yo'q, bu o'sha ko'zlar... Sezilar-sezilmas mehribonligi ham, kulib turishi ham, mung'ayib turishi ham o'sha... Bu naqadar ajoyib, chiroyli qilyiq ko'zlar o'shaniki!.. Tavba, qanday qilib bir yil o'tmasdan qirqa kirib qolibdi? U hibsga olinib, otilib ketgan... Yo Xudo-niing o'zi yor bo'lib, tirik qoldimikin? Ilohim shu bo'lsin-da!.. O'tarboyning mol-joni sadaqa! Kapatitipi sadaqa! O'zi sadaqa!

Qochqin tashqariga chiqib, qorong'ida ko'zi o'rganguncha andak turib qoldi. Katta qo'ng'ir uy hamon o'z qolipida turardi. Chang'arog'idan tutun ham chiqmas, eshigi ochilsa, yuzga tushar shu'lasi ham yo'q edi. Xuddi shoir aytganidek, "Kun botib, ovul qorong'ida qolgan" kabi tuyulardi.

"Qam, yuring!" deb yetaklab olib ketadigan Qaysar ham yo'q edi endi... Rostdan ham, uning ahvoli nima kechdi ekan?..

Toldan kesilgan qiyshiq hassa qo'lida, shoir asta keta boshladi. Sigirlar kavsh qaytarib yotishardi. Mungranib qo'yishardi. Tushovli otlar o'tlab yurishardi. Pishqirib qo'yishardi.

Ovul itlari erinibgina hurib, shoirni ovul chetigacha kuzatib qo'yishidi. O'likdek unsiz ovul qorong'i tun bilan qapishib, orqada qolib borar va shoir qalbiga mangu jarohat solib, abadiy uyquga tolardi...

Oradan uch kun o'tgach, shoir o'zining qidirib kelayotgani — boshqa bir ovuliga yaqinlashib qolgan edi. Vaqt choshgoh bo'lib, firuza osmonda yengilgina oq bulutlar suzib yurardi. Yozning yo-qimli shabadasi yam-yashil o't-o'lanlarni sekin-asta allalab esardi. Mana, ixchamgina bu ovulning yilqilari suv ichgani soy bo'yiga qarab kelishyabdi. Yol-quyruq'i kuzalغان jiyron baytalga minib olgan yilqichi yigit soy bo'yiga kelib turib qolgan bitta-yarimta

qulunlarni qo'lidagi quruq tayog'i bilan suvga haydab tushirardi. Nogoh u narigi qirg'oqqa kelib, suvdan o'tmoqchi bo'lib yetchi nayotgan yo'lovchiga ko'zi tushib, tovush qildi:

— Hov, qora soqol! Yechinmay tura tur... Hozir ot bilan o'zlim o'tkazib qo'yaman. Esing joyidami o'zi? Chirog'im, suvdan o'tkazib yuborgin, desang bo'lmaydimi?..

Soqolli odam etiklarini qaytadan kiyib, sirtidan qayta chandib bog'lay boshladi. Eski etigining yirtig'idan to'piqlari ko'rinib turardi uning...

Yilqichi yigit tanovlari kerilib ketgan jiyron baytalni qaptaliga cha suvga botirib, suzib o'tdi-da, hol-ahvol so'rashdi. Erkabulan uni bir ko'rishdayoq tanidi. Lekin yilqichi buni tanimadi.

— Xo'sh, o'tog'asi, yo'l bo'lsin?..

— Shu tomonlarda bir tog'am bo'lguvchi edi... Shuni qidirib kelyapman.

— Tog'angning oti nima?

— Boykeng degan kishi.

— Qadimgi Aqlbekning o'g'li Boykengmi?

— Ha, o'sha.

— Iye, men shu ovulning yilqichisi bo'laman. Huv ana, ovul ko'rinib turibdi.

— Boykeng uydami? Eson-omonmi?

— E, omon bo'lganda qandoq! U kishi to'y qilay deb yotibdi. O'tgan yili ayoli vafot etib, yoshroq bir juvonga uylangan edi. Xudoning qudrati, shu ayoli qo'chqordek o'g'il tug'ib bersa bo'ladimi!

— Unda Boykengning kayfiyati joyida ekan-da?

— E, joyida bo'lganda qandoq! Xo'sh, o'tog'asi, endi biroz sabr qiling... Men sizga bitta ot tutib beray, shunday qilmasam, Boykengdan baloga qolib yuraman...

— O'zingning oting nima?

— Qaysar... Odamlar meni "Qizil Qaysar" deyishadi... O'tgan yili Erkabulan degan bir shoirga ergashib, Qora o'tkalga ketgan edim. Shu-shu bo'ldi-yu, qizil atalib ketdim...

— Xo'sh, o'zingning qizil bo'lganing rostmi?

— Yo'g'-e... faqat bir kun gazetaga muovin bo'lganman, xolos...

— Unda savodning bor ekan-da, a?

— Yo'q. Gazetada Karim degan bir yaxshi yigit ishlar ekan. U meni ko'rdi-yu, o'ziga muovin qilib oldi. O'zi emas, albatta, haligi shoir aytganidan so'ng shunday qildi. E-e, bu gapning oxiri uzoq... Keyin aytib berarman. Biyalarni boylaydigan mahal bo'lib qoldi. Keyin aytib berarman, keyin...

Qaysar soydan qayta kechib o'tib ketdi. Erkabulanmi tanimadi. O'zi deyarli o'zgaribdi. Ammo yelkalari biroz kengayib, barmoqlari to'lishib qolibdi. Hali ham ancha beg'amroq, shoshma-shosharroq, o'sha-o'sha oqko'ngilligicha ko'rinardi. Ovul odamlari aslida unchalik ko'p o'zgaravermaydi. O'n yildan keyin ko'rsang ham — xuddi ilgarigidek egnida ko'hna guppisi, boshida tepasi yirtiq bo'rki bo'ladi. Xuddi shuningdek, o'tgan bir yil ichida Qaysar ham uncha ko'p o'zgaribdi. Ko'p o'tmay, u yaxshi bir saman otini egarlab, o'zi boshqa otga yaydoq minib, qaytib keldi.

— Mana, mining, og'a. Ehtimol, eshitgandirsiz. Boykengning poygaga qo'shadigan saman oti mana shu oti..

Uch kundan beri qayg'uga botib kelayotgan shoir ko'ngli otga mingach ancha ko'tarilib ketdi. Quloqlarini tik qilib, bir maromda qadam tashlab, yonboshiga ko'z qiri bilan qarab qo'yadigan uchrur ot — bu ham bir go'zallik timsoli-ku! Saman otning tuyog'i yerga tegar-tegmas yelib borardi. Egnida juldur kiyim bo'lgani bilan, arslondek qomati kelishgan yigit ot ustida o'tirgach, yana ham suluvlashib, qo'nog'ida zerikib o'tirgan qirondek salobatli va devkor ko'rinardi.

Qaysar yilqilarning betini ovul tomon burib, shoir bilan yonma-yon kelarkan, subbatini davom etkazdi:

— O'shanda qiziq bo'ldi, og'ay... Eshitganmisiz, yo'qmi, Erkabulan degan ajoyib shoir bor edi. Uning hamma o'lanlarini bu yerdagilar yoddan bilishardi. Ayniqsa, qizlar uni desa o'lib qolayozishar edi... Eshiklardan qarashardi, tirqishlardan mo'ralashardi. Shoirning o'zi ostingizdagi mana shu samanning yo'rg'asidek chertib-chertib do'mbira ham chalardi... Boylarning ham onasini ko'ziga ko'rsatgandi!.. Men unga ergashib Qora o'tkalga ketdim. Sizga yolg'on, menga chin, gazeta idorasiga boshimizni suqishi-

miz bilan, u bir yosh yigitga mana bu bolani xizmatga olasan, dedi meni ko'rsatib. U yigit bir og'iz ham gap qaytarmay, meni o'ziga muovini qilib oldi...

— Gazetani nega tashlab ketding?

— Men tashlab ketibmanmi?.. Men kechqurun muovini bo'ldim, ertasiga ertalab kelib gazeta idorasini ag'dar-to'ntar qilib ketishdi. Meni esa yelkamga bir turtib, ko'chaga chiqarib yuborishdi...

— Shundan keyin nima qilding?

— Ko'chada qoldim... O'farboy degan odamning uyidan qochib ketgandim... Boshqa boradigan joyim yo'q edi. Xudo ishinni o'nglab, Boykeng degan kishi haligi men aytgan shoir bilan do'st ekan, shu qamoqxonaga ovqat olib kelib qoldi. Men o'sha kishiga duch kelib qolib, birga qaytdim... Shundan beri shu ovulning yil-qismini boqaman... Hoy! Anovi harom o'lgur ko'k otning boylaydigan joyga bormay, nari ketib borayotganini qarang!..

Qaysar chopganicha ilgari ketdi. Yilqilar ovulga yaqinlashgach, bo'linib-bo'linib, boylanadigan joylariga qarab borar edi. Odamlar qulunlarini ushlab, biyalarni maxsus og'ochga bog'lay boshladilar. Faqat bittagina odam qulunlar bilan ishi bo'lmay, saram otga minib kelayotgan odamdan ko'z uzmay qarab turardi. Erkabulan uni tanidi...

Boykeng chol ham Erkabulanni uzoqdan tanigan edi.

Ehtimol, uni otida o'tirishidan, yo qarashlaridan tanigandir, ish-qilib, chol adashmagan edi.

— Boyeke, suyunchi! Jiyaningiz keldi! — deb qichqirdi Qaysar ancha naridan. Boykeng esa asta yurib kelib, quchog'ini keng yozdi:

— Arslonim! Sirtlonim! Sog'inganim! Omon-esson qaytib keldingmi? Muncha ko'p kuttirmasang! Har kuni yo'lingga ko'z tikaman. Kuta-kuta ko'zlarim nigoron bo'ldi...

Erkabulan Boykeng bilan yig'lab, quchoqlashib ko'rishdi. To'qqiz oy, to'qqiz kun turmada o'tirganida ham ko'ngli bo'shsharmagan, ko'zidan yosh chiqmagan edi. Aqlimaning ahvolidan ogoh bo'lganidan so'ng, qalbi iztirob chekib, nimadir tomog'iga kelib tiqilgan va shu ko'yi bir holatda ketardi. Hozir esa ana shu

tomog'iga kelib tiqilib turgan yig'i, erkiga bo'y bermay, sog'inchini boykeng oldida to'kayotgan edi. Buning ustiga, odil quchoq, do'st quchog'i... Shoir ko'z yoshi qilishdan uyalgani yo'q.

Boykeng ham quchoqlab turib, Erkabulanning orqasiga mehr-tulab qoqardi, yelkalarini silar edi... Chamasi, shoir xalqini shunday erkalab, yelkasiga qoqish kerak ekan. Shoirning butun sir-asrori yuziga qalqib chiqqandi... U qo'rg'oshindek balqib, qanaqa qolipga quyaman desang ham quyilmoqchidek bo'lib turardi...

— Sen ham yomon cholingni sog'ingan ekansan-ku! Seni qidirib qamoqxonaga ham bordim. Lekin kirgizmadi. Shunda mana bu ko'chada qolgan Qaysarni olib kelgan edim. Bas, bo'ldi qilaylik, qizil qarchig'ayim!.. Qaysarjon-ov, tanimabsan-ku! E, bor bo'lgur...

Qaysar hayron... Nimanidir tushungandek ham bo'ldi. Chunki u o'tgan yili Boykengning Qora o'tkal turmasiga kimmidir izlab borganidan xabardor edi. Qaytayotib, ovulga kelguncha ularning gap-so'zlari Erkabulan haqida bo'lgan edi. U ham tanidi. Otidan sakrab tushib, Erkabulanning bo'yiga osildi.

— Erka og'am! O'zimming og'ajonim! Men o'zingizning Qaysar iningizman-ku! Qanday chidab, indamay keldingiz.

Boykeng chol ehtiyot va hushyor bo'lish kerakligini aytdi:

— Bugun bizning uyimizda to'y bor edi, chirog'im... Odamlar to'planadigan joydan naritiroq yurishning lozim bo'lsa, ertaroq ilojini qilganimiz ma'qul. Seni izlab qog'oz kelibdi, degan gap qulog'imga chalinib qolgan edi. Har kuni yo'lingga ko'z tutardim, deganimning boisi ham shu edi... O'zim ham bir uchrashmay ketmassan, deb o'ylovdim-a...

Qochqin endi sal sergak tortdi. Ovul o'rtasiga qozonlar qurilib, xotin-xalaj uymalashib, chuvullashib yotgan ekan. Ovul-ovul orasida toy mingan bolalar chopib yurishardi. Biyalarning qulunlarini bog'lab bo'lgan bitta-yarimta odamlar bu yoqqa qarab kela boshlashdi...

— Bittasi bo'lmasa bittasi tanib qolar, xoliroq joyga borganim ma'qul, — dedi qochqin.

— Unday bo'lsa, uyga kiraylik... Qaysar, bo'lmasa bu odam baltur Qora o'tkalga borganimizda mehmon bo'lib tushgan uyi-

mizning egasi... Uqdingmi? Bo'пти, qani uyga yur... Notob bo'lib kelibsan... Joy soldirib beraman, teskari qarab yotaver... Uqdingmi, Qaysar?

Qochqin shoir Boykengga ergashib o'tovga yetgunchayoq lay odam uni surishtirib ulgurdi...

— Qayoqdan kelyapti?.. Qayoqqa boryapti? Kim o'zi?..

— Bultur Qora o'tkalg borganimda shu kishinikida yotgan edim... Sal notobroq bo'lib kelibdi...

Boykeng faqat shunday javob berardi...

To'y-tomoshalarini, poygalarni, polvonlarning kurashini o'tov tirqishidan ko'rib yotish ham bir azob ekan. Tashqarida, maxsus og'och qoziqda poygaga solinmagan saman ot bog'log'liq turardi. U turgan joyida suvlug'ini chaynab, yer depsiniib, ahyon-ahyonda yon atrofiga o'qrayib qarab qo'yardi. O'tovda esa yolg'ondakam kasal bo'lib, to'y-tomoshalarini tirqishdan ko'rib shoir yotardi. Bir hisobdan, ot bilan shoirming bugungi taqdiri bir-birinikiga o'xshab ham ketardi.

Hamma to'y-tomoshalar bilan ovora... Qoziqda — saman yo'rg'a, o'tovda shoir yolg'iz. Onda-sonda Qaysar yugurib kelib, to'y-tomoshalarini aytib qaytardi:

— Boysek degan polvon Abiken polvonni ko'tarib olib, aylantirib turib yerga ursa bo'ladi! Xudoning qudrati, o'rta iligini uzib yubordi bilaman... Tura olmay qoldi... Suvsin ichasizmi?

— Olib kel.

— Qoziq bo'layotibdi, Erka og'a. Poygaga anovi harsildoq qorani ham olib kelib qo'yishdi. Shubhasiz, shu ot olib ketadi poygani. Esingizda bormi, uning ikki qo'ltig'ida teshigi bor... Boykeng, o'zim bergan poygaga otimni qo'shmayman, deb samanni olib qoldi... bo'lmasa, harsildoq qora bilan bir bellashgan bo'lardi... Go'sht yeysizmi?

— Olib kel.

— Men boyagi yotag'on jiyron bilan yerdan kumush tanga ilib olishga qatnashaman... Nima bo'larini Xudo biladi-ku, lekin, har qalay, talay-talaylarni poyga ulushidan benasib qilaman... Choy ichasizmi?

— Olib kel.

Kun botib, to'y tarqagandan so'ng, Bokeng uyga besh-oltita odam ergashtirib keldi, bitta mulladan boshqasining hammasi shu ovullik odamlar edi. Qochqindan nariroqqa qo'yilgan beshinchi chiroq mehmonlarning mo'min-qobil odamlar ekanini ko'rsatib turardi. To'rda taqir boshiga taqiya kiyib olgan mo'ylovli mulla o'tirardi.

— Mulla aka, endi, mana bu chol otasini chiqimdor qilib, to'y qildirayotgan tentakning otini qo'yib bersangiz...

— Barakallo, Boyeke... O'zingiz mo'ljalab yurgan ism bormi? Agar yo'q bo'lsa, ruxsatingiz bilan men o'zim qo'yaman?

— Bor, mulla aka... Menga o'xshagan cholning kenjasi erkaroq bo'ladi-ku. Men Erkabulan degan otini ma'qul topgan edim...

— Ha, ota-onasiga ma'qul bo'lsa bo'пти-da.

— Bizning uyimizdagi bir tentakning oti ham Erkabulan... — deb iljaydi bir yuvosh odam.

— Unday bo'lsa, Erkabulan uchta bo'ldi. Mening haligi kenja qizimdan tug'ilgan nevaramning otini ham Erkabulan qo'yishgan... — dedi tag'in birovi.

— E-e, ajab dunyo ekan-da, katta Erkabulanning o'zi qayerda yurgan ekan-a! — deb uchinchi bir kishi xo'rsinib qo'ydi. — Qayerda yursa ham omon bo'lsin-da...

Mulla o'midan turib, azon aytdi. Boykeng pishillab uxlab yotgan o'g'ilchasini ko'tarib, mullaning oldiga olib keldi...

— Allohu akbar, allohu akbar, la ilaha illallah! Sening oting Erkabulan, Erkabulan, Erkabulan!

Bolaning oti uch marta takrorlandi.

— Rahmat, mulla aka!.. Hamma Erkabulanlar ham omon bo'lsin. Odam bo'lsin!

— Omin!..

VII

To'y tashvishlaridan charchagan ovul tugal uyquda edi. Chalqancha tushib xurrak otib uxlardi, terlab uxlardi. Ayollar esa benadek buqib uxlardi. Chirog'i o'chgan qorong'i uyda Boykeng chol bilan Erkabulangina uyg'oq.

— Xo'sh, chirog'im, maqsadingni ayt... Qo'limdan kelgan, yur
damimni ayamayman, qisilmasdan, tortinmasdan aytaver!

— Hozircha gapim shuki, bu yerdan olisroq bir ovulga bor
rib kelsam, degan edim... Yoninga Qaysarni qo'shib beramiz
bo'lardi.

— Shuni ham gap deb aytib o'tiribsanmi, jivan... Tag'in nima
kerak?

— Boshqa hech narsaning keragi yo'q.

— Qachon jo'naysan?

— Bugun tundan qolmasam deyman.

— Unday bo'lsa, shu uyda borini tanlab kiyib ol. Chol bo'lsan
ham, bir qator kiyimlarim bor... Salt yuradigan odam uchun an
plama etikdan qulayi yo'q, shuning uchun mana bu etikni kiyib ol.
Mana bu ko'k chakmon ham xuddi o'zingga o'Ichab tikilganidek
juda ixcham... Ichki kiyimlaring qanday?.. Tugma-pugmalaring
tushmaganmi? Quloqchiningni tashlab, mening tumog'imni ki
yib ol. Samanni bersam, sen ham gap-so'zga qolasan, men ham.
Boshqa bir zo'r otim bor — shuni minarsan. Odamlarga seni Qay
sar shaharga olib ketdi, deyman... Necha kunda qaytasan?

— Besh kunlarda qaytib qolarman...

Tong otar paytida Erkabulan jo'nab ketdi. Yonida kechagi jiyron
baytalga minib olgan Qaysar. Ovuldan uzoqlashib chiqqandan so'ng
Qaysar Erkabulan minib olgan kulrang otni maqtay boshladi:

— Boykeng otni tanlab minadigan odam. Bu ot ham — mo
miq qorda uchta qashqirni holdan toydirib yiqitgan ot. O'zaroq
yo'rg'asi ham bor... Xo'sh, og'a, shunday qilib, qayoqqa ketib bor
yapmiz?

— Aqlima qaysi ovulga uzatilganini bilasanmi?

— Bilaman. "Qora qo'yin Jappas"ga uzatilgan. O'tarboy de
gan pochchasi, kaparatipchi bo'laman, deb uni Qaljon degan bir
boyning kenja ayolining inisiga berib yuborgan...

— "Qora qo'yin"ing qaysi tomonda?

— "Jappos" hozir yaylovda bo'lsa kerak... Biz teskari tomonga
ketib boryapmiz. Ularning yaylovi "Qiz munchoq", "Sirg'all" de
gan joylarda bo'lardi.

— Unday bo'lsa, otning boshini o'sha yoqqa bur!

Erka og'a, Aqlimani yo'qlab borayotganimiz juda yaxshi
biladim. O'zi ham qizlarning malikasi edi! Men jonimdan ham
yaxshi ko'rardim. Sizga etgashib borib, tag'in bir marta ko'r
sam — armonim yo'q. Xo'sh, endi bo'lmasa, yo'lni janubga qarab
ketamiz.

Aqlima bultur necha yoshda edi?

Men bu yil o'n sakkizdaman. Aqlima mendan bir yosh ki
chik edi.

Ular to'g'ri yo'lga tushib olganlaridan so'ng, Erkabulan bosh-
qa hech narsa so'ragani yo'q. Yo'lni Qaysarga ishonib, o'z xa-
lidan bilan bo'lib ketdi. Xayol surish uning eski odati. Uning
deftalaridan ba'zilar Qora o'tkal qamoqxonasidan Ombi qamoq-
xonasiga ovushtirildi. Bunday o'ylab qarasa, ular bilan bog'la-
nshadigan biron-bir yo'l ham, iloj ham yo'qdek ko'rinardi. O'zi
hafta — yurishi mana bu, qochqin... Kolchak hali quturib turgan
payt. Boykeng chol ham unga: "Seni qidirib qog'oz keldi" deyap-
ti. Janub tomonga faqat Cho'l orqaligina o'tish mumkin... Lekin
kim o'tqazib qo'yadi u yoqqa?.. Qaysarning qo'lidan kelmaydi
bo'ladi.

U tag'in Aqlimani o'ylab boshladi. U shoirga yopishgan bir
omdlik dard, shekilli, uning qorong'i tunda yaroq etib bir martagina
ko'ringan yorqin yuzi buning uchun abadiy bir timsol — ko'rkam
bir stymo bo'lib qoldi. U, ham qo'rqinch, ham quvonch, ham
muung — obraz yaratishning turli-tuman yo'llari borligini bir vara-
kayiga shoirning ko'ngliga solib ketgandi...

Bu — ulug' rassomlarning, buyuk shoirlarning ancha ilgari
kashf etgan siri.

Yoshligida erkin bo'lgan, sir bermagan,

Aldansa hanim, qiynalsa ham sezdirmagani...

Ishonasan ne desa ham gap-so'ziga.

Niyati yo'q dilida, alday, degani...

Ammo endigina oyloqqa turib kelayotgan qozoq adabiyotida
bu fazilat hali yo'q darajada edi. Shu nuqtayi nazardan qaragan-
da, shoir o'zining ko'pgina asarlaridan ko'ngli to'lmas, ular sirti

yaltirog'-u, ichi qaltiroqdek bo'lib, o'xshatishlari ham qashshoq roq ko'rinardi.

Shoir o'zining yangi davr uchun yo'lboshi hamda shu davr adabiyotining sarboni ekanini tushina boshlabdi. Unga ergashuvchilar ko'payib borishardi. Uni katta mas'uliyat kutib turardi. Qozoq adabiyotida Abay ijodi — ulkan bir davr edi. Endilikka kelib, o' yurt o'z ahidida mahkam, yangi davrga qadam qo'ymoqchi bo'lib turgan bir paytda — qozoqi aravaning g'ichir-g'ichiri, sariq otan tuyaning kavsh qaytarishi yozilajak o'lanlar uchun munosib mavzu bo'lolmasa kerak. Sarbonning o'zi xamin qadar bo'lsa-yu, unga ergashuvchilarning holi nima bo'lardi? Mona Liza ham, Onegin ham, ayniqsa, o'z tuprog'ida tirik duch kelgan Aqlima obrazi ham shoir ko'ngliga katta o'y solib, ajralmas dard bo'lib yopishgandi. U, ana shu ajralmas bo'lib yopishgan dardning siymosini yana bir bor ko'rish niyatida oshig'ich kelardi.

Ajabo, u izlab kelayotgan obraz hali-hamon boyagi qolipida turganmikin yoki unga uy-ro'zg'or, tirikchilik tashvishlari raxna soldimikin — shoir shu tomonlarini ham o'ylab, qayg'urib kelardi. Qo'pollik va jaholat qanday go'zal obrazlarni payhon qilmagan deysiz? Poymol bo'lsa na chora? Farishtadek begunoh bir yoshning baxtsiz bo'lganini ko'radi-da... Shu bir rasvo fikr qayoqdan kelib yopisha qoldi?.. Rostdan ham, baxtsiz bo'lganini ko'rmasam edi.

Yo'lovchilar izlab kelayotgan ovuliga bir qo'nib, yetishdi. Kun og'ib qolgan payt edi. Kattakon ko'l atrofiga uzoq-uzoq qo'nishgan ovullarning qorasi ko'rindi. Ovulda bir ko'ngilxijillik borga o'xshardi. Na o'tliq, na yayov, na ovul atrofida chuvullashib o'ynashgan bolalar ko'rinardi. O'choqlardan tutun o'rlamas, mol-lar ham o'z holicha yoyilib yurardi.

Qaysar uch ovuldan qo'nishga joy so'ragan edi, hech kim rozilik bermadi:

— Uyimizda bemor yotgan kishimiz bor. Qora chechagimiz bor...

Oxiri, Qaysar Aqlima uzatilib kelingan kelingan puchug Yusuf ovulini cho'pondan so'rab bilib oldi.

— Huv anovi ovul... Bittasi chala qulagan, bittasi o'rnida, — ikkita uy turibdi-ku... O'sha. Hay, qaydam, u ovul odamlari qirilib ketgan bo'lsa kerag-ov...

Erkabulan otini niqtab, jadal yurib ketdi. Ular xoliroq turgan ikki uy oldiga yetgach, qo'nish uchun joy ham so'rab o'tirishmadi-da, otlaridan sakrab-sakrab tushishib, to'g'ri ichkariga qarab yo'l olishdi. Qaysar otlarni bog'lash bilan ovora bo'lib, ancha kechikib kirdi.

Allaqachon olovi so'nib qolgan ko'l boshida O'tarboyning uyida ko'rgani — keksa ayol o'tirardi. O'ng tomondagi devor yoqqa tortilgan ko'k chimildiqning pastki tomoni qimirlab qo'yar va ichida tirik jon borligi bilinib turardi.

Charchab, mudrab o'tirgan keksa ayol:

— Chiroqlarim, kim bo'lasizlar?.. Bu uyda chechak borligini bilmay keldinglarmi? — dedi mehmon yigitlarga.

— Bilib keldik, yanga...

— Chechakdan qo'rqmay yurgan qanday odamsizlar? — deb so'radi haligi keksa ayol.

— Mening ismim Erkabulan... Yonimdagi bolaning oti Qaysar...

Chimildiqning pastki tomoni boyagidan ko'ra jonliroq qimirlab ketdi.

— Qaysarni bilaman... Biroq do'xtir, bu yerga hech kimni yaqinlashtirmanglar, deb ketgan edi...

— Unday bo'lsa, na chora, ketamiz-da...

Chimildiq ichidan "ting" degan tovush eshitildi. Go'yo kimdir royaning baland pardasini bexosdan bosib qolib, qo'yib yubormay turgandek bo'ldi... Shoir sevinib ketdi. Ayol tovushi, Aqlimaning tovushi!.. Tirik ekan. Hayot ekan bechora... "Uyimizda chechak bor" deb mehmonlarga qo'noq bermayotgan onasiga ham, "unday bo'lsa, na chora, ketamiz-da" deb javob qilgan shoirga ham, qarshilik bildirib yotibdi:

"Ketmanglar, ketmanglar!.."

— Men chechakka qarshi talay-talay marta emlanganman... Sen-chi? — dedi Qaysar Erkabulanga qarab.

— Erka og'a-yov, meni so'rasangiz — a'zoyi badanim xuddi chipor ilonnikidek turlab yotgan bir odam bo'lsam, men chechakdan qo'rqarmidim!

— Unday bo'lsa, yangajon, bizlar bugun shu uyda qo'namiz. Bizlar uchun qo'rqmang.

Kampir indamay o'rnidan turdi-da, samovarni ko'tarib, tashqariga chiqib ketdi. Qaysar joyidan uchib turib, chimildiq ichiga kirdi.

— Aqlima!

Aqlima "ing!" deb sezilar-sezilmasgina tovush berdi. Xona ichida issiq ter hidi anqib ketdi.

— Aqlima!

— Im-m...

— Aqlima, deyman. Qalaysan bovirum?

— Im-m...

— Qaysar, qo'y, qiynama uni, bu yoqqa kel!

Qaysar chimildiqdan yig'lab chiqdi. Chiqib, yana o'ksib-o'ksib yig'lay boshladi. Yaxshi ko'rar ekan. Afsus, Sovdep davrida duch kelmaganlaringni qara-ya...

— Erka og'ajonim-ov, Aqlimani qidiramiz, deganingizda o'zimda yo'q sevinib ketgan edim!

Qaysar so'iq-so'iq yig'lab, tashqariga chiqib ketdi. Aqlima tag'in "ing-g" degandek tovush berdi. Chaqiryabdi, shekilli. Kishi ayanchli bir holda o'lim to'shagida yotarkan, har qanday urf-odatni yig'ishtirib qo'yish kerak — buning aybi yo'q.

Erkabulan chimildiq ichiga kirdi.

— Im-m...

Aqlimaning ko'ksi tez-tez ko'tarilib, qiynalib nafas olib yotardi. Yuzini qizil ola shol ro'mol bilan bokitib olibdi. Erkabulan uning qo'tir toshgan biligidan bundoq ushlab ko'tsa, tomiri dikdik etib urib yotgan ekan.

— Im-m...

— Qo'rqma, singlim, yaxshi bo'lib ketasan... ataylab seni izlab keldim. Tuzalib ketguncha yoningda bo'laman, — dedi Erka-bulan.

— Im-m...

Aqlima kechadan beri holdan toyibdi. Yosh emasmi, hali jon talashib yotgan ekan. Butun a'zoyi badaniga yoyilib ketgan qora chechak darmonini olib qo'yibdi. Eri ovulga qora chechak toshishi bilanoq, shaharga qochib ketib, shu ketganicha hali qaytib kel-mabdi. Erining bitta ukasi, bitta singlisi bor ekan — ikkovi ham vafot etibdi. Shundan keyin Aqlimani qo'shni ovullik bir beva ayol kelib, suvsin berib, kechalari qarab o'tirar ekan. O'z onasi kelganidan keyin, u ham ketib qolibdi. Mana, u ikki kundan buyon onasi bilan birga ekan...

Erkabulan bilan Qaysarning izlab kelganini bilib, qizning ko'ng-lli bir nafasga vayron bo'ldi. Negadir, Aqlima ham Erkabulanni shu chog'gacha ko'nglining bir chekkasida saqlab yurardi. Nega shunday, nega uni shunchalik ardoqlab, asrab yuribdi — buni Aqlimaning o'zi ham bilmasdi. U yosh shoirmi faqat bir martagina, shunda ham eshik tirqishidan ko'rishga muyassar bo'lgan edi. Shoir berilib do'mbira chertib o'tirardi... Odamlar to'g'ri aytishgancha bor ekan, suluv yigit ekan, qizlar qiziqa arziguilik yigit ekan... O'sha oqshomni u "qiziq o'tar" deb umid qilgan edi, umidi puchga chiqdi, sal bo'lmasa o'lim bilan tugay dedi. Agar Aqlimaning o'zi shoir bo'lganida, go'zallik timsoli deb Erkabulanning o'zini atagan bo'lardi. Tabiatan shoir, o'tirish-turishi shoir, borlig'i shoir edi uning...

Mana, ana shunday shoir Aqlimani izlab kelibdi. Uning bu kelishi kasalini ham sergaklantirib yubordi, ham toliqtirib qo'ydi. Erkabulanning tovushini eshitmasdan avval ham yosh yurak o'lim bilan olishib gup-gup urayotgandi. Uning tovushini eshitgandan keyin esa — bir yo'la o'ynab ketdi. Endi oqibati chatoq bo'ladigan bo'lib qoldi.

— Chimildiqni bundoq ochib qo'yaymi? Havo kirsin...

Aqlimaning tovushi bu gal ham "ting" etib chiqdi. Ochmang, degandek bo'ldi, shekilli.

— Xo'p, mayli ochmayman...

— Im-m...

Aqlima esi kirdi-chiqdi bo'lib yotar ekan, o'zining baxtiyor kunlarini eslab ketdi. Buni qarangki, kimsasiz yolg'iz qolgan paytida yana o'sha Erka og'asi yetib keldi! Ataylab izlab kelibdi!.. Yax-

shu ko'rganidan-da. Erkabulandek shoir, Erkabulandek go'zal yigit izlab kelgan qizning nima armoni bor! Armonsiz ekansan, Aqlima! Uni men ham bir o'limdan olib qolgan edim, endi u ham meni o'limdan olib qolgani kelibdi... Hali: "Tuzalib ketguningcha yo'ningda bo'laman" dedi-ku! Shoir tuzatolmaydigan kasal bor ekanni dunyoda!.. Xudo xohlasa, ertagacha tuzalib ketsam, hamma ovullardagi yosh-yalang'larni chaqirib, o'yin-kulgi qilaman... Oqbola opa, siz bugun aytib kela qoling-chi. Hammasi kelishsin... Erkabulan og'am do'mbirasni chertib, mening o'ng tomonimda o'tiradi... Voy, qizlarjon, kelib qoldinglarmi? Voy, sevinganimdan yurakkinam tars yorilib ketay dedi... Hammangni ham sog'inibman... Begona uy eshigida g'arib bo'lib qolgan edim... Erka og'a, xursandchilikni boshlayvering... "yosh qizcha" o'lanini aytib bering bizlarga...

Esimga tushganingda, jonim mening,

Quchoqlab qo'sh yostiqli yig'laganman...

Biroz suyanib o'tirsammikin? Suyanib o'tiray-a, og'a?.. Orqam yonib ketmasmikin!.. Erib, balqib borayotgandekman... Qaysar, "Qora ko'z"ni ayt-chi. Yaxshi aytar eding-ku... Ha, shunday ayta qol...

Qora ko'z-ay, qolding keyin, men ne deyin...

E Xudo, burchalik quvonarman, deb o'ylaganmidim! Armonim yo'q, oyi... Nega yig'laysiz, oyijon? Shoir quchog'idan meni qizg'anyapsizmi? Qizg'anmayoq qo'ya qoling... Bu gunohsiz quchoq. Ha-a, sevinganingizdan yig'layotgan ekansiz-ku...

Erka og'ajon, meni suyang-chi, ikki qo'lingiz bilan suyang-chi! Yiqilib boryapman, Erka og'a... Erka og'a, Qaysar, oyijon!.. Qayoqqa ketib qoldinglar?.. Oyijon, nimaga tumanga o'xshab xiralarishib ketyapsiz!..

Shundan keyin Aqlimaning esi qayta ingani yo'q. Yuragining urishi ham sekinlasha bordi. Shoir qulog'iga tag'in bir marta "ting" etgandek ingichka, nozik tovush chalindi.

Go'zallikning tirik timsolini qidirib kelgan shoir Aqlimaning yuziga qarayolgani, uni aqalli tag'in bir martagina bo'lsa-da, ko'ra olgani yo'q. Ko'raman desa — qiz qarshilik ko'rsatmasdi,

albatta... Bordi-yu, uning yuzini ochib ko'rganida ham o'tgan yilgi go'zallikning payhon bo'lganini ko'radi-da!

Shoir xayolida o'sha go'zallik timsolini buzmay, uni butun umr saqlab yurish uchun o'zi bilan birga olib ketdi.

VIII

Shoir zamonidan rozi, zamonasi shoiridan rozi bo'lib, ancha yillar o'tib ketdi. Zamon o'zining tosh poydevorini mustahkam qurib olib, tobora yuksalib boryapti. Naqadar epkinli, naqadar jo'shqin zamon — bu zamon.

Shoir miltig'ini tashlaganiga, miltig'idan so'ng qo'ltig'idagi charm portfelini tashlaganiga ancha yillar bo'ldi. Ilgari xuddi shol odamga o'xshab sudralib o'tadigan oylar bilan yillar ham hozir xuddi otash aravadek zuvillab o'tib ketyapti. Shiorlar amalga oshadigan yillar keldi. Ishlaymiz, bajaramiz, deb chorlaydigan shiorlar bajarilmoqda va amalga oshmoqda edi.

Shogirdlar o'sib, qanot qoqdi. Og'a shoirming mas'uliyati ham tobora osha bordi. Eski shiorlar ustiga yangi shiorlar, eski ishlar ustiga yangi ishlar qo'shildi. O'zi birgalashib o'rnatishgan yangi zamon ilarning oldiga yangi talablar qo'ya boshladi. Shoiring, zamon odimini parovozga, inson xayolini ko'kka uchishga tenglashtiradigan o'lanlari davr tilagiga hamohang bo'ldi. Shogirdlar orasida yangi ovozlari, yangroq ovozlari yetishib chiqa boshladi. Biroq bu yangi ovozlarda ba'zi bir nuqsonlar ham yo'q emasdi, albatta... Ustozlik mas'uliyati tinmay izlanish, yangilik kashf etish, yangi chiqib kelayotgan iste'dodlarga ko'z-quloq bo'lib turishni talab etardi. Kechagi ko'chmanchi elning kechagi hayoti bilan bugungisi, bugungisi bilan ertangisi ulanmay, qovushmay yotardi. Oralari uzoq-uzoq, uzuq-yuluq edi ularning...

Shoirming misralari eski chegaralarni buzib o'tib, kun sayin ko'proq dovrucq solib borardi. Uning har bitta so'zini oltindek ko'rib taqlid qiladigan shogirdlari, ergashuvchilari paydo bo'ldi. Buning ustiga... shoir so'zlari bilan bir qatorda, o'z so'zlarini ham oltinga tengab olish maqsadida ustozni maqtovchi qalbaki og'aynilar ham ko'payib qolgandi.

Shoir bundan qattiq norozi edi. Ochiq aytmagani bilan, ichidan o'zining ko'pgina o'lanlaridan o'zining ko'ngli to'lmay yurardi. Ayniqsa, anchadan beri ko'ngliga tugib yurgan gaplari ko'p edi. Lekin shunga qaramay, atrofigicha mukammal obrazlar yaratishga kirisha olmay yurganidan norozi edi u. Kim biladi, jur'at qilolmay yuribdimi, yo bo'lmasa boshqalar uchun xufiya obrazlari turtki bermayaptimi hozircha unga?..

Shoir o'zining bu orzularini hech qachon unutgan emasdi. Faqat ularni hozircha hayot bilan uzviy ravishda bog'layotgancha yo'q edi. Jo'shqin hayot katta asarlarga qo'l urdirmay kelayotgani ham sir emasdi, albatta. Mana endi, Mona Liza, Onegin, uchrashmay ketgan o'sha bir siymo shoirning yoqasidan olib: "Yoz, yozasan!" deb qistardi.

Aytmoqchi, uchrashmay ketgan bir siymo desak, tog'ri bo'larmikin? Yoki shoirning qalbiga o'sha siymodan ham chuqurroq o'rnatilgan o'zga bir obraz bormi? Yo'q-da! Lekin tog'dan qaytgan oqshomgi aks sado kabi doimo xayolingda yurgan bir siymoni, uchrashmay ketgan bir siymo, deb bo'larmikin? Yo'q, u shoirning qalbiga kirib olib, uning izlanishlariga, ilhomlariga turtki bo'lib turadigan muqaddas siymo, shoir bilan birga yashab kelayotgan siymo bu siymo.

Bundoq razm solib qarasa, bu qirrali, kurashlar bilan yo'g'rilgan hayotni shoir o'z boshidan kechirgan ekan. U shu hayotni o'sha Sho'to hokimiyati barpo etilgan daslabki davrdan boshlab to bugungacha yozib kelsa, buyuk davrga yodgorlik bo'ladigan darajada kitob bunyod etilarkan. Qalamni tashlab multiqqa, multiqni tashlab qalamga ko'chgan davrlari shoir xayolida butun salmog'i, butun salobati bilan gavdalanadi. Mardlikning ham, boringki, nomardlikning ham avj olgan kezlari edi u kezlari... Uchrashmay ketgan bir siymo ham o'sha davrda dach kelmaganmide, axir? Shoir u siymoni nima uchun ko'nglida saqlab keladi?

Yozilajak katta bir asar uchun-da, albatta...

Nimqorong'i uyda shoir do'mbrasini chertib o'tirardi. Bu fikrni do'mbiraning qaysi pardasi aytib bergani esida yo'q, lekin u do'mbrasini suyab qo'yib, yozuv stoliga o'tirdi. Bu mavzu — xayolida ko'pdan beri tinchlik bermay yurgan mavzu emasmi,

to'xtatilmay yozib ketdi. Kitobning nomini ko'p o'ylab o'tirmay, "Olshapron" deb qo'ydi.

Hoshidan kechgan, xayolida yurgan, tosh-tarozi ko'rgan hayot lavhalarini tizilib kelib, qalamdan qog'ozga tusha boshladi. Shoir qog'oye teran dengizdan suzib o'tishga bel bog'lagan kabi, xuddi ba'z kalitini topgani kabi o'z-o'zidan juda xursand edi... sovitilgan poyga o'tidek, hech bo'lgalmay, beto'xtov yozardi.

Ajabo, odamning yaxshi ma'nodagi kayfiyati turli harakatlarda namoyon bo'lar ekan-da!.. Sinfiy kurash tushirib ketgan tamg'alar odamning tashida emas, ichida bo'lar ekan. Shoir ba'zan kuydirib, ba'zan kuldirib yozardi. Uning kek bilan yozilgan sahifalarida qattiq-qattiq gaplar uchrardi. El-yurtim, qozog'im, deb ko'kragiga mushlaganlarning hammasi ham do'st bo'lmay, balki dushmanlari ham chiqib yotardi.

O'z shaxsi uchun kek saqlamaydigan shoir — xalq dushmanlariga nisbatan shavqatsiz va murosasiz chiqdi.

Ayniqsa, "Olshapron" nashrdan chiqqandan so'ng shoirning dushmanlari juda ko'payib ketdi. Ular tanqidiy maqolalar yozishdi, arizalar yozishdi, tuhmatlar qilishdi... "Olshapron"da sinalgan kishilar bamisoli tog'a-jivanlar kabi shoirning ketiga tushishdi. Shoir o'lmadim, deganda, kuniga o'ntacha xat olib turdi. Ularning ko'pchiligida shoirga do'q-po'pisalar qilinardi: "Qalamdan ham o'tkirroq qurol borligini unutma!" deb yozibdi bittasi. "Erkaning ham esini kiritib qo'yarmiz!" deb yozibdi ikkinchisi. "Yozuvchim, yozgan narsang uchun xafa qilib qo'ysak, o'zingdan o'pkala!" deb yozibdi yana bittasi...

Bu to'g'rida shoirning o'z falsafasi bor edi: yomonlik bilan g'iybatni ko'nglida kek qilib saqlab yurgan odam — yozuvchi bo'lolmaydi, derdi u har gal. Shuning uchun ham u haligidek bo'hton va tuhmatga to'la xatlarga bir ko'z yugurtirib chiqardi-da, o'tga tashlab yuborar yoki juda nari borsa, miyig'ida bir kulib qo'yardi-da, so'ng esidan chiqarib yuborardi. Lekin biror marta bo'lsa ham ulardan birontasini tekshirtirish uchun yubormagan edi...

Shoir odatdagidek xayolga cho'mib o'tirardi. Xayolida "Olshapron"ning ikkinchi kitobi. Birinchi kitob yuzasidan yozilgan

tanqidlar — biri maqtab, biri soʻkib, ikki guruhga boʻlinib ketdi. Shoirning qoʻlini boylab, oʻy-xayollarini toʻzgʻitib yubordi. U endi oʻsha gap-soʻzlarni oʻz tarozusi bilan oʻlchab oʻtirar va doʻmbradan sado kutardi.

Derazalar ochiq. Chiroq yoqilmagan. Deraza oldidagi ikki tup olma mevalarini koʻtara olmay, shoxlari egilib turardi. Baʼzan ob-havo sharoitini oldindan belgilaydigan ilmiy tekshirish stansiyasining taxminiy fikrlarini yolgʻonga chiqarib turadigan kunning avzoyi buzilib, koʻk yuzini bulutlar qoplab kela boshlaydi. Koʻp oʻtmay, yomgʻir hidi anqiydi. Yashil daraxtlar qoʻngʻir tusga kiradi, shoir kechqurunlari unumli yozar edi, lekin mana bu jala uni xotirjam yozishga qoʻyarmikin?..

Shoirning barmoqlari doʻmbraning yuqori pardalarida oʻynalmadi. Shu joylardan chiqadigan tovushlar shoir koʻngliga nuqul oʻy solardi. Ostingi va ustingi iplarining tovushlari joʻr boʻlganda esa ular shoirning qulogʻiga nimalarni yozish va nimani yozish sirlarini shivirlayotgandek tuyulardi. Undoshlik degan soʻz ikki tovushning birligi emas, eng kami ikki turli tovushning hamohangligi emasmi? Badiiy soʻz koʻrkamligi ham xuddi shunga oʻxshash bir narsa. Bir soʻz ikkinchi bir soʻzga shuʻlasini ham tushirib turadi, soyasini ham. Oq boʻyoq, qora boʻyoq, qizil boʻyoq bir-biriga hamohang boʻlolsa, buni plakat deymiz! Ha, boʻyoq undoshligi, tovush undoshligi, badiiy soʻzlar undoshligi — bular shoirning hali zabt etolmagan, oʻzlashtira olmagan jihatlari ekan. Tasvir — qalamga olinadigan mavzuning barcha xususiyatlari birgalikda hamohang boʻlib birlashgandagina yaratilishini shoir ilgari ham bilardi. Lekin shunga qaramay, mana, ulgʻayganidan keyin ham u oʻzini oʻzi qattiqqoʻlilik bilan sinab oʻtirardi.

Doʻmbraning “ting-ting”i shoir xayolini olis-olislariga olib ketdi. Uning koʻz oldiga qamchi bilan urilganda tuyajun chakmoni yelkasidean qars ajralib ketgan Birjon keldi. Tirqirab oqqan shoir qoni oq boʻz otining yolini yuvib, egarining qanjigʻasidan yerga tomchilardi. Badjah! Poʻchtaboy Birjonning qoʻlidan doʻmbrasini tortib oldi. Doʻmbraning ipi uzilib ketdi. “Ting” etib uzildi. “Uzilib ketdim-ov!” deb yigʻlamsirab uzildi.

— Duch kelgan odamning janjaliga ora tushib nima qilarding! — deb Jonboʻta Birjonning oʻzini koyirdi. Ha, u hurmatli kishisining Poʻchtaboyi, hurmatli kishisining koʻppagi!

Bundan ruhlangan Poʻchtaboy Birjonni yana urmoqchi boʻlib, doʻmbrani koʻtarib, oʻdagʻaylay boshladi. Mabodo shoirning oʻziga tegmay, oq boʻz otining boshiga tegsa ham obroʻku!

Shoirning koʻz oldiga, Poʻchtaboy otasi bilan ketma-ket uning yulduzi oʻgʻli ham keldi. Qaysar aytganidek — payi kuyib, choʻloq boʻlib qolmaganmikin u? Oʻzi qayerda ekan hozir? Tirik boʻlsa mening gunohimdan oʻtdimikin? Yoki uni bezori oʻgʻliga omonat meros qilib qoldirib ketimikin? U betamiz endi barzangidek yigit boʻlib qolgandir-ov...

Shoirning barmoqlari hali ham doʻmbraning pardalarida. Bunday qarasa:

— “Jonboʻta, shu-mi-di-yov oʻlgan joyim!” — deb oʻtirgan ekan. Nuqul shu misrani takrorlayveribdi.

Birjon avji baland oʻlanchi edi. Shunga yetkazaman deb doʻmbrasining qulogʻini beixtiyor burayveribdi, burayveribdi... Bir mahal doʻmbraning ostingi ipi chirt etib uzilib ketdi. Shoir bir dam Birjon doʻmbrasining: “uzilib ketdim-ov!” degan unini eshitgandek boʻldi.

Kechikibroq yongan shahar chiroqlari xonani yoritib yubordi. Shoir doʻmbrasiga yangi ip taqib olib, qayta boshdan cherta boshladi...

ONALARNING ONASI

Sochlari qordek oqarib ketgan so'qir Oytilash chol ko'ksini qoplab turgan kumushdek oppoq paxmoq soqolini baquvvat burmoqlari bilan tarab o'tirarkan:

— Baravariga o'qinglar!.. Ax-x tful.. — deb eshikdan oshirib tupurib yuborsa, bo'sag'ada o'tirgan bolalar cho'chib tushib:

— Auzu... Billohi... rasira... rasiri... raturu... rariru! — deb yuborar edik...

— ... Yoz chog'i. Harorat sahrori zabtiga olgan payt. Soya-siz yaylovning jon-jonivorlari ko'l atrofida tiqilishib jon saqlardi. Quyosh ko'zining o'zi ham kun bo'yi ko'lda cho'milib, hovur chiqarayotgandek ko'rindi... Qoq tush paytlarida, hatto o'z soyang ham soyalash uchun o'ziga joy topolmay, bag'ringga tiqilardi. Faqat cho'ponlar bilan podachilargina, xuddi juni tushmagan toychalarga o'xshab, yirtiq-yamoq po'stinlarini tashlamas edilar. Cho'ponlar quyosh nurida kuyib, qurishib, kichrayib borayotgandek tuyilardi. Ahyon-ahyonda qora terga tushib ketgan tezakchi ayollarninggina soy-qir osha tergan tezaktarini orqalab, inqillagancha zo'rga-zo'rg'a qadam tashlab kelayotganlari ko'zga tashlanib turardi.

Bizlar esa ko'ksov bo'lgan qo'zilarga o'xshab, burnimizni torta-torta, Oytilashning uyida nodon mulladan nodonlikni o'qib o'tiribmiz. Kelajakda qullikdan bosh tortmaydigan, o'ng chakkamizga ursa, so'l chakkamizni tutib beradigan odamlar bo'lib yetishmoqchimiz...

Erta bilan to'rt burchagi titilib ketgan eski to'qimga o'xshab qolgan haftiyagimni qo'ltig'imga qistirib, sabog'ga kelsam, hali bolalar yig'ilishmagan ekan. Uyda kattakon meshdek liqillab bizing Oytilash mulla bilan Ramazon savdogar ikkovi subhatlashib o'tirishardi. Oytilash so'qir Ramazon savdogarga qadimgi zamonlar haqida hikoya qilib berardi. U o'zining bu eski gaplariga

inglovchisini ishonitirish uchun kuyib-pishib, unga o'zidan ham qo'shib-chatib so'zlayotgani ma'lum edi. Ko'zidan judo bo'lganidan keyin butun yorug'likni ko'ngli bilan qulog'iga jo qilib olgan Oytilash chol o'tigan kunlarni xotirlab, chuqur xo'rsindi-da, yana ko'chmishidan gapira ketdi.

Otning qulog'ida o'ynaydigan yosh kezimiz edi... Saksonning ikkisidami ekan, uchidamikin, Jonoy polvon o'sha kezlarda g'ayrati qaytgan bo'lsa ham, lekin hali po'lat yuragidagi o'ti so'n-magan edi...

Ovozini aytmaysizmi, shang'illab gapirganda, o'tov chang'inoqlarini larzaga keltirardi. U kishi so'ylagan paytda biz jimgina o'tirib, xayolga cho'mar edik...

O'shanda Jonoy polvon yalpoq polvon bilan bo'lgan bir voqeani gapirib bergan edi...

"O'sha paytda, bola kezimizda, Yalpoq polvonga ergashib Erganaklarning elini chopishga otlandik. Yalpoq polvon Bola biyning botiri ekan. Bir kuni Bola biy uni huzuriga chaqirib olib: "Ha Yalpoq! Erganaklar bizning elimizni ikki marta bosadi. Birisida men tunaldim, bir martasida sen tunalib eding: men molimni berdim, sen joningni berding. Joningnigina emas, balki soching har tofasiga dunyo molingni bersang arzigulik qaylig'ingni ham berib yuborgansan!.. Shuni bilasanmi o'zing? U paytda sen hali yosh eding, g'animingdan o'ch olish bu yoqda tursin, hatto unga osatingdagi toyingni berib, boshingni arang qutqarib qolganingga ham shukur qilgansan... Hozir esa — Yalpoq povon deb nom chiqarib, bosh ko'tarib yuribsan... Xo'sh, endi o'sha kekingni qanday qilib unutib yubording!" debdi.

O'sha kezlarda o'zgalarning gaplarini elamay yurgan Yalpoq polvon Bola biyning shu gapidan keyin nomusiga chiday olmay, uchib tura kelib, biyga arz qilibdi:

"Biy manglayimda bir qora tamg'am borligini bilmay yurar ekanman. Menga odamlar qayliq seniki emas, birovniki deguvchi edilar. Ostimdan otimni ular olib qo'yishganida — men atigi olti yoshda edim... O'chimni olganim bo'lsin. Yengsam — yovni olaman, yengilsam — yovda qolaman. Chorshanbaning ustiga otladim!" debdi-da, yo'lga tushibdi.

“To‘xta botir! To‘xta!” deb Bola biy uni to‘xtatibdi-da, yana shunday deb aytibdi:

“Borishga borarsan ham, elini choparsan ham, biroq xotin bo‘lib qolgan qaylig‘ingni qutqarishning payigagina tushib ketmay, yoyilib yurgan sonsiz-sanoqsiz yilqilariga ham ko‘z tashlarsan, deyman?”

“... Shunday qilib, yov yarog‘imizni shaylagan qirq yigit kun botish tomon yuzlanib, otlarimizning boshini qo‘yib yubordik” deydi Jonoy polvon.

Yag‘rinlari qopqoqdek, mushtlari to‘qmoqdek Yalpoq polvon sirtidan qaraganda gumbazdek bo‘lib oldimizda borardi. Otdagi saman qashqa oti shamoldek uchib, kiyikdek sakrab o‘ynoqlar edi. Uncha-muncha otlar umrida u bilan uzangilasha olmasdi...

Olti bor qo‘nib, yettinchi kuni kech kirib qolgan bir kezda qan daydir mozorustidan chiqib qoldik... “Har qalay, jo‘n odamning mozoriga o‘xshaydi bu mozor, kelinglar, hu mozorda tunaylik!” — deb Yalpoq polvon otidan sakrab tushdi.

“Hammamiz ham tushdik... Aylanasi oltmish qadam keladigan kattagina mozor ekan. Manglayida yozuvi bor. Qani endi qirqimizdan biron bittamiz xat tanisak, hech qaysimiz uning nima deb yozilganini ajrata olmadik...” — deydi.

— Shularni o‘ylasam, bolalarning o‘qiyotganidan xursand bo‘lib ketaman. Viloyatga chamasi kelmasa ham, bo‘lisa bekor bo‘g‘izlatib, harom o‘ldirtirmas, deb o‘ylayman-da, haligi...

Keyin u bolalarga bir nazar tashlab, xo‘rsinib qo‘ydi va kampirga:

— Hoy, bolalarga qurutingdan bersang-chi! — deb buyurdi.

Shundan keyin, Oytirash chol yana Jonoy polvonning hikoyasini kelgan joyidan davom ettirib ketdi:

“Chaqmoq tosh chaqib, pilta tutatib, o‘t yoqdik. Qopchiqlarimizdagi quritilgan yo‘l oziqlarimizdan olib, biroz tanavvul qilgan bo‘ldik-da, to‘qim to‘shab, yastanib, uyquga ketdik... Hulkar og‘ib Cho‘lpon qiz yulduzi qoq tepaga kelganida, Yalpoq botir irg‘ib o‘rnidan turib, bizlarni uyg‘otdi”.

“Yigitlar, to‘sh ayilni bo‘shroq, ortqisini mahkam qilib tortinglar... Kun nayza bo‘yi ko‘tarilgan paytda yo qalin yovga, yoki qa-

lari yilqiga duch kelsak kerak... Mening tilagim yor bo‘lsa, yovga duch kelarmiz. Biyning tilagi amalga oshsa, yilqiga duch kelarmiz. Yilqiga haram ko‘z tashla deb edi. Hay shuning tilagi bo‘lsa bo‘lsa qolsin...” — dedi.

Botir buni qayerdan bilib gapiryapti ekan, deb tursak, saman qashqa oti olisga qarab qulog‘ini chimirib, yer tepinib turgan ekan. O‘sha tomon qarab otlarning jilovini bo‘shatdik.

Hordiq chiqarib olgan otlar urchuqdek o‘ynab, kiyikdek sakrab, yer suzib, suvlug‘ini g‘arch-g‘arch chaynab borardi. Quyosh nayza bo‘yiga kelganda dala-tuzni olib yotgan qalin yilqiga duch keldik.

Hayt-haytlab, yilqilarga daxl qildik. Ikki salt otlq yilqilardan ajralib chiqib, tog‘ betqayiga qocha boshladi. Biz ortidan quvlamadik.

Yilqining bir chetini qayirib, qiy-quvlab kelayotganimizda, bir bo‘tako‘z qiz tezak orqalaganicha qo‘sh tomon yugurib borayotgan ekan, ko‘nglim erib ketdi. (Shunday paytda odam Xudoni tanlydi deysanmi!) Ostimda “qulon tuyoq Xudoy ko‘k” degan otim bor edi. Ketidan quvib kelib, qizni egarga ko‘tarib oldim-da, ikki qo‘lini belbog‘imga qistirib tashlab, ola jo‘nadm. Ortimdan sochini yoygan onasining “voy dod, quling‘ochim!” degan nolasingna eshitilib qoldi... Uning bu nolasi menga chumoli chaqqandek ham ta‘sir qilmadi.

Quruq tayoq bilan yilqilarni alla vaqtda zo‘r-bazo‘r o‘rtaga to‘plab, ikki qirning ichiga tushirdik. Shu payt Yalpoq polvon mening orqamdagi qizni ko‘rib qolib, nazarimda, ko‘ngli erib ketdi, shekilli:

“Bir topganingni menga sovg‘a qil!” — dedi shang‘illab.

Senga sovg‘a qilishga arzisa, armoni qolmas, ol, botirim!” — dedim.

Yalpoq polvon otimga yonasha kelib, qizning peshanasini silab, to‘lqinli qora sochlaridan bir o‘pti-da, yo‘lida davom etdi. O‘z harorati bilan bo‘g‘in-bo‘g‘inlarimni qizdirib kelayotgan qiz shundan keyin orqamga yopishib olgan qurbaqaga o‘xshab sovuq bo‘ldi-da, qoldi...

Yilqining bir qismini ajratib olib ketdik-ov, deyman. Bu'sizni qiyanchilik qilib haydattirmasdi. U yer-bu yerda onasidan keyin qolgan qulinlar qoqilib-surinib, kishnashar edilar.

Yilqini haydagan yerimizdan yarim ko'ch masofa uzab qolgan nimizda ketimizdan quvib kelayotgan to'piqdek bir qora ko'rinib. Xuddi uchgan yulduz deysan, misoli, ko'z ochib yumguncha yetib kelib, bizga aralashib qoldi. Ko'pni ko'rgan eski yilqichi ekan, boshqamizga qayrilib ham boqmay, to'ppa-to'g'ri Yalpoq polvonning jilovidan tutdi:

"Boyni chopganing chopgan, molini olganing olgan, yilqichi ning yolg'iz qizida nimang bor, botir... Senga erkak kerak bo'lsa — o'zimni olib ket, qizimni qaytarib ber. Sho'rlik onasi zot qaqshab qoldi. Tor qursog'in kengaytgan, tosh emchagin iyitgan yolg'iz qiz edi..." — deb unga yopishib olsa bo'ladimi?

Botir unga e'tibor berarmidi, piq etib kuldi-da, yonida kelayotgan Kayki degan yigitga imo qildi. Kayki shunday shafqatsiz yigit ediki, yilqichini yengilgina yulib olib, aylantirib, aylantirib uloqtirib yubordi-da, ustiga ot surib borib, yana daf qildi...

Orqamdagi qiz ingrab yubordi-da, belimdagi bilagini sug'urib oldi. Oldimga o'ngarib olib qarasam, mo'liragan bo'ta ko'zlaridan marvariddek munchoq-munchoq yoshlari tirqirab tushardi. Odam bolasi ham qizg'aldoqdek shunchalik suluv bo'larmikin... Qarshib qolgan qo'llarim bilan bag'rimga bosay degan edim, tag'in o'ldirib qo'yamay deb ayadim.. (Jonoy ham juda qo'li qattiq odam edi-da!)

Yo'l yurishda davom etib, yana bir ko'ch joyga uzoqlashib ketdik. Yilqichi o'ldimi-qoldimi — ko'nglimizda zarracha ham tashvish yo'q edi — biz uni unutib yuborgandik. Hay-hayga yilqi zoti qanday ko'rinib qoladi — tasir-tusir qilib yopilib kelishardi...

Bir vaqt orqamizga qarasak, tuyg'undek tuyilib, yulduzdek uchib, ortimizdan yana bir qora quvib kelib qolibdi-da...

"Hey, ushlasalaring-chi!" — degancha ham bo'lmay, u ol-dimizdan o'rab chiqdi. Faqat oqarib kelayotgan bir nimanigina ko'rib qoldik.

"Onajonim-ey! Sho'r haydab keldimi, sizni!" — dedi ortim-dagi qiz.

Ustida bulutga sapchi ydigan haligi to'riq ot o'ynoqlab turgan bo'yoq, bo'yagi yilqichining xotini, orqamdagi qizning onasi ekan. Qiz quvlab yilqining o'ng tomonidan bir, so'l tomonidan aylanib chiqdi-da, so'ng oldinga tushib, o'ng tomon qaytara yo'naldi. Yilqicham ham uning ketidan ergashib, kun chiqishga qarab ketaversa bo'ladimi?

Biz bu yoqqa qarab qaytarardik, yilqilar esa u tomonga qarab qochishardi. To'riq ot hech kimga yetqich bermasdi. Nayza sug'urib, so'yil siltaydigan yerga yaqinlatmasdi sira. Bir necha marta yilqini qayirib ham oldik. Lekin yilqi har tarafga bo'linib, yana tumtaraqay bo'lib qochib qolardi. Quruq ustiga so'yil yolg'irib qaytarsak ham bo'lmadi. Nihoyat, ular, kengligi eshik ornatilg'icha keladigan eski o'zanning ichiga tushdi-da, to'xtatib qoldi. Keyin qancha qiy-quvlasak ham, ularni bu yerdan qimirlatib bo'lmadi.

O'zan o'rtasida bir tepalik bor ekan. Haligi ayol o'sha tepalik ustiga chiqib olib, bizni o'z oldiga chaqirib, barchamizga murojaat qilib qolsa bo'ladimi!.. Biz uni nayzabozlik qilib, juda burdaburda tashlasak kerak, deb ustiga to'nar ekanmiz, uning gaplarini eshitib, turgan joyimizda to'xtab qoldik.

"Mening otim — ayol! — dedi u bizga qarab. — Men qo'llaringizdagi ana shu qizning onasiman! Hammangizning ham onalaringiz bor! Ona bilan otishish, chopishish, olishish hech qayst udumda yo'q. Xo'sh, mening yolg'izimda nima haqlaring bor edi?.. Kel, bo'tam, o'zimga kel!" — deb qolsa bo'ladimi u!

Ayolning shu gaplaridan keyin qo'limdagi qiz qanday irg'ib tushganini va sakrab borib, onasining bo'yniga osilib olganini bilolmay qolibmiz. Biz qahr-g'azabimizga chidolmay, qovog'imizdan qon tomib turgan bir paytda, ular bizlar bilan ishi yo'q, onasi qizini, qizi onasini yupatish bilan ovora edi. Shu payt haligi Kayki jahliga chidayolmay ketib:

"Botirim, ruxsat etsang, ikkalasini ikki toyga o'ngarib olib ketaylik. Qizi xotinlikka, onasi o'tinlikka yarab qolar!" deb izm so'radi.

Yalpoq Kaykiga qarab allaqanday bir holatda o'qrayib qo'yidida, ayolga shunday deb murojaat qildi:

“Qarindosh¹, sen o‘zing qanday jonzotsan? Sen qozoqning xotini bo‘lsang, men qozoqning botiriman... Qani bir so‘zlashaylik-chi!”
“Botir, otingdan tush! Orqangdan hech kim quvib kelayotgan yo‘q. Sen bu elni chopishga kelgan bo‘lsang, bu el ham boshqa elni chopishga ketgan. Shoshilmay haydab ketaver, javobini ham shoshilmay berasan!” — dedi ayol Yalpoq polvonga tik qarab.

Shundan keyin hammamiz otdan tushib, tepa aylanasini qurshab o‘tirdik. Lekin ko‘nglimizda: “Bu qari kampingning yana qanday yolg‘onlariga quloq solmoqchi bu Yalpoq!” degan ranjish bor edi unga nisbatan.

Bir fursatdan keyin ayol quchog‘idan qizini bo‘shatdi-da, gapga kirishib ketdi:

“Men mana bu qizning onasiman. Qizim hozir o‘n beshda. Naq qizimning yoshida o‘zim ham boshimdan shunday sargardonlikni kechirganman. Afsuski, o‘sha sargardonlikning sovuq izg‘irini tovonimdan, qora tamg‘asi manglayimdan ketgani yo‘q hali...”

Men o‘zim kichik bir elning odamiman... Soyni sohillab, o‘zanni yoqalab yuradigan to‘rt uyli bir ovulimiz bor edi. Men shu ovuldagi So‘nar degan kishining qizi edim... Elimizning qanday el ekanligini bilmayman, balki nomi yo‘qdir. O‘sha elimizda Bola biy degan bir odam o‘g‘liga sunnat to‘yi qilibdi-da, katta uloq beribdi. Bosh poygaga o‘z qizini berarmidi, tevarak-atrofdan bir qiz qidirtiribdi...

Otam avarasini tuzatib, onam go‘jasini qaynatib o‘tirgan edi. Qayerdandir o‘n choqli salt otli yigit to‘satdan paydo bo‘lib, o‘tovimizga birdan bostirib kelib qoldi. Otam ulardan:

“Yo‘l bo‘lsin, yigitlar?” — deb qayerga ketayotganliklarini so‘radi.

Ulardan biri to‘dadani ajralib chiqib otamning oldiga yaqinlab keldi-da, qo‘rslik bilan:

“Yo‘l bo‘lmasa bo‘lmasin, qiz bo‘lsin!” — deb javob qildi. So‘ng o‘tovga suyanib turgan meni ilib oldi-da, otni choptirib ketaverdi...

Ertasiga uloq bilan kurash tushgach, meni egarlangan bir nor tuyaga mingizib, poygada yutib chiqqan odamga berib yubordi.

¹ “Singlim” degan ma‘noda.

Kurashga tushib meni mukofotga olgan odam Boysari degan polvon ekan. U meni o‘z eliga olib kelib, Qultaka degan boyiga taqdim qilib yubordi. Qultaka boy meni bir quliga qo‘shib sog‘inga qo‘ydi... Ikki yildan so‘ng Qultaka qizini uzatib, to‘y berdi. Men yana poygaga tikildim. Avvalgi gal bosh poygaga tikilgan bo‘lsam, endi ikkinchi ot poygasiga tikilib, mana shu o‘zlarining bosgan hali degan boyning qo‘liga kelib tushdim. Menga atashtirgan qul bo‘lsa, bosh poygaga tikilib, boshqa elga ketti. Sari boyning Qayroq degan bir yilqichisi bor ekan. Shu bir kuni:

“Umrinning oxirigacha sening xizmattingda bo‘lamiz!” — deb boydan so‘rab, meni xotinlikka oldi.

“Biring yilqichi, biring sog‘uvchi bo‘lib yura turinglar, keyin bo‘shataman...” — degan boy o‘shanda. Shundan buyon, mana o‘n besh yil o‘tdi. Erim bugun qo‘llaringda o‘lib, ozod bo‘ldi. O‘zim, mana, o‘rtalarida o‘tiribman. Taqdirning uzun qurug‘i shilt etib qizimning bo‘yniga tushganidan keyin, chidayolmay orqalarindan quvib kelayotganim! Nima uchun qo‘rqmay quvib kelding demanglar: o‘n besh yoshimda o‘zim ham xuddi shu qizimdek edim, endi qizim ham senlarning qo‘llaringda ketsa, o‘n besh yildan keyin xuddi o‘zim tushgan ahvolga tushmaydimi? Men uchun bundan ortiq qo‘rqinch ham, xo‘rluk ham yo‘q. Meni senlarning orqalarindan mana shu qo‘rqinch haydab keldi! Bersalaring tirik olib qaytaman, bermasalaring o‘ligini olib ketaman!” — dedi.

Uni yeb qo‘ygudek bo‘lib turgan yigitlar, qulog‘imiz shalvirab, shashtimizdan tushibmiz-qolibmiz; lom-mim deb javob qaytarishga ham majolimiz qolmay, yer chizib o‘tiraveribmiz.

Ayol bizlarning bu ahvolimizni ko‘rib, keyin yana shunday deb aytdi:

“O‘n besh yil birga umr kechirgan qadrdonim edi, suyagini yo‘lda ko‘rdim. Bilaklaring kuchini, nayzalaring uchini kelib-kelib mening cholimga ko‘rsatibsizlar. “Teng tengi bilan deganlari qani? Yoqalashgan yov emas edi u, yalboringan sho‘r edi u. Xunini qanday qilib to‘laysizlar endi?... Buning ustiga, yana qulunglarga qo‘shoqlab qizimni ham olib ketyapsizlar. Bu ishlaring ham na erlikka, na odillikka yonashadi. Juda o‘jarlik qilganlaringda, ellaringga bir gungni olib borib qo‘shasizlar. Qizim senlarga

borsa gung bo'ladi, o'z bag'rimda qolsa, hech bo'lmaganda o'z etagimda erkin nafas oladi-ku! Shuning uchun qizimni olib qaytaman!"

O'z umrida ayol kishidan bunaqa dashnom yemagan Kayki unga shunday deb javob berdi:

"Ayol zoti erkakka xotinlikka yaratilgan. Bizning dalamizda ular bundan boshqa nima ishni qoyil qilardi? Qizni sotib olsang ham xotin, tortib olsang ham xotin... Yigitlar, mana bu xotinning so'ziga quloq solib o'tirmay, qizni ham, o'zini ham olib ketaver aylilik. Teradigan tezak bizning elimizda ham topiladi!"

Xayol olib qochgan Yalpoq tog'dan qulagandek mukkayib o'tirgan ekan. U o'rnidan uchib tura kelib, jiyron qashqa otini haligi ayolga tutqaza berdi-da:

"O'z nomimdan haddim sig'ib bera oladigan xunim — mana shu ot, yanga. Tortinmay olaver. Asirlikdan bo'shalg'ing kelsa, mana bu yilqidan istaganingcha olgin-da, qayoqqa xohlasang, shu yoqqa qarab ko'chingni ort."

Biroq Yer yuzida asirlik bilan qullik yo'q el borligini haliga qadar eshitmaganman o'zim... Shuning uchun, yaxshisi, men bilan birga yura qolinglar. Qanotlarga qoqtirmayman, tumshuqliga cho'qtirmayman!" — dedi.

Shunda ayol turib:

"Mana shu yilqining qanchasi o'z'laringizga tegadi?" — deb so'rab qoldi botirdan.

"Kim biladi, balki, bittasi ham tegmas... U tomoniga ixtiyor biyda!.." — deb javob berdi Yalpoq polvon.

"Endi-chi, yilqi ham ol dema, otingni ham bermay qo'ya qol. Men sen bilan birga bora olmayman. Chunki sen ham elingga yetib olguninggacha erkli botirsan, elingga yetib borgandan keyin esa — erkingdan ayrilasan yo boyning, yo bo'lmasa biyning so'yi-li bo'lib qolasan. Botir polvonlarni endi ko'rayotganimiz yo'q-ku. Seni botir deb xizmatga buyuradi-da, meni ayol deb xizmatga buyuradi. Farqi mana shu. Biroq aslini surishtirganda, sening erkning menikidan ortiq bo'lib chiqmaydi. Shunday emasmi, bo-tir?" — dedi ayol.

Yalpoq yana ham bo'ynini egib qoldi va:

"Jiz chindan ham dala-dashning aqlsiz nodonlarimiz. Ko'zi-mataga biroq kelib turtmaguncha, hech narsani ko'rmay o'tira-beramiz. Sen mening ko'zimning pardasini ochding. Hozirgina qizimni sovg'aga olib, hayotimda picha o'yinchoq qilarkan, deb o'tirgan edim. Endi bu niyatimdan qaytdim. O'z erkim o'zimda ekanligida men ham bir odamga erk berayin. Qiz seniki. Yeldan ham erkin umr suringlar!" — dedi.

Bechoraning bo'z ko'yilagi qirq yamoq bo'lib, qo'llari qarq'a-ning panjasidek qop-qora edi! Lablari tilinib, to'rlab ketgandi. Lekin uyilgan qovog'idan, o't chaqnab turgan ko'zlaridan hayiqar edi qaragan odam. U bizlarga yalinmadi ham, shoshmadi ham, ak-shincha, qirq yigitga biylik qilib, qizini olib ketdi.

Yalpoqning oxirgi so'zi og'zida qoldi. Ona-bola biri saman otga, biri to'riq do'nanga minib, otlarini o'ynatib, yo'lga tushdi.

Ancha uzoqlashgach, ona saman qashqani taqqa to'xtatdi-da, orqasiga qarab qichqirdi:

"Kerey degan el ko'rsanglar — salom aytinglar! Yalpoq degan botir ko'rsanglar — salom aytinglar!" — dedi.

So'ng yana yo'lida davom etdi. Ayolni kuzatgan ko'yi tippa-tik turgan Yalpoq polvon bu gapni eshitib, turgan yerida gurs etib qulab tushdi. Biz endigina es-hushimizni yig'ishtirib olgandik. Nimasini aytay sizlarga, yilqilar ham qolib ketib, Yalpoqning jasa-dini elga arang yetkazib keldik..."

Jonoy polvon nuqul:

"Chirkin, o'zi ham uncha-muncha ayollardan emas ekan. Ona-larning onasi ekan" — derdi har gal.

Oytilash chol soqolini yana bir bor silab qo'ydi...

Bolalar anchadan beri jimib qolganliklarini endigina sezgan-dek, yana xonani boshlariga ko'tarib chuvullab ketishdi:

— Rasira, rasiri, raturu rariru...

QIRON QUSH QO'SHIG'I

— Shuning menga unadi.

— Unda senga atadim.

— Yoqmadi buning menga.

— Shunda ham senga atadim.

Muditi

— Beh, beh, beh!..

Ovul hayotida har kuni eshitiilib turiladigan ko'pgina so'zlar ichida ko'milib, yo'qolib ketmasin degandek, burgutchi o'zining burguti — sohibchugal qiron qushini: "beh! beh!" deb chaqirardi. Zotan, bu so'z — boshqa xalqlar tili ham emas, qush tili ham emas, balki ovul hayotida kundalikda ishlatilib kelinayotgan o'zining oddiy so'zi edi.

— Beh, beh, beh!..

Biroq qiron qush egasiga tomon qayrilmadi ham, qaramadi ham. Aksincha, qanotlarini keng yozgancha tobora yuqoriga qarab o'rlab boraverdi. Boshidan tumoq bandini sipirib olgandayoq ko'zi chalib qolgan quyonga ham qaramadi. Avvaliga to'rg'aydek buldirab qanot qoqib tikkaga ko'tarilib chiqdi-da, so'ng qanotlarini yozib yuborib, qimirlatmagan ko'yi suzib ketdi. Go'yo tog'ga borib sanchiladigan nayzadek sirg'ib borardi. Yopiray, nima ko'rdi ekan? Tulki ko'rdimikin yoki bo'rsiq ko'rdimikin? Yo bo'lmasa qashqir-pashqirga ko'zi tushdimikin? O'zi keyingi kunlarda qo'nog'ida ham juda toqatsizlanib o'tiradigan bo'lib qolgandi. Ko'ngli nimani tusayotgan ekan? Yoki o'sha xumor qilgan narsasi ko'ziga chalinib qoldimikin?..

— Beh, beh, beh!..

Burgutchi ham to'riq otni shitob bilan o'rga qarab soldi. Biroq ko'kraddan keladigan qalin qor uni uzoqqa yubormadi. To'riq ot sathi chip-chip etib, kun tug'ida yarqirab, bug'lanib yotgan qorni o'mgani bilan biroz yorib, suzib bordi-da, besh-olti marta qarq'ib, so'ng taqqa turib qoldi.

— Attang! Nahotki ayрилиboq qolganim bo'lsa! Beh, beh, beh! O'tgan kuni Erjon ovchi ikkita tulki tutib kelgandi. Ikkovi ham oldindек tovlanib turuvchi qip-qizil oltoy tulkilari edi. Erjon ovchi ikkalasini ham juda ehtiyotkorlik bilan kergiga solib, hech qayetiga xaza yetkazmay, terisini shilib olar ekan, misoli bir olovdek ko'zni qamashtirgandi. Tulkilarning qip-qizil quyuq yunglari onasidan kumushdek oppoq-oppoq tolalar ham ko'zga chalinardi. Oyoqlari esa qora oldindек yaltirab turardi. Ovchining to'rt yashar qizchasi momiqdek yumshoq tulki dumini bo'yniga o'rab o'ynay boshladi. Ikki yashar Esontoy degan o'g'ilchasi esa, menga buyruqni olib bering, deb xarxasha qilishga tushdi. Qo'y buyragi, quyon buyragini yeb o'rgangan bolaga keragi ham shu edi.

"Qutlug' bo'lsin!" qilishib, ovuldoshlari ham yig'ilishib qoldi.

— E, barakalla, uyuri bilan uch to'qqiz bo'lsin!..

— Ostonangda mol so'yilib, yeganing go'sht-yog' bo'lsin!..
Yog'-go'shtni ovchining yolg'iz o'zi yermidi? Yo'g'on cho'zilib, ingichka uziladigan bir paytda, uning uyidagi amal-taqal qilib asrab kelayotgan birozgina go'sht-yog'ini ham ovuldoshlari yeb-ichib ketishdi. Qurut-moy, choy-qand deyilgan narsalarning ham tagi ko'rjib qoldi.

Bulardan tashqari, ovul aroqni suvdek ichmaydimi, Erjon ovchining hamyoni ham bo'shab qoldi.

— Ammo Sariq qironing qushlarning xo'p podshosi-da! — deyilgan sayin erimaslikning va qult-qult etkizib aroq quymaslikning hech iloji yo'q edi!

— Shu yil Sariq qironing yigirma chog'li tulki olib berdi-yov senga, Erjon! — deyishib qo'yishardi.

— Hali yigirmaga yetganicha yo'q... — derdi Erjon qo'lini oq "mo'ysafidga" cho'zib. So'ng yana qult-qult etkizib aroq quyila boshlardi...

— O'zi, dunyoda burgutga tulki o'ldirishdan o'tadigan zavqli ermak yo'q! Shoirimiz Abay og'aning ham bir xumori shu bo'lgan-ku, axir...

"Oppoq qor, qora burgut, qizil tulki

O'xshaydi borliq ichra ko'milganga...

*Qora sochin taroqlab ikki qo'li,
Sultuv qiz dengiz ichra cho'milganga...*

— Fermaga boshliq bo'l desa bo'lmay, ovchilikning ketidan quvgan mana shu Erjonning o'zida ham Abaydan yuqqan bir narsa bor-ov, chamamda...

Yana qirrali qadahlarga "obi zamzam" quyila boshladi.

— Oh! Anovi burguting juda tobidami, deymar-da!.. Xudo xohlasa, yana bir qizil tulkini qorga qorishtirarmidi!..

Kiraverish yerdagi qo'rada — taxtadan yasalgan qo'nog'ida o'tirgan sohibchanga qiron qushning yana tipirchilab tovush chiqargani eshitildi. Odatda, u har gal kun botgandan keyin qo'noqda o'tirgan ko'yi, mizg'ishga tushardi va takabbur bo'yni har zamon-har zamonda bir qalqib-qalqib ham ketardi. Ammo bugun ikki kundan beri u uyquni tark etgandi. Chamasi, ko'nglidagidek yozilib harakat qilolmay, qattiq zerikkanga o'xshardi. Balki, o'zi tutgan tulkining go'shtini xumor qilayotgandir?.. Balki, tutqizmay ketgan ikkinchi tulkidan alamini ololmay qolgani uchun izza bo'lib, qahrga kirayotgandir?.. Har qalay, bugun ikki kundan buyon uning tinchligi buzilgan edi. U — uchishni istardi, u — bepayon dalalarda kezishni istardi, u — osmonni istardi. Burgut qanotlari bilan taxta qo'noqni shart-shurt urib, uni bu yerda ushlab turgan qayish bandlarni cho'yan tumshug'i bilan cho'qib, yulib-yulib tashlardi. Uning qalbidagi ozodlik sog'inchi, ozodlik qo'shig'i, osmon qo'shig'i butun jismini o'rtab, tobora ulg'ayib borardi.

Biroq Erjon ovchi qiron sirini anglolmadi. Balki, o'zicha, tobiga kelib qolgan qush ovga solishimni so'rayabdi, deb o'yladi. Hatto u mehmonlar tarqalgandan keyin, xotini Gulbolaga:

— Esontoyni o'tmiga olib borib yotqizsang-chi! O'zing ham yotsang-chi!.. — degan paytida ham qiron qushning zorini xatoligiga keltirmagandi!..

* * *

Shundan keyin Erjon ovchi o'zining jaydari to'riq otiga bir kundan dam berib, yana ovga chiqib ketgandi. Ayni tush chog'i allaqanday bir buta tagidan quyon ko'tarildi. Ko'tarildi-yu, to'rt-besh marta

ketgan bo'lib, so'ng qayoqqa qarab qocharini bilmay, taqqa bo'stagancha, biroz vaqt hayallab turib qoldi... Erjon ovchi darhol soatining: bugun bir-ikkita quyon tutib kelmasangiz, qozonimiz esilmay qoladi, degan gapini esladi. Keyin chap qo'li bilan o'ng qo'lida o'tirgan qushining tumoq bandini sipirib oldi-da, o'zini quyonga qarata sermab yubordi. Lekin burgut quyonga qaramadi. Akalicha, qanotlarini keng yoyib, tobora yuqorilayverdi.

— Yopiray, bu nimani ko'rdiykin? Kiyik ko'rdimikin yoki qashqir ko'rdimikin?

Agar shunday bo'lsa ham, baribir, aylanib, quyilib kelib, chovut qiladigan kezi bo'lib qoldi. Biroq u hech quyilay demasdi. Akalicha, beg'ubor zangori osmon bo'ylab, o'ynab uchib borardi. Goho osmon qo'riga qarab ko'tarilsa, goho quyiga qarab sho'ng'ib uchardi. Go'yo, uvushib qolgan badanlarini yozib, yayratib, uchishni xumor qilgan qanotlarini keng yoyib, ko'k yuzini tilimlab yurgandek ko'rinar edi. Goho qanotlarini qayirib, yerga qarab sho'ng'ib qolardi-da, keyin yana shamolga qarshi shartta burilib, yuqorilab ketardi. Bunday paytlarda uning qanotlari ostidan quyosh shu'lasi jilovlanib ko'rinar edi.

— Beh, beh, beh!..

Yo'q, qiron qush qayrilar emasdi. Uni ulug' hayot to'liqini — ulkan tirikchilik to'liqini haydab olib ketardi. Uning ko'zlari o'zi sog'inib kutgan narsasini hali bo'ynidan tumoq bandi olinmasdan ilgariyoq ilg'agan edi. Uni bunga chinidek beg'ubor, musaffo osmon, bulutsiz ochiq kun aytgandi. Uni bunga osmon qo'ridan zuvullab kesib o'tgan va sharpsi buning qulog'iga kelib yetgan qanot tovushlarining o'zi aytgandi. Uni bunga aslida qiron bo'lib yaratilgan va bir kun kelib baribir talpintirmay qo'ymaydigan yuragi aytgandi. Uni bunga tutqun bo'lgan besh yashar qalbi to'rida o'tolgan qiziq qoni aytgan edi!..

Qiron qush orzusini endi Erjon ovchining o'zi ham payqab yetgan va tushungan edi. O'tkir ovchi ko'zlarigina ilg'ay oladigan osmon qo'rida ikkita burgut sayr qilib aylanib yurishardi. Uchinchi bir katta qora burgut esa ulardan olisroqdan aylanib uchib, qo'sh burgut sayrining nima bilan tugallanishini kuzatib yurgandek tuyulardi. Bir vaqtlar kurashga o'zi tushib yurgan bu qari burgut,

qo'sh burgut sayriga qiziqib-qiziqmay, ulardan sekinroq suzib yurardi, ulardan quyiroq suzib yurardi.

Sayrning yaqindagina boshlaganini uzoqdan qiziqib yotgan Sariq qiron, hadeganda qo'sh burgut sayriga qo'shilib ketaverdidi. Aksincha, qo'sh burgut ikki qarama-qarshi tomonga ajralib ketib, so'ng yana bir-birlari tomon yaqinlashib uchib kelishar ekan, oraliqlari juda yaqin qolgan bir paytdagina, Sariq qiron ularning tepasidan sho'ng'ib kelib, zuvullaganicha nari o'tib, olislab ketdi. Sayrdagi qo'sh qiron guvullab uchib kelib, zuvullab o'tib ketgan bu qironning ketidan o'zlaricha noiloj qarab qolishdi. "Zap kuchiga to'lgan, takabbur burgut ekan! Epkinini qara-ya!.. Oyoqlaridagi chuyaygan narsasi nima ekan?.. Yana o'sha chuyaygan narsalari uchida yaltiragan narsalari ham bor!.."

Burgutlar osmonda uzoq vaqt sayr etishadi. Bu ulkan sayr yana ham uzoqqa cho'zilishi turgan gap, albatta. Bo'lajak ona burgut bo'lajak ota burgutning butun xislatlarini to'la anglab yetmaganicha, hech qachon uni o'z qoshiga yo'latmaydi. Ayniqsa, bo'lajak ota burgutning gavdasi kichkina bo'lib, buning ustiga, yana o'zi ham shunchaki ko'ngil hushi uchun yaqinlashishni istab uchib yurgan bo'lsa, bo'lajak ona burgut uni sayr etib uchishib yurib, yonboshga kelgan paytda qarsillatib tepib yuboradi. Agar shu payt u bilan uchishib yurgan jaydari erkak burgut o'ziga sal ehtiyot bo'lmasa, qalpoqdek uchib ketib, qora yerga kelib tushadi va pachoq-pachog'i chiqib ketadi.

Ammo, bu o'rinda, bo'lajak ona burgut — uyabosar qiron qush — osmondagi sayrini to'xtatmadi. Juda qiziqib ketgan ekan, shekilli, ko'kragini yelga tutib, kun tig'ida ko'kka qarab o'rilib bordida, keyin yana orqasiga qaytdi. Bo'lajak tasqara ota qiron esa juda hiylakor ekan, shekilli, ona qiron ketidan ko'kka o'rilmay, quyiroqda aylanib uchib yuraverdi. Ona qiron tepadan quyiga sho'ng'ir ekan, bu gal uning tepasidan guvullab uchib o'tib ketdi...

Ona qiron tong otar payti tog' etaklarini qoplab o'sib yotgan qalin qarag'ayzor ichidan ko'tarilar ekan, daf'atan duch kelgan bu erkak burgut ko'ziga uncha yomon ko'rilmagandi. Ular avvaliga uncha yuqori ko'tarilishmay, pastroqda o'ynab uchib yurishdi. Bir-biri bilan yaqinroqdan tanishgan sayin birga yuqorilab borib,

heali — ayni tush chog'ida ko'k gumbazning qir uchida — naq osmon sovub tagida uchib yurishardi. Bular yuqorilagan sayin osmon borardi. Agar tasqara erkak burgut bu o'yinda chekinadigan bo'lsa — bu, albatta, ona burgutning ko'nglini qoldiradigan qiliq bo'lardi. Lekin hozircha ularning boshlariga bunday fikr kelganicha yo'q edi. Shuning uchun ham uyabosar ona burgut uzab ketib, yana qaytib kelgandi uning qoshiga. Ammo bu gal tasqara erkak burgut ham juda yuqorilab uchib borardi. Shu sababdan ikkalasi ham xuddi bir-biri bilan so'qishadigandek, xuddi bir-biri bilan qanotlashib qolishadigandek, ikki yoqdan bir-biriga tomon epkin bilan uchib kelishib, yana ikki yoqqa ayrilishib ketishardi. Tasqara erkak burgutning hunari ko'pga o'xshardi. To'g'ri keldi degunchayocq yopisha qolgisi kelib uchayotgani sezilib turardi. Ammo mag'rur uyabosar uni hech o'z yoniga yo'latishni istamasdi.

Burgut zotiga keng dunyo ba'zan kenglik qilsa, ba'zan torlik qiladi. Ularning do'stlari ko'p bo'lgani kabi, dushmanlari ham kam bo'lmaydi. Osiyoning sovuq ayoziga, Afrikaning jazirama issig'iga bardosh beta oladigan nasl kerak ularga. Tutishga oson bo'lishi uchun arzimaydigan jon-jonivorlar ketidan inini poylab yurmaydigan nasl kerak ularga. Burgut zoti bularni o'ylamasdanocq shunday qiladi. Bu — tabiat mo'jizasi, albatta.

Sariq qiron kechgacha burgutlar sayriga aralashmay yurdi. U, ahyon-ahyonda allaqayoqlardan zuvullab uchib kelib qolardi-da, yana tezlikda oqib o'tib ketib qolardi. Bir-ikki marta u bularning atrofida o'zicha sayr qilib, aylanib uchib yurgan qari burgut yoniga ham yo'lgandek bo'ldi. Go'yo salom berib borgandek, uning bilan urishmay-talashmay, bo'y sinashib, qatorlashib uchishdi.

— Qanot qoqishingizda hech ma'no yo'q. Nega chetlab uchib yuribsiz, oqsoqol?..

— Tengqur-tengdosh bo'lgan sizlarning o'yinlaringizni tomosha qilyapman, o'yilaringizni chamalab ko'ryapman... Balandlab uch salaringiz — qanday quvonchli, pastlab uch salaringiz — o'zilaringiz o'kinarsizlar... Men bir ham quvonib ko'rgan, ham o'kinib ko'rgan og'alaringizman. Shuning uchun qiziqib ham kelyapman, qisilib ham kelyapman sizlarning o'yinlaringizni ko'rib... O'zim uchib yeta olmagan yuksakliklarga sizlarning uchib chiqishlaringizni tilayman.

O'zlarinig osmonda, o'ylaringiz tubanda yurgandan, o'zlarinig tubanda, o'ylaringiz osmonda yursin, chirog'im. Yuksalik degan nima-yu, tubanlik degan nima — shunda tushunasizlar...

Qironlar milijing bo'lmasligi kerak. Ikki qiron bir-birlarining o'ylab kelayotgan bu o'ylarini so'zlashmayoq tushunib yetishdi.

Bu paytda moda qiron bilan sayrda yurgan tasqara erkak qiron, negadir takabburlik qilib, yangi hunar ko'rsata boshladi. U, aftidan, uyabosar qironiga qandaydir mardlik ko'rsatgisi kelib, chovut solish maqsadida tubanda aylanib yurgan qari burgutga qarab shitob bilan sho'ng'ib ketdi. Quvib yubormoqchimi, yulib tashlamoqchimi — ishqilib, unga tomon tik qadalib, to'nib kela boshladi. Goho qanotlarini keng yozib yuborsa, goho yig'ishtirib olib, yoki tez-tez serpiib kelardi. Avvaliga tasqara burgut qari burgut tepasida aylanib-aylanib, so'ngra esa, payt topib, tikka uning ustiga sho'ng'idi. Ilojini topsa-yu, tappa bossa!..

Biroq bosa olmadi. Qari burgut ko'zlarini bir olaytirib, o'rim-o'rim cho'yan changallarini jangga hozirlab, oldinga ko'tarar ekan, olishib qolsa qo'yib yubormasdek vajohatli ko'rinardi. U bo'yin-buog'ini orqaga tashlab, temir nayzalarini oldinga cho'za boshladi. Changallari o'tkir, boldirlari miqti ekan uning. Uning ustiga, to'nib kelgan tasqara burgut, iloj qilolmay, o'zi chap berib, zuvullab o'tib ketdi.

Holbuki, uyabosar burgut uni o'limga yo'llamagan edi. Shuningdek, u hozirgidek sayr ustida qon to'kilishini ham tilamagan-di. Aksincha, ular o'rtasidagi — burgutlar o'rtasidagi bu o'yin erlik fazilati, mardlik fazilatini sinaydigan o'yin edi. Binobarin, bu o'yinda qaysi erkak burgut qanchalik erlik, qanchalik mirzalik, qanchalik kenglik va qanchalik chidamlilik ko'rsatsa, bo'lajak ona burgut shunga moyillik bildirib, shuni tanlaydi.

Tasqaraning xulqini yoqtirmay qolgan uyabosar indamagan ko'yi undan yuz o'girib, tog' cho'qqilarini yonlagancha, kun chiqish tomon suzib ketdi...

"O'z yo'li bilan uchib yurgan qari burgutga tixirlik qilib nima qilarkin? Tixirlik qilganga yarasha ko'rsatgan erliging qaysi bo'ldi? Yaqinlab borib, o'zing chap berib qochib qolganingmi?.."

— Rahmat, tengdosh, sog' bo'ling...

Uyabosar chaqqon ham uchqur qush ekan. U qanotlarini erkin arimab, simobdek bemaol oqib borardi. Tasqara unga yetib olish uchun qanotlarini tez-tez qoqa boshladi. Ikkovi kun bo'yi osmon tagiga bir ko'tarilib olguncha, bir-biriga yaqin atrofdan aylanishib, qiyomatmay uchishib yurishardi. Endi esa uyabosar erkak qushni ushoq masofaga uchishida sinamoqchidek bo'lardi. Go'yo unga bu ham sinashishning bir turidek ko'rinardi. Tepa sochlariga qirov lib, kumushrang tusga kirgan moda burgut qarshi oldidan urib turgan sovuq shamolga ham ahamiyat bermay, uzoqni ko'zlab uchib borardi.

Tasqara xiyla yergacha ketidan uchib bordi-da, keyin sekin-as-ta ortda qolib keta boshladi. Makkor qizning dam o'ng tomoniga, dam chap tomoniga o'tib, xushomad qilaverish ham dunyoning azobi ekan bir — jonga ham tegib ketdi. Ona burgutning muncha ham kuchga to'lgan payti bo'lmas! Ketidan quvib yetolmaysan-a, hech... Xap senimi, mayli, ertaga ko'ramiz... Osmonda sayr qilib yurib, duch kelib qolgan chog'ingda bir adabingni berib o'tmaganimni ko'rarsan!.. Nayzadek sanchilganim bo'lsin!.. Yopiray, anovi qalpanglab uchib kelayotgan kim bo'ldi ekan? Kim bo'lisa ham — oq bosh, qari qushga o'xshaydi... Ey Tangrim, ishqilib, yurtning keti men emas ekanman-ku...

Uyabosar anchadan buyon yolg'iz oqib kelardi. Bir vaqt borib qarasa, qanotlarini yeldeq guvullatib orqasidan boshqa bir Sariq qiron quvib kelib qolibdi. Ular qatorlashgach:

— Esonmisiz, xonim!.. — deb so'rashdi Sariq qiron.

— Shukur...

Endi ikkovi qatorlashib uchib kelishardi. Ikkovining ham tepa sochlariga qirov inib, kumushrang tusga kirishgandi. Ikkovining ham qanot qoqishlari, uchqurligi tengdek ko'rinardi.

— Oyoqlaringizdagi nima?

— Tumoq bandlari bular.

— Uchidagi yaltiraganlari nimasi?

— Jez baldoqlar ular.

Yonma-yon uchishib kelishayotgan qo'sh burgut bir-birlari bilan shu so'zlarni aytib gaplashishgandek, bir-biriga ko'z qirlarini tashlashib, ko'z urishtirib olishdi-da, uchishishda davom etishdi.

Qayerga borishadi, qayerga qo'nishadi — go'yo buni bir-biridan so'rashmasa ham bilishadigandek, gaplashmay uchishib kelishardi. Bundoq razm solib qarasha, ikkovining qanot qoqishlari ham, quloch ochishlari ham, epkinlari ham birdek ko'rinardi. Ikkala burgutning to'rtala qanotidan chiqayotgan un ham xuddi jo'bo'lib aytilayotgan kuy kabi bir xilda eshitilardi. Sovuq osmondagi o'nganlari bilan kesib, qanotlari bilan savalab uchishar ekan, ikkalasi ham buni pisand qilmay borishayotgandek tuyulardi. Go'yo osmon tagida aylanib uchishish xumori, go'yo ko'krakni bir shabadalatish xumori ushaladigan uzoq sayr endi boshlangandek edi ularga. Ularning bu uchishlarida shamol hasad qilsa arzigudek epkin, toshqin hasad qilsa arzigudek tezlik bor edi...

Kun botar payti ikkalasi ham yo'g'on-yo'g'on butoqlari tarvaqaylab o'sib yotgan keksa bir qarag'ayga kelib qo'nishdi. Ular bu qarag'ayga tog'yonbag'irlarini qoplay o'sib yotgan qalin qarag'ayzorlar ustidan kezib, tanlab kelib qo'nishgan edi. Mana, ikkalasi ham bir-biriga ro'baro' qo'nib o'tirishibdi. Hushyor va tek qo'nib o'tirishibdi.

— Mana shu qarag'ay ustiga uya qursak qanday bo'larkin? — deb so'radi Sariq qiron uyabosar qirondan.

— Men uyani siz bilan birga qurishimni qayerdan bildingiz?.. Qiziq ekansiz-ku juda?..

— Mana bu bir-biriga ayqashib o'sgan uchta yo'g'on butoq ustiga o'n-o'n beshta yosh novdani qayirib olib kelib, ayqashitirib-uyqashitirib to'shasak, juda mustahkam bir uya bo'lardi-da... Undan tashqari, biz qo'ngan mana shu qarag'ayning tepa tomondagi shox-shabbalari, novda-nihollari ham qalinroq, quyuproq ko'rinadi. Yomg'ir-sochin kezlari bola-chaqaga panaroq joy ham kerak-ku, axir... Shuningdek, ko'zdan ham ovloqroq bo'larmidi deyman-da?..

— Mehningiz zoye ketib yurmasin, tag'in... Axir, men sizga hech narsa deganimcha yo'q-ku, hali.

— Unisini keyin ko'raverarmiz...

— Qo'ying-chi, juda qiziq ekansiz-ku...

Bir vaqt borib, keyinda qolib ketgan tasqara ham yetib kelib qoldi. Kunduz kungi umidvor bo'lib yurgan hafsalasi hali ham

o'ramagan ekan, shekilli, u hamon shu umidda uyabosarga yaqinroq yerga qo'nmoqchi edi, ammo uyabosar yoqtirmagandek bir sikkilib qo'ydi. Chamasi, nariroqqa qo'n, degandek bo'ldi. Uya-bosar bilan bu yerga birga uchishib kelib, halitdan buyon u bilan subhbatlashib o'tirgan Sariq qiron ham, ko'zlaridan o't sochib, bir o'qrayib qarab qo'ydi. Tasqara nima qilarini bilmay, shoshib qoldi. Nihoyat, qo'panglab u shoxdan bu shoxga tebranib ko'chib-qo'nib yurib, oxiri bulardan yuqoriroqdagi bir shoxga qo'ngan bo'ldi. Keyin, yuqoriroqqa qo'nib olgach, o'pkasini biroz bosib olib, hatto gerdaymoqqa boshladi. Shunchaki joy berilganiga qaramay, uyalmasdan, birato'la o'tirib olgisi ham bor edi uning ko'nglida. Ehtimol, o'zicha, yarashib ketdim, deb o'ylayotgandir. Balki, shu sababdan ham bemalol gerdayib o'tirgandir?..

Chindan ham u:

— E-e, men bir ish bilan aylanishib qolib ketdim. Bo'lmasa, sendan qolardim, deysanmi! — degisi kelgandek, uyabosarga ko'z qiri bilan qarab-qarab qo'yardi.

Qarag'ayzor ichlarini epkini bilan chayqab, qari qiron ham yetib kelib qoldi. Uning yoshlar bilan nima ishi bor deysiz, o'ziga qulayroq bir joyni topdi-da, shu yerga qo'noqlay boshladi. Xuddi bir belidan belbog'ini, boshidan tumog'ini yechib tashlab, xiyla yengillashgan keksa odamdek, qari burgut avvaliga og'ir tanasining birdan qo'ngandagi zalvari bilan qarag'ay shoxlarini qayirib tushdi-da, keyin sal yengil tortib, joylashibroq o'tirib oldi.

Endi to'rtala burgut ham jim o'tirishardi. Daraxt tepasi qorong'i tun — burgutlar uchun hazil-huzul qilishadigan joy ham, payt ham emas edi, albatta. Bunga o'rin ham yo'q edi hozir. Aksincha, ularning o'ynashishi qorong'i tun emas, yorug' kun, ayni tush payti, daraxt tepasi emas, balki keng osmon osti kerak bo'lardi. Kun bo'yi tinim bilmay qizishgan tanalar amalsiz o'tom olishga kirishib, toshdek qota boshladi.

* * *

Ertalab barvaqt uyg'onib, qari burgut jo'nadi. Quruq changal-lari qichishgandek ko'rinardi uning. Ehtimol, baxtiga quyonmi yoki boshqa biron-bir sug'urmi chiqib qolgandir oldidan...

— Uchmaymizmi? — deb so'radi Sariq qiron uyabosardan va yelkalarini qo'zg'ab silkinib qo'ydi.

— Mayli, uchaylik!

Uyabosar bir silkinib ko'tarilib jo'nadi.

Ertalabgacha uvushib qolgan tanalari yozilishib olguncha, uch burgut yonma-yon uchib borishdi. Bo'yini uzun uyabosar o'rinda uchib borardi. Ikki yog'ida ikki erkak qiron. Uyabosarning ko'ngli butunlay sariq qironni xohlagan bo'lsa-da, lekin tasqarani ham quvib yubormadi. Aksincha, o'z atrofida yigitlarning bunday aylanishib yurishlarini chakki ko'rmadi, shekilli, ko'z qiri bilan ikkala erkak qironga ham birdek razm solib boraverdi.

Kunpeshin paytiga yaqinlashganda qiron qushlar tog' atrofidan uzoqlashib, keng va yoyiq dalalar tepasidan uchib kelishardi. Yon atrofida xavf-xatar yashiringandek, hech narsa payqalmasdi. "Qani, boshladik bo'lmasa uchishni!" degandek, uyabosar burgut osmonga tik ko'tarila boshladi. Qanotlarining osti kun tig'ida yarq-yurq qilib, ko'zni qamashtirishga tushdi. Sariq qiron bilan tasqara ham uning ortidan ergashishdi. Uyabosar sovuq osmonga hamon sanchila qadolib, tik ko'tarilishda davom etardi. Avvaliga biroz keyinda qolib borgan Sariq qiron uyabosarni quvib yetib, uning oldiga tushib oldi. Uyabosar qush ancha-muncha vaqtgacha o'yinga aralashmay qo'ydi. Erkak qushlar ikki yog'idan kelib o'nashishga chorlasa ham ahamiyat bermadi. Goho tikkaga ko'tarilib, goho quyiga sho'ng'ib boraverdi.

— O'zlarinigiz biroz o'ynasalarinigiz-chi, axir...

Badanlari qizishib qolgan erkak qironlar o'zlari uchishib ketishdi. Sariq qiron uzoq-uzoqlarga uchib ketib, keng doira hosil qilib aylanib qaytardi. Biroq hadiskor tasqara esa uzoqlab ketmay, yaqindan o'ralashib, aylanishib uchardi. Changalga changal ilinar yerga kelganda esa darhol chap berib, sirg'alib o'tib ketardi. Dam pastga qarab sho'ng'ib, burilib ketar, dam uyabosarning ustidan bosmoqchi bo'lib intilar edi u.

O'yinda qanday hadis ishlatsang ham ayb emas. Biroq top-gan hadisingning hammasi ham yakkash bos solishga qaratilgan bo'lsa — buni qiron zoti ham ko'p yoqtirmaydi. Tasqaraning bu ishlariga Sariq qironning jahli chiqqa boshladi. U tasqaran-

ing yaqinroq kelishini poylab turib chap berib o'tib ketmoqchi bo'layotgan bir paytda, qanotlarini yig'ishtirib kelib, o'ng yelkasi bilan shartta so'qib ketdi. So'qqanda ham naq tepasidan so'qdi. Yelkaları ham misoli bir cho'yandek ekan, shekilli, tasqaraning chap yoq qanoti naq uzilib ketgudek bo'ldi. Tasqara qanotlarini so'ng'a qimirlatgancha, noiloj tubanlab ketdi. Va quyilib kelib-kelib, allaqayerdadir bir yerda, to'nka ustida sug'ur yeb o'tirgan qari burgut yaqiniga kelib qo'ndi:

— Yeb o'tirgan go'shtingdan bir yaproq oshatib yubor-chi, bo'kam!...

Tasqaraning qorasi o'chgandan keyin Sariq qiron o'yinga o'zi tushib ketdi. Burgut zoti yashirinishni ham, yolg'on gap, yaltoqlanishni ham, o'g'rincha qarash, kundosh ko'zlarini ham yoqtirmaydi. Chunki bu o'yinga hech qanday to'sqinlik qilish kerak emas ularcha. Chunki bu o'yin — nasl o'yini, chunki bu kuy — nasl kuyidir. Bu o'yinni o'ynash uchun keng osmon kerak. Shuningdek, yana, bu o'yinda quvona bilar keng yurak kerak!..

Sariq qiron hamon jahldan tushmay, qovog'i osilgancha uchib ketardi. Uyabosar unga yaqinlab kelib, noz bilan burilib ketdi. Buni ko'rib erkak qiron ham darhol jahldan tushib, chiroyi ochila boshladi. Endi ikkovi ikki yoqdan bir-birlari tomon uchishib kelib, so'ng bir tomonga qarab to'shni to'shga tegizgudek yonma-yon ucha boshlashdi. Goh osmonga ko'tarilib, goh quyiga sho'ng'ishib birga ko'ngil yozishga tushishdi... Birida onalik kuyi, birida otalik xumori — ikkovi kechgacha sayr qilib yurishdi.

Kun botish oldida ular yana kechagi qarag'ay tepasiga kelib qo'nishar ekanlar, bittasi o'zining ota bo'lib qolganini, bittasi o'zining ona bo'lib qolganini tushunishdi.

Uyani qanday solish, qayerga solish to'g'risida ham kelish-movchilik bo'lmadi.

* * *

Bahor fasli tuxumdan yorib chiqqan ikkita sariq jo'ja hozir ajabtovur-ajabtovur qush bo'lib yetishib, uchirma bo'lib qolishgan edi. Ota-ona tun-u kun shularning g'amida bo'lardi.

1 "Otaxon" ma'nosida.

Avvaliga ular mushtdek-mushtdek ko'k-chipor tuxumlar edi. Ona burgut butun mehri va bardoshini shularga berib, qirg'och qimir etmay, kurk bo'lib bosib yotdi. Ukkidek sap-sariq, sap-sariq ikkita jo'ja tuxumdan chiqqandan keyingina ona burgut birinchi bor o'rnidan qo'zg'alib, qalpanglab uchib borib, arqon bo'yi orqasiga qo'ndi. Bechoraning eti borib ustixoniga yopishib, juda ortiqcha ketibdi. Qanotlarini ham zo'rg'a qimirlatar edi. Sariq qiron uning muttasil ovqat yetkazib berib tursa ham, juda o'zini oldirib qo'yibdi.

Axir, boshdagi uch kunlik o'yinlarining boyisi ham, oqibat natijada shundan kutilgan armonlari ham mana shu ikkita palapon emasmi! Uyabosar o'zini ancha oldirib qo'ygani uchun achinmasdi. Mana, bugun u qanotlarini yozib oladi. Tong payti muzdek sovg'a cho'milib ham qaytadi. Tuxum bosib o'tirgan paytlarida, ko'pincha, tumshug'ini ho'llab olardi. Endi esa u kunlar orqaba qolib ketgandi.

Jo'jalar ancha songa kirib qolgandi. Quyvon iliklarini bema'lal yuta olishar edi. Tulkining go'shtini, hatto talashib ham qolishardi. O'pka bilan jigar to'g'ri kelib qolsa, qonini so'rmoqqa talashishib, bir-biri bilan ba'zan cho'qishib-tepkilashib ham qolishardi. Faqat ota qironning epkinidagina hayiqishar edi ular.

Ona burgut uzoq vaqt davomida tuxum bosib o'tirar ekan, Sariq qironning o'zidan ham ancha yotsirab qolgandi. Hatto bag'ridagi ikkita tuxumini ham undan qizg'anar edi. Mana, endi palaponlari ulg'ayishib qolgandan keyin esa yana qayta boshdan uning otalik mehri-muhabbati bilan g'amxo'rlikiga muhtojlik sezib, er-xotinlik hissiyoti yangidan uyg'ongandek bo'ldi. Cho'ponning to'rt qanot uyidek keladigan keng-mo'l uyaning bir chekkasida ota burgut, bir chekkasida ona burgut qo'noqlab chiqishardi. Uchishni istab, o'yinqaroqlik qilib uya chekkasiga kelib qolgan palaponlarini tumshuqlari va qanotlari bilan turtib, uya o'rtasiga surib qo'yishardi. Koshki edi, tezroq ulg'ayib, tezroq ucha qolishsa... Koshki edi tezroq dunyoni tanishsa... Quyvonlarni ola olmay izza bo'lsa, g'azabga to'lsa... Ayoq kelib qolguncha ergashib uchishib, uni-buni o'rgansa... Uyada yotib yeyayotgan yemishlarining yugurib yurgan to'rt oyoqli jonivorlar ekanligini ko'rsa, bilsa... Ne-ne marta olishib-yulishishga to'g'ri kelishlarini tushunib yetishsa!..

Ota-ona qorli-bo'ronli dovul kelishini kutardi. Qora bo'ron quturib turgan ana shunday bir paytda, uyalarda tiqilishib o'tirgan bolalarini yelkalari bilan turtib-turtib, bo'ron qo'yniga itarib yuborishsa... Bolalari erksiz ravishda qattiq-qattiq, tez-tez qanot qoqa boahlasa... Bunday ro'parangdan urib turgan qattiq shamol qanot qoqqan sayin yuqoriga ko'tarib jo'nashini ko'rsa... Shunda ularning bolalari qo'rqib chiyillasharmi ekan, yoki quvonib qiyqirib aharmikan!.. Ota-ona shularni kutardi. Kutganda ham intizorlik bilan quvonib kutardi. Shunda ularning olti oydan buyon kutib kelayotgan umid-orzulari bir yo'la ushalgan bo'lardi. Shunda ularning olti oydan buyon tortib kelayotgan hamma azob-uqubatlarining to'la hissasi chiqardi.

Mana, kuzgi qora sovuqlar ham ko'p kuttirmay yetib keldi. Ona burgut qancha oshiqmasin, ota burgut qor bo'roni, dovulning borxo kuchayishini kutdi. Axir, qalin o'rmon bag'ridagi kekasa, irigan-chirigan dov-daraxtlarni tag-tugi bilan qo'porib tashlab, epkini teggan, nafasiga ilingan narsani supurib olib ketadigan va quyun qilib ko'tarib o'ynaydigan dovul payti kelishini, bo'ron qo'zg'alishini ko'rish ham katta armon-ku bir! Kiroyi chiniqish kerak bo'lsa, nasling shunday dovulda chiniqsin-da!..

Sariq qiron kechadan buyon ona burgutni uyadan chetlatib tashlab, ikki bolasiga hech tinim berishni istamasdi. U bolalarini ni uya ichida aylantira quvib, beixtiyor qanot qoqishga majbur qilardi. Erksiz ravishda shox-butalarga qo'nishni o'rgatardi. Tosh tirnoqlar uyaning yo'g'on butoqlarini butunlay tirnab tashlagandi. Qulab ketmaslik uchun, tirnoqlarni qattiq botirib, bilaklarining chigilini yechish kerak bo'lardi. Buning uchun esa tez-tez qanot qoqib, chiniqib borish kerak edi.

Ikkinchi kun qo'zg'algan dovul avji kuchga mingan chog'ida tong otib qolgan payt edi. Ota burgut uyadan nariroqdagi qarag'ay tepasida qo'noqlab kelayotgan ona burgutni tovush chiqarib chaqirib qoldi.

— Ha, bolalarni uchirmoqchimisiz? — deb so'radi ona burgut.

— Kel, uchiraylik!

Avvalo, ota-ona o'zlarini ayana uchib, qanotlarini biroq yozib olishdi-da, so'ng uyalarga qayta kelib, qo'nib-qo'nmay


qo'ng'ir tusga kirgan bolalarini shamolga qarshi tomonga qarab itarib-itarib yuborishdi. Lekin bu turtkilar odatdagi turtkilardan emas, balki aksincha, zildek og'ir, temirdek qattiq tegadigan zalvorli turtkilar edi. Burgut bolalari ham uylariga ortiq yo'ni shishmadi. Changallarini bag'riga qisib olishib, qanotlarini toz toz qoqishga tushib, ko'tarila boshlashdi. Qo'rqib chiyillashmadi ham. Quvonib qiyqirishmadi ham. Faqat ko'zlaridan allaqanday o'ti sochib uchib borishardi. Bu o't xuddi otalarining ko'zlaridan chiqqanaydigan o'tga o'xshab ketardi. Avvaliga tapir-tupir qilib qoqllay otgan qanotlari ham, endi bir me'yorga tushib qolgandi. Quloqlari, hatto dovul tovushini ham anglay boshlagandi. Ahyon-ahyonda ular qanotlarini qoqmay, gavdalarini dovulga tutib, qalqib-qalqib ham olishardi. Oradan birmuncha fursat o'tgandan keyin esa qo'ng'ir bolalardan bittasi ota-onasi tomon ko'z tashlab, qiyqirib tovush chiqarib qoldi. Keyin ikkinchisi ham shunday qildi. Bu — ularning quvonishib qiyqirgan qiyqiriqlari edi, albatta.

— Ehha!.. Uchish degan qanday yaxshi bo'larkan! Nega endi biz shuncha vaqtdan buyon uchmay o'tirgan ekanmiz? Dunyo degan muncha keng ekan! Qanday qilib bizlar shunday tor uyaga sig'ishib keldik? Dovul deganlari ham qanday yaxshi bo'larkan! Ucha olmaydigan narsalarni o'zi uchirib olib ketar ekan! Bizlar bo'lsak qachondan buyon uyamizni iviristib o'tiribmiz. Dovul deganlari bizni osmonga ko'tarib olib chiqdi. Ehtimol, bundan keyin ham shunday ko'tarilaversak kerak. Armon degan shu emasmi, quvonch degan shu emasmi!..

Halitdan buyon palaponlarining ostidan uchishib kelishayotgan ota burgut bilan ona burgut qatorlashib uchishish maqsadida, ularning yonlariga kelishdi. Chunki endi xavf-xatar yo'qolgan, bolalarining ucha olmay qulab tushish qo'rqinchi barham yegan edi.

Dovul payti uchirgan palaponlari bilan yonma-yon birga uchishib kelishayotgan ota-ona qalbida quvonchdan o'zga his-tuyg'u qolmagandek ko'rinar edi.

ABISH KEKILBAYEV



INTIHO

(roman)

Birinchi bo'lim

QIZIL OLMA

I

Otlar tuyog'idan qum o'yiladi, hosil bo'lgan yumaloq chuqur chalar ko'z ochib yumguncha yana to'ladi. Oldinda borayotgan lashkarboshilarning, ularning orqasidan ergashgan askarlarning otlaridan qolayotgan izlar bir lahzada g'oyib bo'ladi. Uchayotgan qum beqarorlikning qudratli kuchini bildirmoqchi bo'lgandek, har qanday izni bir onda ko'mib yuboradi.

Hukmdor bepoyon sahroni kezayotganidan buyon bevafo qumning mana shunday beqaror atvoridan ehtiyot bo'lmoqlikni nechog'lik istasa-da, lekin qutulolmayotgan edi. Sarg'ish aravaning ichida o'tirib, uchayotgan qumga yolini tutib, changga belanib yo'rg'alayotgan otlarning bo'g'i dukurini tinglash jonga tegdi. Shildiroq pardani bir chekkaga surib, tashqariga qarasa, faqat bir manzara ko'zga tashlanaveradi.

Bahor endi kelgan bo'lsa ham, hamma yoq quruq edi. Qishda qor ko'p yog'maganligidan sahro aftodahol holatda. Bu ko'zga salbiy ta'sir etadi. Cho'ldagi butalarning hali kurtagi ko'rinmaydi, tayoq holicha turibdi. Atrof go'yo mudrab yotardi. Qum barxanlari ham, undagi mayda-chuyda butalar ham hayot nishonini bilmaydigandek, umuman hayot yo'qdek, yerga yastanib yotib olgan.

Toshbaqaning dovuli yaqinda bo'lib o'tgandi-ku! Besh kun davomida ro'paradan tandirning taftidek issiq oqim o'z iskanjasiga oldi. Allaqanday badjahil jilovsiz kuch qora yerni chilparchin qilib, qumdek maydalab, quyunda aylantirdi, elab kepagini uchirdi, yer va ko'kni tugal to'zonga beladi. U tik qarashga imkon bermas, behisob lashkarlar bir-birini ko'rolmasdan yerga qarab qolishgandi. Butun dunyoni go'yo yovuz kuchlar qoplab olgan edi. Osmon

qoni, yer qani) — hech nimani bilib bo'lmاسdi... Quloqda faqat do'zning vahshiyona chinqirig'i... Kengliklarga tanho hokim bo'lib olgan, shodon sayr qilayotgan chang-to'zon... Xuddi dunyo o'z haliga qaytmaydigandek... Chang-to'zonga aylangan holda yerning kulini ko'kka sovuradigandek.

Telba dovul u tushgan aravani ham Yer yuzidan yulib olib, tepada baqrayib turgan qop-qora koinotning allaqanday girdobiga olib yuborishni istayotgandek zo'r berib chiranaadi.

Otlar obdan holdan toydi; askarlarning ko'zlari qumga to'lib, dovulga qarshi yurishdan rosa abgorga tushdi. Shunda ham to'xtab qolmadi. To'xtaganida chumolidek behisob askarga biydek yayilgan sahraoda pana joy topilarmidi?

Aksincha, tentak dovulning aravalar va yuklarni badbaxt sahroning har burchagiga quvib olib ketishi ehtimoli bor edi. Ko'plab karvonlarning qumga ko'milganligi haqidagi gaplar bejiz emas.

Avvallari toshbaqa dovulidan oldin va sumbuladan keyin safarga otilanmas edi. Bu safar bahor kirishi bilan elga qaytaman, deb, mana shunday mushkul ahvolda qoldi. Lekin kimningdir qarshiligini ko'rsa, avvalgidan battar o'jarlanadigan odati bo'yicha ahdidan qaytmadi. Jahonni ko'klamda junbushga keltiradigan dovul kuchlimi yoki istasa yorug' dunyoni ostin-ustun qiladigan u kuchlimi?

Har holda, nayzaga ilinmaydigan, qiliching chopolmaydigan bu ofatning erkaliklaridan qoni qaynab kelardi. Shunda ham to'xtaymizmi, orqaga qaytamizmi, nima qilamiz, deb aravani aylanib, qayta-qayta kelavergan lashkarboshilariga iliq bir gap aytmadi.

Tashqarida huvullab-shovullab turgan bo'ronni ko'rmagan, eshitmagan kishi bo'lib bir nuqtaga qarab o'tiraverdi.

Beshqo'noqning besh kuni o'tgach, dunyo jinidan ayrilgan baxshidek jimjit bo'lib qoldi. Ustki qatlam taram-taram yorilib ketgandi. Yoriqlardan chiqqan bo'lsa kerak, har yer-har yerda toshbaqalar yotardi. Ba'zilarini bo'ron ag'darib tashlagan, oyog'i osmondan bo'lib, to'nkarilib qolgandi.

Dovul bosilgan kuni peshindan so'ng qumlikka yetib olishdi. Tagidan kimdir alp devlarning suyagini qazib olgandek, shag'al

toshlarning yonboshlaridan kichik-kichik chuqurchalar paydo bo'lgan. Yo'lda yurishda davom etishdi. Qumloqdan kezib kelayotganiga ham ancha kun bo'ldi. Kecha bo'rondan charchagan bo'lsa, bugun sassiz qumloqning sukuti holdan toydirardi. Ushbu qo'rqinchli jimjitlik hukmron kenglikda men ham to'xtab qolaman, deb qo'rqandek ko'kragidagi bir narsa bilinar-bililmas dukillaydi.

Yo'llariga do'ng-do'ng bo'lib qolgan taram-taram shag'allarga yetgunicha shoshishmoqda, lekin qora yerning nishonlari hall bilinmaydi. Faqat ajin-ajin qumlargina ko'zga tashlanadi.

Bo'rondan halqa-halqa shaklga kelgan qumlikdagi allaqanday sehr yozib ketgan jumboq duoday ko'p so'qmoq, qancha termil-sang ham, fikringni tiniqlashtiradigan nishon topolmaysan. Aksinchu, hayot shunchaki qum betidagi mana shunday ma'nosiz chizma-chiziqday bir gap, ushbu jahonda bugun bor, ertaga yo'qolib ketadigan o'tkinchi tasvirlardan iboratmikan, degan gumon tug'diradi. Kuni kechagina zo'rvonligini ko'rsatib yer-osmonni sarson qilgan, oxirida kuchsizlanib, o'zidan o'zi tinchib qolgan bahorning telba dovulidek u ham nechog'lik tirishib-tirmasha ham, vaqt atalguvchi sochma qum baribir iz qoldirmasdan, butunlay o'chirib yuboradigandek, nazarida.

Yurish to'rt yil davom etdi. Lak-lak askarning bosmagan yeri yo'q. Shunda bir kun kelib shularning hammasini xuddi manavinday qilib, shamol uchirib, qum yutib yuboradimi? Odam deganning hayoti aylanib-aylanib bosiladigan dasht shamolidek shunchaki o'tkinchi narsa bo'lsa, o'tgan har bir mayda-chuyda arzimas narsalarni ipga tizib, saqlab qoladigan inson xotirasi ham mana shu ko'chmanchi qum kabi beqaror bir narsa ekan-da. Shunda ko'k bilan yerning o'rtasida bevafoqlikdan boshqa narsa yo'qmi, demak? Hamma narsa o'tkinchi, faqat bevafoqlik abadiymi?

Kim bilsin, balki shundaydir. Bir zamonlar o'zi ham ne-ne mushkulotlarga duchor bo'ldi... Bepoyon sahroda oilasini, bolalarini yetaklab, qochib-yashirib yurganini unutib bo'larmidi?.. Mana, aravaning ichida o'tirib, kuzatib o'tirgan holda ko'ziga tahdid solib, pichoqday kesib kelayotgan qaysar qum terisini qizdirib, tovonini kuydirgan edi-ku! Loqaq tagidan qo'li bilan timdalab-

aylab nam chiqaradigan buta topilmasdan labi gezarganda, tashini qovurib, tobora mushkul holatda qoldirayotgan battol sho'ldan mutlaqo qutilolmaydigandek, tanglayi bir qoshiqqina suvni totadigan kun endi kelmaydigandek holatda edi-ku. Hozir buni kim biladi? Hatto o'zi ham mana shunday holatlardagina bexosdan eslab qolmasa, doimo yodida tutavermaydi. O'sha xo'riklarni bugungi mavqe, o'sha azoblarni bugungi baxt unuttirmadimi?! Shunda bugun ham kelajakda unut bo'lurmi? Avomning "erta" deb og'zini to'ldirib aytayotgani qanday bo'lur? Yo'lida uchraganlarning hammasini o'tdek o'rib, boqiyga jo'natuvchi telba jallodmi yoki olamdagi barcha mavjudotlarning Munkar-Nakiri — bevafoqlikning qo'lidagi beshafqat qilichmi? Nima?

Kelajak qilich bo'lsa, tepasidan og'zini katta ochib turgan maxluqqa o'xshagan bugunning nima hojati bor? Agar bugun abadiy bo'lsa, o'lmas bo'lsa, kechagilar qani? Kechagina u bilan qasdlashib, arslondek olishib yurganlarning ko'zlari qay holda tuproqqa to'ldi? Ularni narigi dunyoga ravona qilgan faqat uning ahafqatsiz qilichimi? Yo'q. Eng avval, o'zlari, o'zlarining zaifligi. Kecha zaiflikning ikkinchi nomidir. Bugun tinka-madori qurib kechaga aylanadi. Hech kimga bo'yin egmas shiddatli kuch bugun bilan, hatto erta bilan bemalol bellasha oladi. Kuchlilikning haqiqiy nomi — Abadiyat... Abadiyat bilan faqat bejilov yengilmas kuchgina til topisha oladi. Zaifning ajali bugundan, arosatdagi duragayning jazosi ertadan keladi. Hech qachon yengilmagan alp kuchning ajali yo'q abadiyat kabi.

Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan qo'rqinch va umidning o'rtasi — bugun. Jami bandalarning tebranib turgan qayiqda o'tirgandek umrguzaronlik qiladigan doirasi — bori shu. Ular shundagina kuchlilikning aytganiga yuradi, so'zsiz bo'ysunadi. Chunki kuchli bahodirlarsiz yoppasiga zaiflar hech nima qilolmas. Bir qo'lida vahima, ikkinchi qo'lida umidni mahkam ushlab, qolganlarni arosatda sargardon qilib qo'ya oladigan dahshatli kuchgina bemador zaiflikni kuchga aylantira oladi; uning qo'lidagi bugunning o'zi kelajak bilan kurasha oladigan qurol...

U har bir sarkardasiga doimo shuni uqtirardi: "Har qanday mushkul ahvolga duchor bo'lsang ham, beimkon boshi berk

ko'chadan qoch, har qanday holatdan ham ustalik bilan qutulib
gan amalni avvaldan o'ylab qo'y... Zaiflikning ham oxiri — haqiqat
berk ko'cha... Bundan ko'ra qochib qutuladigan hiyla-amallarning
ko'p bo'lgani maqbuldir”.

Bu shariatda ham bor-ku!

Bir kuni zukko Sulaymondan bir chumoli: “Yaratguvchi Egan
senga nega shamolni itoat qildirib berganini bilurmisen?” — deb
so'rabdi. Sulaymon dabdurustdan javob berolmasdan, bir lahza
kalovlanib qolibdi. “Bu sening podshohligingning bir kuni yelga
uchishiga ishoradir”, — o'zi javob beribdi chumoli. Buni eshit-
gach, Sulaymonning quti o'chdi. Chumoli bo'lsa: “Allohning
amrini ulug'larga kichiklarning so'zi yetkazur”, kalomi mazmuni
mana shuldir, — deb ketib qolibdi. Sulaymonga bevafoqlik qilgan
baxt kimga vafu qiladi dersan?! Lekin uning boshidan baxt qushi
uchganidan keyin shuhrati so'nadimi? Xullas, baxt — oz muddatli
tirikchilik uchun rizqing, shuhrat esa chegarasiz abadiylikning na-
sibasi ekanini bilishsa bo'lmasmidi?

Balki, Sulaymonning dong'ini hozirgi kungacha yetkazgan
kambag'al dehqon va mittigina chumolimikan? Ulug'larga Al-
lohning istagini yetkazadigan kichiklar ularning nomini ham juda
uzoqlarga olib ketarmikan? Kattalarning bajargan ishlari kichkina-
mittilarning ko'ziga juda dahshatli bo'lib ko'rinmasmikan? Agar
juda yirik ishlarni ado etsang, ular seni qudratning o'zidan kam
ko'rmikan?

Dovruqning dulduli — mish-mish. Farosatlining og'zidagi
imillagan haqiqat qachon otga minguncha, yengiltakning og'zidagi
uchqur mish-mish ikki etak bo'lib hammadan oldin yetadi.

Mish-mish tarqatuvchi yengiltak faqat shuhrat istaydi. Shov-
shuvi yo'q shuhratning iliq-yumshog'iga tama qilib, bekorga to-
moq yirtishning hojati bo'lmas.

Kichkina ko'zni imkonini topib katta qilib ko'rsata olganing —
ularni lol qoldirganing. Hayratlangan kishi yaxshi va yomonni
mezonga solib o'tirmas. Mana, mag'ribdagi ko'p elning xazi-
nasida yotgan oltin va gavharni ustiga ortib olgan, tog'-tog'
shag'allarning yassi yuzasida izini qoldirib lapanglab ketayotgan
filni dastlab ko'rganlar “bu yaxshi hayvonmi, yomon hayvonmi?”

deb boshini qotirishmaydi. Uning bahaybat tanasiga, beo'xshov
sahib turgan xartumiga qo'rqmasdan, jirkanmasdan hayratlanib
koqib, tanglayini taqillatadi. Kichik ko'zlariga, yaxshilik qilgin
mayli, yomonlik qilgin mayli, ko'z kosasiga sig'maydigandek
bahaybat qilib ko'rsatgin. Aks holda, oz yaxshiligingga qanoat
qilishmaydi, salgina yomonlik ko'rsa, yerdan olib, yerga solib
aytlashni boshlaydi. Kimningdir tumshug'ini qon qilsang, bor
aytni aytib bezor qiladigan kimsalar yorug' jahonni qonga belab
taahlasang: “Buning nimasi?” — deb la'nat aytmaydi. “Yopiray,
qanday ulgurding?” — deb hayratlanadi.

Faqat tiriklik chog'ingda atrofdagilarning hammasini lol qol-
dira ol. Ular o'la-o'lguncha tong qolib o'tganda, senga o'lgandan
so'ng ham tong qolishadi. Ularning og'zidagi shov-shuvni eshitib,
seni ko'rmaganlar ham hayrat daryosida suzishadi. Faqat ularga
o'zgalardan eshitgan voqealaridan so'ng “ha, shunaqami?!” deb
ayttiradigan qilib, har yer-har yerda o'z qudratından yodgorliklar
qoldirsang bo'lgani.

Bu har qanday bandaning qo'ldan kelmasa ham, jami xazinani
tagingga bosib, hamma qurolni atrofingga to'plab o'tirgan sening
qo'lingdan keladi. Charchadim dema... Bo'ldim, kifoya, boriga
qanoat dema... Agar shunday qilsang, eriga bevafoqlik qilmasa
ko'ngli to'lmaydigan jodugardan tug'ilgan haromi erkakdek bu
bevafo dunyoning pushtidan yana bir o'zingdan kuchliroq boshqa
birovning sassiz-sadosiz chiqib kelishi oppa-oston... O'zing ham
mana shunday qudratga hammani g'afatda qoldirib, fursat poylab
yetgan eding-ku! Endi buni boy berish mumkin emas... Hech kim-
ga imkon toptirma... Imkonni Xudo topmasa, banda topmasin...

Xudo topmasa... Ha, u ilgari yurishdan zafar bilan qay-
tganda ayni hozirdek bo'lar-bo'lmas narsalarning barini o'ylab,
boshini og'ritarmidi? Bularning hammasi yuraginging eng chuqur
qarida yashirib yotar edi. Hammaga ko'rsatish u yoqda tursin,
takror qo'lga olib qarayversa, begona ko'zlarning qo'lga tushib
qolarmi, deb qo'rqib, har holda, ishonchli yerda turganini bilib,
ko'ngli to'q bo'lib, o'zi ham ko'p suqlanavermaydigan qimmat
matohdek shu bir tugunning tub niyatini, hatto o'z o'yidan ham
biror qavat uzoqroqda ushlar edi-ku... Nega bugun yeganini qayta

chaynab, kavsh qaytargan tuyadek allaqachon ipidan Ignasaga cha o'ylab, obdan kesib-bichib qo'ygan, tirikligida hech kimga aytmaydigan sirlari og'ushida qolib, xayol daryosiga cho'mib ketdi? Ichidagi hisob-kitoblarni olmos quroldek avaylab saqlagan maqbuldir. Agar noo'rin harakat qilsang, u ham qo'lingdan chiqib ketadi, yov qo'lga o'tsa, o'z gardaningni kesadi.

Shuning uchun u o'z qarorini qirq marta kesib-bichmasdi. Lekin bugungi holatiga o'zi tushunmay kelardi. Avvalgi yurishlarida nechog'lik charchasa ham, hozirgidek xayoli faromonah bo'lmadi. Yoki bir hafta bepoyon qumning o'rtasida qish va bahorning o'larosi — Beshqo'noqning dovuliga duchor bo'lib, roza holdan toyib charchadimi... Aks holda, bu safar ham zabt etgan yeri, vayron qilgan taxti oz emas. Yo'lda uchragan mayda-chuyda beklıklarni aytmaylik, mayli, ko'pdan beri o'zi bilan raqobat qilib, sirtidan tahdid qilib yurgan ikki raqibini yer bilan yakson qildi.

Avvallari oyog'i ostiga yumalab tushgan begona tojni ko'rgan sayin ko'ngli iftixorga to'lardi, bu gal unday bo'lmadi. Yoki bu qancha o'ylamaslikka tirishganing bilan eshingda yotib olib, qayerda yursang ham, tursang ham bariga itini qo'shayotgan yovuz niyatli qo'shnidan xavotirmikan? U narsani behisob lashkar bilan borib, chopib olishga ham bo'lmaydi, hiyla-nayrang bilan oldini to'sib qaytarib yuboradigan anoyi dushman emas. Lak-lak lashkari bilan bo'sag'angda chodir tikib yotib olgan ota dushmandek birdan zarb aylamasa ham, kun sayin shuuringni jimirlatib, ishonchingni chatnatishi mumkin.

Endi, mana, necha-necha yillar davom etadigan uzoq yurishlarning bundan keyin og'ir bo'lishiga ham ishora bildirilmoqda.

Shuni o'ylaganda yuragingning bir chekkasini sovuq chirmab olgandek, zirillab turadi.

Taxt sohibi bo'lib, toj kiyib, haddidan oshgan yovlarni bir chekkadan o'ziga itoat ettira boshlagandanoq, hayotining oltin taxtda emas, ot ustida o'tishini anglab yetgandi.

Hayoti hamon shu tarzda davom etmoqda. Ko'plab el va elatni zabt etdi. Ot tuyog'i yetar yerda bunga bo'ysunmagan birgina yurt bor. Qora chumolidek g'ujg'on kimsalar sonining ko'pligiga ishonadimi, qaydam, har holda, o'zgalardek hadiksiramaydi. Hatto

yoqti vaqti bilan unga yuborib turadigan siyrak soqol, qisiq ko'z shularning o'zi ham dam oyog'iga yiqiladi, goh beparvo qarab, ko'zibor gapirib, kekkeyib qoladi.

Ko'pdan buyon tishini qayrab yurgan bo'lsa ham, ularga navbat endi kelganga o'xshaydi. Qolgan uch tomonni og'ziga qaratib, qayta bosh ko'tarmaydigandek ezib tashladi. Endi ulardan boshqa kuttalajak xatar yo'q.

Hozir ko'pgina dushmanning yuragida qo'rqinch tug'dira olgan lashkari: "Sen chop, men otaman", — deb, shay holatda turibdi. Uning xayoli — qo'shinni mana shunday jangovar holatda saqlab, bir necha oy dam olgach, uzoq yurishga otlantirish. Shuning uchun bu yurishda ertaga yana bosh ko'tarib yurmasin deb, qaysi yurtni olsa ham, dushman askarlaridan birini qoldirmasdan o'ldirib yubordi. Yo'l-yo'lakay avval taslim bo'lgan hududlardan ham askarlarni olib kelmoqda. Minglab tuyoq qum-shag'alni g'arch-g'arch bosib, minglab nayza kunda yarqirab, qumtepalaming orasidan tartibsiz harakat qilmoqda; behisob qora chumolidek askar uzoq yurishdan qaytib kelayotgan qo'shindan ko'ra, Vatanidan yurishga endigina otlanganga ko'proq o'xshardi. Ular suyuqlik yori oldidan kelishayotgandek bardam, xushchaqchaq. Tug'lar va o'nboshi, yuzboshilarning nayzalaridagi shokilalar shamolda hilpirab qo'yadi.

Yurishdan qaytib kelayotganini xazina ortgan karvonlar va qo'llariga kishan solingan behisob qullar va cho'rilargina bildirib turadi. U nima bo'lganida ham bepoyon shaharga sariq pashadek sanoqsiz lashkari bilan kirib bormoqchi. Uch tarafni yanchib kelayotgan hukmdorlarning muzaffarligini xalq o'z ko'zi bilan ko'rsin, o'zlarining zaif ekanini sezsin...

Birdan hukmdor musaffo ufqda yerga sanchilib turgan ingichka bir chiziqni ko'rib qoldi. Bahorgi tip-tiniq osmonning o'zidan ham ko'kroq o'sha bir tikka langarcho'p sariq qumda xira ko'rinadigan ufqqa ninadek qadalib turib qolgan.

Buni allanimadan darak beruvchi nishonmi, deb yonidagi saidlarning birini chaqirib so'ramoqchi bo'ldi, lekin uning borgan sari ko'm-ko'k bo'lib ravshanlashayotganini ko'rib, sabr qilishga qaror qildi.

Yirik shag'allar tugab, mayda qumloq boshlandi. Qattiq top roqqa yaqinlashayotgani sezilib turardi. Avvallari qum orasida ahyon-ahyonda dikkayib turadigan butalar safi borgan sari ko'payib boshladi. Borgan sari juda yaqin — oyoq ostiga kelib yotib olgandek tuyulgan ufq bag'rini tiklab uzoq-uzoqlarga jila boshladi.

Chumolidek yopirilgan lashkardan tislengandek uzoq-uzoqlarga qirlarga qarab mushuk yurish bilan chekinayotgan bahorliy ufq bilan birga haligi sehri langarcho'p ham uzoqlashgandek tuyuldi.

Ular juzgen, saksovu, qum bag'irlab o'sgan mayda-chuyda butalardan o'tib, qumloq adirga ko'tarildi. Ko'p o'tmasdan qattiq qora tekislikka ham chiqdi. Juda olisdan sarob orasidagi tog'lar xira ko'rina boshladi.

Yana biroz yurishgandan keyin qorli tog'lardan beriroqda tuman bosgan keng sayhonlikda ko'p qoralar ko'rindi. O'ziga xos dikkayib ko'ringan ko'k langarcho'p ham asta-sekin yupqa tuman orasida qola boshladi.

Borgan sari qoralar ravshanlasha boshladi. Ro'paralaridan g'uj-g'uj askar peshvoz chiqqandek yuksak minoralari ko'k tutunda qalqib, kattakon shahar namoyon bo'ldi. Qoq o'rtada osmon bilan bellashgan ko'k langarcho'pni endi aniq ko'rdi — minoralari. Avval shaharda bunday minoralar yo'q edi-ku! Ko'k ipak ko'ylak kiygan qandaydir bir go'zalning uzoqdan horib-charchab kelayotgan yoriga sog'ina qo'l silkitib, ko'kka ko'targan bilagidek yum-yumaloq, chiroyli minora yaqinlashgan sayin yalt-yult o'ynab yarqirar edi.

Lashkar keng tekislikka tushganda yerning rangi qizg'ish tusga kirdi. Har yer-har yerda jimir-jimir qimirlab, kichkina-kichkina qoralar yuribdi. Bahor shaharni gir aylanib o'rab olgan, keng tekislikda hayot qaynardi. Otga qo'shilgan, ho'kizga qo'shilgan, yayov tortilgan so'qalar endi-endi quriy boshlagan tekislikning bag'rini tasmadek tilardi.

Zafar bilan qaytayotgan lashkar tantanali safga tizildi. Qoq oldinda kamon iplarini chiranib tortgan kamonchilar, undan keyin sovuq ko'k olmoslarini ko'kka ko'targan qilichbozlar va nayzadorlar turdi. Ularning orqasidan kishanlangan qullar va o'lja ortilgan uzoqqa cho'zilgan karvon yuradi. Karvonning eng oxirida turli xalqlardan tanlab olingan asira qizlar o'tadi.

Shulardan keyingina o'n ming navkarning o'rtasida hukmdor o'tirgan chodir ko'rindi. Har ikki qanotdagi yerni titratgan behisob lashkarlar shahar darvozasigacha hukmdorning ortidan birga boshladilar. Yo'lning ikki tomonidagi uzumzor tarvuz-qovun ekiladigan pedlaga, u paxta uchun haydalgan yerlarga, shudgor esa birozdan keyin bog'-rog' bilan almashdi. Mevali daraxtlar endi kurtak ota boshlagan. Tevarak-atrof yashil-ola chit ko'ylak kiygan. Mana shu dahadan keyin hovlilari devor bilan o'ralgan ko'chalarda boshlandi. Ko'chaning ikki tomonidagi keng rastalarda xitoyi shoyi, kunda tovlanadigan har turli qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, charm va to'n, ov terilari, chor atrofdan tujjorlar keltirgan yirik-mayda buyumlar betartib yotardi. Issiq somsaning, quruq mayizning, bug'l burqiragan palovning, saksovu, saksovu, saksovu cho'g'iga pishirilayotgan kabobning hidi yer-u ko'kni tutgandi.

Yashil yo'lak hosil qilgan bog'-bog'chalar birdan ozayib, betartib olomon va bir-biriga birlashib ketgan devorlar ko'paydi. Loy o'zanga bir chekkadan kelib qo'shilgan oqimdek bo'lib qo'shinning oldi darvozadan kirishi bilan shaharning qoq markazidagi suv to'la hovuzlar bilan o'rab olingan baland qo'rg'ondan karnay-surnay yangray boshladi.

Shuni kutib turgandek, unga lashkar tomondan bir karnay va nog'ora jo'r bo'ldi. Minglab tuyoqning tuproq yerni zarb bilan bosgan dukur-dukuri va nog'oraning yangroq ovozidan bosh shaharning barcha ko'k gumbazlari va ko'k minoralari, qoziqqa bog'langan tulporlar yer tepib turgandek, larzaga keldi.

Shaharliklar qo'qqisidan boshlangan shovqin-suronidan qo'rqib ketgandek devorga osilib, teshiklardan poylab, tantana bilan o'tib borayotgan askarlarga ko'z uzmasdan qarab turardi.

Lekin hukmdorning fikri-xayoli shahar ustidagi bepoyon o'smonga intilib bo'y-bastini tiklagan yangi minorada edi...

II

Hukmdor navbatdagi zafar sharafiga dabdabali to'y o'tkazdi.

To'y ikki oy davom etdi. Nihoyat, tantana o'tgan keng maydon yana huvullab qoldi. Ikki oy davomida bazm-u jamshid guvohi

asosidagi soqchilar va saroy xizmatkorlari ko'zga ko'rinmasdan o'tirib qolishadi.

Hukmdor buloq boshida tanho uzoq o'tiradi. Ko'p-ko'p yurish-bog'ga mana shu joyda azm-u qaror qiladi. Ko'plab toj sohiblarining topilishi ham mana shu jannatmonand rohat-farog'at baxsh etuvchi buloq maydonchada, sim-sim kulgan buloq boshida hal bo'lgandi. Bu yerga kelganda har doim ko'nglida yer bag'ridan jimirlab chiqayotgan buloq suvidek adadsiz, adoqsiz xayollar qo'zg'alardi. Lekin buloq suvi bir xilda chiqaveradi, bir yo'ldan oqaveradi. Hukmdorning ko'nglida esa endi paydo bo'lgan sustkash fikrlar o'sa yo'lidan adashib, har tarafga bir chopib ketadi.

Mana, bugun ham ko'p o'tmasdan otga o'tiradigan kelasi yurishi haqida reja tuzmoqchi edi, esiga yana o'sha olma tushdi. O'sha bilinar-bilinmas pichoq izi tushgan qip-qizil olmani kecha ham olib kelishgandi. Boya taom vaqtida xizmatchi ayol oltin tovoqda olib kelgan olmalar orasida yana bor. Boshqa olmalar bo'lsa ham, u ayni shu olmani ushlab olibdi. Kesib ko'rgandi, ichidan bir qurt lipillab chiqib keldi. Xizmatchilarning oldida janjal chiqarishni istamasdi; bilmagandek, ko'rmagandek bo'lib tovoqqa qo'ya qoldi.

Xizmatchi ayol yana olib ketdi. Uning achchig'i chiqqan bo'lsa ham, xizmatchining bu xatosini kechirganday edi, otilib chiqishga tayyor turgan qahrini yashirdi. Uning har bir narsani e'tibordan chetda qoldirmaydigan sinchkov ko'zi xizmatchi ayolning yupqa labini tishlab olganidan boshqa, yuzidan yoki xatti-harakatidan hech qanday ma'no uqmad. Xizmatchilarning ibo bilan, lablarini tishlab, jilmayib kulib yurishlari odatiy hol edi. Shunda xizmatchi ayol hukmdorning oldida boyagidek noqulay ahvolga uchraganidan hech iymannadimi? Yoki dasturxonga turli taomlar va idish-tovoqlarni qo'yib shoshib-pishib yurganida ko'rmay qoldimikan? Xizmatchi u yoqda tursin, vazirlar ham, lashkarboshilar ham, hatto shahzodalar ham oldida boshini egib, ta'zim qilib turishadi. Bechora ayol haqida gap bo'lishi mumkin emas u xatto hukmdorning yuziga qarashga, xatti-harakatini kuzatishga yuragi dov beradi deysanmi? Olmaga qarab o'ylanib o'tirganingni bilmasligi ham mumkin.

Ba'zan qo'l ostidagilarning bo'lmag'ur narsalarga fahmi yet-masligiga hukmdor hayron qolardi. Keyinchalik yaxshilab o'ylab

bo'lgan shahar qaytadan odatdagi hayotga ko'chdi. Ohdan to y to'ylab xumordan chiqqan xalq yana o'z oilasi quchog'iga qaytdi. Faqat hukmdorning charchog'i tarqalmadi. U to'ylarning ortidan shahar tashqarisidagi alohida saroyga ko'chib oldi. Saroy qo'sh osh nurlari tushmaydigan qalin bog'ning qoq o'rtasidagi baland tepaning boshida edi. Bu yerdagi hashamlar boshqa saroylardan kam bo'lmasa-da, bu yerda hech kimni qabul qilmasdi. Saroy joylashgan tepaning atrofidagi bog' tog'yonbag'ridagi tabiiy to'qaydek o'z holicha o'sgandi. Bu yerdagi maral¹ va to'tillar qo'lga o'rgatilmagan, yovvoyi; uzoqdan odam qorasi ko'rinishi bilan juftakni rostdab qochib ketadi. Bu yerga kelganda hukmdor boshqa saroylardagi kabi viqor bilan taxtda o'tirmaydi. Ko'p hollarda saroyni gir aylanib o'rab olgan to'g'on ko'prigidan o'tadi, ertalabdan kechgacha bog'ni kezib yuraveradi. Yonida hamroh bo'lmaydi. Bu bog'ga oilasidan boshqa hech kim yuborilmaydi. Lekin ular hukmdor ruxsat bersagina keladi. U, ko'pincha, jajji nevaralarini bu yerga chaqirtirib, oqshomgacha birga sayr qilishardi, kechqurun aravaga o'tqazib, boyvuchchasiga qaytarardi.

Bu gal nevaralarini ham oldirmadi. "Zarur gap bor edi", — deb boyvuchchasi kishi yuborgan ekan. Keyin gaplashamiz, deb qabul qilmadi. Uzoq vaqt davom etgan yurish, undan keyingi to'ylning dabdabalari rosa holdan toydirdi. Shuning uchun hech kim bilan ko'rishishni, gaplashishni istamasdi.

Bog'ning kimsasiz ovloq chekkasiga borib, shildirab oqayotgan buloq boshidagi qo'ytoshda o'tirgani-o'tirgan. Ushbu yorug'yolg'onda faqat mana shu buloqning boshidagina o'zini hukmdor his qilmaydi. Shildir-shildir oqayotgan tiniq suv ham, yam-yashil daraxtlar orasida tartibsiz chirqillayotgan qushlar ham, suv ustidan gir aylanib uchayotgan ko'k qanotli ninachi ham uning farmoniga muhtoj emas. Bu yerdagi hech narsa undan hadiksiramaydi. Faqat qalin daraxtzorning ichidan chiqib, uni ko'rganda tiraqaylab orqaga qarab chopadigan hurkak kiyiklarga undan qochadi. Lekin ular ham undan mashhur hukmdor deb emas, ikki oyoqlilardan biri bo'lganligi uchungina qo'rqadi. U buloq tomonga yo'l olganida

¹ Sibir bug'usi.

ko'rib, buning bekorga shunday bo'lmashligiga ishonch hisob qiladi. O'zi bo'lsa, birovga yoqadimi-yoqmaydimi deb taraddudlanmaydi, qo'l ostidagilar esa uning qosh-qovog'iga qarab, jahon durustmi deb ikkilanib turganda, yanglishib ketishi aniq-kul.

U saroy a'yonlari bilan mashvarat qurganda, majlis ahli to'uzoq gapirtirib, o'zi jimgina tinglab o'tiraveradi. Ichidagini aytib bo'lguncha so'zini bo'lmaydi. Ustoz oldidagi shogird boladek qimir etmasdan, og'ziga qarab tikilib qoladi. Hatto "ha, durust, aytaver", deb ma'qullab bosh chayqamaydi. Agar shunday qilsa, ba'zi birlari: "Xuddi shu mavzudan chetga chiqsam, hukmdor yoqtirmasligi mumkin", — deb sharoitga qarab ko'p gaplarni pinhon saqlab qolishi mumkin. U a'yonlarining dilida xuffiya saqlamasligini, nima o'ylayotgan bo'lsa, bitta ham qoldirmasdan tugal aytib berishlarini istaydi. Chunki buning saltanatida sirlarini saqlab, dilidagini aytmaslikka faqat uninggina haqqi bor. Avom esa u tutgan yo'lda joni va qonini fido qilayotganida sir saqlab neqilur... Shuning uchun dorussaltanatda kishilarning fikrini, zikrini, xayolini to'liq bilib o'tirishi lozim. Ayniqsa, saroy a'yonlarining ko'nglidagini mayda-chuydasigacha bilmasa, ko'ngli joyiga tushmaydi. Birovning sirini bilmaydigan otga minmagani kabi, nima o'ylab, nima qilishini, iqtidori qayerga yetib, qayerda qoqilishini bilmaydigan kishilarni atrofiga yaqinlatmagani ma'qul. Chunki har bir kishining siri yurak qafasida qamalib yotganida o'zining quroli, og'zidan tashqariga chiqqach esa o'zganing quroliga aylanadi. Shu bois saroydagilarning hamma sirini bilishga oshiqadi. Agar kimda-kim bir gapni oshkor qilsa, uni shu so'zi bilan bog'lab qo'yadi.

Shuning uchun itoatgo'ylarini hech narsadan shubhalantirmaydi, bemalol gapirishiga yo'l beradi. Subhatdoshi berilib gapirayotganida uning so'zini tuzatgan kishini itdan ham yomon ko'radi. Qaytanga biladiganlarini bilmagandek o'tirib, yolg'ondan ustma-ust so'roq beraveradi. Shunda yer tagida ilon qimirlashini biladi deb aytiladigan zukko hukmdorning oddiygina arzimas nar-salardan bexabar ekanini ko'rgan mashvarat ahlining boyadan beri dilida to'lgan, lekin ochiq aytishga botinolmay turgan o'ylari o'z-o'zidan tiliga ko'chadi. Til esa to'xtovsiz sayraydi.

Shu tariqa itoatgo'ylarning ichidagi bor o'y-xayollarini aytib olib oladi-da, o'zining birovlar o'ylaganidek anoyi emasligini ko'ynchalik bildiradi, nari-berini aytkizmasdan bilib o'tirgan haqoratlashmay tutadi o'zini. Ana shunda sayrab o'tirgan "bulbuli-yo'yo"lar birdan sukutga cho'madi. Bundan keyin u ham bir, buri-dan ip o'tkazilgan toyloq ham bir — aytganini bajaradi, boshqa iloj nechuk...

Jami hukmdorlarning avomdan yuqori turishining sababi ham shuki, u kimning sirini bilishni istasa, so'rab bilib oladi, o'zi hech kimga dilini yormaydi. Aslida hukmdordan biror narsani so'rashga botingan mard bormikan o'zi...

Hukmdor og'ziga nechog'lik mahkam bo'lgan holda, hamma-ning gap-so'ziga quloq tutavermaydi. Unga kimningdir g'iybatini tinglagandan ko'ra, boshidagi tojni yulib olib, sassiq og'iz g'iybatchining oldiga tupukdon qilib qo'ygani ma'qul edi.

U birovning ustidan shikoyat qilib kelgan kishilarni ham yoqtirmasdi. O'zi haqida avomning nimalar aytganligi haqidagi mish-mish yetkazganlarni bir-ikki marta dor tagigacha yetkazdi. Shundan beri hech kim uning oldiga bo'lmag'ur gaplarni ko'tarib kelmasdi. Vazirlar va shahzodalar ham, agar topshiriq bo'lmasa, birovlar haqida biror gap aytmasdi. Hukmdorning bilishi kerak bo'lgan favqulodda voqealarni xonning oilasi yoki saroydagi ulug'martabaga ega kazo-kazolar u fol ochtiradigan saidlarga aytadi. Ular esa o'zlari eshitgan noxush xabarni majoziy turda bildiradi. Hukmdor ularning aytgan majoziy gaplarida nima yashiringanini bilishni istasa, chaqiradi va o'zi tusmol qilgan voqeaning tafsilini so'ratadi. Shunda ham saidlar o'zlari eshitgan noxush mish-mishni ochiq aytmaydi, nishonning ta'biri deb taxmin ila yetkazadi. Uni qanday tushunish hukmdorning ixtiyorida. Bundan qanday xulosa chiqarishni, gunohkorni qanday jazolashni faqat o'zi biladi. Har bir eshitgan noxush holatni oshkor qilish, jazolash podshoga ham oson emas. Birovning kechirilmas harakatini bilgan holda unga munosib jazo bermasa, omma oldidagi tog'dek obro'siga dog' bo'lib qolardi.

U: "Hiyla topilmas to'siqlardan qoch", — degan qoidaga qat'iy amal qilardi. Lekin bu masalada o'z qo'lga o'zi kishan so-

lishni istamaydi. Shuningdek, shikoyat va mish-mishlar alohida kishilar ustidan aytiladi. Chumolidek g'uj-g'uj askarning qonini oqizib, qilichdan o'tkazishga qodir hukmdor har bir kishining ishini baholaganda, ayniqsa, jazo tayinlashda adolatsizlik qilmoqchilikka harakat qilardi. Chunki urushda yozuqsiz askarni, kimningdir erkaklab o'stirgan guldek farzandlarini qancha ko'p qirsang, shuncha obro'ying ortaveradi. Kundalik hayotda esa arang qimirlab yurgan, joni omonat tilanchiga adolatsizlik qilsang, obro'ying bir pul bo'ladi. Hukmdor bo'lgan holda oddiy kambag'alga yaxshilik qilsang, behisob niholning qonini to'kkan zolim, qonxo'r noming yo'qolib, kambag'alga qayishgan, har bir so'zni rost etgan adolatparvar sifatida mashhur bo'lasan. Bunga ham kungayga yurishi chog'ida obdan ishonch hosil qildi.

Ko'p oylar davomida beto'xtov yurib kelayotgan lashkar dushmaning boshkentiga yaqinlashdi. Oldlarida sharqirab oqqan tog' o'zani namoyon bo'ldi. Narigi sohilda tovonlari yaltiragan dehqonlar bir-bir bosib don sepmoqda. Keng yaylovni gir aylana o'ralgan tog' etagini qalin to'qay, qamishzor, oq yo'lak, oqish yo'lak, sarg'ish yo'lak, qizg'ish yo'lak, yashil yo'lak qoplab olgandi. Ertapishar totli mevalarning ta'mini bildirayotgandek g'alati tushunarsiz hid kishini o'ziga maftun etib, boshni aylantirardi.

O'sha behishtdek latif kenglikda sanoqsiz chodirlar tikildi. Karnaylar na'ra tortdi, nog'oralar gumburladi. Haligacha mudrab yotgan tinchgina yonbag'ir va yalqov tog'ga jon ingandek, har tomondan dukur va dusur ko'paydi. To'qayzordagi bug'ular va kiyiklar qocha boshladi. O'zanning narigi tomondagi bepoyon kenglikdan najot izlay boshladi. Har tomondan otilgan kamon o'qlari busiz ham yuragi shuvullab qochib borayotgan chopqir hayvonlarning ketidan quva boshladi. Ko'pchiligi umbaloq oshib yiqilib, lashkarga go'sht bo'ldi. O'zanning narigi sohilidagi dehqonlar ham qo'llaridagi so'qalari, ketmonlari, urug' to'la xaltalarini dala boshiga tashlab-tashlab qocha boshladi. Lekin ularning ortidan kamon o'qlari uchmadi.

Tog' yonbag'rida shatir-shutur tobora kuchayardi. Aftidan, ayyor yirtqich hayvonlar qalin to'qayzor orasidan narigi xavfsiz yonbag'irga ko'cha boshladi.

Askarlar daraxt kesdi. Cho'qqi va qoyalarning boshiga o'tin to'pladi. Kechqurun uzoqqa cho'zilgan yovvoyi tog'larning boshidan qator-qator saf tortgan olov karvoni uzoqlargacha o'zini namoyish qildi. Yoz osmonining jimirlagan behisob yulduzlari Yer yuziga ko'chib qo'ngandek. Tungi ufq batamom o't quchog'ida qolganday edi. U ertasiga ham shu yerdan qimirlamadi. Yana oqshom cho'kdi. Yana yer va ko'k olov og'ushiga kirdi.

Boshkent atrofidagi zich aholining bunday yulduzdan ham ko'p askarning qachon kelishini kutishga sabrlari ikki kungagina yetdi. Uchinchi kuni ertalabdan har tomondan bularga o'z ixtiyori bilan tashim bo'lmoqchi bo'lgan qochoqlar lak-lak oqib kela boshladi.

Hukmdor qochoqlarni lashkar joylashgan sayhonlikka yaqinlashirmasdan, bir tomoni uzoqqa cho'zilgan tog', ikkinchi tomonini ilon izli tezkor o'zanning o'rtasidagi boshi berk maydonga yig'ishni amr etdi. Shunday qilib, qochib kelayotgan olomanni shu yerda to'plab, ertaga fil minib o'q otadigan dushmanga qarshi eng oldingi safga qo'ymoqchi.

Choshgohdan keyin qochoqlarni ko'rib kel, deb katta shahzodani jo'natdi. U tezda orqaga qaytdi. Rangi o'chib ketgan. Qalin kipriklari yaxlit ko'tarilib, katta ochilgan ko'zidagi vahimani namoyish etardi. Chodirga kirmasdan oq:

— Qochoqlarning adadi yuz mingga yetdi, — dedi.

— Peshingacha bizning askarlarimiz sonidan oshib ketishi mumkin, — dedi amirlardan biri.

Sarg'ish chodirning ikki tomonini to'ldirib, tizilishib o'tirgan sarkardalar bir-biriga qarashdi. Ular ham kutilmagan xabardan al-laqanday hayajonda edi.

Hukmdorning o'ng tomonida muqovasiga toy terisi qoplangan qalin Qur'onni oldidagi kumush lavhning ustiga qo'yib, tasbihi o'girib o'tirgan Hazrat gapga qo'shildi:

— Taqsir, qora pashshadek g'ing'illab, ushbu foniyy dunyoni qandaydir iblis-ifloslikka berib qo'ygan kofir naslini qanday qirsangiz ham, qancha qirsangiz ham savobdur. Men o'zim bu noinsoflarni o'z qo'llarim bilan jahannamga jo'natmoqqa hozirman. Ularni hoziroq qilichdan o'tkazing. Kech kirib, qorong'ilik cho'ksa, g'aflatda qolmog'imiz ehtimoldir.

— Hazrat haqni aytadir!

— Ha, g'aflatda qolmog'imiz mumkin.

Katta shahzoda va bosh vazir Hazratning taklifini qo'yladi quvvatladi.

Peshindan so'ng ko'p lashkar qochoqlar to'plangan boshi berk maydonga yo'l oldi. Qochoqlar dastlab ularning nima maqsadida kelayotganini tushunmasdan quvonib hayqirishdi.

O'zlariga qarab chigirtkadek ucha boshlagan kamon o'qlarini ko'rgandagina ahvolni tushunib, vahimada baqira boshlashdi.

Yuz minglab kishilarning o'kirgan, baqirgan, hayqirgan vahti mali ovozlari aks sadosidan chor atrofdagi cho'qqilar xalqi ko'chib ketgach, shu yerda qolib ketgan daydi itlardek birin-ketin yoppasiga uvullay boshladi. Tezoqar o'zanning sarg'ish suvi avvalgidan ham tezroq oqa boshlaganday.

Kamonchilar yog'dirgan o'qlardan qochoqlar birining ustiga biri qulab, yer tishladi. Qolganlari bosib kelayotgan lashkardan o'zini himoya qilish uchun jon-jahdi bilan yonlarida cho'zilib yotgan o'liklarni birining ustiga birini taxlab, g'ovlar qura boshladi.

Endi ishga nayzadorlar kirishdi. Nayza tig'iga ilinganlar oxirgi marta osmonni ko'rib qolmoq istagida boshini xiyolgina ko'tarib, osmonga bir qaraydi-da, keyin bo'yinlari bo'shashib, nayza uchida qon oqayotgan qora yerga tikilib qarab qolardi.

O'liklardan hosil qilingan to'siqlar tapir-tapir yiqilganda qilichlar havoda o'ynadi. Umrida bir marta qo'y so'yib ko'rmagan hazrat ham qo'lga qilich oldi.

Qochoqlar qurolsiz bo'lsa ham, arslondek olishishdi. Biri yuz ma-yuz kelgan lashkarning halqumidan olib, qulog'ini chaynardi. O'q tegib yerda qulab yotsa ham, o'tib borayotgan askarning oyo-g'iga yopishib, payini qirqib, yelimdek ajralmasdi. Xullas, endi bo'kirmasdan, baqirmasdan dushman bilan kurashardi. Tishlarning qisiri va durs-durs teggan mushtlarning ovozi qilichning sasiga, jon berish oldidagi so'nggi marta kuchangan ovozlarga aralashib ketgandi. Suvga sakrab jon saqlamoqchi bo'lgan qochoqlar shid-datli oqim va sadoq o'qiga yem bo'lishdi. Namozdigarga yaqin-lashganda boshi berk maydonda askarlar tizzalaridan qon kechib, o'liklarning jasadini tepa-tepa qilib yig'a boshladi.

Qora chivindek ko'p deb hadiksirab kelishgan edi, lekin ular-
ni juda osonlik bilan o'tdek o'rib tashlashganiga o'zicha rozi
bo'ldi. Shu kuni kechasi bilan jasadlar yongan gulxanning ayri
tali osmonga ko'tarildi. Tungi osmon olovda yongan jasadlarning
hafta-y hidiga to'yingan ajal qozonining tagidek qop-qora bo'lib,
olov bilan achomlashib, tepadan to'ng'arilib qarab turaverdi.

Fitasiga bomdod namozidan keyin hukmdor hazratga Qur'on
ko'rib berishni iltimos qildi. Oqqubadan kelgan mulla Qur'onni
qo'lga oldi va duch kelgan sahifani ochdi. Ochilgan betdagi oyat-
ni o'qiy boshladi: "Darhaqiqat, bundagi hayot nimaga o'xshaydi?
U osmondan Yer yuziga odam va barcha jonzotlar uchun oziq
bo'ladigan turli o'simliklar o'sib chiqsin deb yog'adigan nurning
suviga o'xshaydi. Yer yuzi qizil-yashil rangda yashnab, guldek
ochilganda bandalar uni bunday ko'z yashnatadigan go'zallikka
aylantirgan o'zimiz, deb o'ylaydi, shu o'rtada bir kuni yoki bir
kechasi bizning amrimiz bo'lsa, u yer hech qachon bunday gullab,
yashnab ko'rmagandek, jami narsalarning hammasi yo'q bo'lib,
top-taqirga aylanan edi".

Hazrat Qur'onni qayta yopdi. Keyin oddiygina qilib gapirsa,
Qur'on ohangini unutilib qoladigandek, qiroat bilan gapira bosh-ladi:

— Taqdir, hozirgina ochilgan sura ushbu ko'k nayzamizning
ostiga kelib, ajalini kutib turgan behisob kofirlarning boshiga
ko'rinadigan bashorat. Inshoolloh, ular bugun ham o'rilgan qa-
mishdek yer bilan yakson bo'lar ekan. Endi Alloh Taolo sizning-
bugungi g'azovot urishingizga qanday nishon bildirur ekan,
ko'raylik.

U yana Qur'onni qo'lga oldi. Bu gal: "Alloh sizni hokimiyat-
siz itoatgo'y qul va uni qurbon qilmaslikka toqat qilolmaydigan
asl fazilat, ortiq xislat berib, o'z tanimizdan yaratgan suyukli far-
zandimiz bilan taqqoslab ko'rishga buyuradi", — degan oyatni
o'qidi.

Hazrat: "Bu yerda Yaratgan Egam musulmon va kofirlar
haqida aytmoqda. Biri oltinga sotilgan, qulog'i kar qul, xor, ik-
kinchisi o'z rizqini Allohning sharofati ila olgan, nima qilishni
istasa, ixtiyori o'zida bo'lgan ozod banda; bu ikkovi hech qa-
chon bir-biri bilan teng bo'lmaydi deb, sizdek sohibqironning

qilichidan o'lganlarning javobi bo'lmisligiga ishora qilindi da", — deb sharhladi. Keyin boshlanajak urushda kofiristomni payg'ambarimizning tug'i tagiga yiqitishni iltijo qilib, fojia qilib.

Hukmdor qo'shinni asov o'zanning narigi sohiliga o'tkazdi. O'zi otga minib, lashkarning o'ng va chap qanotini, oldi va o'rtasini, pistirmanini safga turg'azib, hammani o'rin-o'rmiga joylashtirdi. O'ng qanotga katta shahzodani, kichik shahzodani va to'rt amirni, chap qanotga ikki o'rtanacha shahzodani va to'rt amirni, oldingi safga bosh lashkarboshini, bir shahzodani va to'rt amirni qo'ydi. Markazdagi qo'shinni o'zi boshqarib borishini aytdi.

Yov tomonda yigirma ming otliq askar, o'ttiz ming piyoda askar, yuz yigirma fil urushga kirishga shay turardi. Yuz yigirma filni bir-biriga tumshuqlaridan bog'lab qo'ygandi. Ustiga uzun choq egar qo'yilib, uning har biriga olti-oltitadan kamonchi mer-ganlar o'tiribdi, fillarning oralarida navbat bilan tosh otuvchi va o't sochuvchi zambaraklar qo'yilgan.

Mana tog'dek-tog'dek fillarning yonida uning otliq askarlari piyodalardek juda nochor, juda past bo'lib ko'rinardi. Uni devdek fil minganlar birdaniga yanchib o'tadigandek tuyulardi. Kecha quolsiz qochoqlarni o'ldirishga ikkilanib kirishgan edi. Bu gal shoshib qolishdi. Ayniqsa, mullalar, munajjimlar, xazinabonlar-ning quti o'chdi.

Hukmdor: "Jang bo'layotganda sizlar qayerda bo'lasizlar", — deb so'radi.

Ular: "Ayollar, bola-chaqalar qo'rqadi, biz, shularning yonida bo'lsak", — deb baralla aytishdi.

Hukmdor kulib yubordi.

Dalaning ikki chetidan dupurlagan behisob lashkarlar asta-asta bir-biriga yaqinlashib kelardi. Ikki tarafning eng oldingi saflari bir-biriga juda yaqinlashib qolganida, qoq markazdagi sun'iy tepachaning ustiga chiqdi. Joynamozni yoyib, qiblaga qarab namoz o'qiy boshladi. Namoz o'qiyotib jang maydoniga ko'zi tushib qoldi. Oldingi saf dahshatli fillar va qordek yog'ilgan tosh-lar zarbasiga chidolmay, mushuk kabi asta chekina boshlabdi.

Namozni zudlik bilan o'qib bo'ldi-da, markaziy qo'shindan ikki qanotga qo'shimcha yordam yubordi. Dushman askari ichka-

higa ancha siljigan paytda ikki qanotdan pistirmadagilarning qo'qqisdan hujumiga duchor bo'ldi. Hamma kuchni maydonga oltanirgan yov askarlari, qanotdan bunday zarbani kutmagan edi, ancha sarosimada qoldi. Buni sezgan eng chekkada fursat kutib turgan yana bir guruh ikkiga bo'linib, ikki tomonga intildi. Eng oldindagi qo'shin dushmanni ergashtirib hamon chekinishda davom etardi.

Qo'sh qanotdan hujum qilayotgan lashkarlarni ko'rib to'xtab qolgan yov askarlari fillaridan uzilib qoldi. Bundan foydalangan hujumdagilarning oldingi safi yuz yigirma filni qurshovga oldi.

Ikki doiraning o'rtasida bir-biridan ajralib qolgan yov qancha tirishib urushayotgan bo'lsa ham, asta-sekin shiddatini yo'qota boshladi.

Har tomondan yog'gan o'qlar fil ustida o'tirgan merganlar safini tobora siyraklashtirardi. Picha fursat o'tgach, dovyurak yigitlar qilichlarini yalong'ochlab, fillar tomonga chopishdi. Bir-biri bilan xartumidan bog'langan hayvonlar biqinlaridan g'irch-g'irch sanchilgan qilich va nayza zarbaga toqat qilolmadi, bir-biridan ajralolmay, bir-biri bilan to'qnashib, o'rtidan qo'zg'almay qoldi. Bahaybat hayvonlarga ham jon kerakligini bilgan askarlar zarbani kuchaytirdi.

Fillar orasidagi toshotar qurollarni qo'lga tushirib, fillarning peshanasiga otning kallasidek og'ir toshlarni qordek yog'dirdi. Saldan keyingina yo'l ustida o'lib yotgan fillar ko'paydi. Ular ham qora qonga belandi. Boyagina hammaning zahirini uchirgan devdek hayvonlarning soni tobora ozayib borardi.

O'sha paytda uning o'n to'rt yashar nevarasi bir filni qo'lga tushirib, oldiga olib keldi. Uning yodiga: "Dovudga Sulaymonni berdik, u unga ajoyib yordamchi bo'la oldi", — degan oyat tushdi. G'urur ila dovyurak nevarasining peshanasidan o'pdi. O'sha damda ikki doiraning o'rtasida qolgan yov askarlarining boshiga qora tun tushgandi. Keng dalada yoyilib yotgan o'liklardan ot yurib o'tolmaydigan bo'ldi. Shu kuni peshin chog'ida u poytaxtga kirib keldi. Tug'i yiqilgan elning qolgan-qutgan oqsuyaklari shaharning darvozasini o'zlarini ochib, boshlarini egib chiqib ke-lishdi.

— Ey, faqir, mening nom-u nishonimni nima qilursen? — dedi hukmdor.

— Eh, elimning hamma er yigitlari sendek bo'lsa, qaniydi! Shundan qaytar yo'lda qaysi shaharga kirishsa ham, g'aribni himoya qilgan hukmdor haqidagi rivoyatni aytib yurishganini eshitardi.

Dorussaltanatga kelgach, u o'zi yo'q vaqtdagi voqealarni aytgan bir guruh g'iybatchini to'y vaqtida dorga ostirdi.

Endi hech kim unga shikoyat aytmaydi. Agar bilishi shart bo'lgan noxush xabar bo'lsa, shayxlar va saidlar turli ishoralar bilan bildirardi. Manavi olma ham shularning ishi bo'lmasin! Unda bu nimaning belgisi? O'z eli, o'z tuprog'ida unga qanday xavf mavjud? Yaqin atrofda yuraksinib hujum qiladigan yov yo'q. Mashriqdan kelgan elchiga ozgina vaqtdan keyin nayza bilan borishiga shama qilib jo'natdi. Yo'q, uni birdaniga jo'natib yubor-madi. Eliga aytib borsin deb ikki oy davomida to'yni ko'rsatdi. To'y tugagandan so'ng qaytishiga izn berdi. U yetib borguncha, hukmdor ham otga minadi.

Kecha to'ydan keyin turli tarafga darvesh, devona qiyofasida yuborgan josuslari bilan gaplashgan. Hech qanday xatar yo'q, hududdatinchlik, deyishdi.

Uzoq hududlar va karvon yo'llarining yoqasiga, chegaraga yaqin yerlarda savdogar, darvesh, cho'pon qiyofasida yurgan ming tuyali, ming yilqili xufiya navkarlari ham biror fitnadan xabardor etmagan.

Avomdan soliq to'playdigan vazirlar va viloyatdagi hokimlarning orqasidan qo'ygan voqeanavistlaridan biror tashvishli mujda bo'lmadi. Bordi-yu shunday bo'lsa ham, uzoq hududlardagi bema'niliklarni yashirib nima qiladi... Yoki uzoq safarda yurganida saroyda bir nima bo'lganmi?

Hukmdor o'z atrofidagi shubhalanadigan a'yonlarni, qayoqqa borsa ham, ko'zdan chetda qolmasligi uchun o'zi bilan birga olib ketadi. Bu gal yurish uzoqqa cho'zilishini bilgani bois, bosh vazirni saroyda qoldirgandi. Agar u xazinaga ko'z olaytirgan bo'lsa, bu yarani osongina davolash mumkin. Lekin buni ham belgi bilan yetkazishi shart emas. U har safardan oldin va yurishdan qaytgach,

Behisob lashkar boy poytaxtning lang ochilgan darvozalaridan ichkariga intildi. U lashkarboshilari bilan mag'lub elning saroyida ziyofatni boshlaganida, uning mahoratli askarlari ham shahar ichida bazmni boshlab yuborishdi.

Shaharning tashqarisidan to'rt tomondan to'rt tumanga qorovul qo'ydi, qolganlariga dushman poytaxtida xumoridan chiqquncha vayron qilishni, quchoqlari to'lguncha quchib, xurjunlari to'lguncha talashga ruxsat berilgan edi.

Bu holat ikki hafta davom etdi. Har biri qo'sh-qo'sh ot yetaklagan, ustiga ortilgan xurjunlardan otlar arang ko'rinardi. Askarlar ning nafsi hakalak otgandi. Yuzlab qul va joriyalarni ergashtirib chiqqan askarlar ham bor edi.

Hammasidan ham qisq ko'z, yaltir qoraning ko'rsatgani oshib tushdi. U mag'lub elning bir guruh zodagonlarini ergashtirib, navkarlari bilan birga shahar markazidagi maydonda kelayotganida kuppa-kunduzi bir-biri bilan olishayotgan ikki erkishini ko'rdi. Sal narida bir-biriga qo'shib bog'langan ikki ot, uning yonida qo'llari ip bilan bog'langan o'ntacha erkak-ayol turardi.

Mushtlashayotganlar hukmdorning kelganiga ham e'tibor berishmadi. Ikki ko'zi ko'r shop mo'ylovi dikkaygan kekxa birov bo'yninga ikki qo'lini chirmab olgan qisq ko'z, qotma qoraning chaka-tumshug'iga musht tushirdi. Sharobga to'yib olgan qotma qoraning uzun bo'yni shop mo'ylovining toshdek mushtiga bardoq bermasdan, ko'k eshakning qo'yniga taqilgan qo'ng'iroqdek nari-beri egilib ketardi. Lekin dunyoparast qotmaning ikki qo'li baquvvat ko'rning halqumidan ajralmasdi.

Hukmdor bunday sharmandalikka chidolmadi. Azaliy odatiga zid ravishda ko'ziga qon to'lib, aravadan irg'ib tushdi. Mushtlashayotganlarning yoniga bordi-da, qotma qoraning o'ng yelkasiga qilich soldi. U oyog'ini quchib yerga yiqildi.

Baquvvat ko'r endi uning etagiga yopishib oldi.

— Oh, xayrli inson, kimsiz... Bo'yimdagil onamdan yolg'iz yodgorlik — aqiq shoda edi. Mana bu zo'ravon yaramas tortib olmoqchi edi. Xudo yarlaqasin, ismingizni aying! Hech qachon og'zimdan qo'ymayman, — dedi.

xazinani, albatta, taftish qiladi. Agar bosh vazir nopoklik qilgan bo'lsa, ko'p o'tmasdan bu voqea fosh qilinadi. Lekin u aql va shumlikni, sabr va jahlni muvozanatda tuta biladigan vazir bo'lishi. U xazinaga ko'z olaytirib, o'g'rilik qilmaydi. Mumkin emas. Vazir haqidagi mish-mishlarga ko'p e'tibor beravermaydi. Bunday kishilarga havas qiladiganlar ko'p, hasad qiladiganlar undan ham ko'pdir.

Olma bilan nimaga ishora qilinmoqda?.. Oilasi sog'-omoni. Kechagi to'yda hammasini tugal ko'rgan. Shundan beri kullu jahon ostin-ustun bo'lardek, katta mudhishlik yuz berishi mumkin emas. Bu shunchaki xizmatchi ayolning o'z ishiga beparvo qaraganidan... Lekin olmani tozalaganida ichidagi qurtini ko'rgach, kim bo'lsa ham tashlab yubormasmi? Uni tovoqqa solib keltirgani nimasi? Yo'q, na-da bo'lsa, kimdir buni atayin qilgan. Bundan nimani fahmlamoq kerak?

Hozir navkarini jo'natib, saidlaridan birini chaqirsa na bo'lar? Yurishdan qaytgach piriga ham shoshilinch kirib chiqqandi. Avvalgidek uzoq suhbat qurolmagandi.

Hukmdor tushining yoki boshqa nishonlarning, avval o'zi taxmin qilmasdan, hech qachon hech kimga ta'birini aytdirmasdi. Ichidan qurt chiqqan olma... Buni fitna yoki suiqasdga nisbat berish mumkinmi? Yo'q! Bu xoinlikka, bevafoqlikka ishora-ku. Bevafoqlik! Bunday osuda zamonda unga xoinlik qilib, sog' boshiga savdo tilab oladigandek kim bor?

Sarkardalarining hammasini sanab chiqdi. Hech biri ayni shu damda unga qarshi qo'l ko'tarolmaydi. Bunga sabab ham yo'q. Yirik zafardan keyin, ayniqsa, uzoq yurishlardan oldin sarkardalarining boshiga oltinni yomg'irdek yog'dirish uning azaliy odati. Kungaydagi boy yurti chopgandan keyingi mo'l boylikni ham, so'nggi mag'rib elidan olgan boy o'ljani ham u lashkarboshilari va dovyurak jangchilariga ayamasdan ulashgandi. Lashkarda yurganlarni o'zining mehnatidan o'n marta ortiq baholagan ma'qulroqdir. Ana shundaygina ularni har qanday qonli qafasga haydasang ham tap tortmay borishadi.

Bundan o'n yil avval kungay eliga yurishga otlar chog'ida devonda ikki xil fikr tug'ildi. Katta shahzoda: "O'sha elning

mo'l olinmaga ega bo'lsak, butun olam bizning qo'lda bo'ladi", — deb istagini bayon etsa, vazir-u akobirlar: "Qora chivindek ko'p salfiqi itoat ettirsak, ko'p o'tmay, ular o'zimizni yutib yuboradi. Avlodlarimiz ona tilini ham unutib yuborishadi", — deb e'tiroz bildiribgandi.

Ana shunda yana Qur'on ochtirdi. "Payg'ambar, qoida bilmas, yo'l bilmas buzuqlarga qarshi urush och", — degan oyatning ustidan chiqishdi. Kungay elining oltini ba'zi amirlarning qiyshaygan og'zini qayta to'g'rilab qo'ydi. Qora chivindek son-sanoqsiz elni mag'lub etishning imkoni borligiga o'sha yurishda ishonch hosil qilishgandi. Mashriqning oltini kungayning tillasidan ko'p bo'lmasa, oz emas. "Tiyinni tiyin topadi", — deb tushunadigan el buni yaxshi biladi.

Endi, hozirning o'zida yangi yurishga chiqadiganlar bor-ilkun? Kim? Uning xayollari boshi berk ko'chaga kirdi. Buloq suvi shildir-shildir qiladi. Ushbu tilsim kenglikning qayeridandir yuproqlarini silkitadigan shabada topib oladigan baland og'ochlar boshi shivir-shivir qiladi. Bularning hammasi unga: "O'ylan, o'ylan", — deyaveradi. Orom olsam deb kelganida o'tmish voqelarni esga tushiradigan shu sirli ovloqqa, undagi g'iybatchining og'ziday doim shippillab turadigan barg shitiri va suv shildiriga jahil qilgandek, o'rman turib, yolg'izoyoq so'qmoqqa yo'l oldi. So'qmoq uni qaytadan saroyga boshladi. Bu mudroq osuda dunyoga nima bo'ldi? Atrof suv quygandek jimjit. Mushtdekkina chumchuqlar chirq-chirq etib daraxtdan daraxtga qo'nadi. U ham bir nima aytmoqchidek, tomog'ini qirib qo'yadi.

Ertalabdan beri og'ochlar orasida poylab yurgandek yo'l chekkasidan kiyik qochib chiqdi. Bundan hurkib qochmagan-day, tuyoqlarini dukurlatib masxara qilib ketayotganday tuyuldi. So'qmoq o'rik tagidan o'tdi. Vaqtida yig'ib olinmagan meva o'zi yerga tushib, sochilib yotardi. Ko'pchiligi achib, mog'orlab ketgandi. Qanotlari kunda tovlanib, yalt-yalt etgan barmoqdek-bar-moqdek ko'k pashshalar sochilib yotgan o'rikning biridan biriga qo'nib, vaqtichog'lik qilardi.

Chirik mevadan yomonroq narsa bormi? Bu kechagina oppoq bo'lib yashnagan gul edi-ya. Keyin dovuchcha bo'ldi. Yam-yashil

bargni yo'rgak qilib, daraxtlar jon-u mehri bilan allalagan kichiklar dovuchcha yerdan oziq olib, osmon ko'ksidan nur emib o'saverib. Sariq oltindek yashnab, ko'zga tushguncha shoshdi. Bo'lib to'ldi, bo'lgani-to'lgani shu panjalari shira-shira hasharotlarga yem bo'ldi. Mevaning qadri o'tdek yashnab daraxtda turganida Tepadan yiqilgach, mana shu o'riklardek xor bo'lasan... O'tgan ketgan, hatto burnini jiyiradi. Kechagina sharbatga to'lib ulgurib pishgan shirin meva bo'lganingni unutilshadi.

Daraxtda bitgan mevaga o'z qadrini tushirib, yerda sochilmaylikka Xudo taolo aql bermagan. Osilib-tirmashib yuqoriga chiqqan bandaning yiqilgani — o'lgani... Uni o'zgalarning suq ko'zlaridan yanada yuqoriroqqa chiqarishni istaydi.

So'gmoq saroyini gir aylana o'rab olgan to'g'onning ustidagi ko'prikka boshladi. Hukmdor kutilmaganda hushini yig'ib, boy-adan beri mudramoqqa intilayotgan ko'zini ochib oldi. U tunda qiyofada saroyga kirdi. Holatini o'zgartirmasdan xosxonaga o'tdi. Xizmatchi taom olib kirganida ham u chodirli hovuz yonida, yo'lbars terisi tashlangan taxtada hamon tund holatda o'tirardi.

Xizmatchi ayol katta yoshdagi kishining to'shagiga ilk marta kelayotgan qiz boladek, labini tishlagan holda uning oldiga kelib to'xtadi. Qo'lidagi tovoqni to'garak dasturxonning ustiga qo'ydi. Labini tishlagan bo'lsa ham, betida uyalayotganini bildiruvchi qizillikdan zarracha yo'q edi. Upa surgan cho'zinchoq yuzi oqarib ko'rinadi. Surmali ko'zning uzun kipriklari qitig'i o'lgan chog'da o'z-o'zidan "men shu yerdaman" deb turadigan qaysarlikni yashirib, yolg'on muloyimligini ko'rsatmoqchi.

Avvallari xizmatchilariga e'tibor bermasdi. Bu gal tikilib qaradi. Lekin xizmatchi ayolda uyalishdan asar yo'q edi. Shunda manavi ayol qurti bor olmani hanuzgacha ko'rmaganmi, bilmaganmi? Ko'rgan bo'lsa nega uyalmaydi? Xizmatchining yuzida hech qanday o'zgarish bo'lmadi. Dasturxonni tuzatib bo'lgach, boshini egib, ta'zim qilgan holda, faqat ayollargina o'ylab topa oladigan chiroyli jon olguvchi xirom bilan eshik tomon siljidi. Eshik yopilgandan keyingina dasturxonga qaradi. Dasturxonda ayni shu olma turardi. Bu safar pichoq bilan kesilgan chizig'i aniq ko'rinib turardi. Yana bir o'zini boshqa taomlardan ajratib qo'yibdi.

Demak, bu ayol hammasini bilar ekan!

Hollashning yonida turgan qo'ng'iroqqa qo'l yugurtirganini o'zi bilmay qoldi. Eshikda boshini egib, ta'zim ila xizmatchi ayol qaytishga ko'rindi. Hukmdor butun jismini egallab olishga intilayotgan qahri yashirishga bor kuchini sarf etardi.

Poygakda muloyim qarab turgan ayolga nima deyishini bilmay dovdirab qoldi.

— Manavi olmani shu yerdagi bog'dan uzdingmi?

— Yo'q, shohim. Sizga ataylab ulug'malika jo'natibdi.

— Boraver.

Chiqib borayotgan xizmatchi xiyol kulimsirab qo'ydi...

Xizmatchi ayolning kulimsirashi, odatda, jimir-jimir qilib oqadigan buloqning yuziga ham ko'chib o'tgandek. Qora yerning ko'krigidan sim-sim iymayib chiqqan buloq suvi sal o'tmasdan to'lqinchadek o'ynoqlay boshlaydi, hatto sasida ham ajib bir xiralik bordek: shildir-shildir...

Dunyoning suq ko'zlaridan xoli deb keladigan o'ymoqdekkin bu ovloq joyini ham keyingi kunlari azozil egallab olganmi? Hatto tagidagi toshning o'zi: "Bu kimsa tokaygacha o'tiraveradi", — deb noliyotganga o'xshardi.

Hatto og'och boshidagi o'ynoqi barglar ham bir-biriga uning bilolmayotgan xufiyasi haqida shivirlashyaptimi?

Avvallari shu yerga kelganda shubha-gumonlarning hammasi yozilib, ko'ngliga g'uluv solgan achchiq xayollar o'z-o'zidan barham topardi. Bu safar ortiqcha so'zlar ko'payib ketdi.

"... Ulug'malika yuboribdi".

Eng oxirgi yurishga katta nevaralarini boyvuchohasi bilan birga olib ketgandi. Doim ko'chib-qo'nib yurganidan bolalar yurini sog'indi, bundan ikki yilcha avval uni nevaralari bilan birga orqaga jo'natib yuborgandi.

Yaqinda, bahorda yurishdan qaytib kelayotganida atayin cho'par jo'natganida, u bunday shoshilinch yangilik haqida og'iz ochmagandi. Yurishdan so'ng to'ygacha bir yarim oy davomida poytaxt yaqinidagi ulug'malika va nevaralari yashaydigan saroyda hordiq olgandi, boyvuchcha bunda ham mudhish yangilik haqida "g'ing" demagandi.

To'y bo'layotganida ham uning yuzlarida ranj alomati bo'lgan emas. Endi kutilmagan bu ishorani qanday tushunsam ekan? Nima bo'lsa ham, to'ydan keyin bo'lgan. Agar avvalroq sodir bo'lgan voqea bo'lsa, shuncha vaqtdan beri sukut saqlab, endigina aytib tasavvurga sig'maydigan hol.

Malikaning saroyiga shahzodalar ko'p borardi. Bunga sabab onasini yaqin tutgani emas, balki buvilari bilan birga yashaydigan bola-chaqalarini ko'rish edi. Yoki ulardan bir nojo'ya atvor kutatdimikan? Lekin farzandlarining xatti-harakati uchungina unga shikoyat qilmaydi-ku? Shuningdek, ular onasining aytganlariga doim rozi bo'lardi.

Shahzodalarda qanday nojo'ya qiliq bo'lishi mumkin... Yomon aytmasdan yaxshilik yo'q, ko'zi yumilgan chog'da o'rniga kim valiahd bo'lishini allaqachon e'lon qilib bo'lgan. Valiahdi tomondan birov shumlik bo'lishi mumkin emas. Yoki unga boshqa jigarlari ko'z olaytirdimikan? Bu ham mantiqqa to'g'ri kelmas. Hammasi bir onadan tug'ilgan. Birinchi ayolidan tug'ilgan eng katta o'g'li uzoqda, kungay yurtida hokim. Bu yerdagi uchta shahar hali hokimlik ta'mini sezishmagan. Yopiray, shunda nima bo'lgan ekan?... Yoki safar tadorigini ko'rishib, bugun-erta yurishga otlanamiz deb turishganda bolalarning boshini aylantiruvchi azozillar topildimikan? Yetti yil davomida safarda yurib, uy-o'tboshiga endi kelgan, ayoli, bola-chaqalari oldida endi oyog'ini cho'zib yotgan askarlarning kutilmaganda qaytadan otga o'tirishga ishtiyoqlari bo'lmasligi haqiqat. Buni avvaldan bilib, urushda o'zini ko'rsatganlarning boshidan tilla sochgan edi-ku. Ayni shu uning xatosimidi? Birdaniga taqdiralmasdan, biroz umidvor qilib kuttinganida to'g'ri bo'larmidi?

Sal ilgariroqda amirlardan biriga: "Turklarning ko'zlari qisiq bo'lsa ham, ko'ngillari shunchalik ko'p narsani tilaydi. Ularni halol xizmat etkazishning chorasi shuki, ko'zini mol-dunyoga, ko'nglini maqto'v to'ydirishdir. O'zgidan tekin ol, o'zingnikini sotib ol", — deb maslahat bergandi.

U ko'p ellarni zabt etib tortib olgan oltin va qimmatbaho toshlarni o'zining qo'l ostidagilarni sotib olishga sarflayotgani ayni haqiqat-ku! Chunki oltindan boshqa narsa xotinlari qo'ynidagi er-

larni iliq to'shakdan turg'izolmasdi.

Kechagina birov chatoq chiqarishi mumkin bo'lgan dunyoparlantlariga xazinasini taqsimladi. Mansabparastlariga daraja taqsimladi. Ularning nafsini qitiqlayotgan qurtini shu holda mahv etgandek bo'lgandi.

Ushbu muddatda nima bo'lgan ekan?

Mashriqdan kelgan elchini amir va sarkardalarga, hatto o'z farzandlariga ham yaqinlashtirmagan edi. Elchi uning qurgan mayda tuzog'idan chumoli bo'lib o'tadigan yo'l topganmi?

Nima bo'lsa ham, fursat kuttirmaydigan zud xabardir bu. Chunki boyvuchchasi yaqinda, aytadigan gapim bor, deb kishi yuborganda, keyin gaplashamiz, deb to'xtatib qo'ygandi. Endi, mana, ortiqcha kutishga toqati yetmadimi, olma yuboribdi. Hozir o'g'illarini chaqirtiramikan? Lekin yomonlik aytmasdan yaxshilik bo'lmas, ulardan birini taxtparastlikning azozili avrab yurgan bo'lsa, buning ustiga, kutilmaganda o'g'illarini chaqirgani bunday qora niyatli ishni tezlashtirib yuborishi mumkin. Yo'q, hozir ularni chaqirish fursati emas... Boshqa bir muhim ishdur. Bordi-yu farzandlarining dilida g'arazli niyat tug'ilgan bo'lsa ham, boyvuchchanning xuddi shunday hammadan oldin chang chiqarib, o'z qo'li bilan tutib berishi mumkin emas.

Ulug' malika marhum ayolidan qolgan katta o'g'lini o'z farzandlaridan kam ko'rardi. Shuning uchun uni ko'z ko'rmas uzoqqa, chekka hududga hokim etib yuborgizgandi.

Pirga turli xil mulozamatlar ko'rsatib, uni holiga qo'ymasdan o'zining katta farzandini valiahd deb e'lon qildirgandi. U katta o'g'lining ko'ngli uchun biroz cho'zib yurdi, lekin o'g'li boshqa ukalarining ola qarashlaridan o'zini uzoqroq tutishni ma'qul ko'rди, shekilli, valiahdlikdan voz kechib, uzoq kungay elga hokim etib yuborishni o'tindi. Bu bilan otasini ham ikki o't orasidan olib chiqdi.

To'ng'ich o'g'lining bu ishi esiga tushganda uning Asqar tog'dek ko'ngli birdan cho'kib qolar, mungga botardi. O'zini har tomondan bezor qilgan nojo'ya so'roqlar ham birdaniga jim bo'lib, allaqayoqlarga ketib qolardi. Esiga o'sha sargardon yillari tushdi. Uning avlodi yetti otasidan beri sarkarda bo'lgan. Katta

bobosi Ulug' xonning katta o'g'lining lashkariga boshchilik qilgan ekan. Shu an'ana avloddan avlodga ko'chib, unga ham yetib U ham shu o'lkada mashhur kekxa hukmdorning lashkarboshi edi. Kekxa hukmdor uni o'z bolalaridan ham ortiq ko'rdi. Qiziq uylantirdi. Qaynotasi dushman qo'lida qazo qillgach, taxt unga buyurdi.

O'sha damlarda Mavoraunnahr qirq bo'lakka bo'lingan edi Hammasi ham yer tubidagi Ulug' xonga tobe edi. U taxtga o'tib gan mayda xonliklarning boshini biriktirishni istadi. Buning uchun har biri o'z oldiga xon bo'lib olgan kimsalarning har biriga alohida da: "O'zgalarni yo'q qilib, mamlakatga ikkimiz hukmdor bo'lamiz", — deb xat yozdi.

Hokimiyat deganda yuksak orzularni o'ylab yurgan amirchalar unga xat yozib, roziligini bildirdi. Busiz ham bir-biriga qasd qilib yurgan mayda xonliklarning o'rtasiga olov yoqildi. Lekin bu orada ko'p qo'shin bilan Ulug' xonning o'zi shu yerga kelib qoldi. Amir boshqa amirlardan birinchi bo'lib, Ulug' xonni ta'zim bilan kutib oldi. Maqsad: mayda xonliklar o'rtasidagi o'z mavqeyini mustahkamlash edi. Lekin Ulug' xon avlodi unga ishonch bildirmadi, taxtdan olib, yana lashkarboshilikka tayinladi. Hatto, ko'p o'tmay, uni Ulug' xon avlodiga fitna tayyorlamoda deb yashirincha o'ldirmoqni niyat qilishdi. Xudo qo'lladi, uni o'ldirish haqidagi buyruq uning qo'lga tushdi. U eldan qochib ketdi.

Yaqinda yurishdan qaytib kelayotganda o'tgan bepoyon qumliklar ichida bir necha yil qochib, yashirinib yurishga to'g'ri keldi. Ayolini yetaklab yurib, ko'p yerlardan o'tdi. Talay-talay qumlikda yalangoyoq izi qoldi. Hozir momiqqina narsadan boshqa tegmaydigan tovoniga qadalmagan tikan qolmadi. Qumga tushgan yalangoyoq izini shamol o'chirdi. Tikan teshgan yaralarni vaqt tuzatdi. Ana shu kunlarni bugun faqat katta o'g'lini ko'rgandagina eslaydi. Uni boshqa farzandlariga qaraganda o'zgacha mehr bilan yaxshi ko'ardi. Chunki u bo'lmaganda, uning bu kunga, bu darajaga yetishiga shubhasi mo'l edi.

Bepoyon sahroni kezib tentirab yurganida, qumloqdagi bir bekning qo'lga tushdi. Ayoli ikkovini qirq quloqli chuqur zindonga tashladi. Zindonga kunduzi quyosh shu'lasi, kechasi oy

ni tushmasdi. O'lim og'zidagi ularni masxara qilgandek bo'lar-ke'linas yorug'lik yaltirab ko'rinadi. Ba'zan jani hurpaygan katta tepak zindon tepasidagi zaif nurni to'sib, tepadan qorong'ilik yuborganday bo'ladi. Suyagiga sim-sim botayotgan, zirqiratayotgan zaxga chiday olmasdan u yonidan bu yoniga ag'darilayotgan kelinchakning qo'lidagi temir kishangina vaqti-vaqtida qulunning kishanganidek ovoz chiqaradi.

Zindonband ikkisi busiz ham ko'ngillarini tobora qorong'ilashtirayotgan afsus va achchiqning qon sachragan yarasini qashlagisi kelmaydi, bir-biriga so'z aytmaydi. Tez-tez xo'rsinib qo'lyadi.

Shu tariqa qirq to'qqiz kun o'tdi. Elliginchi tun sutdek yorug' bo'ldi. Ular buni zindonning og'zidagi kumush tovoq to'ntarib qo'ygandan yaslanib yotib olgan o'zgacha nurdan sezishdi.

Qora go'rdek qafas tubida shuncha kundan beri sir boy bermay kelayotgan kelinchagi birdan jonini qo'yishga joy topmasdan voyvoylay boshladi. Butun jismi o't bo'lib yonardi. Peshanasidan sharros ter quydi. Qo'li kishanli. Arang nafas oladi, tinmay baqirardi. Suyak-suyagigacha qaqshab, avvallari boshidan kechirgan notanish azobga iloj topolmasdan, zax devorga takror boshini uradi. U yelkasini tutadi. Ayolning toshdek og'ir boshi uning yelka suyaklarini sindirib yuborguday bo'lib zarbani kuchaytirardi. Ancha vaqt o'tgach, ayol obdan holdan toydi, jimib qoldi. Shu paytda u hech qachon eshitmagan, avval bo'g'iq, so'ngra quloqni batang qiladigan chinqiriq eshitildi.

Shu lahzada quduqning og'zidagi aylana nur birdan g'oyib bo'ldi va qaytadan yarqiradi.

Orqasidan uning ko'kragiga yengilgina bir narsa urilgandek bo'ldi.

Iyagi bilan izlab topib oldi. Kalit ekan. Kalitni tishi bilan tishlab, behol yotgan ayolning qo'lidagi kishanni yechdi.

Ayoli chirillagan tovushdan uyg'onib ketgandek, joni kirib, qo'zg'ala boshladi. Saldan keyin hushiga kelib, qaytadan voyvoylay boshladi.

— Bo'l, mana kalit bilan mening qo'limdagi kishanni bo'shat, — deb baqirdi u.

Ayol qorong'i qafasda uning qo'lini arang topdi. Keyin kabinani topolmay, biroz o'vvora bo'ldi.

— Bo'l, bo'l, — deydi u zarda bilan. Chirillagan ovoz tin masdi.

Ko'p o'tmasdan, kishan ham yechildi. U shosha-pisha ovoz chiqayotgan tarafga intildi. Qo'li iliqqina bir narsaga tegib Kichkina chaqaloq kindigi uzilmasdan yig'lab yotardi. Achchiq chinqiriq asta-asta pasaya boshladi.

U chaqaloqning bag'riga boshini qo'ydi-da, iliqqina ichakni tishi bilan uzib yubordi. Ayolining sochidan yulib olib, yechilmay digandek chandib bog'lab tashladi.

Bag'ridagi iliqqina mushtdek go'sht shundagina joni tinchlanib, ko'kragiga yopishdi. Ko'p oylardan beri zo'riqib yurgan asablari tivitdek titilib, suyaklarining hammasi bo'shashib ketdi. U arqonni avval ayoliga bog'ladi. Keyin kichkina chaqaloqni quchoqlab o'zi chiqdi.

Ayolining bo'ynidagi yoqut shodani uzib olib zindonning og'zida turgan juni hurpaygan katta telpak kiyan qora soqolli kishiga berdi va uning qo'lidagi qilichini yulib olib, bek o'tirgan o'rdaga qarab yurdi.

Zindon boshidagi g'ovur-g'uvurni eshitishi bilan har tomonga alanglab yugurib chiqqan qurolli navkar bir qo'lida chaqaloq, bir qo'lida oq olmos tutib, o'rdaga qarab kelayotgan yalangoyoq, yalangbosh, yuzi sovuq kishiga birdan nima qilishini bilmadan kalovlanib to'xtab qoldi.

O'rdaga kiraverishda ikki navkar uni to'xtatmoqchi bo'lib tashlanishdi, qopag'on itni qamchi bilan urib tashlagandek, o'ng qo'lidagi oq olmos oy nurida ikki marta yarq etdi, ikki bo'sag'a qip-qizil qon bilan bo'yaldi. U ayolini yetaklab bekning oldiga kirib bordi. Eshik oldidagilar uning yo'lini to'smoqchi bo'lishgandi, bek ularni imo bilan to'xtatdi. Qilichlar qayta qiniga kirdi.

Bek biror narsani mulohaza qildi, shekilli, ularni chaqaloq qirg kunlik bo'lguncha alohida chodirda parvarish qilishdi. Qirg kundan so'ng ikkovini ikki otga mindirib, qochirib yubordi.

U maqsadiga yetib, avval o'zini xor qilganlarni birin-ketin oyog'iga yiqiltirib, elga tanho hukmdor bo'lgandan keyin o'sha

qon orasidagi makonga ko'p askar bilan yo'l oldi. Manzilga yetishga bir haftalik yo'l qolganda daryoning sohilida otlaridan tushib, nayzalarini qumga sanchib tizilishib turgan paxmoq telpakli qo'labini ko'rdi.

Ular yaqinlashaverganda oralaridan uch kishi ajralib chiqib ketaverdi. Hukmdor o'rtadagi cho'qqi soqolli kishini tanidi. U o'zini qochirib yuborgan bek edi.

Oralarida besh odim masofa qolganida:

— Mana bu — Qur'on, mana bu — qilich. Bizga ishonsang, Qur'on ushlab ont ichamiz. Ishonmasang, mana qilich, hammanizni chopib tashla. Biz qilich ko'tarmaymiz, — dedi.

Bek umrining oxirigacha unga sadoqat bilan xizmat qildi.

Birinchi ayoli o'tiz to'qqiz yoshida qazo qildi. U malikalar kabi davr-u davron surmadi, faqat sadoqatli yor bo'la bildi. Qiyin damlarda birga bo'ldi. Hukmdor unga otalik baxtini dastlab ato etgan, dushmanning so'zi va g'iybatidan muz bo'lib qotib qolgan sovuq yuragiga iliqlik baxsh etgan qadrli yoriga atab masjid qurdi.

Katta farzandini ko'rgan sayin yuragi hapriqib ketadi. Yoshlik chog'i, fidoyi yori yodiga tushadi. Uni ovloq hududga noilojlikdan jo'natdi. Shu kungacha farzandining dushman elning o'q bo'lib otilar tinglab ko'zining nishonida yurganini o'ylasa, butun jismi titrab, orqasini muz sidirib o'tgandek bo'ladi. U jo'nab ketgandan beri, mayli u behisob lashkar boshida bo'lsin, mayli u shohona bazmlarning to'rida o'tirsin, mayli u to'rt yonida to'rt o'g'li, nevaralari atrofida bo'lsin, o'zini allanechuk yolg'iz his qiladi. Ushbu ko'l-daryo osmonning tagida hammaning abadiy hamrohi yolg'izlik bo'lishini endigina tushunganga o'xshardi.

Rahmatli volidasi boqiy dunyoga rixlat qilur oldida, oriq jus-sasini arang ko'tarib o'tirgandi va:

— Bolam, sening orzung ushaldi. Men esa armonda ketayapman. Bepoyon sahradagi avliyo qabrining boshiga ekilgan yolg'iz og'ochdek seni yolg'iz tashlab ketyapman. Tagingdagi taxtni kovushingdan ortiq ko'rma, undan ham nam o'tadi. Tepangdagi oq o'rdangni sovutingdan kuchli hisoblama, unga ham ko'z tegadi. Ko'p zavjangdan tug'ilgan naslingni suyanchim dema, ularga ham so'z o'tadi. Behisob ko'p lashkaringni qalqoningdan kuchli dema,

unga ham ko'z tegadi. Qaysi ayoling issiq-sovug'ingdan sabab oladi? Har ko'rpaning tagidagi ayol ham bir — uyurdagi tuya ham bir. Sag'irdagi sondan ko'ra, bag'irdagi qulun yaqin. Erkak top ulg'aygach, avvalo, otasini tishlaydi. Shundan ehtiyot bo'l. Ko'p o'g'lini kim topib, rohat ko'ribdi. Qarigan chog'ida uyasini belalariga oldirib, izg'irinda qolgan qari bo'rining holiga tushmayib desang, ko'p o'g'lingning birini mahkam tut. Ko'p xotinning hammasiga yoqaman deb xushomad ko'chasiga kirma, qadringni o'tkazib, birini mahkam tut. Sening otang, o'g'li bitta bo'lgach, ertaroq otdan tushib, mansabini senga berdi. Sening farzanding ko'p. O'z kuchuklaringni ko'z oldingda urushtirib qo'ymasdan, kuning bitguncha taxtingni berma. Taxtdan tushgach, farzandi bor xotinni panalama, u bolalariga suyanib, qadringni ketkazadi; farzandsiz ayolni panala; farzandi bor ayollarning oldida farzandsizligidan iymonib, o'zingni pana tutib, o'la-o'lguncha xizmatingni qiladi, — degan edi.

Hech kim eshitmasin, o'zi chuqur anglab olsin deya, qo'lini mahkam ushlab olib, shivirlab, tikilib o'tirib aytgandi. O'sha so'zlarni eshitganda uning butun avzoyi badani jimirlab ketgandi. Aytar so'zini aytib bo'lgach, behol lablar qaytadan birikdi, picha vaqt uning yuziga tikilib turgan xira ko'zlar o'z-o'zidan asta-asta uzoqlashib borayotgandek tuyuldi. Kasal mag'lub qilgan kampirning qo'li yumshoqqina to'shakka shilq etib tushganda jami jahonni zabt etgan hukmdor bo'lsa ham, hali ko'zi ochilmasdan onasining bag'ridan ajralgan kuchukdek sarosimada qolgandi.

Shundan beri uzoq yurishlardan elga qaytganida onasining o'sha so'zlarini doim xotirlardi.

Hozirgi ulug' malika haqiqatda boyvuchchaning o'miga kelgan o'rinbosar boyvuchcha bo'lib, Ulug' xoqon avlodning qizi edi. U ko'plab ellarni birlashtirib, yulduzi kulib boqayotganida, naslida hech kim taxt sohibi bo'lmagan, oqsuyak ham emas, qorasuyak ham emas, ola suyak deb ko'z olaytiradigan baquvvat avlodning o'zini kindigidan bog'lab, qo'lida mahkam tutib turish uchun atayin shu malikaga uylangandi.

Faqat zafar quchgan muzaffar avlodning qizi uning qilichi dastidan bir tug'ning ketidan ikkinchi tug'ning yiqilayotganini

ko'rib, o'z yurtidan ko'ra hukmdorga yaqin bo'lib ketdi. Ona yurtning ba'zi mish-mishlariga e'tibor bermaydigan bo'ldi. Qizlarning o'zlariga ters qaraganini ko'rib, ular ham bunga sovuq munosabatda bo'la boshladi. Qayn yurti endi qizlari uchun emas, hukmdor uchun keladigan bo'ldi. Chunki kekkeygan zulmkor naslning amalga oshmaydigan cheksiz-chegarasiz ko'p amallarini qilarlidan ko'ra u osontroq bitirib berardi. Hozir uning nayzasidan osmondagi va quyoshning o'zi hadiksiraydigan ahvolda bo'lgan bir damda ular bir paytlardagi baquvvat sulolaning avlodlari ekanini unutgan, ilgorigidek takabburlikni esdan chiqaray degandi. Ular bora-bora ajodlarini tilga olmasdan, endi bo'lar-bo'lmasga hukmdorning zafarlarini aytib maqtanadigan bo'lishdi. Keyingi paytlarda shahzodalar ulg'ayishib, yurishlarda qatnashib, dov-yurakligi bilan tillarga tusha boshlaganida uni madh etish o'miga: "Bizning anavi jiyvan falonchi og'amga o'xshadi, u otasidan ham o'zadi", — deb jiyvanlarini faxr bilan, maqtashni boshladi.

Faqat o'g'il farzand ko'rib, hammasi omon-eson yigit yoshiga yetgach, ulug' malika avvalgidek xushomad-u tavozeni kamaytir-di. Hatto keyingi paytlarda nevaralarini o'z saroyiga to'plab oldi. Yurishdan qaytgan vaqtni hisobga olmaganida saroyda yotib olib: "Kerak bo'lsa o'zi kelsin", — deydigan darajaga yetdi.

Bir necha yil avval onasining so'zini yodda tutib, tog'a tomonidan bir qarindoshining qiziga uylandi. Kichik malika shunda endigina o'n olti yoshga to'lgandi. Uning xulq-atvori dastlabki umr yo'ldoshini eslatardi. Ortiqcha urf-hashamsiz, muloyimgina. Hukmronlikning azozil ta'miga o'rganmagan, g'o'r, yosh. Keyingi yurishiga ulug' malikani olib, uni shu yerda qoldirib ketgandi. Kichik malika yurishdagi yorining hurmatiga minor qurdiribdi. Bepoyon shahardagi eng baland minor — ana shu.

Olmos xon shu alohida saroyni kichik malikaga bergandi. Endigi yurish oldidan o'zgina hordiq vaqtini o'sha yerda o'tkazmoqchi. Qarigan chog'ida avvalgidek saroydan saroyga ko'chib yurmasdan, shu yerda muqim qolmoqchi.

Balki, boyvuchchasi hasad qilayotgandir. Boyadan beri shuni ham fahmlamadingmi degandek, naq burnining tagidan ari uchib o'tdi. Tepasidagi barglar ham yoppasiga shitirladi.

U xayoliga tuyqusdan kelgan fikrdan hayron bo'ldi. Yoshlik da har qanday muammo ustida bunchalik bosh qotirmasdi. Yash tozidek o'ljani qayerdan izlashni bilmasdan iz izlab yurmasdi Albatta, ilgari yonidan chiqarmaydigan takabbur boyvuchcha yosh malika bilan alohida ketganiga ko'nmas. Marhum ayoliga masjid qurdirgan yili ham ulug' malikaning uzoq vaqt qovog'idan qor yog'ib yurgandi. Agar masjid g'ashiga tegib yurgan bo'lsa, endi, mana, yangi minora o'lgan ustiga tepgan bo'libdi.

Qari ayol eriga ko'pning so'zini yetkazib yoqishga harakat qilmasa, boshqa nimasi bilan yoqadi? Haligi qip-qizil olma ham shunday ichiqoralikdan paydo bo'lgan nishon. Endi buning uchun bosh qotirishning zarurati yo'q. Hukmdorning uzzukun jonini zir qiratgan qurtning ishtahasi yo'qoldi, yelkasidan og'irlik tushdi.

Hukmdor shu kuni tinchgina uxladi. Ertalab bardam bo'lib uyg'ondi. Nonushtadan keyin aravani qo'shtirdi. Saroy darvozasidan yarqirab chiqqan arava ortidan navkarlarini ergashtirib, yangidan qurilgan o'ziga xos minoraga yo'l oldi.

Uch tarafni o'ziga itoat ettirgan hukmdor o'zi bosib olgan ellarda toj va taxtga qanday o'ch bo'lsa, hashamatli saroylar va minoralarga ham shuncha qiziqardi. U jahondagi hukmdorlarning hammasidan o'zgani kabi poytaxtini ham olamdagi barcha shaharlardan latif etmoqni istaydi. Shuning uchun oxirgi yurishdan mingdan ortiq ustani safga tizib olib kelgandi.

Har yurishdan qaytgach, albatta, poytaxtni aylanib chiqadi. Hozir bepoyon shahar o'zi ko'rgan barcha shaharlarning hammasidan a'loroq edi. Bu safar ham yana bir bor mamnun bo'ldi. Kichik malika uning ko'nglidagini ko'rmasdan bilib, ko'k bilan bahslashgan ko'k minora qurdirib qo'yibdi.

Qurilish uchun yerni ham muvaffaqiyatli tanlabdi. Juda uzoqdan o'zini ko'z-ko'z qilib turadi. Atrofi ochiq. Boshqa minoralarining hammasidan uzoqda.

Ana, minora kulimsirab qarshi olmoqda. Ko'rishing bilan oq birdan ko'ngling yorishadi. Anchayinda chiroyi ketib oqarib turadigan saraton osmoniga zangori rang qaytib kelgandek, ayniqsa, minora tepasidagi osmon tip-tiniq ko'rinardi. Ular yaqinlashgan sayin minora yuksalaverdi. Kulimsirab turgan yuzi jiddiylashdi.

Juda yaqin kelishganida zangori ko'kka tepasini tirab chalqancha yotib oldi.

Hukmdorning ko'nglida bir-biri olishayotgan, birini biri aldayotgan ikki xil tuyg'u birdan jim bo'ldi. Ko'z oldida osmon bilan ta'lashayotgan takabbur minora ko'nglidagi ko'p xavotimi quvib yubordi. Bunday yuksak minora boshqa shaharlarda yo'q. Faqat o'z poytaxtida borligiga yana bir bor mamnun bo'ldi. Boshqa shaharda bo'lganida edi, orqasidan ergashgan behisob askarlari allaqachon qo'llariga bolta olib, osmondan qarab turgan tosh maxluqni vayron qilgan bo'lardi. Bu gal hammasi og'izlarini ochib qoldi. Bundan keyin bu minora uning juda baland ko'tarilgan ko'k tug'idek jumla jahonning tepasidan qarab turadigan bo'ladi. Ulug' hukmdorning o'zi kabi uzoqlardan men shu yerda-man deb o'ziga chaqirib oladi-da, yoniga kelganda osmonga chiqib ketadi.

Ko'k minora o'zidan ko'z uzishga izn bermasdi. Hukmdor takabbur go'zalning mag'rur yuziga termilib qaragan o'spirindek hayratlanib qarab turaverdi.

U mazkur ko'k minoraga, uning suluvligiga suluvlik qo'shishni istagandek tepasida to'ng'irilib yotib olgan tiniq osmonga, yetti yil davomida shunday yuksaklikka chumolidek o'rimalab, shunday minorani bunyod etgan ustaga, uzoq yurishdan charchab kelganida o'ksik ko'nglingni lochindek qanot qoqib osmonga ko'tarib ketadigan ko'z quvonchini bunyod etgan yoriga, uning obro'sini oshirib, atog'ini yoygan ushbu yorug' dunyoning hammasidan mamnun edi. Ko'k minora uzoqlasha boshlasang, yana avvalgidek iliq qiyofaga kiradi. Yoniga borganingda, osmonga tik qarab jiddiy holatda turgan ko'k toshlar qaytadan jilmaya boshlaydi. Yana ham uzoqqa borsang, ko'zingga o'tdek bosiladi. Boyagina osmonga qarab, e'tibor bermagan mag'rur go'zal yonidan ketishning bilan kulib, yana o'ziga chorlab turadi. Ketging kelmaydi. Bu minorada erkakka xos mardlik va takabburlik emas, ayolga xos mag'rurlik va mehr birlashgan o'ziga xos yoqimli go'zallik mujassamlashgandi.

Hukmdor birmuncha yurishlari davomida ko'p saroy va minoralarni ko'rgan bo'lsa ham, ayni mana shunday suluvlikka duch

kelmagan. Undan ko'z uzolmadi. Ko'nglini bog'lab olgan o'ngacha chiroy sehriga hamon tushunolmay kelyapti.

Yoniga kelgan kishiga sovuqqina, uzoqdagi mehribonlarga kulimsirab qaragan, kela qol, kela qol, deb yolvorayotgandak melatibon go'zal, vafodor yordek yuksak minoralar... Minorani qurgan ushbu yosh xonimning uzoq yurishdagi yoriga bo'lgan sog'inchi ham habbatini ayni xatosiz tasvirlagan...

Boyagina yarq-yarq etib yonida turgan yuksak minoralar yana ham uzoqlashgan sari allaqanday g'amga o'ralib, yuragingni qirratgan motamsaro minoraga aylana boshladi.

Endi: "Nahotki, tashlab ketsang? Ketma... Ketmagin...", — deb yalina boshladi. "To'xta! Qaytgin!"

Kutilmaganda bu fikrni kimdir jismiga sochib yuborgan edi, yuragidan otilgan shiddatli buyruq halqumiga kelib turib qolgandi, aytilmadi. Hukmdor chalqancha yotgan yumshoq suyanchiqdan boshini yulib oldi, lekin indamadi. Endi saroyga qaytib kelguncha minoralar tomonga qaramaslikka ahd qildi. Uning xatti-harakatini yonidagi navkari kimlarga qanday tarzda aytishini bila olmasdan, yumshoq suyanchiqqa yana boshini qo'ydi, chalqanchasiga yotib, ko'zini yumib oldi.

Tushlik vaqtida ham ko'ngli g'ash edi. Ishtahasi bo'lmadi. Asal qo'shib sovutilgan qovundan bir tilim yedi, xolos. Sovuqqina qovun yurak notinchligini bosgandek bo'ldi. Bu gal dasturxonaga olma qo'yilmagan. Xizmatchi ayol ham yerga qaragancha o'z ishi bilan band bo'ldi. Kechagidek unga ma'noli qarashlari sezilmadi...

Xizmatchi ayol ketgach, keng xonaning qoq o'rtasidagi qo'n-g'ir, ko'k marmar taxtachalarni uyg'unlashtirib ishlangan hovuz yonida "qulq-qulq" qilib chiqayotgan suvga qarab biroz o'tirdi... Suv yuzida paydo bo'layotgan, so'ngra suv tagiga kirib yo'qalayotgan ko'z yoshidek pufakchalarga qarab o'tirib, ko'ngli yori-sha boshladi. Bahorning mayin shabadasidek allaqanday yoqimli hisdan uning yonida ko'p yillardan beri qo'zg'almasdan yotib olgan qattiqlik va shafqatsizlikning gung muzi asta-asta parchalana boshlagandek edi. Shunday bo'lsa ham, qarab o'tirib bir nimaga bezovtalanib, g'alati yolg'izlikni his qildi. Kutil-

maganda yuragida shafqat uyg'ondi. Sal-sal ko'rinib, bir soniya o'tmasdan qaytadan yo'qolib ketayotgan suv tomchilarigami yoki g'amgin ko'k libosga o'ralib olgan minoragami, nimaga achilib o'tirganini o'zi ham bilmaydi... Mana bu shaffof suvdek yoqimli hislar yana malikani eslatdi. U minoralar orqali uzoqdan qo'l silkiib sog'inchi va intazorligini, o'zgalardan bo'lak muhabbatinigina emas, yolg'izligini, boshqalarning noxolis ishlarini ko'rib, g'amga botgan g'amgin ko'nglini, "kelgin, dardimni tingla, tushun, panohingga ol" kabi o'tinchini to'liq ifodalagan edi. Yuksaklik va noziklik, shodlik va ma'yuslik, mardlik va shafqat, sog'inch va xushtorlik — hamma-hammasi birlashib muhabbatni tashkil etadi.

Buning nima ekanini boshqalar bilmasa ham, hukmdor biladi. Rahmatli boyvuchchasi ko'p kunlab sahra kezib, quvg'inlarni ta'qibga chidolmasdan, uning pinjiga kirishga uyaliib, tortinibgina: "Rosa tinkam quridi, salgina qo'llab yuboring", — deb qiynalganda, horgin nigohidan xuddi shunday bir-biri bilan birlashib borayotgan ko'p hislarni ko'rar edi.

Katta o'g'li xayrlashish uchun kelgan kuni ham, qalin qovog'ining tagiga chuqurroq yashirishga intilgan nigohidan xuddi onasining ko'zidan tushungan o'sha g'amgingina holatni ko'rgandek bo'luvdi.

Minoradan uzoqlashib borayotgan paytdagi ko'ziga ko'ringan ko'rinishdan ham o'sha o'ziga boshqalardan yaqinroq, iliqroq ikki kishining nigohidan sezgan, til bilan aytib berolmaydigan sehrli holatni ko'rgan ekan-ku! Sehrli minoradagi boshqacha suluvlikning siriga endi tushungandek bo'ldi. U kichik malikani ayni hozir ko'rishni, uning iltijoga to'la nigohiga hozir tikilib qarashni istadi.

Ko'kragi nimagadir birdan hayajonga to'ldi. U hozirgidek jo'shqin hissiyotni ko'pdan beri boshidan kechirmagandi. Kutilmaganda bunday holga duch kelganigami yoki ko'p yillardan beri bunday tuyg'usiz qanday yashayotganigami — qaysisiga hayron qolishini bilolmadi. Nima bo'lsa ham, malikani ayni hozir ko'rmog'i lozim. Uning nigohlari qanday ekanini ham unutilib qolibdi. Ikkovi alohida qolmaganiga ham ko'p bo'lgan. Hamman-

ing oldida ayolning yuziga suqlanib qaray olmasligi ham uning Chamasi, oqish yuzini muloyim ko'rsatadigan chaqnoq qora ko'zli, qirra burunli edi. Lablari qaynoq istaklarini namoyish etuvchi yupqa emas, hissini bildirmaydigan do'rdoq lab emas, chingirli edi. Iyaglari ham yumaloqqina bo'lsa kerak. O'ldirib-o'chirib, kuydirib-yondiradigan cho'g'idan ko'ra nuri, hushni o'g'irlaydigan sehrlil kulgisidan ko'ra maftunkor ajib ma'yusligi bisyor, uyat bilan yuvoshgina, muhabbatiga vafodor ayollarning ko'rinishi, odatda shunday bo'ladi.

Minorada tasvirlangan muhabbat faqat pok ayolga xos muhabbatdir. Inson yuragiga boradigan qisqa yo'lni ayol yuragidan boshlagan Sulaymon payg'ambarning o'zi ko'plab sutuvlarning suluvi bilan hamsuhbat bo'lsa ham, kishini xushxandon hisslari bilan bog'lab oladigan iboli go'zallarni farishtaga o'xshatganiga o'xshaydi.

Sulaymon payg'ambar, shirin sharobning rohatidan judo bo'lmayin, deb tilining uchini tegizib, faqat ta'miga tamshamb o'tirar ekan, deyishadi. U esa har bir ishni sarkardalik xususiyati bilan shartta-shartta adolab qo'yardi. Bunday cho'zib ko'rma-gandi.

O'ylab qarasa, shu vaqtgacha peshanasiga bitgan baxtning rohatini ko'rmabdi. Uning erta sovigan yuragi oyog'i tagida qulagan alvon tug'lar va yumalab yotgan tojlardan boshqa lazzat izlamabdi.

Hukmdor biror narsani bajarmoqchi bo'lsa, boshidagi toj va tagidagi taxt oyog'ini bog'lab kelardi. Bir-biri bilan talashgan elning tojini kiyib, taxtiga o'tirgan bandaning bunday qilmaslikka iloji ham yo'q edi. Mana, endi ikkovi bir saroyda o'tirsa ham, yoniga kichik malikani chaqirolmay hayron bo'lib o'tiribdi. O'zgar tarafdian ko'p azob-uqubatlarga ko'rib, rosa qattiqchilikka o'rgan-gandi. Shuning uchun oiladagilarni ham yaqiniga keltirmasdi. Hukmdor ham haramga faqat tundagina kirib chiqardi. Elchilarni qabul qilganida, masharat chog'larida, oilaviy bazmlardagina bo'l-masa, kunduzlari malikalar bilan alohida uchrashish odat emasdi.

Endi qancha intiq bo'lsa, kichik malikani yoniga chorlashga yoki o'zi oldiga borishga atrofidagilarga o'zi o'rgatgan odat to'siq

bo'lmaydi. Ayni choshgoh vaqtida, ayniqsa, boyvuchchasi o'zicha har bir xizmatchisi u nima qilarkin, har bir qadamini poylab o'tirgan damda kichik malikaning yoniga qarasmasiga kirsa, hamma nima de'yishini bilmasdi...

Shu bols kech bo'lishini sabrsizlik bilan kutdi. Bungacha ayollab o'tayotgan vaqtning oyog'i tushovlanganday, o'rnidan qo'zg'alolmay turib qoldi.

Xosxonada qiyinalib o'tirishga bardoshi yetmadi. Hukmdor yana bog' keza boshladi. Ertalabgidek buloq boshiga borib, xayol surib o'tirmoqchi edi, fikrini jamlay olmasdan, o'rnidan turib ket-di. Tez-tez quyoshga qarab qo'yardi.

Yovdan qaytmagan yuragi ayol to'shagiga yaqinlashishga jur'at etmaydigan bo'lgan vaqtida yangi uylangan navnihol yigitdek, tezroq kun botishini, tezroq atrofga qorong'ilik cho'kishini betoqat kutdi.

Soya cho'zildi. Yog'ochlarning ko'lankalari bir-biri bilan bir-lasha boshladi. Oqshomga yaqin hukmdor saroyga kirdi. Betoqat kutishdan xufton bo'lgan yuragiga yana bir xavotir aralashdi. Hushamdor keng xonadagi porlagan shamlar yorug'ida o'zining bepoyon yorug' yolg'onda tanho ekanini o'ylab bezovtalandi. Ko'k nayzalar o'rtasida tursa, qasdlik qilgan behisob dushman-dan qo'rqmas edi. Qaynoq yosh yigit chog'i bo'lganida o'ylanmasdan malikaning xonasiga kirib ketgan bo'lardi. Jo'shqin muhabbat yetaklab yuradigan vaqtlar o'tdi. Sirlashib, ichini bo'shatmoqchi bo'lgani doimiy sirdosh boyvuchchasi emas, yoshgina notanish bir juvondir. Nomini ham so'ramasdan shoshilinch uchrashib, ajralib ketgan kanizaklarning biridek kichik malika shu kungacha unga gapirgan emas. O'ttiz yildan oshibdiki, hukmdor hech kim bilan sirlashmaydi. Hozir borgach, kichik malikaga nima deydi? Kat-takon xonada qolgan ikkovi nima haqida gaplashadi, nima qiladi? Malikaning o'zining ayoli ekanligi rost. Malikani qo'yavering, butun bepoyon shahar, undagi har bir uy, har bir kishi hukmdor uchun tikka turadi. Butun yurt tikka turadi. Yarim olam og'ziga qaraydi. Lekin yarim olamga to'la jonning hech biri bilan ochilib dildan suhbatlasha olmaydi. Kichik malika ham yarim olamni egallagan bandalarning biri. Ikkovining shu saroyda ekanligiga

bir necha kun bo'ldi. Lekin jur'at qilib erining yoniga kelib... Naqadar do'zaxiy dunyo... Ochsa kaftida, yumsa mushitida bo'lgan yarim olamdagi odamlarning joni ham, tani ham o'zimiki, lekin hammasi begona... Hammasi undan faqat buyruq kutadi. Avvalbiri u o'zidan boshqalarning hammasi davlatning qudrati deb atalmish ko'zga ko'rinmas qil tuzoq bilan chandib bog'langan, qimirlashgan darmon bermaydigan do'zaxiy to'rdan ekanini yaxshi bilardi. Lekin bunday to'rdan o'zini ozodman, deb o'ylardi. Bugun o'ylab qarasam, o'zgalarni bog'lab olgan qil tuzoq o'zining ham oyoq-qo'lga bog'lay boshlabdi. Xalq avval hukmdorning ko'zi va so'zidan qo'rqqan odat chiqaribdi...

Mana, u sassiz-sadosiz o'zining xobxonasidan chiqdi. Tun yarmigacha o'rnidan qo'zg'alishga yo'l bermagan sehra tuzoq oxirigacha bo'shatib yubormagan, hali ham oyog'iga yopishib o'rallishib kelardi.

Shiftidagi marmar taxtachalar ham, ikki chekkadagi bezragan soqov devorlar ham, tosh ustunlarning panasiga yashirilgan o'g'ri soyalar ham, oyog'i tagidagi ipak gilamning payhon bo'lgan tuklari ham, hatto o'zining qo'lidagi shamchiroq ham uning har bir qadamidan ko'z uzmasdi. Saroy ichidagi oromxonalardan endi nima qilar ekan, endi nima qilar kin, deb betoqat poylab turgan minglab sinchkov ko'zlar va nafasini ichiga yutib, yumilib turgan lablar, u hozir kichik malikaning xosxonasi ostinasini hatlashi bilanoq, istehzoli gaplarini boshlashi aniqlaydi eda xayolida.

Minglab kishilarning boshi hukmdorniki bo'lsa ham, o'yi, fikri uniki emas. Tili hukmdorniki bo'lsa ham, ko'ngli uniki emas. Bir o'zi hammani kuzatolmaydi, hamma uni bemalol poylaydi. Mingta qo'l, mingta oyoqning qadami, harakatini u ko'rolmaydi. Uning bosgan qadami mingning ko'zida. Shuning uchun u o'zining xosxonasida yarim kechagacha uxlamasdan o'tirdi.

Ana, soch-soqoli oppoq, ko'zlari qizargan qari ikki g'ulom ostonadan uzoqlashdi. Tirik jasaddek engashib, kipriklari bilan yer qazib, ta'zim qilib turgan bo'lsa ham, oldidan o'tib ketishi bilanoq bir-biriga imlay boshlaydi.

Hukmdor kimdir orqasidan xanjar suqqandek, yalt etib qaradi. O'yaganidek ikki qul boshlarini endi ko'tara boshlagandi. Uning sovuq nigohiga bardosh berolmasdan, qaytadan bo'yinlarini egib yonga qarab oldi.

Shaxt bilan ochilgan og'ir eshik qayta yopilishi bilan orqadan yana shivir eshitilganday bo'ldi.

Hukmdor yirik shamlar porlagan yana bir keng xonaga o'tdi. Kiyilgina qorong'i burchakdan nimadir qimirlaganday bo'ldi. Uning orinibgina o'rnidan turayotgan xizmatchi kampir edi. Kichik malikaning enagasi. Barcha malikalarga yosh paytida, saroyga endigina kelgan paytlarida enaga bo'ldi. Hukmdor to'shagining yonidan yurib ko'rmagan shu kekxa ayol malikalarga hukmdor ayollining qanday bo'lishini o'rgatadi. Saroydagi boshqa xizmatchilarga nisbatan dimog'dor. Kekkayib yuradi, kerilib gapiradi. Ana, boshqa xizmatkorlarga o'xshab chaqqon qimirlamaydi, kerilib asta bosib kelmoqda. Elning butun boyligi qo'lida bo'lgan xazinabon ham mana shunday takabburona yurmaydi. Enaga kampir o'zga saroy odamlariga emas, hukmdor va malikaga ham munosabati o'zgacharoq. Agar u bo'lmasa go'yo, hech kim yo'l topa olmaydi. Ayniqsa, uzoq safardan qaytganida, qadamidan yer yoriladigandek vazminlashib qoladi. Hozir ham atayin kutib tursin degandek uzun xonaning bir chetidan qadamini sanab imillab kelmoqda.

Yaqinlashgan sari kampirning rangpar beti ravshan ko'rina boshladi. Avvalo, ikki yerda turtib chiqqan oqara boshlagan jundor qovog'i ko'rindi. Bujmaygan lablarga osilib qolgan o'roq burni keyin ko'zga tashlandi. Tikilgan yeriga uzoq qarab qoladigan ikki anqov qorachig'i tanimay turgandek bir muddat qarab turdi. Hukmdorning ko'zi olayishi bilan, ko'zini chetga oldi.

Sudratilgan yengi dastaga o'rilib, shoshilib eshikni ochdi.

Hukmdor, ustiga yelimdek yopishib qolgan, enaganing hissiz xira nigohidan qutilguncha shoshilib, malikaning xobxonasiga kirib ketdi.

Xona ichi g'ira-shira edi. Malikaning to'shagi qaysi rangda ekanini anchadan keyin angladi. O'ng tomondagi burchakda yal-

poq kat ustida ko'tarilib turgan uning to'shagi. Shunga qatib yon boshladi. Shu paytda ko'rpa va yostiq ikki yerda ikka tepa bo'lib yig'ilib qolgan g'ijimlangan to'shakning bir yeridan ikki narsa birdan ko'tarildi.

Hukmdor cho'chib tushdi. Ikki uyum ko'rpa-yostiqlarning o'rtasida yana tinchib qoldi. Hirsi so'ngan nigohi xira xonaning bir tomon chagida sal-pal ko'rinayotgan o'ringa qaragan sayin ko'z oldi qorong'ilashgandek bo'laverdi. Boyagina ikki yerida ikki uyum bo'lib yotgan ikki tepa g'alati qimirlayotgandek tuyulaverdi. Uch tepaga ko'tariladi, goh jim bo'lib to'shakka singib ketadi. Hukmdor yana bir necha qadam tashladi. Ko'rpaning tagida hayot ishlashi honi bilinmadi. Kichik malika iz-tussiz g'oyib bo'lgandek.

To'shakning atrofi xonaning boshqa joyiga qaraganda qorong'iroq edi. Go'zal ayolning badani va gulob hidi aralash-quralash bo'lib, bu yoqimli hid ko'ngilning allaqaysi chuqur makonida bo'g'ilgan tushunarsiz hislarni uyg'otar edi. Lekin hukmdorning hozirgina tarang tortilgan asablari bug'da toblanayotgan qayish tasma kabi bo'shshib borardi. Agar qimirlagudek bo'lsa, yiqiladigandek his qildi o'zini.

Uning xiralashgan ongi yana o'z holiga qaytdi. Birdan qimirlagan ikki narsani payqab qoldi. Butun jismini erita boshlagan bug'simon hislar g'oyib bo'ldi, yuragi qattiqroq dukullay boshladi. Do'mpayib uyilgan ko'rpaning panasidan bir juft oq bilak kaftini takror ochib yuqori ko'tarildi; yana kutilmaganda o'q tegandek ko'rpaning ustiga shilq etib tushdi. Ikki qo'l birlashdi. Uzun barmoqlar birining orasiga biri kirib zichlashdi, saldan keyin quchog'idagi ko'rpani qisib, bag'riga torta boshladi. Boyadan beri do'mpayib turgan momiq ko'rpa ajib sehrli xushtorlik hukmronlik qilgan temirdek kuchli yosh quchoqning kuch bilan qisganiga chidolmasdan erigan qordek bo'lib kichkina bo'lib qoldi. Ko'rpa panasida yashnagan qip-qizil chehra endi ko'rindi. Momiq yostiq do'mpayib bir chekkada qolibdi. Malikaning bo'yni bir tomonga andak qiyshayib, yostiqtan pastga tushgandi. Qalin qora soch to'shakning yarmini egallagandi. Juft ko'z yumuq. Baland haroratdan havo yetmayotgan kasaldek og'zi ochilib qolgandi. Gulgul yashnagan ikki dudog o'z-o'zidan cho'chchayib, ikki tomonga

chekildi. Malika tishini o'zi yanchib tashlashni istagandek, qattiq tushladi. Bir-biriga qadalib turgan sadaf tishlarning orasidan allaqanday jo'shqin xushtorlik tashqariga yorib chiqishni istaydi. Kichik malikaning uyquda bir nimaga o'lib-o'chib, entikib chiqqan ovozi hukmdorning qulog'ini chayondek chaqib oldi. Uch tomon chiqib borayotgan kishining joni halqumiga kelganda suv tagidan chiqadigan allaqanday tovushni u ilk bor o'nib yashar paytida eshitgan edi.

Bolaligidan tengdoshlariga qo'shilmasdan yolg'iz yurardi. Bir kun otga minib, tog' bag'rini kesib o'tgan soyning narigi yuzidagi qoyada qirg'iy uyasiga tuzoq qo'yib o'tirgandi. Soy sohildidagi kichkina qishloq tomondan u o'tirgan qoyaning tagidagi buloqdan suv olish uchun kelayotgan juvon ko'rindi. U paranji yopingan, yelkasida ko'za bor edi. Ayol buloq qaynab chiqayotgan kimsasiz kovakka kirib ketdi. Shu paytda qoyani aylanib pastga enkaygan so'qmoq yo'lda chaqmoq toshlarni shaqir-shuqur qilib tushib kelayotgan, o'sik yoli bo'ynini to'ldirgan qora ot mingan soqoldor bir kishini ko'rди. Dumi yerni supurgan ot sekinlik bilan pastga tushdi-da, panaga o'tib, ko'zdan yo'qoldi.

U bunga ahamiyat bermadi. Daraning narigi tomonida gir aylanib qiyqirayotgan qirg'iydan ko'zini uzmasdan o'tiraverdi. Birdan soy bo'yidan chinqirgan ovoz eshitildi. Ayol tovushi. U irg'ib o'ruidan turdi. Ayol yana ustma-ust chinqirdi. Bola qo'lga kamonini olib, toshdan toshga sakrab, shoshganicha ayol suv olgani ketgan kovak tomonga yugurdi. Bir-ikki joyda sirpanib yiqildi, kaftini tosh sidirdi. Lekin bunga parvo qilmadi. U kovakka yaqinlashgan sari juvonning ovozi pasaya boshladi. Bundan uning kapalagi uchdi. Yana ham tezroq yugura boshladi. Nihoyat, buloq boshi hisoblanmish pana kovakning ustiga ham yetdi. Balandligi bir yarim quloch keladigan jarlikdan kovakka sakramoqchi edi, qulog'iga allaqanday notanish g'alati ingrash eshitildi. Bu og'riq azobidan emas, nimadandir qoniqishdan, rohatlanishdan hosil bo'lgan ovoz edi. Bola oyog'i tagidagi toshni tepib, kovak ichini shovqinga to'ldirdi-da, o'z o'miga qaytib ketdi.

Picha fursatdan keyin qora otda soyni kechib o'tib, tepaga ko'tarilayotgan beparvo otliqni ko'rди.

Shu lahzada juvon ham kovakdan chiqdi. Soy sohilida asqarib ko'ringan so'qmoqdan suv to'la ko'zani bir yelkasiga qo'ndirgan holda dumbasini o'ynatgancha ohista qadamlar bilan yurib berrardi.

Hech narsadan bexabar kichkina qishloqda osmonga ko'rinib ko'rinmas tutun ko'tarildi.

Bolaning behuda yarador bo'lgan qo'sh kafti simillab og'riydi da qonab turgan yupqa kaftidan ko'ra ko'kragiga zahar surkalgan dek jizillab achiydi.

Hukmdor endi angladi. Hozir ham ayni o'sha damdagidek bir narsa ko'kragini achchiq hislarga to'ldirdi.

O'z-o'zidan bir yonidan ikkinchi yoniga ag'darilayotgan qirg'ir-qiyshiq to'shakdan xuddi bir maxluqdan qochgandek chekina boshladi.

Eshikdan qalay chiqqanini ham bilmadi. Inqillab o'rnidan turayotgan hatam egasini ham sezmedi, g'ulomlari ham ko'ziga qolganidagina, "xizmatchilar u nega tez qaytib chiqdi, deb hayron bo'lgandir" degan o'g'ri xayol charx urdi. Busiz achib kelayotgan ko'kragi bundan battar holatga tushdi. Xosxonasi yetib bo'lmas masofaga ko'chib ketgandek tuyuldi.

Hukmdor aftodahol holatda xosxonaga yetdi. Keng xonaning burchak-burchaklaridan uning ko'ziga ko'rinmas nozir ko'zlar: "Endi nima qilarkin?" — deb tikilib turgandek, turishini ham, yotishini ham bilmasdan, sarosimada qoldi. Xonaning o'rtasidagi kichkina favvoraning shildiridan boshqa sas eshitilmaydi. Hatto juda katta maydonni egallagan saroyning hech qayeridan hech qanday ovoz chiqmasdi. Keng xonadagi havo bir-biri bilan zichlashib, qalin qavat hosil qilgandek nafas olishi og'irlashdi. Hovuz yoniga keldi. Bu yerda ham uzoq turolmadi. Milt-milt yig'lab turgan yig'loqi suvga qarasa, ko'kragini temir sovutdek qisib turgan qahr parchalanib ketar deb, oyog'ini sudrab bog' tomondagi deraza oldiga keldi. Hovlining qoq o'rtasida hovuz va gulzor. U derazaning oldiga kelganda botayotgan oynning so'lg'in nuri ostidan har yer-har yerdan oqarib bir soyalar ko'tarildi va har

osmonga jingina tarqala boshladi. Ular — soqchilar. Hukmdorni ko'rinmas deb, hammasi bir yerga to'planib, bir narsani ermak qilib o'rtiribgandi. Endi bemahalda deraza oldida uni ko'rgach, sovalarni pana qilib, o'rin-o'rinlariga tarqalishdi.

Oy botib bormoqda. Uning oqish nuri hovlining qoq o'rtasidagi hovuz atrofiga va ro'paradagi derazalargagina tushib turardi. Uning xobxonasini esa qozon tagidagi kuya misoli qop-qop qorong'ilik o'z og'ushiga olgandi.

Jimjitlik. Ko'zni ham, quloqni ham birdaniga bog'lab qo'yadigan osuda tun. Kunduzgi shovqin-suronning, xattiharakatning hammasiga zahar berib, obdan charchatgan tinchlik va zulmatning kuchga to'lgan kezi. O'g'ri o'ylar, o'g'rincha qirliqlar, o'g'ri hissiyotlar, chog'i. Butun olam batamom to'shakka shon'ng'ib ketgandek azozil payt...

Hammaning kun davomida ko'ngilga olishga tortinib yuradigan ochofot nafsning oyog'idagi kishan yechiladigan payt. Ba'zilarining ko'nglini shayton egallaydigan payt. Yorug' kun va uyg'oq nigohlar ko'zdan pana ovloqlarga quvib chiqqan shaytoniy hisslarning minglab qurti yana bosh ko'tarib, qorong'ilikda yashirinib, ko'plab o'rmlab chiqadigan payt. Odamlar faqat kunduzigina o'dam, tunda esa ularning boshqa jonivorlardan hech farqi yo'q, pishillab uxlaydi, yonida jufti yotsa, u ham barcha hayvonlar kabi jumbushga kelaveradi. Ertalab quyosh chiqib, hammaning ko'zi tirilgan vaqtda, haligi jonivorlarning hammasi o'ladi va ularning o'rniga uyaladigan va o'ziga o'xshaganlarning ko'zi va so'zidan qo'rqadigan bandalar qayta tiriladi. Oddiy bandalarning kunduzgi uyalib-qimtilib, o'z oyoq-qo'lini o'zi bog'lagan behuda tirikchiligidan bir dam bo'shab, bo'yini yozadigan tunlari bor, tunda u xalqning ko'zini ham ko'rmaydi, so'zini ham eshitmaydi. Uning bunday tuni ham yo'q. U tunda ham lovullagan o'tning yorug'ida yakka-yolg'iz o'tirganday his qiladi o'zini. Qorong'ilikda poyloqchilik qiladigan yashirin ko'zlarning barchasi uni ko'radi, u esa tevarakni o'rab olgan qorong'ilik panasida kimning nima qilayotganidan umuman bexabar. U insoniy hayotning kunduzgi mashaqqatini ular kabi ko'rayotgan bo'lsa-da, tungi rohatidan mahrumdir...

Bunday zulmat tunda, atrofda sasib yotgan nuqul jonivorlar o'rtasida, qafasda sassiq havo yutib o'tirishdan ortiq azob bormi? Atrofga paytava hidi anqib turgan yurishdagi tunlar jannat, ortaga o'qqa uchishidan yoki tirik qolishidan bexabar, yerga yashlab nayzasini quchoqlab xurrak chekib yotgan askarlar farishta, shunday tunda sal mudragan yoki ertagi hujumning rejasini o'ylab kumush tongni kutib olish qanday maza! O'lib-uchib elga qaytgan bu xalqning tepasidan shox chiqqani qani?

Ariqni buzib ochiq dalaga yo'l olgan qochoq suvdek, kutli maganda paydo bo'lgan g'alati fikrlar shu yerda jar yoqasiga yetib kelgandek to'xtab qoldi. Xayol uni yana boyagina o'zi kirib chiqqan xona, uyqusida shaytonsiragan malikaning ingragan ovozi tomon boshladi. Hozirgina tasavvur qilgan, qora tunni qoplab o'rmalab kelayotgan qurt-qumursqa endi uning pochasidan kirib, badani bo'ylab yugura boshlagandek, seskanib ketdi.

Shu zahoti deraza oldidan ketib, hovuz tomon yurdi. O'zining uxloq yoki uyg'oq ekanini aniqlab olmoqchi bo'lib, xonaning hammasini tintib chiqdi. To'rdi bo'sh yotgan to'shagini ko'rdi. Hovuzdagi suvning salqin nafasi yuzini silab o'tdi. Oltin qoplangan kichkina naychani og'ziga qo'lini cho'zdi, chuqurlikdan ilondak o'rmalab chiqayotgan tiniq suv barmog'ini chaqib oldi. Hukmdor o'zini tutib oldi.

— Demak, haligi qizil olma...

Og'zidan birdan chiqqan so'zlarni birov eshitdi degandek shartta to'xtadi. Hurkak xayol nariga borishni istamay, orqaga chekingan bo'lsa ham, atrofini o'rab olgan gumon, savol har tomondan yopirilib, qamchidek savalardi. Bechora xayol ko'p so'roq oziqlantirgan murakkab yo'lni tortinib bosib, gumonlarning oppoq tumani qo'yninga singib ketdi.

Shunda boyvuchcha kichik malikaning qilmishini chirik olma bilan bildirmoqchi ekan-da. Kundosh xotinlar... Hukmdor o'zi o'rgangan so'qmoqqa tushib jo'nashni istagan edi, lekin kutilmagan to'siq jilovidan tortib, yana to'xtadi... "Albatta, shunday... Boyagina to'shagida kimgadir quchog'ini ochib, ko'kragini tutib yotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim-ku! Farzand quchmagan ayol er zotidan boshqa kimga intiluvchi edi..."

Uni shuncha o'ziga intizor qilgan kim ekan? Balki, o'zidir. Yo'q, yo'q, mantiqqa to'g'ri kelmas. U yoshgina juvon bilan bunday intilikka boradigan ishqiy sarguzashtlarni boshidan o'tkazmadi-ku. Bir-ikki kechani birga o'tkazganida kichik malika juda uyaltib, o'zgacha ishtiyok bilan o'z hirsini ko'rsatmagan edi. Tushida intizor bo'layotgan — boshqa bir begona. Hukmdorning yuragi shuv etdi. O'zining ushbu foniya, haqiqatan, o'gay ekani esiga tushdi. Ko'kragidagi tosh bo'lib qotgan muz erib, o'ksigandek bo'ldi. Birdan men kimdan ranjiyapman, degan fikr keldi. Lekin o'jar jahl shashtidan tushmasdi.

Shunda meni oyoqosti qilmoqchi, xorlamoqchi bo'lib, muqaddas to'shagimga ko'z olaytirib yurgan kim ekan? Bunday muomalaga kimning haddi sig'adi? Yurishga otlanganda mard va dovyurak yigitlarning hammasi men bilan birga ketishgan edi-ku. Malikaning diqqatini tortadigan kim qolgan ekan, a?

Qizil rangga tashlangan och burgut misoli shiddatli xayollarni to'xtatib, shoshilmasdan haligi savolga javob izlay boshladi.

Eri yurishda bo'lganda yosh ayol kimni topgan bo'lishi mumkin? Saroyda qolganlarning hammasi bu bilan tengdosh, yosh jihatdan ko'p farq qilmaydi. Yoshgina juvonn hozir ko'rgandek o'ziga bog'lab qo'ya oladigan hech kim yo'q. U saroyda qolganlarning hammasini alohida-alohida chamalab ko'rdi. Har birini taroziga solib, vaznini bilmoqchi bo'ldi, lekin hech biridan malikani o'ziga maftun etadigan xislat topolmadi.

Ayolning qalbiga yo'l topib, kunduz hushidan, tunda tushidan chiqmaydigan makkor erkak kim?

Nihoyasiz xayol aylanib-aylanib yana boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Tutqich bermas mulohazalardan boshi qotib qoldi, shekilli, ikki chakkasi zirqirab og'ridi. Kimdir qorachig'i oldiga tikan qadab qo'ygandek, kipriklari yumilay-yumilay deb, yana ajrab ketardi. Butun jismini zabt etgan og'ir horg'inlik xayolga ergashishdan charchadi...

Darvoqe, kichik malikaning uyqudagi harakatlaridan nega qusur izlash lozim? Balki, tushida u o'zini ko'rgandir. Falon yil safarda yurganida erini intizor kutib, to'shakda o'tkazgan damlarni qo'msayotgandir. Ancha kundan beri bir saroyda turib, bir-birini

ko'ymasdan, ana kelyapti, mana kelyapti, deb kuta-kuta obdan chiqarib chiqach, uxlab qolgandir. Falon kundan beri uning o'zini o'ylab, sarson-sargardon bo'lgan ko'ngil tushida ham izlab alahlagandir...

Agar shunchalik intizor bo'lmasa, kunduzi o'zi ko'rib hayratlangan ajoyib minorani qurdirarmidi? Osmon bilan bellashguvchi yuksak minoraning butun bo'yi-basti muhabbatga to'liq... Muhabbat...

Hozirgina yo'lini topib odimlay boshlagan xayoli birdan tog'ga borib urildi, "muhabbat" so'ziga ilinib shartta to'xtadi.

Ha, ko'k minoraning butun bo'y-bastidan intizorlik va muhabbat hislari ufurib turibdi. Birdan ko'zga tashlanadi. Lekin bu qanday muhabbat?

Minoraga uzoq yurishdagi yoriga intizorlik bilan qo'l cho'zayotgan sog'ingan yormi yoki uzoqdan qo'l cho'zgan oshiq yurakmi? "men shu yerdaman", deb yoniga chorlayotgan afsungar go'zalmi? O'zi ham uning yonidan ketolmasdan uzoq qarab turib qoldiku! Demak, sehrii minoraga kishini o'ziga tortib turadi. Uni qurgan ustaning maqsadi nima edi? Uzoqdagi yoriga bo'lgan sog'inchni ko'rsatgan bo'lsa, yoniga borganida nega osmonga qarab yotib oladi? Uzoqlasha boshlasang, nega qaytadan o'ziga chorlab, ko'zingni uzolmaydigandek mahliyo qilaveradi? Yo'q, yo'q, usta o'zining malikaga bo'lgan muhabbatini ifodalagan... Qaynoq muhabbatini tasvirlagan... Ha, shunday. Ko'k minoraning siri endi oshkor bo'ldi.

Hukmdor kutilmaganda topib olgan yangiligiga, necha kundirki jonini qurtdek kemirayotgan so'roqlarning javobi osongina topilganiga quvonishni, kuyinishni ham bilolmadi. Hozirgina ko'zini yumishga imkon bermayotgan ko'zga ko'rinmas ustunlar birin-ketin yiqildi. Butun jismini egallagan og'irlik birdan yo'qildi.

Ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlaganday tuyqus fikrdan yanglishib qolmaslik uchun ichida qayta-qayta takrorlab, yod ayladi. Ha, boyvuchchasi yuborgan qurti bor olmaning javobi topildi.

Endi unga inkor etib bo'lmas dalil kerak. Guvohlarni topish mushkul emas. Bor gapni boyvuchchasi ham aytib berishi mumkin. Enagadan so'rasa, u ham rad etmaydi. G'ulomlarning ham

xabari bo'lishi mumkin. Yana bundan xabardor bir kishi — bosh usta. Ularning qaysi biridan so'rab-surishtirgani ma'qul. Hamma gap mana shunda.

Hukmdor peshanasini ushlagancha o'ylanib qoldi. Lekin bu o'ylar sust emas, obdan pishib-yetilgan, uchqur o'ylar edi. O'zining obro'siga ham oson kelmaydigan shubha-gumonning niqobini qalay ochsa durust bo'ladi? Unga ko'p bosh qotirmadi. Birdan topdi. Buni elga oshkora qilib hech kimdan so'ramaydi. Gumondorning o'ziga shartta aytmoq darkor. Chunki bu voqeadan xabardorlar u so'ramasa, haddi sig'ib o'zlarini aytolmaydilar. Mayli, og'izlariga tolqon solib yuraversin. U minoraga ustasini chaqirib, o'zi bilan gaplashadi. Qalbiga uya qurgan gumonning aniq-tinig'ini uning o'zidan biladi. Tong otishi bilan unga chopar yuboradi. Yoki uni chaqirishga bosh ustaning o'zini yuborsa-chi? Ha, shu to'g'ri bo'lar... Bu hikoyaning oxiri nima bilan tugashini kim biladi. Balki, bosh usta ham kerak bo'lar...

Hukmdor o'zidan turdi. Qaradi. Tong yorishib kelardi. Dera-zadan ko'kish yorug'lik ko'rina boshladi. Xonaning ichini ko'k-ola to'zon batamom egallab olibdi. Oldidagi hovuz ham, undagi chip-chip chiqayotgan suv ham shu holatda qotib-qotib qolgan ko'kintir to'zon, o'choq o'rni yig'ilib qolgan kul kabi. Yaqinlashsang, sochilib ketadigandek edi.

Hukmdor hamon shu yerda qotib turardi.

Ikkinchi bo'lim

MINORA

I

Hammasi uning yo'talganidan boshlandi. Aks holda atrofni uzoqdan kuzatib kelayotgan navkarlar ularning yonida to'xtamasdi. Qaysi shayton turtganini o'zi ham bilmaydi, kutilmaganda tomog'i jimirlab qoldi-da.

Kutilmaganda emish... "Hukmdor bugun namozga keladi", — degan xabarni eshitishi bilan, uning ikki tizzasi qaltiray bosh-

ladi. Qo'rqan boladek birdan sirini oshkor qilganidan uyaltib, yonidagilarga qaradi. Ularning yuzlarida hayajon aks etib turardi, doimiy tund qiyofalari yorishib, yuzlarida kulgi ham emas, qo'rqinch ham emas, allaqanday taraddud bor edi. Ilonning yog'ini yalaganlar sir boy bermaydi. "Kelsa, kelgani ma'qul", degandek mo'ylovlarini silab qo'yadi. Ko'zlarida makkorona uchqun uyg'onadi. Bunday hollarda xursand bo'lish lozimmi, qo'rqish kerakmi, bilmaydigan yoshlarning yuzlari oqarib, xiyol sarosimalik ko'rinadi. Avvallari huv anavi madrasaga har kuni ertalab keladigan sariq rangdagi soyabonli arava kirib kelganida shoshib qolardi.

Ana shunday vaqtlarda pastdan yuqorigacha tizilgan yog'och havozadagi yuzlab kishi birdan to'rdagi qushlar kabi bab-baravari "Ana, o'zlari kelishdi", — deb shivirlashardi.

Yuzlab kishining og'zidan bir vaqtda bir xilda aytilgan uch so'z tong havosini kesib o'tib, aravadan tushayotgan hukmdorning qulog'iga yetgandek ko'rinardi o'ziga. Uzzukun madrasadan ko'zini uzmasdi. "Ana, o'zlari qarab o'tiribdi..." Ko'k gumbazning tepasida o'rmalab yurgan kichkina no'xatlarning og'zidan uchgan so'zlar minoraning eng uchida turgan uning qulog'iga aniq eshitildi. Kimdir hukmdor haqida biror narsa ayta qolsa, orqasiga yoy o'qi qadaladigandek a'zoyi badani titrardi. Qora popukli nayzalaringi ko'kka ko'targan soqchilar o'rab turgan madrasa tomonga bir bor ko'z tashlardi. Lekin qurolli kishilarning e'tibor bermaganini ko'rib, ko'ngli taskin topardi. Namozdigar bo'lib, sariq arava qora otli navkarlarini ergashtirib saroyga qaytguncha, bir ko'zi shu yoqda bo'lardi.

Ramazon oyining to'rtinchi sanasi kuni hukmdor shu yerga kelib, masjidning qurilishini ko'rib ketdi. Lekin uning hukmdorga qarashga jur'ati yetmadi. Ikki kishi galma-galdan uzatib turgan g'ishtni tinmasdan teraverdi. G'ishtlarning kesishgan joylarining muvofiqligiga ham e'tibor bermadi...

Oradan to'rt oy vaqt o'tdi. Besh yuz kishi tog'dan tosh qazdi. Ikki yuz kishi unga o'sha yerda pardoz berib yaltiratdi. Aravaga qo'shilgan to'qson besh fil uni qurilish maydoniga yetkazib berdi... To'rt oy bo'ldiki, sariq arava madrasa hovlisiga kirib keladi,

oqishom yaqinlashgach, navkarlari bilan saroyga qaytib ketadi. To'rt oy bo'ldiki, "Ana, o'zlari ko'rib o'tiribdi!" so'zi takrorlanaverdi.

Masjid qurilishi yakunlanganiga uch kun bo'ldi. Ichida har birining balandligi yetti qulochdan ortiq toshdan yo'nilgan to'rt yuz sakson ustun bor. Hukmdorga sihat tilab, yurishlardan oldin zafar tilab duoyi fотиha o'qiladigan ushbu masjidning hamma yeri oltin, marmar.

Masjidning moviy gumbazi, hatto zangori osmonning o'ziga ko'kimitir nur taratayotgandek. Saratonning jazirama issig'ida olovga tutilgandek rangi o'chib, oqish bo'lib ko'rinadigan u bugun yana o'z holiga qaytgandek, yaltirab turardi.

Uch kundan beri juma namozini kutayotgan muazzin bugun keng shaharni jaranglatib azon aytdi. Hukmdor shu yerda juma namozini o'qib bo'lgach, masjidning tashqarisini tomosha qildi. Masjidning to'rt burchagiga to'rt minora qurilgan edi, shuni ko'rdi. U bir minoraning yonida turgan edi.

Hukmdorning o'ziga yaqinlashayotganidan rangi o'chdi. Yonida turgan minora tepasidan parchalanib tushib ketadigandek boshini ko'tarmaydi. Tomog'i qurg'ab qoldi, nafas olishi qiynilashdi. Yo'tal tutdi. Biroq tinch turishga tirishib, hammasiga chidamoqchi edi. Lekin jimirlagan tomog'i battar avjga chiqdi. "Eh, bu balo qaydan keldi?" — deb o'ylashi bilan oq, o'zini bo'g'ib turgan balo erkinlik izladi, beixtiyor yo'talib yubordi... Bu ozdek yana ustma-ust yo'taldi. Ikki yuzi qizarib ketdi.

Uning yo'talayotganini ko'rib yaqinlashib qolgan navkar birdan to'xtadi. Yo'tal ham to'xtadi. Yosh chiqqan ko'zlari o'rtada turgan past bo'yli kishining boshini orqaga andak chalqaytirib minoraga qaraganini ko'rib qoldi. Hukmdorning shu ekanini his qildi. Lekin tik qarashga botinmadi, yerga qarab turaverdi.

— Buni qaysi usta qurgan? — so'radi hukmdor ohista.

— O'ratepalik usta, — dedi bosh usta muloyim ovozd.

Navkarlarning oyoq tovushi uzoqlasha boshlagach, boshini ko'tardi. Xon navkarlari orqalariga qarab — uning o'ziga qarab ketishar edi. Ertasiga ertalab peshanasiga qimmatbaho toshlar bi-

lan yasatilgan keng darvozaning oldiga yetib kelgan oltinlash ushning orasida o'ratepalik Jabbor ham bor edi.

Hamma joydan xushbo'y hid taraladi. Qo'llariga oybolta tutgan soqchilar nari-beri yurishadi.

Salqin havo ko'tarildi. U bog' ichidagi hovuzlardagi favvoralardan taralayotgan edi. Yo'lakka to'shalgan qizil tosh ham hozirgina yomg'ir yog'ib o'tgandek suv-suv.

Ikki tomondagi har bir daraxtni qo'noqlagan rang-barang tovuqlarning quyosh nurida qirq rangda tovlangan yaltiroq qanotlarida ham marvariddek mayda tomchilar ko'rinadi. Orqalariga, ikki tomoniga tug' bog'lagan ola chodir o'rnatib, qizil shohidan jul yopgan olti fil o'rgatuvchining buyrug'ini goh tushunib, goh tushunmaydi. Biri oldin, biri keyin, har qaysisi har vaqtda tiz cho'kadi, o'rinaridan ham har xilda turishadi. Boshiga katta salla o'rab, bir uchini tepadan tuyib, ikkinchi uchini tizzasiga yetgan cha osiltirib qo'ygan olti mo'ylovi dikkaygan qotmagina kishi bahaybat jonivorlarga ko'zlarini olaytirib, qo'llaridagi ingichka temir xivichlar bilan ustma-ust savalaydi. Ulkan hayvonlar xuddi ularning olayib qarashlaridan uyalgandek, qo'pol tanalarini erkin harakatlantira olmaydi, mayda qumloqqa bir necha marta ag'anab, o'rinaridan zo'rg'a turib ketdi.

Buning bariga yaqindagi og'och orasidan qiziqib qarab turgan ohular o'zlar tomon kelayotgan odamlarni ko'rib turli tomonga tumtaraqay bo'lishdi.

Ular, avvalo, tut daraxti yonidagi forsiy gilamlar to'shalgan ayvonda xotirjam o'tirgan uch kichkina bolaning oldiga borib, ta'zim qilishdi. Bolalar o'rinaridan turib bog'ning to'rida, saroyning oldidagi oromgohda zar qo'shib tikilgan po'stakda qo'sh bolishga yonboshlab, ro'parasidagi qip-qizil olmalar suzib yurgan, hamma tomoni marmar bilan qoplangan hovuzdan ko'kka otilib, yana orqaga qulayotgan suvga qarab, jimgina xayol surayotgan Hukmdorning oldiga boshladi.

Yigirma odimcha masofada to'xtab, tiz cho'kib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, egilib takror ta'zim qildi. Ustiga hashamsiz oddiygina yengil to'n yopingan hukmdor uzun yengidan qo'lini chiqarib, bir tomonda amriga muntazir turgan yetti vazirga bir nimani ishora qildi.

Eng birinchi o'tirgan bosh vazir ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qildi, o'rindan turdi va orqa tomondagi ayvonning panasiga o'tib ketdi. Ko'p o'tmasdan qaytib keldi. Orqasidan qo'llaridagi yerga sudralgan ipak sochiqning ustida tovoqcha ko'targan bir to'p yigitlar kelardi. Bosh vazir yerda cho'kkalab o'tirganlarining oldiga kelib bir nima dedi. So'nggi qatorda hamma tomonga alanglab qarab o'tirgan qora ko'zli qora yigit Jabbor uning nima deganini eshitmadi, tushunmadi. Tovoqcha tutgan yigitlar har birining oldiga kelib, oltin-kumush aralash bir hovuch tangani boshlariga sochib yubordi.

Keyin tovoqchadan og'zi ipak ip bilan bog'langan mushtdek kichkina hamyon berishdi. Cho'kkalab o'tirganlar boshlarini yergacha egib, qulluq qildi. Hukmdor ularning minnatdorchiligini qabul qilgandek, boshini likillatdi. Boshidagi oppoq qalpog'ining peshanasidagi barmoqdek ajib la'l sovuq uchqur sochib, yaraq etdi.

Bosh vazir imladi. Cho'kkalab o'tirganlar o'rinaridan turishdi. Ular orqaroqqa chekinib, yo'ning bir chekkasidagi tut soyasiga borib turishdi. Hukmdor endi chet ellardan kelgan elchilarni qabul qilmoqchi. Elchilar ham avval uch bolaga, hukmdorning suyuqli nevaralariga ta'zim qilishdi. Bolalar elchilarning qo'lidagi o'rangan qog'ozni olib, bobolari tomonga yurishdi. Unga uch qadamcha qolganda uch marta ta'zim bajo aylashdi-da, qo'llaridagi qog'ozni berdi. Keyin yana uch marta ta'zim qilib, o'rinariga qaytib keldi.

Har bir elchini ikki tomonidan ikkita saroy to'rasi qo'ltiqlab hukmdorning oldiga boshlashdi. Ularning ortidan elchilar keltirgan sovg'a-yu salomlarni ko'tarib kelayotgan saroy xizmatkorlarining uzundan uzun safi ko'rindi.

Elchilar hukmdorga o'n odim yaqinlashgach, o'ng tizzalarini bukib, qo'llarini qovushtirib, boshlarini egib ta'zim qilishdi. Ularni qo'ltiqlab kelayotgan to'ralar shu yerda turib qolishdi. O'ng tomonda o'tirgan vazirlar o'rinaridan turib, mehmonlarni qo'ltig'idan ushlab hukmdor sari boshladi. To'rt-besh odim boshgach, yana to'xtab ta'zim qilishdi. Hukmdor, yaqinroq kelinglar, deb imladi.

Elchilar yana ikki qadam tashlab, boshlarini egdi, og'irligini ikki tovoniga solib, tizzalab o'tirib olishdi.

Keyin ular hukmdorning so'roqlariga javob berishdi. Ularning nima haqida gaplashganini tut daraxti tagida o'tirgan bir guruh kishi eshitmadi. Ularning ko'pchiligi bu bog'ga birinchi marta kelishi edi. Shuning uchun bo'layotgan har bir xatti-harakatni sitchkovlik bilan kuzatishayotgan edi.

Elchilar yo'ning ikki tomoniga, vazirlar o'tirgan supaga qarama-qarshi qo'yilgan baland supaga borib o'tirishdi.

Xizmatkorlar uch-to'rtta bo'lib sirtiga oltin suvi qoplangan to'rt quloqli katta idishlarni to'ldirib go'sht olib kelishdi. Hukmdorga yigirma qadamcha masofada to'xtab, qo'llarini qovushirib, ta'zim etishdi va yana orqalariga ketishdi. Ularning o'rniga oldirigiga peshband bog'lagan yigitlar kelishdi. Qinlaridan xanjarlarini chiqarib, ajib bir chaqqonlik bilan go'shtni to'g'ray boshladi.

Alvon gullarning xush hidi va hovuzdagi suvning salqini sezilib turgan bog'ni qo'y go'shti hamda qazi-qartaning ishtahani qitiqlovchi hidi tutib ketdi. Hash-pash deguncha o'ntacha idishdagi go'shtni maydalab bo'lishdi. Usta yigitlar to'g'ralgan go'shtni qator turgan oltin, kumush, sopol laganlarga chiroyli qilib joylashdida, ta'zim qilib chiqib ketishdi.

Izma-iz qo'llariga yog'och korsonlar tutgan to'p yigit kirdi. Ular avval sho'rva to'la korsonlarni xontaxta ustiga qo'yib, unga turli ziravorlar qo'shdi. Keyin uni cho'michda tovoqlarga quydi-da, har biriga to'rt buklangan yupqa soldi.

Tovoqlarni tayyorlab bo'lgach, ular o'rinlarini bo'shatishdi. Saroy mulozimlari tovoqlarni hukmdorning, elchilarning, vazirlarning oldiga qo'yishdi. Pastda o'tirganlarga esa ovqatni oddiy xizmatchilar yetkazib berishdi.

Go'sht va sho'rvadan keyin meva berildi. Oxirida asal qo'shib achitilgan shirin qimiz ichildi. Taom vaqti tugagach, anchadan beri eshik tomonda turgan sovg'a-salom ko'targanlar safi o'rtaga chiqdi. Elchilar keltirgan marvarid dastali olmos qilichlarni, qunduz zarto'narni, eroniy gilamlarni, alohida idishlardagi inju-marjon, qimmatbaho toshlarni, terilarni hamma ko'rsin degandek ohista qadamlar bilan hukmdorning oldiga yaqinlashdi, tiz cho'kib, ehtirom ko'rsatdi. Hukmdor tortiqlarni qabul qilganini bildirib, elchilarga bosh silkidi. Ular ham bir necha marta bosh egib, ta'zim qilishdi.

Sovg'a-salom ko'targanlarning safi saroyga qarab yo'l oldi. Hukmdor o'rnidan turdi. O'tirganlar ham birdaniga o'rnidan ko'tarildi.

Qabuldan qaytayotganlarga bahaybat olti fil xartumini yerga qo'yib, tizzalarini bukib ta'zim qildi.

Darvoza oldidagi soqchilar ham nayzalarini quyi tushirib, boshlarini egdi. Hukmdor yangi masjidning bitishi sharafiga katta tantana o'tkazadigan bo'ldi.

Bog'ning tashqarisida qishin-yozin bo'sh yotadigan ochiq maydonga chodirlar tikildi. Kechasi bilan gulxanlar lovulladi. Katta tomoshalarning hammasi shu yerda bo'lganligi uchun shahar aholisining kasbiga, maqeviga qarab o'rinlar belgilab qo'yilgandi. Har ko'chaning ikki tomonida ariqlarda suvlar shildirib oqardi. Hamma o'zining chodirini qayerga tikishni avvaldan bilardi.

Ertasiga ertalabdan bo'sh sayhonlik chodirlar shaharchasiga aylandi. Eng chekkada etikdo'zlar, tikuvchilar, mayda hunarmandlarning kichik chodirlari; markazga yaqinlashgan sari chodirlarning hajmi ham, hashami ham o'saverdi. Ayniqsa, davlatmandlar va mansabdorlarning kim o'zarga tikkan chodirlarining dabdabasi bir-biridan o'tardi. To'y uchun tikilgan chodirlar uzoqdan qaraganda bosqichma-bosqich ko'tarilgan rang-barang katta o'rdaga o'xshardi.

O'rda markazida atrofini ikki gazcha keladigan ipak gazlama bilan o'ralgan keng hovli hosil qilishdi. Uning o'rtasiga hukmdorning uzun to'rt burchakli chodiri qad ko'tardi. Chodirning tepasida o'ttiz gaz uzunligidagi o'n ikki langarcho'p kattakon gum-bazni ko'tarib turibdi. Langarcho'plarning yuqori uchiga alvon ipak iplar bog'langan, ular o'ralgan o'n ikki o'rilgan gul kabi yerga osilib tushgan. Chodirning har burchagidan markazga cho'zilgan, har birining boshida oy tasvirlangan, to'rt uzun xoda bir-biri bilan qo'shib bog'langan. Uning ustiga kichkina minoralar matilgan. Chodirning ichki tomoniga aylantirilib zarli movut tutilgan. Gumbaz boshlangan yerdagi to'rt keraganing to'rt burchagiga qanot qoqishga shaylangan burgut tasvirlangan. Hukmdor chodirining yoniga o'n bir malikaning chodiri tikilibdi. Ularning har biri alohida-alohida ipak gazlama bilan to'sib qo'yilgan. O'n ikki

qo'rg'onning o'rtasidan bir-biriga o'tish uchun yo'lak qoldirilgan. Taxt sobibi va malikalarning chodirlari tashqarisidan yana umumiyy "devor" hosil qilingan; "devor" yonida sharob quyilgan emson kuвлar saf tortgandi.

Otliq guruh o'n ikki o'rdani kecha-yu kunduz kuzatadi. Ularga bosh vazirning ijozatisiz hech kim kiritilmaydi. Hurmatli mehmonlarning oldida soqchilar quyosh nurida yarqirab turgan sovuq nayzalarini quyi tushirib, ta'zim qiladi. O'sha popuklari tuproqqa belanib, yerda yotgan nayzalarning orasidan Jabbor ham ichkariga kiradi. Hukmdor uni ham to'yning dastlabki kuni o'z chodiriga chorlab, sharob bilan mehmon qilmoqchi ekan.

Muhtasham chodirning o'rtasiga oltin taxt qo'yilgan, undan keyin hukmdorning oilasi uchun baland-past so'rilar o'rnatilgan.

Tashqaridan keladigan mehmonlar o'rinlariga joylashib boshlagach, eshikdan zarur taqir-tuqurlarini ko'tarib masxarabozlar uchib-uchib kirishdi. Ular hukmdorning taxti oldiga borishib, Ulug' podshoh so'nggi yurishida mag'lub qilgan podshohlarni masxara qiladigan o'yinlar ko'rsatdi.

Chodirdagi mehmonlar masxarabozlarning hazillariga qo'shib lib kulishga hukmdordan tortinishdi. Hukmdor ham o'zining roziligini bildirmadi, kula olmadi, masxarabozlarning o'zlari shod-xurram yuraverishdi. O'yin tugagach, xazinabon masxarabozlarning boshchisiga bir hamyon tutdi. Ular boshlarini yerga egib, ta'zim etgan holida eshik tomonga siljiy boshladi.

Masxarabozlar davrani tark etishi bilanoq, qo'shni "qo'rg'on"dan boyvuchcha ko'rindi. U ustiga yaltirab turgan chiroyli gullar tikilgan qizil ko'yлак kiyibdi. Uning sudralgan uzun etagini o'n besh xizmatkor ko'tarib kelardi.

Xonimning ayamasdan upa-elik bilan oro berilgan yuzi qo'g'ozdek oppoq. Bunga qo'shimcha yuzini oq harir parda bilan to'sib olgandi. Boshiga qimmatbaho toshlar bilan bezalgan minoraga o'xshash baland kiyim kiygandi. Uning qizil movutli etagi ikki yelkasini yopib turardi. Bo'yniga la'l va marvarid aralashtirib tizilgan shoda taqibdi. Boshidagi tojning o'rtasidagi uchta yirik-yirik la'l cho'g'g'dek yarqiraydi. Uning tepasiga ukki o'rnatilgan.

Uning uzun parlari malikaning ikki qulog'iga yetguncha osilib turardi. Xonim har bir qadam bosganda boshidagi og'ir toj shoyqalib, har tomonga qiyshayadi. Atrofidagi bir necha ayol qo'li bilan to'g'rilab qo'yadi. Boyvuchaning tunde qora sochi ikki yelkasini to'ldirib pastga to'kilgandi. Xonimga yuztacha kanizak ergashib kelardi. Shunday uzundan uzun safni malikaning kani-zaklarini kuzatadigan bir guruh g'ulomlar boshlab kelardi. Yerni toshib yuboradigandek og'ir qadamlar tashlaydi, kekkayib yuradi, malikaga ta'zim ila boshlarini egib turganlarga burnini ko'tarib takabburona boqadi.

Malika hukmdorning yoniga borib o'tirdi. U endigina joylashib o'tirgan ediki, ikkinchi tomondan yuz kanizagi bilan kichik malika ko'rindi. Uning ham dabdabasi boyvuchaning hashamlaridan kam emasdi. U boyvuchadan sal pastroqqa o'tirdi. Ikkisidan keyin hukmdorning yetti kelini kelib shu yerga o'tirdi.

Hukmdor o'tirgan tomon ukkilari chayqalgan suluвлarga to'lib, o'zgacha go'zallik kashf etdi. Jabbor la'l, marvarid, oltin, atlas, ipak aralashib, alvon rang quchoqlashgan manzaradan ko'zini uzolmadi.

Malikalar joylashib o'tirgach, sharob va qimiz keltirildi. Qo'lga uzun oq shohi sochiq tutgan shahzodalar chiqdi. Ularning izidan kichkina oltin kosalar qo'yilgan oltin tovoqcha ko'tarib xizmatchi yigitlar ko'rindi. Yo'lining o'rtasiga yetganda shahzodalarning tizzalarini bukib ta'zim qildi. Keyin xizmatchilar tutgan tovoqchadagi kosalarni qo'llaridagi shohi sochiqlar bilan ushlab, malikalarning oldiga bordi va yana ta'zim bilan ichimlik tutdi. Malikalar kosalarni qo'lga oldi. Shahzodalar bir odim orqaga chekindi. Sharbatni ichib bo'lguncha ta'zim bilan kutib turishdi. Malikalar kosalarni bo'shatgach yana sochiq bilan ushlab olib, yana bir bor ta'zim qildi-da, orqaga chekinib-chekinib chodirdan chiqib ketishdi.

Oltimish usta o'tirgan poygakkdagi so'riga xizmatkorlar tinmay sharob quyishdi. Hukmdorning berganini oxirgi tomchisigacha ichmaslikka hech kimning haqqi yo'q edi. Mehmonlar namozdigardan keyin hukmdor chodiri turgan "ipak hovli"dan zo'rg'a yurib chiqib, o'yin-kulgi avjga chiqqan o'z ko'chalariga yo'l olishdi.

Yulduzlar jimirlab yoz tuni yaqinlashardi. Kunduzgi jazirani pasaygandi. Salqin oqshomda chodirlar o'rtasida o'tlar yarqiraydi Gulxan atrofi ko'ngilxushlik uchun to'plangan kishilar bilan ilg'iz Uzun karnaylarning oqshom havosini parcha-parcha qilgan o'tlar va o'jar tovushiga to'xtovsiz urilgan nog'ora va tomoshabin qora xalqning sharob ichgan shod ko'ngli kuyini chertgan dutorning, surnayning, sibizg'ining ovozi jo'r bo'ladi. Goh boshlarida do'ppi, beqasam to'nning belini sariq belbog' bilan bog'lagan xipchabbel yigitlar barmoqlarini shaqirlatib o'ynoqi kuy'larga raqsga tushib, goh mayda o'rigan sochlari silkinib, oq bilagini baliqdek o'ynatib go'zal qizlar xirom etadi.

Qorindor jez choyqaynatgichni o'rta qo'ygan, bir-bir choy-nakka egallanib choy ichayotgan kishilar guruh-guruh bo'lib, birining so'zini biri davom ettirib, biriga biri hozirjavoblik ko'rsatib, askiyani avjiga chiqaradi.

Katta-katta doshqozonlarning beti ochilganda palov-xonto'raning hidi kechki osmonni butkul qoplab oldi. Yengini bilagigacha qayirib olgan mo'ylovlari yaltirab turgan kabobpa-zlarning qo'lida aylanayotgan kabobdan qip-qizargan saksovu'l cho'g'iga to'xtamasdan yog' tomadi... Yoshning ham, qarining ham mo'ylovidan sharob tomchilaydi.

Dilbar kuylar quloqqa yoqadi, burningni shirin bir hid qitlaydi. Ochiq osmon tagida minglab gulxan mamnunlik bilan raqsga tushmoqda. Gurros-gurros... O'yin-kulgi avjida. Xalq shod-xurram...

Hukmdor to'y vaqtida odamlarning bir-biriga haddidan oshib, zo'ravonlik qilishini man qilgan. To'y davomida bo'ladigan uncha-muncha ayblarning hammasi kechirilardi. Faqat chegaradan chiqmaslik lozim. Haddidan oshganlarning jazosini biz berajakmiz deb, chodirlardan chekkaroqqa, yolg'izgina tepaning ustiga qator-qator qurilgan dorlar ogohlantirib turardi.

II

Masjid sharafiga uyushtirilgan to'y o'tgach, hukmdor u yerga borib, nomoz o'qidi, jamoadan fотиha oldi va mag'ribga yurishga otlandi.

Ana shu kezlarda Jabbor yashayotgan uyning sohibi Ahmad-bo'y qizini uzatdi.

Kech bo'lsa bu yerda ariqdagi suvning shildirigina eshitilardi. Mana ikki haftadirki, Ahmadboyning kichkina hovlisida g'ovur-g'uvur avjida. Hammadan ham Ahmadboyning o'zi o'ziga zo'r berardi. Uning to'y-tomosh desa o'zini tomdan tashlaydigan odati bor. To'yga bir hafta qolganda sandiqning tagida yotgan to'y kiyimlarini oldirdi. Keyin toshoyning oldiga borib quyosh tikkaga kelguncha o'tiradigan bo'ldi. Avval boshiga salla o'raydi. Bunday o'raydi, ko'zguga qaraydi, o'xshamaydi, yana takror o'raydi, ko'zguga qaraydi, o'ziga yoqmaydi.

— Ey xotin, qaydasan?..

Ayoli yo bog' sug'orayotgan, yoki tandirda non yopayotgan bo'ladi, erining chaqirganini eshitmaydi.

— Ey xotin, garangmisan?

Hovlining allaqayeridan chiyillagan zaif ovoz keladi.

— Nima bo'ldi, boy aka?

Ahmad kuyib-pishadi.

— Ey, buyon kel, buyon...

Ayol qo'lini etagiga artib, eri o'tirgan xonaga kiradi.

— Menga qara.

— Ha.

— Nega "ha, ha" deyverasan, ko'rmayapsanmi?

— Ko'rib turibman, boy aka...

— Nimani ko'ryapsan?

— Sizni ko'rib turibman, boy aka.

Ahmadboyning bardoshi tugadi. Boshidagi sallasini yechib oladi. Erining nega achchiqlanayotganini tushunmasdan hayron bo'lib turgan ayoliga, bir shapaloq berib, uydan quvib chiqadi.

Usta yigit eshik oldidagi soyada yotib, buning hammasini eshitadi, o'zicha jilmayib qo'yadi.

Birozgacha Ahmadboyning ovozi o'chadi. Anchadan keyin yo'lakda o'zi ko'rinadi. Boshida kattakon salla, ustida qirmizi to'n, oyog'ida bulg'ori kovush. Yum-yumaloq qornini qalin belbog' bilan bog'lab qo'ygan. Choponining tiligidan oppoq shohi ko'ylagi yaltiraydi.

Mehmondan:

- Usta uka, qalay, — deb so'raydi.
- Yarashibdi, boy aka!

Ahmadboy ayvondan kekkayib pastga tushdi, hovlining bir chekkasida yurgan ayoliga:

— Xotin, bugun do'kon ochilmaydi, — deb baqirdi-da, qo'ling likillatib, lekin juda mayda qadamlar bilan ko'chaga yo'l oldi. Shu ketgancha oqshomda qaytdi.

Darvozadan ko'rinishi bilan:

— Xotin, obdastada suv bormi? — deb qichqirdi.

Jez tosdagi ili suvga ovog'ini solib o'tirib, suv quyib turgan ayoliga, uy egasiga peshvoz chiqqan Jabborga, o'choq boshida ovqat pishirayotgan qiziga, bir burchakda somon chaynayotgan eshagiga, undan beridagi qo'sh g'ildirakli aravaga, ko'pdan beri suvoq ko'rmagan devorga, qoramtir osmonda endi-endi jimir lab ko'rina boshlagan yakkam-dukkam yulduzlarga, ariqda suv shildirab oqayotgan ko'chaga, saroylar va xon bog'iga, butun shaharga, hatto butun olamga tugal eshitilsin, Ahmad boyning bugun nima ishlar qilganini bilsin degandek qattiq ovozdada gapira boshlaydi. Qaysi savdogarning do'koniga kirib kiyimlarini ko'rsatganini, kimlar bilan bahslashib, kim bilan urushganini, kimni so'kkanini, choyxonada qancha choy ichganini, askiyada kimlarni boplaganini, kimning bedanasiga pul tikkanini — hamma-hammasini aytib uzoq vaysadi. Keyin sallasini, to'nini, sholvorini, eng oxirida bulg'ori kovushini ayoli yoniga otdi. U kiyimlarni quchoqlab uyga kirib ketayotgan edi, bir narsa esiga tushgandek shartta to'xtatdi.

— Darvoqe, nechta ko'rpa bo'ldi?

Ayol unga hisobot berdi.

— To'y yaqinlashib qoldi, qara! — deb po'pisa qildi, nosqovog'idan nos olib hidladi.

So'ngra hovlini boshiga ko'tarib bir aksa urdi. Shu bilan birga, ichida yig'ilib qolgan so'zlar butunlay tashqariga chiqib ketgandek Ahmadboy boshqa bir og'iz so'z aytmadi.

Boy taomdan so'ng Jabborning yoniga yoyilgan to'shakka yonboshladi, boshi yostiqaq tegishi bilanoq xurрак ota boshladi.

Xurрак kuchayib-kuchayib pasayib, yana kuchayardi. Ahmadboyning "tungi hikoyasi"ni tinglab yotgan yigitning uyqusi qochdi.

Buyuk hukmdorning bepoyon shahrida osudalik. Darvozalarining ichidagi gulxanlar o'chgan. Hamma uyquda. Faqat Jabbor bedor. U uzoq vaqt u yonidan bu yoniga ag'darilib yotdi. Bir mahall uxlab qolibdi.

Xonaning ichida jimjitlik hukm surardi. Jabbor yana uyg'onib ketdi. Ahmadboyning to'shagi bo'sh edi. Atrofga atlangladi. Ko'paradagi ayollar xonasining eshigi g'ijirlab yopildi. U bu ovozni eshitib jilmayib qo'ydi va yana bir ag'darildi...

Xalqdan avval Ahmadboyning o'zi intizor kutgan to'y kuni keldi. Hovlining uch-to'rt yeriga o'choq qazilib, doshqozon o'rnatilib, palov pishirilmoqda, bir necha yerda qo'rada kaboblar. Tandirda o't o'chmaydi... Hovlida taom hidi, er yigitlar xonasida — sharob va ter hidi, ayollar o'tirgan xonada — meva va atir hidi.

Mehmondorchilik ertalabdan boshlandi. Goh dutor va childirma ovozi yangraydi. Er yigitlar o'tirgan xonada barmoqlarini qarsillatib o'n bir-o'n ikki yashar bola raqsga tushadi, qolganlar doira zarbiga mos holda terlagan ko'kraklarini mushti bilan savalaydi. Ayollar xonasida qizlar xirom aylaydi. O'tirganlar kafti og'riguncha qarsak chalmoqda.

Quyosh tafti qayta boshlaganda er xonasida to'yga atayin chaqirilgan qozi qo'lidagi ichiga kumush uzuk solingan tovoqqa nikoh suvini quyib, kuyov va kelinning guvohlarini yoniga chiqirdi. Nikoh duosi o'qilgach, qozi qo'lidagi suvni yigitga berdi. U bir ho'pladi. Qolgan suvni narigi xonada chimildiqda o'tirgan kelinga yubordi. Ko'p o'tmasdan, kosa qozining qo'liga qaytib keldi. U ikki ota va kuyovning, guvohning oldida duo o'qib, fотиha qildi.

Dasturxon qayta yangilandi. O'yin-kulgi davom etdi. Tun yarmidan og'di. Kuyov yigit kelinni ko'rishga borishini aytib, xabar yuborildi. Ayollar xonasida shovqin kuchaydi. Hammasi qo'lga bir-biri sham yoqib ushladi, kuyovning oldiga chiqdi. Xonada chimildiqda o'tirgan kelindan boshqa hech kim qolmadi.

Bir guruh do'stlar qurshovida kuyov kelinning xonasiga yo'l oldi. Ular eshikni ochishi bilan qiy-chuv boshlandi. Ayollar yosh yigitlarni mushtlab, kuyovni tortib olmoqchi bo'lishdi. Ayollar qiy qirishdi. Xonani kuyik hidi tutdi. Bir yigitning soqoliga o't tegdi, u choponning bari bilan urib, o'chirolmay ovora. Oxiri ayollar kuyovni kuyovjo'ralardan tortib oldi. Birov uning boshini qo'ltig'iga qisib, to'rdagi chimildiqqa sudraydi, bir to'p ayol orqasidan yuguradi. Kuyovjo'ralar o'tirgan xonalariga qaytib, dasturxon atrofiga o'tirishdi. Ayollar xonasida kuyov kelinning oldiga kirish uchun dasturxon atrofida o'tirganlarning har biriga sovg'a berdi. Qiz kelinchaklar esa qo'shiq aytib, raqsga tushib uni xushnud etdi.

Bu paytda kelinchak chimildiqda o'ttiz-qirq ko'rpani ustma-ust yoygan, erta kuyovning uyiga olib boradigan to'shagida yolg'iz o'zi o'tirardi. Kuyov kelinning o'rtloqlarining ko'nglini topib, chimildiqqa kirdi. Ikkoviga bir laganda palov va meva-cheva keltirildi. Chimildiqning tashqarisida qiz-kelinchaklar chaqchaqlashib o'tirishardi.

Tun yarmidan og'di. Devorga tortilgan iplarga kelinning kiyimlari yoyib qo'yilgan, pastda kelinning oyoq kiyimlari tizilib turgan xonada qiz va yigit tanho qolishdi. Sho'x kelinlar chiqishda shamni o'chirib ketishdi...

Kelin va kuyovni tanho qoldirib chiqib ketgan kelinlar eshik va derazadan poylashdi. Dastlab nafasini ichiga yutib tinch turishdi, keyin bora-bora shivir-shivir kuchaydi, birozdan keyin kulgi boshlandi. "Nega kulayotganimizni hamma bilib qolmasin, sekin kulishaylik", — deb bir-birining biqinini chimchilashadi. Ichkaridagi ovoz to'xtagan paytda, ular ham kulgilarini pichoq kesgandek birdan to'xtab qolishdi. Ichkarida nima bo'layotganini bilmasdan jim turib qolishdi. Oralaridan biroviga eshikni taqillatishni buyurdi.

Eshik taqilladi, kuyov eshikni ochdi. Eshikni taqillatgan juvon chaqqonlik bilan xonaga kirib oldi. Ko'p o'tmasdan, u kelin-kuyov bergan sovg'ani ushlab qaytib chiqdi. Ular hamon bir narsa haqida shivirlashmoqda. Keyin birdan kulgi ko'tariladi. Chunki qanday xabar bo'larkin, deb kutishayotgan edi. Hamma tashqariga yo'l oldi. Kelin va kuyovning onalari oldiga borishmoqchi, su-

yunchi olish kerak. Ertalab quyosh ko'tarilgach, kuyov jo'ralari bilan oxirgi marta kechagi xonaga kirdi. Chunki u uylandi, bundan keyin bo'ydoqlar bilan birga yurolmaydi.

Yana bazm boshlandi, g'ala-g'ovur kuchaydi. Jabbor tashqari-ga chiqib ketdi.

Kechadan beri davom etayotgan qiy-chuvdan boshi zir-qirardi. U darvoza oldidagi yolg'iz tut soyasiga arang yetdi. Shu kuni peshinda to'y tugadi. Kuyov o'zining uyiga ketdi. Kelin ota uyida qoldi. Ahmadboy to'yda kiygan hashamdor to'nni yechish-ni istamasdi, goh uyga kiradi, boshini ushlab qaytib chiqadi. Kelin hamon chimildiqda. Qo'ni-qo'shnilaridan to'rt-besh juvon pichirlashib, bir narsalar haqida gaplashib idish-tovoqlarni yig'ishtiradi.

Jabbor boshini qattiq narsaga urib olgandek garang holatda. U yoqdan bu yoqqa yurganlarga talmovsirab qaraydi.

O'sha kecha xona har kungidan o'zgacharoq dimiq bo'lganidan yota olmadi. Yalangoyog'iga kovush ilib, tashqariga chiqdi. Sutdek oydin kecha. Paxsa devorni kimdir ohaklab qo'ygandek oqarib ko'rinadi. Somon chaynayotgan eshakning "g'irt-g'irt"idan boshqa ovoz yo'q. U eshik oldidagi ayvonda jo'ka yog'ochga suyandi, tungi shabadaga ko'kragini tutib turib qoldi. Kutilmagan-da bir narsa "taq" etib tushdi. Darvoza tomonga qaradi, hech narsa ko'rinmadi. Taqillagan narsa yerga singib ketdimi, boshqa hech narsa bilinmadi. Jabbor hayron. Qulog'ini ding qilib tinglaydi. Faqat eshakning "g'irt-g'irt"i eshitiladi. Haligi ovozning qaysi tomondan chiqqanini bilolmadi. Boshqa ovoz eshitilmagach, ohista yurib ayvondan chiqdi. Yalangoyog'kiyan kovushi tovoniga uriladi. Shu paytda bir soya "lip" etdi. Jabbor birdan to'xtadi. Yurish-ni ham, orqaga qaytishni ham bilmay, biroz taraddudlanib turdi. Yuragi dukillaydi. Nima bo'lsa ham tavakkal, deb tez-tez bosib soyaga qarab yurdi. Uyning panasidan kimdir o'tilib chiqdi-da, devor tomoga yugurdi. U ham kovushini shilpillatib ketidan chopdi. Qochoq devorga yetgach, orqasiga qaradi va birdan to'xtadi. Devorni ushlagan qo'li pastga tushdi. Jabbor yetib borguncha qimir-lamasdan kutib turdi. Bir odimcha qolganda:

— Ahmad amaki desam, sen ekansan-ku! — dedi.

Ovozidan tanidi. U kuyov yigit edi. Kuyov qovog'ini uyib, uni yoqtirmaganini bildirmadi, iljaygancha tik boqdi va shoshimandan uy tomonga ketdi. Beo 'xshov uzun soyasi o'ziga ergashdi. Ho zirga, qochganini, qo'rqanini unutdi, chog'i, xotirjam ketaverdi. Ko'lanka uyning burchagiga yetganda itning dumidek bir ikkiladi va ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Jabbor g'alati maxluqni ko'rgan boladek og'zini ochgancha oynuridan oppoq rangga belangan hovliga qarab uzoq turdi.

Bir hafta davomida yarim kechada u yotgan xona derazasining tagida bir narsa "tap" etadi, picha vaqt o'tgach, kelin yotgan xonaning eshigi g'ijirlab ochiladi.

Kuyov yigit kelinni bir yil davomida qayin yurtida qoldirib, tun yarmida qaynotasi va qaynonasidan yashirinib, tunash odatini oxirigacha saqlashga biror narsadan shubhalandi, shekilli, bir haftadan so'ng uni uyiga olib ketdi.

Endi Jabbor har kuni kechqurun ishdan qaytganda hovli unga avvalgiday emas, g'alati begonaday tuyuladi. Har yer-har har yeridan o'pirilgan paxsa devor o'sha-o'sha. Bir burchakka suyangan qo'sh g'ildirakli arava o'rindan qimir/amagan. Ko'k eshak o'sha holatda somon chaynaydi. Lekin hovli avvalgidek emas, huvullab qolganga o'xshaydi. Ahmadboy ham qornini silab kirib, silab chiqib ketsa ham, avvalgidek baqirmaydi. Shu kungacha topmagan sabrni qizini uzatgandan keyin topgandek. Kampirning ham ovozi eshitilmaydi. Chodra va paraji ustidan yopilgan chopon ichidagi harakatlar uning tirik ekanini bildiradi, xolos.

To'yda chimildiq tutilgan xona endi Jabborga tegdi. Yosh kelinchakning dastlabki nikoh tunlari o'tgan xonadan atir-upa, surma hidi ketmagan. U har kuni to'ming o'rtasiga to'shalgan ko'rpa-siga yotishi bilan begona, lekin allaqanday tanish, allaqanday jozibali hid taralayotgandek, tinchgina yotolmaydi. Ko'zini yumishi bilan xonaning burchak-burchagidan harir parda yopingan qalin sochli qandaydir bir go'zal uning to'shagiga qarab yaqinlashib kelayotgandek bo'laveradi, ko'zini ochsa, derazadan tushib turgan oynning nuridan boshqa hech narsa yo'q. Anchagacha ko'zini bir ochib, bir yumib yotadi. Juft kiprikning tagiga temir quyib qo'yilgandek bo'lib, qovoqlari og'irlashib, noiloj uxlab qoladi. Tushida ham

ho'vragi bir sharpa uning qo'li yetadigan joyga o'rin soladi. Oppoq momiq to'shakka kirib ketadi va qo'zg'almasdan yotadi. U tinch yotolmaydi, turib ketolmaydi, o'zi bilan o'zi olishaveradi. Turmoqchi bo'lsa, g'alati afsun hamma yog'iga yelim quyganidek, jismini qimirlatolmaydi. Kimdir boshini yumshoq qumloqqa ko'mib qo'ygandek, go'zal yotgan tomonga qarolmaydi. Ancha o'tgach, uvushib qolgan qo'lga jon kiradi, yonidagi to'shakka qo'lini cho'za boshlaydi, momiq yostiqaqa yaqinlashganda qo'li qattiq bir narsaga tegadi. U cho'chib uyg'onadi.

O'z-o'zi bilan olishib, bedor o'tgan bemaza turlardan keyin jahda ham ko'ngli yozilmaydi, jismidagi og'irlik yo'qolmaydi. Ahmadboy to'ydan keyin hech kim bilan ochilib gaplashmaydi, odamovi bo'lib qolgan.

Hukmdor yurishga o'tlanishdan avval keng shaharning hamma yerida savdogarlarning bog' ichida, maydonlarda savdo qilib, yetti olamdagi eng katta poytaxt ko'chalarini shovqin-suronga to'ldirib, ot va eshakning tuyog'idan uchgan changga belab qo'yishni man qilish maqsadida shaharning bir chekkasidan ikkinchi chekkasiga yetguncha cho'zilgan katta bozor — tim qurishni buyurgandi. Timning ikki chekkasiga do'konlar qurib, o'rtaga favvorali hovuzlar barpo etishni topshirgan.

Shundan buyon kechasi qo'rg'ondagi qullar kelib, ko'cha o'tadigan yerdagi uylar va devorlarni buzadi, tong otguncha yaron bo'lgan uylar o'rmini chinidek qilib tozalab qo'yadi; ustalar tozalangan yerga tim bozorning do'konlarini quradi. Yopiq bozor endigina shaharning markazidan o'tdi. Qish oylarida yer muzlab, qurilish ishlari yurishmay qoldi. Uzzukun yuzlab ustaning qator o'tirib tosh terishi, qurilishdagi shovqin-suron charchatyaptimi, yo'qsa ko'ngli joyiga tushdimi, Jabbor tundagi noxushliklardan qutuldi. Ilgari ko'z oldida yashnab turadigan Zuhraning qiyofasi ham xira tortdi. Ilgari bir uyda yashab, har kuni ko'rib yuradigan yoqimli chehra bir yildan beri ayqash-uyqash devorlarga to'la shaharning bir chekkasidagi begona uyga borib yashiringach, endi ko'rishmaydigan bo'lgach, yuragida sayrab turgan ko'zlari kulgan sharpa ham asta-asta tuman ortiga chekingandek. Lekin ba'zan eslab qolsa, yalong'och ko'kragini sovuq o'pib olgandek yuragi

muz bo'lib qoladi. Yuragidagi qarama-qarshi hislar bir-biri bilan qancha olishsa ham, Jabbor o'zini tutib olishni o'yladi.

Ha, Jabbor endi avvalgidek emas, hushini yig'ib olgan. Endi oldidagi qator-qator toshlardan boshqa hech narsani o'ylamaslikka qat'iy ahd qilgandi.

Bir-birining ustiga taxlanayotgan g'isht va toshlar uning tomanli mung, noaniq umid, bema'ni bezovtalikdan tozalangan o'yidek saralanib, chiroy kasb etmoqda. Tim tobora uzaymoqda. Hukmdor yurishga ketganiga ham ikki yilday bo'ldi. U qaytganda o'z buyrug'ining bajarilganini ko'rsin deb, bosh usta ham shoshirmoqda. Har kuni ertalab kelib ustalarning ishini ko'rib ketadi. Hozir ham ana aravani eshik oldida to'xtatib, tosh terilayotgan timning ostiga kirdi. Har kungidek tosh terayotganlarning yoniga to'xtab gaplashmadi, yo'lida davom etdi. Yana bir shoshilinch ish chiqdimikan, a? Kimning oldiga kelyapti?! Tosh tashiyotganlarga ham e'tibor bermadi. Tez-tez yuradi. Qayerda to'xtar ekan? Mana, uning yoniga keldi. To'xtamasdan o'tib ketar, balki. Yo'q, qayrildi... Ha, to'g'ri o'ziga kelayapti. Yoniga keldi. Uyiilgan g'ishtlarning ustiga oyog'ini qo'yib gap boshladi:

— Jabbor, tashla...

Nima demoqchi? Jabbor uning yuziga qaradi.

— Yur, saroyga boramiz. Seni bosh vazir chaqiryapti.

Bosh ustaning yumshoq yengil aravasi bosh vazirning saroyi darvozasiga kelib to'xtadi. Darvozani ochgan soqchilarning o'rtasidan o'tib, shoshilib oldinda tez-tez odimlab borayotgan bosh ustaga ergashdi. Saroyning salqin, yarqiroq bir necha xonasidan o'tib, oxiri juda keng, yop-yorug' xonaga kirishdi. Xonaning to'ridagi yog'och so'rida o'tirgan bosh vazirning oldiga borishdi. Vazir uning ta'zimini qabul qildi, boshdan oyog'igacha tikilib qaradi. Bir muddat vaqt o'tgach, gapimni boshlasammikan deganday og'zini ochdi, yana bir marta qarab qo'ydi.

Keyin bosh usta tomonga burilib:

— Chaqiriq boisini aytdingmu? — deb so'radi.

— Yo'q, taqsir, — deb bosh usta yerga qaradi.

— Jabbor usta, kichik malikamiz buyuk hukmdorni poytaxtga qaytganida xursand etmoq maqsadida bir minora qurmoqni ahd

qilibdur. Bu ishni sizga tayinlamoqni jur'at etdik, — dedi-da, katta ko'zlarini yanada katta ochib qaradi. Boshini pastga tushirib, ko'z qiri bilan pastdan yuqoriga qarab chiqish bosh vazirning odati edi. Uning tikilib turgan bodroq ko'zlariga tik qaramoqqa jur'at qilmagan Jabbor usta egilib ta'zim qildi.

Bosh vazir yeb yuborgudek o'qrayib qarayotgan bodroq ko'zini yana bir marta aylantirdi va Jabborning ikki yelkasi osha eshikka qarab:

— Angladingmu? — dedi.

U loqayd holda gapirardi.

Jabbor nima deyishini bilmasdan bosh ustaga qaradi, u vazirning nima deganini eshitmagandek beparvo turaverdi.

Jabbor bosh ustaning beparvo yuziga hayron bo'lganicha biroq qarab turdi-da, bosh vazirning javob kutib o'tirganini ko'rib, shoshilib:

— Angladim, — dedi.

Jabbor minora uchun bir oy yer izladi. Goh yerning tuprog'ini o'rgandi, goh atrofdagi manzarani alanglab ko'rди. Keng shaharda bormagan, boshini silab turmagan yeri qolmadi.

Oxiri, u mingan arava kichik malika bog'ining janub tomonidagi o'vloq maydonchaga kelib to'xtadi.

Eski qal'aning o'ri shaharga nisbatan ancha yuqorida edi. Yeri uncha quruq emas, moytuproq emas, qattiqroq edi. Bir kuni kelib qurilgan minora cho'kib ketmaydi. Jilla chekkada emas, ayni markazda ham emas. To'rt tomoni ochiq. Shahardagi mashhur masjid-madrasalar va saroylardan ancha olisda. Atrofda kishining e'tiborini tortadigan hech nima yo'q. Terskay tomonda kichik malikaning saroyigina bor. U ham keng bog'dan ko'rinmaydi.

U Allohga tavakkal deb shu yerga qoziq qoqdi.

U yer-bu yeridan sichqonlar in qazib, ilma-teshik bo'lgan vayrona tepalikka har tomondan ko'chani changitib aravalar kela boshladi. Tog'-tog' bo'lib qizil g'ishtlar uyildi. Beligacha yalong'ochlanib olgan asir qullar yelkalaridan tik qaragan saraton oftobi tagida tanalarini yarqiratib chuqur qaza boshladi. Temir kuraklar bilan birga ular ham yer tagiga singib ketishdi. Kundan kunga tuproq uyumi kattalashgan sari terga belangan qora-qo'ng'ir

yelkalar yer tagiga kirib ketishdi. Jabbor tinim bilmaydi, qullar
jak minorani o'zining har tomondan bir qaraydi, u yoqdan bu yoqqa
chopib yuradi.

Bir necha kundan keyin qirg'ul qul yer betiga chiqdi, ular qazgan
chuqurlikka endi Jabbor tushdi. Qaynoq saraton kunida yer tagi
necho'g'lik rohat bo'lsa ham, bir-ikki kundan keyin zerika bosh-
ladi. Yorug'likka, yer betiga shoshildi. Tepada, zangori osmon
tagidagi yarqiroq yorug' dunyoga tez-tez yetib olmasa, allaqanday
yovuz kuch yer tagiga bog'lab qo'yadigandek edi, nazarida. Shun-
ing uchun tepadan teri zambilga solib yuboriladigan g'ishtni beto-
qat kutadi.

Nihoyat, qullar qazgan quduqni to'ldirib yer betiga chiqdi.
Qora yerning bag'ridan yorib chiqib kelayotgan tosh boyter-
akka o'tganlarning ko'zi tusha boshladi. Yosh ustaning nav nihol
ko'ngli o'tganlarning qarayotganidan mamnun bo'lib, ko'ngli
g'uruga to'lardi. Eski qo'rg'on ustida qimirab yurgan shunchu
kishi o'rtasida faqat o'ziga qarab, o'zining ishini tomosha qilayot-
ganini sezib qolsa, mushaklaridagi kuchini so'rib, charchatayotgan
to'xtovsiz harakat o'zining behudaligini yo'qotib, kutilmaganda
o'zgacha bir ma'no kasb etardi. Bunday hollarda u charchog'ini
unutadi.

Kun sayin ko'tarilayotgan minorani bilan birga, u ham yerdan,
g'isht tashiyotgan, loy qarayotgan qullardan tobora uzoqlasha
boshladi. Endi qullar g'isht va toshni minoraning ichkarisidagi zi-
napoyadan tashiydigan bo'ldi. Ikki kishi arang turadigan juda tor
minorada bir o'zi. Yangi minorani, g'ishtdan g'ishtga balandlab,
yuqoriga ko'tarilib borayotgan ustani uzoqdan tomosha qiladi-
ganlar ham ozaydi. Endi ularning ham ahamiyati yo'q. Yerdagi
kichkina-kichkina bo'lib ko'krak kerib turganlarning unga aytgan
so'zlari ham, qiziqib qaragan ko'zlari ham yetmaydi. G'ishtlar
borgan sari og'irlashmoqda. Tushovli otning hakkalab yurishidek
ustaning g'isht sanab o'tkazayotgan umri jonga tegdi. Endi u
g'isht tashuvchilarning kelishini kutadi. Ularning minorani tagidan
avval zaifroq, keyin dupurlagan oyoq tovushlariga quloq tutib
o'tiradi. Qullarning ko'pchiligi boshqa ellardan kelgan. Ular bu-
ning, u bularning so'zini tushunmaydi. Lekin yonidan oq ter, ko'k

terga tushgan erkaklarning juda g'alati, hatto jirkanch ko'rinuvchi
bir turli kuch beradigan o'ziga xos hidi burniga yetganda, u ovloq
bir burchakda tushovli otning o'ziga yilqilarni ko'rganda kishna-
gandek, bir narsalarni bildiraydi. Qullar uning nima deyotganini
tushunmasa ham, tishlarini iljaytirib kulib qo'yadi.

Minora bo'yi atrofdagi uylardan yuksala boshladi. Yaqin ma-
hallalarning tor-tor ensiz ko'chalari va kaftdekkina hovlilardagi
g'imir-g'imirlarning bari ko'z oldida. Pastakina uylarning
o'rtalaridagi u yoqdan bu yoqqa ketayotgan qora no'xatlar — es-
hak mingan, piyoda ketayotgan yo'lovchilar minglab so'qmoqqa
tushib olib, betartib harakat qilayotgan mitti maxluqotlarga
o'xshaydi. Ularning ko'ziga arang ko'rinayotgan bechorahol qo-
rasi ham, qarama-qarshi oqayotgan muz parchasidek mazmunsiz
harakatlari uning kulgisini qistaydi. Ayniqsa, bozor atrofi chumo-
lining inidan farqlanmaydi. Odatda, orasida yurganingda ko'zga
cho'g'dek bosiladigan qizil-yashil narsalar ham bu yerdan qara-
ganingda arzimas, qizig'i yo'q, hatto ko'zga ilishga yaramaydigan
narsalardек ko'rinadi.

Mana shu maydakashlikni, mazmunsiz shovur-shuvurni kishilar
o'zlariga o'zlariga qasddan o'ylab topgandek. Bepoyon zaminda har
biri alohida bema'lol yurishga yer yetmagandek biri-biriga urilib-
qoqilib paydo qilgan so'qmoqlarni, kenglikni kekirdakdan qisib
bo'g'adigan yo'lbarsdek ko'rib, to'rt tomondan to'rt devor bilan
o'rab, qamal qilib turadigan qandaydir tosh tobutlarni topib ol-
ibdi, yana biri-biriga ayni o'xshash tosh qutilar orasida, ko'rimsiz
torgina uyada biri-biriga urilib, chumolidek g'uj-g'uj bo'lib yurib,
o'zaro nom va shon talashish bilan ovora. Shunday bema'ni uya
biri-biriga to'qnashgan chumolilarni ham hushidan adashirgandek.
Aks holda bepoyon zaminda o'z holicha alohida sochilib yashasha
bo'lmasmidi? Shunda ularning har birini quvib yurib o'ldiradigan
kim bor deysiz? Mana bunday g'uj-g'uj uyani beshafqat yanchib
tashlashga har qanday dushman intiladi. O'zga uyalarni beshafqat
toptayotgan hukmdor o'zining uyasini yildan yilga ko'paytirmoqda.
Xuddi shu minoraning nima hojati bor... Taxtga mingan boshqa
hukmdorlarning ko'ziga ko'rsatib, shu yerda ikki oyoqlilarning
uyasi bor deyish uchunmi... Yoki bizning qudratimizni ko'rdingiz,

shuning uchun bu yerga yaqinlashmang, deb hurkitmoqchami? Nima kerak?.. Nima uchun kerak?.. Buni o'zi ham bilmaydi. O'tgan yili bodroq ko'z vazirdan buyruq oldi va ishga kirishib ketdi. Anavi mevali bog'ning ichida, xonalarning birida bunga qarab o'tirgan kichik malikaga kerak deydi. Uning bunday tosh uyumiga nega shuncha xumor bo'lib qolganini kim biladi? Mana shunday chalkash xayollar bir-biri bilan to'qnashganda u g'ovur g'uvur shahardan ham, shu shaharning o'zidek murakkab xayollardan bir muddat ozod qiladigan ozod kenglikka intiladi. Mana bu tepaliklar ortidagi sarob egallagan buyuk dashtni ko'rishni istaydi. Lekin qayerga qarasa, quyosh nurida rangi o'chgan paxsa devorlar, bir-biriga aralashib ketgan kuzgi loyqa ko'lmakdek na ko'rki bor, na o'ziga tortadigan sur parda ko'z oldida namoyon bo'laveradi. U shunday loyqa suvga bo'g'ilib qolmaslik uchun intilib, tosh minoraga ishonib, ko'k sari tirmashadi.

Jabbor minoralarning nega kerak ekanligini endi tushundi. Bu insonlarning bunday to'rt tomonini to'liq to'sgan boshi berlikdan ko'z erkinlik oluvchi kenglikka, ko'k eshak dumining sathidan yuqoriga ko'tarila olmaydigan pastlikdan ko'ngilga yupanch beruvchi yuksaklikka, bir hovuchni katta, ikki-uch gazni baland deguvchi, bo'lmag'ur narsalarni xazina, arzimas xususiyatlarni xosiyat hisoblab, ro'zg'or tashvishlari bilan ovora turmushni hamma jihatdan ulug'ligi bilan ko'ra oladigan yiriklikka, uyadagi jimir-jimir tirikchilik sohibidan butun osmonni to'liq kezib, to'liq o'rgana oladigan o'tkir nigoh, uchqur xayol, yuksak orzu egasi bo'la oladigan insoniylikka intilishning mevasi ekan. Hattoki sichqon ham tuproq sasigan tor inini tashlab, tanasini quyoshga toblab, kichkina ko'zini bepoyon tabiatga suqlana tikib, yorug'dunyoning faqat inidan iborat emasligini tushunib, sarhadsiz kengliklarga ko'z tashlab, yer betida faqat maydakashlik emas, ulug'lik ham bor ekaniga ishonch hosil qilgach, ko'ngli shodlanib, quvnb qo'shiq aytar edi-ku!

Balki, yer kindigini teshib chiqqan ushbu minoralar insonlarning yuksaklikka da'vosigina emas, qora yerning tepani butkul egallab olgan zangor samoga iltijo bilan cho'zgan qo'lidir. Qo'lidagi g'isht kechagina pastda ko'k eshakning tuyog'ida yanchilgan bir tiyimlik

qabri yo'q tuproq edi-ku, axir... Mana, endi u buning biligidan altopanday sehr chiqarayotgan kuchga qo'shilib, shunchalik qadrsizlikdan ko'rgan ko'zni o'ziga qarata oladigan baland inshootga, hech kim e'tibor bermaydigan be'mani kukundan ko'ngilni ko'kka sudrovcchi takabbur minoraga aylanmadimi?

O'tgan yili dastlab ish boshlaganida u eski qo'rg'onning tepasidagi zangori ko'kka nechog'lik termilib qarasa hamki, ko'z oldidan bir uchib yo'qoladigan aldamchi sarobdan boshqa hech narsani ko'rmagan edi.

Tasavvuridagi osmon bilan bellashib turgan afsungar minoralar zumda ko'zdan yo'qolgan edi. Lekin sichqon jismini ilmatoshik qilgan tepalikning ustida qaqqayib ko'rinib, keyin g'oyib bo'ladigan sarobni haqiqatga, ko'rganlarning ko'ziga o'tdek tegadigan ko'rqli zangor minoraga aylantirish mumkinligini u avvaldan sezgandi.

... O'sha voqeaga sakkiz yil bo'libdi.

Ikki o'la xurjuni ustiga ortgan ko'k eshak qum va shag'al orasidan zo'riqib keladi. Uning orqasidan u otasi bilan birga bir xilda qadam tashlaydi. Ikki haftadirki, mana shu yurish. Qum orasida ikki-uch kunda bir uchraydigan quduqning boshida oyoqlarini dam oldiradi.

Oldinda kelayotgan dadasi indamaydi. Vaqti-vaqtida bir to'xtab, doim tepalikka qarab yurayotganidan qattiq kigizdek qotib qolgan belini yozadi, qo'lini ikki biqiniga qo'yib biroz turadi, bir xo'rsinib yana yurishda davom etadi.

Faqat eshak zerikmaydi. Sergak qulog'ini likillatib, boshini ko'tarmasdan yo'rg'alab ketaveradi. Ikki oyoqlilarning ixtiyori-dagi jonivor o'ziga tinchlik bo'lmasligini obdan bilib olgan. Vaqti kelib bir yerda suv ichib, o't yeyishini ichdan his qiladi. Ikki oyoqlilar bunga shafqat qilgani uchun emas, o'zlarining dam olishlari uchun shunday qilishadi.

Sal orqada kelayotgan o'n yetti yashar Jabbor bu safardan zerikdi.

Qishi bilan to'shakda yotgan dadasi Navro'zda o'rnidan turdi. G'ayrati jo'shib, kaftdekkinaga yerni chopib, don sepd. Pastakkina kulbaning atrofidagi ikki-uch tup mevali daraxtning

tagini yumshatdi, shox-shabbalarini kesdi. Bularning hammasini bir og'iz so'z aytmasdan ishladi. Ishni tugatgach, bolalarini to'pladi. Jabbordan boshqa har biriga nima ish qilishi kerakligini aytdi.

Ko'p o'tmasdan, Jabborni olib yo'lga chiqdi. Kichkina qishloqning turg'unlari eshiklari oldiga chiqib, ularning ortidan hayron boqishdi.

Ko'k eshakka rangi o'chgan xurjunni ortib, hovlidan chiqayotganida qo'shni ayollar onasidan:

— Kulol qaysi bozorga ketyapti? — deb so'rashdi.

Lol-hayron onasi indamayyelka qisdi.

Qayoqqa borayotganlarini Jabbor bilmaydi. Qishloqda dadani haqida oldi-qochdi mish-mishlar ko'p. Ularning qaysi biri rost, qaysi biri yolg'on ekanligini farzandlari bilishmaydi.

Kulolning qayerdan kelgani ham noma'lum. Sovuq kuz kunida katta karvonga qo'shilib keldi-da, shu yerda qolib ketdi. Hech kimga ortiqcha gap gapirmaydigan kichik jussali qora kishi tuproqqa jon kiritadigan kulol ekan. O'z aravasini o'zi tortdi. Bir yetim qizga uylandi. Uyli-joyli bo'ldi. Farzandlari orasida Jabborga o'zgacha munosabat bo'ladi. Nimaga nazari tushsa, sinchiklab qaraydigan odati bo'yicha bolalarining har bir qadamini qat'iy nazorat qilardi, lekin unga kelganda ko'zining olasini kamaytirib, mehr bilan qaraydi. Mehri esa tanqisroq, yelkasidan qoqib, peshanasini o'pgan emas. Lekin jigarlarining yelkasiga nayzadek qadadigan sovuq nigohlar Jabborni chetlab o'tadi. Otasining bunday yumshoq munosabati sababini Jabbor bilmaydi. Har holda, dadasi biror ish buyursa, orqasidan kimdir kamon bilan otadigandek o'g'rilib alanglab qarashdan qutilganiga bir-ikki yilcha bo'ldi.

Dadasi tez-tez tuproq izlashga chiqardi. Katta daryoga bo'rib quyilishi yoki katta daryodan bo'linib chiqqanligi noma'lum o'zan bo'yidagi ovloq qishloqdan saharlab ko'k eshagini yetaklab chiqardi, uzzukun dala-dashtni kezib, kechqurun ikki xurjunni to'ldirib uyga qaytardi. Ikki yil avval yoz kunlarining birida Jabborni ham ergashtirib ketdi. Qishloqdan chiqib ko'rmagan o'smir ko'k eshakka minib olib, oldinda katta qadam tashlab ketayotgan otasining orqasidan izma-iz bordi. Avval ikki qir o'rtasidagi qo'zi-

uloqlar yoyilib yurgan o'tloqdan o'tib, baland tepalikka chiqishdi. Orqasiga qaradi. Baland-baland qirlarning yonidagi uzun-uzun tekislikda, dasturxonga sochib tashlangan bir hovuch jo'xoridek sochilgan tarqoq qishloqni ko'rdi. Mung'aygan guvala devorlar bilan o'ralgan tanob yerlar bir-biriga ulanib ketgan. Avvallari chekkasiga yetib bo'lmasdek ko'ringan qishlog'i juda ham kichik ekan, kichkina narsani ko'rganda joni achib yuradigan o'smir yuragi uzoqdan qorayib ko'ringan qishlog'ini ko'rganda kutilmaganda ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi.

Bola eshakni oyog'i bilan niqtab, ancha uzoqlashgan dadasining orqasidan ketdi. Do'ngliklar kamayib, tep-tekis maydonga chiqishdi. Qishloqda sal-palgina ko'rinadigan ufq bu yerda yaqqol namoyon bo'ldi. Osmon ham yuksaklikka ko'rib ketgandek tuyuldi.

Dadasi ufqqa yetmasdan to'xtamaydigandek edi, nazarida. Lekin Jabbor unga yetib bo'larmikan deb o'ylanadi. G'adir-budur yerda bosgan qadaming unmaydi.

Dadasi peshingacha bir xil holatda yuraverdi, yuraverdi. Peshin mahal bir yumaloq tepa ko'rindi. Dastlab ajabtovur baland ko'ringan tepalik yaqinlashgan sari tagidan bir nima kemirayotgandek, asta-asta pasayib, oldiga kelganda tekislikdan boshini ko'tarmasdan yotib oldi.

Dadasi tepalikning ustiga chiqib, uzoqdagi ufqqa qarab uzoq turdi. Tuproq izlab chiqqan bo'lsa ham, shu yerga kelguncha biror marta tuproqqa sinchiklab qaramadi. Bu yerda ham tuproqqa emas, uzoqdagi ufqqa tikildi. Ufq ham o'zidan narini uning suqlanib qarashidan yashirishni istagandek, nimparda ostiga yashiringan edi. O'smir bu cheksiz-poyonsiz kenglikdan, uning jittligidan, sehrli sabritdan bezovtalandi. Avval o'ngida ham, tushida ham ko'rmagan notanish pahlavon bilan uchrashib qolgandek, butun tanasi jimirladi. Ko'k eshakning ham ko'zi yoshlanib, tez-tez kiprigini qimirlatadi. Jabbor ko'zi arang yetgan ufqdan ham, ufqqa termilib turgan dadasining qarashidan ham hech narsa tushunmadi. Lekin bundan keyin u kichkina qishloqni o'rab olgan qirliklar o'pkasini siqib, nafas olishini qiyinlashtirgandek bo'lib, kengliklarga qochishga odatlandi. Tomorqadagi kichkina bog'chada

ishlashga ishtiyoqi yo'q, kichkina qishloqning sanoqli qo'shi ulog'ini haydab, yaylovga ketishni xohlab qoldi. Qishloqdan ancha uzoqqa ketadi-da, mollarini o'tloqqa yoyib o'zi chalqanchasi ga yotib osmonni tomosha qilaveradi. Sokin kengliklarga, ba'zan uning kelishini kutib yotgandek, asta-sekin jon kira boshlaydi. Avval zangori osmonning allaqayerida muallaq turgan chumchuqning chirqillashi eshittiladi; unga yerdan, ko'kdan turli hasharotlar jo'rg bo'ladi. Inlari og'zida tanini oftobda toblagan dala sichqonlarining butun vujudi issiqda jimirlab, xursand bo'lib allaqanday tovush chiqaradi. Bahoriy maysalarni kurt-kurt chaynagan qo'zi va uloqlarning tinimsiz dikonglashi ham unga kuydek yoqadi. Qulog'iga unga to'ladi, shivir-shivirdan rohatlanadi. Ko'z oldida zangori osmon.

Yassi olam bilan yuzma-yuz qolgan o'smir quyosh nurida toblanayotgan iliq tuproqning ustida uzoq ag'anaydi. O'z tili bilan tushuntirib berolmaydigan girdobiy hislarni boshidan o'tkazadi. Atrofidagi g'ovur-g'uvurni, shoshilib-entikishni bilmaydigan xotirjam tiriklikka, farosatli tinchlikka hayratlanardi. Tepadan qarab turgan zangori osmonga, ikki oraliqdagi shaffof kenglikka ko'zi to'yamay qarayveradi. Ufqdan asta-sekin ko'tarilib, ohista odimlar bilan siljib kelayotgan bir to'p bulut bepoyon olam egasining: "yolg'on dunyoda nimalar bo'yapti, borib bilib kelgin", — deb yuborgan yashirin ayg'oqchisidek bepoyon sarhadlarni soyasi bilan tintib bormoqda. Mana, momiqqina bulutning Yer yuzini silab kelayotgan mayda kafti — xiragina soyasi unga ham yetib keldi.

O'smir qandaydir tilsim kuchga duch kelgandek butun a'zoyi badani dirilladi. Yana kun chiqdi, yorug'likka yetdi, barra ko'ngil yana xotirjam bo'ldi. Hayot izg'irini mehmon bo'lmagan palapon ko'kragi bahoriy nurlar bilan iliqlikka to'ldi, xayol uni bepoyon kengliklar sari boshladi.

Shu tariqa juda uzoq yotdi. Yonboshi uvushib, orqasi chaganda boshini yerdan ko'tardi. Atrofdagi ovozlarni kamaygan. Quyosh ham yonboshlay boshlagan edi. Mana, bola keng dalada yolg'iz qolib ketarmikan, degandek ufqqa iyagini tirab qarab turardi. Uning o'rnidan turganini, qo'lga tayog'ini olib, qo'zi-ulog'ini hayday boshlaganini ko'rgach, ufqning ortiga kirib ketardi.

Oqshom chog'i har tomondan bo'zlab qaytgan sog'in tuyalar bilan birga uning qo'zi-uloqlari ham orqasidan qalin qorong'ilikni ergashtirib qishloqqa qaytib keldi.

Jabborning ko'cha-ko'yni changitib o'ynab yurgan bolalarga qo'shilmasdan bir o'zi yurishi dadasiga yoqardi. Ustaxonaga begona kishilarni ko'p kirgizavermaydigan dadasi uni bir kuni o'zi ergashtirib bordi.

Guvalla devorning bir burchagiga qurilgan ustaxonada zaxlik va kuygan tuproqning hidi hukmron edi.

Dadasining oyog'i charxga tegishi bilan, tinchgina havo pirlir yirtilib, uning oldida qora doira gir aylana boshladi. Kulonling uzoqlardan eshakka ortib olib kelgan tuprog'ini avval suvga aralashib loy bo'lgandi. Endi mana quyuc loy to'xtamasdan gir aylanib dumaloq shaklni olgandi.

Jabbor afsungar ko'rsatadigan ko'p sehmni ko'rib o'tirgandek, dadasining pochasini tizzasigacha ko'tarib qo'ygan yalong'och boldiridagi bulk-bulk o'ynagan mushagiga, oldidagi tinimsiz yugurayotgan jumboq aylanadan ko'z uzmaydigan sovuq nigohiga hayrat bilan boqdi.

O'smirning nigohi inson harakatining xuddi shunday sehmli kuchiga birinchi marta to'yib qaradi. Yovshan, beda va izanning tagida sochilib yotgan chang tuproq, qo'lda ushlanmaydigan, qayerdan chiqib, qayoqqa singib ketishi noma'lum suyuq suv, qurib qolgan saksovl shoxlaridan yonib-yonib, tutun bo'lib yo'qoladigan olov, kishining o'tkinchi harakati — yoppasiga beqarorlikdan ko'zga quvonch baxsh etadigan chiroyli buyum yasalganiga beixtiyor hayratlanardi.

Ko'p o'tmasdan, dadasi uni charxga o'tqazdi. Hammani o'ziga maftun qiladigan ko'za yasash uchun tuproq va suv, bosqon ta'sirida yallig'langan saksovl cho'g'idan boshqa inson muskullaridan so'riladigan qora kuch, ko'zingni holdan toydiradigan darajada tikilib o'tirishga yaroqli raso nigoh, asab tolalarningni ipdek igirib, tivitdek titadigan umid-u gumon, g'ayrat va shijoat, buning hammasini ochsa kaftida, yumsa mushtida tutadigan be-shafqat qoniqmaslik, shuningdek, tuganmas bardosh kerak ekanini ana shundagina tushundi.

Yaqindagina o'zi o'tiradigan burchakdagi latta-puttaning orasida yotgan eski terilik ustiga endi dadasi joylashdi. Ilgari Jabbor qanday tikilib o'tirgan bo'lsa, u ham shunday tikilib qarab o'tirardi. Lekin u hayratlanmaydi, hayajonlanmaydi. Dadasining o'tkir qarashlari uning butun jismiga nina bo'lib sanchilayotgan deb tuyuladi.

Keksa usta suyagi qotmagan o'g'lining zaif asablariga o'sha bir nina deb sanchiluvchi o'tkir nigohlari bilan kuch berishni istaydi. Chunki zabti tor o'smirming shijoati uloqning tivitidek igirilishidan ko'ra titilishga moyil bo'ladi.

Jabbor haqiqiy ustani chiniqtiradigan o'zganing ko'zi ekumini dadasining ertadan qora kechgacha erinmasdan tikilib o'tirgan nigohlaridan bildi. Dadasining ustaxonaga begonalarni kiritmasligining sababini endi tushundi. Usta ham o'n ikki a'zoidagi behisob go'zallikni shohi bilan berkitib, yot nigohlarni birdan yaraq etib, nafisligi bilan o'ziga mahliyo qiladigan mag'rur go'zaldek, duch kelgan kishilarga sirini oshkor qilmasdi. Xalq uning peshanasidagi reza terlarni, charchagan yuzini, soliq qovog'ini ko'rmasligi kerak, ko'rsa ham yasalgan buyumni ko'rsin, qiziqsin, hayratlansin, qoyil qolishsin. Haqiqiy ustada bundan ortiq maqsad yo'q. O'zganing sinchkov qaragan qarashidan qisilib-tortinmagan, boshqalarning o'zi yasagan buyumiga zavqlanib qaraganiga ko'ngli tog'dek ko'tarilmaydigan iliq-miliq atvordan usta chiqmaydi. Dadasi Jabborning yasagan buyumidan ko'ra o'sha begona ko'zlarga beparvo qaramasligidan xursand bo'ldi. Shuni ko'rdi-da, boshqa farzandlari kabi odamovi bo'lmagan, balki hissiyotga beriluvchan o'g'li borligiga mamnun bo'ldi. Uni o'zining hunariga o'rgatishga jonjahdi bilan kirishdi.

Jabbor hamma tomonidan zax hidi taralgan tor kulbaxonaga ertalab kirs, kechqurun chiqadi. Dastlabkida burnini yorib ketadigan kuygan tuproq hidini hozir sezmaydigan bo'ldi. Ko'zani tarashlaydigan charxning shovqiniga ham qulog'i o'rgandi.

O'smir ko'p diqqat talab etadigan hunardan charchadi, lekin zerikmadi. Har kuni bir sirini o'rganadi, ishga berilib ketadi.

Usta farzandini mashaqqatli hunardan birdan zerikib qolmasin deb, do'konni besh-olti kun ochmasdi, dam olishardi. U bu hola-

tda bo'sh yurishdan zerikib, do'konga, charxga shoshadi. Ko'p o'tmasdan, qishloqqa Jabbor yasagan ko'zalar tarqala boshladi. O'zi yasagan ko'zani ko'tarib suvga ketayotgan qizni ko'rib, o'zanga borguncha uning orqasidan ergashdi. Qizning ingichka juftasini buralib, u yasagan ko'zani suvga to'ldirdi, mayda tuproqni ohista bosib, yana orqaga qaytdi. Boyadan beri orqasidan ergashib yurgan o'smir yaqindagi devorning panasiga yashirindi, qiz orqasidan poylayotganini bilib qoldimikan deb uyaldi...

Hozir qishloqda Jabbor yasagan ko'za deyarli hamma uyda bor.

Endi dadasi kutilmaganda uzoq safarga boshladi. U bilmaydigan noma'lum joylarga ergashtirib kelmoqda. Bepoyon qumlikda ikkisidan boshqa tirik banda ko'rinmaydi. Mabodo, biror qora ko'rinib qolsa odammikan deydi, yoniga borsa saksovul ekan.

Yozning issig'ida qaynoq qumdagi bema'ni yurish busiz ham noma'lum safarning ma'nosini yanada yo'qotayotgandek.

Jabbor boshini osiltirib ketayotgan eshak va yerga qarab tez-tez qadam bosayotgan dadasining orqasidan yuraverish jonga tegandek bir muddat qum ustiga chalqanchasiga yotib oldi. Tepada unsiz osmon qotib turibdi. Shaffof ko'kda bulutdan asar yo'q. Faqat qum barxanlari atrofigina sal-sal xiradek ko'rinadi. Yuqorilagan sari tiniqlashaveradi. U osmonga qarab yotdi-yotdi-da, yana o'rnidan turdi. Keyin sochma qumni kechib, ko'k eshakning ortidan jadal yo'lga tushdi.

Namozdigar chog'ida barxanlar siyraklashdi, endi qumli tekislik boshlangan edi. Dadasi birdan to'xtab, atrofga ko'z yugurtirdi. Burma-burma qumlar... Usta bo'ronlar doira-doira qilib to'plab qo'ygan mayda qumlarga allaqanday seyr yozib ketgan duoni o'qib turgandek, chuqur ko'zlarini aylantirib tevarakka uzoq qaradi, uzoq o'ylab turdi. Keyin eshakning boshini sharqqa burdi.

Ular qizil qumning qora tuproq bilan uchrashgan yeridagi qalin butazorga kirdi. Hozirgina pastak ko'ringan barxanlar soya uzaygan sari sekin-sekin yuksalib, endi-endi ko'ringan bulutlarga aralashib ketganday.

Ko'k eshak tobora pastga tushib borayotganday... Avval sal ni-shabroq boshlangan tekislik birdan chuqurlasha boshladi. Dadasi qalin butazorning qoq o'rtasigacha engashib borishga sabri chi-

damadi, eshagini saksovulga bog'ladi. Jabborni yigirma qadamcha pastqamlikka olib ketdi. Keyin saksovulning eng qalin yeriga yetaklab bordi.

— Men o'zim kelguncha shu yerda o'tir. Anavi butalar orasidagi teshikdan qarab o'tir, qirdagi kamarlardan ko'zingni uzma.

Dadasi yo'lini to'sib turgan saksovul butalarini qo'lli bilan ko'tarib, boshqa tomonga yurib ketdi. Ancha vaqtdan keyin butalarning shitirlashi to'xtadi. Chamasi, u qulay joy topgan bo'lsa kerak...

To'qayzor nam, salqin... Butalarning o'ziga xos hidlari Jabborning burniga uriladi. Kunning qizg'ish nuri qalin to'qayzorning tepasiga osilib qolgan. Atrofni qorong'ilik qoplay boshladi. Ko'z oldidagi kichkina teshikdan qumlik g'ira-shira ko'rinadi. Yolg'iz qolgan Jabbor bezovtalanib, tevarakka qancha quloq tutsa ham, hech narsa eshitilmadi. Uzzukun yurishdan charchaganligi bois a'zoyi badani og'rib, uyquasi keldi. Ko'zi ilinibdi. Birdan ko'zini ochdi.

Oldidagi teshikdan bir nimaning qorasi ko'ringandek bo'ldi. Ko'zini uqaladi, qayta qaradi. Tuya mingan kishi. Boshiga katta salla o'rab olgan. Ular yashirib yotgan butazorni uzoqdan borlab, ostidagi qizil normi yeldirib, qizil qumga qarab ketmoqda. Egari qoshida ilingan do'mboq narsa silkinib boradi. Yaxna ichimlik bo'lsa kerak. Jabbor endi rosa chanqaganini his qildi. Anavi yo'lovchini to'xtatib, suv so'rsa nima qiladi? Birdan dadasining "men kelguncha shu yerdan qimirlama" degan gapini esladi. Boshig'ridi. Qumloqni yoqalab ketayotgan yo'lovchidan ko'zini uzmasdan qotib o'tiraverdi. Endi ilg'adi, tuya ustidagi yo'lovchining o'ng qo'lida shaqildoq taqilgan oq tayog'i bor ekan... Devona... Juldur-juldur kiyimli bunday kishilar ularning qishlog'iga ham kelib turardi. Bu devona ham Jabborga o'zlarining qishlog'iga ketib borayotgan tuyuldi. Nimagadir ko'ngli bo'shab ketdi. Yolg'iz tuyali uzoqlasha-uzoqlasha ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Boshi qattiq og'rigach, saksovulning tubidan muzdek nam tuproq olib peshanasiga bosdi. Barxanlarning panasiga borib kun botdi. Jabborning oldidagi teshik ham xiralashdi. Ko'p o'tmasdan, qorong'ilik o'z hukmini o'tkazdi.

Shom qorong'iligi to'qayzorga kirishga haddi sig'masdan, qum teshikda to'xtab qolgandek... Osmon oppoq. Qumloq ham oqshom qorong'iligi ta'sirida kul rangga bo'yalgan. Jabborning atrofidagi bo'yloq butalar ham asta-sekin qorong'ilikni tan ola boshladi.

Qum ustidagi xira yorug'lik zaiflashib-zaiflashib, oxiri batar mom ko'zdan o'chdi. Osmonning har yer-har yeridan yulduzlar yaltiradi, dastlab onda-sonda jimirlab ko'ringan siyrak yulduzlar nafi to'lisha bordi, dadasi ikkovining yashirib o'tirganini ko'rib qolgandek ularning tepasida jamlanib, jimir-jimir etishardi.

Cho'lda yetti xufton qaror topdi. Zulmat butunlay kuchga kirdi. Jabbor atrofga takror quloq tutdi. Sas yo'q, sado yo'q, saqov osudalik. Xuddi yon-atrofdan pisib kelayotgan noma'lum xatar oyoq uchida ularga yaqinlashib kelayotgandek. Uning yuragida g'ulg'ula bor, u xatarning qonli changali qachon kelar ekan deb betoqat kutadi. Lekin noma'lum xavf tinchgina kelib tishlab oladigan qora ko'ppakdek uning har bir harakatini yaqin yerda poylab yotaveradi. Bunday asabni egovlaydigan vahimali tinchlikning baqiriy-chaqiriy bilan ustingga tashlanadigan muqarrar xatardan ortiq ekanini Jabbor birinchi marta aniq his qilmoqda.

Kecha yarmidan og'di. Birdan to'qay chetidan shitir-shitir boshlandi. Kimdir yoki nimadir saksovulzorni o'rtasidan yorib kelmoqda. Birozdan keyin yana bir shovur qo'shildi. Keyin to'qayzorga o't tushgandek shatir-shutur kuchaydi. Boyadan beri Jabbor ushlab o'tirgan saksovul shoxi shatir-shuturdan qo'rqqan-dek uning pinjiga kirib ketdi. U bunday to'qaylarda yovvoyi hayvonlarning yurishi haqida ko'p eshitgandi. Hayvonlarga xos hid bormi, deb chuqur-chuqur hidladi, lekin hech narsa bilolmadi.

Shovqin borgan sari kuchayardi. Bir to'p hayvon to'qayzorni payhon qilib, olishib o'ynayotganga o'xshardi.

Jabborning tomog'i qurib qoldi. Tutib turgan shoxdan qo'lini ajratmoqchi edi, barmoqlari akashak bo'lib qolgandek yopishib qolibdi.

Shovqin ancha yaqinlashib keldi-da, orqaga qaytdi. Akashak bo'lib qolgan barmoqlari shundagina ochildi. Bo'yini tiklagan saksovul shoxi butalarga urilib shitirlab ketdi. Lekin bu Jabborga tog'dan tosh yumalagandek vahimali eshitildi. To'qayzor chek-

kasida shovqin qilayotganlar bu shitirni eshitib, birdan tinchlangandek bo'ldi, nazarida. Jabborning ikki qo'li oldiga sig'madi, cho'kkalab o'tirdi, zirqirayotgan qo'li bilan ikki tizzasini quchoqlab oldi. To'qayzor chekkasidagi shovqin tindi. Qancha quloq tutsa ham, qayta eshitilmadi.

O'sha paytda uzoqdan olov yarq etdi. U o'z ko'ziga ishonmadi, ko'zini chirt yumdi, pichadan keyin yana ochdi. O't lipillab lipillab turdi-da, birdan kuchaya boshladi. Yuqoriga ko'tarilgan olovning qizil tili osmondagi jimirlagan yulduzlarni o'chirib tashlagandek, yon-atofiga qizil shu'la taratib lov-lov qiladi. Gulxan aylanasida bir to'p odam yuribdi. Ba'zilar qorong'ilik qo'ynidan bir narsani quchoqlab chiqib, unga tashlaydi. Osmon tobora yuqoriga ko'tariladi. Bularning nima qilayotganini u tushunmasdan o'tiradi. Birozdan keyin ancha nariroqda turgan bir necha otga ko'zi tushdi. Gulxanga yaqin yerdagi otlarning egari qoshiga ilingan qinlar tungi olov shu'lasida yarqirab ko'rinadi.

Jabbor ularning kim ekanligini bilmasdan lol edi. Kimsasiz cho'lda qurol bilan yurganlari bejiz emas. Dadasi, balki, shulardan qo'rqqandir. Karvonlarni tunavchi qarochilar bo'ladi deyishardi. Haqiqatan ham, qarochilardir. Lekin ularning tortib oladigan narsasi yo'q-ku!

Jabbor tepalik ustidagi kishilarni o'ylab xayolning yuz ko'chasiga kirib chiqdi. Lekin ularning to'qayzor tomon bilan ishi yo'q. Xotirjamgina gulxan atrofini egallashgan. Bir-birlariga boshlarini silkitib, qo'llarini paxsa qilib qo'yishadi.

U uzun-uzun soyalarga, boshlaridagi tog'oradek bo'rkilariga, bellarida shalvirab yurgan qilichlarga uzoq qarab o'tirdi. U basharasi sovuq kimsalardan hadiksiradi, lekin qorong'i gung to'qayzordan qo'rqqanchalik emas, ko'ngli ancha xotirjam edi. Sal avvalroqda tishini qayrayotgandek bo'lub ko'ringan yirtqichlar ham orqaga chekingandek. Tepalikkdagi yo'lovchilar dalda bo'ldimi, butun jismi bo'shshib, shirin uyqu o'z quchog'iga torta boshladi. U gulxan atrofidagilarni kuzatib o'tirgancha uxlab qoldi.

Allamahalda kimdir yelkasiidan tortdi. Uyg'onib ketdi. Dadasi. U imlab: "Ketik", — dedi. Ikkovi saksovulga bog'langan eshak-

ning yoniga keldi. Dadasi eshakni yetakladi. Kelgan yo'llari bilan to'qayzordan chiqishdi.

To'qayzordan chiqqanlarida tong oqara boshladi. Tepalikka chiqqach, tunda notanish kimsalar gulxan yoqqan joyga qaradi. Gulxan o'rni qorayib ko'rindi. Hech kim yo'q edi.

Jabbor hayron. Uyuqiragan holda qumdan qachon chiqqanlarini sezmay qolibdi. Ancha vaqtdan keyin mayda tuproqli so'qmoqdan kelayotganini angladi. Oldlaridan ufq bilan tutashib ketgan ola-bula tog' ko'rindi. Undan ancha berida tumanlar orasida qop-qora narsalar ko'rindi. Ancha narida o'sha qorayib turgan tomonga u hech qachon ko'rmagan uzundan uzun karvon ketib borardi. Karvonning oldida bir guruh navkar gilam yopilgan, ustiga sariq chodir o'rnatilgan filni o'rab olishgan. Karvonning ikki tomonida ham o'tliq navkarlar. Qo'llariga nayza tutgan bir guruh uzun safning oxirida borardi. Jabbor va usta ulardan hayiqqandek, yetib olmadi, qolib ketmadi, ular bilan izma-iz kelaverishdi. Tunda gulxan yoqqanlar ham shular edi. Dadasining Buyuk Qumlikdan chiqadigan yo'l-so'qmoqlardagi yo'lovchilarni tekshirib, kuzatib yuradigan qurolli soqchilarning qahriga uchramaslik uchun qalin chakalakzorda atayin tunaganini Jabbor endi tushundi. Lekin shuncha ko'p navkarning karvonni turli ko'ngilsizliklar sodir bo'ladigan to'qayzordan xatarsiz o'tsin deb, oldilariga atayin yuborilganini, sariq chodirda esa hukmdorning yosh rafiqasi — kichik malikaning ketib borayotganini u bilmas edi.

Bularning hammasini u dadasi bilan bepoyon shaharning har yer-har yerida jiyda darxtining to'nkalarigina qolgan, pastqam uy-lari sog' tuproq bilan suvalgan va guvala devorlar bilan o'ralgan jin ko'chalarni aylana-aylana arang topib kelgan uyning sergap sohibi choy ustida aytib bergandi.

U hozirgi kunda ham yashayotgan uyning xo'jasi Ahmadboy edi. Ahmad avval uning dadasini tanimasdan biroz turib qoldi. Eshik ochib kutib olgan semiz qora kishi yaltirab ko'rinadigan qisq ko'zi bilan ularga tikildi.

Dadasi:

— Ahmad savdogar, unutib qoldingizmi? Men O'ratepadagi kulolman. Tijorat bilan borganingizda bizning uyda ko'p marta

bo'lgandingiz. Bepoyon shaharga kelsang, bizning eshikka kel de-
gandingiz, atayin izlab kelib turibman, — deb rostiga ko'chdi.

Xo'jayin mehmonni endi-endi tanigandek, ikki qo'lini yoytib,
quchoqlashib ko'rishdi. U mehmonlarni ichkariga boshladi. Oltin-
lariga tushib pildirab ketdi. Alohida xonada uchovi choy ichiladi.
Savdogar choy ichayotib, shaharda bo'layotgan yangiliklarni
to'xtamasdan gapirdi.

— Yaqinda bizning qishloqqa borgan bir devonaadan xon
shaharda yangi masjid qurdirish uchun hamma yoqdan ustalarni
to'playapti, deb eshitdim. Mana, men o'g'limni olib keldim. Hay-
otligimda sizning qo'lingizga yetkazayin dedim. O'g'limni o'sha
masjid qurilishiga qo'shishga yordam bersangiz.

Ahmad shaharda saroydagilardan boshqa hammani tanir
ekan. Bozordagi kichkina tor do'konda o'tgan-ketganga baqirib-
chaqirib o'tirgan to'rt-besh savdogar bilan ko'k choy ichib
o'tirib, kulolning iltimosi haqida gap ochdi. Ish xamirdan qil-
sug'urgandek bitdi. Bir hafta ichida o'ratepalik ota-bola kulol-
lar yangi masjid qurayotgan ustalarning qatoriga qo'shilib oldi.
Yangi masjid endi ko'tarila boshlanganda dadasining eski kasal
tutdi va yotib qoldi.

Dadasi bilan ikki oy birga ishlagandi. Endi masjidning mashriq
tomonidagi minoraga dastlab bir o'zi chiqqanida juda qattiq haya-
jonlandi. Kundan kunga yuksalayotgan minoraning tepasida yetim
chumchuqdek har tomoniga alanglab o'tirgan yosh usta begona bi-
rovning qarab turganini ko'rsa, uyaliyib yashirinib qolardi. Tepasida
turib oladigan, zo'rg'a qimiraydigan quyosh picha ko'tarilishi
bilan to uyasiga botib ketmaguncha atrofiga alanglayveradi. Yura-
gi dukillagan tortinchoq yosh ustaning bir joyda to'xtamaydigan
ko'zi goh quyoshni poylaydi, goh masjid devori ustida tinimsiz
harakat qilayotgan ustalarni kuzatadi. Hukmdor ularning har bir
harakatini kuzatib o'tiradigan madrasa tomonga ham qarashni
unutmaydi.

Kuni bilan tinib-tinchimaydigan Jabbor bir kuni kechqurun
ishdan qaytsa, dadasi o'lim talvasasida edi. Eshikdan kirishi bi-
lan, qo'lini cho'zib yoniga chaqirdi. Jabborning ikki ko'zi yoshga
to'ldi. Qiynalayotgan dadasining yuzini yaxshilab ko'ra olmadi.

Xona girdobga tushib qolgandek, atrofdagilarning hammasi xira-
lashdi; sal-sal oqarib ko'ringan narsalar nari-beri chayqaladi, faqat
oldidagi andak oqarib ko'ringan birovgina suv tubiga cho'kib, yo-
pishib qolgan bir varaq qog'ozdek qimiralmasdi. Xirillab chiqay-
otgan ovoz asta-sekin pasayib-pasayib tindi. Boyadan beri uning
qo'lini siqib ushlab turgan qo'l birdan bo'shshdi.

Dadasidan ayrilgach, u notanish shaharda tanho qoldi. Dadasi-
ning oxirgi nafasida nima deganini ham yaxshi tushunmadi. Faqat
"ketma" degan so'zningina aniq eshitdi. Endi masjid minorasin-
ing ustiga o'tirib olib, har bir g'ishtni qo'ygach, bo'ynini cho'zib
bir ko'radi. Boshqa hech narsaga qaramaydi. Lekin qarasa ham,
pastakkina kulbalar va yakkam-dukkam chinorlarnigina ko'rardi.
Zangori osmon g'ala-g'ovurga to'la shaharning ustiga chalqan-
chusiga yotib olgan. Ufqni, dadasi ikkovi bosib o'tgan sariq dalani
bir ko'rishga ishtiyoqi bor edi, lekin minora bitib, orzusi amalga
oshmadi...

Mana, o'sha odati bo'yicha har bir g'ishtni qo'ygach, atro-
figa bir qarab qo'yadi. Bir-biriga yondosh tushgan uylar atrofiga
parda tutib qo'ygandek orzusidagi ufq ko'rinnaydi. Yaqindagina
ko'z oldida juda baland bo'lib ko'ringan madrasalar, masjidlar,
minoralar bugun pastda qolib ketdi. Uzoqlarda to'p-to'p qoralar
ko'rinadi. Shahar chetidagi bog'-rog'lar.

Jabbor qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan tip-tiniq, chek-chegar-
asi ko'rinnaydigan osmonga qarab intilaveradi... Har bir g'ishtni
qo'ygani sayin bo'lmag'ur pastlikdan yorug' dunyoga intilgan
kishidek joni kiraveradi.

Kunlar o'tdi, pastda qorayib ko'ringanlar tepalaridan kimdir
bosib turgandek, pastlab-pastlab, oxirida shunchaki rang-barang
yo'lakka o'xshab qoldi. Endi shu yashil yo'lakdan birdan ajralib
ketolmasdan, buta uchiga yopilgan kulrang jundek, chuvalib yotib
olgan ufq ham o'rindan qo'zg'ala boshlagandek. Rang-barang
yo'lakning ustidagi tumansimon xiralik ham tarqalib, ravshanlasha
boshladi.

Peshindan o'tdi. Ufqqa to'planib, tiniqlashayotgan zangor
kenglikning orasida allaqanday sariq bir narsa ko'rinib qoldi. Jab-
bor o'z ko'ziga ishonmadi, qo'lidagi andavani toshning ustiga

tashladi, ko'zini bilagi bilan artdi, yana qaradi. Tiniq osmonning ufqqa tegib turgan tomonda uzoqqa cho'zilgan sariq maydon ochiq ko'rindi. Jabbor bo'ynini cho'zib diqqat bilan qaradi. U ko'p vaqtdan beri shuni ko'rishni istardi. Ko'p vaqtdan beri ko'z oldida turib qolgan ufqning ko'kintir pardasi uning ochofotdek to'yinma nigohidan uyalib, yo'lda turmayin deb, asta-sekinlik bilan narigga surila boshlagandi. Hozirgina xira tumanning panasida yashirilib turgan sarg'ish kengliklar birdan bosh ko'tarib, atrofini yashil yo'lak qoplagan hududga har tomondan shiddat bilan hujum qilib kelardi. Har bir g'isht balandlashgan sayin kengliklar ham yaqinlashib kelaveradi, yo'lidagi kerilib turgan tol va chinorlarni, so'ppayib-so'ppayib turgan minoralar va ko'k gumbazli masjidlarni, guvala uylarni bosib ketadigandek har tomondan shaxdam odimlaydi. Asta-sekinlik bilan kengayayotgan ushbu kengliklar g'isht qurshovida qolgan uni, uyidan ayrilib yolg'iz qolgan baxtni qutqarish uchun jon-jahdi bilan harakat qilayotgandek...

Kun botib, oqshom qorong'iligi cho'kkuncha u minoraga tepasidan tushmadi. Ertasiga tongdan minoraga yetguncha shoshilardi. Bir hafta davomida o'zini uchib yurgandek his qildi. Minoraga kelguncha, bepoyon shaharning tashqarisida yastanib yotgan sarhadsiz kengliklarni yana ko'rguncha o'zini qo'yarga joy topmasdi. Lekin dala-yu dasht uning qarashlariga parvo qilmaydi. Jabbor uzoq-uzoqlardagi xira sarobning ketishini kutadi, peshindan so'ng havo tiniqlashadi, ufq ravshanlashadi, hamon bir xil holdadagi cho'lni ko'radi-da, ko'ngli xira bo'ladi. U ushbu shaharday charx urgan xayolini ipsiz bog'lab, ustaning ko'rishni istagan, ko'ngli maftun bo'lgan makonni allaqaysi ovloqqa yashirib, hech narsani bilmagandek bezrayib qaraydi.

Uni bir haftadan beri yettinchi qat osmonda parvoz qildirmoqchi bo'lib quvontirgan minoraning boshi ham ko'nglini qoldirib, yana yerga tushirib qo'ygandek. Avvallari minoraga uni har tomondan o'rab olib, o'pkasini qisayotgan bema'ni qafasdan ozodlikka olib chiqadigan tanho yo'l edi. Mana endi shaharning zerikarli qafasidan olib ketsa ham, anavi kengliklarning g'alati yalqovligidan, toshbag'ir beparvoligidan ozod eta oladigan hech kim yo'q. Uning har bir qarich ko'tarilganida tog' boshiga chiqqandek xur-

and bo'lib, betini tirmashganining hammasi shunchaki behuda mashaqqat ekan.

Bugun u xomxayol bilan keng suv havzasidan, toshlarni tashlab, toshning ustidan o'taman deb ancha joygacha kelgan bo'lsa ham, o'rtaga yaqinlashgach o'ta olmasligiga ishonch hosil qilib, oldinga ham, orqaga ham yurolmay suv o'rtasida turib qolgan nochor kimsaga o'xshardi. Jabbor ertalab ishga kelayotib, Yer yuzidan otilib chiqqan bo'lsa ham, osmonga yeta olmasdan aro yo'lda turib qolgan minoraga sarosima bilan qarardi.

Usta minoraning boshiga hansirab chiqadi. Har bir qadam qo'yganida paylari yemirilib borayotgandek tuyuladi.

Ishi ham uncha yurishmaydi, andavani beishtiyoy qo'lga oladi. Quyosh imillab ko'tariladi. Shahar tashqarisida erinibgina oqish dasht cho'ziladi. Shahar ichi ham o'rin-o'rinda qotib qolgan. Ko'cha-ko'ya qimirlagan kimsa yo'q. Havoning o'zi harakatsiz. Shuncha baland minoraning tepasida g'ir etgan shabada yo'q.

Saraton osmoni qizdirgan sayin uzoq-uzoqlardagi oppoq cho'l ham, undan beriroqdagi qorayib ko'ringan bog'-rog'lar, polizdan iborat yashil yo'lak ham, shahar tepasi ham kuzgi isiriq rangiga o'xshab bormoqda. Qandaydir qaqshatgich kuch yengini shimarib, osmon tagidagi olamni bahaybat doshqozonga aylantirib, jamul jahonni shu qaynoq qozonga solib, ertadan kechgacha qaynatayotganga o'xshardi.

Jabbor mana shu quyuuqqa moyil dunyoning o'rtasiga botib botib qolayotgandek harakati qiyinlashib, jismi og'irlashib bormoqda. Ishlayotgan ishiga, atrofiga sinchkovlik bilan qarashni istasa ham, zehni pachava bo'lib, barqarorligini yo'qotgandi. Al-laqachon unutilib ketgan qandaydir bir sharpa yana ko'z oldida namoyon bo'ldi. Ko'kintir osmon bir dam bolalik chog'idagi o'zi o'sgan ikki qir orasidagi tekislikka aylandi... Ikki qir o'rtasida yashiringan kichkina qishlog'i ko'z oldida paydo bo'ldi. Hatto, ana, o'zi boqib yurgan qo'zi-uloqlar changitib o'tloqqa qarab ketyapti... Orlaridagi chang ko'tarilib-ko'tarilib bir chiziqda birlashadi. Mayda o'rigan sochlarini silkitib xipchabel qiz suvga kelmoqda. U ishlagan ko'zani yelkasiga qo'yib olgan.

Xuddi shu paytda uning uvushib qolgan badanini kimdir chini chilab olgandek jiz eta qoldi. Ana shundagina manavi osmon va yerni batamom egallab olgan kulranglarning orasida so'nib borayotgan nigohiga birdan jon bitib yon-atrofiga qaradi. Ayni chushgoh. Tosh minora. Oyog'i tagida qimir etmasdan yotgan o'lik shahar. Tepasida yuztuban yiqilayotgan kullardan iborat kulrang osmon.

Jabbor yana xayolan qishlog'iga qaytdi. Nega sopol yasab yuravermadi? Bu yolg'on dunyoda cho'pon va savdogarning, kulol va me'morning o'rtasida qanday farq bor? Hammasi ham tirikchilik yo'lidagi ovoragarchiliklar. Qaysi birining rohati ko'proq ekanini hech kim bilmaydi. Aksincha, osmon va yerning o'rtasida umid va gumonning quchog'ida yurgandan, yolg'izlikning tor qafasida jaf chekkandan ko'ra, yer bag'rida yurib hunarmandchilik qilgani, bir amallab tirikchiligini o'tkazgani sozmasmidi?.. Atrofidagi hisobsiz kishilar o'rtasida yolg'izlikka mahkum qilgan zerikarli ishdan bexaba'at ovloqdagi qishloqda yuraversa bo'lmasmidi? Rahmatli dadasi qarigan chog'ida chumolining uyasiga nega mahliyo bo'lib qoldi? Shuncha harakat qilganida biror rohat ko'rdimi? Yarim yilga yetmasdan boqiyga ravona bo'ldi. Bola-chaqasining bir hovuch tuprog'i buyurmadi, qabri begona yurtda qoldi. Shuni bilgan holda nega "ketma" dedi?

Ketmadi, lekin ko'rayotgan rohati shumi? Umid va gumonning quchog'iga galma-gal yiqilgan pushaymon hayotmi?

Dadasi bechora uning usta bo'lishini nega shuncha xohladi? Qariguncha ishlab, qorni to'yguncha ovqat yeb, vaqti-soati kelguncha orzu ketidan quvmasdan, tashvish tortmasdan kun kechirish mumkin bo'lgan boshqa bir oddiy hunar o'rgatmadimi?.. O'shanda tuproq izlab chiqqanda, dalada bir o'zi turib allaqay- oqlarga uzoq qarab turar edi. O'shanda orzu qilgani, o'ylagani shumidi? Oyog'ining tagida tushlik payti kulga ag'anagandek bo'lib, ko'rki va rangidan ayrilgan o'lik shahar edimi maqsadi?

Mana, endi u ham dadasi orzu qilgan qo'l bilan ushlab bo'lmas bo'm-bo'sh havodan suyanch izlab, zangori osmonga intilib, kuniga bir qarich bo'lsa ham yuksaklikka ko'tariladigan xatarli

kasbning orqasidan yuribdi. Beqarordan qaror, yo'qlikdan suyanch izlamoq — shunchaki xomxayol.

... Choshgoh issig'idanmi yoki o'z-o'zidan achchiqlanib, butun jismini egallagan afsusdanmi, har holda, ko'z oldi qorong'ilashib, atrof g'uborli ko'rina boshladi. Balandlikdan uchib ketarmikanman, deb cho'chigandek bir-ikki pog'ona pastga tushdi. Ko'z oldidagi halqalar birlashdi, o'zi tergan qizg'ish g'ishtlar rangidan ayrib, rangsiz bo'lib tushunarsiz jumboq minoraga singib borayotgandek his qildi. U osmon va yerning o'rtasida muallaq turgandek. Faqat ayni oyog'ining tagidagi o'ymoqning og'zidek qora kovakni hamma tomonidan o'rab kelayotgan zo'ravon g'ubor yam-lab yutib ulgurmabdi. Birdan zinadan nimadir yaraq etdi. Ortna-ort kutilmaganda atrofga sarg'ish shu'la sochilgandek bo'ldi. Oqish, sarg'ish o'ynoqi shu'lalar ko'paya boshladi. Kattarib-kattarib bir shakliga aylandi qo'zg'aladiganga, qimirlaydiganga o'xshaydi. U shu tomonga qarab ko'tarilardi. Mana yaqinga kelib qoldi. Ana, yoniga, ro'parasiga kelib to'xtadi. U ham zangori osmon va oyoq tagidagi rangsiz kema o'rtasida muallaq turib oldi. Agar birini biri ehtiyotsizlikdan urib yuborsa, ikkisi ham chuqurga qulab, parcha-parcha bo'ladi... Ro'parasiga kelib to'xtagan sharpa yana qo'zg'aldi. Unga qarab yaqinlashmoqda... A'zoyi badani titradi, birdan qalqib ketdi. Ko'z oldini to'sib turgan g'ubor parcha-parcha bo'ldi, atrof avvalgidek o'z holiga qaytdi. G'ishtlar oyog'i ostida uyulib yotardi. Minoraning labiga qo'yilgan loy andava tushib ketmabdi. Boyagi alahlagan kishining tushidek g'uborli, xira dunyo kunning isishi bilan ko'tariladigan mezonday allaqayerga g'oyib bo'ldi.

U boyagi g'uborli va hozirgi tiniq damning qaysisi tushi, qaysi biri o'ngi ekanligini bilolmay lol edi. Agar dunyo yupqa g'ubor, sharpa o'ngi bo'lsa, ko'z ochib-yumguncha nega g'oyib bo'ldi?

Agar bor narsani mana shu holda ko'rib turgani o'ngi bo'lsa, ro'parasida tillaga belangan mana bu juvon qayoqdan paydo bo'ldi? Loy-loy minoraning ustida nima qilib yuribdi? Manavi miyani aynitgan saraton issig'i g'isht teruvchini nelarga duchor etmoqda, axir...

Har yer-har yeridan oltin suvi yalatilgan harir pardaning undan qora ko'zli bir sanam ko'zlarini tikib turardi. Agar qop qop ko'zlar va ikki qayrilma qosh bo'lmasa, minoraga shamol uchi rib olib kelgan kimningdir yupqa pardasi deb o'ylashing, tabiiy. Ro'parada turgan, nigohini tikkan jumboq juvon boshidan oyoq g'igacha shaffof harir oq shohiga o'ralibdi.

Jabbor oldida turgan juvonning odam ekanini yoki ko'ziga ko'rinayotgan sharpa ekanini aniqlab bilishni istagandek, unga tikilib qaradi. Uning ustalarga xos o'tkar ko'zi harir pardani yoqib yuboradigandek yashnab turgan chiroyli ikki ko'zni ko'rdi.

Juvon uning ko'rayotganlariga ishonmasdan turganini tushungandek zarrin ko'ylagining etagini chiroyli barmoqlari bilan burib ko'tarib, minoraning labiga bordi va pastga ko'z yugurtirdi. Bosh kiyimim tushib ketmasin degandek darrov qaddini tikladi. Orqasiga burilayotganida peshanasida barmoqdek la'l yarqilladi. Keyin unga bir narsa aytishga chog'landi, lekin nima deyishini bilmasdan andak uyalib kulimsiradi. Uning birdan qizarib, uyalib kulimsiragani boyadan beri uchqun sachratib qaragan ko'zlarlari tagida bilimmasdan turgan yuzida yorqin nur paydo qildi. Jabbor bunday chiroyli kulgini qayerdadir ko'rgan. Oldida turgan juvon o'ziga juda ishongan, ko'pdan ma'lum bir go'zalni eslatdi go'yo.

Juvon etagini sal uyalib ko'targan holatda pastga tushadigan zinapoyaga yo'l oldi. Harir oppoq libos yer yutib borayotgandek qorong'i kovakka singib ketdi.

Jabbor lol-u hayron. Oppoq libos qorong'i kovakka singib yo'qolgan bo'lsa ham, uyalib kulimsiragan qip-qizil dudoq va kulib turgan nigohlar minoraning ustidagi g'uborli havoda turib qolgandek ko'z oldidan ketmadi. U bir lahzada g'oyib bo'lgan afsungar sharpaning butun jismini eritib borayotgan yoqimli ta'siridan ajralib qolarman deb qo'rqqandek, ro'parasidagi beparvo kengliklarga esankirab qarab turdi-da, minora labida yotgan andavaga qo'l yubordi.

Ajabo, hozirgina ko'z oldida namoyon bo'lmish qip-qizil lab va nur yog'ilgan bir juft nigohni qayerda ko'rgan edi? Juda yaxshi biladigan tanish birovga o'xshaydi-ya. U kim edi?.. Hatto yurishlarini ham har kuni ko'rib yurgandek, ko'ziga o'tdek teg-

di. U tosh tashiydigan qullar va bosh ustadan, yashayotgan uyi egalaridan boshqa hech kimni har kuni ko'rmaydi. Rosti bilan uni kimga o'xshatdim?.. Darvoqe, bu juvon Zuhras emasi? Uni ham iltib marta mana shunday kutilmagan holda ko'rgan edi. Yuzidan chiymati tushmagan, ipak ko'ylakka o'ralgan badanini o'ynatib, chiqqon-chaqqon harakat qiladigan, epchil qizning, har kuni ular bilan bo'lsa ham, hech qachon yuzini ko'rmagandi. Qiz, erkak jinsi o'tiradigan uyga umuman kirmasdi. Goh-gohida hovlidagina ko'rib qolardi.

U bir kuni uyga kelsa, savdogar va rafiqasi yo'q ekan. Hovlida kimdir xirgoyi qilayapti. Kim ekan deb bog'ga o'tsa, daraxt ustida o'rik terayotgan Zuhrani ko'rdi. Baland daraxtning ustida uloqdek ing'ib, o'rik terayotgan qizning yuzidagi chimmati yelkasiga tushib ketibdi. Uning qarab turganini sezdi-yu, shartta yuzini o'girdi. Yashnagan qarashlar uning ko'ragini o'tdek yondirib yubordi, o'pkaladimi, erkaladimi — bilolmay qoldi, qayrilma qoshlarini chimirib, bir o'qrayib qaradi-da, ro'molini tuzatdi. Oppoq keng peshanasiga va qirra burniga, qip-qizil do'rdoq labiga shunda ko'zi tushgandi. Zuhras uyaladi, uyga qarab yugurdi. U esa qizning o'ynab borayotgan shohi ko'ylagidan ko'zini uzolmay, uzoq turib qolgandi.

Ana shundan keyin u uyga kelganda ko'zi bilan Zuhrani izlaydigan bo'ldi. Onasining yonida g'imirlab yurgan qiz ko'ylagining bo'lar-bo'lmas shitirini tinglab o'tiradi. Zuhras ham dadasi yo'g'ida, unga ko'rinishni istaganidek, hovlida ish qilayotgan onasiga yordamlashgan bo'lib, goh uyga kiradi, goh chiqadi, xulas, tinim bilmaydi. Uning hilpiragan ko'ylagi va doim shabada tortqilab o'ynaydigan katta ro'moli ustaning ko'ngliga bahor hadya qilayotgandek, ajib hislar uyg'onadi. Lekin u qalbini shirin timdalagan o'sha uyatchan hislarning nechog'lik o'tga aylanganini Zuhras qizning shohi ko'ylagining shiviri Ahmadboyning uyidan butunlay ketgandagina tushundi. O'zining qo'rqqoligiga, jur'atsizligiga shu kungacha ichi yonadi. Lekin u bunday xayolning amalga oshmasligiga ko'rib, eski yaralarni unutgandi.

Bugun Zuhras ushbu uchar minoraning tepasiga qanday chiqdi? Uni ko'rib turib nega bir og'iz gap aytmadi? U dastlabki g'o'rli-

gini kechirar, lekin bugungi jur'atsizligini kechirmas. Zuhra uni hech narsaga arzimmas "latta" deb ketdi. Bugungacha yuragida saqlab kelgan iltifoti nafratga aylangandir.

Usta jahd bilan minoralar labiga intildi. Pastga qaradi. Minora tagida uch-to'rtta arava turardi. Boyagi oppoq parda islatqandan kulsimon rangga aylangan tuproqda shamol ko'tarib uchib borayotgan qush patlaridek oqarib, qator turgan aravalarga qarab yurdi. Orqasida bir guruh odam. Shulardan biri guruhdan bo'linib, yugurib borib o'rtada harir parda tutilgan aravaning eshigini ochdi. Ikki kanizak haligi juvonni qo'ltiqlab aravaga o'tqazdi. Kanizaklar qo'ltig'idan ko'targanda parda ko'tarilib qoldi. Uning tugidagi yorug' dunyodan yashiringan jonga begonalarining nigohi tushmasin deb shoshilib yopib qo'yishdi. Depsinib turgan arg'umochlar yelib ketishdi. Arava derazasidagi ko'k ipak parda shamolda o'ynab borardi.

Usta ko'chani changitib borayotgan aravalarning ortidan ko'z uzmasdan qarab turaverdi. Aravalalar karvoni yaqin atrofdagi malika saroyining bog'ga ko'milgan baland qo'rg'oniga kirib, yo'q bo'ldi. Jabbor bu yerga tashrif buyurgan juvonning kim ekanini shundagina tushundi.

Dunyo har kungi odatiy qiyofasidan ayrilib, g'uborga chul-g'andi. Jabbor behafsala holda minoradan tushdi. Yuvinidi. Qullarni qo'rg'oniga olib ketishibdi. Minoralar yonida uni har kuni olib kelib-olib ketadigan qo'ng'ir aravagina turardi.

Ertalab aravadan tushayotganida minoraga diqqat bilan qaradi. Uning pardoziylanmagan g'adir-budur devorlari shaffof toza havoda, tiniq zangori osmon tagida juda xunuk ko'rindi. Qora yerning qovurg'asini parcha-parcha qilgudek bo'lib yerga oyoq tirab turgan bunday og'ir tosh tepani qanday qurayotganiga o'zi hayratlandi. Uning mana shunday beo'xshov qiyofada ekanini bugun tushundi. Aftidan, men mana bu qing'ir-qiyshiq devorlardan qachon o'zaman, shahar tashqarisidagi ozod dala qachon ko'zimga ko'rinadi, deb bir toshning ustiga bir toshni terganiga xursand bo'lgan bo'lsa kerak. Kechasi bilan tushida kechagi sarobdek oq harir parda va arava yonida shamol bilan o'ynashib borayotgan ko'k shohi ko'z oldidan ketmadi. Endi, mana, kuz sezilib qolgan

yoqimli shabada, tonggi havo, ochiq osmon tagida bor dunyoga og'irlikni tashlab turgan bahaybat tosh tepaning vazni o'zining qordaniga tushib turgandek, ko'ngli cho'kib, parcha-parcha bo'lib botgandek his qildi o'zini.

Har bir g'ishtni qo'ygach, malika saroyiga qarab-qarab qo'yadi. Unga osuda bog'dagi saroyning qaysidir derazasidan kichik malikaning o'zi qarab o'tirganday tuyulaveradi. Mana bu qo'pol minoralarining ham nigohiga jabr qilib, oq harir pardadek orzusini yerparchin qilayotgandir.

Jabbor qo'liga olgan qip-qizil g'ishtni qayta yerga tashladi. Nima qilishni bilmasdan boshi qotdi... Ko'p oylar davomida tinim bilmasdan ishlaganlarining hammasi birdan ma'nosizlik kasb etdi. To'planib qolgan g'ishtlarni ko'tarib, minoralar ustiga terish kerakligini bilib turibdi, lekin qo'li ishga bormadi... Tevaragini o'rab, erkinlikni cheklab qo'ygan kulrang guvala devorlarning qurshovidan qutqilib, uzoq-uzoqliklardagi kengliklarda savlat to'kkan bepoyon ufqni ko'rsam degan maqsadiga allaqachon yetdi. Endi intizor qilgan, sog'intirgan ufq keng dunyoning ko'z oldida lipillab turgan shamdek bo'lib, unga yaqinlashish o'rni kundan kunga chekinib, qochib ketmoqda. Avval zax devorlardan nafas olishi qiyinlashib, bo'g'ilayotganida ko'tarib olib, zangori ko'kka, ancha yuksaklikka olib ketadigan baquvvat ko'ringan minoralar endi unga tevaragidagi erkin dunyoda bemalol parvoz qilishga xalalit berib, ko'zini baqraytirib bog'lab tashlagan, yer tagidan emas, osmon qo'ynidan qazilgan gung zindonga o'xshab ko'rinadi. Yerga ham tusha olmaydi, osmonga ham yeta olmaydi, biri kam dunyo... Bunday azobdan qafas misoli zindon yaxshiroq. Unda qo'loyog'ing bog'langandek bo'lsa ham, begona ko'zlardan yiroqsan. Bu yerda yoningdan o'tib borayotgan kishi bir qaramasdan, gapirmasdan ketmaydi. O'tkinchining ko'zi va so'zidan qo'rqinchilroq nima bor? Orqandan tikilsa kamonning o'qidek, oldingdan suqlanib boqsa, ko'kragingni teshib o'tadigan nayzaning uchidek o'tkinchining nigohidan hadiksiramaydigan kishi yo'q. Ayniqsa, o'zing haqingda nima aytayotganini bilolmaydigan, uzoqdan tikilgan el ko'zi va qulog'iga aniq eshitilmaydigan ming'ir-ming'ir so'zidan ortiq azob yo'q. Bunday hollarda ichida arslon yotgan

ungurning og'zida turgandek, qachon tashlanib qolishini bilmay digandek noqulay holatga tushasan. Lekin bandayi haqir ehtilab og'ziga tushsam deydi. Ko'pchilikning nazaridan qolsa, zindonda yotgandek dod-voy qiladi.

Doimo xaloyiqning ko'z o'ngida kechadigan hayot haqiqiy do'zax emasmi? Qafasdek zindonda yonboshingga tosh botib, orqangdan zax o'tsa ham, yon-atrofingdan yeb qo'ygudek tashla nayotgan zulmatga qarshi chora topmagan bo'lsang ham, har hol da, qayerdaligingni yaxshi bilasan. Yorug' olamda, omma oldida yalong'och kelayotgandek ro'parangdan uchraganlarning bartidan uyayib, biroq kulib qarasa, u nega kuldi deb, kimdir olayib qarasa, u nega mendan norozi deb, hammaning yuz-ko'ziga qarab tahlilikada yashashdan qanday mazmun, qanday ma'no bor? Shunday bo'lsa ham, banda hammani o'ziga qaratishni istaydi. Jabborni ham qamishga sanchilgan qumaloqdek qilib shaharning tepasiga chiqarib, butun yo'lovchilarning ko'zini yalt etkazib, lol qoldirishga undagan ham, yolg'izilikda yashashga majbur etgan ham o'sha istakdan paydo bo'lgan ilinjdir... Bechora ko'k yo'tal dadasini ham bir chekkadagi qishloqda yashab, ko'za ishlab, haqiqat kelgan tariq-tolqonga qanoat qildirmagan, o'z uyi — o'lan to'shagida tinchgina yo'talib yotishiga yo'l bermagan, shuncha yo'l bosib bepoyon shaharga sudrab olib kelgan, begonalarning eshigida vafot etishiga sababchi bo'lgan ham mana shu be'mani ilinj ekanini endi tushunyapti. Mana, umidvor kimsalarni avval yelkasiga mindirib, ko'kka ko'tarib, keyin oyog'idan tortib chilparchin qiladigan orzu ismli isyonkorning yog'och otiga bu ham o'tirganini bilmay qoldi. U hali quyosh tafti bilinmagan, oynadek toza tonggi havoda oyog'i tagida uyulib yotgan g'ishtlarni ko'tarib, har kungi odatiy ishiga qayta kirishi uchun turtki bo'ladigan biror vaj izlab alangladi.

Shaharda o'zgarish yo'q. Uylar dasturxonga sochilgan novvot va qandek shahar ustiga sochilgan. Osmon ham unsiz baqrayib turibdi. Jabborning yer va ko'kning orasida tinmasdan yugurayotgan nigohi kichik malikaning bog'iga tushdi oxiri.

Har kuni yashil libos ostiga ko'milib, ko'rinnaydigan malika saroyining hovlisi ko'z oldida kaftdagidek aniq-ravshan ko'rinib

turardi. Chunki u qurayotgan minora shaharning ustidagi zangori osmonni bir o'zi tanho egallab, bo'yi hammasidan "o'sib ketibdi". Endi, mana, chor atrofdan oyboltali qorovullar o'rab olgan, hech kimni yaqiniga keltirmaydigan, uchar qushlar bo'lmasa, odamlarning ko'zi tushmaydigan xufiya saqlanadigan malikaning saroyi uning "tagida" qolib ketibdi. Bog' orasidagi oppoq yo'laklarni, o'ymoqdek-o'ymoqdek yashil maydonchalarni, bir-ikki yerda tinish suv to'ldirilgan hovuzlarni ko'rib o'tiribdi.

Kutimaganda paydo bo'lgan allaqanday ochofat tuyg'u yonida uyulib turgan g'ishtlarga yana qo'lini cho'zishga majbur qildi. Minorani yanada yuksaltirmoq zarur. Ushbu sirli saroyini to'liq ko'rib o'tiradigandek qilib yuksaltirmoq darkor. Qovog'idan qor yog'adigan podshoh yashirgan go'zal malikaning saroyini osmon ostidagi yassi dunyoda faqat yakka o'zi tepadan tomosha qilib o'tira oladi. Hatto uch tarafdagi jami shohlaklarni tiz cho'ktirgan hukmdorning o'zi ham malika saroyini bunga o'xshab kaftdagi narsadek to'liq ko'ra olmaydi, yaxlit tomosha qila olmaydi.

Oyog'i tagidagi uyum kamayib bormoqda. Shunchalik berilib ishladiki, Jabbor qosh qorayganini ham sezmay qoldi. Ertasiga ertalab andavani qo'lga olar ekan, yana malika bog'iga qaradi. Balki, ko'p derazalarning biridan kichik malika uning har bir harakatini kuzatib o'tirgandir. U endi minorani malika bog'ining qaysi tomonidan qarasang ham tepadan kuzatib turadigandek qilib bitiradi.

Odatdagidek bir g'isht qo'yib, o'ylanib turish odatidan voz kecha boshladi. Ishni tezlashtirdi. Mana shu sur'atda bir haftada minora to'liq bo'yini namoyon etadi. Endi unga hammani mahliyo eta oladigan tarzda oro berish kerak. Jabbor yer bilan ko'k o'rtasidagi qaqqaygan tosh uyumini boshqa minoralardan ajralib turadigan ajib bir inshootga aylantirmoqqa niyat qildi. Buning uchun minoraning tepasi bir tekis bo'lmaydi, u nechog'lik baland bo'lsa ham, pichoq bilan kesib tashlangandek kalta bo'lib ko'rinaveradi. Nayzaning tig'idek jilla uchqur qilish mumkin emas, bir narsani sanchib qo'ygandek ko'rimsiz bo'ladi. Endi minoraning uchini qaysi yerdan tugashini bilintirmaydigandek qilib, osmon bilan quchoqlashgan zangori gumbaz bilan qoplagani

ma'qul. Shunda minoraning osmondan zamanga yiqilayotgani yoki zamindan ko'kka qanot qoqib ko'tarilib borayotgani ko'zga jum boq bo'lib turadi. Unga shu kerak.

Minoraning uzoqdan tahdid qilib turishi ham yoki ko'rgan kishi qo'ltig'iga qisib olib ketishi mumkindek tuyulgan oddiy qo'g'irchoqday minora kerak emas. Ko'rganlar shunchaki mahliyo bo'lmasin, balki Allohning jumbog'i javobini topsa ham, aniq eslolmaydigan, hayron-u lol bo'lib, faqat u haqida o'ylaydigandek pardozlash kerak. Shu damda ko'z oldida tunov kuni aravaning derazasidan shabada bilan o'ynashib ketayotgan harir shohi gavlalandi.

Jabbor ko'kdan izlagani yerdan topilgandek quvonib ketdi. Bu minora ham xuddi shunday yengil, xuddi shunday o'ynoqi bo'ladi. Minorani ko'rganlar kutilmagan go'zalning zangori samodagi oq farishtalarning biriga intizorlik bilan cho'zilgan oppoq qo'llari deb o'ylasin. Hatto hukmdor uzoq yurishdan charchab qaytganida, oldidan kimdir qo'lini ko'tarib kutib olayotgandek ko'rinsin.

"Darrov darmana izlataman, tuyaqorinni yondirib, bo'yoq uchun kukan tayyorlatishim kerak", — deb so'zlandi usta.

Minoraning qolgan yerini ko'p uzatmasdan qurib bitkazishni, kutilmaganda xayoliga kelgan rejani amalga oshirishga tezroq kirishishni istadi. Endi sal fursat o'tsa, ko'z oldida tip-tiniq shaffof havoda paydo bo'lgan ajoyib bir tasvirdan butunlay ajralib qoladigandek edi nazarida... Qalbida shunday gumon paydo bo'lgani rost ekan, haligi ajoyib tasviri allaqanday azozilning beo'xshov qo'li o'chira boshlaganday ko'rindi. Jabbor, haqiqatan, ajoyib ko'rinishdan ajraldimmi, deb osmonga diqqat bilan qaradi. Hech narsa ko'rolmadi.

Pastda — o'sha xon bog'i. Markazdagi ochiq maydonda yaylovga chiqqan oppoq g'ozlardek bo'lib, bir guruh go'zallar yuribdi. Jabbor ularning qanday paydo bo'lganini sezmaydiyam. Ular yashil maydonning qibla tarafida yaltirab turgan ovloq hovuzga kelardi. Hovuzning ikki tomonida minoraga o'xshash ikki ustunga oq parda yopilgan. Hovuzning yonida qizil uyumlar ko'rinadi. Qizlar hovuzning labiga yaqinlashib to'xtadi. Uzun saf

tortib yechina boshladi. Yashil maysa ustida tangadek-tangadek oq ko'ylaklar qoldi.

Qush patidek yumshoq yengil kiyimlar tagidan hali qizib ulgurmagun quyosh nurida qizlar ajib oppoq badanlarini yarqiratib, o'zlarini ko'm-ko'k suvga otishdi. To'rt burchakli ko'm-ko'k to'g'on tepasidan munchoq yog'gandek oppoq oqarib ketdi.

Juvonlarning oppoq bilagi suvning yuzini savalab, bir-biriga suv socha boshladi. Ularning o'rtasidan ikki-uchtasi yana qirg'oqqa chiqishdi. Sohilda yig'ib qo'yilgan qip-qizil uyum oldiga keldi-da, yaltiroq, qizil olmalarni hovuzga ota boshladi. Suvdagi suluvar tapillab tushayotgan olmalarni sakrab qoqib olishga harakat qilishardi. Qip-qizil olmalar hovuz yuziga do'ldik yog'ilmoqda. Suvdagilar birining qo'lini biri urib, olmalarni qoqib olishga harakat qilmoqda. Tinmay o'ynayotgan oppoq badanlarga mahliyo bo'lgan suv ham shalp-shalp sakrab, erkatoj juvonlarning sal ko'tarilgan olmadek ko'kraklarini o'pib-o'pib oladi. Ko'zni beixtiyor o'ziga qaratuvchi go'zal, chiroyli qomatlarni ochofot to'lqinlardan himoya qilgandek, ikki yelkadan shovullab to'kilgan suluvar bilan to'la tinch hovuz bag'riga to'satdan bir to'da baliq tushib ketgandek ostin-ustun bo'lib, qirg'oqlarini shilp-shilp savalashni davom ettiradi. Go'zallarning har bir harakati dam sayin qitig'iga tegayotgandek suv yuqoriga sapchib-sapchib ketadi. Jabborning xayolida bir xildagi oppoq to'lqinlar raqsga tushardi. Suv yuzidagi mayda to'lqinlar uning ko'ngliga ham ko'chib o'tdi.

To'lqinlangan suv yuzi anchadan keyin tinchlandi. Qirq suluvar to'g'on chetida oyoqlarini suvga solib o'tirib, kunda toblanishdi, birozdan keyin sochlarini taradi, biri-birining sochini o'ra boshladi. Keyin o'rinaridan bir vaqtda gur ko'tarilishdi va sal naridagi kiyimlariga borishdi. Qirqta bir xildagi go'zal badan oppoq momiq kiyim ichiga kirib yo'q bo'ldi. Kiyinib bo'lishgach, yana mayda qadamlar bilan saroyga yo'l olishdi. Ular saroy oldidagi qalin yam-yashil bog'ga kirishi bilan, boyadan beri qayerda yashirilib turganini kim bilsin, bog'ning har-yer har-yeridan o'ntacha yigit yugurib-yugurib chiqib, kattakon hovuz yuzida jimirlab suzib yurgan qip-qizil olmalarni qo'llaridagi uzun kaltaklarning boshiga bog'langan to'r bilan suzib ola boshladi.

Usta bir qarich yuqorilasa, mana bu chiroyli ko'rinishni ha tamom yo'qotib qo'yadigandek yana ish sur'atini pasaytiradi. Bir necha kundan beri shoshilib ko'kka intilayotgan minoralar shu yerga kelganda oyog'i og'rib qolgandek umuman siljiy olmay qoldi.

Malika va kanizaklari suvga har cho'milganda, qurilayotgan minoraga qararmikan degan umidda ularga nazar tashlab qo'yadi. Lekin suv yuzida raqs tushayotgan oqqushlarning hech biri tepalaridan bosib tushadiganday holdagi minoralar tomonga qayrilib qaramasdi. U oqqushlar qachon kiyimlarini kiyib bo'lguncha ko'zini uzmaydi. Lekin qirq xonim atayin kelishgandek bu tomonga bir marta ham razm solmasdan saroyga ketishadi.

Hozirgina ohista qadamlar bilan sayr qilib yurganlar ko'zidan og'oyib bo'lishi bilan bog' chiroyidan mosuvo bo'lib, fayzli bo'lib qoldi. Kumush hovuz ham kimdir kul sochib yuborgandek loyqa edi. Eroniy gilamlarga o'xshab yashnab turgan gulzorlar ham kasal teggandek shilviradi go'yo.

Malikaning bog'i bilan birga, uning dili ham xufton bo'ldi. Jabborning ko'zi boyagina kichik malika kanizaklari bilan yurib o'tgan ingichka yo'lakka termiladi. Lekin yosh malikaning o'zi bilan birga, izini ham yutib yuborgan bezbet yo'lak uni masxara qilgandek beparvo yotaveradi. Yigitning ko'ngli yashil bog'ga kirib yo'q bo'ladigan yo'lakdan yuraveradi, ko'zdan yo'qolgan qirq go'zalning izidan boradi, lekin yosh malikani, uning qirq kanizagini topmadi, yam-yashil bog'ning ichiga kirishga jur'ati yetmadi, tentirab-tentirab orqasiga qaytdi.

Jabbor har kuni kichik malika yana sayrga chiqarmikan deb umid bilan kunning botmasligini tilaydi. Lekin xonim choshgohdan keyin bog'ga qadam bosmaydi. Yigitning yuzi so'lgan guldek sarg'ayaveradi. Hozirgina gijinglab turgan asov orzu qaytadan qimirlamas toshga aylanadi. Ana shundagina odatiy so'qmoqqa tushib, ishga beriladi. Suyagi qotar-qotmasdan qo'lidan loy tushmagan itoatgo'y qul holida malikaning xayoli bilan yashash kufrlilik ekanini bora-bora tushunadi. Ko'nglidan kechayotgan azozil hislarni kimdir sezib qolmadimikan deb tevarak-atrofiga alanglaydi. Lekin yer va ko'kning o'rtasida turgan Jabborning

alg'ov-dalg'ov holatini kim ham ko'rardi?! U ham bir, baland chinning tepasiga qo'ngan mushdek chumchuq ham bir. Malika va kanizaklarining undan hayiqmasdan bemalol cho'milib, so'ngra beparvo holda saroyga ketishlarining sababi ham shu.

Takabbur malikaning faqat osmonnigina ko'radigan qora-chiqlarini o'ziga qaratishning bittagina yo'li — minoraga Mavonahrda hech kim ko'rmagan ajoyib ko'rk baxsh etish. Dastlab bepoyon shaharda minoralar qurdirsam, deb niyat qilganida dilidan o'tkazgan go'zal inshootdan ham chiroyliroq qilib bezasa, nega xonim qaramas ekan! Yonidagi qirq kanizagi og'zining tanobi qochib, oshirib-toshirib maqtab tursa, malikaning bunday afsunga o'ralgan sehrli suluwni bunyod etgan ustaga hayron qolmasligi shubhasizdir!

Hozirgina tinchlana boshlagan yuragi qaytadan dukullay boshladi. Minorani o'zi o'ylagandek, yosh malikani va kanizaklarini beixtiyor lol qoldiradigandek qilib bezatishi shart. Minoraning yonidan bahaybat o'choqlar qazildi. Ularda darmana va tuyaqorinni tog'-tog' qilib yig'ib, bo'yoq tayyorlash uchun yoqishdi, kulini olishdi. Keyingi tonggi osmondan ko'm-ko'k, quyosh nurida qirq rangda tovlanadigan yaltiroq toshni kuydirdi.

Bir oydan keyin o'ntacha usta havozalarda qator turib minoraga pardoz bera boshladi. O'zi zangori ipakka o'rana boshlagan minorani goh u tomondan, goh bu tomondan chiqib kuzatadi. Ba'zan shahardan uzoqlarga chiqib, biydek dalada tanho turib ko'm-ko'k minoradan ko'zini uzmasdan uzoq turadi. Tiniq suvdek zangori havodan bazo'r ko'rinadigan yangi minoralar unga bir narsa deb imlab turganday bo'ladi.

Jabbor o'zi barpo etayotgan "tilsiz farzandi"ning nima deya-yotganini bilolmay hayron bo'lib, uzoq vaqt qarab o'tiradi. Aravaga o'tirib, qirq marta mo'ralab qaraydi. Pastga tushib yana qaraydi. Bir qo'lni peshanasiga qo'yib, osmonda kulimsirab sugan quyoshga tikiladi. Bepoyon samodan kimdir biror sirdan voqif qiladigandek, osuda atrofga quloq soladi, yangilik eshitmoqchi bo'ladi.

Shu yerni suv bosadigandek zudlik bilan aravasiga o'tiradi-da, yana qayoqqadir shoshilib jo'naydi. Yana shaffof tilsim havoda

Usta minoraning tepasidagi hashamlarni o'z qo'li bilan yoqadi.

Bu hududning "sovuq bo'ldi" deb aytishga arzimaydigan qisqa qilishi o'tib, iliq kunlar yana qaytib keldi. Malika bog'idagi daraxtlar kurtak chiqarib, katta qo'rg'onning ichiga yashil parda tutildi. Ko'p o'tmasdan, yashil kurtaklardan oqish, qizg'ish, pushti gul ochilib, bog' ajib rangga belandi.

Malikaning har kuni choshgohda kanizaklari bilan sayr qiladigan vaqti ham yaqinlashdi. Jabbor shuni intizorlik bilan kutadi. Oxiri shunga ham yetdi. Qizil shohi nimchalar tagidan harir ko'ylak kiygan bir guruh qizlar chiqdi. Chiqdi-da, negadir birdan to'xtab qoldi. Keyin ohista yuradigan odatlaridan adashib, hovuzga tez-tez yurib yaqinlashdi. Hovuzga yetgach, odaticha, harir ko'ylaklarini yechmadi, suvga o'zlarini otmadi. Zangori minoradan ko'z uzmasdan, hayratlanib qarab qolishdi. Oh, yashasin, mana bu boshqa gap!.. Jabbor o'zidan o'zi g'ururlanib, iljayib qo'ydi. Halqumiga qaytgan o'chdanmi yoki ko'kragiga sig'mayotgan beadam quvochdanmi, to'lqinlanib, ko'z oldini g'ubor qoplatdi.

Minora kundan kunga yuksalaverdi. Lekin saroy tomoni kemptik holda qolaverdi. Jabbor o'sha kemptikdan xon bog'iga qarab termilib o'tiradi.

Ertaga ko'ziga ko'rinmasdan qoladigan chiroyli ko'rinish bilan xayrlashishni istamagandek, minoraning kemptigini berkitishni istamaydi. Uni berkitisa, xon bog'ida hur qizlardek xushchaqchaqlik qilayotgan qirg'ozal birdan g'oyib bo'ladi.

Yashil maydonchada ohista qadamlar bilan qirg'ozal sayrga chiqadi. O'rtalarida shohona kiyimlar kiygan malika. Ularning hovuz yoqasiga kelib to'xtaganini va minora tomonga qarab turishganini ko'rganda Jabbor yetti qavat osmonda huzur qilayotgandek bo'ldi. Ko'p marta afsus va nadomatlar haqida fikr qilishga majbur etgan minora endi ko'kda parvoz qilishga vosita bo'lgan shafolat qanotiga aylandi. Lekin bu baxtning o'tkinchi ekanini, bir necha fursatdan keyin qo'lidan butunlay chiqib ketishini o'ylaganida ichini it tatalagandek bo'ladi. U bir tavakkalga bel bog'ladi. Jal-

faqat o'zigagina ko'rinadigan kim bilandir unsiz gaplashayotgandek qimirlamasdan turib qoladi. Goh ko'ngliga yoqmaydigan g'alati bir narsani ko'rib qolgandek, boshini chayqab, yon atrofiga tuflaydi. Hatto ikki qo'li bilan yuzini bекitib, turgan yerida cho'kkalab o'tirib oladi. Bu yorug' dunyoni endi ko'rishni istamagandek ikki ko'zini qattiq yumib oladi. Hozirgina ko'z oldida sayrab turgan ko'rimsiz dunyoni nigohlaridan quvib, batamam unutishni istagandek, jag'ingirgan tishini tishlaydi. Ko'z oldi qorong'ilashib, allaqanday turli-tuman sharpalar suzib yurgan bo'liq quyuyqlasha boradi. Atrofi qop-qora tunga aylangandek bo'ladi. Hozirgina joniga teggan narsaning bari o'z-o'zidan yo'qoladi. Ko'zini yana ochadi. Kuchli yorug'dan ko'zi yoshlanadi, yengil bilan artadi. Birdan ko'z oldida minoraning avval xayoliga kelmagan, sal to'xtasa yana yo'qotib oladigandek yangi qiyofasi paydo bo'ladi, o'rnidan irg'ib turadi. Rangpar yuziga qizillik yuguradi. Shodlanadi.

Aravaga o'tirib minoraga qaytib keladi. Shoshilib minora ichiga kiradi, zinapoyaga o'rinalaydi. Minoraning atrofiga qo'yilgan havoza turib ishlayotgan ustalarga borib, bir nimalarni aytib mahlahatlashadi. Qo'lini takror balandga ko'tarib, ko'nglida paydo bo'lgan yangi mulohazalarni aytib tushuntiradi. Keyin pastga tushib xuddi endi ko'rgandek yaltiroq toshlarga uzoq tikilib turadi. Birozdan keyin hovuchini toshga to'ldirib, o'choq yoqayotgan kishilar tomon shoshadi.

Keyingi oylarda yegani ichiga tushmasdan obdan oriqlab ketdi. Rang ham bir xilda. Eti ustixoniga qo'shilib suyak bo'lib qotib qolgan. Faqat ikki ko'ziga tinim bilmaydi, nimani ko'rsa, faqat sinchiklab qaraydi, yaxshilab kuzatadi. Nina yutib yuborgandek tinchlik nimaligini bilmaydi, doim shoshib yuradi.

Minora kundan kunga chiroy ochardi. Yaqindagina shunchaki ko'rib o'tib ketayotgan xalq endi yangi minoraning shahardagi boshqa minoralarga umuman o'xshamaydigan bir xususiyati borligiga mahliyo bo'lishdi. Zangori minora quyosh o'rnidan jilgan sari turli xil qiyofaga ko'chib, o'zgarib turaveradi. Ko'rganlar bundan juda hayratlanadi, lekin uning siri nimada ekanini bilamaydi.

Iodlar kelib olib ketmaguncha minoradan tushmaydi, bu kemtikan yopmaydi.

Anchadan keyin Jabbor ko'ngliga nima tuggani tushungandek bosh me'mor minoraning ustiga chiqdi. Hukmdorning katta yurishdan qaytib kelayotgani haqidagi xabarni aytdi. Unga cha minorani bitirib, atrofni chinidek tozalab qo'yish lozim. Yo'lovchilarning aytishicha, bu minora ulug' qumlikdan chiqqan ishda ko'zga tashlanar ekan. Hukmdor zafar to'yida fidoyi bu hodirlari qatorida unga ham qimmatbaho sovg'alar berar, balki, undan keyin bu minoraning ovozasini yetti iqlimga yetadi.

Jabbor bosh me'morning nelar deganini eshitmagandek, bir nuqtaga tikilib turaverdi. Bekorga gapirayotganini sezgan me'mor gapini to'xtatdi va ustaning yuziga qaradi. Uning ko'pchilikning qosh-qovog'iga qarab, nima o'ylayotganini biladigan ayyor ko'zlarini yigitning hamma narsani unutadigan g'alati hissiyotning quchog'ida ekanini ko'rdi. U Jabbor ko'zlarini uzmasdan tikilib turgan tomonga qaradi.

Pastda, bog' ichidagi maydonchada minoraga qarab turgan malika va uning kanizagini ko'rdi. Bosh usta lom-mim demasdan pastga tushib ketdi.

Hukmdorning qaytib kelayotgani haqidagi ovozarlar kundan kunga kuchaydi. Jabbor yashaydigan mahalla ahli ham, minora qurilishida birga ishlayotganlar ham faqat shu haqida gapiradi. Lekin Jabbor bularning birontasini ham eshitmaydi.

Har kuni ertalab o'rinlaridan turib yangi minoraga bir qarab, so'ngra dasturxonga o'tiradigan shaharliklar g'isht terilmagan kemtikni ko'radi. Lekin jallod boltsasining sovuq yuzini nafaqat o'ngida, balki tushida ko'rishni istamaydigan faqirlar ko'ngillariga tuggan o'yni aytishga jur'at etmasdan juda afsuslanardi. Faqat Jabborgina buni sezmaydi. Hatto malika ham shaharliklarning ko'nglida nima borligini eshitmasdanoq bilgan edi.

Hukmdor oldidan chopar otlangan kuni ertalab malikaning saroyidan ikki arava g'izillab chiqdi-da, minora tomonga yo'l oldi.

Jabbor minora tepasida turib kuzatib turardi. Birozdan so'ng uzoqdan, o'zi qurib bergan zindonning tagidan tiq-tiq etgan oyoq tovushi eshitildi. Ikki kishi qator tursa sig'maydigan zinapoyadan

kimdir ko'tarilib kelardi. Yigit yuragining dukiri va pastdagi oyoq tovushi bir paytda bir maromda chiqayotganini angladi. Malika saroyiga ko'z yugurtirdi. Yashil maydoncha huvullab turardi. Soyalari ancha cho'zilgan daraxtlar ham xo'mrayib turibdi. Jumlayi jahon u bilan birga qop-qorong'i tosh minoraning ajal yashiringan aldarho qornidagi "tiq-tiq" etgan tovushga jimgina quloq tutib turgandek edi.

Jabborning a'zoyi badani muzlab borayotgan bo'lsa ham, o'zini yo'qotmadi. Lekin lash-lushini ko'tarib Munkar-Nakirning o'zi minora tepasiga chiqayotgandek, nina kirgandek jizillatib borayotgan o'tkir va sovuq bir his chulg'ab oldi. Lekin ajalini xotirjam kutib, hayotdan birato'la umid uzgan jondek qimirlamadi, sabr bilan qarab turaverdi. Nigohi pastdagi qora yo'lakda edi. Oyoq to'vushi tobora kuchayib bormoqda. Jabborning butun jismi tortishib, qota boshladi. Hatto mushaklari tosh bo'lib qoldi. Asablari dutor toridek tarang tortildi. Zinapoyada nimadir yaraq etdi. Albatta, jallodning boltsasi. Beshafqat hukmdorni kemtik minora bilan kutib olishga kimning haddi sig'adi. Hozir aytgan maslahatini e'tiborga olmagan uchun uning boshini oybolta bilan chopib tashlaydi, minorani bitirishni esa bosh me'morga topshiradi.

Jabbor oyog'i tagidagi bo'shliqdan hamon ko'zini uzolmadi. Minorani tasirlatib chiqqan achchiq tovush endi pastdan emas, uning boshidan taqillatib chiqib kelayotganday bo'ldi. "Chida, chidagin!" Dukullagan yuragining yolg'izgina madadi shu. Tomog'i qurib qoldi. Halqumiga bir narsa tiqildi. "Yaxshi bo'ldi, — deb o'yladi u. — Hozir jallod bolatasini ko'targandan ovozim chiqmasdan, bo'g'ilgan holimda narigi dunyoga ravona bo'laman. Jonimdan qalay ayrilganimni hech kim bilmay qolsin".

Oyoq tovushlari yaqinlashardi. Qotib qolgan bo'yni birdan malikaning bog'iga burildi. "Jallodni yuboribdi, o'zi ko'zimga bir bor ko'rinsa ekan". Yashil maydoncha bo'm-bo'sh... Choshgohdan oshdi. Suv havzasi hamon kimsasiz edi. "Bugun cho'milishga ham borishmabdi-da. Qulog'ini teshib o'tgan dusur-dusur qayerdan?"

Bir narsa yalt etdi. Lekin jallod boltsasining yarqirashiga o'xshamadi. Ko'z oldidan bir narsa oqarib yelpib o'tdi-da, hozirgina butun jismini ezib turgan muzni batamom eritib yubordi.

“Ha, o‘zi keldi... Rost, o‘zi...”

Ro‘parasida dastlabki ko‘rgandagidek malikaning o‘zi turardi. Ustida yengil oppoq ko‘ylagi, yuzida oq harir parda... Yuqoriroq ko‘tarilsa, shamolda uchib ketadigandek zinaning oxirgi bosqichiga yetmasdan to‘xtabdi. O‘sha xiyol kulimsiragan ko‘zlar, gilosdek qip-qizil lablari... Jabbor tongdan beri jismini qisib tutgan temir to‘r birdan o‘pirilib yirtilgandek unga shaxt bilan intildi. Malika uning xatti-harakatidan cho‘chib, orqaga tisarildi.

Usta o‘zining harakatidan uyaliq birdan to‘xtadi. O‘ziga na zokat ila boqqan suluvgu qaradi — endi ochilgan bir gul... U ustadan ham hurkib, ham bir narsadan uyaliq, allanechuk nozlanib qarardi. Ilgari Zuhra ham xuddi shunday hurkib, lekin chekinmasdan javdirab qarar edi... Bu ham ayni shunday. Faqat peshanasidagi barmoqdek la‘li va ustidagi kiyimigina boshqacha. Agar u hozir dilidagini ochiq aytmasa, buni ham Zuhraga o‘xshab yo‘qotib qo‘yadi. Hozirning o‘zida ko‘zidan uchib ketadi... Keyin ayni yuragiga kimdir nina sanchib qo‘ygandek, uni yulib olib bo‘lmaydigandek badjahls afsusdan qutila olmaydi.

Jabbor bir nima aytmoqchi bo‘lib, tomog‘ini qirdi, lekin ovozi chiqmadi. Malika unga termilib turardi. Usta qo‘lini cho‘zgan edi, u qo‘lini tortib olmadi. U yumshoq, issiq sharpaning quchog‘iga qanday kirganini sezmay qoldi. Hayotda bir martagina duch kelishi mumkin bo‘lgan bir lahzalik baxtli onning mana shu ekanini his qildi. Qo‘lidan chiqib ketsa, qaytib kelmasligini ham bilardi. Erib borayotgan badanni bag‘riga qattiqroq bosdi, o‘tdek issiq du-doqlar uning o‘zini ham eritib borayotganini sezib turardi...

Minora va‘da qilingan vaqtda bitdi. Uzoq yurishdan kelayotgan hukmdorning oldidan quyosh nurida tovlanib kulimsirab turdi. Jabbor minorani hukmdorning atayin kelib ko‘rganini, hayratlanib uzoq tomosha qilganini, mamnun bo‘lib qaytib ketganini eshitdi. Lekin saroydan mujda kelmadi.

Bir kuni ayni tushlik chog‘i maxsus chopar kelib, saroyga chorlanayotganini bildirganida, Jabbor oldinda hurmat-ehtiram kutmayotganini birdan tushundi. U nimqorong‘i saroyning o‘rtasidagi hovuzning yonida kalxatdek hurpayib o‘tirgan qora kishining chag‘ir ko‘zlaridan hech narsa yashirib qololmadi.

Uchinchi bo‘lim

MUHABBAT

Kichik malika keyingi uch oy ichida ozib-to‘zib ketdi. Alvon rangga bo‘yalgan kichkina derazadan tushgan xiragina yorug‘likda o‘tirib-o‘tirib, aft-angori ishqorda kuygan suyakdek oppoq oqardi. Avval yurganida g‘oz turadigan yumaloq bo‘yni ham ingichkalashdli, yanaq suyaklari turtib chiqdi. Qorachig‘ining nuri yo‘qolib, ko‘z atrofini xonaning ichidagidek xiralik egallay boshladi.

Xonim kundosh ayoldek sal qusuri bo‘lsa yuziga aytib istehzo qiladigan yumaloq ko‘zgodan bosh tortdi. Juda keng saroyning markazidagi ko‘kka sapchiyotgan aylana hovuzning shivir-shivirdan boshqa sas quloqqa eshitilmaydi. Kecha-yu kunduz bir xilda shivir-shivir. Ba‘zan asablari chidamasdan joniga teggan hovuzni chilparchin qiladigandek yoniga yetib boradi. Lekin ohista oqayotgan yuvoshgina suvni ko‘rishi bilan jismidagi jahl o‘rmini allanechuk mung egallaydi, hovuz yonidagi qalin gilam to‘shalgan mar-mar supaga o‘tiradi... Shu holatda uzoq vaqt bir nuqtaga tikiladi. Keyin yana turadi...

Hovuzdan sal uzoqlashishi bilanoq hozir tinchgina tushayotgan farishta tomchilar qaytadan ko‘p azozilga aylanib, shivir-shivir qilishadi. Shuning uchun to uyqu g‘olib kelguncha shu yerda o‘tirishini odat qildi. Marmar supadan tursa, go‘yo butun dunyo pichir-pichirni boshlaydigandek.

Jimir-jimir qaynab chiqib, keyin asta yuqorilayotgan tiniq suvning shildirli oltin bilan bezalgan eman eshikning orqasidagi enaganing, g‘ulom va kanizaklarning bir-biriga gal bermasdan aytayotgan gaplariga qo‘shilib, bir qadam tashlasang bas, o‘z-o‘zidan kuchayadi.

Hatto saroy bog‘idagi turli-tuman og‘ochlarning minglab barglari ham uning g‘ami haqida shivirlashadi. Goh-gohida hech kimga ko‘rinmaslik uchun ovloq so‘qmoqlarda sayr qilganida daraxtlar orasidan mo‘ralab qo‘yadigan ohular ham: “Iya, ham-maning og‘zidagi malika shu ekan-ku”, — deb atayin uning har bir qadamini poylab turgandek ko‘rinadi.

Keyingi paytlarda xoxxonasidan deyarli chiqmaydi. Hukmdor ham beun, beiz. Har kuni ertalab kiyintirishga kiradigan xodimalarning og'ziga tikiladi, hech biri tishining oqini ko'rsatmaydi. Narigi xonada gaplashgan gaplarni eshitganmikan degandek uyalib, boshlarini egib imanib kirib chiqishadi.

Ilgari, u saroyga endi qadam ranjida qilganida, barcha-barcha xushxandon edi. Hatto qorachig'i yerdan uzilmas enaga kampir ham kutilmaganda osmonga qarab, hech kimni ko'rmas atvorini namoyish etgandi. Bazm-u bayramlarda boyvuchcha saroyidan gap ochib, malika va kanizaklarning hasham-u dabdabasini boyvuchchanning as'asa-yu tantanasidan oshiraman deb chiranardi. Hukmdor chodiriga kirganida ikki enaganing biri birini ko'zi bilan otib, osmon u falakda yurishini ko'rganida malikaning kulgisi qistardi.

Enaga uni o'z qizidek e'zozladi, bor mehrini ayamadi, yor-u ko'kka ishonmadi. Saroy xodimlari ham, kanizaklar ham o'zgaicha muhabbat bilan munosabatda bo'lardi. Aksariyati malikadan katta yoshli edi. Shuning uchun unga hukmdorning rafiqasi deb xushomad qilishdan ko'ra, qadrdon singillaridek shafqat va muruvvat ko'rsatishardi. Xuddi bir qorindan talashib tushgan singillar shohga turmushga chiqqandek xursand edi. Ular uchun go'yo bu dunyoda malikani kiyintirib, sochini tarab, uqalab qo'yishdan ortiq rohat yo'q edi. Subhi sodiqda uyg'onishib, oyoq uchida yurib, uning uyg'onishini sabrsizlik bilan kutishardi.

Malika ko'zini ochishi bilan har tomondan shoshib-pishib yugurgan xodimalardan uning xobxonasi oq qanotli kapalaklar uchib yurgandek ajib manzara kashf etadi. Malika har tomondan parvona bo'lgan nigohlardan uyalib, nechog'lik tortinsa ham, ko'p qo'l baribir o'z ixtiyoriga ko'ndirardi. Nozik badanga yumshoq-qina mayin qo'llar tegganda allanechuk xush yoqardi.

Bir kuni kechqurung'i tanovuldan so'ng enaga kampir qizlarning hammasini chiqarib yubordi, malika bilan tanho qoldi. Malika hang-mang bo'lib enaganing og'ziga qarardi. Kampirning ikki ko'zi charaqlaydi. O'roq burni tagidagi so'lg'in lablari bir zum tinmaydi, og'zi-og'ziga tegmasdan bir narsalami aytaverardi.

Enaga bir sehrli duo o'qiyotgandek malika uning zulukdek yo'pishib olgan ikki ko'zidan nigohini olib qochishga madori yetma-

di, kampir uni avrar edi, nazarida, hatto xonaning ichidagi narsalar qir aylana boshladi.

Ancha fursatdan keyin kampir ketma-ket ta'zim qilib, eshik tomonga tisarila boshladi. Kampir chiqib ketgandan keyin ham tomnadagi g'ubor tarqalmadi. Lovullayotgan shamlarning yorug'i pastga tushmasdi, baland shiftga yopishib qolgandi. Kampir ayrtgan mavhum gaplarni xonadagi xira yorug'lik battar noaniqlik tari boshlardi. Boshi lo'qillab, ko'ngli behuzur bo'ldi. Hovuz tomonga bir qadam bosgan edi, ulug' hukmdorning ostona hatlaganini ko'rdi. Xonani butkul egallagan notanish g'ubor birdan yo'qoldi. Lopillab turgan zamin ham ulug' hukmdorning qadami zarbidan qimirlashga imkon topmasdan tinchib qoldi.

Malika o'ziga tobora yaqinlashayotgan ulug' hukmdordan ko'zini uzolmasdan turib qoldi. Ro'parasiga kelgandagina hukmdorga ta'zim bajo aylashi darkorligini xotirladi. Endi ta'zim etmakka boshlaganida yelkasidan ushlab, yuqori ko'tarildi. Sarosimada qolgan malika hukmdorning mehrga to'la nigohini ko'rdi...

Malika subhi sodiqda uyg'ondi, xodimalarning kelishini kutdi. Ikki yuzi oldek yonib, nima qilishini bilmasdan, yumshoq ko'rpaga ko'mildi. Eman eshik ochildi. Dastlab lapanglab kampir ko'rindi, orqasidan xodimalar yopirlishdi. U o'ziga qarab shoshib kelayotgan juvonlarning yuziga qarolmadi, uyalgan nigohini yelkasini to'ldirib turgan qalin sochiniq panasiga yashirdi.

Xobxonani shovqin bosdi. Xodimalar har kungidan ham quvnoq. Uning peshanasidan o'pib, o'zlarining xursandligini bildirishardi.

Hukmdor uning xobxonasiga ikki-uch bor qadam ranjida qilgach, xodimalarning ko'ngli malikaga nisbatan faxr tuyg'usi bilan to'ldi. Hukmdor elchilarni qabul qilgan tantanada boyvuchcha hamrohlarining hammasi u o'tirgan tomonga xo'mrayib qarab turishganini ko'rib, ilk bor rashk izg'irini ko'rdi.

Boyvuchcha o'tirgan tarafga ko'z yugurtirdi. Dimog'dor malikaning yuzida allaqanday zaharli achchiqning alomatlari ko'rindi. Negaligini o'zi ham tushumadi, boyadan beri dukillab turgan yuragi kutilmaganda tinchlanib, o'zini xushhol sezdi.

Kundoshlikning zahridek ko'k zahar, kundoshlikning asatidek shirin bol yo'q ekanini u keyinroq bildi. Lekin shu kundan boshlab, hatto o'zining xodimlaridan uyalib-qisilib yurishni, tortishni bas qildi. Anchayinda boshidan botmondek bosib turadigan malikaning toji boshqalar nazar tashlaganida qushning paridek yengil bo'lib qolar ekan. Endi enaganing va qizlarning boyvuchcha saroyidagi ahvol haqidagi hikoyalari avvalgidek beparvo emas. Diqqat bilan tinglardi.

Hukmdor so'nggi yurishga o'tlanishdan avval shahar markazidagi bir o'zi istiqomat qilguvchi alohida saroyda bo'ldi. Uning nima qilayotgani hech kimga ayon emasdi. Hukmdorning navbatdagi yurishga hozirlik ko'rayotgani, devonda qaysi bekning nima degani el og'zida ming o'zgarib yetib kelardi. Ularning aksari mish-mish bo'ldi. Faqat hukmdorning boyvuchchasi va nevaralarini olib ketayotganigina rost gap edi. Demak, bu yurish bir-ikki yillik emas, uzoqroq vaqtga cho'ziladi. Bu xabardan malikaning qalbiga g'ul'ula tushdi, bir necha marta hukmdor saroyiga bormoqqa shaylandi, lekin jur'at topmadi. Ayniqsa, boyvuchchasini birga olib ketajagi haqidagi xabarni eshitgandan buyon u xodimlarining, xizmatchilari esa uning yuziga qaramasdi. Hammasi motamsaro edi. Bog' ichidagi xush-xandon sayllar ham o'z-o'zidan barham topdi.

Hukmdor bir necha oy davomida bexabar ketdi. Bir kuni oqshom o'zi keldi. Malika uning aravadan tushayotgani haqidagi xabarni enagadan eshitdi. Tashqariga yugurib chiqmadi, o'zini arang tutib turdi. Lekin hukmdor to'g'ri uning xosxonasiga kirmadi, o'z xonasiga o'tdi. Malika yarim kechagacha uzoq kutdi. U keng saroyning hech bir burchagidan halovat topmadi, u yoqdan bu yoqqa beto'xtov yurdi. Eng oxirida, umid uzgandek, qorong'i derazadagi sovuq shishaga termilib uzoq qarib turdi. Ana shunda birdan eshik ochilganini qulog'i eshitdi. Malikaning sabri sob bo'ldi, ilk bor jur'at ila hukmdorga qarab apil-tapil qadam bosdi. Lekin malika ko'kragiga sig'masdan anchadan beri bezovta qilayotgan gaplarning birini ham aytolmadi. Faqatgina jur'at ila:

— Shohim, bu yurishingiz uzoqqa cho'zilurmi? — dedi, xolos.

Hukmdor uning yuziga uzoq termilib o'tirib:

— Buni Alloh biladi, — dedi va titrayotgan qo'llarini kaftlari bilan silab qo'ydi.

Ertasiga butun shaharni nog'ora gumburi tutdi. Hukmdor yurishga o'tlandi.

Malika juda katta saroyda tanho qolgandek iztirob chekardi. Bu yorug' foniyl bilan bog'lab turgan o'zidan ancha yosh katta, to'parasida duch kelganni o'ziga beixtiyor tobe qiladigan sovuq chag'ir ko'zining tub-tubida unga bo'lgan alohida mehr aks etib turgan yolg'iz inson — hukmdor ekanini shundagina angladi. Ilgari hukmdor dorussaltanatda yurganida dunyo munchalar bo'm-bo'sh emasdi. Malikaning yuzida ma'yuslik alomatlari ko'rinsa, xodimlar ham sukut ichra qolardi.

O'n yetti yoshga endigina to'lgan malika dunyoda inson uchun yolg'izlikdan oliy azob yo'qligini tushundi.

Kimsasiz bog'ni shuncha kezsa ham, ko'ngli ko'tarilmadi. Barqurib yashnayotgan bog'dagi barcha nihollar hayot zavqini surmoqda. Shoxdan shoxga uchib-qo'nib chug'ur-chug'ur qilayotgan behisob mushtdek qushlar, guldun gulga qo'nayotgan asalarilar porloq nurlariga belangan hayotning lazzati va rohatini qo'shiq qilardi. Tez-tez aylanib yelayotgan sabo ta'sirida raqsga tushayotgan barra barglarning jismi yayrab, o'zini sho'x-shodon sezadi. Mana shunday ajoyib bog'ni shuncha kezsa ham, ko'ngli ko'tarilmadi.

Kichik malikaning bunday sayllarda ko'ngli yozilish o'rniga, yolg'izlikning, xumordan chiqib ko'rmagan qaynoq muhabbatning, butun jismini o'tdek yondirayotgan sog'inchning, allaqanday bezovtalikdan paydo bo'lgan mavhum mung va qo'l-oyog'ini tushovlab qo'ygan ilojisizlikning — bu dunyoga kelib ilk bor boshidan kechirgan, a'zoyi badanini ohista sezdirmasdan yemirayotgan qirg'tuyg'uning, boshi qirg'tomonga tortayotgan aftoda hatlatning egri-bugri yo'llariga tushib, tinka madori qurib qaytadi va nimqorong'i saroyda ikki qo'li bilan tizzasini quchib uzoq o'tiradi.

Uning dilidagi g'uborni ketkazmoq ilinjidagi kanizaklarning harakati ham zoye bo'ldi. Ingranib chiqqan zorli soz nolasi uning qalbini ohista timdalayotgan mavhum tuyg'ularni quvolmadi; qizlarning ingichka bo'yinlarini o'ynatib raqsga tushishi, sur-

mali qoshlarning tagidan suzilib qaragan xumor ko'zlarini undan uzmasdan, sadafdek tishlarning yaraqlatib jilmayishlari go'dabon kuldirish uchun bajarilayotgan harakatdek sun'iy ko'rinadi, ular o'zlarini malika uchun majburlab kuldirib, jo'rttaga xushchaqchun tutayotgandek tuyuladi.

Malika ham o'yin-kulgiga qo'shilish o'rni, kanizaklarni shuncha ovora qilayotganidan noqulay ahvolda tushadi. "Ishtiyog yo'q, boshim og'riyapti", — deb turli vaj-karsonlarni ro'kach qilib, bunday bazmlardan qochmoqqa intiladi.

Malikaning dilini o'rab olgan g'ashlik bunday bazmlardan ketmasligini anglagan kanizaklar no'rin o'yin-kulgiga barham berib, tinchib qolishardi. Saroy ichini yelkangdan zildek bosadigan og'ir sukunat yana zabt etadi.

Malikani qanday xursand qilishni bilmagan enaganing ham boshi qotadi. Gohida uni bog'dagi minglab gullar ochilgan chamanzorga boshlaydi, gohida unga hukmdor sovg'a qilgan, hokimlar-u beklar, vazirlar-u sarkardalar, elchilar tortiq etgan uzuk va bilaguzuklarni, zirak, kamarlarni, bir-biridan qimmat asl toshlarni ko'rsatadi. Dam chor tarafdan keltirilgan maxfis, roviya, shamsiya, shaddo, mashhad, tafsila, guliston, misriya, at-las kabi shohi gazlamalarni yoyib, qaysi biridan ko'ylak tikaylik, deb mato tanlatadi, hukmdor xazinasida tog'-tog' bo'lib uyulgan qunduz, suvsar, bars, olmaxon, qizil tulki terilaridan mo'yna tan-lashni iltimos qiladi, lekin bularning hech biri malikani ovunt-i-rolmasdi.

Enaga uni turli-tuman asl matohlarga qiziqтира olmasligini tushungach, har kuni malika xosxonada tanho o'tirganida yoniga kirib kelib, shu kunlarda yuz berayotgan voqealarni rivoyat qilishni boshladi. Saroy atrofidagi mish-mishlar ham malikaning e'tiborini o'ziga tortmadi; kampirning gapiga parvo qilmadi, bir nuqtaga tikilganicha indamay o'tiraverdi.

Ko'pni ko'rgan kampir beparvo malikaning diliga oxiri yo'l topdi. Bir kuni boyvuchcha saroyiga tegishli xodima aytib bergan, hukmdor zabt etgan ellarda boyvuchchaga ko'rsatilayotgan ehti-rom haqida gap boshladi. Bir nuqtaga tikilib o'tirgan malikaning yuzida birdan o'zgarish yuz berdi. Nigohini burchakdan uzib un-

ing yuziga qaradi. Kampir davongni endi topdim deb, uzoq yillar davomida boyvuchcha saroyida ko'rgan-kechirganlarini birma-bir ayta boshladi. Malikaga til teggizmoqdan hayiqdi, lekin uning onagalari va kanizaklarini yer bilan yakson qilib, yomonlashni boshladi.

Hukmdor kichik malikaning saroyiga batamom ko'chib olgan-dan keyin uni otarga o'qi yo'qqa o'xshaydi. Har tomondan oqib kelayotgan sovg'a-salomlar avvalgidek faqat o'ziga buyurma-yotganidan boyvuchchani fig'oni falakda emish; keyingi payt-larda hukmdor boshqa ellardan kelgan tortiqlarning asl va tozasini kichik malikaga in'om etayotganmish, degan mish-mishlarni boy-vuchcha ham, uning kelinlari ham ko'p bora aytganmish.

Kampir malikaga bir qarab oladi-da, uning yuzida achchiqla-nish alomatlari zohir bo'lmagach, yana aravani olib qochadi. O'roq burnining tagidagi ingichka-ingichka ajinlar gir aylanib olgan og'zi to'r to'qiyotgan o'rgimchakdek bir dam to'xtamaydi, toki malikani o'z to'riga tushirmaguncha tinmay vishillayveradi.

Boyvuchcha saroyida aylayotgan shivir-shivirlarning ham-masini ipga tizaverdi. Kichik malika suluv, yosh, lekin malikaga munosib fazilati yo'q: asilzoda va zodagonlar avlodidan emas, shunchaki mayda amaldorning qizi; kelib chiqishi ham notayin: hukmdor poshshooyimning so'nggi vasiyatini buzolmasdan unga uylangan, taxtdan tushmasa ham, tepadan pastga sho'ng'iyotgan qariga teggan sho'rining farzand ko'rishi dargumon, yomonlik aytmasdan yaxshilik bo'lmas, hukmdorga biron kor-hol yuz bersa, malika tizzasini quchoqlab yolg'iz qoladi...

O'roq burnining tagiga to'r qurib olgan o'rgimchak avval to'ming bir uchini malikaga tortdi va uni bir marta chaqib oldi. Malikaning rangi o'chib, ko'zlarini shamolda lovullab yongan cho'g'dek lov etgan qahr egallaganini ko'rib, bir dam to'xtadi. U o'z gaplarining malikaga qattiq ta'sir etganini bildi. Hozirgina o'zi chuqur tirab olgan yaraning og'zini o'zi arta boshladi. Faqat ayollarga xos mug'ombirlik bilan fikr-qudug'ini teranroq qazishda davom etdi.

Rashkning tilida — cho'g', lunjida — muz. Cho'g' bilan yuzingni, muz bilan yuragingni tirab gapirma rashk bo'-

lurmi? Hukmdorning muhabbati va dabdabasi bir o'zi ega bo'lishga o'rganib qolgan kekkaygan oqsuyak avlodning qatiboyvuchaning kekkaygan xizmatkorlari kichik malikani ona o'g'izidan ketmagan go'dak hisoblab, uni mensinishni istamaydi. Lekin bundan ularga naf yo'q. Ular bo'lar-bo'lmas gaplarni aytishdan boshqa kuchga ega bo'lolmas. Hukmdorning o'zi Anqar tog'dek bo'lib kichik malikani panohiga olganidan keyin boyvuchcha saroyidagi bema'ni safsatalar shunchaki shamolning huvullashi va pashshaning g'ing'illashidan boshqa narsa emasdir. Lekin yoshi ulug' deb, boyvuchcha deb kekkaytirib qo'ymasdan epini topib, ehtiyot bo'lib gapirishga o'rgatmoq lozim. Xudoga shukur, ulug' hukmdor oltin boshi bilan qadam ranjida qiladigan qutxonani oyoqosti qilishga yo'l bermas...

Kampirning gaplari shiddatli tus oldi. Yupqa labi titrab, ovozi qattiqroq chiqdi. O'roq burnining tagidagi siyrak tuklari tikka bo'ldi.

Enaganing kutilmaganda haddidan oshganini ko'rib, malika uning yuziga sinovchan tikildi. Kampir nojo'ya gap aytdimlikan degandek shartta to'xtadi-da, allaqanday yumushi yodiga tushgandek, o'rnidan shoshilib turdi.

Enaganing boyvagi gaplaridan yuragini jizillatib paydo bo'lgan bir tuyg'u birdan esgan shiddatli bo'rondek malikaning ko'pdan beri diliga sohiblik qilayotgan g'ashlikni tarqatib yubordi. Butun jismini egallagan sang parchalanib ketgandek malika o'zini yengil his qildi.

Boyvuchcha saroyining hikoyalari falon oydan beri uning qo'l-oyog'ini bog'lab tashlagan loqaydlik arqonini qirt-qirt uzib tashladi. Boshi berk ko'chaga kirib qolgan fikr-hislarning oldidan keng yo'l ochildi...

Malika kampir aytib ketgan gaplarning mayda-chuydasigacha qaytadan chuqur mulohaza qilib ko'rishga bel bog'ladi. Ko'zga ko'rinmas olislarda yotib olib, uning hali shamol tegmagan yosh yuragiga tirnog'ini botirib olgan boyvuchchaning zo'ravon changali uning jisimga g'ayrat jo qilgandek bo'ldi. U malika bo'lsa ham, o'zining notavon, zaif ekanini, zurriyodi bo'lmagani uchun serfarzand boyvuchcha uni pisand qilmasligini fahmladi.

Malika yosh bo'lsa ham, achchiq tirmoqning hissasini achchiq tirmoq qaytarishini xotin-qizlarga xos ichki tuyg'u bilan angladi. Shuning uchun yuzida sovuq nur paydo bo'ldi. Avval muloyimgina boqqan ko'zida qilichning yuzidagina kuzatiladigan beshafqat sovuq uchqun yaraq etdi. Yurish-turishi ham tetiklashdi.

Malikaning jisimidagi bu o'zgarishlarni xodimalarning ziyrak nigohi birdan sezdi. Avvalgidek yopishib quchoqlashga tortina boshlashgan bo'lsa ham, o'zlarida yo'q xursand edi.

Malika kechagina beparvo qaragan, nazarga ilmagan shohi matolarni, qimmatbaho mo'ynalarni, qizil-yashil bebaho toshlarni saroyga keltirgizib, yana bir bor ko'rib chiqdi.

Enagaga o'ziga yoqqanlarini ko'rsatib, nima kiyib, nima tikirishini buyura boshladi. Malika taraddudlanib qolsa, enaga maslahat berib, yo'l ko'rsatdi. Bunday hollarda malika avvalgidek og'zini ochib hayron bo'lmasdi, "ha, shundoqmi" deb ma'qullab qo'ymadi, xizmatkorning so'zini jimgina tinglab, keyin o'zi biroz o'ylaydigan bo'ldi.

Qoqvosh kampir malikaning hokimalik ta'mini seza boshlaganini ko'rib, o'zidan rozi bo'lib, og'ir jismini yoshiga yashmagan tarzda qo'zg'atib, pildirab yurdi. Malikaning xazinasida nima bor, nima yo'qligini tekshirdi, yo'q narsalarning qaysi viloyatdan, qaysi muzofatdan topilishini aytib, unga yo'l ko'rsataverdi.

Malika o'ziga kerakli narsalarni aytib, bosh vazirga enagani yubordi.

Bosh vazir enagani mensinmadi, chog'i, tayinli javob aytmabdi. Xodimaning javobidan fig'oni falakka chiqdi, yana kishi yuborib, vazimi saroyga chaqirtirdi. Vazir o'zining harakati malikaga yoqmagani sezdi. Eshikdan kirishi bilan ta'zim qilib, buyurtmalarining hammasi bajarilishini, malika izlagan mo'yna, gazlama, yog' va atirlarni keltirish uchun kerakli viloyatlarga xat yozib, maxsus kishi yuborganini bayon etdi.

Hukmdorning bu vazirga ehtiromi o'zgacha edi, shuning uchun uning malika poyiga bosh egganini ko'rganida enaga o'zida yo'q xursand bo'ldi. Kichik malikaning dongdor tikuvchilarni chaqirib, libosga buyurtma berayotganini eshitganda boyvuchcha saroyidagilar nihoyatda darg'azab bo'lishdi.

Malika o'zi o'ylab topgan yangi mashg'ulotga astoydil kirishdi. Yangi liboslar va viloyatlardan keltirilgan asl narsalar haqidagi oldi-qochdi gaplarning uchi hukmdor bilan birga yurgan ulug' malikaning ham qulog'iga yetibdi.

Ulug' malikaning "o'zi shunday debdi" degan ovozarlar bo'yicha saroyidan kichik malikaning o'ziga ham yetib keldi.

Ulug' malikaning jahol otiga minganini eshitgandan keyin yosh malika osmon-u falakka chiqdi, kundoshining so'zlaridan yuragida paydo bo'lgan jarohat keta boshladi. U o'ch olayotganidan o'zida yo'q xursand edi, bu odat o'ziga ham xush yoqayotgandi, shuning uchun boyvuchcha saroyidagilarning hasadini keltiradigan yangi yangi hiyla-amallarni birin-ketin o'ylab topardi.

Malika bog'aro sayini avvalgidan ko'paytirdi. Ayniqsa, oftob ko'tarilgach, kanizaklari bilan birga hovuzga cho'milishga, suvda olma otib o'ynashga havasi zo'r. Har kuni ertalab xizmatkorlar daraxtdan olma uzib, hovuzning yonidagi yupqa chodirning tagiga tog' qilib uyib qo'yishadi. Quyosh tafti borliqni qizdirgach, yangi pishgan olmaning hidi anqib turgan chog'da malika xizmatkorlari bilan cho'milishga keladi. Qizil olmalar suzib yurgan shaffof suvda yoshlikning, bexavotir baxtning ta'midan baxtiyor yosh badanlar sulloh to'liqlardan allanechuk rohat topib, lazzatga belanadi.

Odatdagi takabbur sipoligidan, baland martabasidan, qimmatli kiyimlaridan bir damgina mosuvo bo'lib, ozodlikka chiqqaniga hali-veri to'y masa kerak, malika hovuz boshida uzoq qolib ketadi. Suvdan chiqqandan keyin hovuz yonidagi yupqa chodirning ostida yotib, xizmatkorlariga badanini uqalatadi, bog'ning xushbo'y hidiga dunyoning har yer-har yeridan keltirgan xushbo'y yog'lar va atir hidi qo'shiladi.

Malikaning yoshidagi ayollarning badani nima istashini yaxshi biladigan tajribali juvonlar qo'l kuchini ayamaydi, uzoq uqalaydi. Bunday hollarda malika qorachiqlarini uzun kipriklari tagiga ya-shirib, o'tkinchi rohatning lazzatiga belanib huzurlanadi. Xayolga cho'madi. O'zi yurgan bog'ni dostonlardagi behishtga o'xshatadi. Yonidagi xizmatkorlarning Bog'i Eramdagi hur qizlardan nimasi kam? Bundan ortiq huzur boshqa yerda bormikan? Bunday farog'at o'z qo'lida, bunday rohat o'z to'rida turganida hukmdorning

ollis ellardagi yurishga ketishi aqlga sig'maydigan, mutlaqo zarurati yo'q, shunchaki telbalikday ko'rinadi. Lekin hukmdorning rejasidagi ishni tanqid qilish bandaga kechirilmas ayb ekanini eslab, jilovini uzmoqqa shaylangan telba xayollarni jilovlaydi. Shundan keyin og'zi endi oshga yetganda odamlar ajratib yuborgan tozidek charchamagan xayoli hukmdorni qo'yib, malikaning izidan tushadi. Yurishdagi hukmdorning orqasidan qolmasdan borishning unga zarurati bormidi?..

Bu xayoldan orqasida o'ynoqlayotgan barmoqlarning harakatidan ham o'tgan, yaloqlab turgan azozil nafsini damda to'ydirib qo'yadigan kutilmagan zavq hosil bo'ladi. Tepasida saraton quyoshi emas, ko'zi qonga to'lgan kundoshi qarab turgandek bo'ladi. O'zida yo'q farog'atni ko'rib olsin, ichi kuysa, tuz yalasin degandek ag'darilib chalqanchasiga yotadi, uqalovchilarga ko'kragini tutadi. Qari kundoshida bunday yosh badan, bunday chiroy yo'q.

"Endi u mening yoshligimga g'ayirlik qiladi. Oltin boshli hukmdorni qo'ynidan yulib olgan sehrli kuchni ko'rarga ko'zi yo'q endi. O'zining bolalari bilan bola bo'lib, o'choq boshida qolgani alam qiladi unga. Shuning uchun shohanshohning ortidan qolmasdan yaltoqlanib, xushomad qilib yuraveradi. Xushomadda ne siyosat? Paytavasini yuvib berishdan boshqani uddalay olmaydigan qari ayol hukmdorning ko'nglini qalay ovlaydi... Yo'q, bari bir hukmdor o'zini... U boyvuchchaning saroyiga avlodim davomchilari yashayotgan xonadon deb boradi, farzandlarini sog'inib boradi. Mening saroyimga uzoq yurishlar va shiddatli janglar mashaqqatidan keyin badanim yayraydigan, ko'nglim quvondigan jannatim, oltin bog'li behishtim deb keladi. Rost... ayni shunday... bunga shubha yo'q. Lekin hukmdor oltin tojli boshi bilan kecha-yu kunduz mening saroyimda o'tirolmaydi. Dunyoning to'rt tomoni xavotir ila xabarini kutadigan shohanshoh ikki uch yil indamasdan qolsa, "Hukmdor qahridan qaytib, malikalarining ko'nglini ovlash bilan ovora bo'lib qolibdi", — deb xursand bo'lishadi..."

Malika buni o'ylasa, allakim yuragiga nina sanchib olgandek bo'ladi. Yo'q, u malika bo'lsa, hukmdorni bunday bema'ni safsatabozlarning hujumiga yem qilib qo'yolmaydi. Shohanshohning

uzoq yurishlarga chiqishi shunchaki ixtiyoriy azoblanishdir, degan o'z fikrining xato ekanligiga endigina ishonch hosil qilgandek bo'ldi.

Yo'q, u hukmdorni poytaxtda bo'lgan paytda, yurishdan qaytib kelgach, faqat meni sevadi, deb yonidan chiqarilmasdan, ushlab o'tira olmaydi. Chunki oltin boshli shohanshohni hammat saroy a'yonlari-yu boyonlari, avom xalq-u butun raiyat kuzatib yuradi. Uning har bir qadami, har bir ishorasi elning ko'z oldida. Shuning uchun hukmdorning bolalarimning onasi, baxt bergan juftim deb onda-sonda boyvuchaning saroyiga borishi ham maqbuldir. Kelin bor, ota taxtidan umidvor yurgan shahzodalar bor, shularni o'ylab, boyvuchcha bilan sirlashish uchun boradi. Uzoq yurishga ham shuning uchun olib ketadi. Boyvuchcha bilan maslahatlashgan bo'ladi.

Lekin bularning hammasi ko'rgan ko'zga parda qilib tutilgan manziratgina. Aks holda, qizi bilan tengdosh kundoshining har bir qadamini sanab o'tirmish shu kimsadan jo'yali maslahat chiqarmidi. Kichiginagina ko'krakka kundoshlik va kayvonilik birdaniga sig'armikan? Shunday bo'lsa ham, ular ikkisi tanho qolganda nimalar haqida gaplashar ekan?

Malika bir muddat xayoldan to'xtadi. Jismini yayratgan hozirgi rohat, ajib bir lazzat birdan tugab qolgandek, shartta ko'zini ochib, boshini yostiqtan yulib olishni istadi, silab-siypalagan qizlarga sir boy berishni xohlamadi, ko'zini chirt yumib yotgan holda uzilib qolgan xayolining uchini izlashda davom etdi.

Har holda, ikki qari kishi, shunchaki gaplashib o'tirishdan boshqa nima qilardi? Boyvuchcha hukmdorni ko'rgan chog'ida o'ziga o'xshab shoshib, nima qilishini bilmasdan sarosimada qolmas.

Yurishga jo'nashdan avval hukmdorga yolg'izlikda duchor bo'ladigan sog'inch va juda og'ir mungni noz qilib aytmoqchi edi, aytmadi. Ertasiga xayrlashish oldida, har holda, malikaman-ku deb, o'zining hissiyatini bildirib quchoqlamoqchi bo'ldi, jur'at qilolmadi. Xosxonasidan chiqayotgan hukmdorning orqasidan qarab, ostonadan hatlab chiqib ketmaguncha qotib turaverdi. Uning orqasidan termilib qarab qolganini sezdimi, hukmdor shartta to'xtab, orqasiga burilib qaradi, uning oldiga qaytib ke-

lib istagandek yoki nimadir aytmochi bo'lgandek u tomonga yurmoqchi bo'ldi, lekin yon tomonga ko'zi tushib, qaytadan o'z yo'lga ketaverdi.

Malika hukmdorning ko'zi tushgan tomonga qaradi: boshini egib, ta'zim qilib saf tortgan g'ulomlarni ko'rdi.

Ostonada behol turib qolgani o'ziga erish tuyuldi, eshikni yopib oldi. Lekin hukmdorning ketayotib bir dam to'xtab, unga hurilib qaraganidan o'ziga bo'lgan o'zgacha ixlos borligini ko'rib, yuragi tinchidi.

Beshafqat hukmdor sovuq nigohining qa'ridan faqat o'ziga ko'ra oladigan mayin nurdan ham mana shunday tuyg'uni ilg'agandi. Inson qalbining eng teran nuqtasidan jimirlab chiqadigan mana shunday tuyg'uning, qaynoq intizorlikning eng avj nuqtasi muhabbatdir. Demak, hukmdor uni sevadi...

Malikaning yuragida chiroyli qo'g'irchoqni ko'rgan qizning palapon yuragidek bir narsa paydo bo'ldi.

Ikki yuziga otashning tafti teggandek qip-qizardi va lazzat ko'lga yana sho'ng'ib, uzilib qolgan xayolini davom ettirdi.

Ikki qalbning qaynoq hislari tugagan damda muhabbat egalagan bepoyon ko'ngilni biror his egallaydimi yoki xalqi ko'chib ketgansiyurtdek huvullab qolarmikan?

Aqli "ha, shunday" deb bu taxmini to'g'ri hisoblasa ham, shuning chuqur qatlamlarida yashiringan o'g'ri shubha takror bosh ko'tarib, daydi ko'ngilga orom bermasdan boshqa ovloqliklar sari chorlaydi. Agar ikki kekxa kishining o'rtasidagi avvalgi hislardan hech qoldiq qolmasa, nega juftlar bir-biridan to'lgungacha ajralishmaydi? Yoki o'limning oldidagi, aftodahol qarilikning oldidagi qo'rqinchdanmi?

Albatta, bunday vahima faqat bir oiladagina so'zi o'tadigan odamdagina bo'lishi mumkindir, lekin yarim olamni o'ziga qaratgan, to'abad yonida birga bo'ladigan yori, Vatani, avlodi, minglab askari va yuz minglab xalqi bor hukmdorda bunday qo'rqinch yo'qdir. Demak, u boyvuchchaga nisbatan boshqa sezimlari ham bor? U nimadir?

Ha, kekxa insonlarning yuragida, loqaq kechagi kuyib-yongan muhabbatning o'rnida issiq tafti — o'zaro hurmat qolmasmi?

O'sha taft batamom sovib bo'lguncha insonning o'zi ham baxtli ravona bo'lar, balki.

Boyadan beri tagiga yetolmayotgan so'roqning javobini eson topganiga dastlab sevindi. Bu hol uzoqqa cho'zilmadi. Ko'krakka yana sovuqlik yugurdi. "Demak, hukmdor va ulug' malikaning o'rtasida hali ham issiq tafti sovib ulgurmagan o'zaro hurmat davom etmoqda".

Bu fikr uning ko'kragini birdan chimchilab olgandek bo'ldi. Hozirgina xizmatkorlarning barmoqlari ta'sirida erib borayotgan badani birdan so'lib, so'nib borayotgan tuyuldi. Hozir turmush, uni silab-uqalayotgan barmoqlar uni parcha-parcha qilib, jundek titib tashlaydigandek o'rnidan shoshib qo'zg'aldi. Yumshoqlikni ko'ylak badanini tikan bo'lib chaqdi, xodimlar sochini o'rib bo'lguncha arang chidab o'tirdi. Rohatlanib orom olayotgan yerdan tezroq ketishni istadi.

U yana ma'yus bo'lib qoldi. O'zining yolg'iz ekanidan, bola chaqali, bir necha oilani o'z bag'ridan taratgan boyvuchchaning oldida zaif, nochor ekanidan qattiq afsuslandi, ichiga cho'g' tushgandek butun jismini olov o'rab oldi. Nima bo'lsa ham, o'sha o't tezroq yonib tugasa ekan, meni butkul kulga aylantirib, bedavo darddan batamom qutqarsa ekan, deb tiladi. Shu holatda endi bir zumgina chidasa, tilagi ham bajariladigandek tuyuldi.

Malika hech narsani o'ylashni istamadi. Boshini og'ritib, uning e'tiborini o'ziga og'dirolmagan ko'p xayollar vizillab-vizillab chivanga aylanib ko'z oldida qop-qora bo'lib uchib yurgandek bo'ldi. U bu holatni tomosha qilishni istamagandek, tegib ketsa biror yerini tishlab oladigan jirkanch hasharotlarni ko'rishni istamagandek ko'zini chirt yumib oldi. Endi g'ing'illab yurgan ko'p maxluqot maydalashib-maydalashib pashshaga aylanib borardi. Bu hol uning asabini egovladi, bezgak teggandek qaltiray boshladi. Bundan o'zi cho'chib ketdi. "Nahotki, kasal bo'lib qolgan bo'lsam", — degan fikr xayolidan o'tdi.

Zudlik bilan o'tirgan yeridan uchib turib, to'r oldidagi ko'zguga yugurdi. Ko'zgu oldiga kelib o'zining kayfiyatiga hayron bo'ldi. Kulga aylanayotgani shunchaki xomxayol, avvalgidan o'zgarman. Shoshilib o'rtilgan qalin sochi bo'shshib, pax-

moqlasha boshlagan. Bu o'ziga ajib bir chiroy qo'shib turardi. Xodimlar boyagina xushbo'y yog'lar bilan silagan bo'yni, yuzi, ko'kragi yaltirab turibdi. Ikki yuzi olmadek qip-qizil, faqat peshanasi ko'karib qolgandi.

Malika ko'zgdagi intizor qarab turgan notavon qizning o'zi ekaniga ishonmasdan tikilib qoldi. Bu holida yorug' yolg'onda qanday qo'rqmay yashayapti. Uni ko'rgan kishi o'lib-tirilib sevmaydi, hurmat qilmaydi, mahliyo bo'lmaydi ham, faqat "bechora, bola-e" deb achinishi mumkin. Ulug' hukmdorning ko'zida paydo bo'lgan uchqun ham o'zi o'ylab yurgandek otashga chulg'angan muhabbatning emas, shunchaki achinishning nishonidir, balki. Arslondek hayqirgan boyvuchcha bunday miskinni tovonni ila top-tab ketmaganiga shukur...

Kimngdir nafasi teggandek bo'ldi. Yalov'och holda o'tirganida ustiga birov kirib kelgandek yalt etib qaradi. Enaga kampir qo'ng'ir qutichani qo'lida tutib unga qarab turardi. Uning kosasidan chiqayozgan ko'zlarini ko'rganda, kulib yuborishdan o'zini arang to'xtatdi.

— Manavini hozirgina bosh vazir keltirdi. Hukmdorning sizga maxsus sovg'asi bo'lsa kerak, — dedi qo'lidagi qutichani malika-ga ko'rsatib.

Butun jismini yumshatib yuborgan haligi holatdan qutulolmagan malika kampirning so'zi nima deb javob berishni bilmasdan, sarosimada qoldi. Kampir qutichani malikaning to'shagi ustiga qo'ydi. Uning o'zini ham shu tomonga boshladi. Malika kampirning yetagida endigina qadam bosgan go'dakdek talmovsirab kelardi. Kampir qutichani o'zi ochmadi, jur'ati yetmadi, kichkina kalitni uning qo'lga tutqazdi.

Malika shoshilib qutichaning halqasi qayerdaligini topolmadi. Enaga noiloj o'zi ochishga majbur bo'ldi. Ochdi-da, qutichaga qarashni ham, malikaga qarashni ham bilmasdan turib qoldi.

Malikaning ko'zlari yoshlandi, anchagacha hech nimani ajrata olmadi. Birozdan keyin qutichadagi oqarib turgan allanimalarni ko'rdi. Xotirini jamlab, qutichaning ichiga tikilib qaradi. Yaltirab tovlagan marvarid, rang-barang aqiq, o'ynoqi marjon, ko'zni

olmos qilichdek kesib o'tadigan o'tkir, ko'rinishi sovuq yasab, iymanib yaltiragan oqish-sarg'ish yoqut, kuz osmonidek shafqat fof ko'kimtir sapfir, yashil zubarjad, qip-qizil la'l, o'zga toshlar ning rangiga qarab tovlanadigan suv tomchisidek yalt-yult etgan shamir, u ilgari eshitmagan, nomini ham bilmaydigan bir biridan nafis ko'plab qimmatbaho toshlarni ko'rdi. Ularning eng ustida rang-barang ko'lda suzib kelayotgadek bir dona oppoq gul yotardi.

Malika chiroyini, xushbo'y hidini saqlagan nozik oppoq gulni qo'lga olib, bag'riga bosdi. Yaqinginada a'zoyi badanini bo'g'ib turgan temir arqon o'z-o'zidan bo'shashdi, tongdan buyon ma'yus nigohida to'planib turgan achchiq yosh bahorning ilk yomg'iridek to'kila boshladi. Yolg'izlik va sog'inchdan dard chekib, jismiga yopishib qolgandek og'irlashgan yuragi yana o'ynoqlay boshladi.

Malika yonida enaga turganini ham, uning oldida qizaloqqa o'xshab yig'lab o'tirishi erish tuyulishini ham xayoliga keltirmadi, diliga in qurib, zulukdek so'rayotgan g'ashlik mushuk yurish bilan chekina boshladi. Haq taoloning inoyati ila ulug' hukmdor malikaning qalbidagi hasratni, suyak-suyagini batamom yemirib borayotgan ma'yuslikni ayni vaqtda ko'ribdi. Uning jonini chor tarafdin yoppasiga talayotgan sog'inch va yolg'izlikning, shubha va gumonning, nola va nomusning aks sadosi ham shohanshohning qulog'iga yetibdi. Dunyoning bir chekkasidan chopar orqali sovg'a jo'natibdi.

Malika qo'lidagi oppoq gulni takror o'pib oldi.

Enaga uning ruhiy holatini yaxshi anglardi, shuning uchun o'zini qoldirib chiqib ketdi.

Malika to'shagiga yonboshladi. Qutichadagi asl toshlarni qo'lga olib ko'rmoqchi bo'lgandi, ko'kragiga oq, sariq, ko'k — rang-barang tomchilar shovullab to'kildi, til ifodalashga ojiz ajoyib nafis tomchilarning yomg'iri oppoq ko'krakka yog'ib o'tdi.

Malikaning dilidagi g'ashlik tarqalib, yomg'irdan keyingi osmondek ravshanlashdi. Uning o'rmini ko'l kabi bepoyon nurlituyg'ular egallay boshladi. U uzoqdagi yoriga qalbi qat'ildagi eng ezgu tilagini aytmoqchi edi, u baribir eshitmaydi. Iboni, uyatni bir chekkaga qo'yib, oppoq ko'kragini ochib bag'riga bosar edi,

lekin keng saroyda uning quchog'iga rangsiz havo va bo'm-bo'sh farozdan boshqa hech narsa ilinmaydi.

Ulug' hukmdorga o'zining sadoqati va muhabbati haqida xat yuborish ham bo'lmas, erish tuyular. U shohanshohga, vafodor yoriga ehtiromi va muhabbatini qanday izhor etishi mumkin? U qachon yurishdan qaytib, bu xonaga qadam qo'yadi? To'yguncha quchib, dilini to'ldirib turgan lim-lim hislarni qachon bildiradi? Ungacha shohga bo'lgan qaynoq ehtirosi va riyosiz hisslarini qalay sarf etadi? Muhabbat cho'lini nima bilan sug'oradi? Uning yo'lida qurbon bo'lishga hozir niyatini hukmdorning o'ziga, rashkchi boyvuchchaga, saroydagi shivirlashgan xizmatkorlarga, shaharga, hatto butun dunyoga qalay oshkor etadi? Uni hozir, loaqal, yaqin kunlarda el-yurtga bildirmasa, uning yuragi quvonchdan yorilib ketadi-ku! Hukmdor yurishdan qaytguncha sog'inch va intizorlik o'rtab borayotgan kunlarni qanday o'tkazmoqchi? To'lib-toshayotgan hislarni jilovlash vositasi nedur? Qanday qilib boyvuchchaning jig'iga tegsam degan fikrlari uning tuyg'ulariga madad bo'lurmi?

Hozir yo'lga chiqib, hukmdorning yoniga o'tlanishi mumkin. Bunday qilsa, shohanshohning qahri keladi hamda mish-mishlarga hozir g'iybatchilarning g'iybatiga mavzu bo'ladi.

Malika to'shakning ustiga sochilgan durlarni yig'madi: bir chekkaga yonboshlab, xayolga cho'mdi. Ulug' hukmdorning bunday ehtiromiga qanday javob qaytarsam ekan?

Shohanshoh yurishdan charchab kelganda uni qanday xursand qila oladi? Eh, shohga turmushga chiqqanidan beri muhabbatning qizig'iga to'yindi. U yurishga ketmasdan homilador bo'lganida, hozir uning yuborgan hadyasiga quvonchli xabar bilan javob berardi. Bag'ridagi homilaning har bir harakatini poylab yurib, mana shunday sog'inchli kunlarning tez o'tib ketganini bilmay qolardi.

Uning har bir harakatini nomaga bitib, hukmdor bilan beto'xtov xat-xabar almashinishga bahona topilardi. U kelguncha omon-eson ko'zi yorib, shahzodani ko'tarib chiqsa, erining ko'nglini batamom bir o'zi egallardi, farzandlarini ko'z-ko'z qiluvchi boyvuchchaning og'ziga qum solardi. Bu — hozir shuncha ki bir xomxayol.

U ulug' hukmdorning o'ziga bo'lgan qaynoq muhabbatiga riyosiz muhabbati bilan javob beradi. Eng keragi — shu.

U qimmatbaho toshlarni boyvuchchaga o'xshab yashirib o'tirmaydi, hammasini ertaga podshohning ko'zini ommaning oldida quvontira oladigan go'zal yodgorlikka — muhabbat minorasini qurdirishga sarf etadi. Bu bepoyon shahardagi barcha minoralardan yuksakroq bo'lishi kerak. Ko'rganlar uning ulug' hukmdoriga bo'lgan haqiqiy muhabbatiga va o'tkir zehniga qoyil qolishin.

O'sha kecha malika tinchgina rohatlanib uxlati.

Ertalab bosh vazirga kishi jo'natdi. Malika fikrini ayta boshlaganida vaziri a'zam katta ko'zlarini baqraytirib, bir nuqtaga tikilib qoldi. Malika uning gaplariga hayron bo'lganini ham, xursand bo'lganini ham bilolmadi. Malika gapini tugatgach, ikki qo'lini ko'kragiga qo'yib ta'zim qildi:

“Maqbul, janobi oliyalari!”

Oradan ikki hafta o'tar-o'tmas bosh me'mor kelib, minorani buyuk hukmdorning ulug' boyvuchchasiga qurdirgan masjid qurilishida ishtirok etgan ustalardan biri solajagini yetkazdi.

Endi malikaga ovunchoq topildi. Har kuni bosh vazirga xodimini yuborib, minorani ishlari qanday bo'lmog'i bilan qiziqadi. Minoraning o'z saroyi yonidan qurilajagini eshitgach, boshi ko'kka yetdi.

Bir kuni ertalab uyqudan turayotib qandaydir qizg'ish-qorani narsaning bog'dagi daraxtlardan yuksalib, derazasidan qarab turganini ko'rib qoldi. Ko'rmasini ulotirib tashlab, derazaning oldiga keldi. O'zi qurdirayotgan minorani ekanligini eslab qoldi. Minoraning ustida uzoqdan qaraganda chumolidan ham kichiqroq allanimaning asta-asta qimirayotganini ko'rdi. Amr etganiga ham bir yilga yaqinlashib qolibdi. Minorani endi-endi saroy qo'rg'onidan ham, undan baland daraxtlardan ham baland bo'libdi.

Shundan beri bir so'rangan qizil-qo'ng'ir narsa derazasidan qarab turaveradi. U har kuni derazaning oldiga kelib, minoraning kechagidan qancha yuksalganini o'lchaydi. Lekin minorani arzim darajada balandlashgandek ko'rinadi. O'z xayolotining haqiqatga aylanayotgani, bepoyon shahardagi yangi bir minoraning yuksalib osmonga bo'y cho'zayotgani beorom ko'nglini yanada hayajonga

chulg'adi. Minorani boshidagi chumoli ertalabdan qorong'i kechaga turgani-turgan, uning harakati ham sezilmaydi. Bu holda, uning fikricha, umuman bitmaydi, uning ko'k bilan bellashganini, ko'ziga quvunch baxsh etishdan umid yo'qqa o'xshaydi. Juda katta beo'xshov tosh tana yaltirab turgan zangori osmonga ehtiyotsizlikdan tegib ketgan dog'dek bo'lib, mana shu ko'rinishda, ko'zga chiqqan so'galdek bo'lib o'jarlanib turaveradi.

Malika minoraga o'zi bormoqchi bo'ldi, tepaga chiqib, sust harakat qilayotgan landovur usta bilan yuzma-yuz uchrashib, minorani tezroq bitirgin, deb yalinmoqchi. Lekin buni qanday amalga oshirishni bilmasdan ko'p o'ylandi. Enaga bilan maslahatlashgan edi, hamma vaqt uning og'zidan chiqqanini muhayyo qilguvchi kampir bu gal negadir ro'yxushlik bermadi. “Avval a'yonlarni yuborib, ishning borishi haqida aniq bilib olsak yaxshi bo'lardi”, — dedi. Yashirin yuborilgan saroy xizmatchilari ham: “Qurilish yaxshi ketayotir, har kuni bir necha yuz g'isht terilmoqda, minorani hozirdayoq bepoyon shahardagi boshqa minoralardan o'zib ketdi, bunday yuksak minoraning tepasiga g'isht yetkazishning o'zi muammo, osmon bilan bellashayotgan minoraning bundan tez bitishi mumkin emasdir”, — deb javob aytib kelishdi. Malika bulafning hammasini yupatish uchun aytilgan, o'ylab topilgan shirin javoblar, deb bildi. Har holda, minorani o'zi borib ko'rmasa, ko'ngli joyiga tushmasdi. U enaganing turli vajlarini tinglamadi, qurilishni ko'rmoqchi ekanini aytib, vaziri a'zamga kishi yuborishni buyurdi.

Kelishilgan kuni malika va'ziri a'zam, bosh me'mor va bir necha a'yon hamrohligida minorani ko'rish uchun yo'l oldi.

Rang-barang aravalar karvoni saroy darvozasidan chiqishi bilan har kuni bog'ning panasidan dikkayib ko'rinadigan qizg'ish minorani malikaning ko'zini yashnatib, ko'kka bo'y cho'zdi. Ular yaqinlashgan sari minorani ham samoga intilgandek yuksalaverdi. Yoniga kelib, aravadan tushganda qizil-qo'ng'ir g'ishtdan bunyod etilayotgan boyterak malikaning nigohidan yorug' dunyoni bir o'zi to'sib, chalqanchasiga yotib oldi. Malikaning a'zoyi badaniga titiroq kirdi, qo'l-oyog'i yengillashdi. Ikki qo'lting'idan tutgan xizmatkorlar bo'lmasa, hozir pardek uchib, yuksak minoraning

eng uchiga chiqib oladigandek his qildi o'zini. Minora tomoniga shoshilib odim bosdi. Uning kelishidan xabardor bo'lib chinildak tozalab qo'yilgan minora atrofida ancha kishi: qullar, xizmatkorlar, saroy a'yonlari ta'zim qilib turardi. Malika ularga e'tibor bermadi. Bosh me'mor va enaga boshchiligidagi besh-olti xizmatchilar ning eng oldida yurib, minoraning ichiga kirdi. Zinalardan yuqori ko'tarila boshladi. Saldan keyin hansirab qoldi. Orqadan kelayotgan kanizakning nafasi qattiqroq eshitiladi. Minora ichidagi qorong'ilik quyuvlashdi, xizmatchining qo'lidagi chiroq arang yoritadi. Hammollar yuk tashiganda yoqqan sham tutunidan devorlar qorayib qolgandi. Malika yerga sudralgan ko'ylagining etagini ko'tarib oldinga intilaverdi. Birozdan keyin yo'lak yorishgandek bo'ldi. Bora-bora saraton osmoni yaraq etdi. Malika minora tepasiga yetgan edi. Orqadan kelayotgan qiz pastroqda qoldi.

Qorong'ilikdan birdan yorug'likka chiqqanigami yoki minoraning behad balandligidanmi malikaning boshi aylanib ketgandek bo'ldi. Birozdan keyin hushini yig'ib, yon-atrofga ko'z yugurtirdi, bepoyon shahar juda ham pastda sochilib yotardi. Yerdan yurganda juda baland ko'rinadigan minoralar, masjidlar, nafis saroylar bu yerdan yosh bolaning o'yinchog'idek juda kichkina ko'rinardi.

Malikaning diliga shodlik in qurdi. U bekorga xavotirlangan ekan. Bu minora, haqiqatan ham, juda ajoyib. Bepoyon shaharning osmonini hozirdanoq bir o'zi zabt etmoqda. Malika har tomonga yugurayotgan nigohini bir nafas jilovlagan edi, minora labiga suyanib turgan me'morni ko'rdi. Uning hamma yog'i loy-loy edi. Shundan uyaldimi, bir narsadan qo'rqqandek turgan yerida qotib qolibdi. Ovoz yo'q. Hatto o'rindan qo'zg'almadi. Shunday yuksak minora qurayotgan ustaning kichkina quyonchadek qo'rqib qarab turgan bechorahol ko'rinishi unga qiziq tuyuldimi yoki ishidan ko'ngli to'ldimi, xiyol jilmayib qo'yganini o'zi ham sezmay qoldi. Yerdan yuqori minoraning boshida ikkovidan boshqa hech kim bo'lmasa ham, o'zining bu harakatini nojo'ya hisoblab, malika tezda lunjini yig'ishtirdi.

Bu yerda turishdan noqulaylik sezib, ikki etagini qo'li bilan g'ijimlab ko'tarib, xizmatkor kutayotgan tosh zinapoyaga yo'l oldi. Burilayotib orqasiga bir qaradi, shundagina ustaning yoshgi-

na yilgi ekanini bildi. O'tjag'li, qirra burunli, katta-katta ikki ko'zi ko'k boqadi...

Malika tosh, qorong'i minoraning har bir pog'onasini bosib pastga tushdi...

Aravaga o'tirayotib minoraning boshiga yana qaradi. Yuksak minoraning ustida ustaning yuzi aniq ko'rinmasdan, sal-sal ko'zga chalinadi. Ustaning o'zidan uyaliq javdirab qaragan tortinchoq nigohini eslab, yana bir jilmayib qo'ydi. Shundan keyin minora qurilishidan ko'p tashvishlanmaydigan bo'ldi. Anchadan beri unutilayozgan har kuni bog'ga sayr, kanizaklari bilan birga hovuzda cho'milish odati yana boshlandi. Endi hovuzda cho'milib bo'lib, xodimalariga badanini uqalatganda ham ilgari dagidek har narsani o'ylab boshini qotirmasdan, kundan kunga osmonga qarab bo'y cho'zayotgan minoraga tikilib yotadi. Bir kuni minora ustida chumolidek o'tiradigan usta allaqayoqqa g'oyib bo'ldi. U xizmatkorlarini yuborib bilib kelishni buyurdi. Usta minoraning pardoziga tayyorlanyapti, degan mujda keltirdi.

Yoz o'tib, kuz keldi. Bu mintaqada bilinib-bilinmaydigan qish oylari ham zuvullab o'tib ketdi. Kechagina qaqqayib turgan qip-qizil minora dastlab katak-katak yog'ochlar bilan qoplandi. Ko'p o'tmasdan, asalari uyasidek ko'rinadigan katak yog'ochlarning orqasidan zangori bezaklar ko'zga tashlana boshladi.

Malika endi yordamchilarini ergashtirib, kuni bilan bog'ni oralab, kundan kunga chiroy ochayotgan minorani hayratlanib tomosha qiladigan bo'ldi.

Minora dastlab zangori rangga bo'yaldi. Go'yo zangori osmon bilan birlashib ketgandek bo'ldi. Yog'och kataklarning orasida qimirlab yurgan mitti odamlar tosh minoraga emas, osmonning o'ziga naqsh chizayotgandek, osmon bilan minoraning chegarasini ajratish mushkul edi. Malika mana shundan mamnun bo'ldi.

Zangori osmon quchog'iga yopishib qimirlab yurgan mitti kishilar, u ertalab uyg'onib deraza oldiga kelganida, kutilmagan yangilik hozirlab qo'yishadi.

Ko'k minora har kuni qirq tusda tovlanadi. O'tgan kuni g'adit-budur qizg'ish tosh qo'yaning o'rinda osmonni suyab

turgandek yaltiroq ko'k langar paydo bo'lgandi, u bora-bora u bilan ifoda etib bo'lmas, faqat ko'z bilan ko'rib ilg'ash mumkin bo'lgan sehrli chiroyga ega bo'ldi. Malika buni tanish bir narsaga o'xshatdi, lekin nima ekanini eslolmadi. Ko'p o'tmasdan, minoraning samoga cho'zilgan bilakka o'xshashini sezib qoldi. Usta uning aynan safardagi hukmdorga betoqat sog'inchini ifodalay olganiga lol qoldi.

U osmono'par minorani ba'zan yerning shifobaxsh shariatidan paydo bo'lib, ko'kka intilgan navniholga o'xshatadi, u bahorning mayin shabadasida bilinar-bilinmas tebranib turgandek edi narzarida. Bu ba'zan malikada achinish hisini tug'dirardi, o'lkaning bahori va kuzgi bo'ladigan kuchli dovullari va saratonning kuydirguvchi oftobi nozikkina chiroyli niholni so'ldirib, qovjiratib qo'yadigandek.

Minora har kuni bir xislatini namoyon etadi. Bir kuni barra maysadek hilpirab, yosh chaqaloqdek mo'tirab tursa, ertasiga yon-atrofga nafis nur taratib kulib turardi. Goh derazaning oldiga kelib a'zoyi badaningni bo'shashtirib jimgina termilsa, gohida ko'kka sapchib kekkayib qarardi.

Malika minoraning ko'rguvchilami hayron va lol qoldirguvchi ne sir-u astori borligini, har qancha tirishmasin, bilolmadi. Hammasidan ham ustaning bitib qolgan minoraning tepasida hali kungacha nega imillab yurganini tushunmasdi. Ayniqsa, minoraning bog'ga qaragan tomoni kemtik bo'lib turardi. Malika avval-lari uning tepasida qimirlab yurgan kishidan hech tortinmasdan hovuzda cho'milar edi. Endi o'ylab ko'rsa, yuksak minoraning tepasidagi kemtikdan poylab turgan kichkina chumoli uning har bir xatti-harakatini tomosha qilar ekan.

Malika har kuni bog' sayliga chiqqanida hovuzning yoniga kelib, minorani uzoq vaqt tomosha qiladi. Nazarida, u ham bunga bir nimalar aytayotgandek bo'lardi. Yonidagilar tushunib qolmasin deb, faqat o'ziga nimanidir imlayotgandek tuyuladi. Hatto tosh minoraga o'zini bir kun ko'rmasa sog'inib qoladiganga o'xshardi. Saroyiga kirib ketganida derazaning shaffof oynasidan ma'yus boqadi. Saylga chiqqanini ko'rganda jilmayib, mamnunligini bildiradi.

Minora tobora yaqinlashib kelayotganga o'xshardi. Saroy va bog'ni o'rab turgan devorning yoniga kelib, bu tomonga irg'ib tushishga jur'at qilmasdan mung'ayib qarab turardi.

Malika endi tosh minoraga kimningdir noma'lum tilda yozilgan salomnomasidek ertadan kechgacha tikilib qarab, unda yozilgan sirning tagiga yetolmasdan hijjalab o'tirgan kishidek uzoq o'ylanadi.

U ba'zan minorani o'ziga o'xshatadi, u mamnun qiyofada bo'lsa ham, qalbida qayg'u bor, uning dilidagidek hech qachon tarqalmaydigan, boshqalarni qo'ying, hatto o'zi ham tushunmaydigan, ichdan kemirib borayotgan bejilov tuyg'ular, uyatchan xushtorlik bor, jur'atsiz kishidek aytolmaydigan, javdiragan ko'zlarida cho'kib yotgan tip-tiniq noz bor. Yo'q, bu minoraning o'zi emas, balki "nahotki, anglamasang", deb arazlagan birovning nigohi. Eh, topdi, minoraga tepasidagi ustaning ko'zida ham shunday mehrga to'la, yoqimli, yumshoq nur ko'rgan edi-ku. Usta o'z nigohida aks etgan hislarni minoraga aynan ko'chirgan ekan-da. Xo'sh, sahardan shomgacha derazadan termilib qaragan sehrli nigohning maqsadi nima? Undan nega xafa? Malika uning ranjiga sabab bo'lguvchi xatolik sodir etganmi? Uning yuziga tik qarashga botinolmagan yosh yigitning beadablik qilishi mumkinmi?

Albatta, yo'q! Usta uchun o'z san'atini ommaga namoyish etishdan ortiq baxt bor deysizmi? Malikaning aybi bepoyon shaharga oson o'par minoraga qurdirganmi? Xo'sh, usta minoraning tepasini nega ko'zga chiqqan so'g'aldek kemtik qilib qo'ydi?

Malika yana aravani qo'shtirib, minorani ko'rishga otlandi. Bog'dan javdirab qaragan sokin minoraga yaqinlashgan sayin yuksala boshladi. Yoniga kelganida esa hech kimni pisand etmas takabbur suluvdek yettinchi ko'kka yetdi. Malika bu gal minoraga tepasiga ko'tarilmadi. Bosh me'mordan minoraning nega bitmayotganini so'radi.

"Ustaning bir g'oyasi o'zi o'ylagandek bo'lmayotir. Shuni topgan kuni ish tugaydi", — deb va'da berdi.

Malika saroyga qaytayotib aravaning derazasidan ko'z uzmad, minoraga uzoqlashgan sari takabburlikdan judo bo'lib, yana intizorlik qiyofasiga burkandi.

U xonasiga kirib derazadan qaradi: har kungidek javdirab qarab turgan muloyim minoraga ko'ringdi.

Malika buning shunchaki bejiz emasligiga amin bo'ldi.

Usta, albatta, uning dilidagi safarda yurgan ulug' hukmdorga bo'lgan o'zining pok muhabbatini, cheksiz sog'inchini ifodalab minora barpo etish haqidagi fikrini aniq tushungan. Uzoqdan kishining rahmini keltiradigan qilib minorani ma'yuslik pardasiga o'rganining sababi ham shu. O'lis-olislardan ko'ringanda u, balki, "shoshilgin, tezroq kela qolgin", deb iltijo qilayotgandek bo'lar, Ammo yaqinlashgan sayin mag'rur qiyofaga kirishining sababi nimada? Usta bu bilan hukmdorning qahrini keltirmasmi? Nechog'lik sog'ingan bo'lsa ham, o'ziga atab qurdirgan minoraning mag'rur boqishi unga yoqarmikan? Saroydan qaraganda esa nega hukmdorning vasliga omon-esson yetib, sog'inchini bosgan malikaning quvnoq kayfiyatini aks ettirishi kerak edi-ku!

Toshdan tomchilatib suv oqqizishdan boshqaning barini udalagan usta nega buni tushunmagan? Albatta, bu yerda bir gap bor. Ustaning yashirin niyatini begona ko'zlar bilib qolsa nima bo'ladi?

Malika enaga kampirni chaqirdi. Bozorda yurganlar yangi minoraga haqida nima deyishayotgan ekan, bilib kelsin, deb odamlarni jo'natishni buyurdi. Xalq safardagi shohanshohning qaytishi sharafiga bunday minora qurdirayotgan malikaning aql-u zakovatiga va me'morning beqiyos san'atiga lol-u hayron qolishganidan boshqa hech narsa tushunmabdi.

Demak, xavotirga hojat yo'q. Shahar xalqi minoradan malikaning safardagi yoriga bo'lgan pok muhabbatini ko'rmoqda. Hukmdor dastlab yorining o'ziga bo'lgan cheksiz sog'inchini tushunsa, minoraga yaqinlashganda malika muhabbatining butkul olamni zabt etayotgan hukmdordan boshqa hech kimni pisand etmasligiga ishonch hosil qiladi.

Yosh usta uning ko'nglidagini aytmasdan bilgan, ayni shuni tasvirlagan: ulug' hukmdor yangi minoradan hech qusur topolmaydi. Eh, o'sha kunlar tezroq kelsaydi! O'sha kunda jannatning oppoq qushidek shohanshoh qalbining eng baland cho'qqisiga

ko'tarilar edi. Kundoshi ham rashk o'tida qovurilardi, unga "g'ing" deyolmas, aytishga gap topmasdi. Ul kimsaning hukmdor bilan falon yil birga yurdim, falon joylarni ko'rdim, falon fil, falon tuyaga boyluk ortib, sho'x-shodon kelyapman, deya osmon-u falakda sayr qilgan ko'ngli ro'parasida, hatto tushida ham ko'rmagan ajib minoraga paydo bo'lganda bexosdan qanoti qayrilib, yer bilan yakson bo'lardi. Shohanshoh ham "boyyuvuchcham" deb ko'klarga ko'tarib, boshidan oshirib yurgan katta malikaning necha yil birga hayot kechirganda, ne-ne yurishlardan zafar bilan qaytganda poytaxtga kiraverishda shod ko'nglini yana ham yuk-saklikka ko'tarib uchadigan yangilik topmaganini birdan eslaydi, boyyuvuchaning asilzodlar nasidan bo'lsa ham, tilla sanab, boyluk yig'ishdan boshqa hech narsani bilmas molparast, faqat farzandlari bo'lgani uchungina baxtli yurgan ayol ekanligiga iqror bo'lardi.

Odamning ichidagisini aytizmasdan bilib yuradigan shohanshoh uning pok muhabbati, oq niyatiga va yosh bo'lsa ham bosh bo'lishga yaroqli o'tkir zehniga ham rozi bo'lar edi. Malika ham: "Ko'rdingizmi, qanday kutilmagan sovg'a hozirlab qo'ydim", — deb maqtanmasdan o'sha yosh boladek qarshi olar edi. Necha yillardan buyon asta-sekin unib-o'sib, hozir ko'kragiga to'lib turgan, zo'rg'a sig'ib turgan sog'inch hislarini, qad-u qomatini, dil-u qalbini yondirib borayotgan ochko'z intizorligini ham birdan yoyib yubormasdan, dastlabki kechalardagidek uyaliq, tortinib qovushar edi; lekin o'ziga jahonni zabt etgan jahongir hukmdorning ishqidan ortiq baxt yo'qligini bildirib, yorning qadrini biladigan ayollik fazilatini ham ko'rsatar edi. O'sha kun tezroq kelsaydi, huvullagan katta qasrning hamma burchagi uning sho'x-shodon quvonchining oppoq to'lqinlariga to'lardi.

O'sha orzusiga yetishiga mana shu minoraga vositachi bo'ladi. Malika orzusidagi ajib minorani bunyod etayotgan me'morning har bir barmog'ini o'pishga tayyor. Faqat minorani tezroq qurib bitkazsa kifoya. Ko'zga chiqqan so'galdek qadaliq turgan kemtiki ni tezroq to'ldirsa ekan. Me'mor minoraning eng uchiga yetganida nega shuncha termilib turib qoldi? Darhaqiqat, hukmdor minoraga saroydan qaraganida uning mana shunday g'alati qiyofasidan jahli chiqmasmi? Balki, u anglolmayotgan jumboqni shohanshoh

bunday shaytoniy yo'ldan oybolta qaytarsa ham, baribir uning telba muhabbati yuksak minoraning boshida abadiy namoyon bo'lar veradi. Uni ahddidan faqat hiyla bilan qaytarmoq lozim; derazadan kecha-yu kunduz ayanchli qarab yalangan, unsiz oshiqlik va tilsim tuyg'uni baxt izlagan botir ko'ngilning maqsadiga yetib, haqiqiy oshiqning birdan to'yib, birdan qonadigan farishta ko'ngli shodlik quchog'iga ko'milgan kundagina yo'q qilishi mumkin. Jonlga orom bermas oshiqlik dardini ifodalashni uddalagan usta bir damlik baxtni ham o'xshatib ko'rsata oladi. Unga o'shanday boshiga qo'ngan baxtni ko'rsatishni topshirish kerak; shundagina ustaning asov orzusidan bexabar hukmdor ham, avom ham ertaga xo'jasi bilan uchrashgan malikaning tamasiz shodligi ramzi deb tushunadi. Mayli, asov orzu, botir ko'ngil bir dam niyatiga yetsin...

Malika har tomonga javlon urayotgan ko'ngil jilovini tez tortib, bir narsaga qat'iy ahd qilganga o'xshadi.

Ertasiga ertalab huzuriga enaga kampirni chaqirdi. Xodimalarning hammasi eshikning orqasida qoldi. Malikani kiyintiradigan, sochini taraydigan qizlar ichkariga kirolmasdan, eshik oldida yig'ilib turib qolishdi. Choshgohga yaqin enaga kampir ichkaridan chiqdi. Tashqarida turgan qizlarning har birining betiga xuddi ichib-yeb qo'yadigandek tikilib qarab chiqdi, ulardan birini olib qoldi-da, qolganlarini xonalariga qaytarib yubordi. Hech narsaga tushunmagan qizlar yelkalarini qisishib xonalariga tarqalib ketishdi. Peshindan keyin saroydan malikaning aravasi chiqdi va minoraga qurilayotgan maydonga yo'l oldi.

Minoraning oldida qator-qator tizilgan aravalar uzoq vaqt turib qoldi. Keyin yana saroyga qaytib ketishdi.

Ertasiga kanizaklar bilan bog'sayliga chiqqan malika minoraga tepasidagi ko'zga beo'xshov ko'ringan kemtikning tezda yo'qolib borayotganini kuzatdi. Uch kundan keyin minoraga batamom bitdi. Deraza oldiga kelgan malika yashnab turgan minorani ko'rdi.

Hukmdor zafar bilan qaytgani sharafiga o'tkazilgan to'yda me'mor yigitga bir tovoq oltin dinor tuhfa berdi.

Me'mor yigit tuhfani olayotib kichik malika o'tirgan tomonga ko'z yugurtirdi, malika boshini boshqa yoqqa burdi, me'morning bu qilg'ini hech kim ko'rib qolmadimi deb, boyvuchcha o'tirgan

tomonga qaradi, hech kimda o'zgarish sezilmadi. Malikaning necha kundardan beri o'z-o'zidan hayajonlanib, dukillab urgan yuragi o'miga tushgandek bo'ldi.

To'y tugagach, hukmdor bu saroyga kelganida, u terisiga sig'masdan quvondi. Quyoshning botishini kutdi. Lekin u bilan pachakilashgandek quyosh botishga shoshilmadi. Quyosh uyasiga qo'nganida, jazirama issiqdan charchagan butun dunyo "uh" deb chuqur nafas olgan chog'da uning ham yelkasidagi og'ir yuk tushgandek bir rohatlandi. Falon yildan buyon o'rtayotgan sog'inish chillasining intihosi juda yaqin edi. Kuni bilan quyoshni poylagan ko'zlar endi eshikni kuzatish bilan band bo'ldi. Lekin zarhal eshik ochilmadi.

Eshikka termiltirib tun ham o'tdi.

Ertasiga ertalab uni kiyintirishga kirgan qizlar nimadandir tortinishardi, lekin ko'zlarida: "Yurishdan keyingi to'ydan charchagan hukmdorga saroyga kirishi bilan uning ostonasini otlashi noqulay bo'lgandir", — degandek ovutish nishoni bor edi.

Malika uzzukun tinim topmadi, o'zini qo'yishga joy topolmasdi. Bir muddat tashqariga chiqib sayr qilmoqchi edi, hukmdorning buloq boshida tanho o'tirishini bilardi, bog'da uchrashib qolanfizmi deb tortindi.

Dastlabki kunlari hukmdor rostdan ham charchab kelgandir, biroz dam olib, o'ziga kelib olsin deb, ichdan achinib yurdi. Lekin kunlar o'taverdi malika eshik tomondan kelgan tovushlarga quloq tutadi. Hukmdordan hamon darak yo'q. Malika kechalari bilan to'shagiga tikan sanchib qo'ygandek ag'darilib chiqadigan bo'ldi.

Enaga kampir va xodima juvonlarning og'zini poylaydi. Ulardan ham lom-mim degan sado chiqmaydi. Biroz yangi xabar aytish o'miga, uning yuziga qaraydi. U ham sir boy bermaydi. Lekin aytmadan tushunadigan ziyrak xodimalar uning dilidagidan bexabar emasdi. Ular ham avvalgidek baqirib gapirishmaydi, shod bo'lib kulishmaydi, oyoq uchida yurishadi.

Malika tashqariga chiqishni bas qildi, faqat bir o'zi o'tirib xayol sura-sura boshi xumdek bo'ladi, ana shunda derazaning oldiga keladi. Beparvo zangori minoraga uni ko'rib qolgandek kulimsir-

aydi. Malika hukmdorning sovuq munosabatda bo'layotganidan shikoyat qilgandek deraza oldida uzoq turadi.

U nechog'lik termilib qarasa ham, yaltiroq minorani samonda qiyos qiyos bilan qosh qoqishib o'ynagandek xursand edi. Avvalgi qiyosning derazasiga termilib qaramaydi. O'z maqsadiga yetgan kishidek og'zi qulog'ida. Bir necha yillar davomida har bir g'ishtini sanagandek bo'lib qurdirgan minorasining uning ruhiyatidagi g'alayonlardan bexabarligi uning ko'nglini muz bo'lib sildirib o'tgandek bo'ldi. Minorani bugun unga takabburona boqardi, "Eh, sen avval o'zing ham kekkayib, yalangan, yolvorganlarni pishand qilmasding... Necha yil termiltirganding. Intizorlik nima ekanini bildirmi endi?" — deb jimgina zaharxanda qilardi. Malika minorani qurgan me'morni esladi. Mukofot olayotganida yuziga yaxshilab razm solgandi: keng peshana, qirra burun, qoramag'iz yigit. Qo'sh nigohida allaqanday sir yashiringan. U hozir qanday kayfiyatda ekan? Bir tovoq oltinga mag'rulanadigan dunyoparastga o'xshamasdi. Uning ko'ziga o'zi qurgan minorani qanday ko'rinayotgan ekan? Ayniqsa, o'sha kungi voqeani eslab, osmonni falakda sayr qilib yurgandir.

Malika o'sha voqeani eslaganida ko'nglidagi g'ashlik bahor yomg'irida yuvilib ketgandek labiga kulgi inib, asta jilmayib qo'yadi. Hech narsadan bexabar yigitning anoyiligidan kulgisi qistaydi. Ba'zan unga achinadi, hatto yaxshi ko'rib qoladi. Ustabag'riga bosib, quchoqlab: "Yubormayman, ketmagin, ketib qolmagin", — deb yalinadi deydi. Orzuga ayb yo'q, shovvov! Bir umr malikani quchib o'tmoqchimi?..

Xizmatkor qiz mana shuni aytganida u sharaqlab kulib yubordi, keyin shartta to'xtadi. Bu kanizagining oldidagi noqulay holatdan emasdi. Ro'parasida ma'sumona boqqan qiz tilidan uchgan o'sha so'zlar uning yuragini xanjar bilan tilgandek bo'ldi. Faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan mazkur jarohatni yashirmoqchi bo'lib, sal jilmayib qizga ketma-ket so'roq beraverdi. Minoraning ustida bo'lgan voqeaning mayda-chuyda tafsilotlarigacha bilib olgach, haligi jarohat yana kuchini ko'rsatdi. Xizmatkor bayon etgan yigitning har bir xatti-harakatini tasavvur qilgan sayin o't bo'lib yonib zirqirataverdi.

U oldida o'tirgan muloyim qizning gul-gul yashnagan ikki yuziga, chaqnab turgan ko'ziga, xiyol qimtilgan qalin labiga, xipcha qomatiga mahliyo bo'lgandek tikilib qoldi. Uning yuzida kanizaklarning oddiy kunlaridagi kabi shodligiga o'xshamas o'zgacha quvunch aks etgandi. (Malika haligacha bunday shodlik lazzatidan bahramand bo'lmagandi.) O'ziga oshiq kishining dil izhori-yuvasl baxtiga erishgan ma'shuqaning hayotida faqat bir martagina bo'ladigan yoki umuman bo'lmaydigan juda nodir quvunch. Bunday baxt taqdiriga bitilganlar bor, bitilmaganlar bor. Malika buning qaysi biriga mansub? Umuman, bunday baxt ikki marta kelishi mumkinmi?... Mana, u o'ziga buyurgan baxtni o'z qo'li bilan boshqa qizga berib qo'ydi. Tunov kuni, usta yigitning niyatini aniq anglagan kuni, enaga kampir ikkisi naridan beri maslahatlashib, uni ranj etmaslikning imkonini topgandi. Unga o'xshaydigan qizlarning biriga malikaga xos kiyimlarni kiydirib, minorani tepasiga yuborishni mo'ljallagandi. Kanizaklarning orasidan tanlab olingani mana shu qiz edi. Endi, mana, u o'ziga tegishli muhabbatni emas, o'ziga buyurgan baxtni ko'rib kelgan odamdek, muhabbat taftidan mast bo'lib, yosh yigit quchog'idan erib, xurram holda o'tiribdi.

Malika ichini timdalab tinchlik bermayotgan nadomatni ayollarning no'rin zaifaligiga yo'yib, sabrli bo'lishga abd qildi. Kampir va o'zidan boshqa hech kim bilmaydigan bu sirni eslamaslikni va uni tezda unutishni istadi. Ertasiga minorani tepasidagi kemtikning tuzatilayotganini ko'rganda yuragini bezovta qilayotgan allaqanday qusur yo'qolgandek bo'ldi, afsus-nadomat o'zini shodlik egalladi. Shohanshoh minorani maqtadi, degan xabarni eshitganda o'tkinchi nadomat butunlay unutilgandi. Endi, mana, yana bo'y ko'rsatib qoldi. Hammasi hukmdorning uni yo'qlamaganidan tug'ilgan alamlar mevasidir, balki. Alamli ko'ngil ham, axlat tiligan kuchuk ham bir, yo'q narsani topib oladi. Axir, u oltin boshli hukmdorning quchog'ida yotib shunchaki lazzat izlagan zoti past kanizak emas, mavqeyi yuksak malika-ku!

Ayb izlagan shu fikrning oldida to'xtab qoldi. "Oltin boshli hukmdorning quchog'ida yotib..." mish. Istehzoli iljaydi. Quchog'ida yotib to'yib yuribmidi?! O'z-o'zini aldagan, hayhot

dunyo! Mana, ko'rpasi yonboshini chaqib, u yondan bu yoniga ag'darilib bedor o'tayotganiga bir necha tun bo'ldi. Bunday ha yotning nima qizig'i bor? Bir necha yil davomida intizorlik bilan kutgani shu edimi? Jondan ortiq sevganining sharofati shumi? Boyvuchchaga o'xshab xazina to'plamasdan, bor-yo'g'ini sarf etib, ajib minora qurdirib, hukmdorning ko'nglini topolgani mi — bu? Hammasi shunchaki o'z-o'zini aldash, ovuntirish... Tanholikning oldidagi qo'rqinchdan tug'ilgan xomxayol. Tanida joni bor mavjudotlardek juft bo'lib yashash unga buyurmagan. Bu — shunchaki bo'lmag'ur xayollar og'ushida yashash. Jufti haloh- ning achinishini sevgi, muhabbat, vafo deb o'ylaydi. Bu fanoning barcha ganjiga sohiliblik qilmish ulug' hukmdor tortiq qilgan bir quticha dur-u gavhar hech narsa emas.

Agar shohanshoh saxiylik qilsa, uni duch kelgan gadoga berib ketishi mumkin. Agar uning haqiqatda muhabbati bor bo'lsa, bir saroyda ancha kun o'tdi, malikani intizor qilib, o'z xosxonasida yotib olmasdi.

Malika yaqindagina shohanshoh yurishdan qaytganda baxt og'ushida erkananaman degan orzu-xayolini xotirlab qizardi, o'zining befahmligidan uyaldi. Bularning hammasi ko'z oldida namoyon bo'layotganidan qattiq qayg'uradi. Sog'inch bilan o'tgan kunlarini istaydi. O'sha paytlarda, har holda, umid bor edi. Xayol og'ushida xursand bo'lib yurardi.

Darvoqe, hukmdorni jonimdan ham ortiq ko'rib sevaman, degan ishonchi shunchaki banguining xayoli emasmi? Ikkinchi tarafdan, o'ziga muhabbat hislarini ko'rmagan ayolda telbalarcha sodiqlik bo'lishi mumkinmi? Ey, qaydam... U shu paytgacha ulug' hukmdorda bundan samimiy niyatni kuzatmagan. Ana shuni bilib turib, o'rtada mustahkam muhabbat to'rlari mavjud deb ayta oladimi?

Bu ham uning muhabbatga zor ko'ngli, o'zi o'ylab topib, o'zi ishonib yurgan darbadar hislardir, balki. Bu yosh ustaning jo'shqin orzusidek aldoqchi bir nimadir.

Malika bu fikridan cho'chib ketdi. U Yaratuvchiga shak keltirgandek, ichida uch marta kalimayi shahodatni aytdi. Lekin qo'qqisdan paydo bo'lgan fikr dilini tark etmadi.

U avvalgidan ham aftodahol holatda kunni kech qildi. Suyak-suyaklarining hammasi yemirilib borardi. Oqshomga madori qurib arang yetdi. Bir necha kundan buyon uyqusiz o'tgan tunlari boismi yoki kunduzgi xayollar holdan toydirdimi, to'shakka cho'zilishi bilanoq horigan badani kutilmaganda bo'shasha boshladi. Hay-hotdek keng xonaning shiftidan ko'zga ko'rinmasdan, badanga tegmasdan, to'ppa-to'g'ri suyakka yetib borguvchi lazzat seli quyilgandek bo'ldi, bu sel xafa ko'ngildan necha kundan buyon ildiz otib, palak yozgan bezovta xayollarni, dahshatli vahimani, yuragini ezgan afsus, jahl, qahr — hamma-hammasini quvib yurib, "orom ol, tinchlangin, o'ylanma zinhor" deb, zirqiragan asab toalarini shifobaxsh qo'llari bilan silab-silab qo'ygandek edi. Uzzukun ikki chakkasidan siqib turgan og'irlik ham yengillashdi. Ko'z oldini qoplagan noma'lum parda asta-sekin xonani butunlay zabt etdi. U faqat o'sha harir pardanigina ko'ra boshladi, malika o'zining uxlayotganini ham, uyg'och ekanligini ham angalayolmadi, faqat ko'z o'ngida tiniq havoda ivib qolgan harir shu'ladek bo'lib bir narsa turib qoldi.

Malika horigan jismidagi hali o'chmagan zaif shuur posbondek tikilib turgan oqish shu'ladan ko'z uzmasdi... Uning behalovat yuragi asta-asta tinchlanib, pisib yaqinlashayotgan beor uyqu uni o'z quchog'iga to'liq chirmab oldi; ana shunda malikaning bema-jol badanini begonalar ko'zidan qo'riqlab turgan zaif shuur yana to'lg'ona boshladi...

Malikaning keng xobgohini yurug' yolg'ondan to'sib turgan og'ir zarhal eshik sassiz ochilib, kimdir oyoq uchida ichkariga kirdi. Kirdi-da, yurishga jur'at etmagandek, ostonada to'xtab qoldi. Malika kutilmaganda paydo bo'lgan notanish mehmondan cho'chib, o'rmiyan irg'ib turmoqni istadi, lekin vujudi to'shakka yopishib qolgandek o'rmiyan qo'zg'atolmadi. Ikki qo'lini ham kimdir to'shakka bog'lab qo'ygandek edi. Ostonada tek qotgan kimsaning kimligini bilmoqchi bo'lib, nechog'lik tikilib qarasa ham, eshik oldida oqarib ko'ringan kishining aft-angorini aniq ko'rishga nigohi ojizlik qildi. Ko'z oldini xira tuman to'saverdi. Oqarib ko'rinayotgan kishi suv ostida suzib yurgan narsadek xira ko'rinardi. U qo'zg'aldi. Asta-asta yaqinlashaverdi. Lekin

Hamon yuzi aniq ko'rinmasdi. Xona ichini oppoq oqim zabt etgandi. Noma'lum mehmon o'sha loyqa selda oqib kelayotgandek tuyulardi... Mana, juda yaqin keldi... Yopiray, kim ekan, a? Malika uni kimgadir o'xshatdi. Avval cho'g'dek portlagan yumaloq qo'y ko'zini ravshan ko'rди... Nigohidagi yoshlikka xos jasurlik cho'g'ini allaqanday ma'yuslik o'rab olgandi. Unga iltijo bilan boqadi. Judayam tanish nigoh... Har kuni yonida yurgan, har kuni ko'rib yurgan birovga o'xshaydi. Lekin xotirasi pand berdi, estolmasdi. Javdirab qaragan makkor nigoh uning a'zoyi badanini yanada bo'shashtirib yubordi. Mo'ltirab qaragan qo'sh nigohdagi teran mung uning yuragidagi xuddi shunday jumboq bir tuyg'u bilan uchrashgandek. U hamon o'rmdan qimirlay olmasdi... Eh, mana bu sehrli nigohni kimda, qayerda ko'rgan edi?... Yo'q, hech kim bilan shu tarzda uchrashmagandi.

Shunday bo'lsa ham, ko'kragiga quyosh nuridek singib borayotgan sehrli shu'lani har kuni ko'rib yurganga o'xshardi. Kim unga mana shunday mahliyo bo'lib qarardi?... Har kuni birov mana xuddi shunday termilib qarab turardi. U kim o'zi?... Nega eslohmayapti, nega unutib qo'ygan?... Uni ko'rgan sayin fikri alg'ovdalg'ov bo'lardi-ku!...

Malikaning jismini eltgan allaqanday huzur o'rmini yana bezovtalik egalladi. Ha, oldida nigoron boqqan nigohni endi tanidi... Rost, bunday boqishni faqat undagina ko'rgandi. U qurgan minora ham xuddi o'ziga o'xshab mo'ltirab turardi. Endi u cho'zinchoq yuzni ham, kelishgan qirra burunni ham, do'rdoq labni ham tanidi. Ha, u — minorani qurgan yosh me'mor! Tashqaridan, hatto pashsha uchib kirolmaydigan xon saroyiga qanday kirdi ekan, a?... Behisob soqchilar va mulozimlar nahotki ko'rmagan bo'lsa? Malika tunov kungi voqeadan keyin me'morning shashti pasaygan bo'lsa kerak deb o'ylagandi. Yo'q, unday bo'lmabdi. Cho'ri qizni bekorga jo'natgan ekan. Uning butun umidlarini so'ndirib, umuman o'y-lamaydigandek boshqa amal topmagan ekan-da. Mana, endi saroyga kiribdi. Hozir enaga kampir kirib qolsa nima qiladi?... Faqat o'z umriga zomin bo'lmadan mening ham obro'yimni to'kmoqchimi?

Malika shilqim yigitga bir nima bir nima deb baqirmoqchi, uni haydab chiqmoqchi bo'ldi, lekin bo'g'zida bir narsa turib qolgan-

dek ovozi chiqmadi. Me'mor uning yuzidan qahr alomatini ko'rib, qo'rtib qolgan go'dakdek ko'zlarini katta-katta ochdi, turgan yeridan chekinib, eshik tomon yo'l oldi. Malikaning unga rahmi keldi. Eshikka yaqinlashganda: "Ketma, kel", — deb imladi.

Chaqirilmagan mehmon uning qaysi buyrug'iga itoat etishni bilmasdan eshik oldida turib qoldi. Malika qo'lini cho'zib yana chaqirdi. U ikkilangancha jur'atsiz odimlar bilan qayta yaqinlasha boshladi. Malika uning qachon kelishini kutib betoqat bo'ldi. Yigit ohista qadamlar bilan uning yoniga keldi. Malika uning hayratga to'la nigohidan ko'z uzmasdi. Yigit tobora yaqinlashaverdi. Mana, unga yetdi. To'shagiga qo'l tekkizdi. Bir-biridan uyalgandek ikkisi ham yerga qaradi. Birdan malikaning dilida qo'rqinch tug'ildi. Ayni hozir, ayni shu damni o'tkazib yuborsa, oldida turgan ma'sum nigohdan, jur'atsiz navqiron yigitdan butunlay ayrilib qoladigandek tuyuldi. U ham hadik ila qo'l cho'zdi.

Bag'ri olov quchgandek otashda yondi. U to'shagiga hadik ila ingan yosh yigitning bo'yini chirmab oldi. Uning boyadan beri intizor kutgan issiq niyati boshqa hech kim va hech nima emas, bag'rida erib borayotgan mana shu navqiron yigit edi... Endi uni quchog'idan hech qachon chiqarmaydi, endi ularni hech kim ajratolmaydi.

Malika quchog'idagi o'zga badanni temir halqadek qisa boshladi, o'zi ham kichrayib uning bag'riga kirib borardi. Ikkinining jismidagi qon qo'shilib, birga oqayotgandek edi, ikki tana bir tanaga, hozirgina bir-biriga unsiz termilgan ikki kishi bir kishiga aylanib ketgandek edi. Ikkisi ham avvalgi kunlarga taloq berib, o'sha kunlarni unutishni xohlardi go'yo.

Malika butun jismini egallab olgan, ilgari boshidan kechirmagan shiddatli xushtorlikning hukmiga butunlay taslim bo'ldi. Uning temirdek qotgan bilaklari bag'ridagi yigitning navqiron jismini butunlay un qilib maydalayotgandek qisaverdi, qisaverdi... Bunday lahza juda uzoq, to'shagiga nafasigacha davom etsa...

Malika kuchli zarba yegandek madori qurib, uzoq yotdi. Hozirgina o'tdek yongan ko'kragi g'alati sovuqqa to'ldi. Ko'zi ochildi. Xobxona nafis shu'laga to'la. Ko'zini ishqladi, yonida hech kim yo'q... Faqat uzoqda zarhal eshik yaltirab ko'rinadi.

Malika bir narsadan bezovtalanib deraza tomonga, o'rtidagi hovuz atrofiga, burchak-burchaklarga razm soldi. Hech kim ko'rinmadi.

U ko'kragi ustidagi rosa siqilib yumaloq bo'lib qolgan yumshoq ko'rpani ko'rib hammasini angladi. O'ziga ishonmandan uzoq yotdi, birdan xuddi ustida o'rimalab kelayotgan homi ko'rgandek jahl ila ko'rpani oyog'i bilan uloqtirib yubordi.

A'zoyi badanini temir halqadek siqa boshlagan achchiq alam oxiri ko'zidan yosh bo'lib otildi. Ko'zlardan yumalab tushgan tomchilardan ko'kraklar jiqqa ho'l bo'ldi. Lekin ko'zini artmadi. Qaynoq tomchilar nechog'lik ko'proq chiqqani sayin qalbini yondirayotgan olov pasaygandek bo'ldi. Lekin boshi sim-sim og'riy boshladi. Ko'kragi jizillab achidi. Uning yuragi yig'lardi. Zahar ko'kragini kuydirardi...

U bedor holda tongni qarshi oldi. Necha kundan buyon, hatto necha yildan buyon o'ziga tinchlik bermayotgan jumboqning javobini shu damda topdi. Baxtsizligini shu kuni tan oldi. Baxti ochilmaganligiga, hayoti mana shunday behuda o'tishiga kutilmagan bir tushdan keyingina iqror bo'ldi.

Ertalab tong yorishmasdan og'ir eshikni lang ochib, enaga kampir ko'rindi. Uning izidan sho'x-shodon kanizaklar ko'rindi. Ular chopib kelib, malikani o'rab olishdi. Malika ularning bunchalik quvnoq hollaridan, kanizaklar esa uning qabrdan chiqqandek siniq yuziga, aftoda holiga, juft nigohni egallagan behad baxtsizlikka, atrofdagilarda achinish hissini uyg'otadigan ko'rinishidan lol-u hayron edi. Enaga imlab qizlarni xonadan chiqarib yubordi, oldidagi bechora juvonni bag'riga bosib, sochidan siladi.

— Malikam, shohanshoh nima dedikim, rangingiz bir hol bo'libdur? Ul kechasi sizning xosxonangizdin darhol chiqib ketdi... Ne hodisa yuz bermish?

Malika kampirning yuziga sarosima ila boqdi.

— Shohanshoh dedingizmu?.. Ular bu yerga kirmishmi?

— Ha... Kechasi kelgan edi...

Bu xabarni eshitib malika qulab tushdi. Shoshilib qolgan kampir malikaning oppoq yuziga tikilib, uning hushidan ketganini fahmladi...

Malika choshgohdagina hushiga keldi. Yonida o'tirgan enadan endi hech narsa so'ramadi. U ham malikaga gapirishga jur'at etmasdan, yuziga qarab-qarab qo'ydi.

Ha, u jufti halolining oldida, shohanshoh oldida bir mar-tagina gunoh ish qilibdi. Bunda ham o'ngida emas, tushida. Lekin mana shu qilmishi hukmdorning ziyarak nigohidan ya-shirinolmadi. U o'z ko'zi bilan ko'rdi. Uning oldidan tez chiqib ketganining boisi: malikaning tushida shaytoniy ish bilan band ekanining guvohi bo'lgan, jahli chiqqani esa tushida o'zga erkakning quchog'ida ishqiy sarguzasht bilan ovora ekanini tushunganidadir...

Malikaning ko'kragidagi zildek hasrat yanada og'irlashdi. Lekin hech kimga dardini dasturxon qilmadi. Yuragini ezgan jaro-hatni hech kim sezmasin deb, hatto oh urmadi.

Rang ko'r, hol so'r, lekin malikaga bu dunyoning, bu hayotning qizig'i qolmagandek tuyulaverdi. Dorga ossa ham, boshini chopsa ham, baribir, u o'z gunohiga, o'z qilmishiga iqror. Ha, ulug' shohanshohning oldida faqat o'zi gunohkor. Yosh ustaning zarracha ham yozug'i yo'q. O'lib-o'chib oshiq bo'lsa ham, uning yoniga bir qadam yaqinlashmadi. Malika tushida o'zganing og'ushiga o'z ixtiyori bilan kirdi. Hamma ayb, barcha gunoh o'zida... Bordi-yu haligi voqea o'ngida bo'lganida u nima qilishini o'zi ham bilmasdi. Lekin ilgardan hushini olguvchi, xayolini o'g'irlaguvchi qaynoq muhabbatning nima ekanini endi bildi. Shohanshohga o'lgudek oshiqman deb yurgani shunchaki erkakni istagan hirs ekanini ham angladi. Bordi-yu usta imkonini topib saroyga, uning xobxonasiga kirgudek bo'lsa, yuz berishi ehtimoli bor. O'ngida ham yigitning ehtirosli hislariga dosh berolmasdan nafsining aytganiga ko'nar, axir moda modaligini qiladi-ku. Tushida yenggan azozil o'ngida yengolmaydimi?.. Endi yor oldidagi, halol nikoh oldidagi, oltin boshli toj sohibining obro'si oldidagi qilmishi uchun beriladigan har qanday jazoga hozir.

Agar hozir shohanshoh kirsas, uning sochini bittalab yulsa, qo'ydek kaltaklasa, terisidan tasma olsa, oyog'i bilan tepki-lab-toptab tashlasa, suyaklarining hammasini undek maydalab,

o' 'laksaxo'rlarning o'rtasiga sochib yuborsa ham rozi. Bu aronatda gi hayotdan afzalroq; lekin Xudoyim, loaqal, unga eridan katta lanish baxtini ham ravo ko'rmabdi. Dunyoda u kabi tirik avloh, baxtsiz kimsa bormikan? Bularni o'ylab o'z yuzini timdalashni, sochini yulishni, hech narsa bilmagandek baqrayib turgan tosh devorga boshini urib, chilparchin qilishni istaydi.

Kimsasiz xonada yolg'iz holda o'tayotgan jimjit kunlar va osuda kechalarda madorsiz jismining bir yeriga yashirib olib, o'z ixtiyori bilan chiqib ketmayotgan jonning ko'ziga qanday qilib suv quyish mumkinligi haqida behisob reja tuzadi, uni amalga oshirishga kuchining yetishi aniq, lekin unday qillol maydi.

Bu shirin jondan kechishni istamaganlikdan paydo bo'ladigan qo'rqoqlik emas. U gunohkor jismidan nechog'lik jirkansa, mazkur hayotdan shunchalik bezib ketgandi. U o'sha tushining hayotiga, baxtga so'nggi intilishi, so'nggi ixlosi ekanligiga obdan amin bo'lgandi. Bunday tush ko'rganiga endi avvalgidek afsuslanmasdi, uyalmasdi, lekin o'sha kunni, o'sha damni qaytarib berishni tilash qanday be'manilik, kufrlik bo'lsa, bunday tilak, bunday ixlossiz hayot kechirish ham shunday be'manilik, kufrlik bo'lib ko'rinardi. Shuning uchun unga endi qolgan hayot bir tiyinga qimmat edi. Agar ulug' hukmdor hukm chiqarib, uni jazoga loyiq desa, bunga g'ing demasdan rozi bo'lardi. Lekin o'z joniga qasd qilmoqqa haqqi yo'q. Uning bu harakati xaloyiqning qanday mulohaza qilishini, shohanshohning obro'siga nechog'lik putur yetkazishni aniq bilmasa ham, taxmin qila oladi. Shuning uchun nikohdagi yoriga xiyonat qilishni istamasdi.

Hukmdordan hamon xabar yo'q edi. U ertalabdan kechgacha eshikdan ko'z uzmasdi. Eshikdan sado chiqmadi. Mana bu hayotdek katta xona unga lahaddan ham tor ko'rinib ketdi. Chopib borib uni yorug' dunyodan ajratib turgan, xonani zindonga aylantirgan og'ir eshikni bolta bilan chopib tashlashni istardi. Ana shunda sinib yotgan eshik bilan birga uning ko'kragini siqib, yuragini ezib, holdan toydirayotgan, a'zoyi badanini zirqiratib, bezgakdek qaltiratayotgan achchiq g'amni ham uloqtirib tashlardi.

Bir kuni enaga kampir chaqirdi. Kanizaklarini ergashtirib tashqariga chiqdi. Yo'lda uchrab qolgan mulozimlar ham, saroy atrofidagi soqchilar ham unga avvalgidek egilib-bukilib ta'zim qiladi. Lekin ko'rinishlaridan ular malikaga achinib qarayotgandek tuyulardi, malika ham ularga tik qarashga jur'at etmadi. Orqalari-dan kimdir tilini chiqarib masxara qilayotgandek, hatto yonidagi kanizaklar ham uning ustidan kulayotgandek o'zini noqulay his qildi. U hukmdor yurishdagi paytlarda vaqtichog'lik qiladigan hovuzga, yam-yashil maydonga burilmasdan, o'zi ko'p boravermaydigan ovloq burchaklarga yo'l oldi. Lekin bu yerlarda ham ko'p yura olmadi. Bog'dagi havo ham unga ninadek qadalib turgandek tuyulaverdi. Yana saroyga shoshildi. Endi unga bu yorug' dunyodan buyurgani — yutib yuboraman deb turgan hayhotdek xona va bog'ning bir qismini ko'rsatib turgan kichkina derazagina. O'ylab o'ylab o'ylaydigan o'y qolmadi.

Saqichdek cho'zilgan uzoq kun tugamaydi. To'xtamay ag'anab chiqadigan xavotirli tunlar har tomonga alanglab o'tkazadigan kundan ham yomon. O'zingni o'zingga Munkar-Nakir qilib, o'zingni o'zingga tergov qildirgan jallod tunlarda kunduzi batafsil o'ylashga jur'ati yetmaydigan ba'zi holatlarni to'xtatib o'ylamaguncha mijja qoqmaydi. Hozir faqat o'zini emas, o'zi ham bilmagan holda bor o'g'irligini butun dunyoga oshkor qilgan oqko'ngil yigitni ham, unga duchor qilgan manavi zangori minorani ham, shunday minor qurdirishga niyat tug'dirgan hukmdordan hadya-tortiq kelgan kunni ham, o'sha fikrini yerdan yetti quyon topgandek quvonib qo'llab-quvvatlagan enaga va qizlarni ham, buning bariga turtki bo'lgan baxt-parast ulug' malikani ham — atrofidagining hammasini yomon ko'rib qoldi. Hatto bunday la'nati dunyoga keltirgan otasi va onasidan ham ko'ngli qolgan.

Anavi derazadan alvastidek qarab turgan qop-qora tunga ham, kecha-yu kunduz shivir-shivir qilib shildirab turgan kichkina hovuzga ham, yonboshini bo'g'ma ilondek chaqayotgan to'shakka ham, tunov kuni jismini egallab, qalbining eng chuquriga yashirgan xufiya istaklarini oshkor qilgan manavi ko'rpaga ham la'natlar bo'lsin... Shuncha do'zaxning barini ko'rib, barini

bilib, tepasidan tushib ketmayotgan ko'kka ham la'nat... Buning hammasiga chidab, ko'tarib kelayotgan ko'hna zamanga ham la'nat; shuncha shumlikni ichiga yashirib, necha-necha navnhol ko'ngilning peshanasini toshga teggizgan xo'mraygan jallod dunyoga la'nat...

Chilparchin bo'lgan ko'ngil obdan alamga to'lib, yorug'dunyoni kuyib-pishib qarq'aganda, faqat bir kishi haqida hech narsa demaydi. U — buyuk hukmdor.

Malika ba'zan o'zining atvoriga o'zi hayron qoladi. Darhaqiqat, uning hayotini do'zaxga aylantirgan, eng avvalo, uning o'zi emasmi... Mana, saroydan chiqolmay o'tirganiga ancha kun bo'ldi. U buni bilmaydimi?.. Endi uning gunohkor ko'zini nega yo'q qilmaydi? Yoki o'zi bergan azobni kam hisoblab, uning jonini o'kinch va alamga, g'iybat va hasratga talatmoqchimi? Alamini shu yo'l bilan olmoqchidir, balki! Lekin uning shuncha azob chekkanidan hukmdorning boshidan shox o'sarmidi, uning jonini tiramayotgan mish-mishlar o'zining jonini tiramasmi? Mayli, o'ziga yaxshi bo'lsa azoblasin, hech qachon eshitmagan gaplarni eshitib osin... O'ziga ham shu kerak. Uning yosh umrini xazon qilib, afsus va nadomatga to'ldirayotgan o'zi-ku... O'z uvoli o'ziga...

Malika bunday noxush fikrlaridan o'zi cho'chib ketdi. Nima deb ketdim o'zi? Yana o'sha zaifaligimga bordimmi, shohanshohga til teggizganim nimasi?

Oltin tojli malika emas, doim xizmatda bo'ladigan cho'riga o'xshab nima deb alahlayapti?

Malika dahshatga tushdi. O'zini avvalgidan battar yomon ko'rib ketdi. Darrov kalima aytib, Haq Taolaga iltijo qildi: "Boshqa gunohimni kechirmasang ham, ulug' hukmdor haqida nojo'ya xayolga borganim uchun kechirgin!"

U Xudodan, aljiramasdan aqli raso paytida, asl suvayimni azozil xayollar toptamasdan Yaratgan eganing odil imtihoni oldiga, gunohim o'tiga o'zim o'rtanadigan kunga tezroq yetkazgin, deb chin dildan tilak tiladi. Shunday halol tilak ko'kragiga sim-sim yetgan sayin ikki ko'zidan jimirlab chiqqan issiq shaffof tomchilar tezlasha boshladi.

INTIHO

I

Daryoga yetgach, u aravadan tushdi va otga mindi. Aravalar solga yuklanayotganida mulozimlari bilan kechuvga yo'l oldi. Avji saraton edi. Tog'dan keladigan shiddatli oqim ko'klamdagidek o'zanidan oshib-toshmaydi, yuvoshgina shildiraydi. Shu sababli tiniq edi.

Kechuv jarlik tugab birdan nishablik boshlangan daryoning qizning kokillaridek taram-taram bo'lib, bir necha ingichka o'zanlarga bo'lingan sayozroq yerida edi. Bu yerdan ilgilarlari mag'rib va mashriq o'rtasida tinim bilmaydigan karvonlar bo'lmasa bugungidek ko'p lashkar o'tmagan. Shu boisdan sohiling ikki tomonida savdo karvonlari, yaqin atrofdagi qishloqlardan qovun-tarvuz, uzum, meva-cheva ortgan aravalar, ot, eshak mingan, ho'kiz yetaklagan bozorchilar to'planib qoldi.

Lashkarga yo'l ochib turgan qurolli soqchilardan hayiqqan xaloyiq safning oldidagi ko'k nayzali ko'p mulozimning o'rtasida faqat peshanasidagina qop-qora belgisi bor oppoq otga mingan ulug' hukmdorga qiziqib qarab turishadi.

Hukmdor har tomondan tikilgan nigohlarga parvo qilmaydi, ro'parada cho'zilib yotgan bepoyon sarhadlarga tikilgancha mag'rur o'tiradi. Kumush egarqosh va po'lat uzangi quyosh nurida yarqirab hukmdorning salobatli va jiddiy yuzini yanada bo'rttirib ko'rsatadi.

Qorli cho'qqilarning eng uchidan boshlangan shiddatini butkul yo'qotmagan daryo jimir-jimir to'lqinga to'la. Keng o'zan ot tuyog'i tegganda bir lahza kulgisidan ayrilib shovullay boshlaydi.

Hukmdor bularga e'tibor qilmaydi, holatini o'zgartirmaydi. Tog'ning sovuq suvidan oyog'ini ehtiyotlab bosayotgan oq-bo'zning jilovini bo'shatdi. Mayda-mayda o'zanchalardan sir boy bermasdan kelayotgan jonivor eng oxirgi katta o'zanga kelganda qoqilib ketdi. Beparvo o'tirgan ulug' hukmdorning mag'rur boshi birdan chayqaldi, qamchi ushlagan qo'ldagi ko'rsatkich bar-

mog'idan bir nima tushib ketgandek bo'ldi. Yuragi "shuv" otdi. Darhol qo'lga qaradi: ko'rsatkich barmog'idagi bir zamonlar da qaynotasi vafoti oldida uni o'z o'rniga amir etib tayinlanganida bergan, targ'il mushukko'z tosh qo'ndirilgan kumush uzuk yo'q edi.

...U eshikdan tortinib kirdi va ta'zim qildi. Hukmdorning huzuriga kirgan har bir kishi kabi uning yuzida ham sarosima bor edi. Lekin zalvorli ishini do'ndirdim-ku, deb oyog'ini kerib kekaymasdan, qanday yozug'im bor deb egilib-bukilmasdan, shijoatli yosh yigitga xos yarashgan chiroyli ibo bilan oldiga kelib cho'kkalab o'tirdi. Keyin boshini ko'tardi.

O'sha muloyim yigitning xatti-harakati, bir ko'rgandan o'ziga maftun eta oladigan izzati hukmdorning yuragini muzdek kesib o'tdi. Ro'parasida o'tirgan yigitning inson yuragini osongina zabt etadigan sehri borligini birdan angladi. Lekin u o'rnidan turib ketguncha aynan qanday jodu ekanligini bilolmadi. Yigit o'zining nega chaqirilganini aytmasdanoq tushunganday holatda edi. Lekin qasam ichib o'zini oqlamadi, yalinib-yolvormadi, boshga tushganini ko'z ko'radi, degandek yerga tikilib o'tiraverdi.

Hukmdor uning yuzidan ko'zini uzmad, unsiz uzoq tergadi. Yigit ham holatini o'zgartirmadi. Hukmdor pichadan keyin poygakda cho'kkalab o'tirgan bosh me'morga imladi. Yigit bosh me'mor yoniga kelib yelkasiidan ushlagandagina boshini ko'tardi. Hukmdor ana shunda uning keng peshanasining tagida atrofga mayin nur sochib turgan katta-katta ko'zlarni ko'rdi. Behisob yulduzlar jimirlagan saraton osmonidek behisob hislarning shu'lasini to'liq jamlagan o'sha nigoh uning yuragidan joy oldi. Bunda "nahohti, meni omon-esson yuboryapsiz", degan hayrat, bir lahzada zohir bo'lgan quvonch, cheksiz rozilik, o'z gunohini yashirmasdan to'la iqror bo'lgan, vijdonan sir yashirmas pokiza halollik, soxta muloyimlikni bilmaydigan samimiyat, hatto buning hammasi o'ngimmi, tushimmi deguvchi xiyol vahima — hamma-hammasi mujassam edi. Yigit nigohidan ravshan ko'rinib turgan ushbu tuyg'ular hukmdorning hamma gumonlarini tasdiqlardi. Boyvuchacha qizil olma yuborib imo-ishora bilan bildirgan, uning safardalik chog'ida sodir bo'lgan voqealarning haqiqat ekaniga batamom

ishonch hosil qildi. Shu boisdan yirik-yirik juft nigoh anchagacha uning yuragini qip-qizil cho'g'dek kuydirdi.

Hukmdor oldida o'tirgan yosh yigitning og'ir eshikdan chiqqach, endi yana yorug'dunyoga chiqqasligini, uning borar manzili zindon ekanligini bilardi. Tobora o'ziga mahliyo etayotgan ma'sumona ikki nigoh unda shafqat uyg'otolmadi. Yuragiga saksovuidek qadalgan cho'g'avvalgidan ham battar achitar edi.

Albatta, insonni bir ko'rishdayoq o'ziga maftun eta oladigan ko'z mana shunday bo'lur. Javdiragan nigohlar avval ko'nglingda qolgan mana shunday bo'lur. Javdiragan nigohlar avval ko'nglingda achinish uyg'otadi, yuragingni eritib yuboradi. Irodasiz erlarining boshini yeb, irodasiz ayollarning nomusini poymol qilib ado qiladigan har qanday qaro baloning ibtidosi mana shunday hislardan boshlanadi-ku. Erituvchi hislar ham bir, irodasiz ishlar ham bir — ikkisi ham obro'yingni yer bilan yakson qitir. Odamzod amal qilguvchi qonun va tartiblardan bo'ysunmagan manavi beboshlik ham shundan paydo bo'lgandir. U shariatda ko'p marta tilga olingan iblis va azozilning qayerda bo'lishini aniq-tiniq bilmaydi. Lekin unga ushbu mash'um baloning makoni kishining ko'nglidadir, degan fikr ma'qulday edi.

Ko'ngilga ko'z va so'zdan ortiq ta'sir etadigan nima bor?! Bu haqida o'ylaganida hukmdor o'zidan o'zi vazminlashdi-qoldi. Ancha vaqtgacha yigit chiqib ketgan eshikdan ko'zini uzolmasdan o'tirdi. O'zi chiqib ketgan bo'lsa-da, nur taralgan ikki ko'zini shu yerga tashlab ketgandek edi. Endi, mana, o'sha ko'zlar ko'zga ko'rinmasdan, ostonada turib, u nima qilar ekan, deb har bir harakatini diqqat bilan kuzatib turganga o'xshardi.

U atrofiga alangladi, hech nima ko'rinnadi. Javdirab qaragan ma'sum nigohlar g'oyib bo'lgan eshikka ters qarashga botinolmadi, orqasiga chekinib-chekinib, shildir-shildir suv otayotgan favvora — hovuz yoniga borib o'tirdi. Ko'ksiga temir tikandek qadalib qolgan ma'sum nigohlardan qanday qutulishni bilmadi. Yelimdek yopishib olgan narsalar endi abadulabad uni ta'qib qiladigandek tuyuldi. Ulardan qanday xalos bo'lish mumkin?.. Ehtimol, malika ham ustani dastlab ko'rganida mana shunday holda bo'lgandir. U ham izma-iz ta'qib qilgan makkor ko'zdan ozod bo'lishni bilolmasdan iztirob chekkandir. Lekin zaifa bechora "oh" urganda nima

qila olardi? Aniq bir tadbir qilolmasligi ma'lum. Zaifa faqat bir narsa bilangina, er kishi boshini berib qutuladigan joyda ayol no musini berib qutilar...

Mayli... Endi nima qilmoq lozim? G'animlarga beshafqat qaharli podshoh bu holatda ne tadbir qo'llamog'i maqbul?

Hukmdorning jilovidan ayrilib, biydek sahroda sargardon ko'rgan xayol tulpori birdan to'xtadi. Yuzi qahrli tus oldi. Albatta, yo'q qiladi. O'zganing bog'iga ko'z tikkan och ko'zga qum to'ldiradi.

Hukmdorning ko'ngli bunday xulosaga rozi emasdi. Oldingda javdirab turgan ma'sum nigohlarga qanday qilib qilich ko'tarasan? Uni hayqirib kelgan qadimiy yovlarga qiyos qildingmi? Albatta, senga nafrat ila yongan g'animni yo'q qilmoq eng maqbul ishdir. Chunki seni yeb qo'ygudek qaragan qasoskor nigohlar seni ham qoningga qoraytirib, asab tolalaringni suv teggan ingichka chilvirdek tarang qilishi aniq-ku! Ana shunda lunjingga qum to'ldirib qo'ygandek tishingni g'ijirlatib, a'zoyi badaningdagi o'jar qon birdan yuzingga sapchib jimirlatmasmi? U faqat o'zganing qoni suvdek oqqandagina o'z o'rniga tushadi. Bunday holda g'animingning bo'g'zidan sharillab oqqan qora qon yuragingni Qof tog'idek egallab olgan bo'g'iq hisni birdan tarqatib, ko'zing moshdek ochiladi. Egilgan boshga qiliching tegsa, bobongning oppoq soqolidan ham mo'tabar oq olmos bilan qo'tir eshakning dumini kesgandek sharmandalik emasmi? Bunday faqir kimsaning to'kilgan qonini ko'rganda bilmasdan qurbaqani bosib olgandek holga tushmaydimi? Me'morning ko'zida zarracha dushmanlik namoyon bo'lsa boshqa gap edi. Bu hol hukmdorni o'ylantirardi.

Ne-ne sinovli damlarning, taqdirning mashaqqatli ko'chalardan yurib kelayotgan hukmdor bunday holga duch kelmagandi. Qalbi qahrning ham, aqlning ham erkiga ko'nmasdan lol-u hayron. Ko'p o'ylandi, lekin bir qarorga azm qilolmadi. Sarson xayol qaysi tomonga yon bosmoqchi bo'lsa, yana boshqa savollarga duch kelaverdi. U xuddi shunday javdiragan nigohni yana kimdadir ko'rganday edi. Lekin qachon va qayerda ko'rgandi? U ham xuddi shunday mo'tirab qarardi. Kim edi u?.. U ham xuddi mana shunday arazlagan yosh bolaning ko'zidek butun jismingni ezib yuboradigan yozuqsiz nigoh edi...

"Yozuqsiz nigoh"... Hukmdorning ziyrak ko'ngli endi-endi yo'lini topib, saralana boshlagan fikrida bu so'zga qoqilib, yana to'xtab qoldi. "Nega yozuqsiz nigoh?.. Halol to'shagingga ko'z tiksa... bundan ortiq bobongning boshini kesishi kerakmidi? Jufti halolingning etagiga ko'z tashlagan kimsa eshigingga nayza ko'tarib kelgandan kammi? Oltin tojli boshini hisobga olmasa ham, har qanday g'ururi bor erkakka bundan ortiq haqorat, bundan ortiq sharmandalik bormi? Bo'lar ish bo'lgach, tavba-tazarruga ne hojat? Har qanday belida belbog'i, boshida tumog'i bor kishining kechirmasligini bilib turib, u qanday qilib kechiradi?! Er kishi uchun ona yurtning osoyishtaligi, ajdodlar arvohi, halol nikohning mustahkamligidan ortiq nima bor?

Hukmdor o'z-o'zidan qahrlanib o'rnidan turdi. Boyagi mu'loyim nigoh endi ro'para bo'lsa, o'z qo'li bilan o'yib olardi. U vazmin qadamlar bilan deraza tomon yo'l oldi. Yaqinlashgach, birdan to'xtadi. Hozirgina "Endi ko'rib qolsam o'yib olaman" deb tish qayragan nigohi yana ro'para bo'ldi. Bog'ning tepasidan ko'ringan zangori minoraga unga e'tibor bermagandek mo'tirab qaraydi. Esiga tushirolmayotgan ma'sum qarashni u avval shu minorada ko'rgan ekan-ku! Hukmdor jimgina yolvorayotgan minoraning bunday sehriga ilk ko'rganidayoq e'tibor bergandi. Lekin uning siriga tushunmagan edi. Eh, hamma gap mana shunda ekan-da! Bu minoraga malikaning derazasidan ham uzzukun mana shunday nigoron boqib turadi-ku! Malika ham dastlab hayratlangandir. U minoraning sirini keyin tushungandir. Usta minorada ko'ngil izhorini ifodalagan ekan-da. Til ila oshkor etmog'i o'jiz bo'lgach, minoraga vositasida bildiribdi-ya. Kecha-yu kunduz derazadan termilib turgan saqov minoradan malika maqsadimni o'zi tushunib olar, deb o'ylagandir. Muloyim yigit, yaxshilab o'ylab qarasa, yer tagidagini o'ylaydigan chuvalchangning o'zi bo'ldi-yu.

Darhaqiqat, erkakning badbaxtligi so'zida, ayolning badbaxtligi ko'zida emasmi? Er yigit aytganimga yetaman deb intilsa, ayol ko'rganimga ega bo'laman deb o'vara bo'ladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz yigitni falokat keltiruvchi mash'um so'zdan, xotin-qizlarni begona ko'zdan pana qilgan-ku. Ajdodlarimizning zaifaning ko'zini halol nikohli juftining quchoq'idan topil-

guvchi to'shakdan boshqa yerning hammasini qora tunde k qora parda bilan to'sib qo'yishgani bejiz emas. Ularning ko'zini ochib qo'ygandan ko'ra, etagini batamom sochib qo'rgan ma'qulroq. Ayol zoti nimani ko'rsa shunga maftun bo'ladi-qoladi. Yoqtirib bas, maqsad sari dadil qadam tashlayveradi.

Hukmdorga hammasi tushunarli bo'ldi. Dastlab malika kulim-siragan nafis minoraga lol-u hayron boqqan. Keyin inson tafakkurini hayratga solgan minorada ustasini bir ko'rmoqqa niyat qilgan. Keldi, ko'rdi, yosh yigitning suluvi nigohiga maftun bo'lgan...

Nahotki, obro'si, toji va taxti, ota-onaning fohitasi, begonalarining so'zi va ko'zi uni buzuq yo'ldan to'xtatolmagan? Yetti iqlimni titratgan haybati ham bu yo'ldan qaytarolmagan bo'lsa? Bularning hammasi ochko'z nafs va adashgan ko'ngilni butkul to'sib turadigan o'tning dumidan o'rilgan ingichka pardaning o'rnini bosolmabdi-da. Ma'qul, shayton yo'ldan urgan zaifaning ishqiboz nafsiga ishonmaylik, lekin xon saroyiga tashqaridan begona yigit u yoqda tursin, hatto pashshaning kirishiga yo'l bermaydigan soqchilar nima qilgan? Malikaning izidan bir qadam jilmaydigan mulozimlari va uni doim nazorat qiluvchi enaga qayda bo'lgan?

Hukmdor bu kecha ham uxlamadi. Tongni sabrsizlik bilan kutdi. Enaga kampir bilan gaplashmoqqa ahd qildi. Ko'ngilni sichqondek kemirayotgan shubhalarning hammasiga faqat enaga kampirgina javob topib beradi.

Tong otishi bilan unga kishi jo'natdi. Enaga o'sha-o'sha holatda. Suvda suzib kelayotgandek uzun ko'ylagining etagi hilpirab keladi. Yoniga yetib kelguncha hukmdorning toqati toq bo'ldi. Halol to'shagining ziyrak soqchisi o'z ishini do'ndirib qo'ygandek kekkayib qadam bosadi. Uyqusiragan ko'zlarida uyalish-tortinishdan nishon yo'q. Hukmdor achchiqlana boshladi. Dastlab shu mal'anni yo'q qilmoq darkor. Jahonni suv bossa ham to'pig'iga kelmaydi. Buyuk hukmdorning tojsiz boradigan yerida xizmat qilganidan shunchalik bemalolmi, hatto shoshilishni xayoliga keltirmaydi. Avvalgilari mayli, bugungi kekkayganiga yo'l bo'lsin. U o'zi yo'q bo'lgan chog'ida nima voqea yuz berganidan hali be-xabar deb o'ylaydi, shekilli.

Nihoyat, enaga yoniga keldi, egilib ta'zim qildi. Keyin hech narsa bilmagandek, xiyol boshini ko'tarib qaradi.

Hukmdor hech narsa bo'lmagandek loqayd qarab turgan kam-pirga dabdurustdan nima deyishni bilmay qoldi. Lekin saroyda ish haqida so'rab, dangal gaplashadigan ikki kishi bor. Ular — xazinabon va enaga. Bu safar ham butun jismiga hokim bo'lgan jahlni arang bosib, vazmin ovozda gap boshladi. Suhbat asnosida dadil boquvchi ko'zini kampirning yuzidan uzmad. Enaga kampir uni avvalgi odati bo'yicha beparvo tingladi. Sal vaqt o'tgach, buni rosti bilan aytayptimi yoki hukmdorning o'ziga tobelar bilan o'ynaydigan "mushuk-sichqon"ning biri bo'lyaptimi degandek, siyrak kiprigining tagiga yashiringan ola ko'zini tiriltirib, uning yuziga bir qarab qo'ydi. Hukmdordan hayiqdimi yoki gapning yo'nalishini tushunib qoldimi, ola ko'zini yana kipriklarining tagiga ko'mib qo'ydi. Jimgina gap tinglashda davom etdi. Bir payt o'toq burnining tagidagi to'rt-besh tuk birdan dikkaydi. Picha vaqt shunday dikkayib turdi-da, keyin yana pasaydi. Qonsiz oppoq labiga kulgi yugurdi. Uning kulimsiraganini ko'rib hukmdor shartta to'xtadi. Kampir shohning nega jim qolganini anglab, lunjini yig'ishtirdi. Egilib yana ta'zim qildi. Lekin hukmdor so'zni uning o'zidan kutib, jimgina qarab qoldi.

Enaga gap boshladi. Hukmdorning so'zlaridan keyin ham u avvalgicha o'ziga ishongan holda gapirardi. Ovozida titroq yo'q. Shoshilmasdi. Uning vazmin ovozi, sabrli yuzi, dadil qarashlari hukmdorning o'zini pastga tushirayotgandek edi. Hukmdor sir boy bermasdan tinglab o'tiraverdi. Alag'da ko'ngilni ko'pni tergab, tinglab o'rganib qolgan sustli yuzining panasiga yashirib, enaga kampiridan ko'zini uzmad.

Kampir so'zini tugatgach, "boraver", deb imo qildi. U yana bir egilib ta'zim qildi va qanday kirgan bo'lsa, shu holatda chiqib ketdi.

Hukmdor kampir aytgan hikoyaning, aqlga sig'mas murakkab bir narsa eshitgandek, boshi va oxirini topolmasdan sukutda qoldi. Shunda kecha ustaning quchdim degani malika emas, boshqa birov bo'ldi-da. Hukmdorning qosh-qovog'idan qo'rqib qolgan quyon yuraklarning topgan amallarini qara-ya! Haddidan oshgan

yigitning boshini kesadigan vaqtda sog' boshlariga savdo tilab olganlari nimasi? Alhazar, haligi kimsaning ishtahasini qara-yal! Shohanshohning halol to'shagiga ko'z olaytirgan ochofatga qanday jazo bersa ham gunoh bo'lmas. Darvoqe, u hozir niyatimga yetdim, malikaning xipcha belidan tutdim, deb yuribdi. Keecha bu yerga kelganda ham, kechirilmas gunoh sodir etganiga iqror ediku. Endi uning bu betizgin o'yini o'zi bilan birga yo'qotmoq zarur. O'zining o'rmini bilmasdan osmondagiga intilgan insofsiz ko'zi qum bilan to'lishi shart. Hukmdorning ichiga qotgan qonni o'sha gunohkor kimsaning tizillab oqqan qonigina yuva oladi. Uning harom niyati ila hukmdorning halol to'shagiga tushgan dog'ni ahmoq boshni yamlagan oq olmosning yuzidagi qongina ketkazadi. Faqat o'zgalar bilmaydigandek, hech quloq eshitmaydigandek imi-jimida amalga oshirsa bas. Lekin elning qulog'i ellik, uning eshitmasligi mumkinmi? Tezroq josuslarni bozorga jo'natib, avom xalqning nima deb yurganini bilgan ma'qul.

Hukmdor haddidan oshgan ustani jazolash g'amiga astoydil kirishdi. O'zi ham ancha bardam bo'lib qoldi. Ko'ngli turli xil shubha-yu gumonlardan xalos bo'ldi. Bular o'rmini o'tdek yonib turgan qasos egalladi.

U josuslarning bozordan ne mujda keltirishini betoqat kutdi. Bunday qiyin hollarda og'ziga ega bo'lmasdan turli xil mish-mish tarqatib yuradigan olomon unga nima qilish kerakligini o'zlari aytib berardi. Bu safar ham u usta yigit jazosini xalq og'zidagi mish-mishlar asosida chiqarishga ahd qildi.

Ustaning xon saroyiga chaqirilganini hali hech kim eshitmagan chog'i, bozorda oldi-qochdi gaplar yo'q edi. U endi josuslarni usta yashaydigan mahallaga jo'natdi. Aholining aytishicha, usta turgan uy xo'jayini: "Hukmdor ustani yana bir ajoyib masjid qurishga chaqiribdi", — deb yurganmish. Hukmdorning qulog'iga bunday odmi mish-mishlar yoqmadi. Besh-olti kun o'tgach, u josuslarini yana bozorga yuborishga ahd qildi. Endi xalq yosh ustaning shuncha vaqtdan beri saroydan qaytmaganligi haqida nima der ekan?

Yozning mag'rur xonimning yurishidek imillab o'tadigan kunlari yana ham cho'zilib ketgandek. Hukmdorning qulog'iga diqqat-

ni tortadigan xabar yetmadi. Katta malikaning saroyidan ham hech qanday darak yo'q. Hukmdorning xizmatkordan qizil olmani kim yubordi deb so'rganini eshitgach, endi nima qilarkan, nima bo'larkan, deb biror harakat kutishi, shubhasiz. Butun dunyo xuddi kelishib olgandek sassiz-sadosiz, allaqanday ko'zga ko'rinmas minglab sehrlı teshiklardan uning har bir qadamini zimdan kuzatib turganga o'xshardi. Hukmdor zindonga usta yigit emas, o'zi tushgandek, ertadan kechgacha qimirlamasdan o'tiraverdi. Bunday tagi xom ishini, avvalo, xalq tushunmasdan, bilmasdan turib amalga oshirsa, orqasidan necha-necha va qanday mish-mishlarning tarqalishini bilolmasdan boshi garang bo'ldi. Qo'l ostidagi xalqni doim hayratlantirishga o'rganib qolgani uchun o'zi haqida xalq orasida qanday gap-so'z tarqalishini bilmasdan turib hech narsa qilmasdi. Har doim arziyas narsani yongan qordek lovullatib olib qochadigan xaloyiqning og'zi bu safar nega yopilib qolganiga ko'p o'ylandi, tushunmadi. Hukmdor kuchli bo'lsa, bizning gap-so'zimizsiz mustaqil holda ishni tugatsin, deb va dalashgandek, hech kim churq etmasdi.

Hukmdor bunday g'ayritabiiy sokinlik haqida turli xil xayollarga bordi. Lekin hech biri mantiqqa to'g'ri kelmasdi. Chunki xalq orasida shaharga chiroy baxsh etgan zangori minorani qurgan yosh yigitning kutilmaganda izzsiz yo'qolib ketishi haqida gap-so'z bo'lmasligi mumkin emasdi. Bozorda betartib yurgan olomonning ko'z oldida turgan minora to'g'risida og'ziga to'lqon solgandek biror gap aytmasligi, albatta, bejiz bo'lmasa kerak. Yoki u yaqindagina bilgan noma'qulchilikni ular ilgariroq bilishgan edimi? Albatta, shunday! Xalq yangi minoraning ko'zga yaqqol tashlanuvchi kutilmagan sehri haqida allaqachon ko'p narsalarni aytib bo'lgandir. U tushunganda, yurt tushunmaydimi? Endi mana shu sharmandalik haqida biror kalima tishlaridan chiqsa boshi ketishini bilib, aytolmayotganiga pushaymon bo'lib yurgandir. Nahotki, minglab kishilar orasida o'z og'ziga ega bo'lolmasdan sayrab qo'yadigan bir vaysaqi topilmasa? Demak, shaharda hamma o'z og'ziga xo'jayin ekan-da! Uning qilichidan qon tomib, qat'iy tartib joriy etilganda ham, el og'zi xuddi shunday mustahkam qulf bilan qulflanishi mumkinmi, axir?!

Hukmdor xira pashshadek har tomondan yopirilgan so'roqlarning hech biriga jo'yali javob topolmadi. Atrofi batamom chivin va so'na qoplagan qora botqoqlikka aylanib ketgandek. Oyoq qo'ysang bas, og'zini ochib turgan botqoq girdobi tortib ketadigandek. Hukmdor eshik tomonga termilib uzoq o'tiradi.

Keng zarhal eshik haftalar davomida ochilmadi. Nihoyat, hukmdor necha kunlardan buyon zoriqib kutgan dam keldi. Keng eshik ohista ochilib, ostonada josus paydo bo'ldi. Uning ro'parasiga kelib to'xtadi. Egilib ta'zim qildi. Hukmdorga qaradi.

— Ne eshitding, neni bilding?

Josus uning yuziga yaltoqlanib qaradi va eshitganlarini bayon etdi. Bozordgi xalq hukmdor bunday minorani o'z poytaxtidan boshqa yerda qurilmasin deb ustaning ikki ko'zini o'yib olib, o'zini quvib yuboribdi, deb yurganmish. Hukmdor josusning yuziga uzoq tikilib qaradi va eshikni ko'rsatdi. Josus unsizgina chiqib ketdi.

Hukmdorning yelkasidagi tog' yiqildi, u o'rnidan irg'ib tirdi. G'uvullagan olomonning aytgan gaplari, rostdan ham, mantiqiydir. Goh shodon jilmayib, goh arazlagan boladek mung'ayib ko'rinadigan beqaror minoraning faqat bu yorug' dunyoda eng og'ir toj va eng baland taxt sohibi bo'lmish uning poytaxtidagina turishga munosib ekanligi haqiqat. Bunday go'zal minorani boshqa qal'alarda ham qurib, uning qadrini tushirmaslik kerak deguvchilarning gapida jon bor. Endi bunday minoralar qurilmasligi to'z. Bunday nodir ustaning taqdiri yigitga ham hamohang bo'lsin. Har qanday hukmdor bunday ustalarining o'zidan boshqaga xizmat qilishini istamaydi. Mayli, xaloyiq nima desa — shu. Chunki bunday minoralar haqida baribir afsonalar to'qiladi. Mana, unga munosib rivoyat ham topildi. Eshitguvchi quloqlar bunday mantiqiy mish-mishga e'tiroz bildirolmaydi.

Hukmdor anchadan beri soxsonadan chiqmagandi. O'sha kuni bog'da sayr qildi. O'zi yoqtiradigan buloq boshiga borib, uzoq xayol surdi. Yer bag'ridan jimirlab kulib chiqayotgan tiniq suv asab to'larini allalab, a'zoyi badaniga huzur bag'ishladi. Hukmdor ikki chakkasini qisib turgan botmon og'irlikdan qutulib, ko'ksini daraxtlarning orasidan yashirinib chiqayotgan mayin

shabadaga rohatlanib to'sdi. Olam charog'on. Kulag'on buloqlarning og'zi yopilmaydi. Daraxt barglari sho'x-shodon shivirlashadi. Aslida faqir banda yo'q azoblarni o'zi o'ylab topsa kerak. Qandaydir mavhum hislarga berilib, arziyas narsalarga qayg'urib, bezovta bo'lishga qanday zarurat bor? Bejilov tuyg'u quli bo'lmish telba tegishli jazosini olar. U endi hech kimga shilqim minora qurmaydi, hech kimning boshini aylantirmaydi, ko'rganlarni o'ziga maftun va mahliyo qiladigan bir juft qarachig'ini qonxo'r jallodining o'tkir xanjari bilan o'ydirib tashlaydi. Bu bilan cheklanmaydi, malikani quchdim deb o'ylab yurgan bachchag'ar ertaga birovgacha og'zidan gullab qo'ymasin deb tilini ham kestiradi. Keyin u noinsof bu dunyoda iz-tuzsiz yashayotgan ko'p maxluqlarning biri bo'lib kun kechiraveradi...

U kechasi xotirjam uxlad. Ertalab zindonbonni chaqirtirmoqchi edi, kichik malika eshikdan kirib keldi. U ostonaga hatlashi bilan ta'zim bajo qildi va ohista qadamlar bilan to'rga yaqinlashdi. Hukmdorga yaqinlashgach, kalovlanib to'xtab qoldi. Peshanasi-dagi oqish la'lga qo'shilib yaraq etgan qo'sh qarog'i avvalgidek emas, ichiga cho'kibdi. Rangi ham oppoq. Malika tiniq yuzini unga tikmasdan yonlab o'tirdi. Hukmdor uni kutilmaganda kirib keladi deb xayoliga keltirmagandi. Birdan nima deyishni bilmasdan o'tirib qoldi. Picha fursat o'tgach, o'z-o'zidan ozib-to'zgan kichik malikaga shafqat qildi, shekilli, qo'lini cho'zib yoniga chaqirdi. Uning qo'li tegishi bilan malikaning uzun kipriklari uchidan bir necha tomchi yosh yumalab tushdi. Malika hukmdorning qo'lga labini bosib, oyog'i tagiga yiqildi. Ikki yelkasi silkinib, ho'ngrab yig'lab yubordi. Kechagina ko'ziga dunyodagi eng yomon odam bo'lib ko'ringan, xuddi yosh boladek o'ksinib yig'lab, oyog'ining tagida yotgan juvonni nima qilishni bilmasdan hukmdor shoshib qoldi. Agar bir necha kun avval ayni shu holat yuz berganida nima bo'lishini hech kim bilmasdi. Bu safar ozib, yelkasi shalviragan, aftodahol malikaga achinib turardi. Pastga engashib, qo'lidan tortib turg'azdi. Surilib yonidan joy berdi. Kichik malikaning biror nima deyishini istamagandek uning o'tdek lovullab turgan yumshoqqina kaftlarini qo'li bilan bosib indamay o'tirdi. Malika hamon yig'lardi. Anchadan buyon ko'ksida yig'ilib

qolgan achchiq faryod tugamasdi. Pichadan keyin hukmdorning jimgina erkalganidan ko'ngli joyiga tushdi, shekilli, ovozi pasaydi. Dilini yondirgan jahning achchiq yoshi tugagach, malika ham ancha jim qoldi. Hukmdor ham hech narsa so'ramadi. Anchagacha jim o'tirishdi. Malika o'zining bunday o'tirishidan noqulay bo'lib, ketishga chog'landi. Hukmdorga ta'zim qilib eshik tomon qaradi va yana to'xtadi. Bir narsa deyishga jur'at qilmasdan turib qoldi-da, so'ngra past ovozda so'radi:

— Hazratim, siz minorani qurgan ustani qamatib qo'ydingizmi?

Hukmdor uning kutilmagan so'rog'iga botinana hayron bo'lsa-da, vazmin ohangda javob berdi.

— Ha.

Malikaning ikki yuzi qizarib ketdi. So'rog'i o'ziga noo'rin ko'rinib uyaldimi yoki jismini boshqa bir tuyg'u egalladimi, uning oyog'i tagiga yiqilmoqchi edi, hukmdor tirsagidan tutib qoldi.

— Uning hech qanday yozug'i yo'q. Hech narsa bo'lgan emas, — Bilaman.

Malika, rost aytyaptimi, degandek hukmdorga qaradi. Uning xotirjamligidan lol bo'lib jimgina eshik tomon yo'l oldi. U chiqib kelguncha hukmdor undan ko'zini uzmasdi. Malika eshikka yetib orqasiga o'girildi, hukmdorning nima o'ylayotganini bilolmasdan javdirab bir qaradi-da, chiqib ketdi.

Malikaning tashrifidan hukmdor ham hayratda edi. Hatto ulug' malika so'roqsiz bu xonaga kirmasdi. Kichik malikaning bu tashrifini qanday tushunmoq kerak? Yurishdan kelgandan beri xobxonasiga kirmaganligi uchun uni ko'rib, sog'inganini bildirmoqchimidir? Balki... Shuningdek, ulug' malika yuborgan qizil olma haqida u ham eshitgandir. O'z-o'zidan qayg'uga botib, yorilib ketar darajaga yetgach, nima bo'lsa ham borib, husni-jamolini ko'rib qaytaman deb tavrakkal ish qilgan-ku.

Hukmdorning yuzida qahr ko'rmagach, o'zini bosib xosxonasiga ketgandir. Lekin nega dabdurdustdan yosh ustani so'radi? Boshini xatarga tikib kelganligi boisi ustaning holini aytishmidir? "Uning hech yozug'i yo'q". Nima demoqchi? Yosh yigitni qonli jazo changalidan qutqarib qolmoqni istaydimi?.. Nega u holda

yalinmadi, yolvormadi. Uning "bilaman" degan bir luqmasini "kechiradi" deb bildimi? Ha, ular orasida hech narsa bo'lmaganini hukmdor biladi. Lekin ajaldan ham qo'rqmasdan, osmondagi oyga qo'l cho'zgan essiz yigitning hukmdor obro'siga dog' tushirayozgan betavfiqligini baribir kechirmaydi. Endi imi-jimida olomon aytgan hukmni ado etmoq darkor.

Hukmdor yecholmagan yana bir tugun bor edi. Malika boya eshikdan chiqayotib nega orqasiga qaradi? Uning nigohida vahima bor edi. U hukmdorning hech kimga sir bildirmaydigan sovuq yuzini bugun ko'rib turgandek nimadan seskandi? Yoki aytgan so'zining unga ta'siri bo'lmaganligidan dahshatga tushdimi? Agar uning so'zlari ta'sir qilganda ne qilmoq lozim edi. Zindondagi yigitni zulmatdan xalos et dermu? Malikaning istagi nedur? U malikaning joniga tegadigan, qo'rqitadigan hech narsa aytmasdi. Uni yozg'irmadi. U holda nimadan cho'chidi? Usta yigitning jazo olishi muqarrar ekanligidanmi? Obro'sini poymol qilmoqni istagan tentak kimsaga malika nega achinadi? Aksincha, el-u yurt oldida sharmanda qilib jazolashni talab etmog'i, shu tariqa kelajakda guvullagan olomonning sassiq og'izlarida to'kiladigan obro'sini oqlab olishi kerak emasmi? Yo'q, u, aksincha, bugun kelib, os-hkofa aytmasa ham, haligi buzuqqa afv tilamoq niyatini bildirdi. Malikaning, haqiqatan ham, haligi kimsaga ko'ngli bormikan? Yo'qsa uning oldiga shunchaki bir qulga rahm tilab kelurmi? Yo'q, yo'q, bu yerda bir gap bor. Kishi yuziga tikilib qarashdan uyaladigan kichik malikaning bu yurishi bejiz emas, har ne bo'lsa-da, jonini tikib tavrakkal demoqda. Chunki bu hol o'limni bo'yniga olish bilan barobardir. Agar haligi kimsaga befarq bo'lsa, u hech qachon bunday qadam qo'ymasdi. Shunda... Shunda... Enaga kamping aytgani ne bo'ldi? Malika ham: "Hech narsa bo'lgan emas", — deb qasam ichdi-ku. Buning bari yolg'onmi? Yo'q. Yo'q... Malika derazadan kecha-yu kunduz termilib turgan minoraning imo-ishora ila bildirgan allaqanday jumboq tuyg'usiga befarq bo'lmagan. Dastlab adabsiz yigitni ayab, unga kanizagini jo'natganda faqat o'zining obro'sini emas, minorani qurgan yigitning omonligini ham o'ylagan. Demak, ilk boshidanoq malikaning unga mayli bo'lgan. Lekin oltin taxtli shoh saroyining ham

obro'sini o'ylagan. Surbet yigitning tamasini ayblamagan, jazolamagan...

Hukmdorning xayoli ilon avragan chumchuqdek bir yerdan aylanib chiqolmay qoldi. Lekin kutilmaganda paydo bo'lgan taxminiga o'zi ham ishonishni xohlay boshladi. Balki, xonim o'z quchog'iga intilgan betamizni faqat ayab qolmasdan, o'zi ham butun jismi bilan unga intilgandir. U malikaning xonasida o'zi guvoh bo'lgan voqeani esladi. Endi topdi... O'sha tunda malika tushida ayni o'sha muloyim yigitni quchgan. Ular o'ngida bo'lmasa ham, tushida topishdi. Demak, u ko'zlari o'ynab turgan yigit bilan ko'nglida allaqachon qo'shilgan, ko'nglida o'sha yigit unga nisbatan yaqinroq... Bugun ham o'sha yigit uchun jonini qurbon qilishga tayyor bo'lib keldi. U yetti iqlimni titratgan hukmdor bo'lsa ham, hech narsani tushunmasdan, bolaga o'xshab yig'ladib deb shafqat qildi. Hayotida ilk bor zaifligini ko'rsatdi. Ayolning ko'zidagi yosh bilan sehrgarning qo'lidagi oltin birdek — ikkisida ham vafo yo'q. Malikaning halol to'shagiga nechog'lik sodiq ekanini tunov kuni o'zi ko'rgan edi-ku! U o'ngida qilolmagan ishini tushida bema'lol bajarib bo'lgandi-ku! Demak, malikaning o'ngida uning oltin tojli boshining obro'sidan hatlab o'tolmaganligi ham xotirlarning qo'qqisidan, tor to'shakda ilk uchrashgan begona erkakka picha qarshilik qilgandek shunchaki bir siyosat ekan-ku!

Hukmdor shunday xulosaga kelganda kimdir halqumiga pichoq suqib olgandek bo'ldi. Uning ko'pni ko'rgan boshiga hech qachon bunday jarohat tushganini ko'rmagandi. Bu uning boshidan o'lgan shuncha jabr va jafoning hech biriga o'xshamasdi. U o'tirgan yerida kulga aylanayotgandek tobora cho'kib borardi.

II

Hukmdorning ko'ngliga qil sig'masdi. Bozordan turli xil yangiliklarni topib kelayotgan josuslarni beparvo tinglaydi. Zindondagi ustani jazolashga ham shoshilmaydi. Kechagina ko'ksini yorib chiqmoqchi bo'lgan qasos ham yo'qolgan. Sahardan xuftongacha boshini og'ritgan ingichka ichakdek chuvalgan cheksiz xay-

ollar oqibatida, odatda, yurakni zirqirاتب, nomusni poymol qiladigan narsalarning hammasi butunlay o'z mazmunini yo'qotgandek. Hukmdorning hech narsaga hafsalasi yo'q, hech narsaga shoshmaydi. Hatto nega shunday holatga duchor bo'lgani sababini bilishga intilmaydi. Ishqilib, kunlar o'tyapti. G'alati mung butun jismini egallab, tobora zaiflashtirib borardi. Bukchaytirib belini tiklashga imkon bermayotgan bo'lmag'ur jarohat. Loqaqal shunchalik qayg'uradigandek qaqshab og'ritmaydi-ya.

Hukmdor ehtiyotsizlikdan boshini qirg'oqdagi toshga urgan cho'rtan baliqdek hushidan ayrilgan. Butun olamdagi bor-u yo'qni o'ylab, ko'rib-bilib o'tiradigan oltin boshi bilan uch uxlasa tushiga kirmagan shunday zarbaga duchor bo'ldi. O'ziga xiyonat qilganlarning barchasi kabi usta yigitning ham jazosini olishi ayon. Lekin uni qay holatda azobga mahkum etsa ham, keki qaytadiganga o'xshamasdi. Uning gunohga intilgan buzuq yuragidan oqqan qora qon hukmdor ruhidagi jarohatga malham bo'lolmasdi. Aksincha, bu uning butun jismini zirqiratan qahrning ham, ko'ksini och mushukdek timdalagan ola-ko'z qasoskorlikning ham, hatto oltin boshli hukmdorning bu yorug' yolg'ondagi endigi hayotining ham batamom mazmunini yo'qotib yuborgandek. Qahrmdan Qof tog'ini cho'ktiraman deb yurgan ko'kragi jahldan ham, achchiqdan ham, qasosdan ham batamom judo bo'lib, tezoqar daryoga tushib ketgan xas holatiga tushdi. Necha kundan buyon ruhini qaqshatib, bo'yini ezib yurgan bo'lmag'ur hisning nomi ovunch ham, jabr ham, jaf o ham emas, shunchaki o'kinch bo'lib chiqdi. Jahldan ham, qonini qaynatgan nomusdan ham mosuvo bo'lgan bunday bechora tuyg'u o'kinchdan boshqa narsa emas. Chor dunyoni tiz cho'ktirgan hukmdor nega o'kinadi? Jumlayi jahonni deyarli qoqanda qonini, siqqanda sharbatini chiqargan holda, kichkinagina bir zaifaning yuragini batamom egallay olmaganiga o'kinadi. Bir to'shakdagi ikki bandaning ikki qutbligiga o'kinadi. Demak, buning ikki tarafida malikaga bo'lgan ranj bormi? Oltin boshli podsho zaifaga ranj eturmi? Hukmdor pashshadek tez ko'payayotgan dunyoviy xayollardan to'xtashni, endi hech narsani o'ylamaslikni istaydi. Lekin o'zini tobora siquvga olayotgan yolg'izlikka qarshi imkoni — bo'lar-bo'lmas narsalarni o'ylab boshini qotirishgina.

Yolg'izlik ko'pdan beri unga pand bermoqda. Ko'zga chiqqan so'galdak ajralib turadigan hayot uning asabini yeb tugatdi. Bag'ridagi farzandlariga ota, og'ushidagi juftiga yor sifatida biror marta mehr ko'rsatolmabdi. Pushidan bo'lgan bolalari uning mehrini ko'rishga ulgurmasdan ot yolidan tortib mimib, o'z oldiga ketishibdi. U avvalgidek uyda ham, dalada ham yolg'izlik azobini tortardi. Dushmanlarining aksariyatini tiz cho'k tirib, endi bema'lol yashayman degan chog'da kichkina malikaga uylangandi. Qari badanni parvarish qila oladigan yosh hid deb emas, yolg'izlikdan charchagan joniga madad bo'ladigan inson bo'lsin deb uylangandi. Kichik malikaning yosh bo'lsa ham vazmin, sabrli atvoridan, doimo hurmatini joyiga qo'ya oladigan izzatidan ko'ngli xushnud edi. O'tgan gal uzoq yurishdan qaytganda osmon bilan bellashgan nafis minor qurdirganini ko'rib boshi ko'kka yetgandi. Butun a'zoyi badaniga huzur bag'ishlagan behad sevinchning mezondek bir damda ko'zdan uchganiga o'kinadi. Faqat kichik malikaning ko'ngligina emas, butun foni hayotning yolg'ondan iborat ekani niga ishonch hosil qilib o'kinadi. Dunyoga mustaqilman deb keladigan bandayi faqir boshqalarga ishonch bilan suyanmoqchi bo'lsa ham, yer tagiga tushib, ko'zi tuproqqa to'lguncha yolg'izlikdan baribir xalos bo'lolmasligiga amin bo'lib o'kinadi. Lekin hamma bandaning holi shundaymi? Peshanasiga yozilgan ozgina baxt va nasibasini bola-chaqasi bilan baham ko'rib, borriga qanoat qilib yashayotganlar ham yolg'izlik dardiga duchormi? Yo'q! Bandalik baxti degani o'sha bo'lsa kerak. Insonga xos qisqagina hayotning, ehtimol, butun mazmun-mohiyati shundadir. Ortig'iga astoydil intilsa ham, bandaga baribir qanoat ham, baxt ham bundan boshqacha bo'lmay. Bularning hammasini orzu, maqsad, murid deb ko'kragimizga urib o'zimizni oqlamoqchi bo'lamiz, oxir-oqibatda, shunchaki ochko'zlik, dunyoparast nafsning qo'shig'ini kuyilgan kufrlilik ekanini anglaymiz. Kufrlilik bor yerda lazzat bo'lmaydi. Butun olamni o'ziga itoat ettira olgan o'zi bir kun xotirjam uxladimi, bir kun tinchgina o'tira oldimi? Demak, bandaga bunchalik ko'p narsa kerak emas ekan. Har bir bandaga munosib hayotning oddiygina farog'atisiz kelgan baxt va shuhratning hammasi bir tiynga qimmat ekan.

Kichik malika davlatni ham, mavqeni ham pisand qilmasdan oddiy avomning barchasiga tegishli oddiy insoniy baxtni, insoniy qiziqqlarni afzal bilgan-ku. Mana shu yo'lda toj va taxtni ham qurbon berish niyatida bo'lgan-da. Oltin va bebaho molga to'la saroydan hamma narsani topsa ham, oddiygina baxtni topmasdan fig'on chekkandir. Kichik malika orzu qilgan insoniy baxt uning o'zida bormi? Taxtning borini biladi, tojning borini biladi, shuhrat, shavkat, davlat va hokimiyatning borini biladi. Lekin baxt haqida gap ketsa, so'z topolmasdan jimib qoladi-ku. Farzandlar o'rtasida, hisobsiz boylilikning o'rtasida bo'lsang-u, bepoyon sahroda yolg'iz qolgandek atrofingda bo'shliq bo'lsa, bu qanday baxt bo'lur? Hatto o'z uyida nina ustida o'tirgandek hushyorlikka mahkum etilgani — uning baxtimi? O'zga erlar erkin kirib, erkin chiqadigan xobxonaga hammadan yashirinib kirib, yashirinib chiqadigan bo'lsa baxt deb aytishga bo'lurmi? Hamma menga tobe desa-yu, xalq men haqimda nima der ekan, deb yuragini hovuchlab yurishi ham baxtmi? Hammadan yuksakda bo'lish faqat Yaratguvchi Egamga xosdir. Kishiga berilgan shuhrat, ortiqcha kuch, kuchli davlat, behisob boylilik, baxt emas, sho'rdir. Mayli, u ko'p ellarni o'ziga tobe qilibdi. Lekin bir minor qurib dong taratgan usta-yig'itning ko'rguligi nimada?! Xullas kalom, bu uchtasining hayoti hayot emas. Boshqalar qayg'u-hasratini, dardini aytib qalbini bo'shatadigan kishi topiladi. Bu uchtasida bu ham yo'q.

Agar bunday holat o'zlarining emas, boshqa birovlarining boshida bo'lib, undan qozilik qilishni so'rganida uchovini ham ayblab, jazolamas edi. Bu gal esa u hukm aytolmaydi, afv etolmaydi. Chunki uchovi ham bechora, uchovi ham bir-birining mehriга zor gadolardir. Bu bechoralar bir-biriga qanday yordam bera oladi, bunday gadolar bir-biriga nima qila oladi? Xullas, yosh me'mor haqida xalq aytib yurgan mish-mishlarni haqiqatga aylantiraman degan ahdi to'g'ri. Rostini aytganda, qo'li gul ustaning jallodi u emas, ko'rmasdan-bilmasdan o'zlaricha to'n bichib, xor ko'nglidan chiqqan badbo'y g'iybatlariga o'zlari ham ishonib, boshqalarni ham ishonitirib yuradigan vaysaqi olomondir. Me'mor ham, malika ham, u ham — shularning hasad ila to'lgan ko'zlari va mish-mish so'zlari qurboni. Agar ular bir-biriga intizor

bo'lib, ishq yo'lida kuyib-yongan ikki munglining aytganiga rozi bo'lsa, avvalo, o'sha vaysaqilar olamni boshiga ko'taradi. Uni ko'rga ko'zi yo'q g'anamlari olomonning sassiq so'zini aytib ta'na qilardi. Demak, hamma baloga sababchi o'shalar, axir, g'unohkor me'morga beriladigan jazoni ham o'shalar aytib berishdiku! Mayli, o'shalar aytganidek bo'lsin. Shu tariqa o'zlarining ko'nglidan chiqqanini o'zlariga oziq qilib bersin! O'zlarining g'iybatlariga o'zlari o'talishib qolishsin! Haytovur, unga keladigan sharmandalikni bilmasa, ko'rmasa bo'lgani. Xullas, mish-mishchi to'dalarning so'zidan qaytib, boshqa mish-mish paydo bo'lmasdan yigitni jazolash kerak.

III

Zindonda yana bir o'rin bo'shadi. Osiylik qilib, ko'kdagi yulduzga qo'l uzatgan ulug'vor niyatli me'morning porloq juft qorachig'i jallodning qo'lidagi qizib turgan uchli temirdan oqib tushdi. Ko'zidan ayrilib, nola-yu fig'oni avjga chiqqanda bechora yigitning tili kesildi. Ikki jallod kechasi qonga belangan tanani arqon bilan bog'lab daryo ortidagi bir qishloqqa tashlab kelishdi.

Ko'plab kishilarning umriga nuqta qo'ygan bepoyon shahar bunday manzaraga sanoqsiz guvoh bo'lgan. Bor mahoratini namoyish qilgan ko'plab me'morlar mana shunday holga duchor bo'lishgan. Albatta, ular orasida og'ir jazodan qochib qutulganlari ham bor. Jallodning halqumini oltinga to'ldirib, xatarli shahardan imkonini topib qochganlar ham bo'ldi. Ularning bir toifasi me'morchilikni tashlab, boshqa hunarga ko'cha, bir guruhi el oshib, yer oshib boshqa podshohdan panoh topdi. Kamdan kam holdagina taxtda o'tirgan shoh o'limini kutib, yangi hukmdor rahm qilsagina bepoyon shaharga qaytib kelishgan.

Bundan hollardan xabari bor hukmdor ko'z va tilidan ayrilgan me'morni yana bir marta ko'rdi. Bog'lab tashlangan yigitning o'zi jazoga hukm qilgan usta ekanligiga ishonch hosil qilgach, qishloqqa tashlab kelishga buyurdi. Lekin shilvirab qolgan chalajon ustani ko'rganida ashaddiy dushmanlarini jazolagan paytdagidek mamnun bo'lolmadi, rohatlanmadi. Usta yotgan qopni ko'tarib olib

kelgan ikki jallod unga shunchaki tovuq o'g'rilab, toycha o'g'rilab yurgan kimsalardek ko'rindi. Ularning qopni saroydan tezroq olib ketishini istadi.

Ertasiga muhtasham shoh saroyi avvalgidan ham g'ariblashgandek tuyuldi. Bozorga jo'natgan josuslar ham arziri gap keltirmadi. Likillagan tarozining ikki pallasiga navbat bilan alanglab turadigan kimsalar osmon bilan barobar minoraga qarab qo'yishga imkonlari yo'q edi go'yo. Baqirib-chaqirib savdolashib, sharq-shurq qo'l tashlashib, bir tiyin ortiq olganiga xursand. Ular, hatto bu dunyoda uning, ulug' hukmdorning borligini unutib yuborishgandek. Shaharda bu voqea haqida gap yo'q. Yoki bu ishning mana shunday tugashini bilib qo'yishganmi, uning savdogar bo'lib yurgan, qalandar bo'lib yurgan josuslari savdogorlardan bir og'iz "yangilik" eshitishga zor bo'lishdi. Ulug' hukmdorga ko'rishdan bezillab qolishdi. Josuslar boshchisi bozordagi vaysaqilarning kutilmaganda jim bo'lib qolishini o'zicha yaxshilik nishonasi deb bilmadi. Savdoga berilgan nog'orabosh olibso'tarlarning har bir harakatini poylab, nima o'ylab yurishganini bilolmay lol bo'ldi. Endi ular ko'p savdo qiladiganlarni, do'koniga ko'p odam kelib-ketadiganlarni faqat bozorda emas, uylarining atrofida ham poyfaydigan bo'ldi. Mahalla-mahallalarda tentiragan qalandarlar, qing'ir-qiyshiq tilanchilar ko'paydi. Bir guruh josuslar minoraga qurgan o'ratepalik yigit yashagan uy sohibini gapga tortdi, lekin u ham hech narsa aytmedi. Xuddi ilgariidek askiyada kimni mot qilganini, kimning bedanasiga bahs tikkanini aytib maqtanaverdi, xolos. Faqat bir marta: "Minorani qurgan ustaning otasi ham ilgari ta'qibga duchor bo'lgach, qochib ketgandi. Yigirma yil o'tgach, o'g'lini shaharga olib kelib masjid qurayotgan ustalar safiga qo'shgan, o'zi ko'kyo'taldan qazo qilgan. Ko'rarsizlar, o'g'li ham shunday qilor. Uning uyida yashirgan boyligi bor. Bir kuni shunga keladi", — deb maqtanibdi. Josuslar boshchisi astoydil uning iziga tushdi. Bir kuni mulozimini u bilan askiyaga yubordi. Nechog'lik mast bo'lsa ham, malika va ustaga doir biror gap aytmedi.

Hukmdorga shahar xalqining bunday ehtiyotkorligi yoqmadi. Buning sirini bilolmasdan ko'p tunlarni uyqusiz o'tkazdi. Tillarini yutib, mum tishlagan olomoni qanday qilib gapirtirish haqida

o'yladi. Ertadan kechgacha nari-beri yuraverib oyoqlari obdan toliqdi. Muhtasham xonadagi har bir zarrani yodlab olgandek bo'ldi. Endi uning daydi xayoliga qo'shilib tinim bilmaydigan beto'xtov nigohini bir zumga to'xtatadigan narsa qolmadi, U takror deraza oldiga keladi. Halovatini jimgina o'g'rilayotgan minorani yana ko'radi. Zangori minorra boshi qotgan hukmdorni masxaralayotgandek ilmayaveradi. Gohida kulib turgan minorani ko'rgan chog'ida vaysaqi olomonning hammasi unga bildirmasdan kulib turgandek tuyuladi. Kulimsirab turgan azozil minorani ko'rgan esi-hushi joyida kishining hech narsani tushunmasligi, tushungach uni masxara qilmasligi mumkin emas. Endi ushbu minorani yo'q qilishi, xalq og'zidagi kulgini ko'mirga aylantirmog'i shart. Aks holda, u bu jon olg'uvchidek orqasidan ta'qib qilayotgan kinoyalardan qutulmas. Har kimning yuragidan joy olayotgan azozil zaharxandani shu tariqa yo'q qilmog'i ma'kul.

Lekin bu ahdning umri qisqa bo'ldi. Yana birin-ketin yangi savollar qurshovida qoldi. U malika qurdirgan minorani vayron aylasa, xalq dilida yurgan mudhish mish-mishni o'zi tasdiqlab bermaydimi?! Bir-biridan eshitib, oxiriga yetolmasdan yurgan gumonlarini batamom haqiqatga aylantirib, boshi uzra suzib yurgan sharmandalik bulutini yana ham quyulqashtirib olmasmi?

U zirqirayotgan ikki chakkasini qo'li bilan siqqancha o'tirib qoldi. Ancha vaqt karaxt holda o'tirdi-da, birdan igr'ib turdi. Hozirgina imkonsizlikdan kuldek so'nib turgan nigohi birdan cho'g'dek yondi. Mana do'rdoq lablarining ichidan tashqariga chiqolmayotgan pushaymon gumonni o'sha yerda batamom bo'g'ib tashlaydigan amalni oxiri topdi. Bundan boshqa yo'li bo'lmas, shaksiz. Zangori minoraga bog'liq bor haqiqatni ko'rib, o'z qo'li bilan ushlagan birgina kishi bor. U — bosh me'mor. Xalq orasida mish-mish va shubha yoyilsa, faqat bosh me'mor vositasi da bo'ladi. Endi uni yo'qotish kerak. Gapini ichida zo'rg'a saqlab yurgan o'g'ri olomonning diqqatini mana shunga qaratish kerak. Kulimsiragan minoraga qo'l ko'tarsa, faqat ugina ko'tarishi mumkin. Bosh me'morning o'zidan bir misqol yuqori ko'tarilgan kishini otasining qotilidan battar yomon ko'rishini hech kim bilmasa-da, hukmdor biladi. "Hech kimga birdirmasdan minoraning bir

g'ishtini olib tashla" desa, u quvona-quvona bajaradi. Hasadgo'y me'mor shu tariqa jinoyat ustida qo'lga olinadi. Xalq orasida "Bosh me'mor minorra ustasini ko'rolmas ekan, u qurgan minorani hech kimga bildirmasdan buzmoqchi bo'libdi. Yosh ustaga tuhmat qilib, uni jazoga duchor etgan ham bosh me'mor ekan", — degan mish-mish tarqaladi. Hukmdor o'z hamkasbiga yomon ko'z bilan qaragan hasadgo'y me'morni namoyishkorona jazolaydi. Olomonning bundan keyingi hangomasi ikki me'mor o'rtasidagi raqobat haqida bo'ladi-da, malika to'g'risidagi gap-so'zlar o'z-o'zidan barham topadi. Poytaxtning ko'rki — zangori minorra shu holicha qolaveradi. Hukmdorning aytganlarini josuslar boshchisi atigi bir-ikki kundayoq ijro etdi.

Kishanband holida keltirilgan bosh me'morni hukmdor so'roqqa tutmadi. Uning yuziga bir daqiqa tikilib o'tirdi. Bir kechada me'morning soch-soqoli oqarib ketgandi. Me'mor bir nima demoqchi bo'lib og'iz juftlaganida yonidagi sochqiga:

— G'iybatchi kimsaning boshini baloga duchor qilgan sasiq tilini kesinglar va zindonga qamanglar. O'sha yerda chirib o'lsin, — deb amr qildi.

U eshikdan imillab chiqib ketayotgan bosh me'morga jirkanib qarab turdi. Sotqinlik va zulmning qil ko'prigidan ko'p o'tgan hukmdor hasadgo'y, ichi tor odamlardan juda nafratlanardi. Lekin qo'l ostidagilarga boshliqni doimo mana shundaylardan tayinlardi. Ayniqsa, me'morlarga, zargarlarga, ustalarga, turli hunar egalariga mana shundaylar rahbarlik qilardi. Chunki uning maqsadi poytaxtini dunyodagi eng latif shaharga aylantirish edi. Shuning uchun yetti iqlimdagi eng mohir me'mor-u ustalarni shu yerga to'plagan edi. Bu holda fe'li keng kishining maqtagan kishilarini jamlagandan ko'ra, hasadchi, tor fe'li kimsalarning yomonlagan hurnamandlarini chorlagan ma'kul edi. Chunki hasadchining ko'zi o'tkir bo'ladi. Bunday kimsalar kimdir o'zidan o'zib ketsa, darhol dod-voy qiladi. Eshikdan sudralib chiqayotgan doim ko'zini qisib yuruvchi, qulog'i "ding" fig'onchining g'iybati orqasida u ko'pdan ko'p qo'li gul ustalarni topgandi. Uni bosh me'mor etib tayinlagan bo'lsa ham, bepoyon shaharda kishi diqqatini tortuvchi biror inshoot qurdirmasdi; uning mehnati mahsuli — saroy tagidagi tosh

zindon. Zindon ostonasiga hukmdor: "Borar yering baribir yer tagidir" jumlasini o'yib yozdirgan edi. Endi me'mor o'zi qurgan tosh zindonga o'zi borib o'tirib ko'rsin.

Hukmdor o'laksa kimsani zindonga qamaganidan tunov kungl yosh ustani azoblaganiga nisbatan ko'proq mamnun bo'ldi.

IV

Bosh me'morning zindonband qilinganligi haqidagi xabar shahami bir duv etkazdi-da, bosilib qoldi. Qurib sarg'ayib turgan o'tga olov teggandek lov etdi-yu, tez o'chdi. Bir-ikki kun davomida otalari tirilib kelgandek og'zi qulog'iga yetgan josuslarning qovog'idan yana qor yog'di. Katta malikaning saroyida hamon sukunat. Hukmdor ostona hatlagan kishining og'ziga termiladi. Har bir harakatini ko'zi bilan tintib sir topishni istaydi. Hatto das-turxonga qo'yilgan taomdan, yotadigan to'shakdan, xizmatkorlar har kuni yangilab olib keladigan kiyimlardan qandaydir ishora izlaydi. Lekin hech biridan diqqatni tortadigan belgi ko'rinmaydi. Hammasi saranjom-sarishta. Endi unga xizmatchilar uning qalbining eng ovloq yerida yotgan sirlarini to'liq bilib olib, unda shubha tug'dirmaslik yo'llarini izlayotgandek ko'rinadi. Hatto uz-zukun shaharda tentirab keladigan josuslar uning yarasini yangilamaslik uchun eshitgan noxush xabarlarini yashirib, shunchaki ko'ngilni ovlovchi bo'lmag'ur narsalarni aytib keladigandek tuyuladi.

Haqiqatan ham, hukmdor haqida biror bema'ni gap eshitgudek bo'lsa unga yetkazarmidi? Kim ajalidan burun o'lishni istaydi? Demak, xalq og'zidan eshitdik deb unga kelib aytayotganlarining hammasi yolg'on.

Shaharliklar sirli minora haqida aytadiganini aytib bo'lgan. Ullar minoraning kulimsirashini ham, yosh ustaning nega jazolaniganini ham, bosh me'morning kutilmaganda zindonga qamalish sababini ham bilishadi. Hatto ulug' hukmdorning yurishdan qaytgandan beri kichik malikaning saroyida qolib ketishining siridan ham xabardor. Hukmdor yosh juvonga qiziqib, yor vasli bilan shod bo'ladigan yoshdan o'tgan. Demak, u shuncha vaqtdan beri visol

lazzati bilan mashg'ul emas. Qandaydir holat uning xalq oldiga chiqishiga yo'l bermayapti.

Hukmdorga mana shunday mulohazalar tinchlik bermaydi, kimning yulg'ich qo'li ketini o'yib chimchilab olgandek bo'ladi. O'rindan irg'ib turib xona ichida u yoqdan bu yoqqa yuraveradi, bezovta holda bog' kezadi. O'zidan boshqa tirik inson qadam qo'ymaydigan ovloq bog'da minglab ko'z tashqaridan boqib, uni poylab turgandek bo'ladi. Tezda xonasiga qaytib kiradi. Kimdir to'rt devor ichiga qamab ketgandek hech qayoqqa chiqmaydi. Qulfsiz qamoq, kishansiz asir. Hayoti qamoqqa aylangandi. Unga, loqaqal, arzimas erkinlik ham nasib etmagandi. Oddiy avomga xos oddiy tilak, qaynoq tuyg'u unga begona. Chunki u xalqni lol qoldirmaydigan hech narsa qilmasligi kerak. Avom kabi jo'n ish qilsa, oddiy so'z aytasa, olomon uni yer bilan yakson qiladi. Ochsakaftida, yumsa mushtida yurgan to'dalar o'zidan ustun qo'yib yurgan hukmdorning oddiy banda ekanini ko'rsa, alamdan yonadi. Aldanib kelayotgani ahmoq bo'lib yurganlari uchun o'ch olishga intiladi.

Ayni paytda ularning hukmdorni baravar yomonlab, yer bilan yakson qilmayotganiga kim kafolat beradi? O'nlab toj va taxtni yashin tushgandek yumalatgan podshoh erkak hidini sog'ingan makkoraning nafsi uchun ne chora topishni bilmasdan xo'r bo'lganini aytib, qotib-qotib kulmaydi dermisan? Har qanday er-nings zavjayi haloliga ko'z olaytirgan erkakdan oshkora o'ch olishini bilgan holda hech kimga bildirmasdan yashirib yurganini aytib masxara qilmasmi? Tangridan keyingi qudrat deb hisoblovchi podshohlari xo'rlikka duchor bo'lganiga xursand bo'lib, yasharib qolsa kerak. Eh, u o'sha gaplarni o'z qulog'i bilan eshitsa. Sonlariga urib, yuzini chimchilab shod-xurram bo'layotganlarni ko'rsa... Bu narsa yuragini ko'rsichqondek kemirayotgan soqov shubhangumondan yaxshiroq edi. U el og'ziga qopqoq qo'yaman deb chiqangan sari bunday mudhish so'zlarning ko'payishi tabiiy. U nega yashirinadi, nega xalq oldiga chiqmaydi?

Endi nima bo'lsa ham, bu nimqorong'i g'orda qari ayiqdek yotib obro' topmasligi aniq bo'ldi. Xalq nima desa ham mayli, har qanday sharoitda bu kishansiz tutqunlikdan bosh tortish kerak.

Gumon va shubhaning chirik arqonini uzib, xaloyiqning ko'ziga ko'rinish kerak. Ana shunda odamlarning og'izda aytolmay yurganlarini, loaqal, ko'zlaridan uqib olardi.

Eh, attang, ilgorigi davrlari bo'lsa, ayni hozir, olomonga qasd qilib, to'y-tomoshga uyushtirardi. Hammani sharobga to'ydirardi. Shundan keyin mast-alastlarning ichida nima borligini yaxshilab eshitardi. Bunday qilishning imkoni bo'lmayapti. Bepoyon sharhar tugul, atrofidagi sulolasi va amirlarining ne xayolda yurganini bilolmay lol-u hayron. Ularning hammasini qanday to'plash mumkin?.. Haqiqatan ham, bu minora uning yuziga qora dog' bo'lganga o'xshaydi. U nega o'zini shuncha chetga tortmoqda? Har holda, yassi olamni titratgan qahrli hukmdor-ku! Ular arni to'plab, yuzma-yuz uchrashib, ko'zlariga tik qaramaydi? Chunonchi, bu yerda tokaygacha qamalib o'tiradi? Boshqalarni hisoblamaganda, bag'ridagi chipor ilon kichik malika va har bir harakatini kuzatib, nima bo'lishini kutayotgan boyvuchchasiga, ularning xizmatiga muntazir mulozimlariga o'zining kimligini ko'rsatsa... O'zlari nima qilsa ham, elga oshkor qilishga shoshadigan nodonlar uning bu ishiga ham yerdan yetti quyon topgandek tong qolishar, balki. Loaqal, o'zining atrofidagilarning ko'nglida nima yashiringanini bilib olar.

Ertasiga hukmdor bosh vaziri chaqirdi. Bosh vazir eshikdan egilib-bukilib arang hatladi. Bir qarashdayoq hamma narsani to'liq ko'rib oladigan bodroq ko'zini yerdan uzmad. Hukmdor buyrug'ini aytib bo'lishi bilanoq ta'zim ila chiqib ketdi. Hukmdorga qari tulkinning jur'atsizligi yoqmadi. Shuuridagi gumonning haqiqat bo'lganini? Saroy atrofidagilar hukmdorning keyingi xatti-harakatlarining sabablaridan batafsil xabardormi? Haligi tulki "bir sirni bildirib qo'yaman" degan kishidek ketishga shoshildi. Yuzida vahm soyasi bor. Yoki men yo'q chog'imda mudhish minorani nega qurdirding, deb bosh me'mor qismatini bunga ham ravo ko'rar deb qo'rqdimi? Ehtimol! Afsus, yana biroz fursat shu yerda bo'lishi kerak edi. Ko'pchilik uning sarsiz tergoviga chidolmasdan kalovlanib qolishadi. U bosh vaziri yana ko'rishni istadi. Undan boshqa saroy mulozimlari va farzandlarini ko'rishga shoshildi. Ular ham bosh vazirga o'xshab

ko'zini yashiradimi? Agar shunday bo'lsa, ular ham bir narsani bilishadi...

To'rt-besh kundan keyin ulug' hukmdor shikorga chiqadigan bo'ldi. Hukmdorning shaxsiy navkarlari, mulozimlar, bakovullar, kamonchilar, karnaychilar, nog'orachilar, gala-gala ovchi itlar — uzundan uzun karvon poytaxtdan chiqib, olis-olislarda ko'zga arang ko'rinib turgan tog'ga yo'l oldi. Qizil-yashil rangdagi karvon, uzukning ko'zidan o'tgandek bejirim tulporlar, qurrol-yarog'lari beliga osilgan hashamatli saflar uning o'sha shavkatli damlarini esga tushirardi. Kechgacha yo'l yurib tog' etagiga yetishdi. Tekislikda kuchli ta'sir qilayotgan saraton jaziramasi tog' o'rmoniga kirgach kuchidan ayrilgandek edi.

Saroy mulozimlari, hokimlar, lashkarboshilar, hukmdorning farzandlari baland cho'qqidan oqib tushayotgan shiddatli soy sohilidagi tekislikka chodirlarini tikdi.

Tog' etagiga joylashgan kuni hukmdor shohona dasturxon tuzashga buyruq berdi. Sharob suvdek oqdi. Davradagilar qancha shovqin-suron bilan gaplashsa ham, hukmdorning diqqatini tortadigan yangilik aytishmadi. Hamma ertangi shikor haqida bahslashardi. Otini maqtagan, itini maqtagan, qushini maqtagan bo'lmag'ur so'zlar. Merganliklarini solishtirib o'zlarini maqtashlar. Hukmdor atrofdagi qiy-chuvga quloq solgan holda xafa bo'lishni ham, xursand bo'lishni ham bilmasdi. Nimagadir aldanib qolgan kishidek, boshini quyi solib o'tiraverdi.

U kechasi ham uxlayolmadi. O'nlab chodirlarning hech birida sado yo'q. Atrofdagi jimjitlik. Yozgi tun. Sof havo, butun jismiga o'z kuchini o'tkazayotgan asaldek sharob. Ertaga ertalabdan boshlanadigan shovqinli sayr. Bundan ortiq qanday rohat kerak? Qo'shni chodirlarda xurrak ovozi kuchaydi.

Hukmdor shunday tunlarni, shunday hayotni yoqtirardi. Bepoyon shahar va atofidagi qishloqlarning uzun-qisqa mahallalariga tarqalib ketgandan keyin orqasidan ergashgan ko'k nayzali behisob lashkarni tashkil etuvchi er kishilar har biri bir xatar, bir dahshatga, hech bo'lmaganda u haqida nima o'ylasa, shuni aytib o'tiradigan vaysaqiga aylanadi. Uning yonida bo'lsa hammasi yuvosh, bari mo'min-qobil. Unga to'la itoat etadi. Ba'zan

ular behisob cheksiz avlod-u farzandlariga o'xshab ketadi. Odatdagi tinch hayotdan hatlab chiqqandan keyin hammasi uni panoh tutib, bag'riga kirib ketgandek his qiladi. Mana, oydin kechada, chor atrofi o'rab olgan ulug'vor cho'qqilar orasida, bobosining to'shagi atrofida uxlab qoladigan tentak nevaralardek xotirjam xurrak chekishmoqda. Dara pastidagi irmoq ularning kuchli xurragi bilan bahsga tushgandek, tungi osudalikda balandroq ovozda shovullaydi. Hukmdorning sergak qulog'i yuqqagina ipak chodlirning tashqarisidagi salgina sas, salgina shitirni o'tkazmasdan eshitib qo'yadi. Lekin asabni tikandek chaqadigan, kiprigiga tirgak bo'lib qadaladigan begona tovushlar yo'q. Tungi sokinlik o'z hukmini o'tkazmoqda. Lekin u uxlolmayapti. Atrofdagi o'rmondan hayvonlar hidini sezsa kerak, alohida qo'rg'ondagi tozilar bezovta bo'lmoqda.

Hasharotlar tungi hayotni boshlashgan. Qayerdadir chigirtkuning nag'ma boshlaydi. Shunchalik oddiy bo'lsa ham, bu dunyoni to'la anglashga aql yetmaydi. Necha kundan beri ko'krigidagi ko'k tunding xiralik tarqalganga o'xshaydi, lekin batamom emas. Bedor bo'lsa ham, bardam edi. U bu sokinlikning qo'yniga butunlay singib ketishni istaydi. Tojni, taxtni tark etib, tungi jimjit tabiatning quchog'iga sho'ng'ib yo'qolib ketishni xohlaydi. Tashqaridagi tungi salqindan foydalanib ishga kirishgan kichkina jonivorlardek nima qilayotganini o'zidan boshqa hech kim bilmaydigan, begonalarga umuman qiziq bo'lmagan betashvish hayotga ko'chish orzusi dilini o'rtaydi. Izini poylovchi ko'zlar va so'zlardan qutulsa, hech kimning nazariga tushmaydigan oddiy bir bandaga, hatto oyoq tagida jimirlab yurgan mitti hasharotga aylansin mayli, har holda, ko'zga chiqqan so'galdek hammaning diqqatini tortadigan hayotdan xalos bo'lsa armoni qolmasdi. Hozir ipak chodirdan bildirmasdan chiqib, qalin o'rmon ichiga kirib ketsaydi, qani. Erta orqasidagi navkarlari yo o'zini, yo suyagini topolmasdan bepoyon shaharga qaytardi, xalq og'zida u haqda ishonib bo'lmaydigan oldi-qochdi turfa gaplar tarqalardi. U buni eshitib, miyig'ida kulib, ahmoq olomon telbaligidan xursand bo'lardi...

Hukmdor bunday xomxayolning hech qachon amalga oshmasligini bilsa ham, negadir ko'ngli taskin topdi. Chodir oldidan

boshlab, butun qarorgohni o'rab olgan soqchilar uni hech qachon ko'zdan qochirmasdi...

U o'zi o'ylab topgan to'r va tartibning tuzog'i o'ziga pand berishini eslab, chuqur oh tortdi. Lekin hukmdor butun jismini bo'shashtirayotgan sokin kechaning sirli rohatidan ayrilishni istamad. Hozirgina o'zini jannat to'ridek qulay manzilga boshlagan so'qmoqni yana topib oldi. Bu so'qmoq shikor oldida xotirjam uxlab yotgan qarorgohdan, gumon va shubhani galma-gal quchgan pushaymon hayotdan batamom uzoqlashtirib, allaqayoqqa yetaklab borardi. Endi bu hayotga, bu yerlarga hech qachon qaytmaydigandek.

U ushbu qarq'ish teggan o'lkadan uzoqlashgan sayin boshidagi og'ir tojdan, egnidagi beso'naqay kiyimdan qutilib, jismi yengillashib borayotgandek tuyuldi. Bir vaqtda ustidagi yengil kiyim ehmonga aylanib qolibdi. Oq yumshoq tuproqni yalangoyoq bosib bormoqda. Ko'z o'ngida u hech qachon ko'rmagan notanish o'lka namoyon bo'ldi. Quyosh va shamol g'ajib tashlagan qo'ng'ir tog'larning o'rtasidagi kichkina shahar. Son-sanoqsiz odamlar bu yerga oqib kelardi. U ham olomonga qo'shildi. Bir so'zni qirq marta takror aytaverganligidan tomog'i qurib, ovozi bo'g'ilib qolibdi. Baqirishni xohlasa ham, ovozi chiqmasdi. Faqat labi qimirlaydi. Oldlaridan ko'ndalang qora yo'l ko'rindi. Olomon shunga qarab yura boshladi. Peshin chog'i ular tog'ga yetishdi. Ustiga gilam yoyilgan oppoq tuyaga mingan oq sallali kishi tog'tepasiga ko'tarildi. Tuyada o'tirgan holda tizzasida turgan kitobni ochib, shitob bilan o'qiy boshladi. U tez-tez to'xtardi. Shu paytda ehromining etagini qo'lga ushlab, yelpinib turgan xaloyiq:

— Haq taoloning har qanday buyrug'iga hozirmiz, — deb balla aytishardi.

Bunday so'zlarni boshqalardan eshitgan-u, lekin hukmdor o'zi aytib ko'rmagandi. Dastlab tili aylanmadi, anchadan keyin ko'pchilikka qo'shildi. Yonidagilar ho'ngrab yig'lashardi. Uning begonaga sir bildirmayman, deb charmdek qotib qolgan yuzida bir tomchi yosh ko'rinmaydi. Bu holatini biroq ko'rib qolmasin deb, xaloyiq aytayotgan uzun maqomga qo'shilib, boshini egib u ham bir nima deb shivirlaydi. Tuyaga mingan oq sallali kishi kitobni yopib,

fotiha o'qidi. Hamma cho'kkalab o'tirdi. Fotihadan so'ng nina sanchadigan yer qoldirmasdan qimirib turgan xalq tog' etagidagi vodiya yura boshladi. U ham ularga ergashib kelmoqda. O'pkasi og'ziga tiqiladi. Lekin boshqalardan qolib ketmaslik uchun qora terga botib yuguradi. Ular qoyadan pastga tushishi bilan qandaydir musiqa yangradi. Yalt-yult etib mushak otildi. Keng vodiya saf tortgan yalong'och minoralarda lovullab gulxan yondi. Past-past tepaliklar orasidagi yerlar minglab olovga to'lib ketdi. Keng maydonga tikilgan chodirlar tungi olovda har turli shu'laga belandi. Mana shunday betinim dunyo o'rtasida u ham tonggacha mijja qoqmadi.

Ertasiga oq tuyali kishi yana duo o'qidi. Hamma namozga saf tortdi. Namozdan so'ng yana pastlikka qarab shoshilib jo'nashdi. Vodiya kiraverish yo'li o'rtasida hamma cho'ntagidan jo'xori donidek yetti tosh olib qaqqayib turgan qoratoshga otdi. Maydonning o'rtasiga yetishganda yana bir tosh ustun bor edi. Unga ham yetti tosh tashladi. Eng poyonida g'adir-budur qora toshlardan terilgan tosh devorga ham yetti tosh otdi. So'ngra katta-katta doshqozonlar osilgan o'choqlar tomonga yurishdi. Qozon atrofidagi qassoblar-ning qo'li qo'lga tegmasdi. Qozonxona atrofida qayerdan kelganligi noma'lum tilanchilar qo'llarini cho'zib turishardi.

Ehrom kiyganlar bir chekkaga chiqib, qo'llariga bo'yni egik jez oftoba ushlagan sartaroshlarga sochlarini ivitar edi. U ham borib o'tirdi. Qumg'ondan quyilgan iliq suvdan sochlari bir lahzada yumshab qoldi. Qora yigit qinidan ustarani sug'urib oldi. Chaqqon harakat bilan ko'z ochib-yumguncha sochini qirib tashladi-da, qo'li va oyog'ining tirmog'ini olishga kirishdi. Keyin sochini alohida, tirmog'ini alohida o'radi va ikkisini birlashtirib bog'lab yerga ko'mdi.

Doshqozonlar ochildi. Son-sanoqsiz idishlarda ziyoratchilarga taom tarqatildi.

Ertasiga hech kim chodirdan chiqmadi, uzzukun dam olishdi. Bir kun o'tgach, tekislikdagi shahar tomonga yurishdi. Tushlik chog'i shaharga yetdi. Ro'parada misrliklar olib kelgan yangi qora parda yopilgan Ka'ba ko'rindi. Uning yaqiniga kelib to'xtashdi. Kimdir matoni yirtib ziyoratchilarga ulashtirardi. Ka'baning avval

qoplangan pardasini tabarruk deb olishardi. Sal narida imom va'z o'qiydigan marmar minbar oqarib ko'rinadi. Zamzam qudug'i ustiga choqqina gumbaz o'rnatilgan ekan.

Hukmdor ham duoga qo'l ochgan ziyoratchilarga qo'shildi. Keyin Ka'baning yoniga borib turdi. Qora toshning ust tomoni qo'l va lablar ta'sirida silliq va yaltiroq bo'lib qolibdi, pastki tomonida qoramtir va qizg'ish dog'lari ko'p. Boshqalar toshni tavof qilib o'par edi. U ham shularga taqlidan engashganida tosh nari surila boshladi. Qo'lini cho'zdi. Qo'li yetmadi. Izma-iz kelayotgan izdihom uni qora toshning yonidan nariga surib ketdi. U an'ana bo'yicha ikki yelkasini yuqori-quyi qimiratib, lapanglab yugurib, uch marta aylandi. Har davrada qora toshga engashadi, tosh undan qochib, nariga silliydi. Yugurishni bas qilib sekin qadamlar bilan Ka'bani yana to'rt marta aylanib chiqdi. Hamma qora toshni qo'llari bilan silamoqda. Unga navbat kelganda qora tosh o'rnidan sillib ketaverdi.

Izdihom Ka'baning hovlisidan chiqib, yonma-yon joylashgan Safo va Marva tog'lariga qarab ketdi. U ham ergashdi. Lekin o'ziga tutqich bermagan qora tosh ko'z o'ngidan ketmadi. Dastlab ehromga kirgan kundan boshlab hajga kelgan kishining bajarishi lozim bo'lgan farzlarning hammasini bajardi: g'usl qildi, namozlarni o'z vaqtida ado etdi, tirmog'ini bo'yattirdi, badaniga iblisning iflosligidan poklovchi muqaddas yog' surttirdi, umrani o'z vaqtida bajardi, qurbonlikka oq tuva atadi. Ka'baning hovlisiga dafn etilgan yuzdan ortiq payg'ambarlarning qabrini ziyorat etdi, har biriga sadaqa berdi. Egnida ehrom borida qon to'kmadi, ko'zguga qaramadi, gunoh ishlar haqida o'ylamadi, o'ngida yoki tushida ayollardan manfaatlanish haqida fikr qilmadi. Shunday bo'lsa ham, hoji bo'lib, boshiga salla o'raydigan vaqtda muqaddas qora tosh uni o'ziga yaqinlashtirmadi. U bunday og'ir jazoga ne uchun duchor bo'lganini bilolmadi. Muqaddas Makka tuprog'iga qadam qo'ygan, umra va haj amallarini to'liq bajargan musulmonning barcha gunohi kechirilmasmidi?

U oldinda changtib yugurib borayotganlardan qolmaslik uchun hansirab chopqillaydi. Tomog'i qurib, nafas olishi qiyinlashadi. Ko'z oldidan hamon muqaddas tosh ketmaydi. U hukmdorning

oldida charxning toshidek gir aylanib qochib borayotgandek, qancha quvsa ham yetkazmas edi.

Izdihomning boshi Ibrohim aleyhissalom Ka'bani bunyod etayotganida o'g'li Ismoilga bir yutum suv topa olmasdan Hojar onamiz yetti marta aylanib yugurgan Safo va Marva o'rtasidagi vodiya yetdi. Shoshib-pishib u ham keladi. Ovozi boricha: "Haq Taolo, har qanday xizmatimga hozirman", — deb baqiradi. "Hammaga nasib etgan mehringni mendan ham ayamagin", — deb yolvoradi. Lekin gir aylanib yurgan muqaddas tosh unga yetkazmas edi. U Allohga ovozim yetmayapti deb o'ylaydi va qurib qolgan tomog'ini qattiqroq qirib, baralla ovozda baqiradi: "Lab-bayka..."

Hukmdor qattiq ovozdan uyg'onib ketdi. Ipak chodirdan sal-pal quyosh ko'rinadi. Allaqachon tong otgan edi. Tashqaridan g'ang'ir-g'ung'ur ovozlari eshitiladi. Hukmdor yonidagi qo'ng'iroqchani jaranglatdi, eshikdan mulozim ko'rindi.

U kiyinib tashqariga chiqqanda, quyosh ancha ko'tarilib qolgan edi. Otlar egarlangan. Ovga qo'shiladigan tozilar, ko'ppaklar, bo'ribosarlar va ayiq tutadigan arlonlar oldinga intiladi. Qushbegilarning qo'lidagi burgut, qarchig'ay, itolg'i, lochinlar tonggi tinchlikni buzib, tinmay chinqiradi. Top-toza havoda qorli cho'qqilar oynadek yarqiraydi. Pastdan, dara tubidan, tog' irmog'i shovullaydi. Yoppasiga qurollangan, qush ushlab, it tutgan qahrli to'dadan o'zlariga xatar yo'qligini bilgandek mitti sayroqi qushlar tinmay chug'urlashadi. Ulardan boshqa hayvon va qushlar qayoqqadir g'oyib bo'lgan.

Hukmdor yaqin masofada saf tortib turgan asilzodalarga qarab yurdi. Ular egilib ta'zim qilishdi. Hukmdor sovuqqina bosh chayqadi va ikki navkar yigit ushlab turgan otga mindi. Kamonini oldi. Boshqalar ham birin-ketin uzangiga oyoq qo'yishdi. Karnay ovozi vodiy ustida hukmron bo'lgan sokin havoni tilib yon-atrofga taraldi.

Orqalariga karnaychilar va nog'orachilarni ergashtirib hayvonlarni haydovchi izquvarlar avval otlandi. Ular to'da-to'da bo'lib, hayvonlar yashiringan chuqur jarligi ko'p qalin daraxtzorga yo'l olishdi. Yo'l-yo'lakay biror hayvon uchrasa, asilzodalar yuradigan

ochiq maydonga haydab chiqadi. Hukmdor va asilzodalarning ortida tasodifiy xatardan qo'riqlovchi navkarlar kelmoqda.

Qator chodirlar tikilgan dabdabali qarorgohda bir necha qurolli soqchilar qoldirildi. Boshqalar ovdonga yo'l oldi.

Hukmdor jimgina borardi. Yonidagilar ham indashmaydi. Ilgarilari ehtirom ila ta'zim bajo keltirishi hukmdorga huzur baxsh etardi. Bu gal esa yuragiga tikan bo'lib qadalmoqda. "Bu muloyim boquvchi nigohlar nahotki menga achinish bilan boqayotgan bo'lsa?" Hukmdor uchun bundan ortiq xo'rlik bormi? Ularning bunchalik sukunatga berilganiga qaraganda, uning jonini yeb turgan zararkunandadan xabari bor, shekilli. Boshqa paytlarda shikor desa oyog'ini qo'lga olib yugurib, quvonchlarini namoyish etishardi. Bu gal hammasi vazmin bo'lib qolishibdi. Hatto kecha ham dasturxon atrofida shod-xurram o'tirishgandi. Bugun kutilmaganda og'ziga qopqoq qo'yib tinchib qolishibdi. Yoki uning uyquda alahlagan gaplarini eshitib qolishganmikan?.. Eshitishgan bo'lsa hukmdorning xafa ekanini, albatta, tushunadi. Xo'sh, ular o'z hukmdorlarining tushida Allohga yolvorganini qanday ta'bir qilishayotgan ekan? Hukmdorning dilini zirqiratgan hasrat mushohadasi ila bandmikin? Yoki avval eshitgan mish-mishlar haqiqat ekan-ku, deb kelayotgandir? Agar hech narsa eshitmagan bo'lsa, hukmdorning g'alati ahvoliga hayron bo'lib indamay qolishmasdi. Lekin uning hech narsani e'tibordan qoldirmaydigan ziyrak nigohi hech birining yuzida hayrat alomatini ko'rmadi. Yonidagi hamrohlarning boqishlaridan ehtiyotkorlik va muloyimlikdan boshqa narsa sezilmasdi. Ba'zilar daraxtzor orasiga ov quvalab ketganlarga tez-tez quloq tutishab qo'yishadi.

Ular tekislikka tushaverganda tog' tomondan nog'ora chalinib, karnay ovozi yangradi. Tog' irmog'ining sadosiga qo'shilib, dukur-dukur ovozlari eshitildi. Singan buta va to'p-to'p tuyuq dukuri, qulagan toshlarning shaqir-shuquri aralashib ketdi. Hamma diqqat qildi. Hukmdor o'midan qo'zg'almasdi. Itlarnig ovozi tobora yaqinlashardi. Yonidagilar uning harakatiga qarab, g'ijinglagan otlarining boshini tortib qo'yadi. U hamon jim edi. O'zan bo'yidagi zich to'qayda tasir-tusur kuchaygach, bosh vazirga imo qildi.

Otliqlar undan biroz uzoqlashgach, vodiya qarab hayqirib chopishdi. Hukmdor bu guruhga qo'shilmagan orqada qoldi. Irmoq tomondan bir uyur chiqib etakdagi keng sayhonlikka quyundek yelib borardi. Ovchilarning aksari ularning orqasidan chopdi. Yana bir necha kichik to'da daryo sohildagi keng vodiyni har yer-har yeriga kirib ketdi. Hozirgina yonida churq etmasdan uni kuzatib kelayotgan ko'zlardan qutilgach, u o'lja quvib, baqiriq-chaqiriq kuchaygan tekislikka tushmasdan ot boshini daryoga ko'ndalang kelib qo'shiladigan soy tomonga burdi. Shildirab suv oqayotgan kichkina o'zan sohilini qalin qamish qoplagandi. U soy bo'yiga yetgach, otdan tushdi. Navkarlar ham otlarini ushlab tushunmasdan unga qarab turardi. Hukmdor qamish orasidagi buloqqa burilgach, uning orqasidan yurishga taraddudlanib to'xtab qolishdi. U qamish orasiga kirib, buloq bo'yidagi xarsang-toshga o'tirdi. Tog'ning top-toza suvini kaftiga olib, yuz-qo'lini yuvdi. Keyin bo'ynidagi kamonini olib yoniga qo'ydi. Kamarini bo'shatib, tosh ustiga yonboshladi. Ko'pdan beri begona ellarda yursa ham, hozirgidek bir o'zi yolg'iz qolmagandi. Bugun hech kimni ko'rishni istamaydi. Har xil gaplarni aytguvchi hamrohlari orqasidan nima desa desin-u, lekin yonida o'tirma kifoya. Aks holda, ularning yuzidagi har bir arzimmas imo-ishrani kuzatib asabini charchatadi.

Atrof yam-yashil maysazor. Qamish uchidagi tungi shabnam hali to'liq qurib ulgurmabdi. Qalin qamishdan arang ko'rinib turgan cho'qqilar ham kechasi cho'milgandek top-toza. Mayingina shabada yelib o'tdi. Lekin ko'ngil g'ashligi tarqalmadi. Kechasi ko'rgan tushini esladi. Anavi qorli cho'qqilar Arofat va Muzdalifaning, Safo va Marvaning kuygan jigardek qo'ng'ir cho'qqilariga, mulozimlari baqirib-chaqirib o'lja quvib yurgan yashil vodiypuprog'i changigan Mino vodiysiga mutlaqo o'xshamaydi. Lekin tushidagi yerlarning chang-to'zoni, issiqda kuygan tuproq hidi qalbini batamom egallab olgandek.

Umrida ko'rmagan olis o'lkaning ko'z oldida aniq namoyon bo'lganiga u hamon hayratda edi. Bu hajga ko'p marta borib kelgan pirdan eshitgan hikoyalari ta'sirimikan? Hech qachon o'ylab ko'rmagan muqaddas o'lka nega uning tushiga kirdi? Yoki ota-

bobolari uning bugungi inqirozdan qanday qutilish yo'lga ishora qildimikan? Darhaqiqat, nega hajga bormaydi? Moziyga qarasang, qarigan chog'ida Ka'batullohning muqaddas toshini to'vof qilib, boshidagi tojni sallaga, qo'ldagi oltin tayoqni asoga almashtirib, faqirona hayot kechirgan podshohlar oz emas-ku! Lekin ularning ham pushaymon holatga duchor bo'lib, tarkidunyo qilmaganligiga kim kafolat beradi? U tushida tavof qilmoq uchun intilganida qora tosh nega tutqich bermadi? Yoki uning gunohi jumlayi jahondagi barcha bandalarning gunohidan ko'p bo'lib, aslo kechirilmasmi? Muqaddas kitoblarda toj va taxt sohiblarini "Xudoning yerdagi soyasi" deb aytishgandi-ku! Yaratgan Egam nahotki kechirmasa? Yoki "yurar yo'ling bu emas, sening yo'ling boshqa" deganimi bu? Unday bo'lsa, Yaratguvchi uni har qanday bandaga munosib, loaqal, aytishga ham uyaladigan holga nega duchor etmish? Dunyoda ayol makridan keladigan kasofatdan ortiq narsa yo'q-ku! Ko'p vaqt ta'qib va quvg'inda yurdi, lekin hech birida bu galgidek aftodahol bo'lmagandi. Ularning hammasi qilich ushlab, haqiqiy erkakning jonini fido qilish bilan barobar edi, obro'siga dog'tushmasdi. Shunchalik sharmanda bo'ladigan qanday yozug'i bor edi. Yozug'i Alloh Taolo o'zi nasib etgan toj va taxtning obro'sini himoya qilganimi? Ko'plab kufri taqdirga itoat ettirib, ko'plab kofirni payg'ambarning yashil bayrog'iga tavof qildirtdi-ku! Nima ish qilsa ham, sal to'ysa Xudoni tanimay ketadigan olomon tong qolmasa, hech kim bir gap aytolmaydigan darajada ado qilardi. Doimo nafs qullarining oson kesib-bichadigan yengil nomi, oson o'lchamlaridan qochar edi-ku. Yoki xalqning o'ylamaganini o'ylaganim, xalq qilmaganini men qildim degan tamasi kufriik bo'ldimi? Balki, kufriik bo'lsa bo'lar, lekin uning amalga oshirgan buyuk ishlarini shunchaki nafs deb atash mumkin emas. Kufriik — nafsning qarindoshi. Kishini kufriiga ochofot nafs boshlaydi. Mustabid hukumat, haddan ortiq shafqatsizlik, noo'rin saxiylik ham kufriik hisoblanadi. Barcha kufriik zaminida nafs qonmas, to'ymas xushtorlik mavjud. Maqtovsevarlik, xirsparastlik, baxtga xumor bo'lish — bularning asosi bir. Dovyurak, qo'rqmas o'g'rining to'shagi qurimaydigan fohishadan hech qanday afzal-ligi bo'lmaganidek, qo'ldagi hokimiyatga haddan ortiq mahliyo

bo'lgan podshohning har kimga quchog'ini ochuvchi fohishadan farqi arzimasdir.

Demak, uning qo'lidagi cheksiz hokimiyat, shon-shuhrat, obro' — hamma-hammasi yengiltak fohishaning yuzidagi arzon chiroydek, molparast savdogarning qo'lidagi sassiq boylikday bevafo foniyning oz kunlik ovunchog'i bo'lib chiqdi.

Foniya ko'p marta gunoh sodir etgan oddiy bandalarning hammasi tavof qilgan muqaddas tosh nega undan qochmoqda? Hamma narsani bilguvchi Egam uning dilida o'rmashib qolgan o'zi kabi podshohlarga past nazar bilan qarashidan xabardor ekan-da! Demak, muqaddas qora toshning bunday harakati bilan boshingda oltin toj, tagingda oltin taxting bo'lsa ham, aslida onadan tug'ilgan banda ekanligingni tan olmayсан, bandalarning gunohigina kechiriladigan yerga nega bosh egib kelding, deb uni ogohlantir-yapti. Unday bo'lsa, qarigan chog'ida tarkidunyo qilib, dunyodan voz kechgan podshohlar darveshona hayotdan qanday yupanch topmoqda? Balki, ular faqirlik yo'lga gunohlariga kafforat uchun emas, badanidan kuch, so'zlaridan darmon ketgan chog'ida oddiy olomonning g'azabiga duchor bo'lmaylik deb ketgandir. Chunki bandayi faqir o'zidan kuchliga ham, notavonga ham kechirim nigohi bilan boqadi. O'zidan yuqori tursang, etagingni o'pib, oyog'ingga yiqiladi, bir nima aytasang, "labbay taqdir" deb itoat qiladi. O'zidan ko'ra ahvoli mushkulroq bechora bo'lsang, shafqat tuyg'usi uyg'onadi, bir nima desang: "Noiloj, boyaqish, unga ham oson emas", — deb achinadi.

Davrda davron surgan podshohlarning taxtdan tushadigan vaqti yaqinlashganda qalandar kulohiga qiziqishlari ham bandalarning xulq-atvorini obdan o'rganib, ularga kulgu va masxara bo'lishdan qochganlaridandir. Darhaqiqat, har tomondan poylab, tirnoq tagidan kir izlab, agar ko'nglini topolmasang, mish-mishlarni tizishga tayyor olomonning ko'zidan qutulishning birgina yo'li: toj va taxtdan voz kechib, hajga borib, qolgan umrini yelkasiga xalta osib, qalandarlik bilan o'tkazish. Balki, ana shunda avomning ko'nglidagi nafrat birdan shafqatga aylanar. Hasad ila boqqan ko'zlarda achinish paydo bo'lar. Shu tariqa u hamma bilan barobar oddiygina inson atalur. Ana shunda allakimlarning unga nisbatan

xatti-harakati hozirgidek og'ir tegmas. Shunday kunlar kelsa, u bilan hech kimning ishi bo'lmasdi.

Hukmdor xalq kechirayotgan oddiy hayotga rostakam qiziqqa boshladi. Kechasi ko'rgan tushi ham ota-bobolarning a'yonidir, balki. Esladi: kelasi oy — musulmonlarning haj qiladigan zulhijja oyi.

U tezroq piriga uchrashib, tushi ta'birini bilishni istadi. Bu be'mani ko'ngilxushlikni darrov to'xtatib, shaharga qaytishga shoshildi. U hozir iziga qaytib, nog'orachiga bu qarorini ma'lum qildiradi.

Hukmdor tagidagi toshning qovurg'asiga botayotganini endigina his qildi. Ikkinchi yoniga ag'darilmoqchi bo'lganida qamishlar shitirlab ketdi. Uning qo'zg'alganini sezib qoldi, shekilli, shitir birdaniga to'xtadi. U gavdasini ko'tarib, o'tirib oldi. Shu asnoda yashil qamish orasida bir targ'il hayvonni ko'rgandek bo'ldi. Shu damda uning ko'rganini sezib, undan yashirinishni istamagandek targ'il hayvon qamishlar orasidan otilib chiqdi. Yo'lbars... Mushuk yurish bilan yaqinlashib kelmoqda. Uning a'zoyi badanini birdan qamrab olgan sovuqlik asta-asta yo'qoldi. Hatto qo'l cho'zsa yetgulik yerdagi kamonini olishga shoshilmadi.

Kechagi tushini endi tushungandek bo'ldi. Duch kelgan tavof qilayotgan toshning undan qochgani kutilmagan ajal darakchisi ekan-da. Demak, avomdan o'zgacha yashagan hukmdorning ajali ham o'zgacha bo'lar ekan-da.

Yo'lbars tobora yaqinlashardi. U Alloh Taoloning cheksiz girdobda bo'g'iltirib qo'ymasdan, rahm ila yuborgan o'limini betoqat kutdi. Hozir u ko'pdan beri qalbida mustahkam o'rin olib joylashgan botmondek og'ir darddan batamom qutuladi. Har tomondan alanglab qarab, har bir qadamini kuzatib turgan suq ko'zlardagi cheksiz nafrat ham yo'qoladi. Turli xil rivoyatlar aytib vaysaydigan og'izlar endi ochilmaydi. Buning har bir ishorasiga og'zini ochib, ko'zini yumib o'tiradigan olomon bundan keyin uning o'limini og'izdan og'izga, eldan elga, asrdan asrga yetkazib, yangi tafsilotlar qo'shib, yirik afsonaga aylantiradi.

Yo'lbars qulog'ini dikkaytirib, yanada yaqinlashdi. Birdan yerga yotib oldi. "Hozir tashlanadi", — deb o'yladi hukmdor.

Tuproqni timdalovchi pichoq tirnoqlar uning halqumiga yopishadi. Tishlari uning chakkasida paydo bo'ladi. Birdan yo'lbars bezovtalanib, uning o'ng tomoniga boshini burdi. Qarasa, uning navkarlaridan biri to'qayzorda paydo bo'lgan yo'lbarsni ko'rib sarosimada qolibdi. Sal vaqt o'tgach, hushini yig'ib kamonini ushladi. Hukmdor ham ana shundagina kamonga qo'l uzatdi.

Nishonga ola boshlagan navkar yigit targ'il yirtqichning o'midan otilib turayotib qulaganini ko'rdi. Hayron holda kamonni pastga tushirdi. Shoshilmasdan kamonini osayotgan hukmdorni ko'rib qoldi. Hukmdor ohista odim bilan cho'zilib yotgan o'ljasi-ning yoniga keldi. O'q ayni yurakdan teggandi. Raqibiga tashlanishga imkoni bo'lmay qolgandi. Hukmdor kutilmaganda duch kelgan o'z ajalining nishonga ololmaganigami yoki o'z qoniga belanib yotgan hayvonlar podshohiga achindimi, har holda xo'rsinib qo'ydi. Ortidan, sababini o'zi ham fahmlamadi, kulib yubordi. Aftidan, targ'il yirtqichni navkaridan avval o'zi otganidan mamnun edi, aks holda, o'sha navkar: "Hukmdorni men ajaldan qutqardim", — deb kekkayib yurardi-da.

Hukmdor buloq boshidan chiqdi. Ot ushlab turganlar yo'lbars terisini shilib, bir-biriga gal bermasdan gapira boshladi.

Ulug' hukmdor haqidagi yangi hangoma shu kuni shikor-dagilarning og'zidan tushmadi. Ertasiga hukmdorning buyrug'i bilan bepoyon shaharga qaytib kelayotganda ham faqat shu voqea takror aytili.

Hukmdor hech kimga "g'ing" demadi. Tund holda o'ylanib kelaverdi. Kechqurun shaharga yetishdi. Yana uxlolmadi, saharcha ag'anab chiqdi. Shikorda ko'rgan tushi va yo'lbars bilan kutilmagan uchrashuv busiz ham murakkab hayotini avvalgidan ham tushunarsiz, avvalgidan ham jumboqsifat etgandek.

Har ne bo'lsa, bir qarorga keladigan chog' keldi. Yaratgan Egam yuborgan ajalidan o'zining saqlab qolganiga qaraganda, undan mutlaqo yangicha qaror kutmoqda. Lekin bu qaror qanday bo'lishi kerak? Tushida ko'rganidek tojini sallaga almashtiradimi?.. Har holda, saroydagi bekinmashoch hayot jonga tegdi. Endi pirga uchrashib, tushining ta'birini bilmog'i shart. Ko'pdan beri ziyorat qilmagandi. Balki, undan gina qilib o'tirgandir.

Ertalab quyosh ko'tarilmasdan aravaga o'tirdi. Bepoyon shaharning janubi-sharq tomonidagi o'rkach-o'rkach tizma tog'larga yo'l olishdi. Bu joylar tushida ko'rgan o'lkaga o'xshar ekan. Bu yerda ham qovurilgan jigardek qo'ng'ir cho'qqilar. Bu yerda ham saraton taftida qizigan tuproq hidi. Bir-biriga yelkasini tegizib turgan g'adir-budur toshlar va qatlam-qatlam xarsanglarning qoq o'rtasida, qora jarlikning qibla tomonida yakka-yu yolg'iz qora cho'qqining boshiga qo'ngan semurg'dek g'or ko'rinadi. G'or oldida bir narsa sal-pal oqarib ko'zga tashlanadi. Arava yaqinlashgan sari oqarib ko'ringan narsa ravshanlasha boshladi. Qora toshning soyasida oq sallali qariya o'tirardi. Etakda yaqinlashib kelayotgan dabdabali aravani ko'rib o'tirgandir, lekin qimir etmadi. Qiblaga termilgan holda o'tiraverdi. Hukmdor navkarlarini pastda qoldirib, g'orning oldida o'tirgan piriga doim faqat bir o'ziga ko'tarilardi. Bu safar ham odatini kanda qilmadi. Har bir uzoq yurishga o'tlanishidan avval yirik xarsangning tagida o'tirgan jikkakina qora choldan fотиha olardi. Keyin bepoyon shahardagi eng katta masjidda namoz o'qirdi. Shundan keyingina safarga o'tlanardi. Mana shu yonbag'irga chiqish olis safar, qiyin yurishdan ham qiyin va og'ir edi. Chunki bu so'qmoq haddan tashqari sirpanchliq edi. Ilgarilari bu cho'qqiga bemaolol chiqardi. Lekin bu safar yo'l boshidanoq oyog'i zirqiray boshladi. Tez-tez to'xtab, belini dam oldirdi. Ikki biqiga qo'rg'oshin quyib qo'ygandek beli og'irlashib, oyog'i uvushib qoldi. Nafasi bo'g'ildi. Pastda qolganlar oltin tojili podshohning puf desang uchib ketadigandek qora chol uchun shuncha azoblanayotganidan hayron bo'lib turgandir.

Qora tik qoyaning tagidagi jikkakina qari chol baland qoyaga tirmashib, xalloslab chiqib kelayotgan hukmdorga parvo qilmasdan, qibladan ko'zini uzmay qimirlamasdan o'tiraverdi. Kichkina boshiga katta oq salla o'rab olibdi. Kichkina yuziga salobat baxsh etgan bir siqim siyrak soqoli silkillab turibdi. Qalin qoshining tagidagi ko'kimtir ko'zini chirt yumgan. Hukmdor tik qoyaga chiqib, nafasini rostladi, bir yo'talib qo'ydi. Piri qimirlamadi. Quyosh nurida qurib qolgan eski oqish to'ning etagi tilim-tilim bo'lib ketgandi. Xuddi shunday kunda kuygan uzun shalvarining juldur-juldur pochasidan boldiri ko'rinadi. Asoni qo'liga mahkam ushlab

olgandi. Oriqqina qo'lidagi pay va tomirlar bo'rtib chiqqandi. Pir bir narsaga berilib o'tiradi.

Hukmdor oldiga kelib cho'kkalab o'tirdi va qo'l qovushtirib ta'zim qildi. Ana shundagina u ko'zini ochdi. Keyin osmonga qaragan boshini to'g'rilab, tik o'tirdi. Asta gapirib tashrif sababini so'radi. Hukmdor aytdi. Pir tik o'tirgancha uning so'zini beparvo eshitdi. Qovjiragan labida bir necha bor istehzo paydo bo'ldi. Hukmdor buni ko'rib sal to'xtab qolsa, kichkina ko'kimtir ko'zini olaytirib ochib olardi. Hukmdor bir necha kun avvalgi tushi va yo'lbars voqeasini aytib tugatdi-da, jim o'tirib piridan javob kutdi.

Pir picha o'ylangandek bo'ldi, qisiq ko'zining bir tomoni bilan unga qarab qo'ydi. Biroz o'tirgach:

— Yaratgan Egam, ota-bobo, avliyo-anbiyo hamma vaqt da bandalardan nima kutishini oshkor etmas. Achinsa, yo'l ko'rsatsa, imo va ishoralari ochiq-oydin bayon etiladi. Tabarruk insonlarni, arvohlarni ranjitgandirsan, bo'tam, o'ylan, — deb muxtasar qildi.

Pir sukutga cho'mdi. Qo'lidagi asosini tuproqqa qadab, oriq bo'ynini oldinga cho'zdi va qiblaga qaradi. Bundan hukmdor: “Boshqa gapim yo'q, qolganini o'zing bil”, — degan ma'noni uqdi. Hamma vaqt ko'rinishi jiddiy qariyaning unga bugungidek takabburligini avvallari hech qachon kuzatmagandi. Bugungi xatti-harakatlari yuragiga tikandek qadaldi. Ammo sir boy bermadi. Vazminlik bilan ta'zim qilib o'rmidan turdi. Ensizgina so'qmoqqa yo'l oldi. Piri holatini o'zgartirmadi. Maslahat bermadi, duo qilmadi; hukmdor yoshroq vaqtlarida achinib peshanasidan silab qo'yardi; bu gal uning yuzida osmonga qaragan takabburlik va zardadan boshqa narsani ko'rmadi.

Hukmdor nihoyatda qiyin so'qmoqdan yanada qiynalib tushdi. Qovog'idan qor yog'ib turgan hududdan tezroq ketishga shoshildi. Saroyga yetguncha hech yoqqa qaramadi.

Saroyga kirgandan keyin ham ancha vaqtgacha notayin jahliga minib, o'zini bosolmadi. Keng saroyda u yoqdan bu yoqqa yurishga qoyaga chiqqanda charchagan oyoqlari yo'l bermaydi. Bir yerda tinchgina o'tirmoqchi bo'lsa, oyog'i tagidagi guldor gilamga behisob ninalarni sanchib qo'ygandek his qiladi. “Qutulib

ketishning iloji bo'lmagan boshi berk ko'chaga kirma”. Umri davomida rioya qilgan shu qoidasi ham yolg'on bo'lib chiqdi. Endi, mana, behisob ellarni zabt etgan oltin tojli podshoh bo'lgan holda eri tutib olgan xiyonatkor ayolday, qo'lga tushib qolgan o'g'ridek nima qilishni bilmasdan sarosimada qoldi. Maslahat beradigan, uning ko'ngil dardini tinglaydigan kimsa yo'q. Ayni hozir bepoyon shaharning tashqarisidagi xarobalarning birida qisqagina umrining qolgan kunlarini azob bilan o'tkazayotgan ko'r yigit ham, tosh zindonda hukm kutayotgan bosh me'mor ham, to'rt devor ichida qamalib, garang bo'lib o'tirgan kichik malika ham undan yaxshiroq ahvolda. Ular bor baxtsizligi uchun humdordan xafa bo'la oladi. U kimga gina qiladi? Boshiga tushgan Qof tog'idek hasrat uchun kim aybdor? Uning nolasi Haq Taologa yetarmikan? Lekin piringing unga munosabati... osmonni asosi bilan ko'tarib turgandek uning yuziga qaramadi ham. “Eh, birovgacha kunning qolmasin ekan. Bundan ortiq xo'rlik yo'q. O'zi ham bu dunyoda kimgadir qaramlikdan ortiq uqubat yo'lignini bilib, o'smirligidan hokimiyat uchun kurashdi-ku. Qul bo'lib bosh eggandan ko'ra, quvg'inni afzal ko'rganligi haqiqat-ku! Qochib yurib ko'p marta xatarga duch kelgani ham rost. Bularning hech birini hozirgacha unutmagan. O'sha kunlarini eslasa, chandiq bo'lib bitgan yarasi og'rib, a'zoyi badani zirqirayveradi. Lekin tobelikdan, ta'zimdan o'zi mosuvo bo'lgan holda qaysi bir oldiga kelgan kishilarning maqsadini tushundi, qaysi birini astoydil qo'llab-quvvatladi? Yuksak niyat bilan oldiga kelgan aziz boshni qahr bilan qarshi oldi, ta'zim qilib kirgan xo'r boshdan hazar qildi. Lekin takabbur, manman bo'lgani uchun shunday qildimi? Maqsadi: podshoh nomiga dog' tushirmaslik edi. Juldur kiyingan tilanchiga joni achigani uchun emas, gadollik charchatgan miskinning nochor qiyofasi va burun jiyirtiradigan badbo'y hididan tezroq qutulishni istagan g'arib kimsalarning sadaqasidek shunchaki ko'zni aldovchi bir amal edi. Balki, qaysar chol unga birovning qo'lga qarashning nima ekanligini bilsin deb bugun jo'rttaga shunday munosabatda bo'lgandir. Ko'pchilikning boshidagi kunning unga ham kelishini shama qilgandir. Lekin buni mo'ysafidlarga xos tarzda aytishi ham mumkin edi-ku. Avvallari har qanday muhim va mashaqqatli ishda maslahatga borganida

ulug' yoshiga mos ravishda qarshi olardi. Necha kundan beri eng avval kimning yuzida ko'raman deb alanglab yurgan kinoyani Xudodan keyingi yolg'iz suyanchim deb yurgan pirida ko'rdi. Ha, avom uning ko'zidan doim yashirib yurgan istehzoni u bir zumda oshkor qildi. Hatto "arvohlarni ranjitding" deb aytdi-ku. Arvohlar ni ranj etgani — kichik malika haqida aylayotgan gap-so'zlarga beparvo bo'lganiga ishora. Pirining fikricha, shayton avragan urg'ochining gunohini yashirgani — o'z to'shagiga teggan dog'ni kesib olib tashlamasdan, xalqning ko'zidan kafti bilan bosib o'tirgani. U nima qilishi kerak edi? Kichik malikaga talog'ini bersa, tarixda hech bir shoh amalga oshirmagan sharmandalikka u yo'l qo'yarmidi, xalq oldida betayin daydi bir yigit to'shagimga ko'z olaytirdi, deb o'zi iqror bo'larmidi? Shunda boyagi o'jar chol nimaga gina qilmoqda?

U holda gunohkor malika va uning xushtori o'rniga o'zi shar-manda bo'lardi-ku! Piri gunohkorni jazolashning o'rniga, uni tahqirlanishi xohlayaptimi? Bunday harakatga kichik malikaning yer bilan yakson bo'lishini ishtiyomand bo'lgan, hatto bu yo'lda hukmdorning rasvosi chiqsa, qayg'urish o'rniga quvonadigan ulug' malikaga bosh bo'lib tursa bir narsa demasdi. Lekin otasi bilan hamsuhbat bo'lgan piri nechun bunday qadamni istaydi? Qo'lida aso, tilida zikr bo'lgan holda u kundoshlik ko'zini ko'rgan malikaning beandisha niyatini nega qo'llab-quvvatlaydi? Har ne bo'lsa piri ulug' malika saroyining aytganlari bilan yurmoqda. Uning yuzidagi istehzo, harakatidagi tahqir ham shulardan o'tgan. Ulug' malikaning atrofidagi tuyani tugmadek qila oladigan maston jodugarlar avliyo cholni ham o'z yo'rig'iga yuritgan. Ul-arning sehri shunchalik qudratlimi?

Hukmdorning yuzida achchiq kinoya paydo bo'ldi. U, hatto firibgar, jodugar mastonlarga laqqa tushgan avliyo cholga ach-nib ketdi; yuzidagi kinoya achinishga almashti. Avliyo chol, balki, vasvasa ta'sirida aljiragandir. Har bir qadamda or-nomus savdolanadigan bu dunyoda hamma, hatto piri ham o'z yo'lidan adashishi mumkindir. Chunki bu dunyo, har holda, bir narsaga ishqibozlikdan iborat bo'lgani uchun nafsga tobe bo'lish, gunoh-ga botish hech gapmas. Ishaqibozlikdan yaralgan banda hayoti

ishqibozlikdan nihoyasiga yetsa hayron qolish kerakmi? Ishaqiboz-lik — bu nafs, nafs banda bo'lsa, piring o'zi ham banda-ku. U ham boshqa bandalarni o'ziga ergashtirishga harakat qiladi. U bu hayotda ko'p narsani tark etgan bo'lsa ham, lekin batamom tarki-dunyo qilmagan. Hammaga ta'sir etishni kanda qilmabdi. Ham-maning girdikapalak bo'lganini, ta'zim bajo etganini xush ko'radi. Hatto oltin tojli shohning oldiga kelib, tavof etmog'ini pisanda qiladi. Maqtanchoqlik haddan oshishdir. Har bir haddan oshish-lik — kufrlik. Har bir kufr esa gunohdir. Demak, piri ikkovining gunohi baravar. U hukumatparast va beshafqat bo'lsa, u ham xud-di shunday. Bundan bir misqol kam emas. Hatto Allohning nazari tushgan podshohni mensinmagani uning kufr botqog'iga beligacha botganidir. Bandalikning ko'k tumanida qolib, ko'zidan ayrilgan azozilga ergashadi. Mo'tabar cholning katta malika saroyi chizgan chiziqdan yurishi shartmidi? Qari avliyoning bo'lajak valiahdni tarbiyalagan boyvuchchaning aytganini bajarishi ham uning oddiy banda ekanini ko'rsatadi. Demak, u faqat bugunni o'ylamasdan kelajak haqida obdan mulohaza qilgan.

U o'zining xatti-harakatini bilmasdan, hukmdorni nega shun-cha ayblaydi? O'vda ko'rgan tushi uning sarosar holati uchundir. Ka'baning toshini ushlovmagani uning nima qilishni bilmasdan boshi berk ko'chaga qamalgan afsuslar bo'hronidir. Darhaqiqat, u nima qila oladi? Agar qudratli Alloh ayni hozir kutilmagan ofat yuborib, ko'zining qorachig'idek asrab-avaylagan poytaxtini batamom yer bilan yakson etsa, u ranjimasdi. Aksincha, xursand bo'lardi. Ko'zga yomon ko'ringan zangori minoradan ham qu-tilardi. Falokatdan chivindek cho'zilib, jonsiz jasadga aylanadi-gan kimsalarning dillaridagi mish-mishlar ham birvarakay yo'q bo'lardi. Ana shu qirg'inbarotda hamma bilan birga o'zi ham baqoga otlansa, umuman, o'kinmasdi. Haytovur, nafsoniyatga tegadigan mudhish g'iybat o'zi bilan birga yo'qlik sari yo'l olardi. Lekin... bu ham shunchaki xomxayoldir.

Hukmdor mana shu damda yassi olamni zabt etolgan eng qudratli hukmdor bo'lganidan afsusda edi. O'ylab qarasa, yaqin atrofda sassiq og'iz, ola ko'z noinsoflar to'plangan bu shaharni bosib olib, vayron qilishga qodir kuchli raqib qolmabdi. Faqat bir-

gina yov bor. Dunyoning bir chekkasida turib o'zining kuchi bilan tahdid qiladigan qandaydir qisq ko'zlarga ham nafrati oshkor edi. O'rindan qo'zg'alishga shoshilmagan dushmanlarga qasd qilib, o'zi qilich ko'tarib borsa-chi?!

Hukmdor qat'iy qarorga keldi. Anchadan buyon ko'ngliga tugib yurgan safarni tezda boshlash kerak. Olomonning ko'ksida tez-tez yig'ilib qoladigan begona hislarni faqat qonli urushgina xalos qiladi. Dushmanlar tinch yotaversin, o'zi boradi. Mish-mishga usta olomoni urushga olib borib, ming-minglab o'ldirib qaytadi. Tirik qolganlarning g'iybat aytishga madori yetmaydi. Omon qolganlari uchun unga avvalgidan ham battarroq itoat etdi.

Hukmdor darrov urushga tayyorlanishga farmon berdi.

V

Daryo ortda qoldi. Ham havas, ham hadik bilan qarab turgan xaloyiqdan uzoqlashib ketdi. Tep-tekis sahro, bepoyon dala boshlandi. Sahroning jazirama issig'i yana kuchini ko'rsata boshladi. Behisob lashkarlar to'piqdan qum kechib ohista odimlaydi. Oftob ko'tarilgan sari o'tliqlarning arzimas ko'lankasini ham yuta boshladi. Endi ularning o'zlarini mahv etmoqchidek yerga olov sochadi.

Jazirama kuchayib-kuchayib hukmdor o'tirgan aravani ham zabt etdi. Hukmdorning nafasi qayta boshladi. Hansiragan holda bir yutum havo ilinjida pardani surib, tashqariga qaraydi. Kimsasiz sahro. Qum va toshlar yarqiragan quyosh nuriga qarshi biror chora topmasdan qo'rg'oshin kabi erib yotgandek. Otlar qumloqda oyog'ini sudrab bosadi. Cho'ldan bezor bo'lgan kichkina qo'shcha balandga parvoz qilmasdan, yer betiga qo'nmasdan aravaning soyasini panalab kelardi.

Hukmdor bu dunyoda jimjilloqdek qushdan boshqa hech narsa qolmagandek, chag'ir ko'zini uzmasdi. Kichkina qushchanning yashash uchun kurashayotgani ta'sir eta boshladi. Yerni tандirdek qizdirib borayotgan saratonda jonini qanday saqlashni bilmasdan chirqillaydi. Balki, bu hayotda bundan boshqa hech qanday ma'no yo'qdir. Bundan boshqa harakatlarning barchasi ma'nosini yo'qotgandir. Harakat nechog'lik tez va shiddatli bo'lsa, shuncha-

lik tez ma'no va mazmundan judo bo'lsa kerak. Manavi o't sochgan quyoshning ilk ajdodi — ipakdek yelpiydigan mayin shabada edi-ku. Dastlab kurrayi zaminni chang-to'zondan tozalayman deb esgan uyatchan epkin o'z ishiga haddan ortiq berilib, bora-bora yer yuzidagini tugal kuydirib-yondiradigan garmselga, nafsidan ajal sachragan qizil oftobga aylanmadimi... Ana, bechora qushning oyog'ini o'tdek yondirib, qanotini gulxan bo'lib kesib, o'z domiga tortmoqchi, shekilli. Hukmdor ajal oldida ojiz qolayotgan mitti jonivorming oxirgi azobini ko'rishni istamagandek, ko'zini yumib oldi.

Dunyoni qovurib borayotgan olov uning ham butun jismini yondira boshladi. Torgina chodirini beshafqat jallodlar egallab olgandek, qimirlashga majoli yo'q. Do'zax o'tiga qovurilayotgandek bir holda edi. Atrofini yuzlab Munkar-Nakir o'rab olib, joningni ber deb shovqin qilayotgandek edi. Ehhe, kutilmaganda tushib ketgan uzugi uning bu yurishdan omon qaytmasligiga ishora ekan-da. Uzoq safarga otlanayotib nafratiga duchor bo'lgan kishining ro'parasida paydo bo'lgani yaxshilik alomati bo'lmas kerak.

Hukmdorning ko'z o'ngida ko'r yigit gavdalanaverdi. Eshak aravasini daryo bo'yiga tashlab, uning aravasiga ko'chib kelib, ro'parasida tikilib o'tirgandek. Porlab turgan qorachig'idan ayrilgandan keyin yuzidagi ilgarigi mehr ham g'oyib bo'libdi. Odobli yosh yigitga xos izzat-iltifotdan nom-nishon qolmabdi. Ikki ko'z chuquriga maxluq kirib olganday. Halqumi turib chiqib, burunlari bujmayib, ikki beti kuldek oqarib ketgandi. Ko'rinishdan odam cho'chirdi. Mana, u bunga qarab yaqinlashmoqda. Ozib ketgan betida hech bir alomat sezilmaydi. U behisob lashkardan ham qo'rqmaydiganek dadil edi. Butun olamdagi har bir tirik bandaning qulog'iga ko'k nayzaning uchidek sovuq eshitiladigan hukmdorning shuhratidan hayiqmasligi ko'rinib turardi. Qoqsuyak bar-moqlarini uning halqumiga tobora yaqinlashtirardi.

— Qo'rqma, — dedi qandaydir xirildoq ovoz, — borar yering baribir yerning tagi...

Hukmdor lol-u hayron. Bu nimasi? Axir, uning tilini kestirib tashlagandi-ku! Jallod bir parcha go'shtni yerga tashlaganini ko'rgan edi-ku! Ovoz qayerdan kelmoqda? Yoki uning yana tili

o'rganmikan? Yoki tili kesilsa ham, kishi soqov bo'lmaydimi? Balki, bu ovoz me'mor yigitning ovozi emas, hukmdorning ovozi zidir?

Hukmdorning ko'zi kosasidan chiqib borardi. Oldida turgan maxluq ko'rning qonsiz quruqshagan labida istehzoli kulgi paydo bo'ldi. Hukmdor orqasiga chekinganday yotib borardi. Uni botqoqlik o'z domiga tortib bormoqda. U so'nggi nafasida bir qimirlashga kuch topolmay chorasiz holda edi...

Hukmdor ancha vaqtdan keyin ko'zini ochdi. Arava isib ketgandi. Yumshoqqina ko'rpachaga yotib qolgan ekan, issiq ko'rpacha ham issig'ini oshirardi. U arang boshini ko'tarib, eshik tomonga qaradi, hech kim yo'q. Haligi ko'r qayoqqadir g'oyib bo'libdi. U qaynagan saraton issig'i va necha kundan beri qiynayotgan og'ir, shafqatsiz o'ylardan qaynab-qaynab bo'tqaga aylangan bemajol miyadan ongi xiralasha boshlaganini, (hozirgina oldida o'tirgan) kechuv yonida ko'rgan ko'r ham, uni so'roqlashga kelgan Munkar-Nakir ham yo'q edi. Bu qo'rqanga qo'sha ko'ringan shunchaki alahsirashdan boshqa narsa emasligini endi tushundi. Lekin ko'ngliga batamom o'rnashib olgan zo'ravon gumonning baribir uning boshini yemasdan tinmasligiga ishonchi komil edi.

U yana hushidan ketdi. O'zini bepoyon sahroda ko'rdi. G'adir-budur tepalar, qum-shag'allar allaqanday tushunarsiz yozuvlarga to'la edi. U so'nib borayotgan xira nigohining so'nggi quvvatini jamlab, yozuvni arang o'qidi. Tevarak-atrofnii birgina yozuv qoplab olgandi: "Borar yering baribir yerning tagi".

U yana ko'zini ochdi. Tepadan qora-qo'ng'ir bir narsa ko'rinib turardi. Lekin hukmdor bu safar o'zining zarhal aravada yotgani yoki o'zi qurdirgan tosh zindonda yotganini, ajratolmay qoldi.

MUNDARIJA

G'ABIT MUSREPOV

So'zboshi (<i>Yergash Abdavali</i> to'v).....	3
Avtobiografik hikoya. <i>Nosir Fozilov tarjimai</i> si.....	6
Mushtipar ona. <i>Nosir Fozilov tarjimai</i> si.....	28
Etnografik hikoya. <i>Sunnatilla Anorboyev</i>	35
Halqa tumshuq. <i>Nosir Fozilov tarjimai</i> si.....	47
Qo'shchalqar. <i>Sunnatilla Anorboyev</i>	56
Tarlonlar. <i>Sunnatilla Anorboyev</i>	64
Mard ona. <i>Nosir Fozilov tarjimai</i> si.....	81
Aqlima. <i>Nosir Fozilov tarjimai</i> si.....	87
Uchrashmay ketgan bir siymo. <i>Nosir Fozilov tarjimai</i> si.....	98
Onalarning onasi. <i>H. Niyozov tarjimai</i> si.....	162
Qiron qush qo'shig'i. <i>S. Xudoyberganov tarjimai</i> si.....	172

ABISH KEKILBAYEV

Intiho. <i>Roman. Dolimjon Sayfullayev tarjimai</i> si.....	188
<i>Birinchi bo'lim</i> . Qizil olma.....	188
<i>Ikkinchi bo'lim</i> . Minorra.....	237
<i>Uchinchi bo'lim</i> . Muhabbat.....	291
<i>To'rtinchi bo'lim</i> . Intiho.....	331

G' 12 G'abit Musrepov, Abish Kekilbayev [Matn]: nasr / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Yergash Abduvalitov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 376 b.
ISBN 978-9943-8734-3-8

UO'K 821.512.122-3
KBK 84(5Qoz)



G'ABIT MUSREPOV ABISH KEKILBAYEV

76-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir: *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir: *Shuhrat Mirfoyozov*
Dizayner: *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir: *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir: *Zilola Mahkamova*
Musahhih: *Dildora Abduraimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Islom Azamatov

Tasdiqnom raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 ¹/₁₆.
Ofset qog'oz. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 23.5. Nashriyot-hisob tabog'i 22,25.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 142-1/22 Buyurtma raqami № 22-359

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.